

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№5

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar

bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o’g’li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o’g’li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

MUNDARIJA

Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budjet daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебутова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижи модели учун барқарорлик таҳлили	19
Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
Abduqayumov Elyorbek Ulug’bek o’g’li, Yo’ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o’rni va ta’siri	33
Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g’li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellashtirish	46
Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o‘g‘li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rni	80
Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o‘g‘li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish	111
Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni	150
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165
Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li	Raqamli texnologiyalar asosida budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg‘ona viloyati misolida	179
Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O’zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	Обеспечение надежности аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов	200
To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li	Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari	209
Djumaniyazov Shavkat Raximovich	Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	216
Siroj Zarina Rustambekovna	O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring tizimini takomillashtirish	223
To‘laev Safarmurod Boymuhammad o‘g‘li	Korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi	229

Эрдонаев Аликул Халимович	Банк технологиялари ва масофавий банк хизматларининг турларидан фойдаланиш амалиёти	236
Муродов Бобиржон Ҳаётжон ўғли	Иқтисодиётда яширин меҳнат ресурслари айланмаси: иш берувчиларни масъулияти ва норасмий бандликни бартараф этишнинг тизимли ечимлари	247
Abdullayeva Shaxnoza Erkinovna	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish	253
Саттаров Тулкин Абдихалилович	Қишлоқ хўжалиги корхоналарини молиявий барқарорлигини баҳолаш моделлари	261
Sanayev Javohir Shavkat o’g’li	Tijorat banklarida mijozning tranzaksion faolligiga asoslangan adaptiv tariflash mexanizmini takomillashtirish	271
Хасанов Сабирджан Садикович, Раимова Мадинабону Сабирджан кизи	Оценка экономической необходимости строительства ветроэнергетических установок в Узбекистане	278
Karimov Shohruh Ahmadullo o’g’li	O’zbekistonda buxgalteriya xizmatlari bozorining institutsional tuzilmasi: auditorlik va soliq maslahatchilari tashkilotlari reestrlari tahlili	286
Karimqulov Jasur Imomboyevich, Xojanov Baxadir Omirbayevich	Bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini integral baholash metodikasini takomillashtirish	292
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	O‘zbekiston bank tizimining miqdoriy kengayishi va moliyaviy barqarorlik normativlariga rioya etish darajasi: 2017–2025 yillar tahlili	301
Олимова Қизлархон Тўра қизи	Тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва мониторинг тизимида мавжуд муаммоларнинг тизимли ечими	308
Xolmurotov Fozil Saribayevich	Hududiy eksportning qo'shilgan qiymati va diversifikatsiya darajasini o'lchash: Xorazm viloyatida export quality index tahlili	314
Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etish, tannarxni kalkulyatsiya qilish va tahlil etish bo‘yicha xorijiy tajriba	327
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini prognozlashning ekonometrik asoslari	333
Kabilova Zebo Babakulovna	Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	341
O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li	Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv modellarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash	353
Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich	Hududlarda investitsiyalar samaradorligini qisqa panel ma’lumotlari asosida o‘rta muddatga prognozlash: Toshkent viloyati misolida	358
Akhmedova Shokhistakhon	Ways to improve sustainable financing mechanisms in Uzbekistan: capital needs, pilot instruments and scenario-based projections to 2030	368
Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li	Moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdolarni moliyalashtirish	381
Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi	Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik baholash usullari va mezonlari	388
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Sharapova Mashxura Azadovna	O‘zbekistonda monetar va fiskal siyosatning inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishga ta’siri	399
Гозиев Рзоиддин Чулпон угли, Ким Дмитрий Игнатьевич	Перестройка кадровой стратегии ритейла в эпоху цифровых технологий	406
Qodirov Humoyun Tolibjon o‘g‘li	To‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini boshqarishda eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasi	413
Abdujaborova Mahmura Toshmuxamadovna	Korxona moliyaviy holatining tizimli tahlili	419
Olimova Maftuna Komil qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar bozori talab va taklifi nomutanosibligini statistik baholash	429
Маматова Эленур Рўзимурод қизи	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини кредитлаш механизмини такомиллаштиришнинг илмий-услубий асослари	441
Xodjaniyazov Shohruh Yuldashevich	Hududiy farovonlik indeksini prognozlash: Holt modeli va qiyosiy ekonometrik baholash	450
Maxmasaidova Muslima Ubaydulla qizi	Ko‘p o’zgaruvchili regressiya modeli asosida iqtisodiy ko‘rsatgichlarning o‘zaro bog‘liqligini excel dasturi yordamida tahlil qilish	458
Юсупов А.Т.	Илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик тизимида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (методологик, услубий ва амалий жиҳатлари)	470

Shirinov Uchqun Abduxalilovich	Ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish	481
Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна	Институционально-регуляторные условия формирования цифровой модели оценки кредитоспособности заёмщиков	489
Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar moliyaviy barqarorligini integral baholashning ikki blokli modeli (Entropiya vaznlari asosida)	496
Fayazov Xasan Jaxongir ugli	Behavioral and psychological factors in ai use among 15-year-old students: learning and academic performance	504
Urazbayeva Ilmira Konisbayevna	Moliyaviy kontrolling tizimida mavjud muammolar va ularning aksiyadorlik jamiyati moliyaviy samaradorligiga ta’siri	511
Ollokulova Feruza Mansurovna	Milliy iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari	518
Isamitdinova Ra'no Rahimjanovna, Togayev Salim Sobirovich	Investitsiya loyihalari qiymati va muddati monitoringini o'zlashtirilgan qiymat usuli asosida takomillashtirish	525
Alijonov Jamshid Alijon o‘g‘li	Qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	533
Jafarova Marjona Jafarovna, Xusanova Dilorom Shavkatovna	O’zbekistonda inflatsiya darajasining pasayish sabablari	539
Axmedova Mavluda Shavkatovna	Tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va samarasizlikni ajratib baholovchi panel modellar tizimi	544
Baxromov Azizbek Alisher o‘g‘li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari	551
Гулямова Асия Нурутдиновна	Рынок рассрочки (BNPL) и розничное кредитование в Узбекистане: рост, скрытая стоимость и риски закредитованности	557
Adhamova Gulshoda Yaxyo qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida rahbarlik uslublarining jamoa samaradorligi va loyiha muvaffaqiyatiga ta’sirini baholash	563
Eshmurodov Sulton Suvonqulovich	Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining aktiv va passivlarini muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish yo‘llari	570
Alikulov Azamat Tuygunovich	O‘zbekistonda sukuk bozorini shakllanishida malayziya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari	580
Madaminov G‘ayrat Madiyarovich	Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishning xizmat samaradorligi va kadrlar barqarorligiga ta’sirini ekonometrik baholash	587
Абдуллаева Шахло Рустамовна	Цифровая трансформация бизнес-процессов как фактор повышения эффективности предприятий	593
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	Денежные переводы трудовых мигрантов как фактор макроэкономической устойчивости Республики Узбекистан: возможности и риски	601
Азимова Феруза Маликовна	Технологическое развитие регионов Узбекистана и факторы его дифференциации	607
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekiston sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	616
Azizova Zilola Lochinovna	Budjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish	626
Городилова Мария Владимировна	Цифровизация в энергетической отрасли: потенциал и инновационные тренды развития, влияние на экономику	635
Abdusalimov Lazizbek Otabek o‘g‘li	Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	645
Бобожонов Азимжон Акмал ўғли, Ортиков Нодиржон Хайруллоевич	Нақдсиз ҳисоб-китоблар трансформацияси: ПФ-246-сонли фармоннинг тадбиркорлик муҳитига ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга таъсири (Эмпирик ва институционал таҳлил	653
Norquchqorov Abdulaziz Ziyodulla o‘g‘li	Davlat oliy ta’lim tashkilotlarida smetalar ijrosi hisobining nazariy-institutsional asoslari	662
Толмачева Александра Владимировна	Внутренний контроль качества бухгалтерского учёта при аутсорсинговом обслуживании бизнеса в Узбекистане	672
Газиева Нодира Дилмуротовна	Страховой рынок Узбекистана: динамика, структура и потенциал роста проникновения страхования	678
Misirxonov Xabibxon Iskandar o‘g‘li	Sport-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishda xorijiy tajriba va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari	686
Xusan Xusainov Baratovich	Aholi tadbirkorligini kreditlashni takomillashtirishning yo‘llari	695
Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligini integral ko‘rsatkich asosida kompleks baholash metodikasi	701

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

SOLIQLARNING BUDJET DAROMADLARIDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH

Meyliyev Obid Raxmatullaevich
iqtisod fanlari doktori, professor
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: meyliev.obid0905@gmail.com
ORCID:0000-0002-8586-8858

Annotatsiya. *Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish tartibi hamda budjet daromadlari barqarorligini mustahkamlashda soliq tushumlari ahamiyatini oshirishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Budjet daromadlarini oshirishda soliqlarning amal qilish mexanizmi, shuningdek soliq tushumlarining davlat budjeti daromadlarini oshirishdagi o‘rni va ahamiyatiga baho berish, ular orqali budjet daromadlarini mustahkamlash yo‘llari asoslangan. Olib borilgan izlanishlar asosida ilmiy taklif va xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *budjet, budjet daromadlari, boshqa daromadlar, davlat budjeti, mahalliy budjet, soliqlar, soliq tushumlari, soliqli daromadlar, soliqsiz daromadlar, soliq yuki, yalpi ichki mahsulot.*

ПОВЫШЕНИЕ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В ДОХОДАХ БЮДЖЕТА

Мейлиев Обид Рахматуллаевич
доктор экономических наук, профессор
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: meyliev.obid0905@gmail.com
ORCID:0000-0002-8586-8858

Аннотация. *В статье изложены научно-практические основы формирования доходов государственного бюджета и повышения значимости налоговых поступлений для обеспечения стабильности бюджетных доходов. Рассматриваются механизм функционирования налогов и роль налоговых поступлений в увеличении доходов государственного бюджета, а также обосновываются методы укрепления бюджетной доходной базы посредством налогообложения. По результатам проведенного исследования сформулированы научные предложения и выводы.*

Ключевые слова: *бюджет, доходы бюджета, прочие доходы, государственный бюджет, местный бюджет, налоги, налоговые доходы, неналоговые доходы, налоговая нагрузка, валовой внутренний продукт.*

INCREASING THE SIGNIFICANCE OF TAXES IN BUDGET REVENUES

Meyliev Obid Rakhmatullaevich
Doctor of Economic Sciences, Professor
Tashkent State University of Economics
E-mail: meyliev.obid0905@gmail.com
ORCID:0000-0002-8586-8858

Abstract. *The article outlines the scientific and practical foundations for generating state budget revenues and enhancing the importance of tax receipts in ensuring the stability of budget revenue. It examines the mechanism of taxation and the role of tax receipts in increasing state budget revenue, while also substantiating methods to strengthen the budget revenue base through taxation. Based on the study's findings, scientific proposals and conclusions are formulated.*

Keywords: *budget, budget revenues, other revenues, state budget, local budget, taxes, tax revenues, non-tax revenues, tax burden, gross domestic product.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini samarali amalga oshirishi, avvalo, budjet tizimining barqaror moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liqdir. Davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai sifatida soliqlar mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini ta’minlash hamda infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashuv jarayonlari, iqtisodiy inqirozlar, tashqi savdo munosabatlaridagi o‘zgarishlar hamda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi davlat moliyasini boshqarishga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Bunday sharoitda davlat budjetining daromad bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta’minlash muhim vazifaga aylanmoqda. Mazkur vazifani amalga oshirishda soliqlar davlat budjetining eng ishonchli va doimiy manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida soliq-budjet siyosatini takomillashtirish, soliq ma’murchiligini raqamlashtirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va soliq to‘lovchilar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning asosiy maqsadi davlat budjeti daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minlash, budjet taqchilligini maqbul darajada ushlab turish hamda iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan soliq tushumlarining budjet daromadlaridagi ulushi, ularning tarkibi va dinamikasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, davlat xarajatlarining ortishi aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, hududlarni kompleks rivojlantirish va strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojning o‘sib borishi soliqlarning budjet daromadlaridagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bunda soliq yukini iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan darajada saqlagan holda budjet tushumlarini ko‘paytirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, soliqlarning budjet daromadlaridagi ahamiyatini tadqiq etish, ularning davlat moliyasini shakllantirishdagi o‘rnini baholash hamda budjet daromadlarini oshirishning samarali soliq mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyot sharhi

Soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati iqtisodiy fanning eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan turli davrlarda tadqiq etilgan bo‘lib, ularning ilmiy qarashlari zamonaviy soliq-budjet siyosatini shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va davlat moliyasi tizimidagi o‘rni dastlab klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, ingliz iqtisodchisi Adam Smit o‘zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot» asarida davlatning iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish uchun soliqlar zarurligini asoslab bergan. U tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortishning adolatlilik, aniqlik, qulaylik va tejamkorlik tamoyillari hozirgi soliq tizimlari uchun ham nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. A.Smitning fikricha, soliqlar davlat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan daromadlarni ta’minlashi bilan birga iqtisodiy faollikni cheklab qo‘ymasligi lozim[1].

Davlat xarajatlari va soliqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq qilishda nemis iqtisodchisi Adolf Vagnerning hissasi katta hisoblanadi. Uning davlat faoliyatining kengayishi to‘g‘risidagi qonuniga ko‘ra, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida davlat funksiyalari kengayadi va bu davlat xarajatlarining o‘sishiga olib keladi. Natijada budjet daromadlarining asosiy manbai sifatida

soliq tushumlarini oshirish zarurati paydo bo‘ladi. Vagner davlat budjeti barqarorligini ta’minlashda soliqlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [2].

Zamonaviy davlat moliyasi nazariyasining asoschilaridan biri R. Masgreyv davlat moliyasining allokatsiya, taqsimlash va barqarorlashtirish funksiyalarini ajratib ko‘rsatgan. Uning ta’limotiga ko‘ra, soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir qatorda milliy daromadni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifalarini ham bajaradi. Masgreyv soliq siyosatining samaradorligi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish imkoniyatlarini belgilab berishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [3].

Nobel mukofoti laureati J. Stiglis davlat moliyasi sohasidagi tadqiqotlarida soliqlarning iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratgan. Olimning fikricha, samarali soliq tizimi davlat xarajatlarini moliyalashtirish bilan birga resurslar taqsimotining samaradorligini oshirishi va iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishi lozim. Shuningdek, soliq siyosatining shaffofligi va samaradorligi budjet daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi[4].

Xarvi Rozen va Ted Gayer kabi olimlar davlat moliyasi sohasidagi tadqiqotlarida soliqlarni davlat sektorining asosiy moliyaviy manbai sifatida baholaydilar. Ularning ilmiy ishlarida soliq tushumlari bilan davlat xarajatlari o‘rtasidagi mutanosiblik, budjet taqchilligi va davlat qarzining shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari keng yoritilgan[5].

Rossiyalik olim I.A.Mayburov soliqlarni davlat moliyasining markaziy elementi sifatida baholab, soliq tizimining samaradorligi davlat budjeti barqarorligiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlarida soliq ma’murchiligi, soliq yuki va budjet daromadlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tahlil qilingan[6].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, professorlar A. Vahobov va A.Jo‘rayev tomonidan chop etilgan «Soliqlar va soliqqa tortish» nomli darsligida soliqlarning davlat moliya tizimidagi, shuningdek soliqlarning davlat budjetidagi ahamiyati va o‘rnini asoslab bergan.

Mualliflar ta’kidlashicha, “iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi usuli hisoblanadi. Davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog‘liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbai hisoblanadi”[7]. Mazkur yondashuv soliqlarning nafaqat fiskal ahamiyatini, balki davlat iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashdagi strategik rolini ham ochib beradi. Olimlarning fikricha, davlatning barqaror faoliyati va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishi ko‘p jihatdan soliq tushumlarining yetarli darajada shakllantirilishiga bog‘liq.

Professorlar T.Malikov va N.Haydarovlarning ilmiy ishlarida soliqlarning iqtisodiy mazmuni, funksiyalari va davlat budjetini shakllantirishdagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Olim soliqlarni davlat moliyasining asosiy manbai sifatida baholab, ularning fiskal funksiyasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi [8].

Shuningdek, amaliyotchi Sh. Gataullin qarashlarida “Soliqlar – bu davlat sarf-xarajatlarining asosiy manbai bo‘lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqarorlashtiruvchi vositadir. Soliqlar davlat budjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi” [9]

Tadqiqot metodologiyasi

Soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirish va oshirishdagi ahamiyati hamda budjetlar daromadlarini mustahkamlashda soliq tushumlarining amaldagi holatiga baho berishda ilmiy o‘rganish, mantiqiylik, tizimli tahlil va ilmiy abstraksiya, statistik tahlil, qiyoslash kabi usullardan foydalanilgan.

Bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan soliq tushumlarining budjet daromadlaridagi o‘rni va

ahamiyatini oshirishga oid qarashlarida budjet daromadlari barqarorligini ta’minlash va budjet tizimi budjetlari muvozanatiga erishish, shuningdek soliq yuki darajasini kamaytirish asosida budjet daromadlari barqarorligi uchun mablag‘larni shakllantirish usul va vositalari, soliq tushumlari barqarorligi nuqtai-nazaridan yondashilgan.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda budjet daromadlarini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Soliq siyosatini optimallashtirish, shuningdek soliq tushumlari barqarorligini ta’minlashga oid huquqiy-normativ baza va me’yorlar doimiy takomillashtirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlar natijasi ularoq budjet daromadlarining muntazam ortib borishiga erishilmoqda.

1-jadval.

Soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi ahamiyatining o‘zgarish dinamikasi, trln.so‘mda*

T/r	Daromadlar	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y	2025 y
Bevosita soliqlar		31,7	45,2	58,9	64,4	73,1	90,8	117,8
1.	Foyda solig‘i	16,4	28,7	38,4	37,6	40,8	52,6	72,3
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	2,0	1,4	1,6	2,5	2,4	2,8	3,1
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	12,7	15,1	18,9	24,3	29,9	35,4	42,4
Bilvosita soliqlar		46,4	46,4	56,3	71,4	83,3	88,3	109,8
4.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	33,8	31,2	38,4	52,2	57,9	59,3	76
5.	Aksiz solig‘i	10,3	11,7	13,1	13,5	15,8	19,1	21,9
6.	Bojxona boji	2,3	3,6	4,8	5,7	9,6	10,0	11,9
Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i		19,7	21,3	23,0	23,9	28,1	36,4	44,9
7.	Mol-mulk solig‘i	2,4	2,0	2,5	4,0	5,1	6,8	8
8.	Yer solig‘i	2,3	2,4	4,1	5,3	6,9	8,2	10
9.	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	14,7	16,4	15,8	13,9	15,3	20,2	25,8
10.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,3	0,5	0,7	0,7	0,8	1,2	1,4
Boshqa daromadlar		14,4	20,0	26,5	42,1	47,2	58,9	87,3
JAMI		112,2	132,9	164,8	201,9	231,7	274,4	359,8

* https://new.openbudget.uz/uz/state-budget/incomes ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Tahlil etilayotgan yillarda davlat budjeti daromadlari 3,2 (359,8/112,2) barobarga ortgani holda, soliq tushumlari 2,8 (272,5/97,8) barobarga ortgan, boshqa daromadlar esa 6,0 (87,3/14,4) barobarga ortgan. Mazkur yillarda boshqa daromadlarning o‘sishi soliqli daromadlarga nisbatan birmuncha yuqori bo‘lmoqda.

Mazkur yillarda bevosita soliqlar tushumi 3,7 (117,8/31,7) barobarga ortgani holda, bilvosita soliqlardan tushumlar 2,4 (109,8/46,4) barobarga ortgan. Ma’lumki, so‘nggi yillarda aholini qo‘llab-quvvatlash, ularning yashash faravonligi hamda daromadlarini oshirish maqsadida tovar, ish va xizmatlar ustiga qo‘llaniladigan soliqlar, ya’ni bilvosita soliqlarning ulushini qisqartirish borasida tizimli chora-tadbirlar natijasidir.

Tahlil etilayotgan yillarda resurs to‘lovlari va mulk solig‘idan tushumlar 2,3 (44,9/19,7) barobarga ortib, tahlil etilayotgan yillarda eng kam usish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Respublikada resurslarning cheklanganlik holatida ulardan samarali va tejab-tergab foydalanish uchun resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘ining ahamiyatini oshirish lozim.

2025-yilda Davlat budjeti daromadlari 359,8 trln so‘mni tashkil etib, 2024 -yilga nisbatan

85,4 trln so‘mga (+31,1 foiz) ko‘p bo‘ldi. Jumladan, soliq qo‘mitasi tomonidan 247,8 trln so‘m (jami tushumga nisbatan 68,9 foiz); bojxona qo‘mitasi tomonidan 76,2 trln so‘m (jami tushumga nisbatan 21,2 foiz, shundan QQS bo‘yicha o‘zaro hisobga olingan summa 5,2 trln so‘m) shakllantirildi.

Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan tushumlar 35,8 trln so‘mni tashkil qilib, 2025-yilda qo‘shilgan qiymat solig‘idan manfiy farqni qoplash uchun soliq to‘lovchilarga 27,4 trln so‘m miqdorida (2024-yil bilan solishtirganda 1,9 trln so‘m kam) qo‘shilgan qiymat solig‘i va 1,9 trln so‘m miqdorida kesh-bek summalari qaytarib berildi.

Mahalliy budjetlarda 2025 yilda 11,6 trln so‘m (o‘tkazib beriladigan daromad bilan birga) qo‘shimcha daromad shakllandi. Jumladan, Toshkent shahri 4,7 trln so‘m, Toshkent viloyati 1,1 trln so‘m, Farg‘ona viloyati 941 mlrd so‘m, Qashqadaryo viloyati 820 mlrd so‘m Samarqand viloyati 808 mlrd so‘m va Andijon viloyati 486 mlrd so‘m daromad shakllandi.

Soliqlarning budjet daromadlaridagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganishda uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini tahlil etish lozim.

1-chizma.

Soliq tushumlarining YaIMga nisbati, foizda*



* Muallif tomonidan tayyorlandi.

Mamlakat YaIM hajmi 2020 yildagi 705,1 trln so‘mdan 2025 yilda 1 849,7 trln so‘mga yetgan, ya’ni nominal hajm qariyb 2,6 barobar oshgan. 2020–2025 yillar bo‘yicha YaIMning real o‘sish sur’atlari utgan yillrga nisbatan mos ravishda 1,6%, 8,2%, 6,1%, 6,3%, 6,7% va 7,7%ni tashkil etgan. 2020–2025 yillarda O‘zbekistonda soliq yuki 16,9% dan 14,6% gacha, ya’ni 2,3 foiz punktga pasaygan. Eng yuqori ko‘rsatkich 2020 yilda, eng past ko‘rsatkich esa 2025 yilda qayd etilgan.

2-jadval.

Budjet daromadlari barqarorligini ta’minlashda soliq tushumlari ahamiyatini oshirish istiqbollari*

№	Muammo	Ilmiy taklif	Joriy etish mexanizmi	Kutilayotgan natija
1	Budjet daromadlarini prognozlashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va soliq bazasi o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarlicha kompleks hisobga olinmasligi	Soliq tushumlarini o‘rta muddatli ekonometrik prognozlash modelini joriy etish	YaIM, inflyatsiya, ish haqi fondi, import, eksport, aholi daromadlari, iste’mol va tarmoqlar kesimidagi qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari asosida har bir asosiy soliq turi bo‘yicha prognoz modeli ishlab chiqiladi.	Budjet daromadlari prognozining aniqligi oshadi, reja va amaldagi tushumlar o‘rtasidagi farq qisqaradi, budjet parametrlarini oldindan asoslash imkoniyati kuchayadi
2	Budjet daromadlari barqarorligi asosan tushumlarning o‘sish	“Soliq tushumlari barqarorligi indeksi”ni joriy	Indeks tarkibiga soliq tushumlarining YaIMga nisbati, variatsiya	Budjet daromadlarining barqarorligi yagona kompleks mezon asosida

	sur’ati bilan baholanib, ularning tashqi va ichki shoklarga sezgirligi yetarlicha o‘lchanmasligi	etish	koeffitsienti, soliq bazasining o‘sishi, soliq qarzdorligi, imtiyozlar ulushi va yirik soliq to‘lovchilar konsentratsiyasi kabi ko‘rsatkichlar kiritiladi	baholanadi va fiskal risklarni oldindan aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi
3	Soliq tushumlarini oshirishda ekstensiv yondashuv, ya’ni stavkalarni oshirishga tayanish soliq yukining ortishi va iqtisodiy faollikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin	Soliq stavkalarini oshirishdan ko‘ra soliq bazasini kengaytirishga asoslangan fiskal mexanizmni shakllantirish	Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, norasmiy bandlikni legallashtirish, elektron hisob-faktura va onlayn-kassa ma’lumotlarini integratsiyalash, raqamli to‘lovlarni kengaytirish orqali soliq bazasi kengaytiriladi	Qo‘shimcha soliq tushumlari soliq yukini keskin oshirmasdan shakllanadi; soliq to‘lovchilar qamrovi kengayadi
4	Soliq imtiyozlarining budjet daromadlariga ta’siri va iqtisodiy natijasi o‘rtasidagi nisbatni muntazam baholash mexanizmi yetarlicha samarali emas	Soliq imtiyozlarini “xarajat–natija” tamoyili asosida baholash tizimini joriy etish	Har bir imtiyoz budjetning boy berilgan daromadi hisoblanadi va uning investitsiya, eksport, ish o‘rinlari, ishlab chiqarish va kelgusi soliq bazasiga ta’siri baholanadi.	Budjet daromadlarining asossiz kamayishi cheklanadi, samarali imtiyozlar saqlanadi, soliq preferensiyalarining iqtisodiy qaytimi oshadi
5	Budjet tushumlarining ayrim soliq turlari va tashqi iqtisodiy kon’yunkturaga yuqori darajada bog‘liqligi daromadlar barqarorligiga xavf tug‘diradi	Budjet soliq tushumlarini diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish	Ichki iqtisodiy faollikka bog‘liq bo‘lgan barqaror soliq manbalari — JShDS, QQS, foyda, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar bazasini kengaytirish; resurs va tashqi savdoga bog‘liq tushumlar konsentratsiyasini monitoring qilish	Tashqi narxlar, import va eksportdagi o‘zgarishlarning budjet daromadlariga ta’siri pasayadi; daromadlar tarkibi barqarorlashadi
6	Soliq, bojxona, kadastr, statistika, bank va mehnat ma’lumotlarining to‘liq integratsiya qilinmaganligi soliq bazasini aniqlash imkoniyatlarini cheklaydi	Yagona raqamli fiskal ma’lumotlar platformasini shakllantirish	Soliq organlari, bojxona, kadastr, bank, statistika va elektron hisob-faktura ma’lumotlarini integratsiyalash; ma’lumotlar asosida avtomatik “soliq profili”ni shakllantirish	Soliq bazasi to‘liqroq aniqlanadi, deklaratsiyalardagi tafovutlar avtomatik aniqlanadi, soliqdan bo‘yin tovlash imkoniyatlari qisqaradi
7	Hududlarning soliq salohiyati o‘rtasidagi farqlar hamda amaldagi tushumlar o‘rtasidagi tafovut yetarlicha hisobga olinmasligi	Har bir hudud uchun “soliq salohiyati pasporti” va soliq potensialidan foydalanish koeffitsientini joriy etish	Hududning YaIM/YaHM, aholi daromadlari, tadbirkorlik sub’ektlari, sanoat, xizmatlar, qurilish, ko‘chmas mulk va investitsiya salohiyati asosida potensial soliq tushumi hisoblanadi. Amaldagi tushum bilan taqqoslanadi	Hududlarning yashirin soliq zaxiralari aniqlanadi, mahalliy budjetlar daromadlari oshadi, hududlararo fiskal nomutanosiblik qisqaradi

***** Muallif tomonidan tayyorlandi.

Davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta’minlash soliq tushumlarini mexanik ravishda oshirish emas, balki soliq bazasini kengaytirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, soliq ma’murchiligini raqamlashtirish, soliq imtiyozlarining natijaviyligini baholash va budjet daromadlarini diversifikatsiya qilishga asoslangan kompleks fiskal mexanizmni shakllantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, budjet daromadlarini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishi mavjud soliq bazasining qamrovini kengaytirish va uning iqtisodiy o‘sish bilan mutanosib ravishda rivojlanishini ta’minlashdan iborat bo‘lishi lozim. Bu yondashuv budjet daromadlarining barqarorligini oshirish bilan bir qatorda, soliq yukining iqtisodiy faollikka salbiy ta’sirini cheklash

imkonini ham beradi.

Xulosa

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish hamda budjet daromadlari barqarorligini mustahkamlashda soliq tushumlari ahamiyatini oshirishning quyidagi yo‘llari tavsiya etiladi.

1. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bir yillik prognozlashtirishdan ko‘ra o‘rta muddatli, uch yillik fiskal prognozlashtirish tizimini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Bunda soliq tushumlarining prognoz hajmi yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, ish haqi fondi, import hajmi, eksport tushumlari, aholi daromadlari va tarmoqlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat dinamikasi bilan o‘zaro bog‘langan holda hisoblanishi lozim.

2. Soliq tushumlari barqarorligini baholashning maxsus indikatorlar tizimini joriy etish. Budjet daromadlari barqarorligini faqat tushumlarning o‘sish sur’ati bilan baholash yetarli emas. Shu sababli “soliq tushumlari barqarorligi indeksi”ni joriy etish lozim.

3. Hududiy budjetlarning soliq salohiyatini oshirish. Hududlar budjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash uchun har bir viloyat, tuman va shaharning soliq salohiyati pasportini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

4. Soliq qarzdorligini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Soliq qarzdorligini faqat majburiy undirish orqali emas, balki qarzdorlikning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish asosida boshqarish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adam Smith.The Wealth of Nations. W. Strahan and T. Cadell, London.1776
2. Wagner, Adolph. Grundlegung der politischen oekonomie. Leipzig : C.F. Winter'sche verlagshandlung.1883
3. Ричард Масгрейв. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy.1959
4. Джозеф Стиглиц. Цена неравенства.Чем расслоение общества грозит нашему будущему.Эксмо.2015.
5. Harvey S. Rosen, Ted Gayer. Public Finance, Global Edition.2014
6. Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. М.: ЮНИТИ-ДАНА,2012.
7. Ваҳобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш. – Т.: Шарқ, 2009. – Б. 8.
8. Маликов Т.С., Ҳайдаров Н.Ҳ. Давлат бюджети. – Тошкент: «IQTISOD-MOLIYA
9. Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. 1996.
10. https://www.imv.uz- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi sayti.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ КАПИТАЛ БАЗАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ МЕТОДОЛОГИК ВА АМАЛИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи

катта ўқитувчи PhD
банк ҳисоби ва аудит кафедраси
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
E-mail: mirzayevamatluba76@gmail.com
ORCID: 0009-0005-8019-4195

Аннотация. *Мазкур мақолада тижорат банклари капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асослари тадқиқ этилган. Капитал етарлилиги коэффициентларининг халқаро стандартлари, миллий банк тизимидаги амалиёт таҳлил қилинган, капитални шакллантириш манбаларини диверсификациялаш, дивиденд сиёсати ва субординацион қарз воситаларидан фойдаланиш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *тижорат банки, капитал база, капитал етарлилиги, Базель III, субординацион қарз, дивиденд сиёсати, банк рискари, устав капитали, захира капитали, капитализация, банк тизими барқарорлиги, рентабеллик.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ И ПРАКТИЧЕСКИХ ОСНОВ УКРЕПЛЕНИЯ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Мирзаева Матлуба Гайбулла кизи

старший преподаватель, PhD
кафедра банковский учет и аудит
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: mirzayevamatluba76@gmail.com
ORCID: 0009-0005-8019-4195

Аннотация. *В статье исследованы методологические и практические основы укрепления капитальной базы коммерческих банков. Проанализированы международные стандарты достаточности капитала и практика национальной банковской системы, разработаны предложения по диверсификации источников формирования капитала, дивидендной политике и использованию субординированных долговых инструментов.*

Ключевые слова: *коммерческий банк, капитальная база, достаточность капитала, Базель III, субординированный долг, дивидендная политика, банковский риск, уставный капитал, резервный капитал, капитализация, устойчивость банковской системы, рентабельность.*

IMPROVING THE METHODOLOGICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS FOR STRENGTHENING THE CAPITAL BASE OF COMMERCIAL BANKS

Mirzayeva Matluba Gaybulla kizi

Senior Lecturer, PhD
Department of “Banking Accounting and Audit”
Tashkent State University of Economics
E-mail: mirzayevamatluba76@gmail.com
ORCID: 0009-0005-8019-4195

Abstract. *This article examines the methodological and practical foundations for strengthening the capital base of commercial banks. International capital adequacy standards and national banking practice are analyzed, and proposals are developed for diversifying capital formation sources, dividend policy, and the use of subordinated debt instruments.*

Keywords: *commercial bank, capital base, capital adequacy, Basel III, subordinated debt, dividend policy, banking risk, authorized capital, reserve capital, capitalization, banking system stability, profitability.*

Кириш

Ҳозирги кунда молиявий бозорларнинг глобаллашуви, рақобатнинг кучайиши ва иқтисодий ноаниқликларнинг ортиб бориши шароитида тижорат банкларининг барқарорлиги ва ишончлилигини таъминлашда капитал базанинг мустаҳкамлиги алоҳида аҳамият касб этмоқда. Банк капитали нафақат мижозлар ва кредиторлар олдидаги мажбуриятларни қоплаш воситаси, балки банк фаолиятини кенгайтириш, янги молиявий маҳсулотларни жорий этиш ва рискларни бошқариш имкониятларини оширувчи асосий омил ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида банк тизимини ислоҳ қилиш ва рақобатбардошлигини ошириш бўйича қабул қилинган давлат дастурлари, жумладан, банк-молия соҳасини янада эркинлаштириш ва хусусийлаштириш борасидаги чора-тадбирлар дастурлари, тижорат банкларининг капиталлашув даражасини ошириш, уларнинг халқаро стандартларга мослигини таъминлаш вазифасини долзарб масала сифатида белгилаб бермоқда. Айниқса, Базель қўмитасининг капитал етарлилиги бўйича талаблари (Базель III) миллий банк тизимида изчил жорий этилаётган бир пайтда, банкларнинг ички захираларини кучайтириш, капитал сифатини яхшилаш ва капитал шакллантириш манбаларини диверсификациялаш зарурати юзага келмоқда.

Мавзунинг долзарблиги шундан иборатки, кўпгина тижорат банклари, айниқса кичик ва ўрта миқёсдаги банклар, капитал етарлилиги коэффициентларини меъёрий даражада ушлаб туриш билан боғлиқ муаммоларга дуч келмоқда. Бунга банк фойдасининг паст даражаси, дивиденд тўловларининг устав капиталини камайтириши, ташқи капитал жалб қилиш имкониятларининг чекланганлиги ва миллий фонд бозорининг етарли даражада ривожланмаганлиги каби омиллар сабаб бўлмоқда.

Мазкур тадқиқотнинг мақсади тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик асосларини чуқур таҳлил қилиш ҳамда амалиётда қўлланилиши мумкин бўлган аниқ таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат. Тадқиқот вазифалари сифатида қуйидагилар белгиланди: банк капитали тушунчаси ва унинг таркибий элементларини назарий жиҳатдан ёритиш; капитал етарлилигини баҳолашнинг халқаро ва миллий методологияларини қиёсий таҳлил қилиш; миллий тижорат банклари мисолида капиталлашув даражасининг амалдаги ҳолатини таҳлил қилиш; капитал базасини мустаҳкамлаш бўйича илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқиш.

Адабиётлар шарҳи

Банк капитали ва унинг етарлилиги масалалари жаҳон иқтисодий адабиётида кенг ўрганилган мавзулардан бири ҳисобланади. Хорижий иқтисодчилардан Ж.Синки, П.Роуз, Э.Гилл каби олимлар ўз асарларида банк капиталининг моҳияти, функциялари ва уни бошқариш усулларини атрофлича ёритиб берган. Хусусан, банк капиталининг асосий функциялари сифатида ҳимоя (буфер) функцияси, оперетив функция ва тартибга солувчи функция ажратиб кўрсатилади [1].

Базель банк назорати қўмитасининг 1988 йилдаги биринчи келишуви (Базель I)дан бошлаб, капитал етарлилигини баҳолашнинг халқаро стандартлари изчил такомиллаштириб борилган. Базель II ва Базель III ҳужжатларида капитал таркибига қўйиладиган талаблар кучайтирилиб, биринчи даражали капитал (Tier 1), иккинчи даражали капитал (Tier 2) ва қўшимча буфер капитал (capital conservation buffer, countercyclical buffer) тушунчалари жорий этилди [2]. Бу борада, айниқса, глобал молиявий инқироз (2008-2009 йй.) сабоқлари асосида банк капиталининг сифати ва ликвидлилигига қўйиладиган талаблар сезиларли даражада қаттиқлаштирилгани таъкидланади.

МДҲ мамлакатлари ва Марказий Осиё минтақаси иқтисодчилари, жумладан рус олимлари О.И.Лаврушин, Г.Г.Коробова ҳамда ўзбек иқтисодчилари Ш.З.Абдуллаева, Т.М.Каранина, Б.Ю.Ходиев ва бошқалар томонидан тижорат банклари капитал базасини мустаҳкамлаш масалалари миллий иқтисодиёт хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тадқиқ этилган. Уларнинг тадқиқотларида ривожланаётган бозор иқтисодиёти шароитида банк капиталини шакллантиришнинг ички (ажратилмаган фойда, захира жамғармалари) ва ташқи (қимматли қоғозлар чиқариш, субординацион қарз, чет эл инвестициялари) манбаларини уйғунлаштириш зарурлиги алоҳида таъкидланади [3].

Америка ва Европа банк тизимлари тажрибасини ўрганиш шуни кўрсатадики, ривожланган мамлакатларда банк капиталини мустаҳкамлашнинг асосий воситаларидан бири сифатида конвертацияланувчи облигациялар (contingent convertible bonds, CoCo bonds) кенг қўлланилади. Бундай воситалар банк капитали белгиланган чегарадан пасайган тақдирда автоматик равишда акцияларга айланиб, банкнинг капитал буферини тиклашга хизмат қилади [2]. Марказий ва Шарқий Европа мамлакатлари банк тизимларида эса, асосан, хорижий бош банклар томонидан амалга ошириладиган капитал киритиш (capital injection) амалиёти устувор бўлиб, бу минтақа банкларининг юқори капиталлашув даражасини таъминлаган.

Шу билан бирга, мавжуд адабиётларда капитал базасини мустаҳкамлашнинг амалий механизмлари, хусусан, миллий банк тизимида дивиденд сиёсатини оптималлаштириш, субординацион облигациялар бозорини ривожлантириш ҳамда давлат иштирокидаги банкларнинг хусусийлаштирилиши жараёнида капиталлашув муаммоларини ҳал этиш масалалари етарли даражада ёритилмаган, деб ҳисоблаймиз. Бу ҳолат мазкур тадқиқотнинг илмий янгилигини белгилайди.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқот жараёнида умумилмий ва хусусий тадқиқот усулларидан фойдаланилди. Хусусан, назарий материалларни тизимлаштириш ва умумлаштиришда мантиқий таҳлил ва синтез усуллари, статистик маълумотларни таҳлил қилишда қиёсий таҳлил, динамик таҳлил ва коэффициентлар усули, шунингдек, графикали ва жадвалли тасвирлаш усулларидан фойдаланилди.

Тадқиқотнинг ахборот базасини Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистик маълумотлари, тижорат банкларининг йиллик молиявий ҳисоботлари, Базель банк назорати қўмитасининг меъёрий ҳужжатлари ҳамда халқаро молия институтлари (Жаҳон банки, Халқаро валюта фонди)нинг таҳлилий шарҳлари ташкил этди.

Капитал етарлилигини баҳолашда асосий кўрсаткич сифатида капитал етарлилиги коэффициенти (КЕК) қўлланилди, у қуйидаги формула орқали ҳисобланади: КЕК = (Умумий капитал / Рискка тортилган активлар) × 100%. Ушбу кўрсаткич миллий меъёрий талабларга (камида 13%) ва Базель III стандартларига (камида 10,5%, буфер капитал ҳисобга олинган ҳолда) мослиги нуқтаи назаридан таҳлил қилинди.

Шунингдек, тадқиқотда капиталнинг таркибий тузилишини баҳолаш учун биринчи даражали капитал улуши, устав капиталининг умумий капиталдаги улуши, ажратилмаган фойданинг капиталлашув даражасига таъсири каби кўрсаткичлардан фойдаланилди. Таҳлил учун 2021-2025 йиллар давомидаги миллий тижорат банкларининг йиғма молиявий кўрсаткичлари асос қилиб олинди.

Таҳлил ва натижалар

Ўзбекистон банк тизимининг сўнгги йиллардаги ривожланиш динамикаси таҳлили шуни кўрсатадики, тижорат банкларининг умумий капитали изчил ўсиб бормоқда, бироқ бу ўсиш асосан давлат иштирокидаги йирик банклар ҳисобига таъминланмоқда. Хусусий ва хорижий капитал иштирокидаги банкларнинг капиталлашув суръати нисбатан секинроқ кечмоқда, бу эса банк тизимида капитал тақсимотининг номутаносиблигини келтириб

чиқармоқда.

Капитал етарлилиги коэффициенти бўйича таҳлил шуни кўрсатадики, кўпчилик йирик тижорат банклари меъёрий талабдан юқори кўрсаткичларга эга, аммо баъзи ўрта ва кичик банкларда бу кўрсаткич меъёрий чегарага яқинлашган ҳолатлар кузатилмоқда. Бунинг асосий сабаби сифатида кредит портфелининг тезкор ўсиши натижасида рискка тортилган активлар ҳажмининг капитал ўсиш суръатидан юқори бўлиши кўрсатилиши мумкин.

Банк капиталининг таркибий тузилиши таҳлили шуни кўрсатадики, устав капитали умумий капиталнинг катта қисмини ташкил этади, ажратилмаган фойда ва захира жамғармаларининг улуши эса нисбатан паст. Бу ҳолат банкларнинг ички манбалар ҳисобига капиталлашуви заифлигидан, шунингдек, дивиденд сиёсатининг устувор бўлиб, фойданинг сезиларли қисми акциядорларга тарқатилаётганидан далолат беради.

Субординацион қарз воситаларидан фойдаланиш амалиёти миллий банк тизимида ҳали кенг тарқалмаган. Хорижий тажрибада субординацион облигациялар иккинчи даражали капитални шакллантиришнинг муҳим манбаи ҳисобланади, бироқ миллий фонд бозорининг чуқур эмаслиги ва инвесторлар базасининг чекланганлиги бу воситанинг кенг қўлланилишига тўсқинлик қилмоқда.

1-жадвалда келтирилган шартли маълумотлар миллий тижорат банклари гуруҳларининг капитал етарлилиги кўрсаткичлари динамикасини иллюстрация қилади. Кўриниб турибдики, йирик банклар гуруҳида капитал етарлилиги коэффициенти барқарор равишда меъёрий даражадан юқори сақланиб турибди, ўрта банклар гуруҳида эса сўнгги йилларда пасайиш тенденцияси кузатилмоқда, бу ҳолат уларда капиталлаштиришнинг қўшимча чора-тадбирларини талаб этади.

1-жадвал.

Банк гуруҳлари бўйича капитал етарлилиги коэффициенти динамикаси, % (шартли маълумотлар)*

Банк гуруҳи	2022 й.	2023 й.	2024 й.	2025 й.
Йирик банклар (давлат иштирокидаги)	17,8	18,2	17,5	18,0
Ўрта банклар (хусусий капитал)	15,1	14,3	13,6	13,2
Кичик банклар	14,6	13,9	13,1	12,8
Банк тизими бўйича ўртача	16,2	16,0	15,4	15,6

**Манба: муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг очиқ статистик маълумотлари асосида тузилган.*

Хорижий инвестицияларнинг банк капиталига жалб қилиниши борасида ҳам муайян муаммолар мавжуд. Хусусан, миллий банк тизимидаги хусусийлаштириш жараёнларининг секинлиги, инвестиция муҳитининг нисбатан юқори риск даражаси билан боғлиқлиги хорижий стратегик инвесторларнинг банк капиталига киритиладиган маблағлари ҳажмини чеклаб қўймоқда.

Банкларнинг активлар рентабеллиги (ROA) ва капитал рентабеллиги (ROE) кўрсаткичлари таҳлили шуни кўрсатадики, паст рентабеллик даражасига эга банклар ўз фойдаси ҳисобига капиталлашув суръатини ошириш имконига эга эмас. Бу ўз навбатида уларни ёки ташқи капитал жалб қилишга, ёки активлар ва кредит портфели ўсиш суръатини секинлаштиришга мажбур қилади. Шунингдек, инфляция даражасининг юқорилиги шароитида банк капиталининг реал қиймати эрозияга учраши, яъни номинал капитал ўсиши билан бирга унинг сотиб олиш қобилияти пасайиши ҳолати ҳам кузатилмоқда, бу эса капитал етарлилигини нафақат номинал, балки реал кўрсаткичлар асосида ҳам баҳолаш заруратини кўрсатади.

Ўтказилган таҳлил натижасида капитал базасини мустаҳкамлашнинг қуйидаги

йўналишлари асосланди: биринчидан, банкларнинг ажратилмаган фойдани капиталлаштириш амалиётини кенгайтириш, яъни дивиденд сиёсатини капитал етарлилиги кўрсаткичлари билан боғлаган ҳолда, юқори риск даражасидаги банкларда дивиденд тўловларини вақтинча чеклаш механизмини жорий этиш; иккинчидан, субординацион облигациялар бозорини ривожлантириш мақсадида институционал инвесторлар (пенсия жамғармалари, суғурта компаниялари) учун қулай солиқ ва меъёрий шароитлар яратиш; учинчидан, давлат иштирокидаги банкларни халқаро молия институтлари билан ҳамкорликда босқичма-босқич хусусийлаштириш орқали хорижий капитал жалб қилиш имкониятларини кенгайтириш; тўртинчидан, кичик ва ўрта банкларнинг бирлашуви (M&A) орқали капиталлашув даражасини ошириш механизмларини рағбатлантириш; бешинчидан, банкларда рискка асосланган капитал бошқаруви тизимини (ICAAP) жорий этишни кучайтириш.

Хулоса

Ўтказилган тадқиқот натижасида шундай хулосага келиш мумкинки, тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлаш банк тизими барқарорлигини таъминлашнинг энг муҳим шартларидан бири ҳисобланади. Миллий банк тизимида капиталлашув даражасини ошириш учун нафақат меъёрий-ҳуқуқий базани такомиллаштириш, балки капитал шакллантиришнинг амалий механизмларини диверсификациялаш зарур.

Тадқиқот давомида аниқланган асосий муаммолар — капитал тақсимотидаги номутаносиблик, ички манбалар ҳисобига капиталлашувнинг заифлиги, субординацион қарз бозорининг ривожланмаганлиги ва хорижий инвестицияларнинг чекланганлиги — комплекс ёндашув асосида ҳал этилиши лозим.

Тавсия этилган чора-тадбирлар, жумладан, риск даражасига боғлиқ дивиденд сиёсати, субординацион облигациялар бозорини ривожлантириш, хусусийлаштириш жараёнларини жадаллаштириш ва рискка асосланган капитал бошқаруви тизимини жорий этиш, миллий тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлаш ҳамда уларнинг халқаро стандартларга мослигини таъминлашга хизмат қилади.

Шунингдек, конвертацияланувчи облигациялар каби инновацион молиявий воситаларни миллий амалиётга босқичма-босқич жорий этиш, банк назорати органлари томонидан капитал сифатини мунтазам стресс-тестлар орқали баҳолаш ва банкларнинг узоқ муддатли капиталлаштириш стратегиясини ишлаб чиқишни мажбурий тартибга солиш тавсия этилади. Келгусидаги тадқиқотларда мазкур таклифларнинг амалиётга жорий этилиши натижаларини эмпирик баҳолаш, шунингдек, турли банк гуруҳлари учун капиталлашув моделларини эконометрик усулларда синаш долзарб йўналиш бўлиб қолади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management. – New Jersey: Pearson, 2019. – 784 p.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. – Basel: BIS, 2011.
3. Абдуллаева Ш.З. Банк иши. Дарслик. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. – 512 б.
4. Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. – М.: КНОРУС, 2020. – 800 с.
5. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий сайти. – URL: https://cbu.uz
6. Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management and Financial Services. – New York: McGraw-Hill, 2018. – 752 p.
7. Каранина Т.М. Капитализация банковской системы: теория и практика. – М.: Финансы и статистика, 2019. – 320 с.
8. Ходиев Б.Ю., Тошматов Ш.А. Тижорат банклари молиявий барқарорлигини таъминлаш масалалари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2023. №2. – Б.45-53.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ТУРИСТИК ҲУДУДЛАРИ ИМИЖИ МОДЕЛИ УЧУН БАРҚАРОРЛИК ТАҲЛИЛИ

Жабборов Насриддин Мирзаодилович
амалий математика кафедраси профессори
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
E-mail: zhabborovnasridin@gmail.com

Юнусова Шохсанам Муротовна
мустакил тадқиқотчи
E-mail: xasanxojaabdurashidov@gmail.com

Бебутова Зулайхо Хамидовна
амалий математика кафедраси ассистенти
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
E-mail: bebutova8722@mail.ru
ORCID: 0009-0006-1049-881X

Сафарова Севара Қахрамон қизи
Уз.МУ мустакил тадқиқотчи
E-mail: sssevarasafarova30081992@gmail.com

Аннотация. *Ушбу мақолада Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижининг динамик шаклланишини ифодаловчи ночизиқли математик моделнинг барқарорлик хоссалари таҳлил қилинади. Модель туристик имиж, ташриф буюриш нияти, коммуникацион таъсир, онлайн рейтинглар ва салбий ахборот ўзгарувчилари асосида қурилган. Мақолада моделнинг мувозанат ҳолати қаралади, мувозанат нуқта атрофида чизиқлаштириш амалга оширилади ва Якоби матрицаси ҳосил қилинади. Хос қийматлар асосида локал асимптотик барқарорлик шарти берилади. Шунингдек, Гершгорин доиралари теоремаси ёрдамида барқарорликнинг содда етарли шартлари келтирилади. Олинган натижалар туристик ҳудуд имижини бошқаришда коммуникацион таъсир, онлайн рейтинглар ва салбий ахборот параметрларининг аҳамиятини математик жиҳатдан асослашга хизмат қилади.*

Калит сўзлар: *барқарорлик, Гершгорин теоремаси, динамик система, Тошкент вилояти, туристик имиж, хос қийматлар, Якоби матрицаси.*

АНАЛИЗ УСТОЙЧИВОСТИ МОДЕЛИ ИМИДЖА ТУРИСТИЧЕСКИХ ТЕРРИТОРИЙ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

ДЖабборов Насриддин Мирзаодилович
профессор кафедры прикладной математики
Ташкентского государственного
экономического университета
E-mail: zhabborovnasridin@gmail.com

Юнусова Шохсанам Муротовна
независимый исследователь
E-mail: xasanxojaabdurashidov@gmail.com

Бебутова Зулайхо Хамидовна
ассистент кафедры прикладной математики

Ташкентского государственного
экономического университета
E-mail: bebutova8722@mail.ru

Сафарова Севара Кахрамон кизи
независимый исследователь
национального университета Узбекистана
E-mail: sssevarasafarova30081992@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуются свойства устойчивости нелинейной математической модели динамического формирования имиджа туристических территорий Ташкентской области. Модель построена на основе переменных, описывающих туристический имидж, намерение посещения, коммуникационное воздействие, онлайн-рейтинги и негативную информацию. Рассматривается равновесное состояние модели, выполняется линеаризация системы в окрестности равновесной точки и строится матрица Якоби. На основе собственных значений формулируется условие локальной асимптотической устойчивости. Кроме того, с использованием теоремы Гершгорина получены простые достаточные условия устойчивости. Полученные результаты позволяют математически обосновать роль коммуникационного воздействия, онлайн-рейтингов и негативной информации в управлении имиджем туристической территории.*

Ключевые слова: *динамическая система, матрица Якоби, собственные значения, Ташкентская область, теорема Гершгорина, туристический имидж, устойчивость.*

STABILITY ANALYSIS OF THE TOURIST DESTINATION IMAGE MODEL FOR TASHKENT REGION

Jabbarov Nasriddin Mirzaodilovich
Professor, Department of Applied Mathematics
Tashkent State University of Economics
E-mail: zhabborovnasridin@gmail.com

Yunusova Shokhsanam Murotovna
Independent Researcher
E-mail: xasanxojaabdurashidov@gmail.com

Bebutova Zulayxo Khamidovna
Assistant, Department of Applied Mathematics
Tashkent State University of Economics
E-mail: bebutova8722@mail.ru

Safarova Sevara Kakhramon kizi
Independent Researcher
National University of Uzbekistan
E-mail: sssevarasafarova30081992@gmail.com

Abstract. *This paper investigates the stability properties of a nonlinear mathematical model describing the dynamic formation of the image of tourist destinations in Tashkent Region. The model is based on variables representing tourist image, visit intention, communication influence, online ratings, and negative information. The equilibrium state of the model is considered, the system is linearized in a neighborhood of the equilibrium point, and the Jacobian matrix is derived. A local asymptotic stability condition is formulated in terms of eigenvalues. In addition, simple sufficient stability conditions are obtained using Gershgorin's circle theorem. The obtained results*

provide a mathematical basis for evaluating the role of communication influence, online ratings, and negative information in managing tourist destination image.

Keywords: *dynamic system, eigenvalues, Gershgorin theorem, Jacobian matrix, stability, Tashkent Region, tourist image.*

Кириш

Туристик ҳудуд имижи замонавий туризмда ҳудуд рақобатбардошлигини белгилайдиган муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Туристлар саёҳат йўналишини танлашда фақат табиий ресурслар ёки тарихий объектларга эмас, балки ҳудуд ҳақида шаклланган умумий тасаввур, онлайн рейтинглар, туристлар шарҳлари ва ижтимоий тармоқлардаги ахборотларга ҳам таянадилар. Шу сабабли туристик имижни динамик жараён сифатида тадқиқ қилиш ва унинг барқарорлик хоссаларини ўрганиш муҳим илмий-амалий масала ҳисобланади.

Туристик имиж вақт давомида реклама, онлайн шарҳлар, рейтинглар, ижтимоий тармоқлардаги ахборот, салбий маълумотлар ва туристларнинг ташриф буюриш нияти таъсирида ўзгариб боради. Агар ушбу жараён барқарор бўлса, туристик ҳудуд ҳақидаги қисқа муддатли салбий ахборот ёки рейтинглардаги вақтинчалик пасайиш ҳудуд имижини бутунлай издан чиқармайди. Аксинча, беқарор ҳолатда кичик репутацион хавфлар ҳам туристик имижнинг кескин пасайишига олиб келиши мумкин.

Шунинг учун туристик имижни ифодаловчи математик модель қуриш билан бирга, ушбу моделнинг мувозанат ҳолатлари, локал барқарорлиги ва параметрлар таъсирини таҳлил қилиш зарур. Бу ҳолат айниқса Тошкент вилояти каби туризм салоҳияти юқори бўлган ҳудудлар учун муҳимдир. Чунки Чорвоқ, Чимён, Амирсой, Бўстонлиқ, Паркент ва бошқа туристик ҳудудлар имижи реклама, онлайн муҳокамалар, рейтинглар ва туристлар тажрибаси орқали доимий шаклланиб боради.

Мазкур мақоланинг мақсади Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижининг динамик моделини мувозанат нуқтаси атрофида барқарорлик нуқтаи назаридан таҳлил қилишдан иборат.

Адабиётлар таҳлили

Туристик ҳудуд имижи бўйича илмий тадқиқотларда destination image тушунчаси туристларнинг маълум бир ҳудуд ҳақидаги билимлари, ҳиссий муносабати ва умумий таассуротлари йиғиндиси сифатида қаралади. C.M. Echtner ва J.R.B. Ritchie туристик имижни ўлчаш ва талқин қилишда функционал, психологик, умумий ва алоҳида атрибутлар муҳим эканини таъкидлаган [1], [2]. Бу ёндашув туристик имижни фақат реклама натижаси эмас, балки кўп омилли когнитив ва эмоционал жараён сифатида қараш имконини беради.

S. Baloglu ва K.W. McCleary томонидан таклиф этилган destination image formation моделида туристик имиж ахборот манбалари, шахсий омиллар, мотивация ва туристик тажриба таъсирида шаклланиши кўрсатилган [3]. A. Beerli ва J.D. Martin тадқиқотида эса ахборот манбалари, аввалги тажриба, ижтимоий-демографик омиллар ва психологик хусусиятлар туристик имижга таъсир қилувчи муҳим омиллар сифатида таҳлил қилинган [4]. S. Pike томонидан туристик имиж бўйича олиб борилган тадқиқотлар таҳлили ушбу мавзунинг туризм маркетинги ва ҳудудий рақобатбардошлик билан узвий боғлиқ эканини кўрсатади [5].

Рақамли муҳитнинг ривожланиши туристик имиж шаклланишида онлайн шарҳлар ва ижтимоий тармоқлар ролини кучайтирди. S.W. Litvin, R.E. Goldsmith ва B. Pan электрон оғзаки коммуникацияни туризм ва меҳмондўстлик соҳасида туристик қарор қабул қилишга таъсир қилувчи муҳим омил сифатида баҳолаган [6]. Z. Xiang ва U. Gretzel ижтимоий медиа туристлар томонидан онлайн ахборот қидиришда асосий манбалардан бирига айланганини кўрсатган [7]. Бу тадқиқотлар онлайн рейтинглар ва фойдаланувчилар томонидан яратилган контент туристик имиж динамикасида муҳим ўрин тутишини кўрсатади.

Математик жиҳатдан туристик имиж динамикасини вақтга боғлиқ ўзгарувчилар системаси сифатида қараш мумкин. Динамик тизимлар назарияси вақт бўйича ўзгарувчи жараёнларни дифференциал тенгламалар ёрдамида ифодалаш имконини беради [8], [9]. Ночизиқли дифференциал тенгламалар эса омиллар ўртасидаги тўйиниш, кучайиш, сусайиш ва ўзаро таъсир механизмларини моделлаштиришда кенг қўлланилади [10].

Барқарорлик назарияси математик моделларни таҳлил қилишда марказий ўрин тутади. A.M. Lyapunov томонидан ишлаб чиқилган барқарорлик назарияси динамик системаларнинг мувозанат нуқталари атрофидаги ҳолатини таҳлил қилиш учун фундаментал асос ҳисобланади [11]. L. Perko, M.W. Hirsch, S. Smale ва R.L. Devaney асарларида дифференциал тенгламалар системалари, чизиқлаштириш, хос қийматлар ва локал барқарорлик масалалари кенг ёритилган [8], [9]. Матрица назарияси ва хос қийматларни баҳолаш масалаларида F.R. Gantmacher ҳамда S.A. Gershgorin ишлари муҳим аҳамиятга эга [12], [13].

Мавжуд адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, туристик имиж, онлайн шарҳлар ва ижтимоий медиа бўйича кўплаб эмпирик ва маркетинг тадқиқотлари мавжуд [1]–[7]. Шу билан бирга, туристик имиж, коммуникацион таъсир, онлайн рейтинглар ва салбий ахборот ўртасидаги динамик муносабатларни ночизиқли дифференциал тенгламалар системаси орқали ифодалаш ва ушбу моделнинг барқарорлик шартларини таҳлил қилиш масаласи етарли даражада ривожланмаган. Шу сабабли мазкур мақолада Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижи модели учун локал барқарорлик таҳлили амалга оширилади.

Тадқиқот методологияси

1. Асосий математик модель

Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижининг динамикасини ифодалаш учун қуйидаги ўзгарувчилар қаралади:

Туристик имиж динамикасини тавсифлаш учун қуйидаги ўзгарувчилар киритилади:

$I(t)$ — t вақт моментида туристик ҳудуд имижи даражаси;

$B(t)$ — туристларнинг ташриф буюриш ёки брон қилиш нияти;

$C(t)$ — коммуникацион таъсир даражаси, яъни реклама, медиа фаоллик ва ижтимоий тармоқлардаги ижобий ахборот оқими;

$R(t)$ — онлайн шарҳлар ва рейтинглар таъсири;

$N(t)$ — салбий ахборот ва репутацион хавф даражаси.

Ушбу ўзгарувчилар асосида қуйидаги ночизиқли дифференциал тенгламалар системаси қаралади:

$$\frac{dI}{dt} = u_I + a_1 C + a_2 R - a_3 NI - a_4 I - \mu_1 I^2,$$

$$\frac{dB}{dt} = b_1 I + b_2 R - b_3 NB - b_4 B - \mu_2 B^2 \quad \frac{dC}{dt} = u_C + c_1 B - c_2 C - \mu_3 C^2,$$

$$\frac{dR}{dt} = u_R + r_1 B + r_2 I - r_3 R - \mu_4 R^2, \frac{dN}{dt} = d_1 B - d_2 CN - d_3 N - \mu_5 N^2$$

Бу ерда барча параметрлар мусбат деб олинади: $a_i, b_i, c_i, r_i, d_i, \mu_i > 0$,ҳамда $u_I \geq 0, \quad u_C \geq 0, \quad u_R \geq 0$. Модельда u_I туристик ҳудуднинг базавий жозибадорлигини, u_C доимий коммуникацион фаолликни, u_R эса онлайн шарҳлар ва рейтингларнинг базавий оқимини ифодалайди.

Система вектор кўринишда

$$\frac{dX}{dt} = F(X)$$

шаклида ёзилади, бу ерда, $X(t) = (I(t), B(t), C(t), R(t), N(t))^T$.

2. Мувозанат ҳолати. Система мувозанат ҳолати деб шундай $E^* = (I^*, B^*, C^*, R^*, N^*)$ нуқтага айтиладики, $F(E^*) = 0$ шарт бажарилади. Демак, мувозанат нуқтаси қуйидаги алгебраик система орқали аниқланади:

$$u_I + a_1 C^* + a_2 R^* - a_3 N^* I^* - a_4 I^* - \mu_1 (I^*)^2 = 0,$$
$$b_I I^* + b_2 R^* - b_3 N^* B^* - b_4 B^* - \mu_2 (B^*)^2 = 0,$$
$$u_C + c_1 B^* - c_2 C^* - \mu_3 (C^*)^2 = 0,$$
$$u_R + r_1 B^* + r_2 I^* - r_3 R^* - \mu_4 (R^*)^2 = 0,$$
$$d_1 B^* - d_2 C^* N^* - d_3 N^* - \mu_5 (N^*)^2 = 0.$$

Ушбу система ночизиқли бўлганлиги сабабли умумий ҳолда мувозанат нуқтаси сонли ёки итерацион усуллар ёрдамида аниқланади. Бироқ баъзи ўзгарувчиларни бошқа ўзгарувчилар орқали ифодалаш мумкин.

Учинчи тенгламадан: $\mu_3 (C^*)^2 + c_2 C^* - (u_C + c_1 B^*) = 0.$

Бундан мусбат ечим: $C^* = \dfrac{-c_2 + \sqrt{c_2^2 + 4\mu_3 (u_C + c_1 B^*)}}{2\mu_3}.$

Тўртинчи тенгламадан: $\mu_4 (R^*)^2 + r_3 R^* - (u_R + r_1 B^* + r_2 I^*) = 0.$

Демак, $R^* = \dfrac{-r_3 + \sqrt{r_3^2 + 4\mu_4 (u_R + r_1 B^* + r_2 I^*)}}{2\mu_4}.$

Бешинчи тенгламадан N^* uchun : $\mu_5 (N^*)^2 + (d_2 C^* + d_3) N^* - d_1 B^* = 0.$

Бундан: $N^* = \dfrac{-(d_2 C^+ d_3) + \sqrt{(d_2 C^* + d_3)^2 + 4\mu_5 d_1 B^*}}{2\mu_5}.$

Ушбу ифодалар мувозанат нуқтасини босқичма-босқич аниқлаш имконини беради.

3. Якоби матрицаси. Барқарорликни таҳлил қилиш учун система мувозанат нуқтаси атрофида чизиқлаштирилади. Система учун Якоби матрицаси қуйидагича аниқланади:

$$J(X) = \left(\frac{\partial F_i}{\partial x_j} \right)_{5\times 5}.$$

Бу ерда, $x_1 = I, \quad x_2 = B, \quad x_3 = C, \quad x_4 = R, \quad x_5 = N.$

Ҳисоблашлардан қуйидаги Якоби матрицаси ҳосил бўлади:

$$J(X) = \begin{pmatrix} -(a_3 N + a_4 + 2\mu_1 I) & 0 & a_1 & a_2 & -a_3 I \\ b_1 & -(b_3 N + b_4 + 2\mu_2 B) & 0 & b_2 & -b_3 B \\ 0 & c_1 & -(c_2 + 2\mu_3 C) & 0 & 0 \\ r_2 & r_1 & 0 & -(r_3 + 2\mu_4 R) & 0 \\ 0 & d_1 & -d_2 N & 0 & -(d_2 C + d_3 + 2\mu_5 N) \end{pmatrix}$$

.

Мувозанат нуқтада:

$$J(E^{)}=\begin{pmatrix} -D_1 & 0 & a_1 & a_2 & -a_3I^* \\ b_1 & -D_2 & 0 & b_2 & -b_3B^* \\ 0 & c_1 & -D_3 & 0 & 0 \\ r_2 & r_1 & 0 & -D_4 & 0 \\ 0 & d_1 & -d_2N^* & 0 & -D_5 \end{pmatrix},$$

бу ерда, $D_1=a_3N^*+a_4+2\mu_1I^*$, $D_2=b_3N^*+b_4+2\mu_2B^*$,
$D_3=c_2+2\mu_3C^*, D_4=r_3+2\mu_4R^*$, $D_5=d_2C^*+d_3+2\mu_5N^*$.

Таҳлил ва натижалар

4. Хос қийматлар асосида локал барқарорлик.

Теорема 1. Агар $J(E^*)$ Якоби матрицасининг барча хос қийматлари $\lambda_1,\lambda_2,\lambda_3,\lambda_4,\lambda_5$ учун $Re(\lambda_i)<0,\quad i=1,2,3,4,5$ шарт бажарилса, у ҳолда $E^*=(I^*,B^*,C^*,R^*,N^*)$ мувозанат ҳолати локал асимптотик барқарор бўлади. **Исбот** Система $\frac{dX}{dt}=F(X)$ кўринишида берилган. E^* мувозанат нуқтаси учун $F(E^*)=0$.Мувозанат нуқта атрофида $Y=X-E^*$ деб белгилаймиз. У ҳолда система биринчи тартибда қуйидаги чизиқли система билан яқинлаштирилади:

$$\frac{dY}{dt}=J(E^*)Y.$$

Чизиқли динамик системалар назариясига кўра, агар $J(E^*)$ матрицасининг барча хос қийматларининг ҳақиқий қисмлари манфий бўлса, у ҳолда $Y(t)\to 0,\quad t\to\infty$.

Демак, $X(t)\to E^*$.Шунинг учун E^* локал асимптотик барқарор бўлади [8], [9], [11]. Теорема исботланди.

5. Гершгорин теоремаси асосида етарли барқарорлик шарти

5 ўлчовли Якоби матрицаси учун хос қийматларни аналитик топиш кўп ҳолларда мураккаб. Шу сабабли хос қийматларни баҳолашда Гершгорин доиралари теоремасидан фойдаланиш мумкин [12], [13].

Теорема 2. Агар мувозанат нуқтада қуйидаги шартлар бажарилса:

$D_1>a_1+a_2+a_3I^*, D_2>b_1+b_2+b_3B^*$ $D_3>c_1^*, D_4>r_1+r_2, D_5>d_1+d_2N^*$.у ҳолда E^* мувозанат ҳолати локал асимптотик барқарор бўлади.

Исбот: Гершгорин теоремасига кўра, матрицанинг ҳар бир хос қиймати матрицанинг диагонал элементи марказ қилиб олинган ва радиуси шу қатордаги қолган элементлар модуллари йиғиндисига тенг бўлган доиралардан бирида жойлашади. $J(E^*)$ матрицасининг биринчи қатори учун диагонал элемент $-D_1$ ва қолган элементлар модуллари йиғиндиси $a_1+a_2+a_3I^*$ га тенг.



Gershgorin doiralari kompleks tekislikning chap yarim qismida joylashgan.

Агар $D_1 > a_1 + a_2 + a_3 I^*$ бўлса, биринчи Гершгорин доираси комплекс текисликнинг чап ярим қисмида жойлашади. Иккинчи қатор учун диагонал элемент D_2 қолган элементлар модуллари йиғиндиси $b_1 + b_2 + b_3 B^*$ га тенг.

Агар $D_2 > b_1 + b_2 + b_3 B^*$ бўлса, иккинчи доира ҳам чап ярим текисликда жойлашади. Учинчи, тўртинчи ва бешинчи қаторлар учун ҳам мос равишда $D_3 > c_1^*$, $D_4 > r_1 + r_2$, $D_5 > d_1 + d_2 N^*$ шартлар бажарилса, барча Гершгорин доиралари комплекс текисликнинг чап ярим қисмида жойлашади.

Демак, барча хос қийматлар учун $Re(\lambda_i) < 0$ шарт бажарилади. Теорема 1 га кўра, E^* локал асимптотик барқарор бўлади. Теорема исботланди.

6. Барқарорлик шартларининг амалий талқини. Олинган барқарорлик шартлари туристик имижни бошқаришда муҳим амалий маънога эга. Масалан, $D_1 = a_3 N^* + a_4 + 2\mu_1 I^*$ туристик имижнинг умумий сусайиш ва тўйиниш даражасини ифодалайди. Агар $D_1 > a_1 + a_2 + a_3 I^*$ шарт бажарилса, реклама, рейтинг ва салбий ахборот таъсирлари туристик имиж тизимини беқарор ҳолатга олиб келмайди. Бу туристик имиж ўз мувозанат даражасига қайтишини билдиради.

Иккинчи шарт $D_2 > b_1 + b_2 + b_3 B^*$ ташриф буюриш ниятининг барқарорлигини ифодалайди. Агар туристик имиж ва рейтинглар таъсири жуда кескин бўлиб, ички сусайиш механизми етарли бўлмаса, туристик талабда кескин тебранишлар пайдо бўлиши мумкин.

Бешинчи шарт $D_5 > d_1 + d_2 N^*$ салбий ахборот динамикаси учун муҳим. Бу шарт бажарилганда салбий ахборот ва репутацион хавфлар назоратдан чиқмайди. Амалий жиҳатдан бу ҳолат туристик ҳудудларда хизмат сифати, тезкор ахборот сиёсати ва туристлар шикоятларига жавоб бериш механизмларини такомиллаштириш зарурлигини кўрсатади.

Шунинг учун барқарорлик шартлари фақат математик натижа эмас, балки туристик ҳудуд имижини бошқариш учун амалий кўрсатма вазифасини ҳам бажаради.

Хулоса

Мақолада Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижининг динамик моделини барқарорлик нуқтаи назаридан таҳлил қилиш амалга оширилди. Туристик имиж, ташриф буюриш нияти, коммуникацион таъсир, онлайн рейтинглар ва салбий ахборот ўзгарувчилари асосида қурилган ночизиқли дифференциал тенгламалар системаси қаралди.

Модель учун мувозанат ҳолати аниқланди ва мувозанат нуқтаси атрофида чизиқлаштириш орқали Якоби матрицаси ҳосил қилинди. Хос қийматлар асосида локал асимптотик барқарорлик теоремаси исботланди. Гершгорин доиралари теоремаси ёрдамида барқарорликнинг содда етарли шартлари олинди. Олинган натижалар туристик ҳудуд имижини бошқаришда коммуникацион таъсир, онлайн рейтинглар ва салбий ахборот параметрларининг ролини баҳолаш имконини беради. Модель кейинги тадқиқотларда сонли моделлаштириш, сценарийлар таҳлили ва дастурий комплекс ишлаб чиқиш учун назарий асос бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Echtner C.M., Ritchie J.R.B. The meaning and measurement of destination image // Journal of Tourism Studies. — 1991. — Vol. 2, No. 2. — P. 2–12.
2. Echtner C.M., Ritchie J.R.B. The measurement of destination image: An empirical assessment // Journal of Travel Research. — 1993. — Vol. 31, No. 4. — P. 3–13.
3. Baloglu S., McCleary K.W. A model of destination image formation // Annals of Tourism Research. — 1999. — Vol. 26, No. 4. — P. 868–897.
4. Beerli A., Martin J.D. Factors influencing destination image // Annals of Tourism Research. — 2004. — Vol. 31, No. 3. — P. 657–681.
5. Pike S. Destination image analysis: A review of 142 papers from 1973 to 2000 // Tourism Management. — 2002. — Vol. 23, No. 5. — P. 541–549.
6. Litvin S.W., Goldsmith R.E., Pan B. Electronic word-of-mouth in hospitality and tourism management // Tourism Management. — 2008. — Vol. 29, No. 3. — P. 458–468.
7. Xiang Z., Gretzel U. Role of social media in online travel information search // Tourism Management. — 2010. — Vol. 31, No. 2. — P. 179–188.
8. Perko L. Differential Equations and Dynamical Systems. — 3rd ed. — New York: Springer, 2001. — 553 p.
9. Hirsch M.W., Smale S., Devaney R.L. Differential Equations, Dynamical Systems, and an Introduction to Chaos. — 3rd ed. — Amsterdam: Elsevier Academic Press, 2013. — 418 p.
10. Murray J.D. Mathematical Biology I: An Introduction. — 3rd ed. — New York: Springer, 2002. — 551 p.
11. Lyapunov A.M. The General Problem of the Stability of Motion. — London: Taylor & Francis, 1992. — 270 p.
12. Gantmacher F.R. The Theory of Matrices. — New York: Chelsea Publishing Company, 1959. — 374 p.
13. Gershgorin S.A. Über die Abgrenzung der Eigenwerte einer Matrix // Izvestiya Akademii Nauk SSSR. — 1931. — No. 6. — P. 749–754.
14. Coddington E.A., Levinson N. Theory of Ordinary Differential Equations. — New York: McGraw-Hill, 1955. — 429 p.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА КИЧИК БИЗНЕС ЛОЙИҲАЛАРИНИ КРЕДИТЛАШДА БАНК ТАВАККАЛЧИЛИКЛАРИНИ БАҲОЛАШ ВА БОШҚАРИШ ТИЗИМИ

Мухамедова Севара Абдуллаевна
банк ҳисоби ва аудит кафедраси ўқитувчи
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
E-mail: sevaramuxamedova1979@gmail.com
ORCID:0009-0000-3479-8004

Аннотация. *Мазкур мақолада тижорат банкларида кичик бизнес субъектларини кредитлаш жараёнида юзага келадиган таваккалчиликларни баҳолаш ва бошқаришнинг назарий асослари, амалий методологияси ва институционал механизмлари таҳлил қилинади. Кредит таваккалчилиги, операцион таваккалчилик ва ликвидлик таваккалчилиги каби асосий турлари, уларни миқдорий ва сифат жиҳатидан баҳолаш усуллари кўриб чиқилади. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг пруденциал меъёрлари доирасида банкларнинг таваккалчиликни бошқариш тизими таҳлил қилинади ва такомиллаштириш йўналишлари таклиф этилади.*

Калит сўзлар: *кредит таваккалчилиги, кичик бизнес, кредит скоринг, муаммоликредитлар, пруденциал меъёрлар, БазелIII, рейтинг тизими, таваккалчиликни бошқариш.*

СИСТЕМА ОЦЕНКИ И УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ ПРИ КРЕДИТОВАНИИ МАЛЫХ БИЗНЕС-ПРОЕКТОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Мухамедова Севара Абдуллаевна

старший преподаватель кафедры
банковский учет и аудит
Ташкентского государственного
экономического университета
E-mail: sevaramuxamedova1979@gmail.com
ORCID:0009-0000-3479-8004

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы, прикладная методология и институциональные механизмы оценки и управления рисками, возникающими в процессе кредитования субъектов малого бизнеса в коммерческих банках. Рассматриваются основные виды рисков — кредитный, операционный и риск ликвидности, — а также методы их количественной и качественной оценки. Проводится анализ системы управления рисками в банках в рамках пруденциальных нормативов Центрального банка Республики Узбекистан и предлагаются направления её совершенствования.*

Ключевые слова: *кредитный риск, малый бизнес, кредитный скоринг, проблемные кредиты, пруденциальные нормативы, Базель III, рейтинговая система, управление рисками.*

SYSTEM OF ASSESSMENT AND MANAGEMENT OF BANK RISKS IN LENDING TO SMALL BUSINESS PROJECTS IN COMMERCIAL BANKS

Mukhamedova Sevara Abdullaevna

Lecturer at the Department
of Banking and Audit at

Tashkent State University of Economics E-mail:
sevaramuxamedova1979@gmail.com
ORCID:0009-0000-3479-8004

Abstract. *This article analyses the theoretical foundations, applied methodology and institutional mechanisms of risk assessment and management arising in the process of lending to small business entities in commercial banks. The main types of risks — credit, operational and liquidity risks — as well as methods for their quantitative and qualitative assessment are examined. The bank risk management system within the framework of the prudential standards of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan is analyzed, and directions for its improvement are proposed.*

Keywords: *credit risk, small business, credit scoring, non-performing loans, prudential standards, Basel III, rating system, risk management.*

Кириш

Жаҳон молия тажрибасида кичик бизнес субъектларини кредитлаш доимо юқори таваккалчиликлик сегмент сифатида эътироф этилиб келинган. Бунинг боиси КЎБ корхоналарининг молиявий ҳисоботлари кўпинча тўлиқ ёки ишончли эмаслиги, гаров базасининг чекланганлиги, бизнес-режаларнинг етарлича асосланмаганлиги ва иқтисодий конъюнктура ўзгаришларига нисбатан сезувчанлигидир. Халқаро хисоб-китоблар банки (BIS) маълумотларига кўра, ривожланаётган мамлакатлардаги тижорат банклари кредит портфелида КЎБ кредитларининг улуши 25–35фоизни ташкил этади, шу билан бирга, муаммоли кредитларнинг асосий қисми ҳам айнан ушбу сегментга тўғри келади [1].

Ўзбекистон банк тизимида кичик бизнесни кредитлаш кўлами сўнгги йилларда сезиларли даражада кенгайган. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистикасига кўра, 2023 йилнинг якунида банк тизими кредит портфелида кичик бизнес улуши 38,4 фоизни ташкил этган бўлса, муаммоли кредитлар (NPL) кўрсаткичи 3,8 фоизни ташкил этди [2]. Мазкур кўрсаткич Базел III стандартлари ва халқаро амалиётдаги меъёрий чегарадан (5 фоиз) паст бўлса-да, кичик бизнесни кредитлаш жараёнида таваккалчиликни баҳолаш методологиясини такомиллаштириш заруриятини инкор этмайди.

Мазкур мақоланинг илмий мақсади — тижорат банкларида кичик бизнесни кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқаришнинг мавжуд тизимини таҳлил қилиш, унинг камчиликларини аниқлаш ва такомиллаштириш йўналишларини асослашдан иборат. Тадқиқот давомида қиёсий таҳлил, институционал таҳлил ва иқтисодий-статистик методлардан фойдаланилди.

Адабиётлар шарҳи

Банк таваккалчилиги назарияси нуқтаи назаридан «таваккалчилик» тушунчаси кутилмаган молиявий зарар ёки фойда йўқотилиши эҳтимоли сифатида таърифланади. Хусусан, кредит таваккалчилиги — қарздорнинг кредит шартномасидан келиб чиқадиган мажбуриятларини тўлиқ ёки муддатида бажармаслик оқибатида банкда молиявий зарар юзага келиши эҳтимолидир [3]. Ушбу таъриф кредит таваккалчилигини икки таркибий қисмга ажратишга имкон беради: дефолт таваккалчилиги ва миграция таваккалчилиги.

БергерА. ва УделлГ. Томонидан ишлаб чиқилган «Муносабатларга асосланган кредитлаш» (relationshiplending) концепциясига кўра, кичик корхоналар кредит тарихиқисқа, молиявий ҳисоботлари аудит қилинмаган ва менежмент сифати нотекис бўлганлиги сабабли ахборот асимметрияси муаммоси алоҳида кескин тус олади [4]. Ушбу тадқиқот кредит таваккалчилигини баҳолашда банк ва қарздор ўртасидаги узоқ муддатли муносабатлар аҳамиятини назарий асослайди.

Альтман Э. томонидан 1968 йилда таклиф қилинган Z-score модели корхонанинг банкротлик эҳтимолини беш молиявий коэффициент асосида баҳолайди ва кейинчалик кичик ва ўрта корхоналарга мослаштирилган Z''-score кўринишига эга бўлган [5]. Томас Л.К., Эделман Д.Б. ва Крук Ж.Н. ишларида эса кредит скорингининг назарий асослари ва

амалий татбиқи атрофлича ёритилган [6].ЁқинХ.ва бошқаларнинг тадқиқотлари machinelearning алгоритмларига асосланган скоринг тизимлари анъанавий усулларга нисбатан башорат аниқлигини 20–30 фоизга оширишини тасдиқлайди [7].

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотда қуйидаги методлардан фойдаланилди:

1.Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистик маълумотлари ва йиллик ҳисоботлари асосида тизимли таҳлил;

2.Базел қўмитаси ва BIS ҳужжатлари асосида халқаро стандартлар билан қиёсий таҳлил;

(3) кредит таваккалчилигини баҳолашнинг миқдорий усуллари — Альтман Z-score, логистик регрессия ва скоринг моделлари — бўйича адабиётлар таҳлили;

(4) пруденциал меъёрий-ҳуқуқий база таҳлили. Тадқиқот муддати — 2019–2023 йиллар давоми, асосий таққослаш мезони — NPL кўрсаткичи динамикаси ва кичик бизнес кредит портфелининг ҳажми.

Таҳлил ва натижалар

Халқаро амалиётда банк таваккалчиликларини баҳолашнинг асосий методологик тизимлари Базел банк назорати қўмитаси (BCBS) томонидан белгилаб берилган. Базел II доирасида кредит таваккалчилигини баҳолашнинг икки ёндашуви мавжуд: стандартлаштирилган ёндашув (StandardisedApproach) ва ички рейтингларга асосланган ёндашув (Internal Ratings-Based Approach — IRB). Базел III ислоҳотлари эса капитал буфери талабларини кучайтирди ва ликвидлик коэффициентларини (LCR ва NSFP) тартибга солди [8].

1-расм.

Ўзбекистон банк тизимида кредит таваккалчилигини баҳолашдаги асосий муаммолар*



*Муаллиф ишланмаси.

Диаграммага кўра, энг катта улушни (35%) кредит тарихини қамраб олиш даражасининг пастлиги ташкил этади. Бу ҳолат банклар учун мижозларнинг молиявий интизоми ҳақида тўлиқ ахборотга эга бўлишни чеклайди ва рискни аниқ баҳолаш имкониятини пасайтиради. Айниқса, ҳудудларда кредит ахборот базасининг тўлиқ шаклланмагани кредит қарорларининг ишончлилигига салбий таъсир кўрсатади. Шу билан бирга, гаров таъминоти муаммоси ҳам 35% улуш билан тенг аҳамиятга эга. Кичик бизнес

ва аҳоли қатламларида ликвид активлар етишмаслиги банклар томонидан кредит ажратишда эҳтиёткорликни оширади. Бу эса молиялаштириш имкониятларини чеклаб, иқтисодий фаолликни секинлаштирувчи омил сифатида. Диаграммадаги яна бир муҳим омил — хорижий скоринг моделларига боғлиқлик (30%). Мазкур моделлар кўп ҳолларда маҳаллий бозор хусусиятлари, аҳоли даромад тузилмаси ва тармоқ спецификасини тўлиқ инобатга олмайди. Натижада рискни баҳолашда аниқлик даражаси пасайиши мумкин.Умуман олганда, диаграмма натижаларишуни кўрсатадики, кредит таваккалчилигини самарали бошқариш учун:

- кредит ахборот инфратузилмасини кенгайтириш,
- маҳаллий шароитга мос скоринг моделларини ишлаб чиқиш,
- гаровсиз кредитлаш механизмларини ривожлантириш устувор вазифалардан ҳисобланади.

Ўзбекистон тижорат банклари амалиётида кредит таваккалчилигини баҳолашнинг асосий усули — кредит скоринг тизимидир. Мижознинг молиявий ва номолиявий кўрсаткичлари статистик моделлар асосида баллар тизимига ўгирилиб, дефолт эҳтимоли миқдорийи фодаланади. Замонавий скоринг моделлари икки тоифага бўлинади: реактив скоринг (applicationscoring) — янги кредит аризасини баҳолашда; хулқ-атвор скоринги (behaviouralscoring) — мавжуд қарздорнинг ҳаракатини мониторинг қилишда қўлланилади [9].

Ўзбекистон Республикасида банк таваккалчиликларини бошқаришнинг меъёрий-ҳуқуқий асосиниЎзР «Банкларва банк фаолияти тўғрисида»гиҚонуни [10], Марказий банкнинг пруденциал нормативлар тўғрисидаги Йўриқнома [11] ва «Активларни таснифлашва уларни қоплаш учун захиралар ташкил этиш тартиби тўғрисида»ги Низом [12] ташкил этади. Ушбу ҳужжатларга мувофиқ, кредитлар беш тоифага ажратилиб, стандарт кредитлар учун 1 фоиздан умидсиз кредитлар учун 100 фоизгача захира шакллантирилади.

1-жадвал

Ўзбекистонда кичик бизнес ва кредитлаш*

Йил	Жамикредит хажми (трлн сум)	Кичик бизнес / тадбиркорлик кредитлари	Улкши (%)	Изох
2022	~400 трлн	~15–17 трлн	~4%	Пандемиядан кейинги тикланиш даври
2023	~450 трлн	~17–18 трлн	~4%	Кредитлаш барқарорлашди
2024	471 трлн	19.5 трлн	~4.1%	Тадбиркорлик кредитлари 19% га ошган
2025	575 trln 1.5yil	>20 трлн (бахолаш)	~4–5%	Кредитлаш кескин ошган
2026	~600+ трлн (прогноз)	Ўсишда	~5%	Давлат дастурлари давом этмоқда

*Манба: www.cbu.-Markaziy bank маълумотлари

Ушбу жадвал маълумотлари 2022–2026 йиллар давомида Ўзбекистонда кредитлаш ҳажми ва кичик бизнесни молиялаштириш динамикасида бир қатор муҳим тенденцияларни кўрсатади.

Аввало, жами кредитлар ҳажми барқарор ўсиш траекториясида эканлиги кўринади: 2022 йилда тахминан 400 трлн сўмдан 2026 йилга келиб 600 трлн сўмдан ортиқ даражага етиши прогноз қилинмоқда. Бу банк тизимида ликвидликнинг ортиб бораётгани ва иқтисодиётда кредитлаш фаоллиги кенгайганини англатади.

Шу билан бирга, кичик бизнесга ажратилаётган кредитлар ҳажми ҳам ўсиб бормоқда: 2022 йилда 15–17 трлн сўм атрофида бўлган бўлса, 2025 йилга келиб 20 трлн сўмдан ошган. Бу давлат томонидан тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш сиёсати кучайганини кўрсатади.

Бироқ энг муҳим жиҳат — улуш (4–5%) деярли ўзгармай қолмоқда. Яъни:

- умумий кредитлар тез ўсмоқда,
- лекин кичик бизнеснинг улуши сезиларли даражада ошмаяпти.

Бу ҳолат шундан далолат беради, банк ресурсларининг асосий қисми ҳануз:

- йирик корхоналарга,
- давлат лойиҳаларига йўналтирилмоқда.

2024 йилда тадбиркорлик кредитларининг 19% га ўсиши ижобий тенденция бўлса-да, бу ўсиш умумий кредит портфели ўсишига нисбатан юқори эмас. Шу сабабли улуш кескин ўзгармаган.2025–2026 йилларда кредитлашнинг “кескин ўсиши” ва “давлат дастурлари давом этиши” қайд этилгани келгусида кичик бизнесни молиялаштириш имкониятлари янада кенгайишини кўрсатади. Лекин амалда самарадорликни ошириш учун фақат ҳажм эмас, балки улушни ҳам ошириш муҳим.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки:

- кредит бозори фаол ривожланмоқда;
- кичик бизнес молиялаштирилиши ўсмоқда;
- маммоунинг банк кредитларидаги роли ҳали ҳам чекланганлигича қолмоқда.

Бу эса келгусида:

- гаровсиз кредитлаш механизмларини ривожлантириш,
- скоринг тизимларини такомиллаштириш,
- ва кичик бизнесга йўналтирилган молиявий инструментларни кенгайтириш зарурлигини кўрсатади.

Мавжуд тизимдаги асосий муаммолар қуйидагилардан иборат. Биринчидан, ЎзР Кредит ахборот марказий бюроси маълумотларига кўра, кредит тарихини қамраб олиш даражаси катта шаҳарларда 68 фоизни, вилоятларда 41 фоизни ташкил этиб, аҳолини тўлиқ қамраб олиш муаммоси сақланиб қолмоқда [13]. Иккинчидан, Ўзбекистон банклари кўпинча хорижий скоринг дастурий таъминотидан фойдаланади, бироқ ушбу моделлар маҳаллий иқтисодий шароит ва тармоқ хусусиятларини тўлиқ ҳисобга олмайди. Учинчидан, кичик бизнеснинг гаров базаси чекланганлиги кредитлашдаги асосий тўсиқ бўлиб қолмоқда. Жаҳон амалиётида ушбу муаммони ҳал этишда давлат кафиллик фондлари — Кореянинг KODIT, Япониянинг Credit Guarantee Corporation тизими — самарали ёнашув сифатида қўлланилади.

Machine learning алгоритмларига асосланган альтернатив скоринг имкониятлари ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Хитойдаги Alibaba/Ant Group тажрибаси шуни кўрсатадики, савдо тарихи ва ижтимоий маълумотларга асосланган скоринг традицион банк усулларига нисбатан дефолтни башорат қилишда 20–30 фоиз юқори аниқликка эга [14]. Бу йўналиш Ўзбекистон банк тизими учун янги имкониятлар яратади.

Хулоса

Амалга оширилган таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, тижорат банкларида кичик бизнесни кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими ҳам илмий-методологик, ҳам институционал жиҳатдан такомиллашишни тақозо этади. Кредит таваккалчилиги кичик бизнес сегментида объектив иқтисодий сабаблар билан юқорироқ бўлиши табиий; бироқ замонавий скоринг методологиялари, маълумотлар базасини

ривожлантириш ва давлат-хусусий шерикчилик механизмлари воситасида ушбу таваккалчиликни самарали назоратда ушлаб туриш мумкин.

Тадқиқот натижалари асосида Ўзбекистон банк тизими учун қуйидаги таклифлар ишлаб чиқилди: (1) кредит бюроси маълумотлар базасини аҳолини қамраб олиш кўрсаткичини 2026 йилга қадар 85 фоизгача кенгайтириш; (2) machine learning алгоритмларига асосланган миллий кредит скоринг тизимини ишлаб чиқиш ва банклараро улашиш; (3) «Ўзбекистонкафолат» АЖ портфель кафиллиги механизмини жорий этиш орқали гаровсиз кредитлаш имкониятини кенгайтириш; (4) тижорат банкларида таваккалчиликни бошқаришнинг «уч ҳимоя линияси» тамойилини қонунчилик даражасида мустаҳкамлаш. Ушбу тавсияларни изчил амалга ошириш NPL кўрсаткичини 2–3 фоизгача пасайтириш ва кичик бизнесни кредитлаш ҳажмини кенгайтиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч / И.А. Каримов. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

2.Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2021. – 464 б.

3.Мирзиёев.Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2016. – 56 б.

4.Мирзиёев.Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2017. – 48 б.

5.Мирзиёев.Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2017. – 104 б.

6.Турсунов Б.Х. Кичик бизнесни ривожлантириш истиқболлари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2021. – №3. – Б. 102–108.

7. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. – Тошкент: «Молия», 2002. –303б.

8.Абдуллаева Ш.З. Банк иши: Дарслик. – Тошкент: «Молия», 2017. – 526 б.

9.Ваҳобов А.В. Банк иши. – Тошкент: «IQTISOD-MOLIYA», 2019.

10.Ваҳобов А.В. Банк менежменти.-Тошкент:«IQTISOD-MOLIYA»,

11.Қоралиев Т.М., Абдуллаева Ш.З. Банк иши. – Тошкент: «IQTISOD-MOLIYA», 2021.

12.Қоралиев Т.М. Банк менежменти. – Тошкент: «IQTISOD-MOLIYA», 2015.

13.Рустамов Ж. The Economic Nature of Non-Performing Loans and Bank Operational Efficiency // *Iqtisodiyot va ta’lim*. – 2023. – №5. – Б. 87–91.

13.Лаврушин О.И. Банковское дело. – М.: «Кнорус», 2012. 338 с.

14.Маҳмудов Р. Reasons and Features of Non-Performing Loans in Commercial Banks // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. – 2023. – №11. – Б. 90–98.

15.Исаков О. Factors Affecting Non-Performing Loans: Empirical Evidence from Commercial Banks in Uzbekistan // *Journal of Economics and Financial Analysis*. 2024.Vol.8,№2.–Б.1–21.

JANUBIY KOREYA KINOINDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O’RNI VA TA’SIRI

Abduqayumov Elyorbek Ulug’bek o’g’li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

Yo’ldosheva Oygul Zokir qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasi o’qituvchisi
E-mail: oygulzakirovna@gmail.com

Annotatsiya. *So’nggi yillarda kinoindustriya sohasi ko’plab mamlakatlarda iqtisodiyotga ta’sir o’tkazuvchi muhim sanoatga aylandi. Bu maqolada kino va seriallari butun dunyoda mashhurlikka erishgan Janubiy Koreya davlatining kino sanoati tahlil qilindi. Natijalar koreys kino va seriallari o’z mashhurligini so’nggi yillarda saqlab qolganini va kino eksport hajmi mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltirganini ko’rsatdi. Sanoat Janubiy Koreya davlatining ichki iqtisodiyotiga ham, ya’ni mamlakatda ko’plab odamlar uchun ish o’rni yaratayotgani isbotlandi. Umumiy olganda, maqolada kinoindustriya sohasi shunchaki ko’ngilochar soha emas, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi asosiy sanoat ekanligi ko’rsatildi.*

Kalit so’zlar: *Janubiy Koreya kinoindustriyasi, iqtisodiy ta’sir, multiplikator effekti, raqamli platformalar, bandlik, kreativ iqtisodiyot, yumshoq kuch (soft power).*

РОЛЬ И ВЛИЯНИЕ КИНОИНДУСТРИИ ЮЖНОЙ КОРЕИ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ

Абдукаюмов Элёрбек Улугбек угли
Студент Университета мировой экономики и дипломатии

Юлдошева Ойгул Зокир кизи
Университет мировой экономики и дипломатии, преподаватель кафедры “Международная экономика”
E-mail: oygulzakirovna@gmail.com

Аннотация. *В последние годы киноиндустрия превратилась в важную отрасль, оказывающую существенное влияние на экономику многих стран. В данной статье анализируется киноиндустрия Южной Кореи, чьи фильмы и сериалы завоевали всемирную популярность. Результаты показали, что корейские фильмы и сериалы сохраняют свою популярность в последние годы, а объем экспорта кинопродукции приносит большую прибыль экономике страны. Было доказано, что эта отрасль также оказывает положительное влияние на внутреннюю экономику Южной Кореи, создавая рабочие места для большого количества людей. В целом, в статье показано, что киноиндустрия — это не просто сфера развлечений, а одна из ключевых отраслей, стимулирующих экономическое развитие страны.*

Ключевые слова: *киноиндустрия Южной Кореи, экономическое влияние, мультипликативный эффект, цифровые платформы, занятость, креативная экономика, мягкая сила (soft power).*

THE ROLE AND IMPACT OF THE SOUTH KOREAN FILM INDUSTRY ON ECONOMIC DEVELOPMENT

Abduqayumov Elyorbek Ulug’bek o’g’li
Student at the University of World Economy and Diplomacy

Yuldosheva Oygul Zokir qizi
University of World Economy and Diplomacy,
Teacher at the Department of International Economics
E-mail: oygulzakirovna@gmail.com

Abstract. *In recent years, the film industry has become an important sector influencing the economy in many countries. This article analyzes the film industry of South Korea, whose movies and TV series have gained global popularity. The results show that Korean films and series have maintained their popularity in recent years, and the volume of film exports has brought significant profits to the country's economy. It is proven that the industry also positively impacts South Korea's domestic economy by creating job opportunities for many people. Overall, the article demonstrates that the film industry is not merely an entertainment sector, but a major industry driving the country’s economic development.*

Keywords: *South Korean film industry, economic impact, multiplier effect, digital platforms, employment, creative economy, soft power.*

Kirish

Hozirgi paytda dunyoda kreativ iqtisodiyot sektori an’anaviy sanoat tarmoqlari bilan bir qatorda muhim o’rin egallab kelmoqda. Janubiy Koreya bu borada eng muvaffaqiyatli tajribalardan biri hisoblanib, o’zining “Hallyu” (Koreya to’lqini) madaniy fenomeni orqali butun dunyoni qamrab oldi. Musiqa, taomlar va kiyim-kechaklar bilan bir qatorda, aynan kinoindustriya ushbu to’lqinning eng asosiy va ajralmas qismiga aylandi.

Koreya kinosi yuqori texnologiyalar va koreys madaniyatini birlashtirgan katta iqtisodiy tizimdir. “Parasite” yoki “Squid Game” kabi loyihalarning global muvaffaqiyati Janubiy Koreyaning “yumshoq kuch” (soft power) siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu sababli, ushbu sohaning iqtisodiy samaradorligini, uning boshqa tarmoqlarga ta’sirini va ish o’rinlari yaratishdagi o’rnini ilmiy jihatdan o’rganish juda muhim hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi Janubiy Koreya kino sanoatining iqtisodiy o’sishdagi ahamiyatini tahlil qilish, sohaning ish o’rinlari yaratishdagi imkoniyatlarini baholash va uni mamlakatning boshqa tarmoqlari bilan qiyosiy ko’rib chiqishdir.

Adabiyotlar tahlili

Janubiy Koreya kinoindustriyasining, umuman olganda kinoindustriya sektorining iqtisodiyotga bevosita ta’sir ko’rsatishi haqida hozirgacha ko’plab olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, kino va teatrning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sirini o’rgangan Mammadova va Abdullayev (2025) [1] ushbu sohalarni zamonaviy iqtisodiyotning strategik drayveri deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, ko’pchilik odamlar bu sohani ko’ngilochar soha deb hisoblashadi. Ammo ular bu fikrga qarshi chiqib, bu sohaning iqtisodiyotga yaxshigina ta’sir ko’rsatishini o’rganishdi. Ularning tadqiqotlari shuni ko’rsatdiki, kinoindustriya nafaqat mamlakat YaIMini oshiradi, balki texnologiya, chakana savdo va xizmat ko’rsatish sohalarida “multiplikator effekti”ning paydo bo’lishiga olib keladi. Ular buni UNESCO, Motion Picture Association (MPA), Statista va turli milliy statistika saytlaridan AQSh, Hindiston, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Nigeriya misolida o’rganishdi. Shu bilan birgalikda, ular hozirgi kunda rivojlanayotgan raqamli transformatsiya va striming platformalarining kinoindustriya sektoriga nisbatan ijobiy va salbiy tomonlarini aytib o’tishgan. Ular kino sanoatini shunchaki o’yin-kulgi emas, balki iqtisodiy o’sishni rag’batlantiruvchi barqaror sanoat, degan xulosaga kelishdi.

Janubiy Koreya kino sanoati va uning iqtisodiyotga ta’siri haqida bir nechta olimlar o’z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, Jimmyn Parc (2016) [2] Janubiy Koreya

kinoindustriyasi va uning rivojlanish tarixi haqida tadqiqot olib bordi. Maqolaga ko’ra, Janubiy Koreya kinoindustriyasi ko’pchilik o’ylayotganday davlat tomonidan o’rnatilgan qat’iy qoidalar tufayli emas, balki kino sohasidagi senzura va cheklovlarni yumshatish orqali rivojlanishga erishdi. Maqolada 1960-yillardan boshlab qo’llanilgan import va ekran kvotalari kabi himoya siyosatlari sanoatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda kutilgan natijani bermagani ilmiy asoslangan. Tadqiqotda Janubiy Koreya kinosining 1990-yillardagi yuksalishi proteksionizm tufayli emas, balki Hollywood bilan to’g’ridan-to’g’ri raqobatga kirishishi va liberallashuvi natijasida sodir bo’lgani ta’kidlanadi. Sohadagi haqiqiy iqtisodiy burilish yirik konglomeratlarning (Samsung, CJ, Lotte) kirib kelishi bilan bog’liq bo’lib, ular sanoatga zamonaviy menejment va marketing tizimini joriy etganlar.

Janubiy Koreya kino va seriallarining iqtisodiy samaradorligini o’rganishda S. S. Kim, J. Agrusa, H. Lee va K. Chon [3] tomonidan o’tkazilgan tadqiqot muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mualliflar o’sha davrda mashhur bo’lgan “Qish sonatasi” (Winter Sonata) dramasi misolida kinoindustriyaning turizmga ta’sirini o’rganishgan. Tadqiqot natijalariga ko’ra, ushbu serial nafaqat Koreyaning xalqaro imijini yaxshilagan, balki bir yil ichida Yaponiyadan kelgan sayyohlar oqimini 35,5% ga oshirgan. Maqolada asosiy e’tibor “kino-turizm” (film-induced tourism) tushunchasiga qaratilgan bo’lib, unda aytilishicha, tomoshabinlar ekran orqali ko’rgan joylarini o’z ko’zi bilan ko’rish uchun pul sarflashga tayyor bo’ladilar. Sayyohlar nafaqat suratga olish maydonchalariga tashrif buyurishadi, balki mamlakat taomlari, modasi va esdalik sovg’alariga ham katta mablag’ sarflashadi. Bu esa o’z navbatida mamlakatdagi mehmonxonalar, restoranlar va transport sohalariga qo’shimcha daromad keltiradi. Ushbu maqola kinoindustriya nafaqat san’at, balki turizmni rivojlantiruvchi kuchli iqtisodiy vosita ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur ilmiy adabiyotlarda kinoindustriyaning iqtisodiyotga ta’siri turli xil sohalar kesimida o’rganilgan. Xususan, tadqiqotlar kino sanoati nafaqat YaIM o’sishiga, balki turizm, xizmat ko’rsatish va boshqa sohalarda ham multiplikativ ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya tajribasi kinoindustriyaning rivojlanishi qat’iy qoidalar orqali emas, balki cheklovlarni yumshatish va global raqobat bilan bog’liq ekanini ko’rsatadi. Biroq, ushbu tadqiqotlarda aynan Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi ko’p tomonlama ta’siri yetarli darajada tizimli va raqamli tahlil qilinmagan. Shu sababli, ushbu maqolada mazkur masalalar chuqurroq o’rganiladi.

Metodologiya

Ushbu maqolada Janubiy Koreya kino sanoatining iqtisodiy ta’sirini o’rganish uchun yillar kesimidagi statistik tahlil va sifat tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqot asosan uchta bosqichdan iborat:

1. Tomoshabinlar qiziqishini aniqlash (IMDb tahlili)

Dastlab, 2019–2025-yillar oralig’ida butun dunyoda koreys filmlariga bo’lgan global talabni aniqlash maqsad qilindi. Kinoteatrlardagi aniq chipta sotuvlari haqida ma’lumot topish qiyin bo’lgani uchun, muqobil variant sifatida IMDb platformasidagi foydalanuvchilar faolligi asos qilib olindi. Bunda filmning reytingi emas, balki unga necha kishi baho bergani (votes) muhim ko’rsatkich bo’lib xizmat qiladi. Masalan, dunyodagi eng mashhur film (“The Shawshank Redemption”) 3,2 mln marta baholanganini hisobga olib [4], qiziqish darajalari quyidagicha shkalalarga ajratildi:

- Juda yuqori: 1 mln dan ko’p baholangan (global hit);
- Yuqori: 300 000–1 000 000 oralig’ida;
- O’rtacha: 50 000–300 000 oralig’ida;
- Past: 10 000–50 000 oralig’ida;
- Juda past: 10 000 tadan kam.

Shu bilan birga, so’nggi yillarda koreys kontenti asosan striming platformalarda

ommalashgani hisobga olinib, metodikaga Netflix global reytinglari ham qo’shimcha ko’rsatkich sifatida kiritildi [5]. Shu tartibda 2019–2025-yillar oralig’idagi har bir yil uchun bittadan film yoki serial tanlab olinib, uning ommaviyligi tahlil qilindi.

2. Iqtisodiy foyda va multiplikator koeffitsiyenti

Ikkinchi bosqichda, kino sanoati keltirayotgan umumiy daromad hisoblandi va hisoblashda Oxford Economics tadqiqotlariga tayanildi [6]. 2018-yilgi ma’lumotlarga ko’ra, bu sohada multiplikator koeffitsiyenti 2.45 ni tashkil etgan. Bu degani, kino sanoatiga kiritilgan har 1 dollar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham ta’sir qilib, jami 2.45 dollar foyda keltiradi. Hozirgi raqamli texnologiyalar va striming platformalari rivojini hisobga olib, bu koeffitsiyent 2.7 deb belgilandi. Umumiy iqtisodiy ta’sir (daromad) quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$\text{Umumiy iqtisodiy ta’sir} = \text{Eksport hajmi} \times 2.7$$

3. Ish o’rinlari yaratilishi

Oxirgi bosqichda kino sanoati bandlik darajasiga qanday ta’sir qilishi ko’rib chiqildi. Bunda ham Oxford Economics uslubidan foydalanib [6], ish o’rinlari multiplikatori 2.5 deb olindi (2018-yildagi 2.23 ko’rsatkichidan biroz yuqori, chunki sun’iy intellekt va yangi texnologiyalar hisobiga yangi kasblar ko’paygan). Bu yerda bilvosita ish o’rinlari tushunchasini hisobga olish muhimdir. Masalan, kino suratga olish jarayoni ko’payishi bilan unga aloqador bo’lgan mehmonxonalar, transport va ovqatlanish xizmatlarida ham qo’shimcha ish joylari yaratiladi. Ya’ni, bitta rejissyorning ishi o’z-o’zidan bir nechta xizmat ko’rsatuvchi xodimga ehtiyoj tug’diradi. Bilvosita ish o’rinlari soni quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Bilvosita ish o’rinlari} = \text{Bevosita ishchilar soni} \times 2.5$$

Natijalar

1. IMDb va striming platformalari orqali global qiziqish tahlili

Tadqiqotning birinchi qismida 2019-yildan 2025-yilgacha bo’lgan davrda Janubiy Koreya kontentiga (film va seriallariga) bo’lgan qiziqish IMDb platformasidagi ovozlar soni va Netflixdagi ommaviylik asosida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, koreys kontenti nafaqat o’z pozitsiyasini saqlab qolgan, balki global dunyodagi mashhurligi ham ancha ortgan.

Yillar kesimidagi asosiy ko’rsatkichlar:

• 2019-yil (“Parasite”): Ushbu film 1,2 mln dan ortiq ovoz bilan bizning shkalamiz bo’yicha “Juda yuqori” (Global Hit) darajasiga chiqdi. Bu Janubiy Koreya kinosining zamonaviy iqtisodiy yuksalishi uchun poydevor bo’ldi.

• 2020–2021-yillar (“Crash Landing on You” va “Squid Game”): COVID-19 davrida “Crash Landing on You” 58 000 ovoz bilan “O’rtacha qiziqish” darajasini ko’rsatgan bo’lsa, 2021-yilda “Squid Game” 300 000 dan ortiq ovoz va Netflixdagi rekordlari bilan qiziqishni “Yuqori” darajaga olib chiqdi.

• 2022–2024-yillar (“All of Us Are Dead”, “The Glory”, “Queen of Tears”): Bu davrda asosan seriallar mashhur bo’ldi. “All of Us Are Dead” (89 000) va “The Glory” (43 000) kabi loyihalar barqaror auditoriyani ushlab turdi. Shuni ta’kidlash kerakki, IMDb ovozlari kamroq ko’ringan yillarda ham, bu loyihalar Netflixning global Top-10 taligida haftalab birinchi o’rinni egallab turgan.

• 2025-yil (“Squid Game 2”): O’tgan yilda premyera qilingan ushbu loyiha allaqachon 754 000 dan ortiq ovoz (kutilmalar va dastlabki reaksiyalar) bilan yana “Yuqori” qiziqish darajasiga qaytdi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, an’anaviy kinoteatrlarda tomoshabin soni kamaygan yillarda ham (masalan, 2021–2022), Netflix kabi striming platformalari koreys kontentiga bo’lgan qiziqishni ushlab turgan. Seriallarning mashhurligi koreys mahsulotlari, turizmi va tiliga bo’lgan qiziqishni oshirib, iqtisodiyotga multiplikator effekti orqali ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda.

2019-yildagi “Parasite” fenomenidan boshlangan rivojlanish hali to’xtab qolgani yo’q. Aksincha, Janubiy Koreya kontentiga bo’lgan global talab hali ham juda yuqori va 2025-yilga kelib bu trend yangi loyihalar hisobiga yana o’sishda davom etmoqda.

2. Eksport daromadlari va iqtisodiy multiplikator effekti tahlili

Ikkinchi qismda Janubiy Koreya kino sanoatining eksport daromadlari va ularning mamlakat iqtisodiyotiga keltirayotgan umumiy iqtisodiy foydasi tahlil qilindi. Ma’lumotlarga ko’ra, 2019–2024-yillar oralig’ida kino eksporti barqaror dinamikani ko’rsatib kelmoqda.



1-rasm. Janubiy Koreya kino eksporti (ko’k) va uning umumiy iqtisodiy multiplikator ta’siri (to’q sariq), mln. AQSH dollarida. Manba: Hallyu White Paper, 2024 [12]

Xususan, 2019-yilda eksport hajmi 73 mln dollarni tashkil etgan bo’lsa, 2022-yilda bu ko’rsatkich o’zining cho’qqisiga, ya’ni 88 mln dollarga yetgan. Tadqiqot metodologiyasida belgilangan 2.7 multiplikator koeffitsiyenti qo’llanilganda, 2019-yildan 2024-yilgacha bo’lgan davrda kino sanoati mamlakat iqtisodiyotiga jami 1 milliard 239 million dollar ($1.24 mlrd) miqdorida umumiy iqtisodiy foyda keltirgani aniqlandi.

Masalan, 2024-yilning o’zida 86 mln dollarlik bevosita eksportning boshqa sohalarga (turizm, xizmat ko’rsatish, transport) ko’rsatgan multiplikativ ta’siri natijasida jami daromad 232,2 mln dollarni tashkil etgan. Kino sanoatining iqtisodiy o’rnini tushunish uchun uni boshqa eksport tarmoqlari bilan solishtirish metodologik jihatdan muhimdir. Masalan, Korea Customs Service ma’lumotlariga ko’ra, Janubiy Koreyaning ayrim turdagi tayyor tibbiy dori vositalari yoki maxsus kosmetik xomashyolari eksporti yillik 80–90 mln dollarni tashkil etadi [7]. Bu esa kino sanoatining sof eksport qiymati bo’yicha yirik ishlab chiqarish tarmoqlari bilan tenglasha olishini ko’rsatadi. Biroq, kino sanoatining boshqa eksport tovarlaridan asosiy farqi va ustunligi uning “soft power” (yumshoq kuch) xususiyatiga egaligidir. Agar moddiy tovar eksporti faqat o’sha mahsulot qiymatini yaratsa, muvaffaqiyatli film yoki seriallar butun boshli Koreya madaniyati va brendiga bo’lgan global qiziqishni oshiradi va bu o’z navbatida boshqa sohalarga ham katta miqdorda daromad keltiradi.

3. Sanoatda bandlik darajasi va ish o’rinlari multiplikatori tahlili

Tadqiqotning uchinchi qismida 2019–2024-yillar oralig’idagi bevosita bandlik ko’rsatkichlari tahlil qilindi va metodologiyada belgilangan multiplikator koeffitsiyenti (2.5) orqali bilvosita ish o’rinlari soni hisoblab chiqildi.



2-rasm. Bevosita va bilvosita bandlik ko’rsatkichlari, ming kishi. Manba: KOFIC [10]

Korean Statistical Information Service (KOSIS) ma’lumotlariga ko’ra [8], 2019-yilda

sohada bandlik eng yuqori nuqtada (34 100 kishi) bo’lgan bo’lsa, pandemiya davrida (2020–2021) kinoteatrlar faoliyati cheklanishi hisobiga ish o’rinlari qariyb 14 foizga kamaygan. Biroq, 2022-yildan boshlab raqamli striming platformalari (Netflix, Disney+) uchun kontent ishlab chiqarish hajmi oshishi natijasida bandlik darajasi qayta tiklandi va 2024-yilga kelib bevosita ishchilar soni 33 500 nafarga yetdi.

Kino sanoatidagi bandlik ko’rsatkichlarini Janubiy Koreyaning eng yirik korporatsiyalari bilan solishtirish sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini aniqroq ochib beradi. Masalan, Samsung Electronics kompaniyasining 2024-yilda Janubiy Koreyadagi jami ishchilari soni (ma’lumotlarga ko’ra 125 000 kishi) bilan solishtirilganda, kino sanoati o’zining multiplikator effekti orqali yaratayotgan jami ish o’rinlari (117 250 kishi) bo’yicha deyarli mamlakatning eng yirik texnologik kompaniyasiga tenglashadi [9]. Bu shuni anglatadiki, Janubiy Koreya kino sanoati va unga bog’liq bo’lgan bilvosita tarmoqlar (turizm, logistika, IT va xizmat ko’rsatish) birgalikda butun boshli Samsung korporatsiyasi kabi ko’plab odamlarni ish bilan band qilmoqda. Shunday qilib, Janubiy Koreya kinoindustriyasi mamlakat iqtisodiyoti uchun shunchaki madaniy vosita emas, balki Samsung kabi muhim ahamiyatga ega bo’lgan yirik ish bilan ta’minlovchi sanoat hisoblanadi.

Muhokama

Ushbu tadqiqot natijalari Janubiy Koreya kino sanoatining shunchaki ko’ngilochar soha emas, balki mamlakat iqtisodiyotining muhim drayverlaridan biri ekanini ko’rsatadi. IMDb va Netflix platformalaridagi qiziqish darajasi bilan eksport hajmi o’rtasidagi bog’liqlik shuni isbotlaydiki, dunyodagi mashhurlik bevosita mamlakat uchun katta miqdordagi iqtisodiy foyda yaratmoqda. Ayniqsa, sanoatning bandlik darajasi bo’yicha Samsung Electronics kabi gigant kompaniya bilan raqobatlashishi, kinoindustriyaning mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikdagi o’rnini yaqqol ochib beradi.

Bu tahlillar haqiqatga ancha yaqin, chunki Janubiy Koreya hukumati, jumladan Korean Film Council [10], ham aynan “Hallyu” (Koreya to’lqini) effektini mamlakat brendini ko’taruvchi asosiy “soft power” sifatida tan oladi — bu KOFICE tomonidan chop etilgan “Hallyu” bo’yicha yillik hisobotlarda ham izchil qayd etilgan [11][12]. Biroq, ushbu maqolaning asosiy kamchiligi shundaki, hisob-kitoblarda ishlatilgan multiplikator koeffitsiyentlari (2.7 va 2.5) so’nggi yillardagi o’zgarishlar asosida muallif tomonidan taxminiy ko’rsatkich sifatida olingan. Haqiqiy koeffitsiyentlar iqtisodiy holatlarga qarab biroz farq qilishi mumkin, ammo bu umumiy mazmunni o’zgartirmaydi.

Sohani yanada rivojlantirish uchun bir qancha takliflarni ko’rib chiqish mumkin. Masalan, barcha daromadlar faqat Netflix kabi chet el kompaniyalariga ketib qolmasligi uchun Koreyaning o’zining striming platformalarini butun dunyoga tanitishi kerak. Shuningdek, filmlar olingan joylarni turistik markazlarga aylantirish orqali iqtisodiy foydani yanada oshirish imkoniyati bor (misol: “Uzuklar Hukmdori”, Yangi Zelandiya). Bu kabi takliflar kino sanoati orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreya kino sanoatini shunchaki madaniy ko’ngilochar soha emas, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi ulkan sanoat tizimi deb hisoblashimiz mumkin. Tadqiqot natijalari ushbu sohaning global miqyosda yuqori talabga ega ekanini hamda eksport, turizm va xizmat ko’rsatish kabi boshqa tarmoqlar orqali iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi. Shuningdek, kino industriyasi bevosita va bilvosita ish o’rinlarini yaratish orqali bandlik darajasini oshirishda muhim rol o’ynashini ko’rsatadi. Umuman olganda, kino sanoati mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o’ynaydi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish barqaror rivojlanishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Mammadova, E., & Abdullayev, A. (2025). Impact of theatre and cinema culture on

economy. Luminis Applied Science and Engineering, 2(3). https://egarp.lt/index.php/LUMIN/article/view/380/374

2. Parc, J. (2016). The effects of protection in cultural industries: The case of the Korean film policies. International Journal of Cultural Policy. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/10286632.2015.1116526

3. Kim, S. S., Agrusa, J., Lee, H., & Chon, K. (2007). Effects of Korean television dramas on the flow of Japanese tourists. Tourism Management. https://www.researchgate.net/publication/247230776_Effects_of_Korean_Television_Dramas_on_the_Flow_of_Japanese_Tourists

4. IMDb. (n.d.). Internet Movie Database. https://m.imdb.com

5. Netflix. (n.d.). Official website. https://www.netflix.com

6. Motion Picture Association. (2019). The economic contribution of film and television in South Korea in 2018. https://www.mpa-apac.org/wp-content/uploads/2019/12/MPA_South_Korea_report_2018_ENG_WEB.pdf

7. Korea Customs Service. (n.d.). Trade Statistics Portal. https://tradedata.go.kr/cts/index_eng.do

8. Korean Statistical Information Service (KOSIS). (n.d.). Statistical database. https://kosis.kr/eng/

9. Samsung Electronics. (n.d.). The number of employees. https://www.samsung.com/global/sustainability/policyfile/AZA5bnDqHM8ALYNu/Samsung_Electronics_The_number_of_employees_en.pdf

10. Korean Film Council. (n.d.). Official website. https://www.koreanfilm.or.kr/eng/main/main.jsp

11. Korean Foundation for International Cultural Exchange (KOFICE). (2024). Hallyu white paper 2023.

12. Korean Foundation for International Cultural Exchange (KOFICE). (2025). Hallyu white paper 2024.

MOLIYAVIY FAOLIYAT BO‘YICHA BAHOLANGAN MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Umarova Shahnoza
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
E-mail: shahnozaumarova09051995@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0624-2380

Annotatsiya. *Maqolada korxonalarning moliyaviy faoliyati doirasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. Milliy hisob amaliyoti va IAS 37 talablari qiyoslanib, 6850 – “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar” ishchi schyotini qo‘llash taklif etilgan. Majburiyatlarni tan olish, baholash va qayta ko‘rib chiqish tartibi amaliy misol asosida asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *moliyaviy faoliyat, baholangan majburiyat, rezerv, kredit, qarz, foiz, penya, IAS 37, moliyaviy hisobot.*

УЛУЧШЕНИЕ УЧЕТА ПРЕДПОЛАГАЕМЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ ПО ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Умарова Шахноза
Самаркандский институт экономики и услуг
ORCID: 0000-0002-0624-2380
E-mail: shahnozaumarova09051995@gmail.com

Аннотация. *В статье исследованы вопросы учета и отражения в финансовой отчетности оценочных обязательств, возникающих в рамках финансовой деятельности предприятий. На основе требований IAS 37 предложено использование рабочего счета 6850 «Оценочные обязательства по финансовой деятельности» и разработан порядок их признания и оценки.*

Ключевые слова: *финансовая деятельность, оценочное обязательство, резерв, кредит, заем, проценты, пеня, IAS 37, финансовая отчетность.*

IMPROVEMENT OF ACCOUNTING FOR ESTIMATED LIABILITIES BY FINANCIAL ACTIVITY

Umarova Shahnoza
Samarkand Institute of Economics and Service
E-mail: shahnozaumarova09051995@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0624-2380

Abstract. *The article examines the accounting and financial reporting of provisions arising from enterprises’ financing activities. Based on IAS 37 requirements, the use of a separate working account 6850 “Provisions related to financing activities” is proposed, together with an approach to their recognition and measurement.*

Keywords: *financing activities, provision, reserve, loan, borrowing, interest, penalty, IAS 37, financial reporting.*

Kirish

Korxonalar faoliyatining barqarorligini ta’minlashda moliyaviy resurslarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda xo‘jalik yurituvchi subyektlar bank kreditlari, qarz mablag‘lari, obligatsiyalar va boshqa moliyalashtirish manbalaridan foydalanadi. Bunday operatsiyalar moliyaviy majburiyatlarni shakllantirishi bilan birga, ularning o‘z vaqtida bajarilmasligi natijasida

qo‘shimcha moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Kredit va qarz shartnomalarida to‘lov muddatlariga rioya qilinmasligi, foizlarning kechiktirilishi, penya va jarimalarning qo‘llanilishi, sud da’volari hamda boshqa shartnomaviy holatlar korxona uchun kelgusida iqtisodiy resurslarning chiqib ketish ehtimolini yuzaga keltiradi. Ayrim hollarda bunday majburiyatlarning yakuniy summasi hisobot sanasida aniq bo‘lmaydi, biroq mavjud vaziyatdan kelib chiqib, ularni baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Amaldagi milliy hisob amaliyotida bunday majburiyatlarni hisobga olish ko‘pincha majburiyatning aniq summasi yoki uni to‘lash zarurati huquqiy jihatdan shakllangandan keyingi bosqich bilan bog‘lanadi. Natijada hisobot sanasida mavjud bo‘lgan, biroq summasi yoki muddati noaniq majburiyatlar to‘g‘risidagi axborot hisob va hisobot tizimida yetarli darajada aks ettirilmasligi mumkin.

IAS 37 “Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets” baholangan majburiyatlarni tan olish uchun o‘tgan hodisa natijasida mavjud majburiyat shakllangan bo‘lishi, iqtisodiy resurslarning chiqib ketishi ehtimoli mavjud bo‘lishi va majburiyat summasini ishonchli baholash imkoniyati bo‘lishini nazarda tutadi [1; 2]. Baholangan majburiyat eng maqbul baho asosida o‘lchanadi; uzoq muddatli majburiyatlarda pulning vaqt qiymati ham hisobga olinadi.

Moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq baholangan majburiyatlarni alohida hisob obyekti sifatida shakllantirish hisob axborotining analitikligini oshiradi. Kredit va qarzlar bo‘yicha ehtimoliy penya, shartnoma shartlarini buzish bilan bog‘liq to‘lovlar va boshqa moliyaviy risklar korxonaning moliyaviy natijasi hamda kelgusidagi pul oqimlariga ta’sir qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlarni alohida hisobga olish uchun 6850 – “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar” ishchi schyotini joriy etish taklif qilinmoqda. Ushbu schyot orqali majburiyatni dastlabki tan olish, qayta baholash, haqiqiy to‘lov bilan taqqoslash va hisobdan chiqarish operatsiyalarini tizimli aks ettirish imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar sharhi

IAS 37 baholangan majburiyatlarni tan olish, baholash va ochib berishning xalqaro metodologik asosini belgilaydi [1;2]. Mahalliy tadqiqotchilardan F. Ochilov baholangan majburiyatlarni tan olish, baholash va hisobotda yoritish masalalarini tadqiq etgan [7]; Sh. Norbo‘tayev baholangan va shartli majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida yoritgan [8]; K.B. Urazov va M.E. Po‘latov majburiyatlarning buxgalteriya hisobidagi nazariy-amaliy jihatlarini tizimlashtirgan [9]. A. To‘ychiev majburiyatlar hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolarini o‘rgangan [10]. Xorijiy adabiyotlarda E. Kieso, J. Weygandt va T. Warfield majburiyatlarni tan olish va baholash masalalarini moliyaviy hisobotning ishonchliligi bilan bog‘laydi [5], L. Chaykovskaya va Yu. Yakusheva esa shartli aktivlar va majburiyatlarni hisobda aks ettirishning metodologik jihatlarini tadqiq etgan [6]. Ushbu maqolaning farqli jihati moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq baholangan majburiyatlarni alohida hisob obyekti sifatida ajratish va ishchi schyot orqali tizimli aks ettirishga qaratilganligidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-mantiqiy tahlil hamda hisob-kitob usullaridan foydalanildi. Milliy hisob amaliyoti IAS 37 talablari bilan qiyoslandi. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlarni tan olish va baholash mezonlari aniqlanib, ularni hisobga olish uchun ishchi schyot va buxgalteriya yozuvlari ishlab chiqildi. Amaliy hisob-kitobda ehtimollik asosida kutilayotgan majburiyat summasini aniqlash yondashuvi qo‘llandi.

Tahlil va natijalar

Moliyaviy faoliyat doirasida kredit va qarzlar bo‘yicha asosiy qarz va foiz majburiyatlari odatda shartnoma shartlari asosida tan olinadi. Biroq to‘lov muddatlarining buzilishi, penya va

jarimalar, sud jarayonlari yoki boshqa shartnomaviy holatlar natijasida yuzaga keladigan qo‘shimcha majburiyatlar yakuniy summasi hali aniqlanmagan bo‘lsa ham, hisobot sanasida baholanishi mumkin. IAS 37 bo‘yicha baholangan majburiyatni tan olish kelgusidagi har qanday xarajatni rezervlashtirish degani emas. Buning uchun o‘tgan hodisa natijasida mavjud majburiyat, resurslarning chiqib ketish ehtimoli va ishonchli baholash imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak [1; 2]. Shu sababli taklif etilayotgan 6850-schyot faqat ushbu mezonlar bajarilgan moliyaviy faoliyatga oid majburiyatlar uchun qo‘llanishi lozim. Tadqiqot natijasida 6850 – “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar” ishchi schyotini joriy etish taklif qilindi. Uning analitik hisobini majburiyat turi, kredit yoki qarz manbai, valyuta turi, yuzaga kelish sababi, kutilayotgan to‘lov muddati va ehtimollik darajasi bo‘yicha yuritish maqsadga muvofiq. Taklif etilayotgan schyot amaldagi schyotlar rejasidagi rasmiy schyot nomi sifatida emas, korxonaning ishchi schyotlar rejasida moliyaviy faoliyatga oid baholangan majburiyatlarni alohida identifikatsiya qilishga xizmat qiluvchi mualliflik taklifi sifatida qaraladi.

Biz tadqiqotimiz davomida moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlarni alohida hisobga olish uchun alohida **6850 – “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar”** ishchi schyotni hamda uni quyidagicha yuritish uslubiyatini tavsiya etdik (1-jadval).

1-jadval.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar bo‘yicha tavsiya etilayotgan buxgalteriya o‘tkazmalari[1]

№	Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit	Izoh
1	Baholangan majburiyatni dastlabki tan olish (obligatsiya, kredit risklari bo‘yicha)	9690 –Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	6850 – Baholangan majburiyatlar	Kelgusidagi ehtimoliy xarajatlar tan olinadi
2	Diskontlash natijasida majburiyat qiymatini oshirish (foiz elementi)	9610 – Foiz xarajatlari	6850	Pulning vaqt qiymati hisobga olinadi
3	Baholangan majburiyat summasini qayta baholash (oshishi)	9690	6850	Risk oshganda
4	Baholangan majburiyat summasini kamaytirish	6850	9690	Risk kamayganda
5	Real to‘lov amalga oshirilganda	6850	5110 – Hisob-kitob schyoti	Majburiyat yopiladi
6	Majburiyat bekor bo‘lsa	6850	9390 – Boshqa daromadlar	Qayta tiklangan foyda sifatida
7	Uzoq muddatli majburiyatlarga o‘tkazish	6850	7850 – Uzoq muddatli majburiyatlar	Muddat o‘zgarganda
8	Qisqa muddatga o‘tkazish	7850	6850	To‘lov muddati yaqinlashganda
9	Valyuta kurslari o‘zgarishi ta’siri	9620 yoki 9540	6850	Valyuta riski
10	Obligatsiya chiqarishda ehtimoliy xarajatlar uchun rezerv	9630	6850	Emissiya bilan bog‘liq risklar

Muallif ishlanmasi.

Baholangan majburiyatlarni alohida hisobga olish orqali moliyaviy hisobotlarda majburiyatlar tarkibi, kelib chiqish manbalari va ularning kelgusidagi moliyaviy ta’siri haqida

[1] Muallif ishlanmasi

yanada shaffof va ishonchli axborot shakllantiriladi. Bu esa korxona faoliyatida mavjud risklarni, xususan, sud da’volari, kafolat majburiyatlari, ekologik to‘lovlar, restrukturizasiya xarajatlari va boshqa ehtimoliy majburiyatlar bilan bog‘liq xavflarni to‘g‘ri baholash imkonini beradi. Natijada investorlar, kreditorlar, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar korxonaning haqiqiy moliyaviy holati, to‘lovga qobiliyati va kelgusidagi moliyaviy yuklamalari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘ladi.

Ishimizda korxonalarning buxgalteriya hisobida baholangan majburiyatlarni hisob va hisobotlarda quyidagi 8 bosqichli ketma-ketlik algoritmi asosida aks ettirish tavsiya etildi (1 - rasm).

1-rasm.

Baholangan majburiyatlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirish ketma-ketlik algoritmi[2]



Muallif ishlanmasi.

Ishimizda olingan kreditlar bo‘yicha baholangan majburiyatlar hisob-kitobi va ularni tavsiya etilgan 6850 – “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar” schyotida aks ettirishning uslubiyati “Shohrud” AJ amaliy materiallari asosida ochiqlandi. Bunda quyidagilar asos qilib olindi: mazkur korxona 2025 yil 16-mayda bir million AQSh dollari miqdorida bir yilga 6% foiz to‘lovi miqdoridagi kredit olgan. Shartnomada asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda qarz oluvchi bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1.5 barobar oshirilgan miqdorida foiz to‘lashi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, foizlarni belgilangan muddatda to‘lamaganligi va ular bo‘yicha muddati o‘tgan summalar vujudga kelganligi uchun qarzdor bankka kechiktirilgan to‘lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0.1% miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50%dan oshmagan miqdorda penya to‘lashi ham qayd etilgan. Shartnoma shartidan kelib chiqib, quyidagilar aniqlandi: bir oylik asosiy qarz summasi o‘rtacha 83 000 AQSh dollari; bir oylik foiz to‘lovi o‘rtacha 5 000 AQSh dollari; kunlik o‘rtacha to‘lov 2 900 AQSh dollari; foiz bo‘yicha kunlik to‘lov summasi 165 AQSh dollari; korxonaning asosiy qarz summasini to‘lashdan 10 kun kechikish ehtimoli - 60%; foiz to‘lov summasidan 8 kun kechikish ehtimoli 70%.

[2] Muallif ishlanmasi

Ushbu ma’lumotlar va IAS 37da belgilangan tartib-qoidalarga ko‘ra olingan kredit va to‘lanadigan foizlar bo‘yicha baholangan majburiyat (rezerv) summasi hisob-kitobi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

“Shohrud” AJda 2024 yilda xorijiy valyutadan olingan kreditlar bo‘yicha baholangan majburiyatlarning IAS 37da keltirilgan tartib-qoidalarga asosan hisob-kitobi[3]

№	Majburiyatga oid ko‘rsatkich	Hisob-kitob tartibi, summa AQSh dollarida
1.	Asosiy qarz bo‘yicha taxminiy to‘lov summasi	165*1.5*10 =2475
2.	Asosiy qarz bo‘yicha baholangan majburiyat	2 475*60% = 1 485
3.	Foiz to‘lovlari bo‘yicha tahminiy to‘lov summasi	165*0.1%*8=1.32
4.	F//oiz to‘lovlari bo‘yicha baholangan majburiyat	1.32*70%=0.924
5.	Umumiy baholangan majburiyat	1 485+0.924= 1 485.924
6	Milliy valyutadagi umumiy baholangan majburiyat summasi (kurs: 1 AQSh dollari =12000 sum)	1 485.925*12 000= 17 831 100 so‘m

Muallif ishlanmasi

Ishimizda olingan kredit va to‘lanadigan foizlar bo‘yicha baholangan majburiyat (rezerv) summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvlarini berish tavsiya etildi (3-jadval).

3-jadval

“Shohrud” AJda2024 yilda xorijiy valyutadan olingan kreditlar bo‘yicha baholangan majburiyatlarni tavsiya etilgan schyotlarda aks ettirish tartibi[4]

№	Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit	Summa
1	Olingan qarzlar va kreditlar bo‘yicha baholangan majburiyatlar (rezerv)ning hisoblangan summasiga	9450	6850	17831000
2	Keyinchalik hisobot davri davomida vujudga kelgan haqiqiy jarima summasiga			
2.1	Agar haqiqiy jarima summasi rezervdan kam bo‘lsa	6850 6850	5110 9390	15000000 2831000
2.2	Agar haqiqiy jarima summasi rezervdan ko‘p bo‘lsa	6850 9430	5110 5110	17831000 1169000

Biz tomonimizdan taklif qilinayotgan yondashuvning quyidagi afzalliklari mavjud*: birinchidan,* korxona moliyaviy hisobotida ehtimoliy qarz tavakkalchiliklari to‘liq va shaffof qo‘rsatiladi; *ikkinchidan,* moliyaviy natijalarni tahlil qilishda real majburiyatlarni hisobga olish imkoni yaratiladi; *uchinchidan,* hisobot foydalanuvchilari (investorlar, auditorlar, kredit tashkilotlari) uchun korxona tavakkalchilik profilini baholash osonlashadi; *to‘rtinchidan,* baholanganmajburiyatlar uchun alohida schyotlar joriy etilishi hisob tizimini standartlashtirishga yordam beradi; *beshinchidan,* olingan qarzlar bo‘yicha baholangan majburiyatlar hisobini tashkil etish orqali korxonalarda tavakkalchiliklarni oldindan aniqlash, ehtimoliy to‘lovlarni rejalashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkoni yaratiladi.

Xulosa

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlarni hisobga olishning asosiy muammosi ularning noaniq summasi yoki yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo‘lgan davrda hisob axborotida yetarli darajada identifikatsiya qilinmasligi bilan bog‘liq.

IAS 37 talablari baholangan majburiyatni tan olishda o‘tgan hodisa natijasida mavjud majburiyat, resurslarning chiqib ketish ehtimoli va ishonchli baholash imkoniyati mezonlariga tayanishni talab qiladi. Shuning uchun taklif etilayotgan uslubiyat kelgusidagi barcha xarajatlarni

[3] Muallif ishlanmasi
[4] Muallif ishlanmasi

avtomatik rezervlashtirishni emas, balki ushbu mezonlar bajarilgan majburiyatlarni tan olishni nazarda tutadi.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlarni alohida hisobga olish uchun 6850 – “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar” ishchi schyotini joriy etish hisob axborotining analitikligi va shaffofligini oshiradi.

Taklif etilgan 8 bosqichli algoritm baholangan majburiyatlarni aniqlashdan boshlab ularni hisobotlarda ochib berishgacha bo‘lgan jarayonni izchil tashkil etishga imkon beradi. Amaliy misolda ehtimollik asosida hisob-kitob qilish orqali kredit bo‘yicha ehtimoliy qo‘shimcha moliyaviy yuklama aniqlanib, uni 6850-schyotda aks ettirish tartibi ko‘rsatildi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan yondashuv moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq risklarni oldindan aniqlash, ehtimoliy to‘lovlarni rejalashtirish, moliyaviy hisobotda majburiyatlar to‘g‘risidagi axborotning ishonchliligini oshirish va boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IFRS Foundation. IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. International Accounting Standards Board.

2. IFRS Foundation. IAS 37: recognition, measurement, review and disclosure requirements.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-404-son, 2016 yil 13 aprel.

4. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti: 9-son BHMS “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot”. 2024 yil.

5. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. Wiley.

6. Чайковская Л.А., Якушева Ю.А. Организационные и методологические подходы к отражению условных активов и обязательств хозяйственной деятельности. Международный бухгалтерский учет. 2007. №2.

7. Ochilov F. Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish. Green Economy and Development. 2024. Vol. 2, No. 5.

8. Norbo‘tayev Sh.J. Baholanadigan majburiyatlarni xalqaro standartlarga muvofiq shartli aktiv va shartli majburiyatlar hisobi. TADQIQOTLAR.UZ. 2024. 33(2). 183–191.

9. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. 564 b.

10.To‘ychiev A. Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari: dissertatsiya. Toshkent, 2011.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

AVTOMOBILSOZLIK KORXONALARINING XARAJAT SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: xmoydinov@gmail.com
ORCID: 0009-0006-1063-3161

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatining ikkita yetakchi korxonasi – “UzAuto Motors” AJ va “Uzauto Motors Powertrain” AJ (dvigatel va uzatmalar qutisi ishlab chiqaruvchi korxona) - misolida ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi yillik panel ma’lumotlar asosida ekonometrik baholangan. Tadqiqot 2020-2025 yillarni qamrab oluvchi 12 ta yillik kuzatuvdan (2 korxona x 6 yil) iborat bo‘lib, natijaviy ko‘rsatkich sifatida xarajat samaradorligi koeffitsienti (EFF=TR/TC) qabul qilingan. Ko‘p faktorli regressiya tahlili natijalariga ko‘ra, korxonaning kredit resurslaridan foydalanish darajasi (CREDIT) xarajat samaradorligiga statistik jihatdan ahamiyatli salbiy ta’sir ko‘rsatadi (R^2=0,46-0,52; p<0,05), boshqa omillar (CAPEX, AMORT, qarz yuklamasi) esa yillik chastotadagi kichik hajmli tanlanmada (n=12) alohida statistik ahamiyatga ega bo‘lmadi, garchi ularning ta’sir yo‘nalishi iqtisodiy nazariyaga mos keladi. Tadqiqot natijalari asosida korxonalarning kredit siyosatini optimallashtirish va investitsiya faoliyatini rivojlantirishga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *avtomobilsozlik sanoati, ekonometrik modellashtirish, ko‘p faktorli regressiya, panel ma’lumotlar, xarajat samaradorligi, kredit resurslari, korxona rivojlanishi.*

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАТРАТ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЕСТРОЕНИЯ

Муйдинов Хусниддин Нуриддинович
докторант
Ташкентского государственного
экономического университета
преподаватель
Андижанского государственного
педагогического института
E-mail: xmoydinov@gmail.com
ORCID: 0009-0006-1063-3161

Аннотация. *На примере двух ведущих предприятий автомобильной промышленности Узбекистана - АО “UzAuto Motors” и АО “Uzauto Motors Powertrain” - проведена эконометрическая оценка уровня экономического развития на основе годовых панельных данных. Исследование охватывает 12 годовых наблюдений (2 предприятия x 6 лет, 2020-2025 гг.), результативным показателем выступает коэффициент эффективности затрат (EFF=TR/TC). Согласно результатам многофакторного регрессионного анализа, уровень использования кредитных ресурсов (CREDIT) оказывает статистически значимое отрицательное влияние на эффективность затрат (R^2=0,46-0,52; p<0,05), тогда как другие факторы (CAPEX, AMORT, долговая нагрузка) не показали отдельной статистической значимости при малой годовой выборке (n=12), хотя направление их влияния соответствует экономической теории. На основе результатов разработаны научно обоснованные рекомендации по оптимизации кредитной политики и развитию инвестиционной деятельности предприятий.*

Ключевые слова: *автомобильная промышленность, эконометрическое моделирование, многофакторная регрессия, панельные данные, эффективность затрат, кредитные ресурсы, развитие предприятия.*

ECONOMETRIC MODELING OF COST EFFICIENCY OF AUTOMOTIVE ENTERPRISES

Muydinov Khusniddin Nuriddin ugli
Doctoral Student (PhD),
Tashkent State University of Economics
Lecturer at Andijan State Pedagogical Institute
E-mail: xmoydinov@gmail.com
ORCID: 0009-0006-1063-3161

Abstract. *Using two leading enterprises of Uzbekistan’s automotive industry - JSC “UzAuto Motors” and JSC “Uzauto Motors Powertrain” - as a case study, the article econometrically evaluates the level of economic development based on annual panel data. The study covers 12 annual observations (2 firms x 6 years, 2020-2025), with the cost-efficiency ratio (EFF=TR/TC) as the dependent variable. Multiple regression results show that the level of credit resource utilization (CREDIT) has a statistically significant negative effect on cost efficiency (R^2=0.46-0.52; p<0.05), while other factors (CAPEX, AMORT, debt ratio) did not show individual statistical significance given the small annual sample (n=12), although their direction of influence is consistent with economic theory. Based on the findings, evidence-based recommendations are developed for optimizing credit policy and enhancing investment activity.*

Keywords: *automotive industry, econometric modeling, multiple regression, panel data, cost efficiency, credit resources, enterprise development.*

Kirish

Sanoatlashtirish jarayoni har qanday milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sish poydevorini tashkil etadi. U.U.Rostouning iqtisodiy o‘sish bosqichlari nazariyasiga ko‘ra, sanoatlashtirish mamlakat iqtisodiyoti uchun “uchish” (take-off) bosqichining ajralmas sharti hisoblanadi [1]. N.Kaldor esa empirik ravishda sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi yalpi ichki mahsulot va mehnat unumdorligi o‘sishining hal qiluvchi omili ekanligini isbotlagan [2]. BMTning Sanoat taraqqiyoti tashkiloti (UNIDO) ta’rifiga ko‘ra, sanoat korxonalari mehnat, kapital va texnologiya resurslarini birlashtiruvchi hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy mikro darajadagi subyektlardir [3].

O‘zbekiston Respublikasida ham sanoat tarmoqlari, jumladan avtomobilsozlik, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. 2023-yilda mamlakat sanoati 6 foizga o‘sib, 656 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va 4600 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushirildi [4]. Prezidentning 2019-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g'risida”gi qaroriga muvofiq, yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini 350 ming donagacha oshirish, mahalliylashtirish darajasini 60 foizgacha yetkazish va yillik eksport hajmini 100 ming donaga chiqarish vazifalari belgilangan [5]. F.M.Xolmirzayevning tadqiqotiga ko‘ra, avtomobilsozlik sohasi mamlakat YaIMining 6,6 foizini tashkil etib, tarmoqda va unga bog'liq sohalarda jami 200 mingdan ortiq kishi band bo‘lib, mamlakatda avtomobil ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagi 88,2 ming donadan 2022-yilda 306,7 ming donaga, ya’ni qariyb 3,5 barobarga oshgan [6].

Avtomobilsozlik tarmog'ining yuqori kapital sig'imliligi, uzoq investitsiya qaytimi muddati va global bozor kon'yunkturasiga sezgirligi sharoitida korxonalarning xarajat samaradorligini (ya’ni sotishdan tushgan daromadning ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash darajasini) shakllantiruvchi omillarni - kapital qo‘yilmalar, amortizatsiya, kredit mablag'lari va qarz yuklamasi kabi ko‘rsatkichlarni - ilmiy asoslangan ekonometrik usullar bilan baholash alohida dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birga, korxona darajasidagi tadqiqotlarda ma’lumotlarning yillik

chastotada, uzoq vaqt qatoriga ega bo‘lmagan holda taqdim etilishi ko‘p hollarda amaliy zaruratdan kelib chiqadi, chunki rasmiy yillik hisobotlar aynan shu formatda e'lon qilinadi va tahlilchi tomonidan aynan shu ko‘rinishda qabul qilinishi lozim.

Maqolaning maqsadi - O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatining ikki yetakchi korxonasi, ya’ni “UzAuto Motors” AJ va “Uzauto Motors Powertrain” AJning 2020-2025 yillardagi rasmiy yillik moliyaviy hisobotlari asosida shakllantirilgan panel ma’lumotlardan foydalanib, ko‘p faktorli regressiya tahlili yordamida korxonalar xarajat samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda shu asosda ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Sanoat korxonalari faoliyatini ekonometrik modellashtirish masalalari jahon va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Dj.Vuldrij ekonometrik tahlilda kichik hajmli tanlanmalar (small sample) bilan ishlashda model spetsifikatsiyasini soddalashtirish va o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi multikollinearlikni nazorat qilish zarurligini asoslab bergan [7]. Ch.Kobb va P.Duglas tomonidan ishlab chiqilgan logarifmik ishlab chiqarish funksiyasi kontseptsiyasi [8] ekonometrik modellarda elastiklik koeffitsientlarini interpretatsiya qilishning nazariy asosini tashkil etadi va mazkur tadqiqotda ham barcha o‘zgaruvchilarning natural logarifm shaklida ifodalanishiga asos bo‘lgan.

R.Gavva va E.Lojkomoyeva ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda ekonometrik usullarning tanlanishi tarmoq xususiyatlariga bog'liq bo‘lishi lozimligini ko‘rsatgan [9]. F.M.Xolmirzayevning “O‘zbekiston iqtisodiyotida avtomobilsozlikning rivojlanishi” maqolasida avtomobilsozlik korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish usullari tahlil qilinib, tarmoqning investitsiya jalb etish muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha takliflar berilgan [6]. KPMG xalqaro auditorlik kompaniyasining 2024-yildagi O‘zbekiston avtotransport vositalari bozorini tahlil qilish bo‘yicha hisobotida mamlakat avtobozorining so‘nggi yillardagi jadal o‘sishi va ichki ishlab chiqarish hajmining kengayishi qayd etilgan [10].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarni umumlashtirib xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini aynan yillik moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida, kichik hajmli panel ma’lumotlar yordamida ko‘p faktorli regressiya tahlili orqali baholash va bunda multikollinearlik hamda erkinlik darajasi cheklovlarini ilmiy jihatdan to‘g'ri hisobga olish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda “UzAuto Motors” AJ (yig'uv korxonasi, birja tikeri - UZMT) va “Uzauto Motors Powertrain” AJ (dvigatel va uzatmalar qutisi ishlab chiqaruvchi korxona)ning 2020-2025 yillardagi rasmiy moliyaviy hisobotlari (Buxgalteriya balansi va Moliyaviy natijalar to‘g'risidagi hisobot) asosida har bir korxona uchun 6 tadan, jami 12 ta yillik kuzatuvdan iborat panel ma’lumotlar shakllantirildi [11]. Yillik ko‘rsatkichlar korxonalarning choraklik hisobotlaridagi oqim ko‘rsatkichlarini (TR - sof tushum, TC - umumiy xarajatlar, OPEX - operatsion xarajatlar, CAPEX - kapital qo‘yilmalar, AMORT - amortizatsiya ajratmalari) yil davomidagi to‘rt chorak bo‘yicha jamlash, zaxira ko‘rsatkichini (CREDIT - kredit mablag'lari qoldig'i) esa yil oxiridagi holatga ko‘ra olish yo‘li bilan hosil qilindi. Qarz yuklamasi koeffitsienti (DR) klassik ta’rif bo‘yicha DR = jami majburiyatlar / jami aktivlar tarzida, yil oxiridagi balans ma’lumotlari asosida hisoblandi.

Natijaviy ko‘rsatkich sifatida xarajat samaradorligi koeffitsienti tanlandi:

$$EFF = TR / TC$$

bunda EFF>1 bo‘lganda korxona xarajatlarini to‘liq qoplab, foyda hosil qiladi. Barcha o‘zgaruvchilar natural logarifm (ln) shakliga o‘tkazildi; DR o‘zgaruvchisi uchun esa ln(1+DR) shaklidagi modifikatsiyalangan transformatsiya qo‘llanildi [7].

Metodologik jihatdan alohida ta’kidlash lozimki, ma’lumotlarni yillik chastotaga keltirish

natijasida kuzatuvlar soni har bir korxona uchun 6 tagacha, ikki korxona bo‘yicha jamlangan panelda esa 12 tagacha kamayadi. Bunday hajmdagi tanlanmada besh va undan ortiq mustaqil o‘zgaruvchini bir vaqtda o‘z ichiga olgan to‘liq regressiya modelini baholash erkinlik darajasining yetishmasligi (n-k-1 kichik qiymati) hamda o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi yuqori korrelyatsiya (multikollinearlik) sababli statistik jihatdan ishonchli natija bermaydi. Shu sababli tadqiqotda quyidagi ketma-ket yondashuv qo‘llanildi: birinchi bosqichda barcha nomzod o‘zgaruvchilar (CAPEX, AMORT, CREDIT, DR) o‘rtasidagi va ularning natijaviy ko‘rsatkich bilan bog'liqligini aniqlovchi korrelyatsiya matritsasi hamda Variance Inflation Factor (VIF) ko‘rsatkichlari hisoblandi; ikkinchi bosqichda multikollinearlikni bartaraf etish va model barqarorligini ta’minlash maqsadida statistik jihatdan eng ahamiyatli va nazariy jihatdan asoslangan cheklangan sondagi o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga olgan qisqartirilgan (parsimonious) regressiya modeli baholandi:

$$\ln(EFF_it) = \beta_0 + \beta_1 \cdot \ln(CREDIT_{it}) + \beta_2 \cdot D_i + \varepsilon_{it}$$

bunda i - korxona indeksi (i=1,2), t - yil indeksi (t=2020,...,2025), D - korxona turini ifodalovchi dammi o‘zgaruvchi (D=1 – “UzAuto Motors” AJ, D=0 – “Uzauto Motors Powertrain” AJ). Model Ordinary Least Squares (OLS) usulida baholandi. Koeffitsientlarning statistik ahamiyatliligi Styudent t-mezoni orqali, modelning umumiy sifati esa R^2, tuzatilgan R^2 va Fisher F-mezoni orqali tekshirildi. Hisob-kitoblar Python dasturlash tilining pandas, statsmodels va numpy kutubxonalari yordamida amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar

Ikki korxonaning 2020-2025 yillardagi yillik moliyaviy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

“UzAuto Motors” AJ va “Uzauto Motors Powertrain” AJning 2020-2025 yy. yillik moliyaviy ko‘rsatkichlari[5] (mlrd so‘m)*

Yil	TR (UzAuto Motors)	TC (UzAuto Motors)	CREDIT (UzAuto Motors)	EFF (UzAuto Motors)	TR (Powertrain)	EFF (Powertrain)
2020	45 012	38 691	1 623	1,163	5 849	1,237
2021	37 925	31 636	2 315	1,199	4 517	1,266
2022	67 301	54 893	2 846	1,226	7 011	1,182
2023	86 527	74 262	5 793	1,165	8 847	1,182
2024	84 973	74 782	4 214	1,136	11 183	1,155
2025	72 347	67 292	4 615	1,075	11 187	1,200

1-rasm.

2020-2025 yillarda ikki korxonaning yillik sof tushum dinamikasi[6]



[5] Muallif ishlanmasi
[6] Muallif ishlanmasi

1-rasmda ko‘rsatilganidek, “UzAuto Motors” AJning sof tushumi 2023-yilgacha barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etib, so‘ngra 2024-2025 yillarda biroz pasaygan, “Uzauto Motors Powertrain” AJda esa 2021-yildagi qisqarishdan so‘ng barqaror o‘sish kuzatilib, 2024-2025 yillarda yuqori darajada barqarorlashgan.

2-rasm.

Xarajat samaradorligi koeffitsientining yillik dinamikasi, 2020-2025 yy[7].



2-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, EFF ko‘rsatkichi tahlil davrining boshida (2020-2021) ikkala korxonada ham nisbatan yuqori bo‘lgan, biroq 2022-2025 yillarda umumiy pasayish tendensiyasi kuzatilgan: “UzAuto Motors” AJda EFF 1,226 dan (2022) 1,075 gacha (2025), “Uzauto Motors Powertrain” AJda esa 1,266 dan (2021) 1,155 gacha (2024) pasaygan, so‘ngra 2025-yilda 1,200 darajasiga qisman tiklangan. Bu operatsion xarajatlarning sof tushumga nisbatan tezroq o‘sib borayotganidan dalolat beradi.

Korrelyatsion tahlil va omillarni tanlash

2-jadval.

ln(EFF) va nomzod omillar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari (n=12)

	ln(EFF)	ln(CAPEX)	ln(CREDIT)	ln(AMORT)	ln(1+DR)	D
ln(EFF)	1,000	-0,434	-0,679	0,014	0,036	-0,448
ln(CAPEX)	-0,434	1,000	0,742	-0,082	0,691	0,786
ln(CREDIT)	-0,679	0,742	1,000	0,030	0,491	0,848

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, natijaviy ko‘rsatkich (ln(EFF)) bilan eng kuchli korrelyatsiyaga ega omil - kredit mablag'lari (ln(CREDIT), r=-0,679) hisoblanadi. Shu bilan birga, ln(CAPEX), ln(CREDIT) va korxona dammi o‘zgaruvchisi (D) o‘zaro yuqori korrelyatsiyaga ega (r=0,74-0,85), bu esa ularni bitta modelga bir vaqtda kiritish multikollinearlik muammosini keltirib chiqarishini ko‘rsatadi (VIF qiymatlari 4 dan yuqori). Shu sababli, ilmiy metodologik jihatdan asoslangan tanlov asosida, natijaviy ko‘rsatkich bilan eng kuchli va barqaror bog'liqlikka ega bo‘lgan ln(CREDIT) o‘zgaruvchisi asosiy tushuntiruvchi omil sifatida, D esa korxonalar o‘rtasidagi tizimli farqni nazorat qilish uchun modelga kiritildi.

Regressiya tahlili natijalari

3-jadval.

$\ln(EFF) = \beta_0 + \beta_1 \cdot \ln(CREDIT) + \beta_2 \cdot D + \varepsilon$ modelining baholash natijalari (n=12)[8]

O‘zgaruvchi	Koeffitsient	Std.xato	t-stat	p-qiymat
const (β_0)	0,5700	0,158	3,603	0,006
ln(CREDIT) (β_1)	-0,0567	0,023	-2,443	0,037
D (β_2)	+0,0373	0,036	1,046	0,323

[7] Muallif ishlanmasi
[8] Muallif ishlanmasi

R^2 = 0,520; Tuzatilgan R^2 = 0,413; F-statistika = 4,868 (p = 0,037); n = 12

Model bo‘yicha aniqlanish koeffitsienti R^2=0,520 bo‘lib, bu EFF ko‘rsatkichidagi variatsiyaning 52,0 foizi kredit resurslaridan foydalanish darajasi va korxona turi bilan izohlanishini bildiradi. Model umumiy jihatdan statistik ahamiyatli (F=4,868; p=0,037<0,05). ln(CREDIT) o‘zgaruvchisining koeffitsienti (β_1=-0,057) 5 foizlik ahamiyatlilik darajasida statistik ahamiyatli (p=0,037) bo‘lib, kredit mablag'lari hajmining 1 foizga oshishi, boshqa sharoitlar o‘zgarmagan holda, xarajat samaradorligining o‘rtacha 0,057 foizga pasayishi bilan bog'liq ekanligini ko‘rsatadi. Korxona dammi (D) koeffitsienti musbat, biroq statistik jihatdan ahamiyatsiz (p=0,323) chiqdi, bu ikkala korxonaning ham kredit-samaradorlik bog'liqligi bo‘yicha tizimli farq qilmasligidan dalolat beradi.

3-rasm.

Ln(CREDIT) va ln(EFF) o‘rtasidagi bog’liqlik[9]



3-rasmda aks ettirilgan sochilma diagramma va OLS chizig'i ln(CREDIT) va ln(EFF) o‘rtasidagi manfiy chiziqli bog'liqlikni vizual tasdiqlaydi: kredit hajmi yuqori bo‘lgan yillarda (asosan 2023-2024) xarajat samaradorligi nisbatan past, kredit hajmi kam bo‘lgan yillarda (2020-2021) esa samaradorlik yuqoriroq bo‘lgan. Faqat ln(CREDIT) o‘zgaruvchisini o‘z ichiga olgan sodda (bivariativ) model ham deyarli bir xil natija beradi (R^2=0,461; β=-0,036; p=0,015), bu topilmaning barqarorligini tasdiqlaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kapital qo‘yilmalar (CAPEX), amortizatsiya (AMORT) va qarz yuklamasi (DR) kabi omillar iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan xarajat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi kutilgan bo‘lsa-da (bu O‘zbekiston avtomobilsozlik korxonalarining choraklik ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan kengroq tadqiqotlarda ham tasdiqlangan), ularning alohida statistik ahamiyati yillik chastotadagi kichik hajmli tanlanmada (n=12) aniqlanmadi. Bu natija ekonometrik tadqiqotlarda keng tarqalgan qonuniyatni - ma’lumotlar chastotasining pasayishi kuzatuvlar sonini va, demak, statistik xulosalar aniqligini kamaytirishini - yana bir bor tasdiqlaydi va yillik ma’lumotlar bilan ishlashda model spetsifikatsiyasini soddalashtirish zaruriyatini asoslaydi.

Xalqaro amaliyot bilan qiyosiy tahlil

Tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini va amaliy ahamiyatini kengaytirish maqsadida, “UzAuto Motors” AJning xarajat samaradorligi ko‘rsatkichi (EFF=TR/TC) xalqaro avtomobilsozlik sanoatining uchta yetakchi vakili - Toyota Motor Corporation (Yaponiya),

[9] Muallif ishlanmasi

Volkswagen AG (Germaniya) va Hyundai Motor Company (Janubiy Koreya) - bilan qiyoslandi [12].

4-jadval.

“UzAuto Motors” AJ va yetakchi xorijiy avtoishlab chiqaruvchi korxonalarning xarajat samaradorligi koeffitsienti (EFF=TR/TC)[10], 2020–2025 yy.

Yil	UzAuto Motors AJ	Toyota	Volkswagen	Hyundai
2020	1,163	1,088	1,045	1,060
2021	1,199	1,106	1,083	1,074
2022	1,226	1,079	1,086	1,103
2023	1,165	1,135	1,075	1,089
2024	1,136	1,111	1,062	1,073
2025	1,075	1,080	1,028	1,066

Qiyoslash xuddi shu EFF=TR/TC formulasi asosida, ushbu korxonalarning 2020-2025 yillardagi rasmiy yillik moliyaviy hisobotlarida keltirilgan sof tushum va operatsion foyda ma’lumotlaridan (TC = TR – operatsion foyda) foydalanib amalga oshirildi. Xorijiy korxonalar bo‘yicha OPEX, CAPEX, AMORT va CREDIT ko‘rsatkichlarining choraklik chuqurlikdagi tarkibiy tafsilotlari ommaviy manbalarda alohida taqdim etilmagani sababli, ular uchun to‘liq ko‘p faktorli regressiya emas, balki tavsifiy (deskriptiv) qiyosiy tahlil o‘tkazildi - bu tadqiqotning ochiq e‘tirof etiluvchi metodologik chegarasi hisoblanadi.(Jadval-4)

4-jadval va 4-rasmda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilish bir qator muhim xulosalarni ilgari surish imkonini beradi. Birinchidan, barcha to‘rtta korxonada ham 2022-yil xarajat samaradorligi koeffitsientining nisbiy cho‘qqisi sifatida namoyon bo‘lgan: “UzAuto Motors” AJda EFF=1,226, Hyundai‘da EFF=1,103 darajasida qayd etilgan, Toyota va Volkswagen‘da esa 2022–2023-yillar oralig‘ida eng yuqori qiymatlarga erishilgan. Bu holat tasodifiy emas, balki pandemiyadan keyingi davrda talabning keskin tiklanishi, avtomobil narxlarining ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan tezroq o‘sishi (yuqori narxlash kuchi) kabi umumjahon makroiqtisodiy omillar bilan izohlanadi.

4-rasm.

“UzAuto Motors” AJ va yetakchi xorijiy avtoishlab chiqaruvchi korxonalarning xarajat samaradorlik grafigi[11]



[10] muallif hisob-kitoblari, “UzAuto Motors” AJning rasmiy hisobotlari [11] hamda Toyota Motor Corporation, Volkswagen AG va Hyundai Motor Company korxonalarining rasmiy yillik moliyaviy hisobotlari [12] asosida.
[11] Muallif ishlanmasi

Ikkinchidan, 2023–2025-yillar davomida barcha to‘rtta korxonada ham xarajat samaradorligi koeffitsientining pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Bu tendensiyaning umumiyligi shuni ko‘rsatadiki, mazkur davrda avtomobilsozlik tarmog‘ining barcha yirik ishtirokchilariga bir xil turdagi tashqi omillar - xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari tomonidan joriy etilgan bojxona tariflari, xitoylik ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatning kuchayishi, elektromobillarga o‘tish jarayonidagi qo‘shimcha investitsiya xarajatlari hamda energiya va logistika narxlarining oshishi ta’sir ko‘rsatgan. Demak, “UzAuto Motors” AJning so‘nggi yillardagi xarajat samaradorligi pasayishini faqat ichki (korxona darajasidagi) omillar bilan emas, balki tarmoqqa xos global tendensiya bilan ham bog‘lash to‘g‘ri bo‘ladi.(rasm-4)

Uchinchidan, “UzAuto Motors” AJning EFF ko‘rsatkichi 2020–2024-yillarning barcha kesimlarida xorijiy raqobatchilarnikidan yuqori bo‘lgan (masalan, 2022-yilda EFF=1,226, Toyotada 1,079, Volkswagenda 1,086, Hyundaida 1,103), bu mahalliy ishchi kuchi tannarxining nisbatan pastligi va zavodning nisbatan yangi texnologik bazasi bilan izohlanadi. Biroq korxonaning 2022–2025-yillar oralig‘idagi pasayish sur’ati (EFF 1,226 dan 1,075 gacha, ya’ni 12,3 foizga) xalqaro raqobatchilarnikidan (Toyota – taxminan 0,1 foizga, Hyundai – 3,4 foizga, Volkswagen – 5,3 foizga) sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Ushbu holat mazkur tadqiqotning asosiy ekonometrik topilmasi bilan uyg‘unlashadi: regressiya tahlili natijalariga ko‘ra kredit resurslaridan foydalanish darajasi (CREDIT) xarajat samaradorligiga statistik jihatdan ahamiyatli salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil (β=-0,057; p=0,037) sifatida aniqlangan edi - xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy leverajga (masalan, Volkswagenning 2025-yilgi bir martalik qayta tashkil etish xarajatlari) ortiqcha bog‘liq bo‘lgan korxonalar xuddi shunday tarzda xarajat samaradorligi keskin pasayishiga duch kelmoqda, bu esa CREDIT omilining salbiy ta’siri nafaqat mahalliy, balki umumjahon miqyosida ham kuzatiladigan qonuniyat ekanligini tasdiqlaydi.

To‘rtinchidan, shuni alohida ta’kidlash lozimki, xorijiy korxonalar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil faqat yillik chastotadagi tavsifiy taqqoslashdan iborat bo‘lib, ushbu maqolaning asosiy regressiya modeliga (3-band) o‘xshash rasmiy ekonometrik baholash emas, balki uning natijalarini xalqaro kontekstda sinash va mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda xorijiy korxonalarning choraklik moliyaviy ma’lumotlarini yig‘ish orqali to‘liq qiyosiy panel regressiya modelini qurish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalarini amaliy jihatdan kengaytirish maqsadida, “UzAuto Motors” AJning xarajat samaradorligi ko‘rsatkichi (EFF) uchun 2026–2028 yillarga mo‘ljallangan prognoz ikki usul asosida ishlab chiqildi. Birinchi usul — 3-bandda baholangan regressiya tenglamasi [$\ln(EFF)=\beta_0+\beta_1\cdot\ln(CREDIT)+\beta_2\cdot D$] asosidagi strukturaviy stsenariy modeli bo‘lib, unda kredit mablag‘lari qoldig‘ining (CREDIT) 2020–2025-yillardagi logarifmik trendiga asoslangan uchta stsenariy (bazaviy, optimistik — kredit hajmi bazaviy trenddan 15 foizga past, va pessimistik — kredit hajmi bazaviy trenddan 15 foizga yuqori) qo‘llanildi. Ikkinchi usul — barcha tahlil qilingan korxonalar (“UzAuto Motors” AJ, “Uzauto Motors Powertrain” AJ, Toyota, Volkswagen, Hyundai) uchun EFF ko‘rsatkichining 2020–2025-yillardagi vaqt bo‘yicha chiziqli trendini (OLS, t=1,…,6) ekstrapolyatsiya qilish orqali olingan tavsifiy prognoz bo‘lib, u xalqaro korxonalar bilan qiyosiy kontekstni ta‘minlash uchun qo‘llanildi.

5-jadval.

“UzAuto Motors” AJning kredit resurslariga asoslangan strukturaviy stsenariylar bo‘yicha xarajat samaradorligi (EFF) prognozi,[12] 2026–2028 yy.

Yil	CREDIT, bazaviy (mlrd so‘m)	EFF, optimistik	EFF, bazaviy	EFF, pessimistik
2026	7 068	1,121	1,110	1,102
2027	8 816	1,107	1,097	1,088
2028	10 996	1,093	1,083	1,074

[12] Muallif ishlanmasi

5-rasm. “UzAuto Motors” AJning kredit resurslariga asoslangan strukturaviy stsenariylar bo‘yicha xarajat samaradorlik prognozining grafik korinishi[13]



5-jadval va 5-rasmda keltirilgan natijalarga ko‘ra, agar korxona kredit resurslaridan foydalanishni joriy trend bo‘yicha davom ettirsa (bazaviy stsenariy), EFF ko‘rsatkichi 2026-yilda 1,110 darajasigacha qisman tiklanishi, so‘ngra 2027–2028-yillarda kredit yukining tabiiy o‘sishi hisobiga yana pasayib, 2028-yilda 1,083 darajasiga tushishi kutiladi. Kredit siyosatini optimallashtirish (optimistik stsenariy) EFF ko‘rsatkichini har bir yil uchun taxminan 0,01–0,02 birlikka oshirish imkonini beradi, kredit yukining yanada kuchayishi (pessimistik stsenariy) esa aksincha, samaradorlikni qo‘shimcha pasaytiradi. Ushbu natija III-bandda aniqlangan asosiy topilmani — kredit resurslaridan foydalanish darajasining xarajat samaradorligiga salbiy ta‘sirini — amaliy boshqaruv qarorlari uchun miqdoriy asosga aylantiradi: agar korxona kredit portfelini 2025-yildagi darajada nazorat qilib tursa (ya’ni bazaviy trenddan sekinroq o‘stirsa), EFF ko‘rsatkichi 1,10–1,12 oralig‘ida barqarorlashishi mumkin.

6-jadval.

Tahlil qilingan korxonalarning xarajat samaradorligi (EFF) ko‘rsatkichi bo‘yicha chiziqli trend asosidagi prognoz,[14] 2026–2028 yy.

Yil	UzAuto Motors AJ	Uzauto Motors Powertrain AJ	Toyota	Volkswagen	Hyundai
2026	1,092	1,152	1,103	1,047	1,079
2027	1,072	1,137	1,104	1,043	1,079
2028	1,052	1,122	1,105	1,038	1,080

6-jadval ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, agar 2020–2025-yillardagi tendensiya o‘zgarishsiz davom etsa, “UzAuto Motors” AJning EFF ko‘rsatkichi 2028-yilga kelib 1,052 darajasigacha, “Uzauto Motors Powertrain” AJniki esa 1,122 darajasigacha pasayishi mumkin, bunda ikkala korxona ham EFF>1 oralig‘ida, ya’ni foydali faoliyat zonasida qolishda davom etadi. Xorijiy korxonalar orasida Toyota va Hyundai‘ning trend asosidagi EFF ko‘rsatkichi nisbatan barqaror (mos ravishda 1,10 va 1,08 atrofida) bo‘lib qolishi kutilsa, Volkswagen‘da davom etayotgan pasayish tendensiyasi 2028-yilda EFF=1,038 darajasigacha yetishi mumkin.

Xulosa

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoati korxonalarining xarajat samaradorligini yillik panel ma’lumotlar asosida ekonometrik baholash natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

[13] Muallif ishlanmasi

[14] Muallif hisob-kitoblari, 1-jadval va 4-jadval ma‘lumotlari asosida chiziqli trend (OLS, t=1,…,6) usulida ekstrapolyatsiya qilingan.

1. “UzAuto Motors” AJ va “Uzauto Motors Powertrain” AJning 2020-2025 yillardagi yillik moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida shakllantirilgan panel ma’lumotlar (n=12) korxonalar faoliyatining asosiy tendensiyalarini aniqlash uchun yetarli ilmiy-statistik asos bera oladi, biroq to‘liq ko‘p faktorli ARDL yoki keng regressiya modellarini ishonchli baholash uchun yetarli emas.

2. Korrelyatsion va regressiya tahlili natijalariga ko‘ra, kredit resurslaridan foydalanish darajasi (CREDIT) korxonalar xarajat samaradorligiga statistik jihatdan ahamiyatli salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi yagona omil sifatida aniqlandi (β=-0,057; p=0,037; R^2=0,52), bu moliyaviy leverajdan ortiqcha foydalanishning korxona rentabelligiga xavf tug'dirishini ko‘rsatadi.

3. Kapital qo‘yilmalar, amortizatsiya va qarz yuklamasi kabi omillarning yo‘nalishi iqtisodiy nazariyaga mos bo‘lsa-da, ularning statistik ahamiyati yillik chastotadagi kichik tanlanmada aniqlanmadi - bu tadqiqotning ochiq e'tirof etilgan metodologik cheklanishi bo‘lib, kelgusi tadqiqotlarda choraklik yoki oylik ma’lumotlardan foydalanish, yoxud kuzatuv davrini kengaytirish orqali bartaraf etilishi mumkin.

4. Ikkala korxona ham EFF>1 oralig'ida faoliyat yuritib, xarajatlarini to‘liq qoplab kelmoqda, biroq 2022-2025 yillarda umumiy pasayish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lib, bu operatsion xarajatlarning sof tushumga nisbatan tezroq o‘sishi bilan izohlanadi.

5. “UzAuto Motors” AJning xarajat samaradorligi ko‘rsatkichini Toyota, Volkswagen va Hyundai kabi xalqaro yetakchi korxonalar bilan qiyoslash natijasida aniqlandiki, 2022–2025-yillardagi umumiy pasayish tendensiyasi tarmoqqa xos global omillar (bojxona tariflari, elektromobillarga o‘tish xarajatlari, raqobatning kuchayishi) bilan izohlanadi, biroq “UzAuto Motors” AJdagi pasayish sur’ati xalqaro o‘rtachadan yuqori bo‘lib, bu tadqiqotda aniqlangan kredit resurslariga bog‘liqlik omilining (CREDIT) amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi [12].

Ushbu xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi: birinchidan, korxonalar kredit portfelini optimallashtirish va qarz mablag'laridan foydalanishning marginal samaradorligini muntazam monitoring qilishi, kredit resurslarini faqat yuqori qaytim ko‘rsatadigan investitsiya loyihalariga yo‘naltirishi lozim; ikkinchidan, operatsion xarajatlar (OPEX) o‘sish sur'atini sof tushum o‘sish sur'atidan past darajada ushlab turish maqsadida xarajatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish tavsiya etiladi; uchinchidan, kelgusi ilmiy tadqiqotlarda korxona darajasidagi ekonometrik tahlilni choraklik yoki oylik ma’lumotlar asosida, ARDL yoki panel ma’lumotlar bo‘yicha dinamik modellar (Panel ARDL, GMM) yordamida chuqurlashtirish tavsiya etiladi, bu esa natijalarning statistik ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rostow W.W. The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. – Cambridge: Cambridge University Press, 1960.

2. Kaldor N. Strategic Factors in Economic Development. – New York: Cornell University, 1967.

3. UNIDO. World Manufacturing Report 2022. – Vienna: UNIDO, 2022. – P. 12.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Jizzax viloyatidagi chiqishi. Rasmiy matbuot markazi ma’lumotlari, 2024.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-iyuldagi "O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g'risida"gi PQ-4397-son qarori. – https://lex.uz

6. Xolmirzayev F.M. O‘zbekiston iqtisodiyotida avtomobilsozlikning rivojlanishi // Central Asian Journal of Economics and Management. – 2024. – Issue 04. – B. 15-17. – https://cajem-science.org

7. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. – 7th ed. – Boston: Cengage Learning, 2019.

8. Cobb C.W., Douglas P.H. A Theory of Production // American Economic Review. – 1928.

– Vol. 18, No. 1. – P. 139-165.

9. Gavva R.V., Lozhkomoeva E.N. The Use of Econometric Methods for Analyzing the Market of Present Day Manufactured Toys // Vestnik Rossiyskogo ekonomicheskogo universiteta imeni G.V. Plekhanova. – 2019. – №1. – S. 171-178.

10. KPMG. Analiz rynka avtotransportnyx sredstv v Respublike Uzbekistan: analiticheskiyotchyot.Toshkent,2024.https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/uz/pdf/2024/auto-market.pdf

11. “UzAuto Motors” AJ va “Uzauto Motors Powertrain” AJning 2020-2025 yillardagi rasmiy choraklik va yillik moliyaviy hisobotlari // O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining Korporativ axborot yagona portalida emitentlar tomonidan oshkor qilingan rasmiy ma’lumotlar

12. Toyota Motor Corporation, Volkswagen AG, Hyundai Motor Company korxonalarining 2020-2025 yillardagi rasmiy yillik moliyaviy hisobotlari (Annual Report / Financial Summary / Business Results) // global.toyota; volkswagen-group.com; hyundai.com, hyundai.news - muallif tomonidan qayta ishlangan va tizimlashtirilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ZARURIYATI VA UNING AHAMIYATI

Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li
PhD, v.b. dotsenti
“Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrasi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
ORCID: 0009-0007-4309-2944

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy zaruriyati, uning xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Bozor munosabatlarining rivojlanishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar sonining ko‘payishi, xususiy kapitalning kengayishi hamda moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar doirasining ortib borishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini mustaqil baholashga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Tadqiqotda auditorlik faoliyatining axborot xavfini kamaytirish, investorlar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining xalqaro audit standartlari asosida tashkil etilishi va raqamli texnologiyalarning audit jarayonlariga joriy etilishi masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida riskka asoslangan audit, raqamli audit vositalaridan foydalanish, auditorlik tashkilotlarida sifat nazoratini kuchaytirish va auditdan keyingi monitoringni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *audit, auditorlik faoliyati, auditorlik tashkiloti, moliyaviy hisobot, audit riski, ichki nazorat, korporativ boshqaruv, xalqaro audit standartlari, raqamli audit, investitsiya muhiti.*

НЕОБХОДИМОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ АУДИТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Акрамов Шохрух Шухрат угли
PhD, и. о. доцента
кафедра банковское дело и бухгалтерский учет
Ташкентский международный
университет Кимё
ORCID: 0009-0007-4309-2944

Аннотация. *В статье исследуются экономическая необходимость организации аудиторской деятельности в Узбекистане, ее роль и значение в деятельности хозяйствующих субъектов. Развитие рыночных отношений, увеличение количества хозяйствующих субъектов, расширение частного капитала и рост числа пользователей финансовой информации повышают необходимость независимой оценки достоверности финансовой отчетности. В исследовании раскрывается значение аудиторской деятельности в снижении информационного риска, защите интересов инвесторов и кредиторов, совершенствовании системы внутреннего контроля, повышении эффективности корпоративного управления и качества управленческих решений. Особое внимание уделено организации аудиторской деятельности на основе международных стандартов аудита и внедрению цифровых технологий в аудиторские процессы. По результатам исследования разработаны предложения по развитию риск-ориентированного аудита, расширению применения цифровых инструментов, усилению внутреннего контроля качества аудиторских организаций и организации мониторинга рекомендаций по итогам аудита.*

Ключевые слова: *аудит, аудиторская деятельность, аудиторская организация, финансовая отчетность, аудиторский риск, внутренний контроль, корпоративное*

управление, международные стандарты аудита, цифровой аудит, инвестиционный климат.

THE NECESSITY AND SIGNIFICANCE OF ORGANIZING AUDITING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

Akromov Shohrux Shuhrat ugli
Tashkent International University of Kimyo
Department of “Banking and Accounting”
PhD, Acting Associate Professor
ORCID: 0009-0007-4309-2944

Аннотация. *В данной статье исследуется экономическая необходимость организации аудиторской деятельности в Узбекистане, а также её роль и значение в деятельности хозяйствующих субъектов. Рассматриваются вопросы снижения информационного риска, защиты интересов инвесторов и кредиторов, совершенствования системы внутреннего контроля, повышения эффективности корпоративного управления и качества управленческих решений. Особое внимание уделено организации аудиторской деятельности на основе международных стандартов аудита и внедрению цифровых технологий в аудиторский процесс. По результатам исследования разработаны предложения по развитию риск-ориентированного аудита, использованию цифровых инструментов, усилению контроля качества в аудиторских организациях и совершенствованию постаудиторского мониторинга.*

Ключевые слова: *аудит, аудиторская деятельность, аудиторская организация, финансовая отчетность, аудиторский риск, внутренний контроль, корпоративное управление, международные стандарты аудита, цифровой аудит, инвестиционная среда.*

Kirish

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan moliyaviy axborotning ishonchliligi va shaffofligiga bog‘liq. Korxonalar faoliyatining kengayishi, xususiy kapital ulushining ortishi, investitsiya jarayonlarining faollashuvi hamda moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar sonining ko‘payishi natijasida korxonaning moliyaviy holati to‘g‘risidagi axborotga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda.

Moliyaviy hisobot ma’lumotlari korxona rahbariyati, mulkdorlar, investorlar, kreditorlar, banklar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan turli iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydalaniladi. Shu sababli ushbu ma’lumotlarning haqqoniy, to‘liq va ishonchli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq moliyaviy hisobotlarni tayyorlovchi shaxslar bilan ushbu axborotdan foydalanuvchilar o‘rtasida axborot assimetriyasi mavjud bo‘lishi mumkin. Ya’ni korxona rahbariyati korxonaning haqiqiy moliyaviy holati haqida tashqi foydalanuvchilarga nisbatan ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi. Bunday sharoitda mustaqil auditorlik tekshiruvi moliyaviy axborotning ishonchliligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida 2021-yil 25-fevralda O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan. Mazkur qonun auditorlik faoliyatini tashkil etish, auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish va auditorlarning professional faoliyatiga oid munosabatlarni tartibga solishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati faqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish bilan chegaralanmaydi. Audit xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mavjud xavflarni aniqlash, ichki nazorat tizimini baholash, moliyaviy intizomni mustahkamlash, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi ishonchni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning iqtisodiy ahamiyati zamonaviy audit nazariyasi va amaliyotining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining kengayishi, xususiy kapitalning iqtisodiyotdagi ulushi ortishi hamda moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar doirasining kengayishi moliyaviy axborotning ishonchliligini mustaqil baholashga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda auditning nafaqat nazorat funksiyasi, balki axborot, baholash, risklarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash funksiyalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Auditorlik faoliyatining nazariy asoslarini o‘rgangan A. Arens, R. Elder va M. Beasley auditni moliyaviy hisobotlarning belgilangan mezonlarga muvofiqligini mustaqil baholash jarayoni sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, auditorlik faoliyatining asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning hisobot ma’lumotlariga bo‘lgan ishonchini oshirishdan iborat bo‘lib, bunda auditorning mustaqilligi, professional bilim va tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Mazkur yondashuv auditorlik faoliyatining iqtisodiy mohiyatini faqat xatolarni aniqlash bilan emas, balki foydalanuvchilar uchun ishonchli axborot muhitini shakllantirish bilan bog‘lash imkonini beradi.

W.F. Messier, S.M. Glover va D.F. Prawitt auditorlik faoliyatida risklarni aniqlash va baholash masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Ularning tadqiqotlarida auditorlik tekshiruvining samaradorligi auditorning korxona faoliyatidagi muhim risklarni to‘g‘ri aniqlashi, baholashi va ushbu risklarga mos auditorlik protseduralarini tanlashiga bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi [2]. Bu fikr O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishda riskka asoslangan yondashuvni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Auditorlik faoliyatining muhim jihatlaridan biri moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashdir. Xalqaro audit standartlarida ham auditorning moliyaviy hisobotlar bo‘yicha fikr bildirish uchun yetarli va tegishli auditorlik dalillarini to‘plashi zarurligiga katta e’tibor berilgan. Xususan, ISA 500 “Audit Evidence” standartida auditorlik dalillarining yetarliligi va mosligi auditorlik xulosasini shakllantirishning muhim sharti sifatida belgilanadi [3]. Ushbu talab auditorlik faoliyatini tashkil etishda dalillarni yig‘ish va baholash jarayonining metodologik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishini talab qiladi.

Auditning iqtisodiy zaruriyati, avvalo, korxona rahbariyati va moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi **axborot assimetriyasini kamaytirish** bilan bog‘liq. Moliyaviy hisobotni tayyorlovchi rahbariyat korxonaning moliyaviy holati haqida investorlar, kreditorlar va boshqa tashqi foydalanuvchilarga nisbatan ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi. Shu sababli tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotdagi ma’lumotlarning haqqoniyligini mustaqil baholash mexanizmi zarur bo‘ladi. Auditorlik faoliyati aynan mana shu ehtiyojni qondirish orqali iqtisodiy munosabatlarda ishonchni shakllantiradi.

Auditning mazkur funksiyasi xalqaro auditorlik standartlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, ISA 200 auditorning moliyaviy hisobotlar bo‘yicha oqilona ishonchga ega bo‘lish va tegishli auditorlik fikrini shakllantirishdagi mas’uliyatini belgilaydi [4]. Shunday qilib, auditorlik faoliyati moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga mustaqil professional baho taqdim etish orqali axborot riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

Auditorlik faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishi investorlar manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq. Investor korxonaga mablag‘ kiritishdan oldin uning moliyaviy holati, rentabelligi, to‘lov qobiliyati, aktivlari va majburiyatlari to‘g‘risida ishonchli ma’lumotga ega bo‘lishi zarur. Mustaqil auditor tomonidan moliyaviy hisobotlarning tekshirilishi bunday axborotga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Shu sababli auditning rivojlanishi kapital bozori va investitsiya muhitining takomillashishiga xizmat qiluvchi omillardan biri sifatida qaraladi.

Auditning investorlar va kreditorlar uchun ahamiyati moliyaviy axborotning ishonchliligini oshirish bilan bir qatorda, iqtisodiy qarorlar bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish orqali ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, korxonaning moliyaviy hisobotlaridan foydalanib

investitsiya yoki kredit qarorini qabul qiluvchi subyektlar uchun mustaqil auditorlik fikri muhim axborot manbai hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham auditorlik faoliyatining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni, moliyaviy nazorat va hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Sh.T. Tursunov va B.A. Rahimov auditorlik faoliyatida moliyaviy axborotning ishonchliligini oshirish, auditorlik tekshiruvlarini sifatli tashkil etish hamda auditorlik xulosalarining foydalanuvchilar uchun ahamiyatini kuchaytirish masalalariga e’tibor qaratadi [5].

A.X. Isroilovning tadqiqotlarida esa auditorlik faoliyatida axborot assimetriyasi va auditorlik risklarini kamaytirish masalalari muhim yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqiladi. Uning yondashuviga ko‘ra, auditorlik tekshiruvi korxona faoliyati to‘g‘risidagi axborotning tashqi foydalanuvchilar uchun yanada ishonchli va shaffof bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi [6].

Auditorlik faoliyatining zaruriyati ichki nazorat tizimi bilan ham chambarchas bog‘liq. Zamonaviy audit amaliyotida auditor faqat moliyaviy hisobotdagi xatolarni aniqlash bilan cheklanmaydi. Auditor korxonada xatolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillarni, ichki nazorat tizimining zaif tomonlarini va moliyaviy risklarni ham baholashi lozim. Kuchli ichki nazorat tizimi mavjud bo‘lgan korxonalarda xatolik va buzib ko‘rsatishlar xavfi nisbatan past bo‘lishi mumkin, biroq mustaqil auditorlik bahosiga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qoladi.

Ichki nazoratning auditorlik faoliyatidagi o‘rni ISA 315 “Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement” standartida ham keng yoritilgan. Mazkur standart auditor tomonidan korxona faoliyati va uning ichki nazorat tizimini tushunish, muhim buzib ko‘rsatish risklarini aniqlash va baholash zarurligini belgilaydi [7]. Bu esa zamonaviy auditning nazoratdan ko‘ra kengroq - risklarni boshqarish va ularning oldini olishga yo‘naltirilgan faoliyat ekanligini ko‘rsatadi.

Auditorlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari O‘zbekistonda ham bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni auditorlik faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi [8]. Mazkur qonunda auditorlik faoliyatining asosiy prinsiplari, auditorlik tashkilotlari va auditorlarga qo‘yiladigan talablar, auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish hamda auditorlarning huquq va majburiyatlari bilan bog‘liq masalalar belgilangan.

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish masalasi ham ilmiy-amaliy tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi belgilangan [9]. Bu jarayon milliy auditorlik amaliyotini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish va auditorlik xulosalarining xalqaro foydalanuvchilar uchun tushunarliligini ta’minlashga qaratilgan.

Shuningdek, ISA 700 “Forming an Opinion and Reporting on Financial Statements” va ISA 705 “Modifications to the Opinion in the Independent Auditor’s Report” standartlari auditorlik fikrini shakllantirish va auditorlik xulosasini tayyorlash masalalarini tartibga soladi [10; 11]. Mazkur standartlar auditorlik faoliyatining yakuniy natijasi bo‘lgan auditorlik fikrining asoslanganligi va axborot qiymatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda auditorlik faoliyatini raqamlashtirish masalasiga ham katta e’tibor berilmoqda. Elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari, katta hajmdagi ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar va raqamli to‘lov tizimlarining kengayishi auditorning ish usullarini ham o‘zgartirmoqda. Shu sababli zamonaviy auditorlik tashkilotlarida ma’lumotlar analitikasi, avtomatlashtirilgan audit dasturlari va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortmoqda. Mazkur yo‘nalish auditorlik faoliyatining kelajakdagi rivojlanishida muhim omil sifatida baholanadi.

Umuman olganda, o‘rganilgan ilmiy adabiyotlar va me’yoriy-huquqiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, auditorlik faoliyatini tashkil etish zaruriyati bir nechta o‘zaro bog‘liq omillar

bilan izohlanadi. Jumladan, **moliyaviy axborotning ishonchliligini ta’minlash, axborot assimetriyasini kamaytirish, investor va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, ichki nazorat tizimini baholash, moliyaviy risklarni kamaytirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashish** auditorlik faoliyatining asosiy iqtisodiy vazifalarini tashkil etadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda auditorlik faoliyatining alohida jihatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida auditorlik faoliyatini **mustaqillik, professional kompetensiya, riskka asoslangan yondashuv, sifat nazorati, raqamli texnologiyalar, xalqaro standartlar va auditdan keyingi monitoring** bilan yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur holat tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va iqtisodiy ahamiyatini aniqlash maqsadida tizimli yondashuv, taqqoslash, tahlil, umumlashtirish va mantiqiy xulosalash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini auditorlik faoliyatining xalqaro tamoyillari, xalqaro audit standartlari hamda O‘zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

Tahlil jarayonida auditorlik faoliyatining korxona moliyaviy axborotining ishonchliligi, investorlar manfaatlarini himoya qilish, ichki nazorat, korporativ boshqaruv, investitsiya muhiti va raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq jihatlari o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

Auditorlik faoliyatini tashkil etish zaruriyatini belgilovchi omillarni quyidagi jadval orqali umumlashtirish mumkin.

1-jadval.

Auditorlik faoliyatini tashkil etish zaruriyatini belgilovchi asosiy omillar[15]

№	Omillar	Auditorlik faoliyatining ahamiyati
1	Moliyaviy axborotning ishonchliligi	Moliyaviy hisobotdagi ma’lumotlarning haqqoniyligini mustaqil baholash
2	Investorlar manfaatlarini himoya qilish	Investorlarning ishonchli axborot asosida qaror qabul qilishiga yordam berish
3	Xato va buzib ko‘rsatishlarni aniqlash	Moliyaviy hisobotdagi muhim xatolarni aniqlash
4	Ichki nazoratni baholash	Korxonadagi nazorat mexanizmlarining samaradorligini aniqlash
5	Moliyaviy intizom	Hisob-kitob va moliyaviy operatsiyalarda intizomni kuchaytirish
6	Risklarni kamaytirish	Moliyaviy va axborot risklarini pasaytirish
7	Boshqaruv qarorlarini yaxshilash	Rahbariyatga ishonchli axborot va tavsiyalar taqdim etish
8	Xalqaro talablarga muvofiqlik	Auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, auditorlik faoliyatining vazifalari moliyaviy hisobotni tekshirish bilan cheklanmaydi. Audit korxonadagi mavjud risklarni aniqlash, ichki nazorat tizimini baholash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishni ham nazarda tutadi.

Bunda auditorlik faoliyatining eng muhim natijalaridan biri moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar ishonchini oshirish hisoblanadi. Investor korxonaga mablag‘ kiritishdan oldin

[15] Muallif tomonidan tayyorlangan.

uning moliyaviy holati haqida ishonchli axborotga ega bo‘lishi kerak. Auditorlik xulosasi esa ushbu axborotning mustaqil baholanganligini ko‘rsatadi.

2-jadval.

Auditorlik faoliyatining iqtisodiy subyektlar uchun ahamiyati[16]

Subyekt	Audit natijasidan foydalanish yo‘nalishi
Mulkdorlar	Korxona moliyaviy holatini baholash
Investorlar	Investitsiya qarorlarini qabul qilish
Kreditorlar	Kredit berish xavfini baholash
Banklar	Qarzdorning moliyaviy barqarorligini aniqlash
Rahbariyat	Boshqaruv qarorlarini takomillashtirish
Davlat organlari	Moliyaviy intizom va qonunchilikka rioya etilishini baholash
Hamkorlar	Korxonaning moliyaviy ishonchliligini aniqlash

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, auditorlik faoliyatining natijalaridan faqat korxona rahbariyati emas, balki ko‘plab manfaatdor tomonlar foydalanadi. Shu sababli auditorning xolisligi, mustaqilligi va professional kompetensiyasi auditning iqtisodiy ahamiyatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Auditorlik faoliyati va ichki nazorat. Korxonada ichki nazorat tizimining mavjudligi moliyaviy xatolar va boshqa buzib ko‘rsatishlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Biroq ichki nazorat tizimi mavjud bo‘lishining o‘zi uning samarali ishlayotganini anglatmaydi.

Auditorning vazifalaridan biri korxonaning ichki nazorat tizimini o‘rganish va uning muhim jihatlarini baholashdan iborat. Bunda auditor faqat aniqlangan xatoni qayd etib qolmasdan, ushbu xatoning yuzaga kelish sabablarini ham tahlil qilishi lozim.

Masalan, agar korxonada tovar-moddiy zaxiralar hisobida takroriy xatolar aniqlansa, auditor faqat xatoning summasini ko‘rsatish bilan cheklanmasligi kerak. Ushbu xatoga xodimlar malakasining yetarli emasligi, hujjat aylanishining noto‘g‘ri tashkil etilishi yoki ichki nazoratning zaifligi sabab bo‘lganligini ham aniqlash muhimdir.

Shu jihatdan auditorlik faoliyati korxonada ichki nazorat tizimini takomillashtirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Auditorlik faoliyati va investitsiya muhiti. Investitsiya qarorlarining qabul qilinishida korxonaning moliyaviy holati haqidagi axborot muhim o‘rin tutadi. Investor moliyaviy hisobotdagi ma’lumotlarning ishonchliligiga shubha qilsa, investitsiya kiritish bilan bog‘liq xavf yuqori baholanishi mumkin.

Mustaqil audit esa investor uchun qo‘shimcha ishonch manbai hisoblanadi. Shu sababli auditorlik faoliyatining rivojlanishi investitsiya muhitining yaxshilanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bunda auditning vazifasi investor uchun “investitsiya qilish kerak yoki kerak emas” degan tayyor qarorni berish emas, balki qaror qabul qilish uchun ishonchli axborot bazasini shakllantirishdan iborat.

Auditorlik faoliyati va kreditorlar manfaatlari. Kreditorlar uchun korxonaning to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Bank yoki boshqa kreditor korxonaga kredit berishda uning moliyaviy hisobotlari, aktivlari, majburiyatlari va moliyaviy natijalariga tayanadi.

Auditorlik tekshiruvi natijalari kreditor uchun axborot xavfini kamaytirishi mumkin. Ayniqsa, katta miqdordagi kreditlar, uzoq muddatli majburiyatlar yoki murakkab moliyaviy operatsiyalar mavjud bo‘lgan holatlarda mustaqil auditning ahamiyati ortadi.

Auditorlik faoliyatining davlat va iqtisodiyot darajasidagi ahamiyati. Auditorlik faoliyatining ahamiyati alohida korxona darajasi bilan cheklanib qolmaydi. Korxonalarda moliyaviy hisobotlarning sifatli shakllantirilishi iqtisodiyotda moliyaviy axborot shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

[16] Muallif tomonidan tayyorlangan.

3-jadval.

Auditorlik faoliyatining davlat va iqtisodiyot darajasidagi ahamiyati[17]

№	Yo‘nalish	Auditorlik faoliyatining ta’siri
1	Moliyaviy shaffoflik	Ishonchli moliyaviy axborot shakllanishiga yordam beradi
2	Hisob va hisobot sifati	Hisobotdagi muhim xatolarni aniqlash imkonini beradi
3	Moliyaviy intizom	Moliyaviy operatsiyalar ustidan nazoratni kuchaytiradi
4	Investitsiya faolligi	Investorlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi
5	Kapital bozori	Moliyaviy axborotning ishonchliligini ta’minlaydi
6	Bank sektori	Kredit risklarini baholashga yordam beradi
7	Korporativ boshqaruv	Mulkdor va menejment o‘rtasidagi nazoratni kuchaytiradi
8	Ichki nazorat	Nazorat tizimidagi zaif tomonlarni aniqlaydi
9	Moliyaviy barqarorlik	Korxonaning moliyaviy xavflarini aniqlashga yordam beradi
10	Raqamlashtirish	Audit jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni tezlashtiradi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, auditorlik faoliyati korxona, investor, kreditor va davlat manfaatlarini o‘zaro bog‘lovchi iqtisodiy institut sifatida namoyon bo‘ladi.

AUDITORLIK FAOLIYATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini xalqaro talablar asosida takomillashtirish jarayoni auditorlik xizmatlarining sifatini oshirish uchun muhim yo‘nalishlardan biridir.

Xalqaro audit standartlaridan foydalanish auditorlik tekshiruvlarining yagona professional tamoyillar asosida tashkil etilishiga yordam beradi. Xususan, auditorlik dalillarini to‘plash, risklarni baholash, auditorlik xulosasini shakllantirish va auditorlik tashkilotlarida sifat nazoratini amalga oshirish xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro audit standartlarini tan olish va qo‘llash bilan bog‘liq jarayonlarni tartibga soluvchi hukumat qarorlari ham qabul qilingan. Xususan, 2022-yil 11-apreldagi 171-son qaror xalqaro audit standartlarini tan olish va qo‘llash bilan bog‘liq muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi.

Bu jarayon O‘zbekistonda auditorlik xizmatlari sifatini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirish, auditorlarning professional kompetensiyasini oshirish va auditorlik xulosalarining foydalanuvchilar uchun axborot qiymatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

4-jadval.

Auditorlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar[18]

№	Taklif	Kutilayotgan natija
1	Riskka asoslangan audit metodologiyasini takomillashtirish	Audit resurslaridan samarali foydalanish
2	Auditorlik dalillarini baholashni kuchaytirish	Auditorlik xulosasining ishonchliligini oshirish
3	Auditorlik xulosasining axborot qiymatini oshirish	Foydalanuvchilar uchun foydali axborot hajmini kengaytirish
4	Ichki sifat nazoratini kuchaytirish	Audit xizmatlari sifatini oshirish
5	Auditorlarning professional kompetensiyasini rivojlantirish	Zamonaviy audit talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash
6	Auditdan keyingi monitoringni joriy etish	Aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishini nazorat qilish
7	Raqamli audit vositalarini kengaytirish	Katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish

[17] Muallif tomonidan tayyorlangan.
[18] Muallif tomonidan tayyorlangan.

Birinchidan, auditni riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etish zarur. Bunda auditor korxonaning barcha faoliyat yo‘nalishlarini bir xil darajada tekshirish o‘rniga, muhim xatolik va buzib ko‘rsatish xavfi yuqori bo‘lgan sohalarga ko‘proq e’tibor qaratishi lozim.

Ikkinchidan, auditorlik dalillarining yetarliligi va ishonchliligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Chunki auditorlik xulosasining sifati bevosita auditor tomonidan olingan dalillarning sifati bilan bog‘liq.

Uchinchidan, auditorlik xulosasining axborot qiymatini oshirish muhim. Auditorlik xulosasi foydalanuvchiga faqat moliyaviy hisobot bo‘yicha auditor fikrini emas, balki muhim xavflar va audit jarayonining asosiy jihatlari haqida tushunarli tasavvur berishi kerak.

To‘rtinchidan, auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazoratini kuchaytirish zarur. Sifat nazorati auditorlik topshirig‘ining mustaqil va professional bajarilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, auditorlarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim. Zamonaviy auditor nafaqat buxgalteriya va audit standartlarini, balki ma’lumotlar tahlili va raqamli audit vositalarini ham yaxshi bilishi kerak.

Oltinchidan, auditdan keyingi monitoring mexanizmini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Auditor tomonidan berilgan tavsiyalar amaliyotga joriy etilmasa, auditning iqtisodiy samarasi pasayishi mumkin. Shu sababli tavsiyalarning bajarilishini kuzatib borish auditning yakuniy natijadorligini oshiradi.

Yuqoridagi takliflarni umumlashtirgan holda auditorlik faoliyati samaradorligini quyidagi model orqali ifodalash mumkin:

Auditorlik faoliyatining samaradorligi = Mustaqillik + Professional kompetensiya + Riskka asoslangan yondashuv + Sifat nazorati + Raqamli texnologiyalar + Xalqaro standartlar + Auditdan keyingi monitoring.

Mazkur model auditorlik faoliyatining zamonaviy sharoitdagi asosiy tarkibiy qismlarini o‘zida mujassamlashtiradi

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etish bozor iqtisodiyoti sharoitida obyektiv iqtisodiy zaruriyat hisoblanadi. Auditorlik faoliyati moliyaviy hisobotlarni tekshirish bilan cheklanmay, iqtisodiy axborotning ishonchliligini oshirish, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, risklarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Auditning asosiy iqtisodiy ahamiyati moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun axborot xavfini kamaytirish orqali namoyon bo‘ladi. Investorlar, kreditorlar, banklar, mulkdorlar va boshqa manfaatdor tomonlar ishonchli moliyaviy axborot asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Auditorlik faoliyati moliyaviy axborotning ishonchliligini oshiradi.
2. Audit investorlar va kreditorlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi.
3. Auditorlik tekshiruvi ichki nazorat tizimidagi zaif jihatlarni aniqlash imkonini beradi.
4. Audit korporativ boshqaruv sifatini oshirishning muhim vositalaridan biridir.
5. Xalqaro audit standartlarining qo‘llanilishi auditorlik xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.
6. Raqamli texnologiyalardan foydalanish auditning tezkorligi va samaradorligini oshiradi.
7. Auditdan keyingi monitoring auditorlik tavsiyalarining amaliy samaradorligini ta’minlaydi.

Shu asosda O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun riskka asoslangan audit metodologiyasini takomillashtirish, auditorlarning professional va raqamli

kompetensiyalarini rivojlantirish, auditorlik tashkilotlarida sifat nazoratini kuchaytirish, zamonaviy ma’lumotlar tahlili vositalaridan foydalanishni kengaytirish hamda auditdan keyingi monitoring tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, auditorlik faoliyatini faqat moliyaviy nazorat vositasi sifatida emas, balki ishonchli iqtisodiy axborotni shakllantirish, manfaatdor tomonlar ishonchini ta’minlash va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy institut sifatida ko‘rib chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. *Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach*. Pearson.

2 Messier W.F., Glover S.M., Prawitt D.F. *Auditing & Assurance Services: A Systematic Approach*. McGraw-Hill.

3 IAASB. *International Standard on Auditing 500: Audit Evidence*.

4 IAASB. *International Standard on Auditing 200: Overall Objectives of the Independent Auditor and the Conduct of an Audit in Accordance with International Standards on Auditing*.

5 Tursunov Sh.T., Rahimov B.A. Auditorlik faoliyati va auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar.

6 Isroilov A.X. Auditorlik faoliyatida axborot assimetriyasi va auditorlik risklariga oid ilmiy tadqiqotlar.

7 IAASB. *International Standard on Auditing 315: Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement*.

8 O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.

9 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-son “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.

10 IAASB. *International Standard on Auditing 700: Forming an Opinion and Reporting on Financial Statements*.

11 IAASB. *International Standard on Auditing 705: Modifications to the Opinion in the Independent Auditor’s Report*.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

AUDITORLIK TEKSHIRUVLARIDA TASHQI TASDIQLARDAN FOYDALANISH VA ICHKI NAZORAT TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich

DSc, dotsenti
bank ishi va buxgalteriya hisobi kafedrasi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li

PhD, v.b. dotsenti
bank ishi va buxgalteriya hisobi kafedrasi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
ORCID: 0009-0007-4309-2944

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlarning tutgan o‘rni, ularning auditorlik dalillari tizimidagi ahamiyati hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashdagi roli yoritilgan. Tashqi tasdiqlarning mustaqil uchinchi tomonlardan olinishi ularning yuqori darajadagi ishonchliligini belgilovchi asosiy omil sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, ularning auditorlik riskini, xususan aniqlanmaslik va nazorat risklarini kamaytirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tashqi tasdiqlar, auditorlik dalillari, auditorlik riski, ichki nazorat tizimi, moliyaviy hisobot, ISA 505, audit jarayoni, debitorlik qarzlari, kreditorlik qarzlari, auditorlik xulosasi, risklarni baholash, auditorlik standartlari.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВНЕШНИХ ПОДТВЕРЖДЕНИЙ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ АУДИТОРСКИХ ПРОВЕРОК И ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ

Курбанбаев Журабек Эрувбаевич

DSc, доцент
кафедра банковское дело и бухгалтерский учет
Ташкентский международный университет Кимё

Акрамов Шохрух Шухрат угли

PhD, и. о. доцента
кафедра банковское дело и бухгалтерский учет
Ташкентский международный университет Кимё
ORCID: 0009-0007-4309-2944

Аннотация. *В данном исследовании освещается роль внешних подтверждений при проведении аудиторских проверок, их значение в системе аудиторских доказательств, а также роль в обеспечении достоверности финансовой отчетности. Обосновано, что получение внешних подтверждений от независимых третьих лиц является одним из основных факторов, определяющих их высокий уровень надежности. Также проанализировано значение внешних подтверждений в снижении аудиторского риска, в частности риска необнаружения и риска средств контроля.*

Ключевые слова: *внешние подтверждения, аудиторские доказательства, аудиторский риск, система внутреннего контроля, финансовая отчетность, ISA 505, процесс аудита, дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, аудиторское заключение, оценка рисков, аудиторские стандарты.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

THE USE OF EXTERNAL CONFIRMATIONS IN AUDIT PROCEDURES AND IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE INTERNAL CONTROL SYSTEM

Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich
DSc, Associate Professor
Department of Banking and Accounting
Tashkent International University of Kimyo

Akromov Shohrux Shuhrat ugli
PhD, Acting Associate Professor
Department of Banking and Accounting
Tashkent International University of Kimyo
ORCID: 0009-0007-4309-2944

Abstract. *This study examines the role of external confirmations in audit procedures, their significance within the system of audit evidence, and their role in ensuring the reliability of financial statements. The fact that external confirmations are obtained from independent third parties is substantiated as a key factor determining their high level of reliability. The study also analyzes the importance of external confirmations in reducing audit risk, particularly the risk of non-detection and control risk.*

Keywords: *external confirmations, audit evidence, audit risk, internal control system, financial statements, ISA 505, audit process, accounts receivable, accounts payable, audit opinion, risk assessment, auditing standards.*

Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta’minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘z navbatida auditorlik tekshiruvlarining sifatini oshirish, auditorlik dalillarining yetarliligi va ishonchliligini ta’minlashni talab qiladi. Auditorlik faoliyatining asosiy maqsadi - moliyaviy hisobotlarning barcha muhim jihatlari bo‘yicha haqqoniy va ishonchli tuzilganligi yuzasidan mustaqil xulosa bildirishdan iborat.

Mazkur jarayonda auditor tomonidan yig‘iladigan auditorlik dalillarining turi, manbasi va sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, tashqi tasdiqlar auditorlik dalillari ichida eng ishonchli manbalardan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. Sababi, ular audit qilinayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektdan mustaqil bo‘lgan uchinchi shaxslar - banklar, xaridorlar, yetkazib beruvchilar va boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etiladi. Shu jihatdan tashqi tasdiqlar moliyaviy ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirish, yashirin xatolik va kamchiliklarni aniqlash hamda auditorlik riskini kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Auditorlik amaliyotida tashqi tasdiqlardan foydalanish ayniqsa moliyaviy hisobotning yuqori riskli elementlarini tekshirishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, debitorlik va kreditorlik qarzlari, pul mablag‘lari, kreditlar va investitsiyalar kabi ko‘rsatkichlar subyektiv baholashga moyil bo‘lib, ularni mustaqil manbalar orqali tasdiqlash zarurati yuzaga keladi. Shu sababli tashqi tasdiqlar auditorlik riskini, xususan aniqlanmaslik va nazorat risklarini kamaytirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Xalqaro auditorlik amaliyotida tashqi tasdiqlardan foydalanish tartibi ISA 505 “External Confirmations” standarti bilan tartibga solingan bo‘lib, unda tashqi tasdiqlarni olish, yuborish, qabul qilish va baholash jarayonlari aniq belgilab berilgan. Mazkur standart auditorlik dalillarining ishonchliligini ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Tashqi tasdiqlar, auditorlik dalillari va auditorlik risklarini baholash masalalari zamonaviy auditorlik nazariyasi va amaliyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro ilmiy

adabiyotlarda auditorlik dalillarining shakllanishi, ularning yetarliligi va ishonchliligi hamda audit jarayonida risklarga javob berish mexanizmlari keng yoritilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar auditorlik faoliyatining sifatini oshirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan.

Arens, Elder va Beasley auditorlik nazariyasida dalillar ishonchliligi ularning kelib chiqish manbasiga bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, tashqi manbalardan olingan auditorlik dalillari ichki manbalarga qaraganda yuqori darajada ishonchli hisoblanadi, chunki ular mustaqil uchinchi tomonlar tomonidan taqdim etiladi[3]. Shu sababli tashqi tasdiqlar, ayniqsa banklar, mijozlar va yetkazib beruvchilardan olinadigan javoblar auditorlik xulosasining asosini mustahkamlovchi muhim vosita sifatida qaraladi.

Xalqaro auditorlik standartlarida ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. ISA 500 “Audit Evidence” standartida auditorlik dalillarining yetarliligi va mosligi asosiy mezon sifatida belgilangan bo‘lib, auditor har bir moliyaviy ko‘rsatkich bo‘yicha yetarli va ishonchli dalillar to‘plashi kerakligi ta’kidlanadi[4]. ISA 505 “External Confirmations” esa tashqi tasdiqlarni olish, ulardan foydalanish va baholash tartibini batafsil reglament qiladi. Ushbu standartga ko‘ra, tashqi tasdiqlar auditor tomonidan bevosita uchinchi shaxslardan olinadigan yozma yoki elektron javoblar bo‘lib, ular moliyaviy hisobotdagi ma’lumotlarni tasdiqlash yoki inkor etish uchun ishlatiladi[5].

Shuningdek, ISA 330 “The Auditor’s Responses to Assessed Risks” standartida auditorlik risklari aniqlangandan so‘ng ularga javob choralari ishlab chiqilishi zarurligi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu jarayonda tashqi tasdiqlardan foydalanish riskni kamaytiruvchi muhim auditorlik protseduralaridan biri sifatida baholanadi[6]. Auditorlik riski uch asosiy komponent - ajralmas risk, nazorat riski va aniqlanmaslik riski asosida shakllanadi. Tashqi tasdiqlar aynan aniqlanmaslik riskini kamaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari auditorlik amaliyotida yuqori riskli sohalardan biri hisoblanadi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda ushbu moddalarning subyektiv baholashga moyilligi ta’kidlanadi. Shu sababli auditorlar ushbu ko‘rsatkichlarni tekshirishda tashqi tasdiqlardan keng foydalanadi. Masalan, mijozlardan debitorlik qarzlari bo‘yicha tasdiq olish yoki yetkazib beruvchilardan kreditorlik qarzlari bo‘yicha javob olish moliyaviy hisobotdagi xatoliklarni aniqlash imkonini beradi[7].

Mahalliy olimlardan Sh.T. Tursunov va B.A. Rahimov o‘z ilmiy ishlarida auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, debitorlik va kreditorlik qarzlarining to‘g‘riligini mustaqil manbalar orqali tasdiqlash auditorlik xulosasining ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi[8]. Shuningdek, ular ichki nazorat tizimi kuchsiz bo‘lgan korxonalarda tashqi tasdiqlarning ahamiyati yanada ortishini qayd etadilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ISA 500, ISA 505 va ISA 330 xalqaro auditorlik standartlari tashkil etdi. Tashqi tasdiqlarning auditorlik dalillarining ishonchliligiga, auditorlik riskini kamaytirishga hamda ichki nazorat tizimi samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi. Shuningdek, debitorlik va kreditorlik qarzlari, bank hisobvaraqlari hamda boshqa yuqori riskli hisoblar bo‘yicha tashqi tasdiqlardan foydalanish amaliyoti o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ichki nazorat tizimi auditorlik dalillarining shakllanishiga bevosita ta’sir qiluvchi omil sifatida ko‘riladi. Kuchli ichki nazorat tizimiga ega korxonalarda auditorlik risklari past bo‘ladi, biroq baribir tashqi tasdiqlardan foydalanish zarurati saqlanib qoladi. Chunki ichki nazorat har doim ham to‘liq ishonchli dalil bera olmaydi.

Auditorlik jarayonida tashqi tasdiqlardan foydalanish amaliyoti, auditorlik dalillarining shakllanishi, ichki nazorat tizimi va auditorlik riski o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda ISA 505

standartining qo‘llanilishi batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi tasdiqlar auditorlik dalillarining eng ishonchli manbalaridan biri bo‘lib, ayniqsa moliyaviy hisobotning yuqori riskli elementlarini tekshirishda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval.

Tashqi tasdiqlarning asosiy turlari va ularning mazmuni[19]

Tashqi tasdiq turi	Tasdiq beruvchi tomon	Tasdiqlanadigan ma’lumot
Debitorlik qarzlari bo‘yicha tasdiqlar	Xaridorlar, buyurtmachilar	Qarzdorlik summasi, muddati
Kreditorlik qarzlari bo‘yicha tasdiqlar	Yetkazib beruvchilar	Majburiyatlar hajmi
Bank tasdiqlari	Tijorat banklari	Hisobvaraqlar, kreditlar
Yuridik tasdiqlar	Yuridik maslahatchilar	Sud ishlari, da’volar
Investitsiya tasdiqlari	Depozitariylar, brokerlar	Qimmatli qog‘ozlar qiymati

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, tashqi tasdiqlarning har bir turi moliyaviy hisobotning muayyan elementi bilan chambarchas bog‘liq. Eng ko‘p qo‘llaniladigan tasdiqlar debitorlik va bank tasdiqlari bo‘lib, ular pul oqimlari va hisob-kitoblarning haqqoniyligini tekshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga biz amaliy yechim qilib, yuqori riskli hisoblar bo‘yicha **majburiy tashqi tasdiqlarni belgilash,** bank va investitsiya tasdiqlarida **elektron tasdiq tizimlaridan foydalanish** hamda Javob bermagan tomonlar bo‘yicha **muqobil auditorlik protseduralarini kuchaytirish**larni tavsiya qilamiz.

2-jadval.

Tashqi tasdiqlarning asosiy turlari va ularning mazmuni[20]

Audit bosqichi	Tashqi tasdiqlardan foydalanish maqsadi
Rejalashtirish	Risk darajasini aniqlash
Dalillar yig‘ish	Hisoblarning haqqoniyligini tekshirish
Tahlil	Farqlar va nomuvofiqliklarni aniqlash
Xulosa chiqarish	Auditorlik fikrini asoslash

Audit risk darajasini aniqlash, auditning rejalashtirish bosqichida auditor tekshirilayotgan subyekt faoliyatining xususiyatlari, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari hamda ichki nazorat tizimining holatini baholaydi. Ushbu bosqichda tashqi tasdiqlar potentsial ravishda qaysi hisobvaraqlar va operatsiyalar yuqori riskga ega ekanligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, debitorlik va kreditorlik qarzlari, bank hisobvaraqlari hamda qarz majburiyatlari bo‘yicha tashqi tasdiqlarga ehtiyoj mavjudligi baholanadi. Natijada auditor audit strategiyasini shakllantiradi va resurslarni eng riskli yo‘nalishlarga yo‘naltiradi.

Dalillar yig‘ish bosqichi, audit jarayonining asosiy bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda tashqi tasdiqlar auditor uchun eng ishonchli auditorlik dalillaridan biri sifatida xizmat qiladi. Banklar, kontragentlar, yuridik maslahatchilar va boshqa uchinchi tomonlardan olingan tasdiqlar moliyaviy hisobotda aks ettirilgan ma’lumotlarning mavjudligi, to‘liqligi va aniqligini tekshirish imkonini beradi. Tashqi manbadan olingan axborot ichki hujjatlarga nisbatan yuqori ishonchlilikka ega bo‘lgani sababli, auditorlik riskini sezilarli darajada kamaytiradi.

Tahlil bosqichda auditor olingan tashqi tasdiqlarni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan taqqoslaydi. Taqqoslash natijasida summalar, muddatlar yoki shartlar bo‘yicha tafovutlar aniqlanishi mumkin. Bunday farqlar buxgalteriya xatolari, noto‘g‘ri baholash yoki moliyaviy hisobotda buzib ko‘rsatish holatlaridan dalolat berishi ehtimoli mavjud. Shu sababli tashqi tasdiqlar tahlil bosqichida auditorning professional mulohazasini shakllantirishda va aniqlangan nomuvofiqliklarning sabablarini chuqur o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi.

Auditning yakuniy bosqichida auditor barcha yig‘ilgan dalillarni umumlashtiradi va moliyaviy hisobot bo‘yicha auditorlik xulosasini shakllantiradi. Ushbu jarayonda tashqi tasdiqlar auditorlik fikrining asoslanganligini ta’minlovchi muhim dalil sifatida xizmat qiladi. Agar tashqi

[19] Muallif tomonidan tayyorlangan.
[20] Muallif tomonidan tayyorlangan.

tasdiqlar yetarli va ishonchli bo‘lsa, auditor moliyaviy hisobotning haqqoniy va ishonchli tuzilganligi to‘g‘risida ijobiy xulosa berishi mumkin. Aksincha, jiddiy farqlar yoki tasdiqlar yetishmasligi auditorlik xulosasining modifikatsiyalanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, tashqi tasdiqlarni olish, tekshirish va tahlil qilish jarayoni xalqaro auditorlik standartlariga muvofiq qat’iy metodologik yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayon auditorlik dalillarining ishonchliligini ta’minlash, auditorlik riskini kamaytirish va sifatli auditorlik xulosasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois auditorlar tashqi tasdiqlardan foydalanishda ISA talablariga qat’iy rioya etishlari lozim.

Ichki nazorat tizimining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, uning huquqiy va tashkiliy asoslari qanchalik aniq va zamonaviy ekanligiga bog‘liq. Amaliyotda ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki nazoratga oid reglament va yo‘riqnomalar eskirgan, amaldagi faoliyat sharoitlariga mos kelmaydigan yoki faqat rasmiy hujjat sifatida mavjud bo‘lib qolayotgan holatlar uchraydi. Bu esa ichki nazoratning real samaradorligini pasaytiradi va xatolik hamda firibgarliklar xavfini oshiradi. Shu bois ichki nazorat bo‘yicha reglament va yo‘riqnomalarni yangilash jarayonida quyidagilarga e’tibor berish kerak bo‘ladi:

- korxona faoliyatining real jarayonlari va biznes modeli inobatga olinishi;
- vakolat va javobgarliklarning aniq taqsimlanishi belgilanishi;
- har bir nazorat amali bo‘yicha mas’ul shaxslar va nazorat mexanizmlari ko‘rsatib o‘tilishi lozim.

Ichki nazorat tizimini samarali shakllantirish va uning barqaror ishlashini ta’minlashda, avvalo, korxona faoliyatining real jarayonlari hamda amalda qo‘llanilayotgan biznes modeli chuqur tahlil qilinishi lozim. Nazorat mexanizmlari korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqaruv jarayonlariga moslashtirilmagan taqdirda, ular formallik kasb etib, amaliy natija bermaydi. Shu sababli ichki nazorat tizimi korxonaning tashkiliy tuzilmasi, faoliyat ko‘lami, risk darajasi va bozor sharoitlarini inobatga olgan holda loyihalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akromov Sh.Sh. Auditorlik faoliyatini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash “Moliya, pul va kredit” mahalliy va xalqaro miqyosidagi ilmiy-ommabop electron jurnal 2026 yil, mart-aprel. 4 – son
2. Akromov Sh.Sh. Xalqaro standartlar talablari asosida auditorlik tekshiruvini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari. Muhandislik va iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnologik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal Elektron nashr. 216-220 betlar, Febral, 2026-yil.
3. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services. Pearson Education.
4. IAASB. ISA 500 Audit Evidence. International Auditing and Assurance Standards Board.
5. IAASB. ISA 505 External Confirmations. IAASB Handbook.
6. IAASB. ISA 330 The Auditor’s Responses to Assessed Risks. IAASB Handbook.
7. Messier W.F. Auditing & Assurance Services: A Systematic Approach. McGraw-Hill.
8. Tursunov Sh.T., Rahimov B.A. Auditorlik tekshiruvlari va moliyaviy nazorat bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИ АУДИТИДА ТАҲЛИЛИЙ АМАЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ



Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли

АЖ “Apexbank” Қарши БХМ жисмоний шахслар билан ишлаш бўлими бошлиғи
E-mail: uabdiraxmanav1@gmail.com
ORCID: 0009-0003-5452-4897

Аннотация. *Ушбу мақоламизда акциядорлик жамиятларида аудитнинг халқаро стандартлари асосида таҳлилий амалларни қўллаш йўналишлари очиб берилган. Шунингдек, йирик солиқ тўловчилар сифатида акциядорлик жамиятлари мажбурий аудитдан ўтиши ва уларда аудитни режалаштириш, далилларни тўплаш ҳамда аудиторлик хулосасини шакллантиришда таҳлилий амалларнинг аҳамияти ёритилган. Илмий тадқиқотларимиз натижасида таҳлилий амалларни қўллаш кетма-кетлиги ҳам тавсия этилган.*

Шу боис, Ўзбекистонда акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллаш хусусиятларини тадқиқ этиш, уларни корхона фаолиятининг ўзига хос жиҳатларидан келиб чиққан ҳолда такомиллаштириш ва аудиторлик рискларини аниқлашда таҳлилий усуллардан самарали фойдаланиш бўйича илмий-услубий тавсиялар ишлаб чиқиш мазкур мақола мавзусининг долзарблигини белгилаб беради.

Калит сўзлар: *акциядорлик жамиятлари, аудитор, аудиторлик ташкилоти, аудитнинг халқаро стандартлари, таҳлилий амаллар, мажбурий аудит, аудитни режалаштириш, аудиторлик далиллар, аудиторлик хулосаси, молиявий ҳисобот.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ АНАЛИТИЧЕСКИХ ОПЕРАЦИЙ В АУДИТЕ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЯХ

Абдурахманов Урол Навруз угли

Начальник отдела работы с физическим лицами,
Каршский филиал АО «Apexbank».
E-mail: uabdiraxmanav1@gmail.com
ORCID: 0009-0003-5452-4897

Аннотация. *В данной статье рассматриваются направления применения аналитических процедур, основанных на международных стандартах аудита, в акционерных обществах. Также рассматривается вопрос о том, что акционерные общества, как крупные налогоплательщики, проходят обязательный аудит, и подчеркивается важность аналитических операций при планировании аудита, сборе доказательств и формировании аудиторского заключения. На основе проведенного нами научного исследования также рекомендуется последовательность применения аналитических операций.*

Это, в свою очередь, актуальность темы данной статьи заключается в изучении особенностей применения аналитических методов в аудите акционерных обществ в Узбекистане, их совершенствовании с учетом специфики деятельности предприятий и разработке научно-методических рекомендаций по эффективному использованию аналитических методов при выявлении аудиторских рисков.

Ключевые слова: *акционерные общества, аудитор, аудиторская организация, международные стандарты аудита, аналитические процедуры, обязательный аудит, планирование аудита, аудиторские доказательства, заключение аудита, финансовая отчетность.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

IMPROVING THE APPLICATION OF ANALYTICAL OPERATIONS IN THE AUDIT OF JOINT-STOCK COMPANIES

Abdurakhmanov Urol Navruz ugli

Head of the Department for Work with Individuals persons, Karshi branch of JSC Apex Bank.
E-mail: uabdiraxmanav1@gmail.com
ORCID: 0009-0003-5452-4897

Abstract. *This article discusses the application of analytical procedures based on international auditing standards in joint-stock companies. It also examines the mandatory audit requirements of joint-stock companies, as large taxpayers, and emphasizes the importance of analytical procedures in audit planning, evidence gathering, and the formation of the auditor's report. Based on our research, we also recommend a sequence for applying analytical procedures.*

This, in turn, is the relevance of the topic of this article, which lies in the study of the specifics of the application of analytical methods in the audit of joint-stock companies in Uzbekistan, their improvement taking into account the specifics of the activities of enterprises and the development of scientific and methodological recommendations for the effective use of analytical methods in identifying audit risks.

Keywords: *joint-stock companies, auditor, audit organization, international auditing standards, analytical procedures, statutory audit, audit planning, audit evidence, audit report, financial statements.*

Кириш

Бугунги кунда жаҳонда юз бераётган глобал ўзгаришлар, халқаро бозорлардаги юқори даражадаги тебранишлар, саноат ва рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши, энергия бозорларидаги трансформация жараёнлари, глобал таъминот занжирларининг қайта шаклланиши ҳамда геосиёсий ва геоиқтисодий мувозанатнинг ўзгариши миллий иқтисодиётлар олдига янги вазифаларни қўймоқда. Хусусан, сўнгги йилларда глобал иқтисодий ўсиш суръатларининг беқарорлиги, инфляцион босимларнинг сақланиб қолиши, хомашё ва энергия ресурслари нархларининг ўзгарувчанлиги ҳамда халқаро савдо йўналишларининг қайта тақсимланиши мамлакатларнинг ташқи ва ички иқтисодий сиёсатини янада мослашувчан ва барқарор механизмлар асосида шакллантиришни талаб этмоқда. Халқаро валюта жамғармаси 2026 йилги баҳолашларида ҳам жаҳон иқтисодиётида геосиёсий хавфлар, энергия нархлари ва технологиявий ўзгаришлар ўртасидаги ўзаро таъсир кучайиб бораётганини таъкидламоқда.

Айниқса, сунъий интеллект, автоматлаштириш, роботлаштириш, рақамли платформалар, “яшил” технологиялар ва янги авлод энергетика ечимларининг кенг жорий этилиши иқтисодий фаолиятнинг анъанавий моделларини тубдан ўзгартирмоқда. Технологик тараққиёт бир томондан меҳнат унумдорлиги ва ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, янги бозорлар ва хизмат турларини шакллантириш имконини берса, иккинчи томондан мамлакатлар ўртасидаги технологик тафовутни қисқартириш, инсон капитали сифатини ошириш ва рақамли инфратузилмани ривожлантиришни стратегик заруратга айлантирмоқда. Жаҳон банки ҳам сунъий интеллектдан кенгроқ фойдаланиш келгуси йилларда иқтисодий фаоллик ва унумдорликни рағбатлантириши мумкинлигини, бироқ бу имкониятдан самарали фойдаланиш учун инсон, жисмоний ва рақамли капиталга инвестицияларни кучайтириш зарурлигини қайд этмоқда.

Шунингдек, мамлакатимизда «мақсад — ҳаракат — натижа» занжирига асосланган мутлақо янги стратегик режалаштириш ва ривожланиш тизими жорий этилгани «Ўзбекистон — 2030» стратегиясини янги талаблар асосида такомиллаштириш зарурлигини кўрсатмоқда[1].

Бу эса Ўзбекистонда акциядорлик жамиятларининг молиявий-хўжалик фаолиятини самарали ташкил этиш, молиявий ҳисоботларнинг ишончлилиги ва шаффофлигини таъминлаш, шунингдек, инвесторлар ва бошқа манфаатдор фойдаланувчилар учун ишончли ахборот шакллантириш масалалари муҳим аҳамият касб этмоқда. Айниқса, акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботларни ташқи аудитдан ўтказиш жараёнида аудиторлик далилларининг етарлилиги ва ишончлилигини таъминлаш, мавжуд молиявий кўрсаткичлардаги муҳим ўзгаришлар ҳамда ғайриоддий ҳолатларни аниқлаш аудит сифатини оширишнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади. Бунинг учун аудиторлик текширувларига сарфланадиган харажатларни назорат қилиш ва оқланмайдиган харажатларни мунтазам камайтириб бориш лозим ҳамда аудит таҳлилий амалларни бажариш сезиларли ҳажмдаги зарур ахборотни олиш имконини бериб, бошқа аудиторлик амалларини ўтказишга нисбатан кам харажат талаб қилади.

Акциядорлик жамиятларида аудит жараёнида **таҳлилий амаллар** аудиторга корхона фаолиятининг молиявий ва номолиявий кўрсаткичлари ўртасидаги боғлиқликларни ўрганиш, ҳисобот моддаларидаги ўзгаришларни даврлар ва бошқа кўрсаткичлар билан таққослаш, молиявий коэффициентларни таҳлил қилиш ҳамда эҳтимолий хато ва рискларни аниқлаш имконини беради [3]. Шу нуқтаи назардан, таҳлилий амаллардан фақат аудитнинг якуний босқичида назорат воситаси сифатида эмас, балки **аудитни режалаштириш, аудиторлик рискларини баҳолаш ва аудиторлик далилларини олишнинг самарали усули** сифатида фойдаланиш муҳимдир.

Бундан ташқари, аудит ўтказишдан асосий мақсад, хўжалик юритувчи субъектнинг ҳаётийлик даврини аниқлаш, моддий ва молиявий ресурслардан самарали фойдаланиш, хўжалик юритувчи субъект молиявий ҳолатини яхшилаш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқишдан иборат бўлиб, бу ўз вақтида аудитордан комплекс иқтисодий таҳлилни амалга оширишни талаб этади. Буни амалга оширишда таҳлилий амаллар кенг қўлланилиб, аудиторлик текшируви натижаси бўйича қарорлар қабул қилишда муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар шарҳи

Акциядорлик жамиятларида аудиторлик текширувларида таҳлилий амалларни қўллаш масалаларига норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва иқтисодчи олимларнинг асарларида кенг эътибор қаратилган.

Иқтисодчи олим Н.А.Казакованинг фикрича, таҳлилий амаллар муаяйн бошқарув қарорларини асослаш ёки молиявий ва номолиявий кўрсаткичлар ўртасидаги алоқадорликларни аниқлаш асосида профессионал фикрни шакллантириш мақсадида кўрсаткичларни таҳлил қилишдир [4].

Р.П.Булыга ва М.В.Мельник таҳлилий амалларни таҳлил қилинувчи кўрсаткичлар ўртасидаги сабаб-оқибат алоқадорликларини аниқлаш мақсадида қўлланиладиган аудиторлик текшируви усули сифатида эътироф этган [5].

Бир гуруҳ мамлакатимиз иқтисодчи олимларининг таъкидлашича, таҳлилий амаллар бошқа тегишли маълумотларга зид келувчи ёки башорат қилинаётган миқдорга мос келмайдиган, жумладан, четга чиқишлар ва турли муносабатлар натижасида юзага келувчи муҳим коэффициентлар ва тенденциялар таҳлилидан иборат [6].

Иқтисодчи олимлар Ж.Крицингер ва К.Барак таҳлилий амаллар кўрсаткичлар ўртасидаги номувофиқликлар ва аудитор томонидан башорат қилинаётган миқдорлардан фарқ қилувчи четланишларни аниқлаш мақсадида қўлланиладиган таҳлил усулидир, деган хулосага келишган [6].

Бошқа бир гуруҳ иқтисодчи олимлар таҳлилий амаллар аудиторларнинг профессонал мушоҳадасига асосланган ҳолда акциядорлик жамиятларида молиявий ва номолиявий кўрсаткичлар ўртасидаги алоқадорликларни аниқлашда қўлланиладиган аудит усулидир, деб таъкидлаб ўтишган [7].

Юқорида таъкидланган фикрлардан кўриниб турибдики, иқтисодчи олимларнинг фикрларида асосан акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларнинг моҳияти ва уларни қўллаш мақсадлари ёритилган. Бироқ, йирик солиқ тўловчилар сифатид акциядорлик жамиятларида таҳлилий амалларни халқаро стандартлар асосида қўллаш кетма-кетлиги ва уларнинг аудиторлик далилларининг тўплашдаги аҳамиятига етарли даражада эътибор қаратилмаган.

Тадқиқот методологияси

Илмий тадқиқотни амалга оширишда аудиторлик текширувларида таҳлилий амалларни борасидаги иқтисодчи-олимларнинг фикр-мулоҳазаларини таҳлил қилиш, эксперт баҳолаш, жараёнларни кузатиш, иқтисодий ҳодиса ва жараёнларга тизимли ёндашув, муаллиф тажрибалари билан қиёсий таҳлил ўтказиш орқали тегишли йўналишларда хулоса, таклиф ва тавсиялар берилган.

Таҳлил ва натижалар

Ўзбекистонда корпоратив бошқарув тизимининг ривожланиши, акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар асосида шакллантиришга ўтиш жараёнларининг кенгайиши ва аудит хизматларига бўлган талабнинг ортиши таҳлилий амалларни такомиллаштириш заруратини янада кучайтирмоқда. Шу билан бирга, амалиётда акциядорлик жамиятларининг фаолият хусусиятлари, тармоққа хос кўрсаткичлар, инфляция таъсири, молиявий натижалар динамикаси ва бошқа омилларни ҳисобга олган ҳолда таҳлилий амалларни қўллашнинг услубий жиҳатларида айрим муаммолар мавжуд.

Шу сабабли, Ўзбекистонда акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашнинг назарий ва услубий асосларини тадқиқ этиш, уларни қўллаш самарадорлигини ошириш, аудиторлик рискларини аниқлаш ва баҳолашдаги имкониятларини кенгайтириш ҳамда миллий аудит амалиётини халқаро талаблар асосида такомиллаштириш илмий ва амалий жиҳатдан долзарб масала ҳисобланади.

Бу эса акциядорлик жамиятларида аудиторлик текширувлари сифатини ошириш, уларни молиявий ҳисоботлари кўрсаткичларини ҳаққонийлигини вақтида таҳлилий амалларни қўллаш зарур ҳисобланади. Айнан таҳлилий амаллар аудиторлик далилларини тўплашнинг энг ишончли ва кўп қўлланиладиган усули ҳисобланади.

Бугунги кунда расмий статистикага таяниб 2021–2026 йиллар давомида Ўзбекистонда акциядорлик жамиятлари сони 599 тадан 645 тагача ошган (1-жадвал).

1-жадвал

Ўзбекистонда 2021–2026 йилларда акциядорлик жамиятлари сонининг динамикаси[21]

Йил	Акциядорлик жамиятлари сони, та	Ўтган йилга нисбатан ўзгариш, та	Ўзгариш суръати, %
2021	599	-	100,0
2022	607	+8	101,3
2023	618	+11	101,8
2024	625	+7	101,1
2025	688	+63	110,1
2026*	645	-43	93,8

*Бу қатор 2026 йил биринчи ярим йилликда чоп этилган илмий-статистик тадқиқотда келтирилган бўлиб, унда манба сифатида расмий статистика маълумотлари кўрсатилган: 2021 йил 1 январь - 599 та, 2022 йил 1 январь - 607 та, 2023 йил 1 январь - 618

[21] Муаллифнинг илмий изланишлари асосида тузилган.

та, 2024 йил 1 январь - 625 та ва 2025 йил 1 январь - 688 та, 2026 йил 1 июль ҳолатига 645 тани ташкил этиб, ўтган йилга нисбатан сони, - 43 тага камайган.

Аудиторлик фаолиятини амалга оширишда таҳлилий амалларни бажаришнинг норматив-ҳуқуқий асоси “Таҳлилий амаллар” номли 520-сон аудитнинг халқаро стандарти ҳисобланади. Шунингдек, таҳлилий амалларни бажаришда “Аудиторлик далиллар” номли 500-сон аудитнинг халқаро стандартига ҳам таянилади.

“Таҳлилий амаллар” номли 520-сон аудитнинг халқаро стандартига биноан таҳлилий амаллар тадбиркорлик субъектининг фаолияти тўғрисидаги молиявий ахборотни, масалан, қуйидагилар билан таққослаш натижаларини кўриб чиқишни назарда тутади:

- ўтган даврлар учун қиёсий маълумотлар билан;
- тадбиркорлик субъекти фаолиятининг бюджетлар ёки прогнозлар сингари тахмин қилинган натижалари ёки аудиторнинг эскиришни баҳолаш сингари тахминлари билан;
- соҳа бўйича ўхшаш маълумотлар билан, масалан, тадбиркорлик субъектининг сотувларидан келган тушумнинг дебиторлик қарзлари билан нисбатини соҳа бўйича ўртача натижалар ёки шу соҳадаги бошқа қиёсланувчан катталикдаги корхоналарнинг кўрсаткичлари билан таққослаш [1].

Аудиторлик текширувлари амалиётига назар ташласак, таҳлилий амалларнинг энг кўп қўлланиладиган тури ҳақиқатдаги маълумотларни ўтган йилги маълумотлар билан таққослаш ҳисобланади. Таҳлилий амалларни қўллашда хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятида жорий даврда ўтган даврга нисбатан ўзгаришлар бўлганлиги инобатга олиниши лозим. Агар хўжалик юритувчи субъектда шу давр мобайнида молиявий ёки ташкилий жиҳатдан сезиларли ўзгаришлар содир бўлмаса, олинган натижалар ҳаққоний ҳисобланади.

Аудиторлик ташкилотлари аудиторлик текширувлари давомида мижоз маълумотларини тармоқдаги ўртача хўжалик юритувчи субъект ёки турдош хўжалик юритувчи субъект маълумотлари билан таққослайди. Ушбу амаллар, ўз навбатида, хўжалик юритувчи субъектнинг бозордаги улуши ва рақобатдошлилигини аниқлаш имконини беради. Тармоқдаги турдош ёки ўртача хўжалик юритувчи субъект маълумотини таққослаш учун нафақат молиявий ҳисобот маълумотлари, балки уларга қўшимча равишда бухгалтерия ҳисобида қўлланиладиган усуллар баёнини ҳам илова қилиш тавсия этилади. Чунки тармоқдаги турли хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг турли усуллари қўлланилаётган бўлиши мумкин.

Таҳлилий амаллар қўлланилишида ноодатий четланишлар ва уларнинг сабабларини ўрганишга асосий эътибор қаратилади. Одатда муҳим четланишлар ўрганилади. Ушбу четланиш сабаблари ва таъсир қилувчи омиллар таҳлилий йўл билан эмас, балки кенг қамровли текширув йўли билан ўрганилади.

Умуман, таҳлилий амаллар аудиторлик текширувининг сифати ва самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Ушбу амалларни аудитда қўллашнинг ижобий жиҳатларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

алоҳида ҳисобварақлар ёки ҳисобварақлар гуруҳи маълумотларининг ишончлилигини исботлайди;

муайян санада, ёки ўтган давр бўйича ликвидлилик, рентабеллик кўрсаткичларини аниқлаш имконини беради;

аудиторнинг диққат-эътиборини текширувнинг муҳим жиҳатларига қаратади, шунингдек, текшириш ҳажми ва вақтини қисқартиришга хизмат қилади;

кўрсаткичларнинг ўзаро алоқадорлигини текшириш имконини беради.

Акциядорлик жамиятлари мажбурий аудитдан ўтказишда таҳлилий амаллар аудитнинг режалаштириш, хўжалик муомалаларини текшириш, молиявий ҳисоботни текшириш ва якуний босқичларида қўлланилади (2-жадвал).

Режалаштириш босқичида таҳлилий амаллар чекланмаган миқдорда қўлланилиб, бу босқичда аудитор асосан ҳисоб-китобларга дахлдор бўлмаган амаллар фойдаланади.

2-жадвал

Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларнинг қўлланилиши даврийлиги ва мақсади[22]

Босқич	Даврийлик	Мақсади
Режалаштириш	Аудитнинг бошланиши ва текширишнинг барча амаллари давомида	Аудитни режалаштириш жараёнида аудитор томонидан мижознинг мулкчилик шакли, фаолият тури, кўлами сингари хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда такомиллашган аудит режаси ва дастурини тузиш имконини яратади. Бу эса, ўз навбатида, аудиторлик текширувининг муҳим эътибор қаратиладиган объектларини аниқлаш, аудиторларнинг иш вақтини оқилона тақсимлаш, аудиторларнинг бир-бирини тушуниш даражасини яхшилаш имконини беради
Хўжалик муомалаларини текшириш	Хўжалик муомалалари ва ҳисобварақларнинг муҳимлилиги бўйича текшириш жараёнида	Хўжалик юритувчи субъектнинг бухгалтерия ҳисоби ва ички назорат тизими натижаларини таҳлилий амалларни қўллаб, текшириб чиқиш орқали аудиторлик рискини мақбул даражагача пасайтириш имкони туғилади
Молиявий ҳисоботни текшириш	Молиявий ҳисобот шаклларини текшириш жараёнида	Молиявий ҳисобот шакллари маълумотларини Бош китоб маълумотлари билан, шунингдек, молиявий ҳисобот шакллари маълумотларини ўзаро таққослаш ёрдамида хатоларни аниқлаш имконини беради
Якуний	Аудиторлик текширув якунида	Молиявий ҳисобот бўйича умумий қарор қабул қилиш имконини беради

Хўжалик операциялари ва молиявий ҳисоботни текшириш босқичларида асосан, ҳисоб-китоб билан боғлиқ амаллар қўлланилиб, хўжалик юритувчи субъектда мавжуд бухгалтерия ҳисоби ва ички назорат тизими ҳолатига баҳо берилиб, вакиллик ҳисобварақлари ва бухгалтерия ҳисоби регистрларидаги хатоларни аниқлаш имкони яратилади. Якунловчи босқичда молиявий ҳолатни аниқлашга қаратилган таҳлилий амаллар кенг қўлланилиб, молиявий коэффициентлар ва рентабеллик кўрсаткичлари аниқланади.

Умуман, таҳлилий амаллар аудиторлик текширувининг барча жараёнларида амалга оширилади. Режалаштириш жараёнида таҳлилий амалларни қўллаш, текширилаётган хўжалик юритувчи субъектнинг фаолияти ва молиявий ҳолатида муҳим ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда, аудиторлик риски даражасини аниқлаш имконини яратади [6]. Шунингдек, бу жараёнда таҳлилий амалларнинг қўлланилиши аудиторлик танлаш кўламини шакллантириш имконини беради. Текширув жараёнида таҳлилий амаллар аудиторлик риски даражасини камайтириш мақсадида қўлланилади. Аудиторлик текширувининг якуний босқичида таҳлилий амаллар текширувнинг дастлабки босқичида белгиланган аудиторлик риски даражасини текшириш натижаларидаги ҳолат билан таққослаш мақсадида қўлланилади.

Таҳлилий амалларнинг моҳият жиҳатидан қуйидаги турлари мавжуд:

миқдорий бўлмаган амаллар – бухгалтерия ҳисоби ёки хўжалик юритувчи субъект фаолият хусусиятлари соҳасида умумий билимларни қўллашга қаратилган амаллар бўлиб, булар ҳисобварақлар ва ўзаро боғлиқликларнинг аниқлиги, қонунийлиги ва тўлиқлиги хусусида фикрлаш имконини беради.. Ушбу турдаги амалларнинг асосий камчилиги уларнинг субъектив характерга эгалиги ҳисобланади;

[22] Муаллифнинг илмий изланишлари асосида тузилган.

ҳисобварақлар ўртасидаги алоқадорликни аниқлаш учун қўлланиладиган оддий миқдорий амаллар. Бунга коэффициентлар таҳлили, вариацион таҳлилни мисол тариқасида келтириб ўтиш мумкин [7].

мураккаб миқдорий амаллар. Ушбу амаллар орқали иқтисодий-статистик моделларни қўллаб, ўзгариш сабаблари, уларга таъсир қилувчи омилларни аниқлаш имкони туғилади. Аммо бу амаллар аудиторлик текширувида жуда кам қўлланилади. Чунки бу амалларни қўллаш кўп харажат, пухта билимни талаб этади.



1-расм. Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллаш кетма-кетлиги[23]

Маълумки, ҳар бир иқтисодий жараён босқичма-босқич ўтказилганида унинг самарадорлиги янада ошади. Таҳлилий амалларни ҳам муайян изчилликда бўлган

[23] Муаллифнинг илмий изланишлари асосида тузилган

босқичларга ажратган ҳолда олиб бориш аудит иши сифатининг ошишига олиб келади. Таҳлилий амалларни қўллаш босқичлари қуйидагилардан иборат:

таҳлилий амалнинг қўлланиш мақсадини аниқлаш;

таҳлилий амалнинг усулини танлаш;

таҳлилий амални бажариш;

натижаларни таҳлил қилиш.

Юқорида санаб ўтилган 4 та босқич, ўз навбатида, таҳлилий амалларни қўллаш жараёнини акс эттиради (1-расм).

1-расмда келтириб ўтилган таҳлилий амалларни қўллаш жараёни 4 та босқич ва ушбу босқичларда эътибор қаратиладиган жиҳатларни қамраб олади.

Юқоридаги ҳолатлардан келиб чиқиб, акциядорлик жамиятларида аудиторлик текширувида таҳлилий амаллар ролининг ошиб боришига қуйидагиларни сабаб қилиб кўрсатиш мумкин:

акциядорлик жамиятларида хизмат ҳақи ва иш сифатини сақлаган ҳолда текширишга кетадиган сарф-харажатларни камайтиришга нисбатан пасайиш тенденцияси мавжудлиги;

акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботда хатоларни аниқлаш зарурлиги. назарий жиҳатдан кўриб чиқилса, таҳлилий амаллар хатоларни аниқлашнинг самарали амали ҳисобланади[9]. Акциядорлик жамиятлари фаолиятида кўпгина хатолар айнан таҳлилий амалларни қўллаш орқали аниқланади;

мижоз бизнеси, унинг фаолият хусусиятларини яхши тушуниш имкониятларини тақдим қилиш, молиявий характердаги мураккаб жиҳатларни аниқлаш.

Юқоридаги фикрлардан кўриниб турибдики, акциядорлик жамиятларида аудитида таҳлилий амаллар аудиторлик текширувининг сифатини ошириш ҳамда текширувга сарфланадиган вақт ва харажатни оптимал тақсимлаш, ишончли аудиторлик фикрини шакллантириш имконини беради.

Хулоса

1. Бугунги кунда акциядорлик жамиятлари фаолиятини аудитнинг халқаро стандартлар асосида аудит ўтказишга катта эътибор қаратилмоқда. Аудитнинг халқаро стандартлари асосида аудиторлик хулосасини шакллантириш молиявий ҳисобот кўрсаткичларининг ишончлилиги хусусида тўғри фикр шакллантириш имконини беради.

2. Акциядорлик жамиятлари фаолияти нуфузини ошириш мақсадида аудиторлик текширувининг асосий мақсади холис аудиторлик хулосасини шакллантиришдир. Аудиторлик хулосасини шакллантириш синчковлик билан олиб борилган текширув натижаларига боғлиқ. Мазкур жараёнда таҳлилий амалларни кенг қўллаш мақсадга мувофиқдир. Айнан таҳлилий амаллар аудиторлик далилларининг энг кенг тарқалган ва ишончли усули ҳисобланади.

3. Йирик солиқ тўловчилар сифатида акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллаш орқали бухгалтерия ҳисоби ахборотларининг тўғрилиги ва молиявий ҳисобот кўрсаткичлари ўртасидаги ўзаро алоқадорликни аниқлашда муҳим ўрин тутади. Шу боисдан тадқиқот давомида аудитда таҳлилий амалларнинг қўлланилиши даврийлиги ва мақсади ҳамда таҳлилий амалларни қўллаш кетма-кетлиги асосида аудиторлик далилларини тўплаш амаллари учун ҳам тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-21-сон Фармони. 16.02.2026й.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги қонуни, ЎРҚ-№677-сон, 2021 йил 25 февраль.

3. The International Standard of Audit (ISA) 520 “Analytical procedures”. www.iasplus.com

4. Казакова Н.А. Аналитические процедуры: опыт использования в аудите и оценке хозяйственной деятельности. //Вестник финансового университета. Том 21, № 2, 2017

5. Iryna Perevozova, Pavlo Hryhoruk, Liudmyla Prystupa, Olena Abesinova, Nadija Melnyk. Organization of analytical procedures at the audit of continuity of the enterprise activity. // Academy of Accounting and Financial Studies Journal. Volume 23, Special Issue 2, 2019

6. Hojiyev M.S. «Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish». Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan avtoreferat. Toshkent - «Publishing high future», 2025 y. 84b.

7. M. Khojiyev, A. Suyunova. The specific features of the labor payment audit in non-state non-profit organizations (NSNPO) organizations. Молия. Илмий журнал. - Тошкент, 2020 йил, № 6-сон 83-91 бетлар

8. M.Hojiyev, I.Meliyev, S.Djumanov. Moliyaviy hisobot auditi. Darslik. T.: – “Iqtisod-Moliya” 2020 y. 286 bet.

9. Mehriddin Hojiev. Accounting in non-state non-profit organizations (NSNPO): integrity and impactanalysis. International Journal of Economics, Commerce and Management. ISSN 2348-0386. Vol VI issue 2 (Impact Factor:4.313). 2018/page79-85 http://ijecm.co.uk/wp-content/uploads/2018/02/626.pdf

10. Khojiyev Mekhriddin Sulaymonovich. Improvement of Audit of Payment in Non-State Non-Profit Organizations (NSNPO). International Journal On Economics, Finance and Sustainable Development/Vol. 4 No.2 (2022): IJEFSD /https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/2710/2587/

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

YOSHLAR BIZNES-LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA KREDIT VA INVESTITSIYA RESURSLARINING O‘RNI

Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o‘g‘li
"University of Business and Science" universiteti tayanch doktorant
E-mail:716003@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rni hamda ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Yosh tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlariga ta’sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, kredit olish shartlari, garov ta’minoti, foiz stavkalari, investitsiya imkoniyatlari va moliyaviy savodxonlik masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, bank kreditlari, imtiyozli moliyalashtirish, grantlar, venchur kapitali va xususiy investitsiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha kredit kafolati mexanizmlarini takomillashtirish, muqobil investitsiya manbalarini kengaytirish, loyihaning hayotiy sikliga mos differensial moliyalashtirish tizimini joriy etish hamda kredit va investitsiya resurslarini yagona moliyaviy ekotizim doirasida uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar tadbirkorligi, biznes-loyiha, kredit resurslari, investitsiya resurslari, moliyalashtirish, bank krediti, venchur kapitali, startap, xususiy investitsiyalar, kredit kafolati, moliyaviy resurslar, tadbirkorlik faoliyati.*

THE ROLE OF CREDIT AND INVESTMENT RESOURCES IN FINANCING YOUTH BUSINESS PROJECTS

Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek ugli
Базовый докторант Университета «University of Business and Science»
E-mail: 716003@gmail.com

Annotation: *This article examines the role of credit and investment resources in financing youth business projects and their importance for the development of youth entrepreneurship. The study analyzes the main factors affecting young entrepreneurs’ access to financial resources, including lending conditions, collateral requirements, interest rates, availability of investment resources, and financial literacy. Particular attention is paid to the use of bank loans, preferential financing, grants, venture capital, and private investment in implementing youth business projects. Based on the research findings, recommendations are developed to improve the efficiency of youth business financing, strengthen credit guarantee mechanisms, expand alternative sources of investment, introduce a differentiated financing approach based on the project life cycle, and integrate credit and investment resources into a unified financial ecosystem.*

Keywords: *youth entrepreneurship, business project, credit resources, investment resources, financing, bank lending, venture capital, startup, private investment, credit guarantees, financial resources, entrepreneurial activity.*

РОЛЬ КРЕДИТНЫХ И ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕСУРСОВ В ФИНАНСИРОВАНИИ БИЗНЕС-ПРОЕКТОВ МОЛОДЕЖИ

Сайфиддинов Сарварбек Анварбек угли
PhD Researcher at the University of Business and Science
E-mail: 716003@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуется роль кредитных и инвестиционных ресурсов в финансировании бизнес-проектов молодежи и их значение в развитии молодежного предпринимательства. Проанализированы основные факторы, влияющие на доступ молодых предпринимателей к финансовым ресурсам, включая условия кредитования, требования к залоговому обеспечению, процентные ставки, доступность инвестиционных ресурсов и уровень финансовой грамотности. Рассмотрены возможности использования банковских кредитов, льготного финансирования, грантов, венчурного капитала и частных инвестиций для реализации молодежных бизнес-проектов. По результатам исследования разработаны предложения по повышению эффективности финансирования молодежного предпринимательства, совершенствованию механизмов кредитного гарантирования, расширению альтернативных источников инвестирования, внедрению дифференцированного подхода к финансированию с учетом жизненного цикла проекта, а также интеграции кредитных и инвестиционных ресурсов в единую финансовую экосистему.*

Ключевые слова: *молодежное предпринимательство, бизнес-проект, кредитные ресурсы, инвестиционные ресурсы, финансирование, банковский кредит, венчурный капитал, стартап, частные инвестиции, кредитные гарантии, финансовые ресурсы, предпринимательская деятельность.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri kichik va o‘rta tadbirkorlikning rivojlanishi hisoblanadi, bunda yoshlarning biznes-loyihalarini amalga oshirishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiyotda har qanday tadbirkorlik g‘oyasini hayotga tatbiq etish uchun dastlabki kapital zarur bo‘lib, aksariyat yosh tadbirkorlar bunday mablag‘ga ega bo‘lmaydi. Shu sababli kredit va investitsiya resurslari yoshlar biznesini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biriga aylanmoqda. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, mablag‘ yetishmovchiligi tufayli ko‘plab istiqbolli g‘oyalar amalga oshmay qolmoqda, bu esa iqtisodiyotning innovatsion salohiyatidan to‘liq foydalanmaslikka olib kelmoqda. Shu bois kredit va investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish, ularning yoshlar uchun qulayligini oshirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolardan biridir.

Bugungi kunda yoshlar ish bilan ta'minlash va bandlik muammolarini hal etishning eng samarali yo‘llaridan biri ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishdir. Biroq har qanday tadbirkorlik g‘oyasi moliyaviy resurslarsiz amalga oshmaydi, shuning uchun yoshlarga kredit va investitsiya orqali ko‘rsatiladigan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasiga aylangan. Yoshlar o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish orqali nafaqat o‘zlarini, balki boshqa fuqarolarni ham ish bilan ta'minlashi mumkin, bu esa ishsizlik darajasini pasaytirish, aholi turmush farovonligini oshirish va jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Ayni shu jihatdan yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining rolini o‘rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi, chunki bu masala nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik bilan ham bevosita bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda respublikamizda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator davlat dasturlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda, bu esa mazkur sohaning davlat siyosati darajasidagi ustuvorligini ko‘rsatadi. Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va mustaqil biznes yuritishga undash maqsadida imtiyozli kreditlar, subsidiyalar hamda investitsiya dasturlari joriy etilmoqda. Biroq amaliyotda bunday resurslardan foydalanishda ma'lum to‘siqlar — garov ta'minoti yetishmasligi, moliyaviy savodxonlikning pastligi, byurokratik muammolar mavjudligicha qolmoqda. Shu tufayli yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rnini tadqiq etish, mavjud siyosatning samaradorligini baholash va takomillashtirish yo‘llarini topish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, bu borada yoshlar eng faol va ijodkor kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yangi texnologiyalar, startaplar va noan'anaviy biznes modellarining aksariyati aynan yosh tadbirkorlar tomonidan yaratilmoqda. Biroq innovatsion g‘oyani real loyihaga aylantirish uchun sezilarli moliyaviy resurs talab etiladi, bunda an'anaviy kredit tizimi ko‘pincha yuqori risk tufayli yetarli emas, shuning uchun venchur investitsiyalar va boshqa alternativ moliyalashtirish shakllari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining rolini chuqur o‘rganish innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish nuqtai nazaridan dolzarb masaladir.

Jahon amaliyotida rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi qanchalik samarali tashkil etilgan bo‘lsa, mamlakat iqtisodiyoti shunchalik dinamik rivojlanadi. Xalqaro moliya institutlari, xorijiy investorlar va venchur fondlar yosh tadbirkorlarning innovatsion loyihalariga alohida e'tibor qaratmoqda, chunki aynan shu segment yuqori o‘sish salohiyatiga ega. Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz yoshlari ham xalqaro moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni o‘rganishi zarur bo‘lib, bu ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bois yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rnini xalqaro tajriba asosida o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda, biroq ko‘plab yosh tadbirkorlar o‘z loyihalarini amalga oshirishda moliyaviy resurs yetishmasligi muammosiga duch kelmoqda. Banklarning kredit berish shartlari qattiqligi, garov ta'minotiga bo‘lgan yuqori talab, investorlar bilan ishlash tajribasining kamligi kabi omillar yoshlarning biznes tashabbuslarini cheklab qo‘ymoqda. Ayni paytda mavjud kredit va investitsiya mexanizmlarining qay darajada samarali ishlayotgani, ulardan foydalanish jarayonidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari yetarlicha o‘rganilmagan. Mana shu bo‘shliqni to‘ldirish, ya'ni yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining real o‘rni va samaradorligini tahlil qilish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rni bo‘yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib. Ulardan, mamlakatimiz olimlari Sh. Karimov yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlari va bank kreditlarining rolini tadqiq etib, bank kreditlarini yosh tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashning muhim vositasi sifatida baholaydi. Muallifning yondashuvida kredit resurslariga kirish imkoniyati yoshlarning biznes tashabbuslarini amalga oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kredit olish imkoniyatining mavjudligi bilan bir qatorda, kredit shartlari va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi ham muhim omil sifatida qaraladi [1]. Ushbu yondashuv yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

O. Mirzayev kichik va o‘rta biznes loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish muammolarini tadqiq qilib, kreditlash mexanizmlarining mavjudligi investitsiya loyihalarini amalga oshirishning muhim sharti ekanligini asoslaydi. Uning tadqiqotlarida, xususan, yosh tadbirkorlarning bank kreditlaridan foydalanishida yuzaga keladigan moliyaviy va institutsional to‘siqlar hamda ularni kamaytirish yo‘llariga e’tibor qaratilgan. Bu yondashuv yoshlar biznes-loyihalarida kredit mablag‘laridan foydalanishni soddalashtirish, kredit olish talablarini optimallashtirish va moliyaviy resurslarning mavjudligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi [2].

S.Ikromova sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligini o‘rgangan. Muallif investitsiya loyihalarining samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslarning hajmiga, balki ularni oqilona taqsimlash va tegishli institutsional muhitning shakllanganligiga ham bog‘liq ekanligini asoslaydi. Ayniqsa, investitsiya

loyihalarini kreditlash orqali moliyalashtirishda infratuzilma, inson kapitali va qulay tadbirkorlik muhitining ahamiyati yuqori ekanligi ko‘rsatib beriladi [3].

U.Valiev yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishning asosiy shakllarini tizimli ravishda tadqiq qilib, kredit, grant, mikromoliyalashtirish, venchur kapitali va xususiy investorlar yoshlar biznesini moliyalashtirishning o‘zaro to‘ldiruvchi manbalari ekanligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, yosh tadbirkorlik loyihalarining xususiyatidan kelib chiqib, faqat bank kreditlariga tayanish yetarli emas; ayniqsa startaplar uchun grantlar, venchur kapitali va xususiy investitsiyalar kabi muqobil moliyalashtirish vositalaridan foydalanish zarur[4].

D. Jamalova yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish mexanizmlarini tadqiq qilib, yosh tadbirkorlar uchun bank kreditlari investitsiya loyihalarini ishga tushirish va ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishning asosiy moliyaviy manbalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotda yosh tadbirkorlarning kredit olishida ta’minot, kredit tarixi va biznes-reja tuzish bo‘yicha tajribaning yetishmasligi kabi muammolar mavjudligi qayd etiladi[5].

M.M.Xo‘jiyev yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini o‘rganib, kredit va moliyaviy instrumentlar yoshlarning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion faollikni rag‘batlantirishning muhim vositasi ekanligini asoslaydi. Muallif davlat dasturlari, kredit mexanizmlari va zamonaviy raqamli texnologiyalarni birgalikda qo‘llash yoshlar tadbirkorligining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi[6].

Melain Modeste Senou va Kolotioloman Soro Benin misolida yoshlar tadbirkorligi va moliyaviy resurslardan foydalanish masalasini empirik jihatdan o‘rgangan. Tadqiqotchilar moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga kirish ehtimolini oshirishini aniqlagan. Xususan, moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo‘lish yoshlar tadbirkorligi ehtimolini o‘rtacha 15,2 foizga oshirishi aniqlangan. Mualliflar garov ta’minotiga ega bo‘lmagan yoshlar uchun kredit olish talablarini yengillashtirish, ayniqsa yosh ayollarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni taklif etadi [7].

Brooke L. Krause, Aine Seitz McCarthy va David Chapman Tanzaniyada yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish dasturlarini o‘rganib, moliyaviy savodxonlik, jamg‘arish qobiliyati va shaxsiy moliyani boshqarish ko‘nikmalarining yoshlar biznesidagi ahamiyatini ko‘rsatgan. Ularning fikricha, moliyaviy resurslarning o‘zi yetarli emas; tadbirkor yoshlarning moliyaviy bilim va ko‘nikmalarini oshirish ham biznes loyihalarining muvaffaqiyati uchun zarur[8].

Donna E. Danns va George K. Danns rivojlanayotgan mamlakatlarda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish manbalarini o‘rganib, yosh tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning turli manbalarini tizimlashtirgan. Mualliflar yosh tadbirkorlar uchun kredit va grantlardan foydalanish bilan birga, moliyalashtirishning muqobil kanallarini ham rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot ayniqsa biznesni boshlash va kengaytirish bosqichlarida moliyalashtirish manbalarining farqlanishiga e’tibor qaratadi[9].

T. A. Vysotina Rossiyaning Sankt-Peterburg shahri misolida yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muammolarini o‘rgangan. Muallif yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda moliyaviy yordam, grantlar va imtiyozli kreditlash bilan bir qatorda axborot va maslahat ko‘magining ham ahamiyati yuqori ekanligini ta’kidlaydi. Vysotinaning fikricha, yoshlarning tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish davlat tomonidan qulay moliyaviy va institutsional sharoitlar yaratilishini talab qiladi [10].

E. V. Chmireva va E. S. Sorokina Belgorod viloyatining qishloq hududlari va kichik shaharlarida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalasini tadqiq qilgan. Ularning fikricha, yoshlar tadbirkorligining rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri yetarli va qulay moliyalashtirish manbalarining mavjud emasligidir. Mualliflar bank kreditlarini yoshlar biznesini moliyalashtirishning muhim manbasi sifatida ko‘rib, davlat tomonidan kredit foizlarini subsidiyalash, uzoq muddatli kreditlash va kredit olish jarayonida axborot ko‘magini kuchaytirishni taklif qiladilar [11].

V. V. Klimuk Belarus Respublikasida innovatsion yoshlar tadbirkorligi va uning

moliyalashtirish mexanizmlarini tadqiq qilib, yoshlar biznes tashabbuslarini moliyalashtirishda an’anaviy manbalar bilan bir qatorda kraudfanding, venchur moliyalashtirish va ulushli moliyalashtirish kabi qo‘shimcha instrumentlarni kengaytirish zarurligini asoslaydi. Muallif yosh tadbirkorlikni faqat kredit bilan ta’minlash emas, balki innovatsion infratuzilma, biznes-inkubatorlar, texnologiyalar transferi markazlari va ta’lim tizimi bilan bog‘langan moliyaviy ekotizimni shakllantirishni taklif qiladi [12].

Tadqiqot metodologiyasi.

Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rni bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni to‘plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va yoshlarning iqtisodiy faolligini kuchaytirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarning innovatsion g‘oyalari, yangi biznes tashabbuslari va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan loyihalarini amaliy faoliyatga aylantirish ko‘p jihatdan ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlariga bog‘liq. Ayniqsa, biznesni boshlash bosqichida yosh tadbirkorlarda yetarli miqdorda o‘z mablag‘larining mavjud emasligi, garov ta’minotining yetishmasligi, tadbirkorlik tajribasining kamligi va moliyaviy boshqaruv ko‘nikmalarining cheklanganligi tashabbuslarning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslaridan samarali foydalanish masalasi nafaqat alohida tadbirkorning, balki hududlar va umuman milliy iqtisodiyotning rivojlanishi nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlari asosiy moliyaviy manbalardan biri sifatida muhim o‘rin egallaydi. Kredit resurslari yosh tadbirkorlarga biznes faoliyatini boshlash uchun zarur bo‘lgan asosiy vositalarni xarid qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish, xomashyo va materiallar sotib olish, aylanma mablag‘larni to‘ldirish hamda xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish imkonini beradi. Biroq kredit mablag‘laridan foydalanish jarayonida foiz stavkalarining yuqoriligi, kredit muddatining qisqaligi, garov ta’minotiga qo‘yiladigan talablar va yosh tadbirkorlarning kredit tarixining shakllanmaganligi kabi muammolar mavjud bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, yoshlar uchun imtiyozli kreditlar, kredit kafolatlari, foiz xarajatlarini subsidiyalash va loyiha asosida kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday mexanizmlar yoshlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning biznes g‘oyalarini real iqtisodiy loyihalarga aylantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida yoshlar biznesini faqat kredit mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish yetarli emas. Ayniqsa, innovatsion, texnologik, raqamli va yuqori o‘sish salohiyatiga ega startap loyihalar uchun investitsiya resurslarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Venchur kapitali, biznes farishtalari, xususiy investitsiyalar, investitsiya fondlari, kraudfanding va boshqa muqobil moliyalashtirish instrumentlari yosh tadbirkorlarga qarz yukini oshirmasdan biznesni rivojlantirish imkonini beradi. Investitsiya resurslarining yana bir muhim jihati shundaki, investor nafaqat moliyaviy mablag‘, balki biznes yuritish tajribasi, texnologiya, boshqaruv ko‘nikmalari, marketing imkoniyatlari va yangi bozorlar bilan aloqalarni ham taqdim etishi mumkin. Natijada yosh tadbirkorning moliyaviy kapitali inson kapitali va institutsional imkoniyatlar bilan uyg‘unlashib, biznes-loyihaning raqobatbardoshligi va yashovchanligini oshiradi. Bunda biznes-loyihaning hayotiy sikliga qarab moliyalashtirish manbasini tanlash muhim: biznesni boshlash bosqichida grant va investitsiyalar, faoliyatni kengaytirish bosqichida imtiyozli kreditlar, yuqori o‘sish bosqichida esa venchur kapitali va xususiy investitsiyalardan

foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1-jadval.

Yoshlar biznesini moliyalashtirish manbalarining turlari[5]

Moliyalashtirish manbai	Tavsifi	Xususiyati
Shaxsiy (o‘z) mablag‘	Yoshning shaxsiy jamg‘armasi, oila yordami	Cheklangan hajm, risk yo‘q
Bank krediti	Tijorat banklari va imtiyozli davlat kreditlari	Qaytarish majburiyati, foiz to‘lanadi
Mikromoliyalashtirish	Mikromoliya tashkilotlari orqali kichik summalar	Tezkor, ammo yuqori foiz stavkasi
Venchur investitsiya	Yuqori risk-yuqori daromadli loyihalarga xususiy investorlar	Ulush evaziga mablag‘, qaytarish shart emas
Grant va subsidiyalar	Davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan qaytarib bo‘lmaydigan mablag‘	Raqobat asosida taqsimlanadi
Kraudfanding	Ommaviy onlayn platformalar orqali mablag‘ yig‘ish	Marketing samarasi ham beradi

Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun yagona universal yechim mavjud emas, balki har bir loyihaning xususiyatiga qarab turli manbalar kombinatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, kam risk bilan bog‘liq an'anaviy biznes turlari uchun bank krediti eng qulay vosita hisoblansa, yuqori texnologik va innovatsion loyihalar uchun venchur investitsiya yoki grantlar ancha samarali bo‘ladi, chunki bunday loyihalarning muvaffaqiyat ehtimoli noaniq bo‘lib, an'anaviy kredit tizimi bunday risklarni o‘z zimmasiga olishga tayyor emas. Shaxsiy mablag‘ va oila yordamining moliyalashtirish manbai sifatida hali ham katta o‘rin tutishi, aslida mamlakatimizda institutsional moliyalashtirish tizimining yoshlar uchun to‘liq yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi. Bu holat, bir tomondan, yoshlarning mustaqil ravishda kichik hajmdagi loyihalarni boshlashiga imkon bersa, ikkinchi tomondan, aksariyat istiqbolli g‘oyalarning moliyaviy resurs yetishmasligi sababli amalga oshmay qolishiga olib keladi. Shu bois davlat va bank tizimi tomonidan yoshlarga mo‘ljallangan moliyaviy vositalarning kengaytirilishi ushbu bo‘shliqni to‘ldirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Kraudfanding va mikromoliyalashtirish kabi alternativ manbalarning paydo bo‘lishi raqamli iqtisodiyot va moliyaviy inklyuziya jarayonlarining natijasi bo‘lib, bu vositalar ayniqsa an'anaviy bank tizimidan foydalana olmaydigan yosh tadbirkorlar uchun muhim imkoniyat yaratadi. Biroq bunday manbalarning O‘zbekistonda hali yetarli darajada rivojlanmaganligi, ularning huquqiy-me'yoriy bazasi to‘liq shakllanmaganligi bilan izohlanadi, shuning uchun kelajakda ushbu yo‘nalishlarni institutsionallashtirish yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimini yanada diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

2-jadval.

Kredit va investitsiya resurslarini qiyosiy tahlili[11]

Mezon	Kredit resurslari	Investitsiya resurslari
Qaytarish sharti	Majburiy, foiz bilan	Ulush (equity) evaziga, majburiy emas
Risk kim zimmasida	Tadbirkorda	Investorda ham
Egalik huquqi	O‘zgarmaydi	Investor ulush oladi
Qaror qabul qilish erkinligi	Tadbirkorda saqlanadi	Investor ta'sir ko‘rsatishi mumkin
Talab etiladigan hujjat/garov	Garov, kafolat talab qilinadi	Biznes-reja, o‘sish salohiyati muhim
Mos keladigan bosqich	Barqaror, kam risk loyihalar	Startap, innovatsion loyihalar

Kredit va investitsiya resurslari o‘rtasidagi tubdan farq — qaytarish majburiyati va egalik huquqi masalasida namoyon bo‘ladi, bu esa yosh tadbirkor uchun qaysi manbani tanlash strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Agar tadbirkor o‘z biznesi ustidan to‘liq nazoratni saqlab qolishni istasa, kredit resurslari afzalroq bo‘ladi, biroq bu holda u muntazam to‘lov majburiyati va moliyaviy risklarni to‘liq o‘z zimmasiga oladi. Investitsiya orqali moliyalashtirish esa, aksincha, tadbirkorni to‘lov yukidan ozod qiladi, lekin buning evaziga u biznesining bir qismini investorga topshirishga va qaror qabul qilishda uning fikrini hisobga olishga majbur bo‘ladi.

Ushbu ikki manbaning risk taqsimoti bo‘yicha farqi ham alohida e'tiborga loyiq — kredit tizimida risk asosan tadbirkorning zimmasida qolsa, investitsiya tizimida risk investor bilan bo‘lishiladi. Bu holat, aynan innovatsion va yuqori noaniqlikka ega bo‘lgan yoshlar startap loyihalari uchun investitsiya resurslarining nima uchun ko‘proq mos kelishini tushuntiradi, chunki bunday loyihalarda muvaffaqiyatsizlik ehtimoli yuqori bo‘lib, kredit orqali moliyalashtirilgan taqdirda tadbirkor qarzga botib qolish xavfiga duch kelishi mumkin.

Amaliyotda ko‘pincha bu ikki manba bir-birini to‘ldiruvchi vosita sifatida qo‘llanilishi kerakligi ayon bo‘ladi — dastlabki bosqichda investitsiya yoki grant orqali loyihani sinovdan o‘tkazish, keyinchalik esa barqaror daromad shakllangach kredit resurslaridan foydalanib kengayish strategiyasi optimal yechim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga faqat bitta moliyalashtirish shaklini emas, balki ikkala resursni ham to‘g‘ri va bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirish bo‘yicha bilim va ko‘nikma berish zarurligi dolzarb masalaga aylanadi.

3-jadval.

O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy dastur va mexanizmlar[4]

Dastur / hujjat	Mazmuni
"Yoshlar — kelajagimiz" davlat dasturi (2018)	Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan
VMning 765-son qarori (2021)	"Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"
PF-6260-son Farmon (2021)	Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankiga yoshlarning yangi g‘oyalar asosida ishlab chiqilgan innovatsion, startap va biznes loyihalarini moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan
"Yoshlar biznesi" dasturi (2025–2027)	Amalga oshiriladi; Aloqabank yosh tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatuvchi bazaviy "yoshlar banki" etib belgilangan
"Biznesga birinchi qadam" loyihasi	18–30 yoshdagi o‘zini o‘zi band qilganlarga onlayn tartibda 100 mln so‘mgacha, 7 yilgacha muddatga, imtiyozli davr bilan mikroqarz ajratiladi
"Yoshlar uchun ish o‘rinlari" loyihasi	Kamida 20 ta ish o‘rni yaratishni ko‘zda tutuvchi loyihalarga 5 mlrd so‘mgacha, 7 yilgacha muddatga imtiyozli kredit ajratiladi

So‘nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va dasturlarning izchilligi shuni ko‘rsatadiki, davlat yoshlar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan. "Yoshlar — kelajagimiz" dasturidan tortib, 2025–2027 yillarga mo‘ljallangan "Yoshlar biznesi" dasturigacha bo‘lgan davrda mexanizmlar tobora aniqroq, maqsadli va institutsional shaklga kirib bormoqda — bunga aynan "yoshlar banki" maqomining alohida bankka biriktirilishi yaqqol misol bo‘la oladi, bu esa yoshlar bilan ishlash endi tarqoq emas, balki markazlashgan tizim asosida tashkil etilayotganidan dalolat beradi.

"Biznesga birinchi qadam" va "Yoshlar uchun ish o‘rinlari" kabi loyihalarning shartlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, davlat siyosati endilikda nafaqat yoshlarni individual tadbirkor sifatida qo‘llab-quvvatlashga, balki ular orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga ham qaratilgan

— bu ikki yo‘nalishli yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi, chunki bir yosh tadbirkorning muvaffaqiyati bir nechta boshqa fuqarolarning bandligini ham ta'minlashi mumkin. Imtiyozli davr, past foiz va garovsiz (sug‘urta polisi yoki uchinchi shaxs kafolati asosidagi) shartlarning joriy etilishi esa moliyaviy resursga bo‘lgan dastlabki to‘siqlarni sezilarli darajada pasaytirgan.

Shunga qaramay, mazkur dasturlarning amaliy samaradorligi ularning qay darajada keng qamrovli va barcha hududlarda bir xil sifatda amalga oshirilayotganiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Qonunchilik darajasidagi progressiv o‘zgarishlar amaliyotda byurokratik jarayonlar, axborot yetishmasligi yoki mahalliy ijrochilar faoliyatidagi nosozliklar tufayli to‘liq natija bermasligi mumkin, shuning uchun bu dasturlarning haqiqiy ta'sirini baholash uchun ularning monitoring va statistik hisobot tizimini yanada takomillashtirish zarur bo‘lgan dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

4-jadval.

Biznes hayotiy sikli bosqichlari va mos moliyalashtirish manbai[4, 5]

Bosqich	**Xarakteristikasi**	**Mos moliyalashtirish manbai**
G‘oya / boshlang‘ich (Idea)	Konsepsiya, hali daromad yo‘q	Shaxsiy mablag‘, grant, "boshlang‘ich" investorlar
Startap bosqichi	Prototip, birinchi sotuvlar	Venchur investitsiya, kraudfanding
O‘sish bosqichi	Barqaror daromad, kengayish	Bank krediti, investitsiya fondlari
Yetuklik bosqichi	Barqaror biznes, katta aylanma	Yirik kreditlar, strategik investorlar

Biznesning har bir rivojlanish bosqichida turli moliyalashtirish manbalarining talab etilishi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi statik emas, balki dinamik va bosqichli yondashuv asosida qurilishi lozim. Boshlang‘ich bosqichda, hali daromad mavjud bo‘lmagan davrda, tadbirkordan garov yoki moliyaviy kafolat talab qiluvchi an'anaviy kredit tizimidan foydalanish deyarli imkonsiz bo‘lib, bu bosqichda aynan grant va boshlang‘ich investitsiyalarning ahamiyati ortadi.

Startap va o‘sish bosqichlariga o‘tishda moliyalashtirish manbalarining venchur investitsiyadan bank kreditiga tomon siljishi tabiiy iqtisodiy jarayon hisoblanadi, chunki loyihaning barqarorligi va daromadliligi oshgani sari uning riski pasayadi va bank tizimi uchun ham jozibador bo‘lib qoladi. Biroq O‘zbekiston sharoitida ushbu o‘tish bosqichi ko‘pincha uzilib qolishi mumkin — ya'ni startap bosqichida yetarli venchur investitsiya topa olmagan loyihalar o‘sish bosqichiga yetib bormasdanoq to‘xtab qolishi, bu esa "moliyaviy bo‘shliq" (financing gap) muammosini keltirib chiqaradi.

Shu sababli, yoshlar biznesini qo‘llab-quvvatlash siyosati faqat bitta bosqichga emas, balki butun hayotiy sikl davomida uzluksiz moliyaviy hamrohlik ta'minlashga qaratilishi zarur. Bunday yaxlit yondashuv — startapdan tortib yetuk biznesgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda mos moliyaviy vositalarning mavjudligini ta'minlash — yoshlar tadbirkorligining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishi uchun asosiy shart hisoblanadi.

5-jadval.

Yoshlar moliyalashtirish resurslaridan foydalanishdagi asosiy muammolar va yechim yo‘nalishlari*

Muammo	**Yechim yo‘nalishi**
Garov ta'minoti yetishmasligi	Kafolat fondlari, sug‘urta polisi asosida kreditlash
Moliyaviy savodxonlikning pastligi	Bepul o‘quv kurslari va treninglar tashkil etish
Investorlar bilan ishlash tajribasi yo‘qligi	Startap akseleratorlari, mentorlik dasturlari
Byurokratik to‘siqlar	Onlayn ariza berish tizimlarini rivojlantirish
Yuqori foiz stavkalari	Imtiyozli davlat kredit dasturlarini kengaytirish

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Garov ta'minoti yetishmasligi va yuqori foiz stavkalari kabi muammolarning tizimli xarakterga ega ekanligi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishdagi to‘siqlar faqat moliyaviy emas, balki institutsional xususiyatga ham ega. Yosh tadbirkorlarning aksariyati hali mulkka ega bo‘lmagani sababli, an'anaviy garov talab qiluvchi kredit tizimi ularning eng katta ehtiyoji — dastlabki kapitalga ega bo‘lishiga — to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘siq bo‘lib qoladi, shuning uchun kafolat fondlari va sug‘urta mexanizmlarining rivojlantirilishi ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo‘li hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlik va investorlar bilan ishlash tajribasining yetishmasligi muammosi esa ko‘proq ta'lim va institutsional infratuzilma bilan bog‘liq bo‘lib, bu yerda faqat moliyaviy resursni ko‘paytirish yetarli emas — yoshlarga mavjud resurslardan qanday samarali foydalanishni o‘rgatish ham xuddi shu darajada muhimdir. Aks holda, hatto qulay shartlarda ajratilgan kredit yoki investitsiya ham noto‘g‘ri boshqaruv natijasida samarasiz sarflanishi, bu esa nafaqat tadbirkorning, balki umuman moliyalashtirish tizimining ham samaradorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Byurokratik to‘siqlarning mavjudligi, ayniqsa raqamlashtirish davrida, alohida tashvish uyg‘otadigan holat hisoblanadi, chunki bu muammoni hal etish uchun zarur texnologik imkoniyatlar allaqachon mavjud. Onlayn ariza berish va monitoring tizimlarining to‘liq joriy etilishi nafaqat jarayonni tezlashtiradi, balki korrupsiya va sub'ektiv qarorlar xavfini ham kamaytiradi, natijada moliyalashtirish resurslariga bo‘lgan ishonch va ularning yoshlar orasidagi qamrovi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa va takliflar.

Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslari yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini real iqtisodiy faoliyatga aylantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, daromadlarni oshirish va innovatsion loyihalarni rivojlantirishning muhim moliyaviy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bank kreditlari, imtiyozli moliyalashtirish, grantlar, xususiy investitsiyalar, venchur kapitali va muqobil moliyalashtirish instrumentlarining o‘zaro uyg‘unligi yosh tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Ayniqsa, o‘z mablag‘lari va garov ta’minoti cheklangan yoshlar uchun kredit kafolatlari, foiz subsidiyalari va investitsiya mexanizmlarining rivojlantirilishi biznes loyihalarining boshlanishi va barqaror faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bois yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda faqat kredit hajmini oshirish emas, balki moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va loyihaning xususiyatiga mos moliyaviy instrumentni tanlash muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun “kredit + investitsiya + kafolat + maslahat + monitoring” tamoyiliga asoslangan kompleks yondashuvni shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda biznesni boshlash bosqichidagi loyihalar uchun grant va imtiyozli mikrokreditlardan, rivojlanish bosqichidagi loyihalar uchun bank kreditlari va investitsiyalardan, yuqori o‘sish salohiyatiga ega innovatsion startaplar uchun esa venchur kapitali va biznes farishtalari mablag‘laridan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, moliyalashtirishdan oldingi biznes-rejani baholash, yosh tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, mentorlik va konsultatsiya xizmatlarini yo‘lga qo‘yish kredit va investitsiya mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Bunday tizim nafaqat moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki yosh tadbirkorlarning biznes yuritish kompetensiyalarini rivojlantirib, moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish mamlakatda yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish va yangi avlod tadbirkorlar qatlamini shakllantirishning strategik omillaridan biri hisoblanadi. Kelgusida moliyalashtirish mexanizmlarini loyihaning hayotiy sikli, tavakkalchilik darajasi va iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib differensiallashtirish, yosh tadbirkorlar uchun kredit kafolati tizimini kengaytirish, venchur va xususiy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, kredit va investitsiya resurslarini

yagona raqamli platforma orqali birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, moliyalashtirishni yangi ish o‘rinlari, soliq tushumlari, ishlab chiqarish hajmi, eksport, innovatsion mahsulotlar va qo‘shilgan qiymat yaratish kabi aniq natijalar bilan bog‘lash davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Natijada yoshlarning biznes tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash nafaqat alohida biznes subyektlarining rivojlanishiga, balki hududlarning iqtisodiy faolligi, aholi bandligi va mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o‘sishiga ham xizmat qiladi.

Takliflar

1. Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda “loyiha hayotiy sikli”ga asoslangan differensial moliyalashtirish tizimini joriy etish. Yosh tadbirkorlik loyihalarining rivojlanish bosqichlari, moliyaviy ehtiyojlari va tavakkalchilik darajasi bir xil emas. Shu sababli barcha loyihalarni bir xil kreditlash mexanizmi asosida moliyalashtirish o‘rniga, loyihaning boshlang‘ich, rivojlanish va kengayish bosqichlariga mos moliyalashtirish vositalarini qo‘llash maqsadga muvofiq. Jumladan, biznesni boshlash bosqichida grant va foizsiz yoki imtiyozli mikrokreditlar, dastlabki rivojlanish bosqichida imtiyozli investitsiya va bank kreditlari, yuqori o‘sish bosqichida esa venchur kapitali va xususiy investitsiyalardan foydalanish mexanizmini shakllantirish taklif etiladi. Bunday yondashuv moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlab, istiqbolli loyihalarning moliyalashtirish yetishmovchiligi sababli to‘xtab qolishining oldini oladi.

2. Yosh tadbirkorlar uchun kredit kafolati mexanizmini kuchaytirish va garov ta’minotiga qo‘yiladigan talablarni optimallashtirish. Yoshlarning biznes-loyihalarini moliyalashtirishdagi asosiy muammolardan biri — yetarli garov mulkiga ega emasligidir. Ayniqsa, o‘z faoliyatini endigina boshlayotgan yosh tadbirkorlarning ko‘pchiligida ko‘chmas mulk yoki boshqa yuqori likvidli aktivlar mavjud bo‘lmaydi. Shu sababli “Yosh tadbirkor kredit kafolati” mexanizmini kengaytirish, bunda davlat yoki maxsus kafolat jamg‘armasi tomonidan kreditning ma’lum qismini kafolatlash tizimini joriy etish taklif etiladi. Kredit qaytmaslik xatarining bir qismini kafolatlash orqali banklarning yoshlar loyihalariga nisbatan ehtiyotkorligini kamaytirish mumkin. Shuningdek, garov qiymatini baholashda nafaqat mavjud aktivlar, balki loyihaning kelgusidagi pul oqimlari, biznes-rejaning iqtisodiy samaradorligi va tadbirkorning kredit tarixini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

3. Yoshlar uchun kredit va investitsiya resurslarini birlashtiruvchi “Yoshlar biznes kapitali” moliyalashtirish platformasini tashkil etish. Amaliyotda yosh tadbirkorlar kredit olish uchun banklarga, investitsiya izlash uchun investorlar va fondlarga, grant olish uchun esa turli davlat va nodavlat tashkilotlariga alohida murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa vaqt va tranzaksiya xarajatlarining oshishiga olib keladi. Shu sababli yoshlar biznes-loyihalarini yagona elektron platforma orqali kredit, investitsiya, grant va kafolat mexanizmlari bilan bog‘lash taklif etiladi. Platformada loyihalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, biznes-rejani baholash, moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, investorlar bilan bog‘lash, kreditga ariza yuborish va loyihaning amalga oshirilishini monitoring qilish imkoniyatlari yaratilishi mumkin. Natijada moliyalashtirish jarayoni shaffoflashadi, loyihalarni tanlashda subyektivlik kamayadi va istiqbolli yoshlar loyihalarining moliyaviy resurslarga chiqish imkoniyati kengayadi.

4. Yoshlar startaplari uchun venchur moliyalashtirish va biznes farishtalari institutini rivojlantirish. Innovatsion va yuqori texnologiyali yoshlar loyihalarini an’anaviy bank krediti orqali moliyalashtirish har doim ham samarali emas, chunki bunday loyihalarda garov ta’minoti yetarli bo‘lmasligi va dastlabki davrda barqaror pul oqimi shakllanmasligi mumkin. Shu sababli yoshlar startaplarini moliyalashtirishga ixtisoslashgan venchur fondlar va biznes farishtalari tarmog‘ini rivojlantirish taklif etiladi. Bunda davlat tomonidan dastlabki kapital bilan ishtirok etiladigan “fondlar fondi” mexanizmini yaratish, xususiy investorlarning yoshlar startaplariga investitsiya kiritishini rag‘batlantirish va muvaffaqiyatli loyihalardan olingan daromadlarni yangi loyihalarga qayta investitsiya qilish tizimini shakllantirish mumkin. Bu mexanizm kredit majburiyatini oshirmasdan yoshlarning innovatsion g‘oyalarini tijoratlashtirish imkonini beradi.

5. Yosh tadbirkorlarni moliyalashtirishdan oldingi tayyorlash va moliyaviy konsultatsiya tizimini joriy etish. Moliyaviy resurslarning mavjudligi o‘z-o‘zidan biznes-loyihaning muvaffaqiyatini kafolatlamaydi. Yosh tadbirkorlarda biznes-reja tuzish, pul oqimlarini prognozlash, kredit yuklamasini hisoblash, investitsiya samaradorligini baholash, soliqlar va moliyaviy hisobotlarni yuritish bo‘yicha bilimlarning yetarli emasligi loyihaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois kredit yoki investitsiya ajratilishidan oldin “Moliyaviy tayyorgarlik – Moliyalashtirish – Mentorlik – Monitoring” tamoyiliga asoslangan tizimni joriy etish taklif etiladi. Bunda yosh tadbirkor loyiha qiymati, kredit summasi, foiz to‘lovlari, pul oqimi va kutilayotgan daromadni oldindan hisoblab chiqishi, tajribali mentor yoki konsultant yordamida biznes-rejasini takomillashtirishi lozim. Bu yondashuv kreditlarning qaytmaslik xavfini kamaytirish bilan birga, investitsiya mablag‘laridan foydalanish samaradorligini ham oshiradi.

6. Yoshlar biznes-loyihalarining samaradorligini baholashning kompleks reyting tizimini ishlab chiqish va moliyalashtirishni natijadorlikka bog‘lash. Yoshlar loyihalarini moliyalashtirishda faqat biznes-reja mavjudligi yoki kredit ta’minotining yetarliligiga asoslanish o‘rniga, loyihaning investitsiya samaradorligi, yangi ish o‘rinlari yaratish salohiyati, eksport imkoniyati, innovatsionligi, soliq tushumlariga ta’siri, mahalliylashtirish darajasi va barqaror pul oqimi kabi ko‘rsatkichlarini kompleks baholash taklif etiladi. Shu asosda loyihalarning reytingini shakllantirib, yuqori reytingga ega loyihalarga pastroq foiz stavkasi, uzoqroq kredit muddati, yuqori kafolat darajasi yoki qo‘shimcha investitsiya resurslarini taqdim etish mumkin. Natijada davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslar shunchaki mablag‘ sifatida emas, balki yangi ish o‘rni, daromad, investitsiya va iqtisodiy qo‘shilgan qiymat yaratadigan natijador moliyalashtirish instrumenti sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов Ш. Ёшлар тадбиркорлигини молиялаштириш механизмлари ва банк кредитлари роли: PhD диссертацияси автореферати. — Тошкент, 2020. — 34 б.

2. Мирзаев О. Кичик ва ўрта бизнес лойиҳаларини банк кредитлари орқали молиялаштириш муаммолари ва ечимлари: PhD диссертацияси автореферати. — Тошкент, 2019. — 33 б.

3. Икромова С. Саноат зоналарида инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда молиялаштиришнинг иқтисодий самарадорлиги: DSc диссертацияси автореферати. — Тошкент, 2019. — 33 б.

4. Валиев У. Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishning asosiy shakllari // Muhandislik va iqtisodiyot. — 2025. — № 7. — DOI: 10.5281/zenodo.17695442.

5. Джамалова Д. Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish // Green Economy and Development. — 2025. — Vol. 3, № 8. — DOI: 10.5281/zenodo.16875819.

6. Хўжиев М. М. Economic foundations of developing youth entrepreneurship in the national economy // Agrobusiness, Science and Technology. — 2026. — Vol. 4, № 4.

7. Senou M. M., Manda J. Access to finance and rural youth entrepreneurship in Benin: Is there a gender gap? // African Development Review. — 2022. — Vol. 34, № 1. — P. 29–41. — DOI: 10.1111/1467-8268.12623.

8. McKenzie D., Woodruff C. Entrepreneurship programs in developing countries: A meta regression analysis // Labour Economics. — 2014. — Vol. 30. — P. 1–14. — DOI: 10.1016/j.labeco.2014.03.011.

9. Danns D. E., Danns G. K. Financing Youth Entrepreneurship in a Developing Country. — University of North Georgia, 2019.

10. Высотина Т. А. Актуальные проблемы финансовой поддержки развития молодежного предпринимательства со стороны государственных органов в Санкт-Петербурге // Научные ведомости. — Санкт-Петербург, 2016.

11. Чмирева Е. В., Сорокина Е. С. Развитие молодёжного предпринимательства и ремесленничества в сельских территориях и малых городах Белгородской области // Вестник Белгородского государственного технологического университета им. В. Г. Шухова. — 2016. — № 7. — С. 232–235.

12. Климук В. В., Мустафаев В. С. Роль молодежного предпринимательства в развитии рынка R&D услуг в Республике Беларусь // Журнал прикладных исследований. — 2021. — № 6. — DOI: 10.47576/2712-7516_2021_6_9_814.

9. Фролова И. А. Особенности государственной поддержки молодежного предпринимательства в Республике Татарстан // Современные проблемы науки и образования. — 2016. — № 2. — С. 57–64. — DOI: 10.18413/2408-9338-2016-2-1-57-64.

10. Krause B. L., McCarthy A. S., Chapman D. Fuelling financial literacy: estimating the impact of youth entrepreneurship training in Tanzania // Journal of Development Effectiveness. — 2016. — Vol. 8, № 2. — P. 234–256. — DOI: 10.1080/19439342.2015.1092463.

11. Danns D. E., Danns G. K. Financing Youth Entrepreneurship in a Developing Country. — University of North Georgia, 2019.

12. Linking financial ecosystem and the growth of young SMEs: evidence from Spanish regions // Review of Managerial Science. — 2024. — DOI: 10.1007/s11846-024-00815-4.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI MODELLAR VA METODOLOGIK YONDASHUVLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o‘g‘li
O‘zbekiston respublikasi Bank moliya akademiyasi
Xalqaro bank ishi fakulteti
Davlat moliyaviy nazorati va auditi(MSc)
mutaxassisligi talabasi
E-mail: yashnarbek300@gmail.com

Annotatsiya: *Bu maqolada davlat moliyaviy nazoratini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy, metodologik va institutsional jihatlari tahlil qilinadi. Davlat moliyaviy nazorati, davlat auditi, ichki nazorat, ichki audit va tashqi audit tushunchalarining funksional farqlari aniqlashtirilib, INTOSAI Professional Pronouncements Framework, ISSAI 100, 200, 300, 400, INTOSAI-P 10 va 12 talablari asosida zamonaviy audit yondashuvlari tizimlashtiriladi. Vestminster, sudlov va kollegial modellarining afzalliklari hamda cheklovlari qiyosiy tahlil qilinadi. Riskka asoslangan, kombinatsiyalashgan, raqamli va samaradorlik auditining institutsional salohiyati baholanadi. PEFA, IMF Fiscal Transparency Code, IPSAS va GFSM 2014 kabi vositalarning davlat moliyaviy boshqaruvi va nazorat tizimini diagnostika qilishdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston uchun Integratsiyalashgan risk-asosidagi milliy audit modeli (IRAM), yagona tavsiyalar reyestri, sifatni boshqarish va audit natijadorligini o‘lchash indikatorlarini joriy etish taklif qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Davlat auditi, moliyaviy nazorat, ISSAI, INTOSAI, risk-asosidagi audit, samaradorlik auditi, ichki audit, tashqi audit, IRAM, PEFA.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛЕЙ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Шодиев Яшнарбек Бахриддин угли
Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан
Факультет международного банковского дела
Магистрант специальности «Государственный финансовый контроль и аудит» (MSc)
E-mail: yashnarbek300@gmail.com

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические, методологические и институциональные аспекты совершенствования государственного финансового контроля на основе международных стандартов. Уточняются функциональные различия понятий государственного финансового контроля, государственного аудита, внутреннего контроля, внутреннего аудита и внешнего аудита, а также систематизируются современные подходы к аудиту на основе требований INTOSAI Professional Pronouncements Framework, ISSAI 100, 200, 300, 400, INTOSAI-P 10 и 12. Проводится сравнительный анализ преимуществ и ограничений Вестминстерской, судебной и коллегиальной моделей. Оценивается институциональный потенциал риск-ориентированного, комбинированного, цифрового аудита и аудита эффективности. Раскрывается роль таких инструментов, как PEFA, Кодекс налогово-бюджетной прозрачности МВФ (IMF Fiscal Transparency Code), IPSAS и GFSM 2014, в диагностике системы управления государственными финансами и контроля. В результате исследования для Узбекистана предлагается внедрение Интегрированной национальной риск-ориентированной модели аудита (IRAM), единого реестра рекомендаций, управления качеством и индикаторов измерения результативности*

аудита.

Ключевые слова: *Государственный аудит, финансовый контроль, ISSAI, INTOSAI, риск-ориентированный аудит, аудит эффективности, внутренний аудит, внешний аудит, IRAM, PEFA.*

IMPROVING STATE FINANCIAL CONTROL MODELS AND METHODOLOGICAL APPROACHES BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Shodiev Yashnarbek Bakhriddin ugli
Banking and finance academy of the Republic of Uzbekistan Faculty of International Banking
Master's Student (MSc) in Public Financial Control and Audit
E-mail: yashnarbek300@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the theoretical, methodological, and institutional aspects of improving public financial control based on international standards. The functional differences between the concepts of public financial control, public audit, internal control, internal audit, and external audit are clarified, and modern audit approaches are systematized based on the requirements of the INTOSAI Professional Pronouncements Framework, ISSAI 100, 200, 300, 400, and INTOSAI-P 10 and 12. A comparative analysis is conducted on the advantages and limitations of the Westminster, judicial, and collegiate (board) models. The institutional potential of risk-based, combined, digital, and performance audits is evaluated. The role of tools such as PEFA, the IMF Fiscal Transparency Code, IPSAS, and GFSM 2014 in diagnosing the public financial management and control system is revealed. As a result of the research, the implementation of an Integrated Risk-Based National Audit Model (IRAM), a unified registry of recommendations, quality management, and indicators for measuring audit effectiveness is proposed for Uzbekistan.*

Keywords: *Public audit, financial control, ISSAI, INTOSAI, risk-based audit, performance audit, internal audit, external audit, IRAM, PEFA.*

Kirish.

Davlat moliyaviy resurslaridan oqilona, qonuniy va natijador foydalanishni ta’minlash zamonaviy davlat boshqaruvining muhim shartlaridan biridir. Davlat xarajatlarining hajmi, budjet dasturlarining murakkablashuvi, davlat qarzi va kafolatlari, davlat xaridlari hamda davlat ulushidagi korxonalar faoliyatining kengayishi moliyaviy nazorat tizimiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Shu sababli nazoratni faqat sodir bo‘lgan moliyaviy buzilishlarni aniqlashga yo‘naltiruvchi ex post mexanizm sifatida tashkil etish yetarli emas. Zamonaviy yondashuv preventiv, riskka asoslangan, raqamli va natijaga yo‘naltirilgan nazorat mexanizmlarini rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu masalaning dolzarbligi O‘zbekistonda davlat auditi tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, oliy audit institutining mustaqilligini kuchaytirish, ichki va tashqi audit o‘rtasidagi funksional chegaralarni aniqlashtirish hamda audit tavsiyalarining amaliy ijrosini ta’minlash zarurati bilan belgilanadi. INTOSAI standartlari, PEFA metodologiyasi va fiskal shaffoflik tamoyillarini milliy amaliyotga mexanik tarzda ko‘chirish emas, balki mamlakatning institutsional va huquqiy sharoitlariga moslashtirish kerak. Ushbu maqolaning ahamiyati shundaki, unda davlat moliyaviy nazoratining tashkiliy modellari va metodologik yondashuvlari kompleks tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida risklarni markazga qo‘yuvchi Integratsiyalashgan risk-asosidagi milliy audit modeli (IRAM)ni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalasini kompleks o‘rganish uchun tizimli, qiyosiy, institutsional va riskka asoslangan

metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Tizimli yondashuv orqali davlat auditi, ichki nazorat, ichki audit va tashqi auditning o‘zaro funksional bog‘liqligi tahlil qilindi. Qiyosiy metod asosida Vestminster, sudlov va kollegial audit modellarining institutsional xususiyatlari hamda ularning afzallik va cheklovlari solishtirildi. Normativ-huquqiy tahlil yordamida INTOSAI-P, ISSAI, PEFA va boshqa xalqaro standartlarning asosiy talablari o‘rganildi. Riskka asoslangan yondashuv orqali budjet xarajatlari, davlat xaridlari, davlat qarzi, SOE, ijtimoiy dasturlar va investitsiya loyihalaridagi asosiy xavf klasterlari aniqlandi. 3E (economy, efficiency, effectiveness) metodologiyasi davlat dasturlarining natijadorligini baholash uchun qo‘llanildi. Natijalar asosida O‘zbekiston uchun IRAM modelini shakllantirish bo‘yicha institutsional takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.

Ilmiy tahlilda davlat moliyaviy nazorati, davlat auditi, ichki nazorat, ichki audit va tashqi audit tushunchalarini o‘zaro sinonim sifatida qo‘llamaslik kerak. Davlat moliyaviy nazorati keng tushuncha bo‘lib, davlat resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi ustidan oldindan (ex ante), joriy va keyingi (ex post) ta’sir ko‘rsatuvchi barcha mexanizmlarni qamrab oladi. Davlat auditi esa mustaqil, dalillarga asoslangan va belgilangan mezonlar asosida xulosa chiqaruvchi professional faoliyatdir **[1]**.

Ichki nazorat boshqaruvning birinchi himoya chizig‘i sifatida vakolatlarni ajratish, ruxsat berish, hisobga olish va monitoringni o‘z ichiga oladi. Ichki audit esa ichki nazoratning samaradorligini mustaqil baholaydi, biroq tashkilot rahbariyatiga hisobot beradi. Tashqi audit konstitutsiyaviy yoki qonuniy mandatga ega oliy audit organining tashqi ishonchlilikni ta’minlashga qaratilgan faoliyati hisoblanadi. Fiskal nazorat esa audit natijalarini siyosiy-institutsional hisobdorlik mexanizmiga aylantiruvchi parlament va mustaqil fiskal institutlar faoliyatini anglatadi **[2]**.

Lima deklaratsiyasi bu tushunchalarni davlat mablag‘larining jamoatchilik ishonchiga asoslangan resurs ekanligi haqidagi fundamental tamoyil bilan bog‘laydi. Bu yondashuvdan kelib chiqib, moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi faqat qonunbuzarlik sodir etgan shaxsni aniqlash emas, balki jamoatchilik ishonchini himoya qilish, boshqaruvdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishdan iborat **[3]**. INTOSAI-P 12 ham oliy audit institutlari faoliyatini fuqarolar hayotiga real ta’sir ko‘rsatish, hisobdorlik, shaffoflik va yaxlitlikni kuchaytirish bilan bog‘laydi.

ISSAI 100 davlat sektori auditini auditor, mas’ul tomon va foydalanuvchi o‘rtasidagi uch tomonlama munosabat sifatida ko‘radi. Auditor mustaqil baholovchi, mas’ul tomon audit qilinayotgan tashkilot, foydalanuvchi esa parlament, hukumat yoki jamoatchilik bo‘lishi mumkin. Audit attestation engagement shaklida, ya’ni taqdim etilgan axborotning belgilangan mezonlarga muvofiqligini tasdiqlash orqali yoki direct reporting shaklida, auditor predmetni bevosita o‘lchab, xulosa chiqarishi orqali amalga oshiriladi **[4]**.

Metodologik jihatdan materiality, audit risk va professional scepticism tushunchalari alohida ahamiyatga ega. Materiality foydalanuvchi qaroriga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan buzilishning ahamiyatlilik chegarasini belgilaydi. Audit riski buzilishni aniqlamaslik ehtimolini ifodalaydi va odatda inherent risk, control risk hamda detection risk komponentlari orqali tahlil qilinadi. Professional skeptitsizm esa auditorning dalillarni tanqidiy baholashi va mavjud ma’lumotlarni avtomatik ravishda to‘g‘ri deb qabul qilmasligini anglatadi **[5]**.

M. Power “audit jamiyati” konsepsiyasi orqali nazoratning o‘zi yangi hisobot shakllari va institutsional amaliyotlarni yaratishini ko‘rsatadi **[6]**. M. Bovens esa hisobdorlikni javob berish, faoliyatni tushuntirish va zarur hollarda oqibatlarga duch kelish jarayoni sifatida ajratadi **[7]**. Shuning uchun nazorat tadbirining o‘tkazilgani avtomatik ravishda hisobdorlik yuzaga kelganini anglatmaydi. Nazorat natijasi qaror qabul qilish, tuzatish choralarini ko‘rish va tavsiyalar ijrosiga olib kelgandagina institutsional natijaga aylanadi.

Davlat auditi xalqaro standartlari tasodifiy hujjatlar majmuasi emas, balki INTOSAI Framework of Professional Pronouncements (IFPP) doirasidagi ierarxik tizimdir. Uning yuqori qatlamini INTOSAI-P tashkil etadi. INTOSAI-P (Lima deklaratsiyasi) auditning konstitutsiyaviy

mohiyatini belgilaydi. INTOSAI-P 10 (Mexico deklaratsiyasi) oliy audit institutlari mustaqilligining 8 ta asosiy tamoyilini mustahkamlaydi. Ular huquqiy mustaqillik, rahbarlarni tayinlash va ozod qilish kafolatlari, mandatning kengligi, axborotdan cheklanmagan foydalanish, hisobotlarni e’lon qilish huquqi, follow-up mexanizmi, moliyaviy hamda ma’muriy avtonomiyani qamrab oladi. INTOSAI-P 12 esa SAI faoliyatining qiymatini fuqarolar hayotiga ta’siri bilan bog‘laydi. **[8]**

ISSAI 100 barcha audit turlari uchun umumiy tamoyillarni belgilaydi. U etika va mustaqillik, professional mulohaza, sifat nazorati, auditor kompetensiyasi, audit riski, materiality, hujjatlashtirish, kommunikatsiya, rejalashtirish, auditni o‘tkazish, hisobot berish va follow-up jarayonlarini qamrab oladi. ISSAI 200 moliyaviy audit tamoyillariga bag‘ishlangan bo‘lib, IAASBning Xalqaro audit standartlariga tayanadi, biroq davlat sektorining o‘ziga xos xususiyatlarini ham hisobga oladi. ISSAI 300 samaradorlik auditini iqtisodiylik, unumdorlik va natijadorlik (ya’ni 3E) asosida tashkil etadi. ISSAI 400 muvofiqlik auditida faoliyat, operatsiyalar va axborotning qonun, budjet, shartnoma yoki davlat siyosati kabi belgilangan vakolatlar va mezonlarga muvofiqligini baholaydi **[9]**.

Yordamchi professional qatlamga ISSAI 130 — etika kodeksi, ISSAI 140 — SAI doirasida sifatni boshqarish va ISSAI 150 — auditor kompetensiyasi kiradi. GUID hujjatlari, jumladan GUID 5250 (davlat qarzi auditi bo‘yicha yo‘riqnoma) majburiy standart emas, balki murakkab audit predmetlarida amaliy metodik yo‘nalish beradi. Shu sababli milliy audit organining “ISSAI asosida ishlashi” haqidagi da’vo qaysi standart darajasi qabul qilinganini aniq ko‘rsatishni talab qiladi.

Xalqaro tajribada oliy audit institutlarining tashkiliy modeli uchta klassik shaklga ajratiladi. Vestminster modelida Auditor-General parlamentga hisobot beradi, audit xulosalari asosan tavsiyaviy xarakterga ega bo‘ladi va SAI odatda bevosita yuridik jazo vakolatiga ega emas. Ushbu modelning kuchli tomoni parlament nazorati va jamoatchilik muhokamasidir. Zaif tomoni esa tavsiyalar ijrosining siyosiy iroda va parlament nazoratiga bog‘liqligidir **[10]**.

Sudlov yoki Napoleon modelida Hisob palatasi yoki hisob sudi shaklidagi oliy audit instituti moliyaviy huquqbuzarliklar bo‘yicha muayyan yuridik oqibatlarni belgilashi mumkin. Uning afzalligi individual javobgarlikni kuchaytirish bo‘lsa, zaif jihati jarayonlarning uzoq davom etishi va huquqiy tekshiruvning samaradorlik tahlilini ikkinchi planga surishi mumkinligidir **[11]**.

Kollegial modelda qarorlar yakka rahbar tomonidan emas, balki kollegial organ tomonidan qabul qilinadi. Bu professional muhokamani kuchaytiradi, biroq qaror qabul qilish tezligini pasaytirishi mumkin. Modeldan qat’iy nazar, Mexico deklaratsiyasining 8 tamoyili SAI mustaqilligini baholashning universal mezonlarini beradi. INTOSAI tomonidan ishlab chiqilgan SAI Performance Measurement Framework (SAI PMF) mandat, mustaqillik, audit sifati, moliyaviy boshqaruv, inson kapitali va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarni baholash imkonini beradi. Shu orqali qonunchilikda mavjud “mustaqillik” bilan amaliy mustaqillik o‘rtasidagi tafovutni aniqlash mumkin **[12]**.

Davlat auditining tarixiy rivojlanishi qonuniylik va tartibga rioya qilishni tekshiruvchi regularity/compliance auditdan samaradorlik auditiga, undan esa kompleks yoki kombinatsiyalashgan auditga tomon rivojlangan. ISSAI 300 samaradorlik auditini hukumat faoliyatining iqtisodiylik, unumdorlik va natijadorlik tamoyillariga muvofiqligini mustaqil, obyektiv va ishonchli tekshirish sifatida belgilaydi. Bu yerda economy resurslarni zarur sifatni saqlagan holda maqbul narxda va o‘z vaqtida jalb qilishni, efficiency resurslar va olingan natijalar o‘rtasidagi nisbatni, effectiveness esa belgilangan maqsadlarga erishish darajasini anglatadi. Zamonaviy amaliyotda tenglik va barqarorlik mezonlari ham tobora ko‘proq qo‘llanmoqda, biroq ular ISSAI 300ning asosiy uchlik mezonlari (3E) o‘rnini to‘liq egallamagan **[13]**.

Riskka asoslangan audit barcha obyektlarni teng darajada tekshirishdan voz kechib, audit resurslarini eng katta xavf mavjud sohalarga yo‘naltiradi. Bunda inherent risk, control risk va detection risk tahlil qilinadi. Risk matritsasi, stratifikatsiyalangan tanlanma, ma’lumotlar tahlili va ssenariy testlari ushbu metodologiyaning asosiy vositalaridir. ISO 31000 risklarni boshqarish

uchun umumiy metodologik tilni, IIAning xalqaro professional amaliyot ramkasi esa ichki audit bilan metodologik uyg‘unlikni ta’minlaydi. Kombinatsiyalashgan audit moliyaviy, muvofiqlik va samaradorlik elementlarini yagona audit topshirig‘ida birlashtiradi. Biroq auditor asosiy fokusni aniq belgilashi kerak. Aks holda audit xulosasi juda ko‘p masalalarni yuzaki qamrab olib, hech bir masala bo‘yicha yetarlicha chuqur daliliy asos yaratmasligi mumkin **[14]**.

1-rasm

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishning bosqichlari, mexanizmlari va xalqaro metodologik yondashuvlari



Nazoratning vaqt jihatidan evolyutsiyasi ham muhim: an’anaviy ex post auditdan real vaqt

va uzluksiz auditga o‘tish kuzatilmoqda. Preventiv nazorat moliyaviy zarar yuzaga kelishidan oldin aralashadi, detektiv nazorat esa sodir bo‘lgan og‘ishlarni aniqlaydi. Tashqi auditor ichki nazorat natijalariga tayanishi mumkin, biroq buning uchun nazorat muhitini tegishli standartlar asosida oldindan baholashi zarur. Raqamli auditda CAATs, process mining va anomaly detection kabi vositalar yangi audit turi emas, balki dalil yig‘ish va tahlil qilish metodlaridir. Ular katta hajmdagi operatsiyalarni qamrab olish imkonini beradi. Ma’lumotlar sifati, algoritmik xatolik, model noto‘g‘riligi va ayrim algoritmlarning tushuntirib bo‘lmasligi yangi audit xavflarini yuzaga keltiradi **[15]**.

Xalqaro standartlar audit qanday amalga oshirilishini belgilasa, PFM diagnostik vositalari davlat moliyasini boshqarish tizimining qanchalik samarali ishlayotganini o‘lchash imkonini beradi. Ushbu vositalarning eng muhimlaridan biri PEFA 2016 bo‘lib, u 7 ta ustun, 31 ta indikator va 94 ta o‘lchovdan iborat. Davlat moliyaviy nazorati uchun PI-26 ichki auditning qamrovi, standartlari va follow-up mexanizmlarini; PI-30 tashqi auditning qamrovi, standartlari, hisobotlarni taqdim etish muddati, tavsiyalar ijrosi va oliy audit institutining mustaqilligini; PI-31 esa parlamentning audit hisobotlarini ko‘rib chiqishi, eshituvlar o‘tkazishi, tavsiyalarni qabul qilishi va ularning ijrosini nazorat qilishini baholaydi **[16]**.

IMF Fiscal Transparency Code va uning fiskal shaffoflikni baholash vositalari fiskal hisobot, prognozlash va budjetlashtirish, fiskal risklarni boshqarish hamda tabiiy resurslar daromadlarini baholash kabi to‘rtta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi. PEFA davlat moliyasini boshqarish siklining qanchalik ishlashiga urg‘u bersa, Fiscal Transparency Code axborotning to‘liqligi, sifati va ochiqligini baholaydi. IPSAS va GFSM 2014 bevosita davlat moliyaviy nazorati standartlari bo‘lmasa-da, audit obyektining (davlat moliyaviy hisobotlari va fiskal ma’lumotlarning) sifatini belgilashda muhim ahamiyatga ega. ISSAI 200 bo‘yicha moliyaviy auditning to‘laqonli amalga oshirilishi ishonchli hisobot bazasining mavjudligiga bevosita bog‘liq **[17]**.

Biroq metodologik jihatdan cheklovni hisobga olish lozim: yuqori diagnostik ball avtomatik ravishda yuqori real natijani anglatmaydi. PEFA va Fiscal Transparency Code ko‘proq protsedural natijalar, muddatlar, qamrov va axborotning e’lon qilinishini o‘lchaydi. Davlat resurslarining maqsadli sarflanishi, davlat xizmatlari sifati, fiskal barqarorlik va fuqarolar ishonchi esa natijaviy ko‘rsatkichlar sifatida alohida baholanishi kerak.

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratidagi muammolarni hal etish uchun Integratsiyalashgan risk-asosidagi milliy audit modeli (IRAM)ni shakllantirish maqsadga muvofiq. Amaldagi tizimda tashqi audit, ichki audit va inspeksiya organlari ko‘pincha o‘z audit rejalarini mustaqil shakllantiradi. “Davlat auditi” dasturiy kompleksi rejalashtirishni muvofiqlashtirish va nazorat qamrovini kengaytirish imkonini berayotgan bo‘lsa-da, u hali to‘liq yagona risk-dvigateliga aylanmagan. IRAMning asosiy tamoyili nazorat obyekti sifatida idorani emas, risk-obyektni belgilashdan iborat. Bunda yetti asosiy risk guruhi ajratiladi: budjet ishonchliligi, xarajat majburiyatlari, davlat xaridlari, davlat qarzi va kafolatlari, davlat ulushidagi korxonalar (SOE), ijtimoiy dasturlar, iqlim va davlat investitsiyalari (PIM). Har bir risk guruhi bo‘yicha ehtimollik, ta’sir, nazoratdan keyingi qoldiq xavf va “qayta takrorlanish” indikatori yuritilishi lozim.

Bunday yondashuv Hisob palatasi va ichki auditning faoliyatini yagona risk-reyestriga bog‘laydi. Natijada yillik audit dasturi “qaysi vazirlik navbatda?” tamoyilidan “qaysi yuqori xavf klasteri hali qamrab olinmagan?” tamoyiliga o‘tadi. Bir xil xarajat markazida turli organlarning takroran qonuniylikni tekshirishi o‘rniga, biri moliyaviy ishonchlilikni, ikkinchisi xarid risklarini, uchinchisi esa davlat dasturining natijadorligini baholashi mumkin. “Davlat auditi” kompleksi esa real vaqt ogohlantirishlari, risk-ballining o‘zgarishi va yopilmagan audit topilmalari asosida yangi audit uchun avtomatik signal beruvchi risk-engine vazifasini bajaradi.

Moliyaviy, muvofiqlik, samaradorlik va strategik auditning joriy etilishi huquqiy jihatdan muhim qadam bo‘lsa-da, ularning yillik audit portfelidagi nisbatini metodologik jihatdan aniqlash zarur. Dastlabki uch yilda moliyaviy va muvofiqlik auditlari asosiy resursni saqlab qolishi

mumkin, chunki hisobot bazasi va ichki nazorat sifati hali bir xil darajada emas. Samaradorlik, IT-audit va strategik audit ulushi bosqichma-bosqich oshirilishi kerak. Yirik infratuzilma, ijtimoiy himoya va tashqi qarz hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarda combined engagement protokoli joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bunda auditning asosiy fokusi oldindan belgilanadi: hisobotning to‘g‘riligi asosiy masala bo‘lsa, moliyaviy audit; dastur maqsadiga erishish darajasi tekshirilsa, samaradorlik auditi yetakchilik qiladi.

Milliy samaradorlik auditi metodikasi kamida to‘rt qatlamni qamrab olishi lozim. Birinchidan, 3E bo‘lgan iqtisodiylik, unumdorlik va natijaviylik asosiy mezon sifatida saqlanadi. Ularga equity –manfaatlarning kimga yetib borishi va kimning chetda qolishi hamda sustainability — bugungi tejamkorlik kelajakdagi fiskal yoki ekologik xarajatlarni oshirmasligi mezonlari qo‘shiladi. Ikkinchidan, har bir dastur uchun theory of change, ya’ni resurs → faoliyat → natija → ta’sir zanjiri shakllantiriladi. Uchinchidan, taqqoslash bazasi normativ, hududlararo, vaqt bo‘yicha yoki ehtiyotkor counterfactual asosida belgilanadi. To‘rtinchidan, tavsiyaning iqtisodiy ta’siri alohida o‘lchanadi.

“Samarasiz xarajat” tushunchasini (a) qonuniy, biroq past unumdorlikdagi xarajat; (b) maqsadsiz yoki tartibbuzar xarajat; (c) hali sodir bo‘lmagan, biroq oldini olingan xarajat sifatida ajratish zarur. Faqat bunday tasnif trillionlik ko‘rsatkichlarni ilmiy va parlament nazorati uchun ishonchli indikatorga aylantiradi.

PF-252 Hisob palatasi faoliyatini kamida har besh yilda bir marta tashqi baholashdan o‘tkazishni belgilaydi. Ushbu talabni doimiy sifat sikliga aylantirish zarur. Birinchi qatlam ISSAI 140 mantiqidagi ichki sifat boshqaruvi, hot review, cold review, shikoyat va tuzatish mexanizmlaridan iborat bo‘ladi. Ikkinchi qatlam har yili SAI PMF asosida o‘z-o‘zini baholash. Uchinchi qatlam esa INTOSAI yoki teng darajadagi oliy audit instituti tomonidan peer review o‘tkazilishidir. Shunda audit hisobotlarida “ISSAI asosida” yoki “ISSAI bilan mos” degan iboralar real metodologik muvofiqlik bilan ta’minlanadi. Agar milliy metodika ISSAI 300 talablarining ayrim elementlarini qamrab olmasa, to‘liq muvofiqlik haqida da’vo qilinmasligi lozim.

PEFA 2024 baholashida tashqi audit B+, qonunchilik nazorati esa C+ darajasida qayd etilgan. Bu holat audit tizimining o‘zidan ko‘ra, audit natijalarining keyingi taqdirini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli yagona tavsiyalar reyestri tashkil etilishi kerak. Unda topilma, tavsiya, muddat, mas’ul vazirlik, status (qabul qilindi, qisman bajarildi, rad etildi yoki muddati o‘tdi) hamda moliyaviy ta’sir qayd etiladi.

Reyestr “Davlat auditi” kompleksida ochiq yuritilsa, parlament qo‘mitalari budjet ijrosi bo‘yicha majburiy eshituvlar bilan bir qatorda yuqori riskli mavzular bo‘yicha tematik eshituvlar o‘tkazishi mumkin. Bunda asosiy indikator hisobotning o‘qilganligi emas, tavsiyaning amalda yopilganligi bo‘lishi kerak.

PF-252 Xitoy, Fransiya, Braziliya, Rossiya va Polsha tajribasidan kelib chiqib, yirik budjet oluvchi 23 ta davlat organi va 14 ta hokimlikda 2026-yil 1-apreldan 2030-yil 1-yanvargacha “Bosh inspektor” lavozimini joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu institut Westminster modelidagi tavsiyaviylik va sudlov modelidagi javobgarlik elementlari o‘rtasidagi muayyan aralash shaklni hosil qiladi. Biroq manfaatlar to‘qnashuvi xavfi mavjud. Bosh inspektor idora boshqaruviga haddan tashqari singib ketsa, ichki auditorning dublikatiga aylanadi; jazo organi sifatida ishlasa, preventiv maslahat funksiyasi zaiflashadi. Shuning uchun dual reporting, rotatsiya, manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasi va inspektor topilmalarini risk-reyestriga kiritish mexanizmlari zarur. Inspektor tashqi audit xulosasining o‘rnini bosmasligi kerak.

“Masofaviy audit”ga 2024-yilda 34 ta idora ulangan, 2025-yilda esa 110 ta baza va 480 trln so‘mlik budjet xarajatlarini monitoring qilish ko‘zda tutilgan. PF-252 sun’iy intellekt va kosmik monitoring imkoniyatlarini ham nazarda tutadi. Biroq sun’iy intellekt va anomaly detection natijasi audit xulosasining o‘zi emas, yordamchi signal sifatida qabul qilinishi kerak. Har bir signal bo‘yicha ma’lumot manbasi, qo‘llangan qoida va threshold, audit izi saqlanishi lozim. Riskni “muhim” deb belgilash va aniqlangan holatni “buzilish” sifatida tasniflashda insonning professional mulohazasi majburiy qolishi kerak. Kosmik monitoringda esa tasvirning vaqt belgisi,

georeferensiyasi, foydalanish maqsadi va qarama-qarshi tomon izohi daliliy standartning tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Nazorat tizimining o‘zini ham o‘lchash talab etiladi. Buning uchun to‘rtta indikator zarur: nazorat samaradorligi indeksi, tavsiya ijro koeffitsiyenti, risk-coverage ratio va performance audit ulushi. Nazorat samaradorligi faqat aniqlangan mablag‘ bilan emas, qaytarilgan yoki tiklangan mablag‘, oldini olingan takroriy xavf va tizimli qoidaning o‘zgarishi bilan baholanadi. Tavsiya ijro koeffitsiyenti belgilangan muddatda yopilgan tavsiyalar ulushini ko‘rsatadi. Risk-coverage ratio yuqori xavfli klasterlarning audit dasturida qamrab olingan qismini, performance audit ulushi esa samaradorlik auditining audit portfelidagi salmog‘ini aks ettiradi. Modelning kadrlar, ma’lumotlar sifati va idoralararo integratsiya bilan bog‘liq cheklovlari mavjud. 110 ta bazani integratsiya qilish qamrovni oshirsa-da, klassifikatsiya, kechikish va dublikat ma’lumotlar xavfini ham yuzaga keltiradi. G‘aznachilik, davlat xaridlari, davlat qarzi va SOE ma’lumotlari yagona identifikatorlar orqali ulanmasa, risk-engine noto‘g‘ri signal berishi mumkin. IRAM, 3E metodikasi va ISSAI 140ni samarali qo‘llash uchun yuqori malakali auditorlar, jumladan ACCA, CIA, CIPFA yoki teng darajadagi professional tayyorgarlikka ega mutaxassislar zarur.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari davlat moliyaviy nazoratining kelajakdagi samaradorligi tekshiruvlar soni yoki aniqlangan moliyaviy buzilishlar hajmi bilan emas, balki davlat mablag‘lari boshqaruvida yuzaga keladigan xavflarni qanchalik erta aniqlash va bartaraf etish imkoniyati bilan belgilanayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida nazoratning institutsional arxitekturasini natijaga yo‘naltirish strategik vazifa hisoblanadi. Taklif etilgan IRAM modeli audit subyektlarini emas, moliyaviy xavflarni markazga qo‘yish orqali tekshiruvlar takrorlanishini qisqartirish va resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga konsentratsiya qilish imkonini beradi. Kelgusida raqamli monitoring tizimlarini yagona ma’lumotlar standartlari asosida rivojlantirish, audit dalillarining izchilligini kafolatlash va auditorlarning analitik kompetensiyalarini oshirish zarur. Audit tavsiyalarining bajarilishi mustaqil monitoring qilinib, ularning fiskal va ijtimoiy samarasi o‘lchanishi lozim. Bunday transformatsiya nazoratni ma’muriy tekshiruv vositasidan boshqaruv sifatini yaxshilovchi strategik institutga aylantiradi. Budjet intizomi, institutsional javobgarlik va davlat moliyasining barqarorligi o‘zaro bog‘langan yagona boshqaruv mexanizmiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hepworth, N. (2024). The distinction between public financial management and internal control (PFM/IC) and public financial administration and internal control (PFA/IC). In Public financial management and internal control (pp. 85–117). Springer.

2. The Institute of Internal Auditors. (2020). The IIA’s Three Lines Model: An update of the Three Lines of Defense. https://www.theiia.org/en/content/position-papers/2020/the-iias-three-lines-model-an-update-of-the-three-lines-of-defense/

3. United Nations General Assembly. (2011). Promoting the efficiency, accountability, effectiveness and transparency of public administration by strengthening supreme audit institutions (A/RES/66/209).

4. INTOSAI. (2019). ISSAI 100: Fundamental principles of public-sector auditing. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements. https://www.issai.org/pronouncements/issai-100-fundamental-principles-of-public-sector-auditing/

5. International Auditing and Assurance Standards Board. (2018). ISA 200: Overall objectives of the independent auditor and the conduct of an audit in accordance with International Standards on Auditing. International Federation of Accountants.

6. Power, M. (2000). The audit society — Second thoughts. International Journal of Auditing, 4(1), 111–119.

7. Bovens, M. (2007). Analysing and assessing accountability: A conceptual framework. European Law Journal, 13(4), 447–468.

8. INTOSAI. (2019d). INTOSAI-P 12: The value and benefits of Supreme Audit Institutions — making a difference to the lives of citizens. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.

9. INTOSAI. (2019a). ISSAI 100: Fundamental principles of public-sector auditing. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2020). ISSAI 200: Financial audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2019b). ISSAI 300: Performance audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.; INTOSAI. (2019c). ISSAI 400: Compliance audit principles. INTOSAI Framework of Professional Pronouncements.

10. Blume, L., & Voigt, S. (2011). Does organizational design of supreme audit institutions matter? A cross-country assessment. European Journal of Political Economy, 27(2), 215–229.

11. Dye, K. M., & Stapenhurst, R. (1998). Pillars of integrity: The importance of supreme audit institutions in curbing corruption. World Bank Institute.

12. INTOSAI Development Initiative. (2016). Supreme Audit Institutions Performance Measurement Framework (SAI PMF). INTOSAI / IDI.

13. Pollitt, C., & Summa, H. (1997). Reflexive watchdogs? How supreme audit institutions account for themselves. Public Administration, 75(2), 313–336.

14. Knechel, W. R. (2007). The business risk audit: Origins, challenges and the role of research. Accounting, Organizations and Society, 32(4–5), 383–408.

15. Alles, M., Brennan, G., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. A. (2006). Continuous monitoring of business process controls: A pilot implementation of a continuous auditing system at Siemens. International Journal of Accounting Information Systems, 7(2), 137–161.

16. PEFA Secretariat. (2018). PEFA handbook. Volume II: PEFA assessment fieldguide. PEFA Secretariat.

17. International Public Sector Accounting Standards Board. (2022). Handbook of international public sector accounting pronouncements. International Federation of Accountants.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

KORXONALARDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Muydinov Baxodirjon Numanovich
University of economics and pedagogy NOTM
“Iqtisodiyot” kafedrasi v.b. professori., i.f.n.
E-mail:boxodirmuydinov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda korxonalarda ichki auditni samarali tashkil etish va takomillashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda ichki auditning korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash, ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash, mavjud xato va kamchiliklarni aniqlash hamda moliyaviy xavflarni kamaytirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, korxonalarda ichki audit tizimini takomillashtirish, audit jarayonlariga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ichki audit natijalaridan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Korxonalarda ichki audit, audit tizimi, ichki nazorat, audit jarayoni, moliyaviy nazorat, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, moliyaviy xavflar, audit samaradorligi, boshqaruv qarorlari.*

ОРГАНИЗАЦИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ

Муйдинов Баходиржон Нуманович
University of economics and pedagogy НВУЗ
и.о. профессора кафедры «Экономика», к.э.н.
E-mail: boxodirmuydinov@gmail.com

Аннотация. *В данном исследовании были изучены теоретические и практические аспекты эффективной организации и совершенствования внутреннего аудита на предприятиях. Проанализирована роль внутреннего аудита в контроле финансово-экономической деятельности предприятия, обеспечении достоверности бухгалтерской и финансовой отчетности, оценке эффективности системы внутреннего контроля, выявлении существующих ошибок и недостатков, а также снижении финансовых рисков. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию системы внутреннего аудита на предприятиях, внедрению современных подходов к аудиторским процессам и эффективному использованию результатов внутреннего аудита при принятии управленческих решений.*

Ключевые слова: *Внутренний аудит на предприятиях, система аудита, внутренний контроль, процесс аудита, финансовый контроль, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, финансовые риски, эффективность аудита, управленческие решения.*

ORGANIZING AND IMPROVING INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES

Muydinov Bakhodirzhon Numanovich
University of Economics and Pedagogy NHEI
Acting Professor, Department of Economics; CES
E-mail:boxodirmuydinov@gmail.com

Abstract. *This study examined the theoretical and practical aspects of effectively organizing and improving internal audit at enterprises. It analyzed the role of internal audit in monitoring the financial and economic activities of an enterprise, ensuring the reliability of accounting and financial reporting, assessing the effectiveness of the internal control system, identifying existing errors and deficiencies, and mitigating financial risks. Furthermore, proposals and*

recommendations were developed for improving the internal audit system at enterprises, implementing modern approaches to audit processes, and effectively using internal audit results in management decision-making.

Keywords: *Internal audit at enterprises, audit system, internal control, audit process, financial control, accounting, financial reporting, financial risks, audit efficiency, management decisions.*

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash va korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va raqobat muhitining kuchayishi sharoitida korxonalardan mavjud moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, xarajatlarni oqilona boshqarish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini ta’minlash talab etilmoqda. Bunday sharoitda korxona faoliyati ustidan samarali ichki nazoratni tashkil etish va ishonchli axborot ta’minotini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ichki audit tizimi korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish, mavjud xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ichki nazorat jarayonlarining samaradorligini baholash hamda korxona faoliyati bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Korxonalar bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yurituvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar sifatida o‘z faoliyatining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini muntazam ravishda baholab borishi zarur. Shu nuqtai nazardan, ichki audit tizimi orqali shakllantiriladigan tahliliy ma’lumotlar korxonaning aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari, moliyaviy natijalari, pul mablag‘lari harakati, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ichki nazorat holati to‘g‘risida rahbariyat uchun muhim axborotlarni taqdim etadi. Mazkur axborotlar asosida korxona rahbariyati moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini baholash, resurslarni oqilona taqsimlash, xarajatlarni nazorat qilish, moliyaviy xavflarni aniqlash va ularni kamaytirish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini asoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ichki auditning muhim jihati shundaki, u faqat sodir bo‘lgan moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarini tekshirish bilan cheklanib qolmasdan, korxonadagi mavjud xavflarni oldindan aniqlash va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga ham xizmat qiladi. Xususan, risklarni baholash, ichki nazorat tizimining ishlash samaradorligini tahlil qilish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma’lumotlarining ishonchliligini tekshirish, aktivlarning saqlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda belgilangan ichki tartib-qoidalarga rioya etilishini baholash orqali ichki audit korxona faoliyatidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy korxonalarda ichki auditni tashkil etishga nisbatan an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda riskka asoslangan audit, jarayonli yondashuv, raqamli texnologiyalardan foydalanish va doimiy monitoring kabi zamonaviy usullarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Korxonalar faoliyatining raqamlashuvi natijasida buxgalteriya va boshqaruv axborotlarining hajmi ortib, ularni tezkor tahlil qilish, nazorat qilish va baholash ichki audit tizimi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda hamda audit jarayonlarida zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Korxonalarda ichki auditni samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ichki auditning korxona faoliyatini nazorat qilish, moliyaviy hisobot ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash, ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash, xo‘jalik operatsiyalaridagi xavflarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlashdagi ahamiyati mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan.

O‘zbekistonlik olim K.B. Axmedjanovning tadqiqotlarida ichki auditning uslubiy asoslari, tekshiruv ob’ektlarini tanlash, ichki audit tekshiruvini tayyorlash, rejalashtirish va o‘tkazish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Muallifning ishlarida ichki auditni korxona faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish, audit ob’ektlarini to‘g‘ri belgilash va tekshiruv jarayonini maqsadga muvofiq rejalashtirish uning samaradorligini ta’minlovchi muhim omillar sifatida qaraladi[1]. Axmedjanovning ichki audit tekshiruvi texnologiyasini takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotlari mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-uslubiy yondashuvlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sh.I. Ilxamovning ilmiy ishlarida ichki auditning mohiyati, uni tashkil etish konsepsiyasi hamda ichki auditning korxonadagi boshqaruv nazorati tizimida tutgan o‘rni tadqiq etilgan. Muallif ichki auditni korxona faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi, xo‘jalik jarayonlarining samaradorligini baholovchi va rahbariyatni ishonchli axborot bilan ta’minlovchi muhim boshqaruv vositasi sifatida ko‘rib chiqadi. Shuningdek, ichki auditni tashkil etish konsepsiyasini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratilishi korxonalarda ichki audit xizmatining tashkiliy va funksional asoslarini rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[2].

Ichki auditning sifatini oshirish masalalari N.Sh. Abdievaning tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan. Muallif O‘zbekistonda ichki audit ishini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zaruratini asoslab, ichki audit xizmatining faoliyatini muntazam takomillashtirish, audit jarayonlarining sifatini oshirish va zamonaviy talablarga mos uslubiy yondashuvlarni joriy etish masalalarini tadqiq qilgan. Ushbu yondashuv korxonalarda ichki auditning faqat nazorat funksiyasi bilan cheklanib qolmasdan, uning sifat va samaradorligini baholash mexanizmlarini ham shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi[3].

F. Toshpulatovning tadqiqotlarida ichki audit jarayonida tahliliy usullardan foydalanish zaruratiga e’tibor qaratilgan. Muallif moliyaviy holat, aktivlar, rentabellik, xarajatlar va boshqa moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish ichki auditning axborot-tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishini ta’kidlaydi. Bunday yondashuv ichki auditni faqat hujjatlarni tekshirish bilan cheklanmaydigan, balki korxona moliyaviy holati va faoliyati samaradorligini chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilgan tizim sifatida rivojlantirish imkonini beradi[4].

So‘nggi yillarda ichki auditni takomillashtirish bo‘yicha dissertatsion tadqiqotlarda ham mazkur masalaning turli sohalardagi xususiyatlari o‘rganilmoqda. Xususan, X.B. Xusainovning «Budjet tashkilotlarida ichki auditni takomillashtirish»[5] mavzusidagi tadqiqotida ichki auditni samarali tashkil etish va uning uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish masalasi tadqiq etilgan. F.S. Nasimovning tadqiqotlarida esa budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat faoliyatini takomillashtirish[6] masalalariga e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, ichki auditni rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda riskka asoslangan audit, ichki nazorat va audit natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda [7]. Korxona faoliyatida risklarning murakkablashib borishi ichki audit xizmatidan an’anaviy tekshiruvlardan tashqari, risklarni aniqlash va ularni boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishni ham talab etmoqda.

Ichki audit faoliyatini takomillashtirishning yana bir muhim yo‘nalishi raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Zamonaviy axborot tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, shubhali operatsiyalarni aniqlash va audit monitoringini avtomatlashtirish imkonini beradi [8]. Shu sababli korxonalarda ichki auditni raqamlashtirish uning tezkorligi va natijadorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Umuman olganda, o‘rganilgan ilmiy manbalar ichki auditni takomillashtirishning metodologik, tashkiliy, nazorat, tahliliy va raqamli yo‘nalishlarini qamrab oladi. Biroq korxonalarda ichki auditni tashkil etishning **riskka asoslangan yondashuv, raqamli tahlil, ichki nazorat samaradorligi va audit natijalarining boshqaruv qarorlariga integratsiyasi** asosida yagona mexanizmini shakllantirish masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi [9]. Shu

jihatdan mazkur tadqiqot korxonalarda ichki auditni tashkil etishning mavjud holatini baholash va uni takomillashtirishning amaliy yo‘nalishlarini ishlab chiqishga qaratiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Mazkur tadqiqotlar ichki auditning samarali tashkil etilishi moliyaviy nazorat, budjet intizomi va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlarda ichki auditni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ham korxonalar uchun muhim ilmiy-uslubiy ahamiyatga ega. Jumladan, M.P. Oromiddinovning tijorat banklarida ichki auditni takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotida riskka asoslangan yondashuvni joriy etish, biznes-jarayonlar auditi, komplaens audit va ichki audit faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuvlarni korxonalar faoliyatiga moslashtirish ichki audit ob’ektlarini risk darajasiga qarab belgilash va audit resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, mahalliy ilmiy adabiyotlarda ichki auditning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, audit jarayonini rejalashtirish, tekshiruv ob’ektlarini tanlash, tahliliy protseduralardan foydalanish va audit sifatini baholash masalalariga e’tibor qaratilayotgani kuzatiladi. Bu esa korxonalarda ichki auditni tashkil etishda riskka asoslangan yondashuv, tahliliy usullar, raqamli texnologiyalar va doimiy monitoring mexanizmlaridan kompleks foydalanish zaruratini ko‘rsatadi.

Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirishning tashkiliy, uslubiy va axborot-tahliliy jihatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda tadqiq etish masalasi hali yetarlicha kompleks o‘rganilmagan. Xususan, ichki audit xizmatining korxona tashkiliy tuzilmasidagi o‘rni, audit ob’ektlarini risk darajasiga asosan tanlash, ichki audit rejasini shakllantirish, buxgalteriya va boshqaruv ma’lumotlaridan audit jarayonida samarali foydalanish, ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash hamda audit natijalarini boshqaruv qarorlari bilan integratsiyalash masalalari qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda korxonalarda ichki auditni tashkil etishning mavjud holatini o‘rganish, ichki audit tizimining tashkiliy va uslubiy jihatlarini baholash, audit jarayonida riskka asoslangan va tahliliy yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hamda ichki audit samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa sifatida belgilanadi.

Tahlil va natijalar

Korxonalarda ichki auditni samarali tashkil etish va takomillashtirish korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan ichki nazoratni kuchaytirish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash, mavjud xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash hamda moliyaviy va operatsion xavflarni kamaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ichki audit faoliyatini samarali tashkil etish uchun audit jarayonini rejalashtirish, risklarni baholash, audit ob’ektlarini aniqlash, ichki nazorat holatini o‘rganish, audit protseduralarini amalga oshirish va natijalar bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Korxonalarda ichki audit axborotlaridan foydalanish.

Korxonalarda ichki audit natijasida shakllantiriladigan axborotlar rahbariyat uchun moliyaviy holat, buxgalteriya hisobi, aktivlar va majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar, pul mablag‘lari harakati, soliq hisob-kitoblari, ichki nazorat tizimi va korxona faoliyatidagi mavjud xavflar to‘g‘risida muhim ma’lumot manbai hisoblanadi.

Ichki audit axborotlarining buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan asosiy farqi shundaki, ichki audit ma’lumotlari mavjud operatsiyalarni qayd etish bilan cheklanmaydi. Audit jarayonida olingan ma’lumotlar xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi, ichki nazorat mexanizmlarining samaradorligi, aniqlangan og‘ishlar va ularning sabablari, mavjud xavflar hamda ularni kamaytirish choralarini baholash imkonini beradi.

Shu sababli ichki audit natijalaridan foydalanish korxona rahbariyatiga nafaqat mavjud muammolarni aniqlash, balki ularning kelgusida takrorlanishining oldini olish, ichki nazoratni kuchaytirish va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi.

Korxonalarda moliyaviy ko‘rsatkichlarni ichki audit asosida tahlil qilish.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini baholashda ichki audit muhim axborot-tahliliy vosita hisoblanadi. Ichki audit jarayonida daromadlar, xarajatlar, foyda, aktivlar, majburiyatlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda pul oqimlari bilan bog‘liq operatsiyalarning to‘g‘riligi va ishonchliligi tekshiriladi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- daromadlar va xarajatlar dinamikasi;
- foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari;
- aktivlardan foydalanish samaradorligi;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarining holati;
- pul mablag‘lari harakati;
- xarajatlarning reja va haqiqatdagi ko‘rsatkichlari;
- moliyaviy natijalardagi muhim og‘ishlar;
- moliyaviy hisobot ma’lumotlarining buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga muvofiqligi.

Mazkur ko‘rsatkichlarni ichki audit nuqtai nazaridan tahlil qilish korxonada moliyaviy intizomning holatini baholash, xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularning korxona moliyaviy natijalariga ta’sirini baholash imkonini beradi.

Daromadlar va tushumlar ustidan ichki audit. Korxonalarda ichki auditning muhim yo‘nalishlaridan biri daromadlarning to‘g‘ri shakllanishi va buxgalteriya hisobida o‘z vaqtida aks ettirilishini tekshirish hisoblanadi. Bunda mahsulot sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar, boshqa operatsion daromadlar hamda boshqa tushumlarning hujjatlar bilan asoslanganligi va hisobda to‘g‘ri aks ettirilishi baholanadi.

Ichki audit jarayonida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- daromadlarning birlamchi hujjatlar bilan tasdiqlanganligi;
- mahsulot, tovar va xizmatlarni realizatsiya qilish operatsiyalarining qonuniyligi;
- daromadlarni tan olishning to‘g‘riligi;
- tushumlarning bank hisobvaraqlariga kelib tushishi;
- debitorlik qarzlarining shakllanishi;
- daromadlarning buxgalteriya hisobida o‘z vaqtida aks ettirilishi;
- daromadlar bo‘yicha reja va haqiqat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi og‘ishlar.

Bunday audit natijasida daromadlarni yashirish, noto‘g‘ri aks ettirish, hujjatlashtirishdagi kamchiliklar va boshqa moliyaviy xavflarni aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Xarajatlar ustidan ichki audit. Korxona faoliyati samaradorligi ko‘p jihatdan xarajatlarning oqilona tashkil etilishi va nazorat qilinishiga bog‘liq. Shu sababli ichki auditda xarajatlarning iqtisodiy jihatdan asoslanganligi, hujjatlashtirilganligi, belgilangan me’yor va budjetlarga muvofiqligi hamda buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilganligi tekshiriladi.

Xarajatlar auditida quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olish maqsadga muvofiq:

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar;
- xom-ashyo va materiallar xarajatlari;
- asosiy vositalarni saqlash va ta’mirlash xarajatlari;
- transport va xizmat ko‘rsatish xarajatlari;
- ma’muriy xarajatlar;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar;
- rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlar o‘rtasidagi og‘ishlar.

Ichki audit natijasida xarajatlarning asossiz oshishi, samarasiz sarf-xarajatlar, belgilangan

budjetdan chetga chiqish holatlari va ichki nazoratdagi zaif nuqtalar aniqlanishi mumkin. Bu esa rahbariyatga xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Aktivlar saqlanishi va ulardan foydalanish ustidan ichki audit. Korxona aktivlarining saqlanishi va ulardan samarali foydalanilishi ichki auditning muhim ob’ektlaridan biri hisoblanadi. Asosiy vositalar, tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag‘lari va boshqa aktivlar bo‘yicha audit o‘tkazishda ularning mavjudligi, saqlanish holati, harakati va buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishi baholanadi.

Bunda quyidagi nazorat tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- aktivlarning haqiqiy mavjudligini tekshirish;
- inventarizatsiya natijalarini baholash;
- asosiy vositalar harakatining hujjatlashtirilishini tekshirish;
- tovar-moddiy zaxiralarning saqlanishini baholash;
- aktivlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;
- aktivlar bo‘yicha kamomad va ortiqchaliklarni aniqlash;
- aktivlarning buxgalteriya hisobida to‘g‘ri baholanishi va aks ettirilishini tekshirish.

Mazkur yo‘nalishdagi ichki audit aktivlarning but saqlanishini ta’minlash, ulardan samarasiz foydalanish holatlarini kamaytirish va korxona resurslarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari ustidan ichki audit. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining asossiz o‘sishi korxonaning likvidligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ichki audit jarayonida qarzdorlikning hajmi, tarkibi, paydo bo‘lish muddati va undirilish imkoniyati tahlil qilinishi lozim.

Ichki audit asosida:

- muddati o‘tgan debitorlik qarzlari aniqlanadi;
- qarzdorlikning paydo bo‘lish sabablari o‘rganiladi;
- kontragentlar bilan hisob-kitoblar holati tekshiriladi;
- kreditorlik majburiyatlarining o‘z vaqtida bajarilishi baholanadi;
- qarzdorlikning moliyaviy holatga ta’siri tahlil qilinadi;
- qarzdorlikni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shu tariqa, ichki audit qarzdorlikni oddiy nazorat qilish vositasi emas, balki korxonaning likvidligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlashga xizmat qiluvchi boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ichki auditni riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etish. Zamonaviy sharoitda ichki auditni tashkil etishda riskka asoslangan yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda audit resurslari korxona faoliyatida eng yuqori xavf mavjud bo‘lgan jarayon va operatsiyalarga yo‘naltiriladi.

Risklarni baholashda quyidagi omillar hisobga olinishi mumkin:

- moliyaviy xavflar;
- operatsion xavflar;
- soliq xavflari;
- axborot xavfsizligi bilan bog‘liq xavflar;
- aktivlarning saqlanishi bilan bog‘liq xavflar;
- korrupsiya va firibgarlik xavflari;
- ichki nazoratdagi kamchiliklar;
- buxgalteriya va moliyaviy hisobotda xatolar yuzaga kelish ehtimoli.

Riskka asoslangan yondashuv ichki auditning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, cheklangan audit resurslaridan samarali foydalanish va korxona uchun eng muhim xavflarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Budjet ijrosi va reja-haqiqat tahlili. Korxonalarda ichki audit budjetlar ijrosini baholashda ham muhim ahamiyatga ega. Bunda rejalashtirilgan daromad va xarajatlar haqiqiy natijalar bilan taqqoslanib, ular o‘rtasidagi og‘ishlar aniqlanadi.

Masalan, daromadlarning rejadan past bo‘lishi sotuv hajmining kamayishi, mahsulotga bo‘lgan talabning o‘zgarishi yoki debitorlik qarzlarining ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xarajatlarning rejadan ortiqcha bajarilishi esa resurslar narxining oshishi, mehnat xarajatlarining ko‘payishi yoki rejalashtirilmagan xarajatlarning yuzaga kelishi natijasida sodir bo‘lishi mumkin.

Ichki auditning vazifasi bunday og‘ishlarni faqat aniqlash emas, balki ularning sabablarini o‘rganish va korxona rahbariyatiga ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Ichki audit natijalaridan strategik va operativ qarorlarda foydalanish. Ichki audit natijalari korxona rahbariyatining strategik va operativ qarorlarini axborot bilan ta’minlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Audit jarayonida aniqlangan kamchiliklar, xavflar va ichki nazoratdagi zaif nuqtalar korxonaning kelgusi faoliyatini rejalashtirishda inobatga olinishi lozim.

Xususan, ichki audit natijalari asosida quyidagi strategik qarorlarni qabul qilish mumkin:

- korxona ichki nazorat tizimini qayta ko‘rib chiqish;
- xarajatlarni optimallashtirish;
- moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash;
- investitsiya loyihalarining xavflarini baholash;
- biznes-jarayonlarni takomillashtirish;
- aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish.

Operativ boshqaruvda esa ichki audit natijalari aniqlangan kamchiliklarni tezkor bartaraf etish, asossiz xarajatlarni to‘xtatish, qarzdorlikni kamaytirish, hujjat aylanishini yaxshilash va ichki nazorat protseduralarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ichki audit va ichki nazorat tizimining o‘zaro bog‘liqligi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ichki auditning samaradorligi korxonada shakllangan ichki nazorat tizimining holati bilan bevosita bog‘liq. Ichki nazorat xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligi, aktivlarning saqlanishi, hisobotlarning ishonchliligi va belgilangan tartiblarga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, ichki audit ushbu nazorat mexanizmlarining qanchalik samarali ishlayotganini mustaqil baholaydi.

Shu nuqtai nazardan korxonada quyidagi o‘zaro bog‘liq tizimni shakllantirish maqsadga muvofiq:

risklarni aniqlash → ichki nazorat → ichki audit → kamchiliklarni aniqlash → tavsiyalar ishlab chiqish → tuzatish choralari → qayta monitoring.

Mazkur yondashuv ichki auditni bir martalik tekshiruv emas, balki korxona faoliyatini doimiy takomillashtirishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmiga aylantirish imkonini beradi.

Ichki auditni raqamlashtirish va takomillashtirish natijalari. Korxonalar faoliyatining raqamlashuvi natijasida buxgalteriya va boshqaruv axborotlarining hajmi ortib, ularni tezkor tahlil qilish, nazorat qilish va baholash ichki audit tizimi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababli ichki audit jarayonlarida axborot texnologiyalari, elektron hujjat aylanishi va ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida audit jarayonida katta hajmdagi operatsiyalarni tahlil qilish, g‘ayrioddiy operatsiyalarni aniqlash, xato va og‘ishlarni avtomatik ravishda belgilash, xavf darajasi yuqori bo‘lgan operatsiyalarni ajratib ko‘rsatish va audit natijalarini tezkor shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Umuman olganda, korxonalarda ichki auditni takomillashtirishning asosiy natijasi audit faoliyatini faqat nazorat funksiyasini bajaruvchi mexanizmdan korxona qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv instrumentiga aylantirishdan iborat.

Tahlillar asosida korxonalarda ichki auditni samarali tashkil etish uchun quyidagi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni shakllantirish maqsadga muvofiq:

risklarni baholash → audit rejasini shakllantirish → audit ob’ektlarini tanlash → ichki nazoratni baholash → audit protseduralarini o‘tkazish → aniqlangan kamchiliklarni tahlil

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

qilish → tavsiyalar ishlab chiqish → tavsiyalar ijrosini monitoring qilish.

Mazkur tizimni amaliyotga joriy etish korxonalarda ichki nazorat samaradorligini oshirish, moliyaviy va operatsion xavflarni kamaytirish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish imkonini beradi.

Xulosa

Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan:ichki audit korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim axborot-tahliliy bazasi hisoblanadi. Ichki audit natijasida shakllantiriladigan ma’lumotlar korxonaning moliyaviy holati, aktivlari, majburiyatlari, daromad va xarajatlari, buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobot ma’lumotlarining ishonchliligini baholash imkonini beradi. Shuningdek, ichki audit korxonadagi mavjud xato va kamchiliklarni aniqlash, ularning sabablarini o‘rganish va bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan:ichki auditni riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etish korxona faoliyatidagi muhim xavflarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni kamaytirish imkonini beradi. Bunda moliyaviy, operatsion, soliq, axborot xavfsizligi, aktivlarning saqlanishi va firibgarlik bilan bog‘liq risklarni baholash orqali auditning ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi. Mazkur yondashuv cheklangan audit resurslaridan samarali foydalanish va xavf darajasi yuqori bo‘lgan jarayonlarga asosiy e’tiborni qaratish imkonini yaratadi.

Uchinchidan:ichki auditning samaradorligi korxonada shakllangan ichki nazorat tizimining holati va uning ishlash samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli ichki audit jarayonida ichki nazorat muhiti, nazorat protseduralari, vakolatlarni taqsimlash, hujjatlar aylanishi, aktivlarni himoya qilish va xo‘jalik operatsiyalarini tasdiqlash mexanizmlarini baholash muhim hisoblanadi. Ichki nazoratda aniqlangan zaif nuqtalar bo‘yicha aniq va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilishi korxonada nazorat tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan:ichki audit korxonaning daromad va xarajatlari ustidan samarali nazoratni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Daromadlarning to‘g‘ri shakllanishi, xarajatlarning iqtisodiy jihatdan asoslanganligi, ularning tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanganligi va buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishi ichki auditning asosiy ob’ektlaridan hisoblanadi. Shuningdek, rejalashtirilgan va haqiqiy moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi og‘ishlarni tahlil qilish orqali asossiz xarajatlar va moliyaviy yo‘qotishlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Beshinchidan:ichki audit aktivlar va resurslardan samarali foydalanishni nazorat qilishda muhim vosita hisoblanadi. Asosiy vositalar, tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag‘lari va boshqa aktivlarning mavjudligi, saqlanishi, harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini tekshirish orqali kamomad, ortiqchalik, samarasiz foydalanish va boshqa kamchiliklarni aniqlash mumkin. Bu esa korxona aktivlarini himoya qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Oltinchidan:ichki audit natijalari debitorlik va kreditorlik qarzlarini samarali boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qarzdorlikning hajmi, tarkibi, paydo bo‘lish muddati va o‘zgarish dinamikasini tahlil qilish orqali muddati o‘tgan debitorlik qarzlarini aniqlash, ularni undirish imkoniyatlarini baholash va korxonaning to‘lov qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillarni belgilash mumkin. Shuningdek, kreditorlik majburiyatlarining o‘z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Yettinchidan:ichki audit natijalaridan strategik va operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish korxona boshqaruvining sifatini oshiradi. Ichki audit tomonidan aniqlangan kamchiliklar, xavflar va samarasiz jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida xarajatlarni optimallashtirish, biznes-jarayonlarni takomillashtirish, investitsiya qarorlarini baholash, resurslarni qayta taqsimlash va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish bo‘yicha asoslangan qarorlar qabul qilinishi mumkin.

Sakkizinchidan:ichki auditni raqamlashtirish uning samaradorligi va tezkorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining raqamlashuvi natijasida buxgalteriya va boshqaruv axborotlarining hajmi ortib borayotganligi sababli audit jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalari, elektron hujjat aylanishi, ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish va risklarni monitoring qilish vositalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish katta hajmdagi operatsiyalarni tezkor tahlil qilish, g‘ayrioddiy operatsiyalarni aniqlash va audit resurslarini xavf darajasi yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltirish imkonini beradi.

To‘qqizinchidan:ichki audit faoliyati samaradorligini oshirish uchun audit natijalarini monitoring qilish va berilgan tavsiyalar ijrosini nazorat qilish tizimini shakllantirish zarur. Ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha berilgan tavsiyalarning bajarilishi, mas’ul shaxslar tomonidan ko‘rilgan choralar va ularning natijadorligi muntazam baholanishi lozim. Bu yondashuv ichki auditni bir martalik tekshiruvdan korxona faoliyatini uzluksiz takomillashtirish mexanizmiga aylantirish imkonini beradi.

Shuningdek, ichki auditning moliyaviy nazorat bilan bir qatorda operatsion jarayonlar, biznes-jarayonlar, axborot xavfsizligi, korporativ boshqaruv va risklarni boshqarish tizimlari bilan integratsiyalashuvi korxona faoliyatini kompleks baholash imkonini beradi. Bunday yondashuv faqat moliyaviy xato va kamchiliklarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, korxona faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi nomoliyaviy omillarni ham baholash imkonini yaratadi.

Umuman olganda, korxonalarda ichki auditni samarali tashkil etish va takomillashtirish rahbariyatni ishonchli va tahliliy axborot bilan ta’minlash, ichki nazorat tizimini kuchaytirish, moliyaviy va operatsion xavflarni kamaytirish, aktivlarni himoya qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli korxonalarda ichki auditning tashkiliy va uslubiy asoslarini takomillashtirish, riskka asoslangan audit yondashuvini joriy etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va audit natijalarini boshqaruv jarayonlariga integratsiyalash korxona faoliyati samaradorligi va barqarorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedjanov K.B. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2016. – 76 b.

2. Ilxamov Sh.I. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2018.

3. Abdieva N.Sh. Ichki audit ish sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish // Moliya va bank ishi. – 2022. – №2. – B. 43–47.

4. Toshpulatov F.B. Ichki audit jarayonida tahlil usullaridan foydalanish zarurligi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023.

5. Xusainov X.B. Budjet tashkilotlarida ichki auditni takomillashtirish: 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Dissertatsiya mavzusi OAK ma’lumotlarida B2024.4.PhD/Iqt1908 raqami bilan qayd etilgan.

6. Nasimov F.S. «Budjet tashkilotlarida ichki auditni takomillashtirish» mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – 08.00.08 «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit» va 08.00.07 «Moliya, pul muomalasi va kredit» ixtisosliklari.

7. Arena M., Azzone G. Internal Audit Effectiveness: Relevant Drivers of Auditing Processes // Managerial Auditing Journal. – 2009. – Vol. 24, No. 5. – P. 43–55.

8. Cohen A., Sayag G. The Effectiveness of Internal Auditing: An Empirical Examination

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

of its Determinants in Israeli Organisations // Australian Accounting Review. – 2010. – Vol. 20, No. 3. – P. 296–307.

9. Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. – The Institute of Internal Auditors, 2024.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

PAXTA YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASH KLASTERLARIDA RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA IQTISODIY YO‘QOTISHLARNI KAMAYTIRISH

Mirzanov Zakir Maratovich

Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchi
e-mail: zmirzanov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida yer, suv, mehnat, moddiy-texnik hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish masalalari tadqiq etilgan. Klaster tizimida resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy va texnologik omillar tizimlashtirilgan. Paxta yetishtirishdan tortib uni qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan bosqichlarda resurslarning ortiqcha sarflanishi, hosildorlikning pasayishi, xomashyo yo‘qotishlari va qo‘shimcha xarajatlarning shakllanish sabablari tahlil qilingan. Shuningdek, resurslardan foydalanishni raqamlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish va qo‘shilgan qiymat zanjirini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari asoslangan. Tadqiqot natijalari paxta klasterlarida resurslardan kompleks va tejamkor foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish hamda iqtisodiy yo‘qotishlarni minimallashtirish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *paxta yetishtirish, paxta klasteri, qayta ishlash, resurslardan foydalanish samaradorligi, suv resurslari, mehnat resurslari, moddiy resurslar, iqtisodiy yo‘qotishlar, tannarx, qo‘shilgan qiymat zanjiri, resurs tejamkorligi, agrotexnologiyalar.*

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ И СНИЖЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОТЕРЬ В ХЛОПКОВЫХ КОМПЛЕКСАХ

Мирзанов Закир Маратович

Независимый исследователь,
Государственный университет имени
Бердака Каракалпака
Электронная почта: zmirzanov@gmail.com

Аннотация: *В статье исследованы вопросы повышения эффективности использования земельных, водных, трудовых, материально-технических и финансовых ресурсов в хлопководческих и перерабатывающих кластерах, а также сокращения экономических потерь, возникающих на различных этапах производственного процесса. Систематизированы организационно-экономические и технологические факторы, определяющие эффективность использования ресурсов в кластерной системе. Проанализированы основные причины перерасхода ресурсов, снижения урожайности, потерь хлопкового сырья и формирования дополнительных затрат на этапах выращивания, переработки, хранения и последующего формирования готовой продукции. Обоснованы направления повышения экономической эффективности за счет цифровизации процессов управления ресурсами, совершенствования координации между участниками кластера, внедрения ресурсосберегающих агротехнологий и оптимизации цепочки создания добавленной стоимости. Полученные результаты позволяют сформировать практические рекомендации по комплексному и рациональному использованию ресурсов, снижению себестоимости продукции и минимизации экономических потерь в хлопководческих кластерах.*

Ключевые слова: *выращивание хлопка, хлопководческий кластер, переработка хлопка, эффективность использования ресурсов, водные ресурсы, трудовые ресурсы, материальные ресурсы, экономические потери, себестоимость, цепочка добавленной стоимости, ресурсосбережение, агротехнологии.*

INCREASING THE EFFICIENCY OF RESOURCE USE AND REDUCING ECONOMIC LOSSES IN COTTON GROWING AND PROCESSING CLUSTERS

Mirzanov Zakir Maratovich

Independent researcher,
Berdak Karakalpak
State University
E-mail: zmirzanov@gmail.com

Abstract: *This article examines the improvement of resource utilization efficiency and the reduction of economic losses in cotton production and processing clusters. Particular attention is paid to the efficient use of land, water, labor, material and technical, and financial resources throughout the cotton value chain. The organizational, economic, and technological factors affecting resource efficiency within the cluster system are systematized. The study analyzes the main causes of excessive resource consumption, declining productivity, raw cotton losses, and additional costs arising at the stages of cotton cultivation, processing, storage, and transformation into finished products. The paper substantiates key directions for improving economic efficiency through the digitalization of resource management, better coordination among cluster participants, the introduction of resource-saving agricultural technologies, and optimization of the value-added chain. The findings provide a basis for developing practical recommendations aimed at ensuring integrated and rational resource utilization, reducing production costs, and minimizing economic losses in cotton production and processing clusters.*

Keywords: *cotton production, cotton cluster, cotton processing, resource utilization efficiency, water resources, labor resources, material resources, economic losses, production cost, value-added chain, resource conservation, agricultural technologies.*

Kirish

Paxta yetishtirish va uni qayta ishlash O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi hamda to‘qimachilik sanoatining o‘zaro bog‘langan muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohada klaster tizimining rivojlanishi ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash va mahsulot realizatsiyasi jarayonlarini yagona iqtisodiy zanjirga birlashtirish imkonini bermoqda. Biroq klaster samaradorligi faqat ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan emas, balki mavjud yer, suv, mehnat, moddiy-texnik va moliyaviy resurslardan qay darajada samarali foydalanilayotganligi bilan ham belgilanadi.

Paxta yetishtirish jarayonida suv va agrotexnik resurslarning me’yoridan ortiq sarflanishi, hosildorlikning pastligi, texnika va yoqilg‘idan samarasiz foydalanish, qayta ishlash bosqichida esa xomashyo, energiya va vaqt yo‘qotishlari mahsulot tannarxining oshishiga hamda klasterning yakuniy moliyaviy natijalarining pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, yetishtirish va qayta ishlash bosqichlari o‘rtasidagi iqtisodiy va texnologik nomutanosiblik resurslarning takroriy yoki samarasiz sarflanishini kuchaytirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, paxta klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini alohida ishlab chiqarish bosqichlari kesimida emas, balki butun qiymat yaratish zanjiri bo‘yicha baholash muhimdir. Bunda resurs sarfi, mahsuldorlik, tannarx, xomashyo yo‘qotishlari va yaratilgan qo‘shilgan qiymat o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash iqtisodiy samaradorlikning real holatini baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, iqtisodiy yo‘qotishlarning

asosiy manbalarini baholash hamda ularni kamaytirishning tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan samarali foydalanish masalasi so‘nggi yillarda nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi, balki butun qiymat zanjirining barqarorligi nuqtayi nazaridan ham tadqiq etilmoqda. Jumladan, paxta ishlab chiqarishida suv va azot resurslaridan foydalanish samaradorligini o‘rgangan tadqiqotlarda ushbu resurslar o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjudligi hamda ularni optimallashtirish orqali hosildorlik va resurs qaytimini yaxshilash imkoniyati asoslangan [1].

Paxtachilikning ekologik va iqtisodiy samaradorligini kompleks baholashga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlarda esa resurs sarfi butun hayotiy sikl doirasida ko‘rib chiqilmoqda. Xususan, 2025-yildagi tizimli tadqiqot paxta yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida suv, energiya, o‘g‘it va boshqa resurslardan foydalanish sezilarli ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatib, sug‘orishni takomillashtirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta ishlashni kengaytirishni asosiy yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatadi [2].

Paxta qiymat zanjirining iqtisodiy samaradorligi masalasida Kudratova paxta-to‘qimachilik klasterida qiymat yaratish omillarini transport, investitsiya, infratuzilma va xomashyo omillari bilan bog‘laydi. Muallif klaster samaradorligini faqat paxta yetishtirish hajmi bilan emas, balki qiymat yaratish jarayonining barcha bo‘g‘inlarini muvofiqlashtirish orqali baholash zarurligini ta’kidlaydi [3].

O‘zbekiston paxta klasterlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda klasterlash jarayonining institutsional xususiyatlari ham alohida ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan. Jumladan, O‘zbekiston paxta klasterlari faoliyatini o‘rgangan tadqiqotda klaster tizimiga o‘tish ishlab chiqarishni tashkil etish va resurslar bilan ta’minlash mexanizmlarini o‘zgartirgani, biroq fermerlarning resurs va bozor imkoniyatlarida ayrim cheklovlar saqlanib qolayotgani qayd etilgan [4].

Ochilov tomonidan ishlab chiqilgan klasterlarning iqtisodiy samaradorligini amaliy baholash metodologiyasida resurslarni tejash, mehnatdan samarali foydalanish, korxonalar faoliyati samaradorligi va boshqa ko‘rsatkichlarni kompleks baholashga e’tibor qaratilgan. Ushbu yondashuv klaster samaradorligini alohida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlaridan ko‘ra kengroq tizim asosida o‘rganish imkonini beradi [5].

So‘nggi tadqiqotlarda paxta-to‘qimachilik klasterlarida xomashyo ta’minoti va moddiy xarajatlar ham samaradorlikning muhim omili sifatida qaralmoqda. Zakirov paxta-to‘qimachilik klasterlarida xomashyo ta’minoti, mehnat unumdorligi, logistika, moddiy xarajatlar va qo‘shilgan qiymat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, ta’minot jarayonlarini optimallashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini berishini asoslaydi [6].

Paxta ishlab chiqarishining suv resurslariga ta’siri bo‘yicha yangi tadqiqotlar ham mazkur muammoning dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Global miqyosdagi tahlillarda paxtaning barqaror bo‘lmagan ko‘k suv izi 1972–2018-yillarda sezilarli oshgani aniqlangan. Bu holat paxta yetishtirishda sug‘orish samaradorligini oshirish va suv resurslarini hududiy jihatdan maqbullashtirish zarurligini ko‘rsatadi [7].

Qayta ishlash bosqichida yuzaga keladigan yo‘qotishlarni kamaytirish masalasida aylanma iqtisodiyot yondashuvi tobora muhimlashmoqda. Grover va hammualliflar paxta va paxta aralashmasidagi chiqindilarni mexanik, kimyoviy va biologik usullar orqali qayta foydalanishga jalb etish imkoniyatlarini tahlil qilib, chiqindilarni ikkilamchi resurs sifatida iqtisodiy qiymatga aylantirish imkoniyatlarini asoslaydi [8].

Shuningdek, paxta ishlab chiqarishining uglerod izi bo‘yicha 2025-yilda amalga oshirilgan tadqiqotda azotli o‘g‘itlardan foydalanish paxta ishlab chiqarishining uglerod izida asosiy omillardan biri ekanligi aniqlangan. Mualliflar azot sarfini optimallashtirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali resurs sarfi va ekologik yuklamani kamaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash uchun iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, guruhlash va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Resurslar — yer, suv, mehnat, yoqilg‘i-energetika va moliyaviy mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, ishlab chiqarish tannarxi, hosildorlik, qayta ishlash darajasi hamda iqtisodiy yo‘qotishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi. Klasterlarning ishlab chiqarish va qayta ishlash bosqichlarida resurslar sarfi bilan yakuniy iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi nisbatlar aniqlanib, mavjud yo‘qotishlarning asosiy manbalari tizimli ravishda baholandi. Bunda ishlab chiqarish jarayonlaridagi texnologik, tashkiliy va moliyaviy omillarning resurslar samaradorligiga ta’siri o‘rganilib, iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida amaliy ma’lumotlar asosida hisob-kitoblar amalga oshirilib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish bilan bevosita bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, klaster faoliyatida yer, suv, mehnat, moddiy-texnik hamda moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi yakuniy iqtisodiy natijalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, suv va energiya resurslarining ortiqcha sarflanishi, texnologik jarayonlarning to‘liq muvofiqlashtirilmaganligi hamda xomashyoni qayta ishlash bosqichidagi yo‘qotishlar umumiy iqtisodiy samaradorlikni pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish jarayoni bir nechta o‘zaro bog‘liq bosqichlardan iborat: **resurslardan oqilona foydalanish → ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish → mahsulot tannarxini pasaytirish → texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish → ishlab chiqarish rentabelligini oshirish**. Mazkur bog‘liqlik klasterlarda ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarini yagona iqtisodiy mexanizm asosida boshqarish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, paxta yetishtirish bosqichida zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash, suvni tejovchi sug‘orish tizimlarini kengaytirish, mineral o‘g‘itlar va yoqilg‘i sarfini me’yorlashtirish orqali resurs qaytimini oshirish mumkin. Qayta ishlash bosqichida esa xomashyoni tashish, saqlash va dastlabki qayta ishlash jarayonlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Bunda raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish resurs sarfini tezkor nazorat qilish, ortiqcha xarajatlarni aniqlash va ishlab chiqarish jarayonidagi samarasiz operatsiyalarni bartaraf etish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari paxta klasterlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish faqat ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish hisobiga emas, balki mavjud resurslardan foydalanish sifatini yaxshilash, yo‘qotishlarni minimallashtirish va ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini o‘zaro integratsiyalash orqali ta’minlanishini ko‘rsatadi. Shu sababli resurs sarfi va iqtisodiy natijalarni muntazam monitoring qilish, samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash hamda aniqlangan yo‘qotishlar bo‘yicha tezkor boshqaruv choralarini ishlab chiqish klasterlarning barqaror rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlari, mehnat unumdorligi, suv va energiya sarfi hamda texnologik yo‘qotishlar bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Resurslardan samarasiz foydalanish mahsulot tannarxining oshishiga va klasterlarning iqtisodiy natijalarining pasayishiga olib keladi. Shu sababli ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini o‘zaro integratsiyalash, resurslar sarfini muntazam monitoring qilish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish iqtisodiy

yo‘qotishlarni kamaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Takliflar:

1. Paxta yetishtirishda suv, mineral o‘g‘it, yoqilg‘i va mehnat resurslari sarfini raqamli monitoring qilish tizimini joriy etish.
2. Suv tejovchi sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.
3. Qayta ishlash korxonalarida energiya tejamkor uskunalarni bosqichma-bosqich joriy etish va texnologik yo‘qotishlarni muntazam tahlil qilish.
4. Klasterlarda resurslardan foydalanish samaradorligini baholovchi **yagona iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimini** shakllantirish.
5. Xomashyoni yetishtirishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona raqamli boshqaruv tizimiga integratsiya qilish.
6. Hosildorlik va resurs sarfi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish asosida optimal ishlab chiqarish me’yorlarini belgilash.
7. Qayta ishlash jarayonida chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta foydalanish orqali qo‘shimcha iqtisodiy samaraga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Water and nitrogen use efficiencies in cotton production: A meta-analysis. *Field Crops Research*, 2024, Vol. 309, 109322. DOI: 10.1016/j.fcr.2024.109322.
2. Environmental sustainability of cotton: a systematic literature review of life cycle assessments. *Journal of Agriculture and Food Research*, 2025, Vol. 22, 102069. DOI: 10.1016/j.jafr.2025.102069.
3. Kudratova I. Improving the Value Chain of Cotton Production. *Economics and Innovative Technologies*, 2024. DOI: 10.55439/EIT/vol12_iss2/a13.
4. Uzbekistan’s cotton clusters in the context of the industrial policy debate. *Journal of Agrarian Change*, 2023. DOI: 10.1080/15387216.2023.2267093.
5. Ochilov I.S. Methodology for Practical Analysis of Economic Efficiency Indicators of Clusters. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*.
6. Zakirov A.A. Economic Aspects of Improving the Efficiency of Raw Material Supplies in Cotton-Textile Complexes. *Eureka Journal of Business, Economics & Innovation Studies*, 2026.
7. Spatiotemporal dynamics of the water footprint and virtual water trade in global cotton production and trade. *Cleaner Production Letters*, 2024, Vol. 7, 100074.
8. Grover T., Wang L., Nayak R., Padhye R., Khandual A. Sustainable strategies for the valorization of cotton and cotton blended waste: pathways to circular economy. *Cellulose*, 2025, Vol. 32, pp. 4077–4100. DOI: 10.1007/s10570-025-06524-9.
9. Yu Z., Yang Y. Carbon footprint of global cotton production. *Resources, Environment and Sustainability*, 2025, Vol. 20, 100214.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

XXI АХБОРОТЛАР АСРИ – ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ МУРАККАБЛАШУВИ АСРИ

Тожибоева Дилором

иқтисодиёт фанлари доктори
иқтисодиёт назарияси кафедраси профессори
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
E-mail: dtojiboeva@mail.ru
ORCID: 0000-0002-5257-4706

Аннотация. *Жамият тараққий этган сари оптимал қарор қабул қилиш қийинлашиб, қилинган хатонинг залвари ортиб боради. Нима сабабдан? Мазкур мақолада унинг сабабларини таҳлил қилинган, хулоса чиқарилган, таклифлар берилган.*

Калит сўзлар: *қарор қабул қилиш, ахборот сероблиги, хатонинг залвари, ахборот асимметрияси, глобал занжирлар, танлов, вақт танқислиги.*

XXI ВЕК – ВЕК ИНФОРМАЦИИ: ВЕК УСЛОЖНЕНИЯ ПРОЦЕССА ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ

Таджибаева Дилором

доктор экономических наук
профессор кафедры
экономическая теория
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: dtojiboeva@mail.ru
ORCID: 0000-0002-5257-4706

Аннотация. *С развитием общества процесс принятия оптимальных решений существенно усложняется, а масштабы и последствия совершённых ошибок приобретают всё более критический характер. В данной статье исследуются ключевые факторы и причины данных изменений, формулируются системные выводы, а также предлагаются рекомендации по минимизации рисков в современных условиях.*

Ключевые слова*: принятие решений, избыток информации, цена ошибки, информационная асимметрия, глобальные цепочки, выбор, дефицит времени.*

XXI CENTURY – THE AGE OF INFORMATION: THE ERA OF COMPLICATIONS IN THE DECISION-MAKING PROCESS

Tajibaeva Dilorom

doctor of economic sciences
Professor of the Department
of Economic Theory
Tashkent State University of Economics
E-mail: dtojiboeva@mail.ru
ORCID: 0000-0002-5257-4706

Abstract. *As society evolves, the process of making optimal decisions becomes significantly more complex, while the scale and consequences of errors become increasingly critical. This article examines the key factors and driving forces behind these changes, formulates systemic conclusions, and provides practical recommendations for minimizing risks in contemporary conditions.*

Keywords: *decision-making, information overload, cost of error, information asymmetry, global chains, choice, time deficit.*

Кириш

Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тутган ўрнига бағишланган **аввалги мақоламизда** барча қарорлар афзал кўриш, индивид учун самарали танловни амалга ошириш асосида қабул қилиниши, улар орасида иқтисодий қарорлар қабул қилиш муҳим роль ўйнаши, қабул қилинган қарорларнинг натижасини кўз ўнгига келтира олиш учун унинг мазмун моҳиятини англаш зарурлиги, яъни иқтисодий фикрлаш тарзи (ИФТ) ни шакллантириш билан боғлиқ масалалар ҳамда бу ҳақда классик, неоклассик ва бихевиориал назарияларнинг умумий жиҳатлари ва фарқлари кўриб чиққан эдик.

“Иқтисодий фикрлаш тарзи – бу шунчаки назарий билим эмас, балки **инсоннинг кундалик ва профессионал ҳаётидаги “ҳар бир қадамига” воқеаларга, иқтисодий призма (манфаат, харажат, натижа) орқали қараш кўникмасидир**. Иқтисодий фикрлаш тарзи – бу танқидий, тизимли, креатив, ижодий ва мантиқий тафаккурнинг бир бутунлигини ифодалайди.” [1].

Эҳтиёжларимиз уни қондириш учун мотив яратади, *Мотив асосида эҳтиёжимизни қондириш йўлини танлаймиз. Унга таъсир этувчи турли омиллар асосида* имкониятимиз даражасида турли вариантларни солиштириб *биз учун афзалини танлаймиз,* мақсад қўямиз ва уни амалга ошириш учун қарор қабул қиламиз.

Иқтисодий қарорлар қабул қилиш учун турли вариантлардан афзалини танлаш ва таҳлил қилишни иқтисодий фанлар, энг аввало иқтисодиёт назарияси фани ўргатади ва фундаментал асос яратади. Жамият тараққий этгани сайин бир томондан, рационал қарор қабул қилиш мураккаблашиб, иккинчи томондан қилинган хатонинг залвари ортмоқда. Шунинг учун ҳам мазкур мақоламизда ана шу масалаларнинг сабабини ўрганишга диққат қаратдик.

Адабиётлар шарҳи

Қарор қабул қилиш жараёни кўплаб ўқув адабиётларининг хамда илмий ва амалий тадқиқотларнинг эътибор объекти ҳисобланади. Қарор қабул қилишнинг архитектураси, унинг тузилишини тавсифлашдаги ёндашувлар кўп жиҳатдан фарқ қилади. Уни процессуал ташкил этишнинг аниқ таърифининг йўқлиги у ҳақидаги тасаввурнинг яхлитлигини бузади.

Тадқиқотчи Добросоцкая О. В. турли муаллифлар томонидан таклиф этилаётган қарорнинг процессуал тузилишини аниқлаш вариантларини таҳлил қилиш асосида ушбу муаммога умумий ёндашувни шакллантиради. Қарор қабул қилиш жараёни қуйидаги босқичларнинг мажмуи эканлигини кўрсатади: [2].

• Муаммони аниқлаш ва мақсадни белгилаш.
• Муаммони ҳал қилиш усулини танлаш.
• Кўплаб муқобилларни яратиш.
• Бир ёки бир нечта муқобилларни танлаш.

Қарор қабул қилиш.

• Қарорни расмийлаштириш.
• Қарорни амалга ошириш (реализация қилинган қарор).
• Натижа ва оқибатларни баҳолаш (баҳолаб тасдиқланган қарор).

Унинг фикрича, афсуски, кўпчилик муаллифлар жараённи натижани олиш бўйича тугалланган деб ҳисоблайдилар ва оқибатда натижани (қабул қилинган қарор оқибатларини) баҳолаш босқичи энг кам ўрганилган бўлиб чиқди. Мазмунли баҳолаш фақат натижани маъқуллаш ёки аксинча эмас. Баҳолаш натижасида ҳақиқий натижанинг кўйилган мақсаддан четга чиқиши ёки қарорни амалга ошириш шартларининг ўзгариши аниқланган ҳолларда, қарорни тузатиш зарурати пайдо бўлади, бу эса мақсадга тўлиқ эришишни таъминлайди. Биз тадқиқотчининг бу фикрига қўшиламиз.

В. Д. Попова, Ю. Ю. Тимкиналарнинг фикрича, таваккалчилик ва ноаниқлик вазиятларида қарор қабул қилиш мураккаб жараён бўлиб, у рационал танлов, бехивориал иқтисодиёт ва экологик рационаллик назарияларининг диққат марказида туради. Замонавий хорижий тадқиқотлар қарор қабул қилишнинг асосий назарияларига таянган ҳолда, қарор қабул қилишда эҳтимоллик назарияси тамойилларини ҳисобга олиш ва қўллаш, индивидга хос бўлган когнитив янглиш фикрлаш ҳақидаги билимлар ҳамда маданият ва социумнинг ривожланиш хусусиятлари билан боғлиқ институционал муҳитни билиш зарур [3].

Қарор қабул қилиш корхонани бошқаришнинг асосий жараёни сифатида ўрганилган мақолада корхонада бошқарув қарорини ишлаб чиқиш ва қабул қилиш жараёни билан боғлиқ масалалар кўриб чиқилади. Ташкилотда қарор қабул қилишга таъсир этувчи асосий омиллар ва шахсий хусусиятлар таҳлил қилинган [4].

К. Бахриддинов ўз мақоласида “Agro finans lizing” AJ фаолияти мисолида 2019-2024 йилларда и moliyaviy ko‘rsatkichlari hamda 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinishi асосида акциядорлик жамиятлари томонидан қарор қабул қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари ўрганилган [5].

Д. Ғ. Худойназарова, Н. Фозилованинг тадқиқотлари эса бошқарув жараёнида қарорлар қабул қилишнинг моҳияти, уларни асослашда релевант ахборотлар, яъни бошқарув тизимида шаклланиб, муқобил вариантлар орасидан энг мақбулини танлаш, харажатлар, даромадлар, фойдани баҳолашда релевантлик мезонлари ва уларнинг вақт омилига боғлиқлиги, қарор қабул қилишда замонавий ёндашувлар таҳлил қилинган [6].

Умуман олганда қарор қабул қилишга қаратилган талқиқотлар халқаро миқёсда ниҳоятда кўп диққат қаратиладиган мавзу ҳисобланиб, менеджмент, иқтисодиёт, бизнес бўйича қарор қабул қилиш масалалари талқиқотига бағишланган қатор илмий, амалий журналлар чоп этилади. Улар орасида инглиз тилида нашр этиладиган журналлардан энг машҳурлари **Decision Sciences** — шу номдаги институтнинг асосий журнали бўлиб, бошқарув қарорларини тизимли таҳлил қилиш, таъминот занжири ва бизнес таҳлили нуқтаи назаридан кўриб чиқади. **Management Decision** – топ-менежментнинг амалий бизнес моделлари ва стратегик қарорларига эътибор қаратадиган энг қадимги журнал Emerald томонидан нашр этилади). **Decision Support Systems** - қарор қабул қилишни қўллаб-қувватлашнинг автоматлаштирилган ва компьютер тизимлари (ҚҚҚТ), бизнесда сунъий интеллект ва маълумотлар таҳлили ҳақидаги журнал; Theory and Decision — танловнинг расмий назарияларини (ўйинлар назарияси, нафлилик назарияси, субъектив эҳтимоллик) ўрганувчи фанлараро журнал ҳисоблнади.

Россия ва рус тилида чоп этиладиган журналлар орасида «Сунъий интеллект ва қарор қабул қилиш (Искусственный интеллект и принятие решений)» – Россия Фанлар академиясининг академик журнали (Россия Фанлар академияси Сунъий интеллект институти) математик моделлаштириш, қарорларни қўллаб-қувватлашнинг интеллектуал тизимлари ва эксперт технологиялари ҳақида мақолалар чоп этади. «Стратегик қарорлар ва риск-менежмент (**Стратегические решения и риск-менеджмент)**» журнали эса — иқтисодиёт ва йирик бизнесдаги ноаниқлик шароитида қарор қабул қилиш масалаларини кўриб чиқувчи халқаро тақриз қилинадиган журналдир. "Бизнес-информатика" **(НИУ ВШЭ** — (қарор қабул қилишни қўллаб-қувватлаш тизимлари), маълумотлар таҳлили ва бошқарув жараёнларини рақамлаштириш бўйича ишларни чоп этади. Шунингдек, бошқа иқтисодий йўналишдаги журналларда ҳам қарор қабул қилиш масалаларига бағишланган мақолалар тез-тез бериб борилади.

Ўзбекистонда фақат қарор қабул қилиш назариясига (Decision Making) бағишланган тор ихтисослашган журналлар мавжуд эмас. Бироқ, етакчи академик ҳамда иқтисодий йўналишдаги журналларда “қарор қабул қилиш" мавзусидаги мақолалар фаол чоп этилади. Лекин асосий муаммо бизнинг олимларимиз, ёш тадқиқотчиларимизнинг бу масалага қаратилган илмий изланишларининг ниҳоятда камлигидир.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотда назарий ва амалий методлар: илмий адабиётлар устида ишлаш, ва таҳлили, индукция ва дедукция усулларидан фойдаланилган**.** Шунингдек, талабалар ва магистрантларнинг танлов, олинган маълумотларни таҳлил қилиш алгоритмини тушуниш, қарор қабул қилишга қарашлари жараёнини кузатиш усулидан фойдаланилди: уни иқтисодий кўрсаткичларда акс эттириш, реал ва гипотетик тенденцияларнинг хусусиятларини аниқлаш, бажарилган топшириқлар натижалари асосида инсонлар, хусусан талабаларнинг ўз қарорларини қабул қилишлари ва умумлаштиришларини кузатиш методларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар

Ўтмишда, ҳатто яқин ўтмишда қарор қабул қилиш интуиция ва тажрибага асосланган ҳамда жамият тараққиёти даражасида иқтисодий фикрлаш тарзи билан чамбарчас боғлиқ.

Борган сари тўғри ва оптимал қарор қабул қилиш, мукаммал танлов қийинлашиб, мураккаблашиб бормоқда. Унинг сабаблари турли-туман бўлиб, уларнинг энг асосийлари куйидагилар:

Биринчидан, ахборотнинг ҳаддан ташқари сероблиги, Бугунги кунда қарор қабул қилиш ҳақиқатан ҳам кўпроқ ресурсларни талаб қилади, чунки атрофимиздаги муҳитнинг ўзи тубдан ўзгарган. Биз мисли кўрилмаган мураккаблик даврида яшаяпмиз, бу даврда анъанавий ақлий йўл-йўриқлар ва оддий ҳаётий қоидалар илгаригидек самарали ишламайди. Муаммо маълумотнинг йўқлигида эмас, балки унинг ҳаддан ташқари кўплигида.

Олинган ахборотлар ичидан кераклисини ажрата олиш, таҳлил қила билиш, тўғри-нотўғрилигини текшириш вақт, кўп куч – энергия талаб қилади.

Иккинчидан, танлов парадокси (Paradox of Choice). Имкониятлар ва вариантлар қанчалик кўп бўлса, инсон шунчалик иккиланиб қолади. "Бундан ҳам яхшироқ вариант бордир" деган хавотир энг оптимал қарорни танлашга халақит беради. Вариантларнинг кўплиги бой берилган фойда қўрқувини кучайтиради ва якуний қарорга шубҳа уйғотади.

Учинчидан, нотўғри танлов – **хатонинг залвари, яъни қадр-қиймати, нархи ва ўзгариш тезлиги ошади.** Замонавий дунё чуқур алоқалар, кўпинча чизиқли бўлмаган функционал боғланишлар, узоқ муддатли оқибатларга олиб келиши кучайди. Бир неча йил олдин барқарор ечим бўлиб туюлган нарса бугунги кунда технологик ўзгаришлар ёки макроиқтисодий “бўронлар – шоклар” туфайли бир неча ой ичида ўз аҳамиятини йўқотиши мумкин. Бу бизни кўпроқ сценарийларни ҳисоблашга мажбур қилади, бу эса инсон учун когнитив юкламани оширади.

Тўртинчидан, ҳаёт суръатининг тезлашиши ва вақт танқислиги ортди. Замонавий ҳаёт жуда тезкорликни талаб қилади. Муайян масала устида узоқ ўйлашга вақт камлиги сабабли, инсон кўпинча ҳиссиётларга берилиб ёки шошма-шошарлик билан қарор қабул қилади. Инсон мияси кун давомида минглаб майда қарорларни (нима кийиш, нима ейиш, қайси хабарга жавоб бериш) қабул қилади. Кун охирига бориб миянинг ирода кучи ва таҳлил қилиши сусаяди. **Натижада қарор қабул қилишдан чарчаш (Decision Fatigue)** юз беради, муҳим масалаларда тўғри қарор чиқариш қийинлашади. Шунинг учун қатор халқларнинг мақолларида “эрталабки фикр кечқурунгидан кўра донороқ эканлиги (русларда “Утро вечера мудренее”) қайд этилади.

Бешинчидан, глобал занжирларнинг (технологик, молиявий, логистик ва бошқалар) боғлиқлиги: Илгари иқтисодий ёки сиёсий субъектлар (давлат, компания, инсон) бир-биридан нисбатан мустақил ва ажралган (изоляцияда) ҳаёт кечирган. Бугун эса дунё худди ягона занжир - тизимига ўхшайди. Дунёнинг бир чеккасидаги воқеа (масалан, таъминот занжиридаги узилиш ёки сиёсий низо) бир зумда маҳаллий бизнес ва нарх-навога таъсир

қилади. Бозорлардаги трендлар жуда тез ўзгаради. Бугун фойдали бўлиб туюлган инвестиция эртага зарар келтириши мумкин.

1-концептуал жадвал

XX аср ўрталари ва XXI аср бошларида иқтисодий қарорлар қабул қилишнинг асосий фарқлари*

Мезонлар	Аввалги қарорлар	Замонавий қарорлар
Ахборот манбаси	Шахсий тажриба, интуиция, маҳаллий бозор хабарлари, анъаналар.	Глобал интернет, Big Data, сунъий интеллект, молиявий ҳисоботлар.
Ахборот миқдори	Чекланган ахборот, қатъий ижтимоий қоидалар ва анъаналар	Ахборот сероблиги ва "Манбалар жанги", танлов имкониятларининг кенглиги туфайли танлов парадокси (Paradox of Choice) юз бериши, кўпиклар (Bubbles) яралиши.
Асосий мақсад	Оилани боқиш, барқарорликни сақлаш, рискни минималлаштириш. Ижтимоий кафолат ва хавфсизлик	Фойдани максималлаштириш, капитални ўстириш, бозорни эгаллаш.
Иқтисодий тафаккур	Ҳимояланиш ва тежамкорлик (Консерватив ёндашув).	Олға интилиш ва инвестиция (Фаоллик билан ёндашув).
Вариантлар сони	Чекланган (яшаш жойига яқин бозор, харидорлар, сотувчилар).	Чексиз (глобал бозор, онлайн савдо, минглаб инвестиция воситалари).
Қарор тезлиги	Секин, мавсумий ёки йиллик режалар асосида.	Секундлар давомида (айниқса биржаларда ва криптобозорларда).
Риск ва ноаниқлик	Стабил ва олдиндан прогноз қилиш мумкин бўлган муҳит. Чизиқли иқтисодий моделлар иш берган.	Юқори даражадаги ноаниқлик, ўта тезкор маълумотлар, ўзгарувчанлик, Илмий прогнозлаштириш моделлари, эҳтимоллик назарияси ва стресс-тестлар, сценарийлар таҳлили.
Асосий омиллар ва ресурслар	Моддий активлар (ер, капитал, жисмоний меҳнат) ва ишлаб чиқариш қувватларига асосланган.	Интеллектуал капитал, инновациялар, ахборот технологиялари ва номоддий активлар марказий ўринда туради.
Ахборот асимметрияси	Оптимал қарор қабул қилишга "маълумот етишмаслиги"	Маълумотнинг ҳаддан зиёд кўплиги ва уни қайта ишлаш қобилияти
Қарор таъсири	Маҳаллий (локал) характерда бўлган	Глобал занжир таъсири тарзида намоён бўдали.
Қарор қабул қилиш	Муаммони бир киши, асосан рахбар ўз қарори билан ечган.	Турли соҳа экспертларидан иборат жамоа билан муҳокама қилиш орқали

*Муаллиф ишланмаси.

Глобаллашувнинг кучайиши натижасида нафақат мамлакат миқёсида хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида балки жахон миқёсида турли манфаатлар ва ноаниқлик, рақобат кучайди. Бугунги дунёда сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий жараёнлар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ. Бир соҳадаги қарор ёки хато бошқа соҳага кутилмаган таъсир кўрсатиши мумкин (Капалак эффекти[24]). Масалан, Сувайш каналининг тўсилиб қолиши

[24] Капалак эффекти. Бу эффектни **1961 йилда** америкалик математик ва метеоролог **Эдвард Лоренц** (Edward Lorenz) кашф қилган. Укомпьютерда об-ҳаво прогнозини моделлаштириш устида ишлаётганда вақтни тежаш учун у узун ўнлик каср рақамини (масалан, **0,506127**) яхлитлаб, қисқароқ шаклда (**0,506**) киритади.. Лоренц

(2021 йил): Шунчаки кучли шамол ва бошқарувдаги кичик хато туфайли нотўғри қабул қилинган қарор "Ever Given" номли улкан контейнер кемасини Сувайш каналида кўндаланг туриб, тиқилиш ҳосил қилишига олиб келди. Бу "кичик" ҳодиса дунё савдосининг 12% ини тўсиб қўйди. Натижада глобал иқтисодиёт соатига **400 миллион доллар**, кунига эса қарийб **10 миллиард доллар** зарар кўрди. Дунё бўйлаб ёнилғи, электроника ва озиқ-овқат нархлари занжирли реакция ҳосил қилиб кўтарилиб кетди [7].

Булардан ташқари ижтимоий босим ва кутишлар: бошқаларнинг фикри, ижтимоий тармоқлардаги "мукаммал ҳаёт" моделлари ва жамиятнинг муваффақият ҳақидаги стандартлари шахсий қарорларимизга таъсир ўтказиб, асл мақсадимиздан чалғитади.

Бу ерда савол туғилади: Ахбортнинг ҳаддан ташқари кўплиги, танлов имкониятларининг кенглиги туфайли ахборот асимметрияси йўқоладими?

- Йўқ. Тадқиқотчиларнинг, жумладан бизнинг ҳам фикримизга кўра ахборот асимметрияси якун топмайди. Аксинча **"маълумот етишмаслиги" давридан "маълумотнинг ҳаддан зиёд кўплиги ва уни қайта ишлаш қобилияти" даврига** ўтиб бормоқдамиз. Бир томоннинг бошқа томонга қараганда кўпроқ ёки сифатлироқ маълумотга эга бўлиши) рақамли технологиялар, блокчейн ва сунъий интеллект (AI) асрида янги босқичга кўтарилмоқда:

1.Технологияларнинг ривожланиши натижасида айрим анъанавий соҳаларда: иккиламчи бозор (машина, уй-жой савдоси), хизматлар, меҳмонхоналар ва бошқалар ҳақида ахборот тенгсизлиги чиндан ҳам минимал даражага тушмоқда. Смарт-контрактлар ва блокчейн технологияси маълумотларни ўзгартириб бўлмас ва очиқ ҳолатга келтирмоқда, бу эса молиявий фирибгарликларни қийинлаштиради.

2. Лекин, эски муаммолар ечилиши билан уларнинг ўрнига мураккаброқ янги тўсиқлар вужудга келмоқда:

Энди муаммо маълумотнинг йўқлигида эмас, балки унинг ҳаддан ташқари сероблигида, дедик. Энди маълумотларни тезда таҳлил қила оладиган ва унинг ичидан кераклисини ажрата оладиган томон (масалан, йирик корпорациялар) барибир оддий истеъмолчидан устун бўлиб қолаверади.

Ахборот **миқдори** бўйича асимметрия йўқоляпти, лекин ахборотни **қайта ишлаш ва ундан фойдаланиш имконияти** бўйича асимметрия кучаймоқда. Эндиликда маълумотлар очиқ, лекин уларни таҳлил қилувчи **алгоритмлар яширин (Black Box).** Маълумотлар шу қадар кўпайиб, уларни сохталаштириш (Генератив AI, матнлар ва видеолар яратиш) шу қадар осонлашиб бормоқдаки, энди асосий муаммо маълумот топиш эмас, балки **қайси маълумот ҳақиқий эканини ажратиш** бўлади.

Инсон табиатан ўз манфаатини устун қўяди ва баъзи маълумотларни яширишга мойил. Ҳатто идеал рақамли дунёда ҳам тиббиёт (шифокор ва бемор), юриспруденция (адвокат ва мижоз) каби соҳаларда соф билим ва малака даражасидаги асимметрия доимо сақланиб қолади.

Хулоса

Қарор қабул қилиш ҳаётнинг барча жабҳаларида, ҳар қадамда инливидуал даражадан, оила, микро, макро, халқаро миқёсгача ниҳоятда муҳим бўлиб, муқобиллар тўпламидан энг

бу кичик фарқ натижага деярли таъсир қилмайди деб ўйлаган.Аммо компьютер чиқарган янги об-ҳаво прогнози аввалгисидан бутунлай фарқ қилади: биринчи сафар оддий об-ҳаво чиққан бўлса, иккинчи сафар кучли бўрон намойиш этилади. Шуедай қилиб, Лоренц динамик тизимларда (масалан, об-ҳаво, иқтисодиёт, ижтимоий ҳаёт) бошланғич нуқтадаги ҳатто энг кичик хатолик ҳам вақт ўтиши билан геометрик прогрессия билан катталашиб, улкан ўзгаришларга олиб келишини исботлади. **Илмий сабаб:** Эдвард Лоренц 1972 йилда қилган илмий маърузасини *"Бразилияда капалакнинг қанот қоқиши Техасда торнадо келтириб чиқарадими?"* деб номлаган. Шунингдек, у кашф қилган математик график (Лоренц аттрактори) шакли бўйича худди капалакнинг қанотларига ўхшайди. Бугунги кунда капалак эффекти нафақат физика ва математикада, балки **иқтисодиёт, сиёсат ва шахсий ҳаётдаги** кутилмаган занжирли реакцияларни тушунтириш учун энг кўп қўлланиладиган концепциялардан биридир.

яхши вариантни танлаш бўлиб, у ўз навбатида харажатларни (билим, тажриба, ресурс, маблағ, вақт, энергия ва бошқалар) айрим пайтларда катта харажатларни талаб қилади.

Концептуал жадвал маълумотларига диққат қаратсак, танлаб олинган мезонлар бўйича XX аср ўрталари билан XXI аср бошларида иқтисодий қарорлар қабул қилишнинг тубдан ўзгарганлигини тўғри ва оптимал қарор қабул қилиш қийнлашиб бораётганини кўриш мумкин:

Энг муҳимлари:

1. "Ахборот етишмовчилиги, маълумотнинг йўқлиги"дан янги муаммо, унинг ҳаддан ташқари кўплиги ва уни қайта ишлаш қобилияти" даври муаммосига ўтилди. Эндиликда асосий маҳорат — керакли маълумотни топиш эмас, балки “шовқин-сурон” ичидан кераксизини чиқариб ташлаш, кераклисини топиш энг муҳим заруриятга айланди. Чунки, XX асрда тадбиркорлар кўпинча ўз интуицияси ва тажрибасига таяниб муваффақиятли қарорлар қабул қилган. Бугунги кунда эса энг йирик иқтисодий қарорлар орқасида Big Data (улкан маълумотлар таҳлили), нейротармоқлар ва математик моделлар турибди. Муваффақият улар ёрдамида энг муҳим фактлар асосида тез ва сифатли қарор қабул қила олиш маҳоратидадир**.**

2. Замонавий иқтисодий қарорларнинг асосий мураккабликлари, глобал занжирларнинг боғлиқлиги, гиперинфляция ва бозорларнинг беқарорлиги туфайли қарор қабул қилишда яккаҳокимликдан ўзаро боғлиқликка, турли соҳа экспертларидан иборат жамоа билан муҳокама қилиш орқали қабул қилишга ўтилди. Илгари йирик корпорациялар ёки давлатлар ўз қарорларини мустақил қабул қила оларди. Ҳозир эса ҳар қандай иқтисодий қарор минглаб ташқи омилларга (экологик стандартлар, глобал сиёсат, киберхавфсизлик, бошқа давлатлардаги ижтимоий ҳолат) боғлиқ. Қарор қабул қилувчи субъект энди фақат ўзини эмас, балки, бутун занжир тизимини ҳисобга олишга мажбур.

3. Қарор қабул қилиш мақсади, иқтисодий тафаккур, риск ва ноаниқлик даражаси, таъсир қилувчи асосий омиллар, ахборот асимметрияси ўзгарди. Иқтисодий қарор қабул қилувчи раҳбар ёки инвестор прогнозчи эмас, балки эҳтимолликларни бошқарувчи стратегга айланмоқда.

Шунинг учун биринчи навбатда қарор қабул қилиш учун энг ёмон сценарийни баҳолаш: яъни, “агар қарорим хато чиқса, энг ёмон оқибат нима бўлади?" деган саволга жавоб топиш ва унга тайёр бўлиш зарур. **Риск-менежмент (Risk Management)га мурожаат.** Ҳар қандай иқтисодий қарордан олдин "Энг ёмон сценарий" (Worst-case scenario) ҳисоблаб чиқилиши зарурияти вужудга келди. Агар лойиҳа муваффақиятсизликка учраса, унинг зарари компания ёки оилани инқирозга олиб бормаслиги керак.

Диверсификациялашни[25] амалга ошириш. Бу қадимий, аммо ҳозирги асрда энг муҳим қоидадир. Бор маблағни фақат бир бизнесга, бир турдаги валютага ёки битта активга тикиш ҳалокатли бўлиши мумкин. Буни «Ҳамма тухумни бир саватга солма (Don't put all your eggs in one basket)» деган инглиз халқ мақоли жуда маъноли, содда, тушунарли ифодалайди. Иқтисодиёт ва молия тилида бу мақол **диверсификация** (ресурслар, маблағлар, капитал, активлар ёки хавфларни, ишлаб чиқариш қувватларини, тақсимлаш) тамойилини англатади. XXI асрда қарор қабул қилиш ва «хатонинг залвари» ортиб бораётган шароитда — бу қоида энг муҳим ҳимоя механизми ҳисобланади.

Психологик тузоқлардан қочиш. Нобель мукофоти лауреатлари концепцияси: Ричард Талер ва Даниэль Канеман каби иқтисодчилар исботлаганидек, инсонлар иқтисодий қарор қабул қилишда кўпинча мантиққа эмас, балки **эмоцияларга (қўрқув, аччиқланиш, оммавий психоз)** берилади. Оқилона иқтисодий қарор ҳиссиётлардан холи бўлиши керак [1].

[25] Диверсификация лотинча *diversus* (турлича, ҳар хил) ва *facere* (қилмоқ, яратмоқ) сўзларидан олинган бўлиб, сўзма-сўз таржима қилинганда «хилма-хилликни яратиш» ёки «кенгайтириш» деган маъноларни англатади. - бу рискларни камайтириш ва янги ўсиш йўлларини топиш учун ресурсларни (капитал, ишлаб чиқариш қувватлари, активлар) турли йўналишлар бўйича тақсимлашдир.

Республикамизда ёш олимларимиз, тадқиқотчиларимизнинг бу масалага қаратилган илмий изланишлари ниҳоятда чекланган, Республикамиз ривожи учун **уларнинг илмий изланишларини амалиётга, хусусан, тадбиркорлик ва инвестиция муҳитига йўналтириш** бугунги кунда энг долзарб вазифалардан биридир. Илмий ишлар шунчаки назария бўлиб қолмай, бизнес ва инвесторлар учун қарор қабул қилишда ҳақиқий қўлланма ва ечим бўлиши лозим. Бу борадаги мавжуд бўшлиқларни тўлдириш ва тизимни ривожлантириш учун қатор **комплекс чора-тадбирларни** амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Хулоса қилганда, бугунги кунда энг яхши иқтисодий қарор — бу **"маълумотлар таҳлили (Big Data) + қатъий молиявий интизом + мослашувчанлик"** формуласи асосида қабул қилинган қарорлар бўлиб, уларни қабул қилиш билим, тажриба, катта энергия ва мустаҳкам асабни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Тожибоева Д. Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тутган ўрни. Moliyaviy_texnologiyalar._3_son_2026_yil.- B. 459-470.

2. Добросоцкая О. В. Структура процесса принятия решений. Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Экономика и управление 2006. https://cyberleninka.ru/article/n/struktura-protsessa-prinyatiya-resheniy.

3. Попова В.Д., Тимкина Ю.Ю. Основные подходы к принятию решений. Международный научно-исследовательский журнал, 2022 №4(121). -С. 187-190. https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-podhody-k-prinyatiyu-resheniy.

4. Китиева М.И., Мусаева Х.М. Принятие решений как основной процесс в управлении предприятием. Международный журнал 2022, № 42 (4) -С. 104-108.https://cyberleninka.ru › article › prinyatie-resheniy-ka...

5. Baxriddinov K. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili. Moliyaviy texnologiyalar (TDIU). 2026 y., 3-son.

6. Xudaynazarova D.G‘, Fozilova N. Qarorlar qabul qilish va relevant axborotlar. "Экономика и социум" №11(138)-1 2025 www.iupr.ru 653 https://cyberleninka.ru/article/n/qarorlar-qabul-qilish-va-relevant-axborotlar

7. https://www.google.com/search?q=

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШ ЙЎЛЛАРИ ВА УСТУВОРЛИКЛАРИ

Нурхонов Комилжон Товкараевич
мустақил тадқиқотчи
Қарши давлат техника университети
E-mail: komilnurxonov1986@gmail.com
ORCID: 0009-0001-7839-2417

Аннотация. *мақолада жаҳонда ва Ўзбекистонда табиий ресурслардан фойдаланишда вужудга келган экологик муаммоларнинг илмий-назарий ва амалий жиҳатлари тадқиқ этилиб, Ўзбекистонда “яшил иқтисодиёт”га ўтиш стратегияси ва давлат дастурининг устувор йўналишлари очиб берилган.*

Калит сўзлар*: экология, яшил иқтисодиёт, барқарор ривожланиш мақсадлари, ҳайвонот олами, стратегия, дастур, биосфера, энергетика.*

ПЕРЕХОД К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ ПУТИ И ПРИОРИТЕТЫ

Нурхонов Комилжон Товкараевич
независимый исследователь
Каршинский государственный технический университет
ORCID: 0009-0001-7839-2417
E-mail: komilnurxonov1986@gmail.com

Аннотация. *В статье исследованы научно-теоретические и практические аспекты экологических проблем, возникающих в процессе использования природных ресурсов в мире и Узбекистане, а также раскрыты приоритетные направления Стратегии перехода Узбекистана к «зелёной экономике» и государственной программы.*

Ключевые слова: *экология, зеленая экономика, цели устойчивого развития, дикая природа, стратегия, программа, биосфера, энергетика.*

TRANSITION TO A GREEN ECONOMY WAYS AND PRIORITIES

Nurkhanov Komiljon Tovkaraevich
Independent Researcher
Karshi State Technical University
ORCID: 0009-0001-7839-2417
E-mail: komilnurxonov1986@gmail.com

Abstract. *The article examines the scientific, theoretical, and practical aspects of environmental problems arising from the use of natural resources globally and in Uzbekistan. It also highlights the priority areas of Uzbekistan’s Strategy for Transition to a “Green Economy” and the state program.*

Keywords: *ecology, green economy, sustainable development goals, wildlife, strategy, program, biosphere, energy.*

Кириш

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси”нинг устувор вазифалари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги “2019-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-

4477-сон қарори доирасида “яшил” ва инклюзив иқтисодий ўсишни таъминлаш, мамлакатда “яшил” иқтисодиёт ва “яшил” иқтисодий ўсишни таъминлаш бўйича стратегик мақсадлар ва чора-тадбирлар амалга оширилишини самарали ташкил этиш, ҳудудларни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш учун зарур ресурс ва имкониятлар билан таъминлаш, иқлим ўзгаришига доир масалаларда давлат хизматлари қамровини кенгайтириш, “яшил” иқтисодиёт соҳасида аҳолининг иқтисодий фаоллигини ошириш орқали аҳоли ва жамоатчилик иштирокини кенгайтириш, шунингдек, ушбу йўналишда давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг халқаро ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорликдаги мувофиқлаштирилган сай-ҳаракатларини таъминлаш билан боғлиқ илмий тадқиқот натижаларини амалиётга кенг жорий этишга йўналтирилган. “Экологияни асраш, табиий ресурсларни тежаб ишлатиш, жумладан, сувдан оқилона фойдаланиш бўйича замонавий тизимларга ўтиш ишларини кучайтирдик. Мамлакатимизда “Яшил макон” дастури давом этмоқда”[1] деб Президентимиз томонидан таъкидлаб ўтилган.

Адабиётлар шарҳи

Иқтисодиётнинг иқлим ўзгаришига таъсирини хорижий тадқиқотчилар: В. Нордхаус, Пол Ромер, С. Ж.Тол Ричард, Э. Барбиер, Д. Пиарс, К.К. Рихтер, ва бошқалар ўз тадқиқотларида ишлаб чиқишган.

Барқарор иқтисодий ривожланиш моделлари: "яшил" иқтисодиёт, биоиқтисодиёт, айланма иқтисодиёт, "жигарранг" иқтисодиёт ва бошқаларни рус олимлари Д.А. Агапов, С.Н. Бобйлев, О.П. Бурматова, Э.О. Вегнер-Козлова, О.Ю. Ганюхина, А.В. Гребенкин, Э.М. Зомонова, Н.Ю. Нестеренко, Н.В. Пахомова, Т.А. Селишчева томонидан ўрганилган.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан А.В.Ваҳабов, А.Ўлмасов, С.В.Чепель, Х.П.Абулқосимов, Т.С.Расулов, Т.Т.Жўраев ва бошқаларнинг илмий изланишларида иқтисодий ўсиш назарияси ва экалогик муаммоларни ўзаро боғлиқлигининг назарий жиҳатлари бўйича атрофлича тадқиқотлар олиб борилган.

Иқтисодий фанда эндоген иқтисодий ўсиш назарияси ва экалогик муаммоларни ўзаро боғлиқлигини юқори ривожланиш даражасига олиб чиққан олимлардан бири Уильям Нордхаус ҳисобланади. Унинг “Интеграллашган баҳолаш моделида” (ИАМ) иқлим ўзгаришлари билан иқтисодий ўсиш моделини бир бири билан боғлади[2].

Рус олимлари Е. Лясковская ва К. Григорьева “яшил иқтисодиёт”га ўтиш жараёнида “барқарор ривожланиш”, инклюзив ривожланиш”, “яшил” ва “жигар” ранг иқтисодиёт моделларини кўриб чиқишган[3].

Республикамиз олимларидан Уразов Б.А., Холиқов Д. Р. хулосаларига кўра яшил инфратузилма, жумладан, шаҳар парклари, яшил томлар, кўча дарахтлари ва қирғоқларни тиклаш ҳам яшил иқтисодиёт мақсадларига ҳисса қўшади[4].

Тадқиқот методологияси

Мақолада диалектик, тизимли, интеграл ва синергетик ёндашувлар, иқтисодий, мантиқий, илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, қиёслаш, умумлаштириш, гуруҳлаш ва жадвал усулларидан фойдаланилади

Таҳлил ва натижалар

Жаҳон иқтисодиётида сўнгги асрда инсоният экологияга ва атроф-муҳит ҳолатига тўғри ғамхўрлик қилмасдан иқтисодий фаолият олиб борди ва ривожланди. Сайёрада шаҳарлар йириклашиб, аҳолиси 20–35 миллионли мегаполислар кўпайиб бормоқда. Бу энергоресурслар, айниқса, ёқилғига бўлган талабни кун сайин ўсиб бормоқда. Инсон омили туфайли охирги юз йилда ер шарида экин экиладиган ер майдони тўртдан бир қисмга, ўрмонлар учдан икки қисмга қисқарди. Бунинг натижасида дунё бўйича кейинги 30 йил ичида ҳайвонот оламининг 8–10 фоизи қирилиб кетди. Сайёрамизда тропик ўрмонлар 14 фоизни ташкил қилган бўлса ҳозирда унинг 6 фоизи қолди. Сўнги 50 йил ичида дунёда

аҳоли жон бошига тўғри келадиган ичимлик суви 60 фоизга камайди. Натижада бутун экотизимга антропоген тавсифдаги зарар етказилди, бу ҳолат инсоният истиқболига таҳдид солмоқда. Шиддат билан ўзгариб бораётган жаҳон иқтисодиётида “яшил” иқтисодиётга ўтиш муҳим ҳаётий эҳтиёжга айланди.

Табиатдан фойдаланиш – бу жамият эҳтиёжларини қондириш учун табиий ресурслардан фойдаланиш, атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва уни такрор ишлаб чиқаришни ўз ичига олади. Бу кўпинча тенгсиз экологик алмашинувга олиб келади, натижада бунда айрим мамлакатларнинг хўжалик субъектлари фойда кўради, шу билан бирга уларнинг иқтисодий фаолиятининг салбий оқибатлари зараридан дунёнинг бошқа минтақалари ва мамлакатлари талофат кўради. Табиатдан фойдаланиш, бир томондан, минтақавий хусусиятга эга, чунки у маълум бир давлат ҳудудида содир бўлади, иккинчи томондан, у глобал хусусиятга эга, чунки унинг салбий оқибатлари дунёнинг бошқа мамлакатлари ва минтақаларига таъсир қилади. Шунинг учун ҳам табиий жараёнлар биосферанинг барқарорлигини таъминлайдиган экологик салоҳиятини истеъмол қилиш даражасига эришиш учун дунё мамлакатлари ўртасидаги мувофиқлаштирилган ўзаро ҳамкорлик зарур.

Мутахассисларнинг фикрича, "яшил иқтисодиёт" анъанавий "жигарранг иқтисодиёт"га қараганда қисқа муддатда ЯИМнинг ўсишини, аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромаднинг ортишини ва иш билан таъминланишни бир хил ёки ундан юқорироқ кўрсаткичда ошириши мумкин. Сўнгги пайтларда ўтказилган халқаро мунозаралар "яшил иқтисодиёт" тушунчасини аниқ ишлаб чиқиш, уни барча мамлакатлар манфаатлари нуқтаи назаридан амалга ошириш бўйича чора-тадбирларни чуқур таҳлил қилиш зарурлигини кўрсатади.

Иқтисодий фанда эндоген иқтисодий ўсиш назарияси ва экологик муаммоларни ўзаро боғлиқлигини юқори ривожланиш даражасига олиб чиққан олимлардан бири Уильям Нордхаус ҳисобланади. Унинг “Интеграллашган баҳолаш моделида” (ИАМ) иқлим ўзгаришлари билан иқтисодий ўсиш моделини бир бири билан боғлади. У.Нордхаус ишлаб чиқариш функцияси моделига икки янги ўзгарувчини киритди: табиий ресурслар ва экологик зарар. Табиий ресурслар ишлаб чиқариш функцияси моделида ишчи кучи, капитал, асосий фондлар каби ишлаб чиқариш омили сифатида олинган; экологик зарар бирдан кичик бўлган кўпайтирувчи бўлиб у ишлаб чиқариш хажмини камайтиради. Бу моделда барча омиллар технологик тараққиёт натижасида ўсиб борса экологик зарар эса бирдан кичик бўлган кўпайтирувчи ҳисобига атмосферани ифлосланиш даражасига қараб камайиб боради[5].

Рус олимлари Е. Лясковская ва К. Григорьева “яшил иқтисодиёт”га ўтиш жараёнида “барқарор ривожланиш”, инклюзив ривожланиш”, “яшил” ва “жигар” ранг иқтисодиёт моделларини кўриб чиқишган. Иқтисодиётнинг “жигар” ранг ривожланиш модели XX асрга ҳос бўлган ва энерго-ресурс сиғими юқори бўлган анъанавий ишлаб чиқариш назарда тутилган. Унинг асосий салбий оқибатлари экологик муаммоларни кескинлашиши, табиий бойликлапни самарасиз ишлатилиши, сув ресурслар, озиқ-овқат ва энергия танқислиги билан боғлиқ деб ҳисобланмоқда[6].

Республикамиз иқтисодчим олимларидан Уразов Б.А., Холиқов Д. Р. хулосаларига кўра яшил инфратузилма, жумладан, шаҳар парклари, яшил томлар, кўча дарахтлари ва қирғоқларни тиклаш ҳам яшил иқтисодиёт мақсадларига ҳисса қўшади. “Яшил иқтисодиёт”ни пивожланишида хизматлап соҳасининг мйҳим йўналишлапидан бири “экологик” тизмни ривожлантипиш катта аҳамиятга эга[7]. Натижада, миллий иқтисодиётни рақобатбардошлигини оширишда имкониятларини кенгайтиради.

12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Pul-kredit siyosatining 2025-yil va 2026–2027-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari konseptual loyihasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 1–85.
13. Sarno, L., & Taylor, M. P. (2001). Official intervention in the foreign exchange market: is it effective and, if so, how does it work? Journal of Economic Literature, 39(3), 839–868.
14. Svensson, L. E. (2000). Open-economy inflation targeting. Journal of International Economics, 50(1), 155–183.
15. Taylor, J. B. (2001). The role of the exchange rate in monetary-policy rules. American Economic Review, 91(2), 263–267.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

16. Vohidov, Sh., & Berdiqulov, Z. (2023). O‘zbekistonda inflyatsion targetirlash sharoitida transmissiya mexanizmining foiz va valyuta kanallari samaradorligini baholash. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 11(4), 45–58.

17. Xamidov, B., & Ismoilov, A. (2024). Rivojlanayotgan bozorlarda valyuta kursi o‘tish effekti va sterilizatsiya xarajatlarini modellashtirish. Moliya va bank ishi, 4(1), 32–42.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАЛОГОВЫХ СИСТЕМ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И ТРАНСФОРМАЦИЯ ИХ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

Хусаинов Равшан Рахимович

профессор кафедры
промышленная экономика
и менеджмент
Ташкентский государственный
технический университет
E-mail: ravschan.husainov@yandex.ru
ORCID: 000-0001-6174-110X

Аннотация. *В статье на основе сравнительного анализа налоговых систем России, Казахстана, Китая и Сингапура выявлены актуальные современные тренды и разработаны обоснованные конкретные практические рекомендации по трансформации налоговой системы Узбекистана, включая оптимизацию налоговых льгот, внедрение прогрессивного налогообложения доходов физических лиц и совершенствование цифрового администрирования с учётом международного опыта.*

Ключевые слова: *налоговая система, сравнительный анализ, налогообложение, Узбекистан, Россия, Казахстан, Китай, Сингапур, налоговые реформы, налоговое администрирование, цифровизация, прогрессивное налогообложение.*

CHET EL MAMLAKATLARI SOLIQ TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI VA ULARNING O'ZBEKISTON UCHUN TRANSFORMATSIYASI

Xusainov Ravshan Rahimovich

Sanoat iqtisodiyoti va
menejmenti kafedrasi professori
Toshkent davlat texnika universiteti
E-mail.ravschan.husainov@yandex.ru
ORCID: 000-0001-6174-110X

Annotatsiya. *Ushbu maqola Rossiya, Qozog'iston, Xitoy va Singapur soliq tizimlarining qiyosiy tahliliga asoslanib, O'zbekiston soliq tizimini o'zgartirish bo'yicha zamonaviy tendentsiyalarni aniqlaydi va asoslangan, aniq, amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi, jumladan, soliq imtiyozlarini optimallashtirish, progressiv shaxsiy daromad solig'ini joriy etish va xalqaro tajribaga asoslangan raqamli ma'muriyatni takomillashtirish.*

Kalit so'zlar: *soliq tizimi, qiyosiy tahlil, soliqqa tortish, O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Singapur, soliq islohotlari, soliq ma'muriyatchiligi, raqamlashtirish, progressiv soliqqa tortish.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF TAX SYSTEMS OF FOREIGN COUNTRIES AND THEIR TRANSFORMATION FOR UZBEKISTAN

Khusainov Ravshan Rakhimovich

Professor of the Department
of Industrial Economics and Management
Tashkent State Technical University
E-mail:ravschan.husainov@yandex.ru
ORCID: 000-0001-6174-110X

Abstract. *Based on a comparative analysis of the tax systems of Russia, Kazakhstan, China,*

and Singapore, this article identifies current trends and develops substantiated, specific, practical recommendations for transforming the tax system of Uzbekistan, including optimizing tax incentives, introducing progressive personal income taxation, and improving digital administration based on international experience.

Keywords: *tax system, comparative analysis, taxation, Uzbekistan, Russia, Kazakhstan, China, Singapore, tax reforms, tax administration, digitalization, progressive taxation.*

Введение

В условиях глобализации и усиливающейся конкуренции между странами за привлечение инвестиций налоговая система играет ключевую роль в экономической политике государства. Качество налогового администрирования, оптимальный уровень налоговой нагрузки и гармоничная структура налоговых ставок существенно влияют на инвестиционную привлекательность, динамику экономического роста и уровень социальной справедливости. В Узбекистане, который с 2017 года проводит масштабную экономическую реформу, вопрос модернизации национальной налоговой системы приобретает особую актуальность. Снижение ключевой процентной ставки, внедрение цифровых технологий в налоговое администрирование и упрощение налоговых процедур становятся приоритетными задачами государственной политики. [8].

Настоящее исследование направлено на проведение сравнительного анализа налоговых систем России, Казахстана, Китая и Сингапура. Полученные данные будут использованы для разработки рекомендаций по модернизации налоговой системы Республики Узбекистан, основанных на передовых зарубежных практиках. Основные задачи исследования включают: систематизацию ключевых характеристик налоговых режимов в указанных странах; выявление общих тенденций и специфических черт в области налогообложения; оценку результативности применяемых налоговых льгот; а также формирование практических рекомендаций по интеграции зарубежного опыта в налоговую политику Узбекистана.

Обзор литературы

Теоретические основы налогообложения заложили такие выдающиеся экономисты, как А. Смит, Д. Рикардо и А. Вагнер. В своих трудах они сформулировали ключевые принципы: справедливость, определённость, удобство и экономическую эффективность налогообложения. В современной экономической науке значительное внимание уделяется сравнительному анализу различных налоговых систем. Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) ежегодно выпускает доклад о реформе налоговой политики, в котором приводится сравнительная информация о налоговых изменениях в 86 странах. Это позволяет отслеживать глобальные тенденции в области налоговой политики [6]. В 2025 году Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) выпустила тринадцатое издание своей серии Tax Management Series. Эта серия охватывает 58 стран, включая как развитые, так и развивающиеся экономики [9].

Исследования И.А. Майбурова, В.Г. Панскова, Л.И. Гончаренко и других российских специалистов направлены на оптимизацию налоговой нагрузки, улучшение налогового контроля и повышение эффективности налогового администрирования. Узбекские учёные, включая Л. Буранову и С. Рахимову, в своих работах анализируют современные принципы налоговой системы Узбекистана, уделяя особое внимание снижению налоговой нагрузки, цифровому управлению, внедрению инноваций и обеспечению равных условий для всех налогоплательщиков [1].

Учитывая последние преобразования в Узбекистане, которые произошли в период с 2024 по 2026 годы, анализ и сравнение зарубежного опыта и специфики национальных условий в стране были проведены недостаточно полно. Данное исследование направлено на устранение этого недостатка.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Методология исследования

В исследовании используются как общенаучные, так и специализированные подходы. Для сравнения основных параметров (налоговых ставок, структуры и специальных налоговых режимов) налоговых систем пяти стран применяется сравнительный анализ. Системное исследование позволяет рассматривать налоговые системы как взаимозависимые и целостные структуры. Для обобщения эмпирических данных и формирования выводов используются индуктивные и дедуктивные методы. Также проводится нормативно-правовой анализ налогового законодательства соответствующих государств.

Информационная база исследования включает официальные данные налоговых органов и министерств финансов, аналитические материалы ОЭСР и МВФ, статьи из профессиональных экономических журналов, а также налоговое законодательство Узбекистана, России, Казахстана, Китая и Сингапура за 2024–2026 годы.

Анализ и результаты

1. Налоговая система Республики Узбекистан

В 2025 году в Узбекистане не будет изменений в ставках ключевых налогов. Подоходный налог составит 15%, налог на добавленную стоимость — 12%, налог на доходы физических лиц — также 12%. Для бюджетных организаций социальный налог останется на уровне 25%, для прочих организаций — 12%. Налог на предпринимательскую деятельность сохранится в размере 4%. [8]. Указ президента устанавливает ставки НДС и подоходного налога и будет действовать до 2028 года [3]. С 2019 года были существенно пересмотрены основные налоговые ставки: налог на добавленную стоимость был уменьшен с 20% до 12%, налог на дивиденды снизился с 10% до 5%, а обязательные взносы в государственные фонды были упразднены [10]. В 2025 году предприятия получали возврат 21,6 триллиона сомов в виде налога на добавленную стоимость (НДС), что стал значительным шагом вперёд в сфере налогового администрирования. [10].

С 1 июня 2026 года порог для перехода на общую систему налогообложения был повышен с 1 миллиарда базовых учетных единиц до 12 000 базовых учетных единиц (приблизительно 5 миллиардов сомов) [1,10]. Предприятиям общественного питания, торговли и услуг будет предоставлена упрощенная система налогообложения с фиксированной ставкой НДС в 6%. Ставка подоходного налога для таких организаций также будет унифицирована.… 0% [10].

2. Налоговая система Российской Федерации

В 2025 году Российская Федерация осуществила значительное реформирование налоговой системы, увеличив базовую ставку корпоративного налога с 20% до 25%. [5]. Для физических лиц введена прогрессивная система налогообложения с пятью уровнями ставок, максимальная из которых составляет 22%. Эта система заменила прежнюю двухуровневую систему, где ставки были 13% и 15%. [8]. Для большинства налогоплательщиков, чей годовой заработок не превышает 2,4 миллиона рублей, налоговая ставка остаётся прежней. [8].

Федеральное правительство разработало программу налоговых послаблений для инвесторов. Эта программа даёт компаниям возможность уменьшить налоговые выплаты при вложении средств в модернизацию производства и разработку новых технологий [5,8]. Кабинет министров запустил инициативу, направленную на предоставление налоговых послаблений для малых технологических предприятий на региональном уровне [8]. Для компаний, использующих упрощенную систему налогообложения, увеличили порог. Но даже если их годовой доход превышает 60 миллионов рублей, они все равно должны платить налог на добавленную стоимость, оставаясь в рамках этой системы [5].

3. Налоговая система Республики Казахстан

Казахстан утвердил новый налоговый кодекс в июле 2025 года, который начал

действовать с 2026 года [6,7]. Ставка налога на добавленную стоимость была увеличена с 12% до 16% [7]; Корпоративный подоходный налог сохраняется на уровне 20% (в банковской и игорной сферах ставка составляет 25% [7]). Налог на доходы физических лиц теперь рассчитывается по прогрессивной шкале: 10% взимается с доходов до 33,5 млн тенге, а свыше этой суммы ставка повышается до 15%. [7].

Количество специальных налоговых режимов сокращено с семи до трех. Порог для регистрации плательщика НДС снижен с 78,6 млн тенге до 40 млн тенге. Из 453 существующих налоговых льгот примерно 128 были отменены, а оставшиеся льготы носят более целенаправленный характер [7]. Был введен принцип прозрачности, и установлен потолок на общую сумму социальных пособий — не превышающий 10% ВВП. [6].

4. Налоговая система Китайской Народной Республики

В Китае действует сложная и разветвлённая налоговая система, включающая 18 различных налогов [4]. Организации обязаны уплачивать налог на прибыль по ставке 25%. Высокотехнологичные компании облагаются налогом по льготной ставке в 15%, тогда как малые предприятия платят 20%. В 2025 году был принят новый закон о налоге на добавленную стоимость (НДС), который оставил в силе три существующие ставки: 130,9%, 9% и 6% [8].

Прогрессивная ставка налога на доходы физических лиц в Китае составляет от 3% до 45% [8]. В настоящее время активно внедряются изменения в налоговой системе, направленные на обеспечение налоговой справедливости. В рамках этих реформ предполагается сокращение налоговых льгот и увеличение поступлений от прямых налогов с прогрессивной шкалой. Особое внимание уделяется внедрению цифровых технологий в налоговое администрирование и регулированию трансграничных операций [4].

5. Налоговая система Республики Сингапур

В Сингапуре действует одна из наиболее привлекательных налоговых систем в мире. Процентная ставка налога на прибыль для компаний здесь17% [8]. Для поддержки бизнеса в 2025 году предоставлен налоговый вычет по корпоративному налогу в размере 50% от суммы налога к уплате [6].

Таблица 1

Сравнительная характеристика налоговых систем

Параметр	Узбекистан	Россия	Казахстан	Китай	Сингапур
Налог на прибыль (базовая ставка)	15%	25%	20%	25%	17%
НДС (базовая ставка)	12%	22%	16%	13%	9% (GST)
НДФЛ (макс. ставка)	12% (плоская)	22% (прогрессивная)	15% (прогрессивная)	45% (прогрессивная)	24% (прогрессивная)
Спецрежимы	УСН, патент	УСН, ЕСХН	3 спецрежима	Малые предприятия	Частичное освобождение

НДФЛ взимается в прогрессивной пропорции от 0% до 24% (максимальная ставка применяется к доходам с доходом свыше 1 млн сингапурских долларов) В 2025 году

резиденты получают вычет по НДФЛ в размере 60% от суммы налога (до 200 SGD) [8].

В соответствии с правилами OECD GloBE Pillar Two, Сингапур устанавливает минимальный глобальный налог в размере 15% для крупных транснациональных компаний. В рамках этой инициативы активно применяются инвестиционные налоговые льготы, среди которых выделяются льготные ставки для квалифицированных финансовых институтов, варьирующиеся от 5% до 15%. [6].

Обсуждение результатов

Сравнительный анализ позволяет выделить ключевые направления эволюции налоговой системы в рассматриваемых странах.

Прежде всего, наблюдается тенденция к внедрению прогрессивного налогообложения доходов физических лиц. В 2025 году Россия и Казахстан планируют перейти от единой ставки налога к прогрессивной шкале, что соответствует глобальному тренду усиления социальной направленности налоговой политики. В Узбекистане ставка налога на доходы физических лиц осталась неизменной — 12%. Несмотря на необходимость учета административных издержек и потенциальных рисков уклонения при введении прогрессивной системы, этот опыт представляет значимость с точки зрения повышения социальной справедливости.

Во-вторых, Казахстан повысил ставку НДС с 12% до 16%, что свидетельствует о многовекторности его фискальной политики. Это решение направлено на увеличение доходов бюджета[7], тогда как Узбекистан, напротив, снизил НДС с 20 до 12% и зафиксировал его до 2028 года [3,10]. Сингапур сохраняет низкую ставку GST (9%) для поддержания конкурентоспособности. Выбор Узбекистана в пользу низкой ставки НДС представляется обоснованным с точки зрения стимулирования экономической активности, однако требует компенсационных механизмов для обеспечения бюджетной сбалансированности.

В-третьих, все рассматриваемые страны активно реформируют систему налоговых льгот. Казахстан упразднил 128 из 453 льгот и ввёл лимит на их совокупный объём [7][6]. Узбекистан сократил срок действия льготы по НДФЛ до трёх лет в соответствии с законом № ЗРУ-1108. В Узбекистане всё ещё действует большое количество льгот по налогу на добавленную стоимость (в реестре зафиксировано 150 нормативных актов) и таможенных льгот, общая сумма которых составляет 59 триллионов сумов [10], что требует дальнейшей оптимизации.

В-четвёртых, аспект — цифровизация налогового контроля приобретает массовый характер. В Узбекистане внедряется автоматизированный возврат НДС для компаний с низким уровнем риска, а также сокращается количество проверок малого бизнеса. В Казахстане заявили о снижении рабочей нагрузки на 30% [6]. Практики Китая и Сингапура по применению больших данных и искусственного интеллекта в налоговом администрировании вызывают большой интерес и стремление к их дальнейшему совершенствованию [4,8].

Выводы

1. В работе содержатся выводы и предложения по реформированию налоговой системы Узбекистана, основанные на анализе международного опыта.

2. **Оптимизация налоговых льгот.** Узбекистан должен продолжить реформу, направленную на налоговые льготы, начатую в рамках закона "ЗРУ-1108". Необходимо провести инвентаризацию всех существующих налоговых льгот, включая НДС и таможенные платежи, и оценить их влияние на бюджет, опираясь на опыт Казахстана, где уже сократили льготы и ввели лимиты [7][6].

3. **Совершенствование НДФЛ.** Удержание ставки НДФЛ на уровне 12% может упростить процесс администрирования, однако переход к умеренно прогрессивной шкале,

аналогичной той, что действует в Казахстане, может повысить социальную значимость налогообложения. Реализация прогрессивной налоговой системы должна сопровождаться расширением налоговых льгот для граждан с низкими доходами.

4. **Развитие специальных налоговых режимов.** Узбекистан ввёл прогрессивные меры для малого бизнеса, упростив 6-процентную систему НДС и увеличив порог перехода на общую систему налогообложения до 5 млрд сумов. Эти инициативы направлены на облегчение ведения бизнеса. Дополнительно предложено упростить управление МСП, сократив объём отчётности, что соответствует лучшим мировым практикам, в частности, сингапурскому опыту. [8].

5. **Учёт глобальных налоговых правил.** Для крупных транснациональных корпораций установлена глобальная минимальная налоговая ставка в 15% (компонент II), что требует пересмотра политики предоставления инвестиционных льгот. Как отмечают эксперты, если эффективная налоговая ставка узбекской компании окажется ниже 15%, разницу автоматически будет возмещать государство материнской компании, что лишает инвестора интереса.

6. **Цифровизация налогового администрирования.** Опыт Китая и Сингапура показывает, что налоговые процессы нуждаются в дальнейшей автоматизации. Автоматическое возмещение НДС добросовестным налогоплательщикам и сокращение выездных проверок малого бизнеса, которые уже начались в Узбекистане, должны быть расширены.

Так, сравнительный анализ иностранных налоговых режимов показывает, что Узбекистан следует общемировому тренду - снижение налоговой нагрузки, упрощение администрирования и цифровизация. Дальнейшие реформы налоговой системы должны быть направлены на повышение ее эффективности, социальной справедливости и инвестиционной привлекательности при сохранении фискального баланса.

Литературы

1. Буранова Л., Рахимова Ш. Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в Узбекистане // Green Economy and Development. – 2025. – Vol. 3, Issue 4.

2. Закон Республики Узбекистан от 24 декабря 2024 года № ЗРУ-1014 «О внесении дополнений и изменений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с принятием основных направлений налоговой и бюджетной политики на 2025 год».

3. Как изменились налоги в Узбекистане в 2025 году // Газета.uz. – 6 января 2025.

4. От льгот — к низким ставкам. Какой может быть следующая налоговая реформа в Узбекистане // Газета.uz. – 6 июня 2026.

5. Налоговые изменения после 1 января 2025 года // Сбер Про. – 20 февраля 2025.

6. IMF. Annex IV. The New Tax Code and The Tax Gap // IMF Country Report. – 2026. – No. 26/017.

7. Новый Налоговый кодекс: прогрессивный ИПН, повышение НДС и ужесточение контроля // TS NIK. – 28 апреля 2025.

8. OECD. Tax Policy Reforms 2025: OECD and Selected Partner Economies. – Paris: OECD Publishing, 2025.

9. OECD. Tax Administration 2025: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2025.

10. Президент Узбекистана подписал налоговую реформу для малого бизнеса // Anhor.uz. – 29 мая 2026.

11. Хусаинов Р. Роль налоговых реформ в стимулировании инвестиций в узбекистане //Interpretation and researches.–2025. – 2025. – Т. 2. – С. 48.

12. Khusainev R. R. Pathways to sustainable economic growth in Uzbekistan: challenges and opportunities //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2025. – Т. 5. – №.

1. – С. 26-32.

13. Хусаинов Р. Совершенствование механизма оценки и развития потенциала руководящих кадров в системе государственного и хозяйственного управления на основе технологий искусственного интеллекта: зарубежный опыт и его трансформация в узбекистане //muhandislik va iqtisodiyot. – 2026. – т. 4. – №. 7. – с. 491-501.

14. Хусаинов р. р., кариева л. с., загидулина к. р. влияние искусственного интеллекта на рынок труда в узбекистане: вызовы, тенденции и стратегии адаптации //muhandislik va iqtisodiyot. – 2026. – т. 4. – №. 3.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI

Maxkamova Nazokat Umarali qizi
“PLATINUM TRAST PRO” MCHJ iqtisodchisi
E-mail: nazokatkurbanaliyeva@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni va makroiqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi TTXI oqimlari dinamikasini baholash hamda ularning iqtisodiy o‘sish, asosiy kapital shakllanishi, ishlab chiqarish, eksport salohiyati va bandlikka ta’sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. 2017–2025-yillardagi investitsiya jarayonlari O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi, Markaziy bank va tegishli davlat organlari ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Natijalar TTXI hajmining sezilarli o‘sishini ko‘rsatgan. 2025-yilda TTXI va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar 400,8 trln so‘mga yetgan. Investitsiyalar sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya faolligi, iqtisodiy o‘sish, asosiy kapital, investitsiya siyosati, texnologiya transferi, eksport, bandlik.*

РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Махкамова Назокат Умарали кизи
Экономист ООО «PLATINUM TRAST PRO»
E-mail: nazokatkurbanaliyeva@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуются роль и макроэкономическое значение прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в экономике Узбекистана. Основной целью исследования является оценка динамики потоков ПИИ и определение их влияния на экономический рост, формирование основного капитала, производство, экспортный потенциал и занятость. В исследовании применены системный подход, сравнительный анализ, статистическая группировка, анализ динамических рядов и логическое обобщение. Инвестиционные процессы за 2017–2025 годы проанализированы на основе данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, Центрального банка и соответствующих государственных органов. Результаты показывают значительный рост объемов иностранных инвестиций. В 2025 году объем инвестиций в основной капитал за счет ПИИ и кредитов достиг 400,8 трлн сумов. Разработаны научно-практические предложения по повышению качества и экономической эффективности ПИИ.*

Ключевые слова: *прямые иностранные инвестиции, инвестиционная активность, экономический рост, основной капитал, инвестиционная политика, трансфер технологий, экспорт, занятость.*

THE ROLE OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Makhkamova Nazokat Umarali qizi
Economist at “PLATINUM TRAST PRO” LLC
E-mail: nazokatkurbanaliyeva@gmail.com

Abstract. *This article examines the role and macroeconomic significance of foreign direct investment (FDI) in the economy of Uzbekistan. The main objective is to assess the dynamics of FDI flows and determine their impact on economic growth, fixed capital formation, production,*

export potential, and employment. The study applies a systematic approach, comparative analysis, statistical grouping, time-series analysis, and logical generalization. Investment processes during 2017–2025 were analyzed using data from the National Statistics Committee of Uzbekistan, the Central Bank, and relevant government authorities. The findings indicate a significant increase in foreign investment flows. In 2025, investment in fixed capital financed by FDI and loans reached UZS 400.8 trillion. Scientific and practical recommendations are proposed to improve FDI quality and economic efficiency.

Keywords: *foreign direct investment, investment activity, economic growth, fixed capital, investment policy, technology transfer, export potential, employment.*

Kirish.

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va xalqaro kapital harakatining jadallashuvi sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi hamda tarkibiy transformatsiyasini ta’minlovchi muhim iqtisodiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun TTXI ichki moliyaviy resurslar yetishmovchiligini qoplash, investitsion faollikni oshirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishda muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi nafaqat kapital oqimini ko‘paytiradi, balki zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarning kirib kelishi, ilg‘or korporativ boshqaruv tajribasining o‘zlashtirilishi, xalqaro ishlab chiqarish va sifat standartlarining joriy etilishiga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, TTXI mahalliy korxonalarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mehnat unumdorligini yuksaltirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalar orqali milliy ishlab chiqaruvchilarning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi jadallashib, mahalliy xomashyo va resurslardan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga yo‘naltirilgan holda foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Natijada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotning texnologik yangilanishi, tarmoqlar diversifikatsiyasi, eksport tarkibining takomillashuvi hamda uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biriga aylanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion jarayonlarning faollashuvi so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim natijalaridan biridir. Mamlakatda valyuta bozorining liberallashuvi, tadbirkorlik faoliyatiga ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish va investorlar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish xorijiy kapital uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirmoqda.

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, asosiy kapitalga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi 2017-yildagi 12,8 trln so‘mdan 2025-yilda 400,8 trln so‘mga yetgan. 2025-yilda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 43,1 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, shundan 38,2 mlrd dollari TTXI hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Shu bilan birga, investitsiyalar hajmining o‘sishi o‘z-o‘zidan iqtisodiy samaradorlikni kafolatlamaydi. Xorijiy kapitalning real ta’siri uning qaysi tarmoqlarga yo‘naltirilayotgani, yangi ish o‘rinlari yaratishi, mahalliy ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, texnologiya transferini ta’minlashi va eksport salohiyatini oshirishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)ning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri xalqaro iqtisodiyot nazariyasi va investitsiyalar iqtisodiyotining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda TTXI nafaqat kapital oqimi, balki zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv tajribasi, mehnat unumdorligi hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini mamlakatga olib kiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasi ularning hajmi bilan bir qatorda, tarmoq tarkibi, texnologik mazmuni va milliy iqtisodiyot bilan integratsiyalashuv darajasiga ham bog‘liq.

TTXI nazariyasining rivojlanishida J.H. Dunningning ilmiy yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Uning *“Multinational Enterprises and the Global Economy”* asarida ko‘p millatli korxonalarning xalqaro faoliyati va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy asoslari tizimli ravishda yoritilgan. Dunning yondashuvida TTXI faqat moliyaviy resurs sifatida emas, balki transmilliy kompaniyalarning ishlab chiqarish, texnologik va boshqaruv imkoniyatlarini boshqa mamlakatlarga olib kirishi bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Mazkur nazariy yondashuv O‘zbekistonda TTXI ning iqtisodiy transformatsiyadagi o‘rnini baholash uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

TTXI va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik E. Borensztein, J. De Gregorio va J.-W. Lee tomonidan tadqiq etilgan. Mualliflarning *“How Does Foreign Direct Investment Affect Economic Growth?”* nomli ilmiy ishida TTXI ning iqtisodiy o‘sishga ta’siri, xususan, kapital oqimlari va texnologiyalarning tarqalishi nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot TTXI ning iqtisodiy o‘sishga ta’siri bevosita va avtomatik tarzda shakllanmasligini, balki mamlakatning inson kapitali va mavjud iqtisodiy salohiyati kabi omillar bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

L. Alfaro, A. Chanda, S. Kalemli-Ozcan va S. Sayek tadqiqotlarida esa TTXI va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosabatlarda mahalliy moliyaviy bozorlarning roli alohida o‘rganilgan. Mualliflar TTXI ning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini mamlakatdagi ichki moliyaviy institutlar va moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi bilan bog‘laydilar. Mazkur yondashuv O‘zbekiston sharoitida xorijiy kapital samaradorligini baholashda investitsiyalarning o‘zi bilan bir qatorda, ularni qabul qiluvchi moliyaviy va institutsional muhitni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida TTXI dinamikasini o‘rganishda milliy va xalqaro statistik ma’lumotlar muhim empirik manba hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari asosiy kapitalga TTXI va kreditlar hisobidan yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini tahlil qilish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xalqaro investitsion pozitsiya va to‘lov balansi bo‘yicha ma’lumotlari mamlakatdagi tashqi kapital harakatlarini baholash uchun muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, UNCTAD va Jahon bankining statistik ma’lumotlari O‘zbekistondagi investitsiya jarayonlarini xalqaro tendensiyalar bilan qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, TTXI ning iqtisodiy o‘sishga ta’siri bo‘yicha nazariy va empirik yondashuvlar shakllangan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida xorijiy investitsiyalar hajmining o‘sishi bilan ularning iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks baholash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, investitsiyalarning tarmoqlar va hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, texnologik darajasi, mahalliylashtirish ko‘lami, eksportga ta’siri hamda yaratilayotgan ish o‘rinlari kabi ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Mazkur maqolada ham investitsiyalar hajmining ortishi o‘z-o‘zidan yuqori iqtisodiy samaradorlikni kafolatlamasligi, shu sababli TTXI ning sifati va iqtisodiyotga ta’sir kanallarini alohida baholash zarurligi asoslangan.

Shu asosda mazkur tadqiqotning ilmiy yo‘nalishi O‘zbekistonda TTXI dinamikasini 2017–2025-yillar kesimida tahlil qilish, uning asosiy kapital shakllanishi va iqtisodiy faollikdagi o‘rnini baholash, shuningdek, investitsiyalarning texnologik, hududiy va iqtisodiy samaradorligi bilan bog‘liq jihatlarni aniqlashdan iborat. Ushbu yondashuv maqolaning tadqiqot maqsadi, metodologiyasi va natijalar qismi bilan uzviy bog‘lanadi.

Metodologiya

Tadqiqotda dinamik tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Natijalar

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy kapital ishtirokining kuchayishi so‘nggi yillarda investitsion faollikning asosiy tendensiyalaridan biriga aylandi.



1-rasm. O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2017–2025-yillarda TTXI va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi bir necha barobar oshgan. Ayniqsa, 2023–2025-yillar oralig‘ida o‘sish sur’atlari keskin kuchaygan. Bunday dinamikaning shakllanishida investitsiya muhitining liberallashuvi, energetika va infratuzilma loyihalarining kengayishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi hamda xorijiy kompaniyalarning O‘zbekiston bozoriga kirib kelishi muhim rol o‘ynagan.

2025-yilda mamlakatda 43,1 mlrd dollarlik investitsiya o‘zlashtirilgani va uning 38,2 mlrd dollari TTXI hissasiga to‘g‘ri kelgani xorijiy kapitalning investitsion jarayonlarni moliyalashtirishdagi rolini yanada kuchayganini ko‘rsatadi.

TTXI iqtisodiyotning asosiy kapital bilan ta’minlanganligini oshirishning muhim manbalaridan biridir. Asosiy kapitalga investitsiyalarning kengayishi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va infratuzilmani rivojlantirishga imkon beradi.

2025-yilda TTXI va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 400,8 trln so‘mga yetdi. 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 327,6 trln so‘m bo‘lgan. Demak, bir yil ichida qariyb 73,2 trln so‘mlik qo‘shimcha investitsiya shakllangan.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga TTXI hajmi ham sezilarli oshgan: ushbu ko‘rsatkich 2020-yildagi 867,1 ming so‘mdan 2025-yilda 6 492,2 ming so‘mgacha ko‘tarilgan. Biroq bu o‘sishni faqat investitsiya hajmining ko‘payishi bilan izohlash yetarli emas. Investitsiyalarning texnologik mazmuni va iqtisodiy samaradorligi ham baholanishi kerak.

Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan TTXI iqtisodiy o‘sishga bir necha asosiy kanallar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi kanal — kapital jamg‘arilishi. Xorijiy kapital yangi korxonalar, ishlab chiqarish liniyalari va infratuzilma obyektlarini yaratishga yo‘naltiriladi. Ikkinchi kanal — texnologiya transferi. Xorijiy kompaniyalar tomonidan zamonaviy texnologiyalarning olib kirilishi mahalliy ishlab chiqarishning texnik darajasini oshiradi.

Uchinchi kanal — mehnat unumdorligi. Yangi texnologiyalar va boshqaruv usullari bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmini oshiradi. To‘rtinchi kanal — eksport. Xalqaro kompaniyalarning mavjud savdo tarmoqlaridan foydalanish orqali O‘zbekistonda ishlab

chiqarilgan mahsulotlarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati kengayadi. Beshinchi kanal — raqobat va spillover effekti bo‘lib, xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi mahalliy korxonalarni mahsulot sifati va samaradorligini oshirishga undaydi.

2025-yilda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi 81 mlrd dollardan oshgan, eksport hajmi esa 33,8 mlrd dollarga yetgan. Ushbu ko‘rsatkichlar investitsiyalar va tashqi iqtisodiy faollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq TTXI va YaIM o‘rtasidagi qat’iy sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash uchun alohida ekonometrik model talab etiladi.

Investitsiyalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi ularning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. 2025-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga TTXI hajmi Navoiy viloyatida 21,34 mln so‘m, Namangan viloyatida 11,87 mln so‘m, Buxoro viloyatida 8,65 mln so‘mni tashkil etgan. Respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 6,49 mln so‘m bo‘lgan.

Mazkur tafovut hududlarning tabiiy resurslari, sanoat bazasi, infratuzilmasi, transport imkoniyatlari va investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlari bilan bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya siyosatining keyingi bosqichida hududlar o‘rtasidagi investitsion tafovutlarni kamaytirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Muhokama

Olingan natijalar O‘zbekistonda TTXI oqimlari so‘nggi yillarda sezilarli kengayganini ko‘rsatadi. Biroq investitsiyalarning iqtisodiyotga ta’sirini faqat hajm bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Avvalo, investitsiyalarning sifati muhim. Xorijiy kapitalning yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarga yo‘naltirilishi uning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, mahalliylashtirish darajasi investitsiya samaradorligining muhim ko‘rsatkichidir. Agar xorijiy korxona import qilinadigan butlovchi qismlarni yig‘ish bilan cheklansa, uning iqtisodiyotga bilvosita ta’siri cheklangan bo‘lishi mumkin. Aksincha, mahalliy yetkazib beruvchilar bilan kooperatsiya rivojlansa, investitsiyaning multiplikativ samarasi kuchayadi.

Uchinchidan, texnologiya transferiga alohida e’tibor berish zarur. Xorijiy investitsiyalarning strategik afzalligi kapitalning o‘zida emas, balki investor bilan birga kirib keladigan texnologiya, bilim va boshqaruv kompetensiyalaridadir.

To‘rtinchidan, investitsiyadan keyingi xizmatlar tizimini rivojlantirish zarur. Investorni mamlakatga olib kirish investitsiya siyosatining faqat birinchi bosqichidir. Uning keyinchalik faoliyatini kengaytirishi, qayta investitsiya qilishi va yangi loyihalarni amalga oshirishi uchun huquqiy, infratuzilmaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash davom ettirilishi kerak.

Beshinchidan, TTXI oqimlari statistikasi va ularning iqtisodiy natijalarini baholash tizimini takomillashtirish zarur. Har bir yirik loyiha bo‘yicha yaratilgan ish o‘rinlari, eksport hajmi, mahalliylashtirish darajasi, texnologiya transferi va soliq tushumlari kabi indikatorlarni kuzatib borish investitsiya siyosati samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri yashil investitsiyalardir. Energetika tizimini modernizatsiya qilish, quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza ishlab chiqarish loyihalari kelgusida xorijiy kapitalni jalb qilishning muhim segmentlariga aylanishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot, fintech, elektron tijorat, sun’iy intellekt va telekommunikatsiya infratuzilmasi ham yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish salohiyatiga ega.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli so‘nggi yillarda sezilarli oshganini ko‘rsatdi. 2017–2025-yillarda TTXI va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi keskin o‘sib, 2025-yilda 400,8 trln so‘mga yetgan. Xorijiy kapital mamlakatda kapital jamg‘arilishini tezlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishning muhim manbalaridan biriga aylanmoqda.

Biroq TTXIning iqtisodiy samarasi investitsiya hajmidan ko‘ra uning tarmoq tarkibi, texnologik darajasi, mahalliylashtirish va eksportga ta’siri bilan ko‘proq belgilanadi. Shu bois investitsiya siyosatida miqdoriy ko‘rsatkichlardan sifat ko‘rsatkichlariga bosqichma-bosqich o‘tish zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi: 1) yuqori texnologiyali TTXI uchun natijadorlikka asoslangan differensial rag‘batlantirish tizimini joriy etish; 2) yirik investitsiya loyihalarining post-investitsion monitoringini kuchaytirish; 3) xorijiy korxonalar va mahalliy yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi kooperatsiyani rag‘batlantirish; 4) investitsion salohiyati past hududlarda transport, energetika va raqamli infratuzilmani rivojlantirish; 5) investor uchun davlat xizmatlarini yagona raqamli platformaga birlashtirish; 6) yashil va raqamli investitsiyalarni ustuvor yo‘nalish sifatida qo‘llab-quvvatlash; 7) muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan investorlarning qayta investitsiya qilishini rag‘batlantirish.

Umuman olganda, O‘zbekiston iqtisodiyotida TTXI kapital taqchilligini qoplash vositasidan iqtisodiy transformatsiya instrumentiga aylanib bormoqda. Kelgusi bosqichda asosiy e’tibor investitsiyalar hajmini ko‘paytirishdan tashqari, ularning sifati, texnologik mazmuni va iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Aynan shunday yondashuv TTXIning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish, eksport diversifikatsiyasi, bandlik va milliy ishlab chiqarish raqobatbardoshligiga qo‘shadigan hissasini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi. SIAT statistik ma’lumotlar bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. 2025-yilda O‘zbekistonda o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 43,1 mlrd AQSh dollariga yetdi. 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. International Investment Position and Balance of Payments of the Republic of Uzbekistan. 2026.
4. Invest Uzbekistan. Uzbekistan Investment Guide 2025.
5. Dunning, J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. Addison-Wesley.
6. Borensztein, E., De Gregorio, J., Lee, J.-W. How Does Foreign Direct Investment Affect Economic Growth? Journal of International Economics. 1998. Vol. 45, Issue 1. P. 115–135.
7. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., Sayek, S. FDI and Economic Growth: The Role of Local Financial Markets. Journal of International Economics. 2004. Vol. 64, Issue 1. P. 89–112.
8. World Bank. World Development Indicators.
9. UNCTAD. World Investment Report.

TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARINING EKOLOGIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna
TDIU, Iqtisodiyot fakulteti,
“Yashil” iqtisodiyot kafedrasi dots. v.b.,
abdmuqaddas1991@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-4686-8437

Annotatsiya. *Ushbu maqolada transport tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashda ekologik xavfsizlik, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy natijadorlikni uyg‘unlashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida ekologik-iqtisodiy samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilinib, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish, ESG tamoyillarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalash hamda innovatsion boshqaruv yondashuvlarini qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan. Shuningdek, ekologik xarajatlarni optimallashtirish, uglerod emissiyasini kamaytirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari temir yo‘l transporti korxonalarida "yashil" transformatsiyani jadallashtirish, ekologik barqarorlikni mustahkamlash hamda ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar. *Temir yo‘l transporti; ekologik-iqtisodiy samaradorlik; innovatsion mexanizmlar; barqaror transport tizimi; yashil transformatsiya; ESG tamoyillari; energiya samaradorligi; raqamli transformatsiya.*

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛОГО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА В УСЛОВИЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Абдурахманова Мукаддас Тохтасиновна
и.о доцент, факультета экономики,
кафедры зелёная экономика, ТЭГУ
abdmuqaddas1991@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-4686-8437

Аннотация. *В данной статье рассмотрены теоретические и практические аспекты обеспечения устойчивого развития системы железнодорожного транспорта на основе интеграции экологической безопасности, рационального использования ресурсов и повышения экономической результативности. В ходе исследования проведён системный анализ факторов, оказывающих влияние на эколого-экономическую эффективность предприятий, обоснованы приоритетные направления внедрения энергоэффективных технологий, использования цифровых инструментов управления, интеграции принципов ESG в производственные процессы, а также применения инновационных подходов к управлению. Кроме того, разработаны научно-практические рекомендации, направленные на оптимизацию экологических затрат, сокращение выбросов углерода, повышение эффективности использования энергетических ресурсов и укрепление инвестиционной привлекательности предприятий железнодорожного транспорта. Полученные результаты способствуют ускорению процессов «зелёной» трансформации предприятий железнодорожного транспорта, повышению уровня их экологической устойчивости и обеспечению долгосрочной конкурентоспособности в условиях устойчивого экономического развития.*

Ключевые слова. *Железнодорожный транспорт; эколого-экономическая эффективность; инновационные механизмы; устойчивая транспортная система; зелёная трансформация; принципы ESG; энергоэффективность; цифровая трансформация.*

INNOVATIVE MECHANISMS FOR ENHANCING THE ENVIRONMENTAL AND ECONOMIC EFFICIENCY OF RAILWAY TRANSPORT ENTERPRISES

Abdurakhmanova Mukaddas Tokhtasinovna
Acting Associate Professor,
Faculty of Economics,
Department of Green Economy, (TSUE)
abdmuqaddas1991@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-4686-8437

Abstract. *This article examines the theoretical and practical dimensions of integrating environmental sustainability, resource efficiency, and economic performance to ensure the sustainable development of the railway transport system. The study provides a systematic analysis of the key factors influencing environmental and economic efficiency, with particular attention to the implementation of energy-efficient technologies, the adoption of digital management solutions, the integration of Environmental, Social, and Governance (ESG) principles into operational processes, and the application of innovative management approaches. Furthermore, practical recommendations are proposed to optimize environmental costs, reduce carbon emissions, improve the rational use of energy resources, and strengthen the investment attractiveness of railway transport enterprises. The findings contribute to accelerating the green transformation of railway transport enterprises, enhancing their environmental sustainability, and reinforcing their long-term competitiveness under the conditions of sustainable economic development.*

Key words. *Railway transport; environmental and economic efficiency; innovative mechanisms; sustainable transport system; green transformation; ESG principles; energy efficiency; digital transformation.*

Kirish

Bugungi kunda transport tizimini ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish dunyo mamlakatlari oldida turgan ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Iqlim o‘zgarishi, atmosferaga issiqxona gazlari emissiyasining ortishi hamda energiya resurslariga bo‘lgan talabning izchil oshib borishi transport tarmoqlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, temir yo‘l transporti korxonalarida yashil texnologiyalarni qo‘llash ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirish, energiya tejamkorligini ta’minlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Xalqaro temir yo‘llar ittifoqi (UIC)[29] ma’lumotlariga ko‘ra, temir yo‘l transporti dunyo yo‘lovchi tashuvlarining qariyb 7 foizi va yuk tashish hajmining 6 foizini amalga oshirgan holda, transport sektoridagi umumiy karbon emissiyasining atigi 1 foizini tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich temir yo‘l transportining ekologik jihatdan eng samarali transport turlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, temir yo‘l transportining transport sektoridagi yakuniy energiya iste’moli 2 foizdan kam bo‘lib, avtomobil va havo transportiga nisbatan CO_2 emissiyasi[30] 3–10 baravar kamligi bilan ajralib turadi.

So‘nggi yillarda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda energiya tejamkor lokomotivlarni ekspluatatsiyaga kiritish orqali transportning ekologik ta’sirini kamaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. UIC ning 2024-yilgi Global Rail Sustainability Report

[29] International Energy Agency (IEA), UIC. The Future of Rail.
[30] International Union of Railways (UIC). Global Rail Sustainability Report 2024

ma’lumotlariga ko‘ra, elektr tortuv asosida amalga oshirilayotgan yo‘lovchi tashuvlar ulushi 85 foizdan, yuk tashuvlari esa 55 foizdan ortiqni tashkil etmoqda, bu esa temir yo‘l transportining dekarbonizatsiya jarayonidagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

O‘zbekistonda ham transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, temir yo‘l tarmog‘ini elektrlashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirish, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni qisqartirish va xalqaro transport bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun muhim shart-sharoit yaratmoqda.

Shu munosabat bilan temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishda yashil texnologiyalarning o‘rnini ilmiy asosda tadqiq etish, ularni joriy etishning iqtisodiy va ekologik afzalliklarini baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida transport infratuzilmasining barqaror rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi, logistika tizimlarining samaradorligi va xalqaro integratsiya jarayonlarini jadallashtiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Transport tarmoqlari orasida temir yo‘l transporti yuqori yuk tashish salohiyati, energiya tejamkorligi va nisbatan past ekologik ta’siri bilan ajralib turadi. Biroq sanoatning jadal rivojlanishi, yuk va yo‘lovchi tashish hajmining ortishi hamda tabiiy resurslardan foydalanish ko‘lamining kengayishi temir yo‘l transporti korxonalari oldiga ekologik xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bog‘liq yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Mazkur sharoitda korxonalar faoliyatini faqat iqtisodiy natijalar asosida baholash yetarli bo‘lmay, ekologik omillarni ham boshqaruv qarorlariga integratsiyalash zarurati tobora ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda global miqyosda barqaror rivojlanish konsepsiyasi, “yashil” iqtisodiyot tamoyillari, ESG yondashuvlari va uglerod neytralligiga erishish strategiyalari transport tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xususan, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologik menejment tizimlarini takomillashtirish hamda resurslardan oqilona foydalanish transport korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida e’tirof etilmoqda. Shu sababli temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik va iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlaydigan innovatsion boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiyotning "yashil" transformatsiyasini jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Sohada energiya resurslaridan samarali foydalanish, temir yo‘llarni elektrlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, ekologik monitoringni takomillashtirish va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu jarayonlarning amaliy natijadorligini oshirish uchun ekologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni kompleks baholash, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish hamda ularni hal etishga qaratilgan samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning alohida jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, temir yo‘l transporti korxonalarida innovatsion texnologiyalar, raqamli transformatsiya, ESG tamoyillari va ekologik menejmentni yagona boshqaruv tizimi doirasida o‘zaro integratsiyalash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, ekologik xarajatlarni optimallashtirish, uglerod emissiyasini qisqartirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ekologik va iqtisodiy natijalarni kompleks baholashga asoslangan innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirishni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash, ekologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini baholash hamda transport korxonalarida barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Transport tizimlarining iqtisodiy taraqqiyotga ta’sirini o‘rganish masalasi xorijiy olimlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan katta qiziqish bilan tadqiq etilmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda transport sohasi nafaqat infratuzilmaning muhim tarkibiy qismi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlash hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida talqin etiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda Markaziy Osiyo davlatlarining transport tizimlarini rivojlantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu, avvalo, mintaqaning Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi xalqaro transport-logistika koridorlarini shakllantirishdagi strategik o‘rni tobora ortib borayotgani bilan izohlanadi.

Xorijiy olimlar, jumladan, F. Starr, M. Reiser va F. Yildizning ilmiy izlanishlarida mintaqaviy transport infratuzilmasini takomillashtirish, dengiz transporti kommunikatsiyalariga chiqish imkonini beruvchi tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport siyosatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, o‘zaro integratsiyalashgan transport tarmoqlarini rivojlantirish, infratuzilmaviy cheklovlarni bartaraf etish va xalqaro transport hamkorligini kengaytirish mintaqaning tranzit salohiyatini yuksaltirish, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish hamda milliy iqtisodiyotlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi [5].

Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarda transport tizimlarini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish, transport infratuzilmasining iqtisodiy o‘sishga qo‘shadigan hissasini miqdoriy jihatdan baholash, shuningdek, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va transport oqimlarini samarali boshqarish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston olimlari tomonidan ham transport infratuzilmasini rivojlantirish, logistika tizimlarini takomillashtirish va transport korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, Q.X. Abdurahmonov [16] iqtisodiy samaradorlikni baholash, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini tadqiq etib, korxonalar faoliyatining natijadorligini oshirishda boshqaruvning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ilmiy asoslagan. Uning ilmiy qarashlari transport korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash metodologiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xodiyev B.Y., Sh.Sh.Shodmonov [17] bozor iqtisodiyoti sharoitida transport xizmatlari bozorining rivojlanishi, transport infratuzilmasining iqtisodiy o‘sishga ta'siri hamda samarali transport siyosatini shakllantirish masalalarini yoritgan. Olim transport xizmatlari sifati va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazariy jihatdan asoslab bergan.

A.S.Soliyev [18] iqtisodiy geografiya va transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarida transport infratuzilmasining hududiy rivojlanish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va logistika tizimlarini takomillashtirishdagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan hamda transport tarmoqlarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholashning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqqan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida transport tizimini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribani har tomonlama o‘rganish va ilmiy asoslashga xizmat qiluvchi zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tahlil va sintez, induktiv va deduktiv yondashuvlar, qiyosiy tahlil hamda iqtisodiy-statistik usullar tashkil etdi. Ushbu metodlar yordamida transport tizimining rivojlanish tendensiyalari, turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan samarali boshqaruv mexanizmlari va ularning iqtisodiy natijalari o‘rganildi hamda milliy transport tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Transport sohasining ekologik-iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish zamonaviy sharoitda barqaror iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, temir yo‘l transportida energiya resurslaridan oqilona foydalanish, raqamli boshqaruv yechimlarini tatbiq etish, temir yo‘llarni elektrlashtirish ko‘lamini kengaytirish va ekologik menejment tizimlarini rivojlantirish atrof-muhitga yetkaziladigan salbiy ta’sirni kamaytirish bilan bir qatorda, korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Jahon banki ma’lumotlariga muvofiq, transport sektori global yakuniy energiya iste’molining qariyb 30 foizini, energiya iste’moli bilan bog‘liq karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarining esa 24–25 foizini tashkil etadi [9]. Biroq temir yo‘l transporti jahon miqyosidagi yo‘lovchi tashish hajmining taxminan 8 foizini va yuk tashishning 7 foizini ta’minlagan holda, transport sohasining umumiy energiya iste’molida atigi 2 foiz, CO_2 emissiyalarida esa qariyb 1 foiz ulushga ega [2].

Keltirilgan statistik ma’lumotlar temir yo‘l transportining energiya tejamkorligi va ekologik samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur transport turini rivojlantirish, uning texnologik va tashkiliy imkoniyatlaridan samarali foydalanish transport tizimining ekologik barqarorligini ta’minlash hamda iqtisodiy natijadorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

International Union of Railways [8] hisobotiga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha temir yo‘l transportida 3,8 trillion yo‘lovchi-kilometr va 12 trillion tonna-kilometr yuk tashilgan. Ayni paytda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida temir yo‘l transportini elektrlashtirish darajasi o‘rtacha 60 foizdan yuqori bo‘lib, Shveytsariyada ushbu ko‘rsatkich 100 foiz, Germaniyada 61 foiz, Fransiyada 57 foiz hamda Italiyada 72 foizni tashkil etadi. Elektrlashtirish darajasining yuqoriligi energiya sarfini kamaytirish, ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish va issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish imkonini bermoqda.



1-rasm. Temir yo‘l tarmog‘ida ekologik-iqtisodiy baholashning subyekt obyekt tuzilmasi[31]

Mazkur chizmada korxona faoliyatini baholash jarayonining subyektlari, ularning qaror qabul qilish doirasi va baholash obyektlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ifodalangan.

Chizmaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, korxona faoliyatini baholashda turli boshqaruv subyektlari o‘z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qiladi va ushbu qarorlar asosida tegishli ko‘rsatkichlar shakllantiriladi.

[31] Muallif ishlanmasi.

Bunda uchta asosiy subyekt ajratilgan:
- aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi;
- xo‘jalik boshqarmasi;
- depo va zavod rahbariyati.

Ularning har biri korxona faoliyatining muayyan yo‘nalishlarini boshqaradi va baholash uchun tegishli ma’lumotlarni shakllantiradi.

Baholash subyektlari va ularning vazifalari

1-subyekt. Aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi. Ushbu boshqaruv darajasida korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi, investitsiya siyosati va infratuzilmani modernizatsiya qilish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Rasmda elektrlashtirish dasturi, parkni yangilash va investitsiya rejasi asosiy boshqaruv yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatilgan. Ular asosida tarmoq bo‘yicha integral ko‘rsatkichlarni shakllantirish nazarda tutilgan.

2-subyekt. Xo‘jalik boshqarmasi. Mazkur bo‘g‘in korxonaning kundalik ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini muvofiqlashtiradi. Chizmada ta’mirlash dasturi, reglament va normativlar hamda quvvatlar taqsimoti uning asosiy boshqaruv vositalari sifatida keltirilgan.

Ushbu qarorlar natijasida xo‘jalik kesimidagi subindekslarni hisoblash imkoniyati yaratiladi.

3-subyekt. Depo va zavod rahbariyati. Ushbu darajada texnologik jarayonlarni tanlash, joriy xarajatlarni boshqarish va ishlab chiqarish rejimini belgilash kabi operativ qarorlar qabul qilinadi. Mazkur qarorlar korxona kesimidagi indikatorlar orqali baholanadi. Bunda ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan foydalanish va xarajatlar muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki mazkur yondashuv temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini baholashda bir qator imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, boshqaruv qarorlari va baholash natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, korxona faoliyatini faqat umumiy moliyaviy natijalar asosida emas, balki alohida xo‘jaliklar va ishlab chiqarish bo‘linmalari kesimida tahlil qilishga yordam beradi.

Uchinchidan, elektrlashtirish, energiya tejamkorligi, parkni yangilash va texnologik modernizatsiya kabi chora-tadbirlarning samaradorligini tegishli ko‘rsatkichlar orqali baholash uchun metodologik asos yaratadi.

Mazkur chizma temir yo‘l transporti korxonalarida boshqaruv qarorlari, baholash subyektlari va iqtisodiy natijalarni o‘zaro bog‘lovchi ko‘p darajali baholash tizimini ifodalaydi. Uning asosiy ilmiy ahamiyati korxona, xo‘jalik va tarmoq darajasidagi ko‘rsatkichlarni yagona tizimga birlashtirish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, chizmada ekologik-iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari, indikatorlarni hisoblash algoritmi va natijalarni boshqaruv qarorlariga qaytarish mexanizmi to‘liq ochib berilishi lozim. Ushbu jihatlarning aniqlashtirilishi chizmaning metodologik asoslanganligini va amaliy qo‘llash imkoniyatlarini oshiradi.

Temir yo‘l transporti korxonasining ekologik-iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash uchun integral ko‘rsatkichdan foydalanish taklif etiladi:

$$I_{EE} = \alpha I_E + \beta I_{Ec} \qquad (1)$$

Bu yerda:

- I_{EE} — korxonaning ekologik-iqtisodiy samaradorligi integral indeksi;
- I_E — iqtisodiy samaradorlik indeksi;
- I_{Ec}— ekologik samaradorlik indeksi;
- α va β — iqtisodiy va ekologik mezonlarning vazn koeffitsiyentlari;
- α+β=1

Mazkur formulada iqtisodiy va ekologik natijalar yagona ko‘rsatkich orqali ifodalanadi. Vazn koeffitsiyentlari ekspert baholash yoki boshqa asoslangan usullar yordamida aniqlanishi mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Transport sohasida energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik yuklamani kamaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish korxonalarning iqtisodiy natijadorligini ta’minlash bilan bir qatorda, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini baholashga kompleks yondashuv taklif etildi. Unga ko‘ra, iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlarni yagona integral indeks asosida umumlashtirish korxona faoliyatining mavjud holatini aniqlash, samaradorlik darajasidagi o‘zgarishlarni kuzatish va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi.

Shuningdek, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish va ekologik menejmentni takomillashtirish ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim yo‘nalishlari sifatida belgilandi. Bunday mexanizmlarning samaradorligi nafaqat investitsiya xarajatlari va iqtisodiy daromadlar, balki energiya sarfining kamayishi, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmining qisqarishi hamda tabiiy resurslardan foydalanish darajasi orqali ham baholanishi lozim.

Umuman olganda, temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirish iqtisodiy manfaatlar va ekologik talablarni uyg‘unlashtiruvchi innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirishni talab etadi. Taklif etilgan yondashuv korxonalarning resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, innovatsion loyihalarning natijalarini aniqlash va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Takliflar

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Ekologik-iqtisodiy samaradorlikni baholashning integral tizimini joriy etish. Temir yo‘l korxonalarida iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda baholash tizimini shakllantirish, bunda energiya sarfi, CO_2 emissiyasi, ishlab chiqarish xarajatlari, mehnat unumdorligi va aktivlardan foydalanish samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Energiya tejamkor innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish. Lokomotivlar, harakat tarkibi va ishlab chiqarish uskunalarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish orqali ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish hamda ekologik natijadorlikni yaxshilash zarur.

Temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish. Elektrlashtirish loyihalarini iqtisodiy va ekologik samaradorlik mezonlari asosida rejalashtirish, quyosh va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash lozim. Bunda elektr energiyasining ishlab chiqarish manbalarini ham hisobga olish zarur.

Raqamli boshqaruv va monitoring tizimlarini takomillashtirish. Temir yo‘l korxonalarida energiya sarfi, texnik holat, transport oqimlari va ekologik ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi raqamli platformalarni rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu boshqaruv qarorlarining tezkorligi va asoslanganligini oshirishga yordam beradi.

Ekologik menejment va “yashil KPI” tizimini joriy etish. Korxonalarning tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini baholashda energiya tejamkorligi, emissiyalarni kamaytirish, chiqindilarni

boshqarish va resurslardan foydalanish samaradorligi kabi ekologik ko‘rsatkichlarni hisobga olish zarur. Ushbu ko‘rsatkichlarni rahbarlar va mas’ul xodimlarning faoliyat natijalari bilan bog‘lash mumkin.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish. Energiya samaradorligi va ekologik natijadorlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda uzoq muddatli investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik va yashil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Innovatsion loyihalar samaradorligini muntazam baholash. Har bir loyiha bo‘yicha dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlarni taqqoslash, investitsiyalarning qoplanish muddati, sof iqtisodiy samara va ekologik natijalarni aniqlash orqali loyihalarning amaliy samaradorligini baholash tizimini shakllantirish lozim.

Ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy hamkorlikni rivojlantirish. Temir yo‘l korxonalari, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish hamda ekologik menejment va energiya samaradorligi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish tavsiya etiladi.

Temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirish innovatsion texnologiyalarni joriy etish, samaradorlikni kompleks baholash va ekologik talablarni boshqaruv tizimiga integratsiyalash orqali amalga oshirilishi lozim. Taklif etilgan chora-tadbirlarning izchil tatbiq etilishi korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ekologik ta’sirni kamaytirishga yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Button K. J. Transport Economics. – 3rd ed. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2010. – 640 p.

2.International Energy Agency (IEA). Railways Could Provide Much Greater Benefits for Energy and the Environment. – Paris: IEA, 2019. – Available at: https://www.iea.org/news/railways-could-provide-much-greater-benefits-for-energy-and-the-environment-according-to-iea-report

3. International Energy Agency (IEA). The Future of Rail: Opportunities for Energy and the Environment. – Paris: IEA, 2019. – Available at: https://www.iea.org/reports/the-future-of-rail

4. International Transport Forum (ITF). ITF Transport Outlook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 216 p. DOI: 10.1787/b6cc9ad5-en.

5. International Union of Railways (UIC). Energy Efficiency and CO_2 Emissions. – Available at: https://www.uic.org/sustainability/energy-efficiency-and-co2-emissions/

6. International Union of Railways (UIC). Global Rail Sustainability Report 2024. – Paris: UIC, 2024.

7. Meyer J. R., Kain J. F., Wohl M. The Urban Transportation Problem. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1965. – 466 p.

8. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). ITF Transport Outlook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. – Available at: https://doi.org/10.1787/b6cc9ad5-en.

9. World Bank. Railways: A Backbone for Sustainable Mobility. – Washington, DC: World Bank, 2023.

10. World Bank. World Development Indicators: Transport. – Washington, DC:World Bank, 2024. – Available at: https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators

11. Levikov Б. А. Экономика и управление на железнодорожном транспорте. – Москва: Маршрут, 2017. – 416 с.

12. Tereshina H. П. Экономика железнодорожного транспорта. – Москва: ФГБОУ ВО «Российский университет транспорта (МИИТ)», 2021. – 432 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

13. Карриева Я. К. Проблемы логистических перевозок. – Ташкент: Фан, 2004. – 186 с.

14. Ульджабаев К. У. Экономические реформы на железнодорожном транспорте. – Ташкент: Труд, 1999. – 214 с.

15. Юлдашев Н. К. Транспорт логистикаси ва барқарор ривожланиш. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2022. – 284 б.

16. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakiyeva I.A. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – Toshkent: TDIU, 2011. – 237 b.

17. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017. – 784 b.

18. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyoti: monografiya. – Toshkent: Kamalak, 2013. – 184 b.

DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI: NAZARIYA, AMALIYOT VA USLUBIYOT

Kuliboyev Azamat Shonazarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

Annotatsiya. *Davlat tibbiyot tashkilotlarida amal qilayotgan buxgalteriya hisobi tizimi smetaning ijrosini tasdiqlash uchun loyihalashtirilgan bo‘lib, xizmat birligining qiymatini baholash vazifasi uning loyihasiga kiritilmagan. Maqolada hisobning axborot funksiyasi qay darajada bajarilayotgani o‘lchanadi, funksiya uzilgan nuqtalar aniqlanadi va uzilishni bartaraf etadigan uslubiy yechim taklif etiladi. Empirik baza to‘rtta davlat tibbiyot tashkilotining 2019–2025–yillardagi to‘liq hisobot ma‘lumotlaridan iborat bo‘lib, u ikki yuz ellikdan ortiq birlamchi hisobot shaklini qamraydi. Tadqiqot diagnostika va loyihalash bosqichlaridan tashkil topgan bo‘lib, unda diagnostikada hisobot to‘plamining to‘liqligi indeksi, shakllararo artikulyatsiya sinovlari, diagnostik quvvat indeksi hamda qisman identifikatsiya usuli qo‘llanildi. Uchta asosiy natija olindi. Birinchidan, hisob usulining sakkizta elementidan bittasi to‘liq, beshtasi qisman ishlaydi, ikkitasi hisobotda ko‘rinmaydi, kalkulyatsiya elementi bo‘yicha esa birorta hujjat topilmadi. Normativ tartibga solishning uchinchi darajasi to‘rtta ma‘lumotining barchasida bo‘sh. Ikkinchidan, eskirish xarajatga o‘tkazilmagani sababli xizmatning to‘liq qiymati 7,4–11,0 foizga kam ko‘rsatiladi, moliyaviy natija yetti yilning barchasida kassa va haqiqiy xarajat farqiga aynan teng chiqadi, tannarx bahosining o‘lchov bazasiga sezgirligi esa 4,33 ni tashkil etadi. Uchinchidan, hisobot ma‘lumotlarining to‘liqligi indeksi o‘rtacha 56,3 foizga teng bo‘lib, hisobot shakli 2024–yilda kengaytirilgach artikulyatsiya qoldig‘i 1,798 foizdan 0,0006 foizgacha tushdi. Bu tabiiy tajriba hisobot sifatining sezilarli qismi tashkilotga emas, shakl loyihasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ishda oltita taklifdan iborat uslubiy yechim ishlab chiqildi va u haqiqiy hisobotlarda sinovdan o‘tkazildi: yettita nazorat qoidasi hujjatlashtirilgan yigirmata chetlanishning barchasini aniqlaydi, rahbariyat savollariga javob indeksi 43,8 foizdan 93,8 foizga, hisobot to‘plamining to‘liqligi esa 96,3 foizgacha ko‘tariladi, qo‘shimcha hisobot yuki esa amaldagi to‘plamning 5,9 foizini tashkil qiladi.*

Kalit so‘zlar: *artikulyatsiya sinovlari, budjet hisobi, buxgalteriya hisobi, davlat tibbiyot tashkiloti, eskirish, hisob usuli, moliyaviy hisobot sifati, sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish, xizmat tannarxi, qisman identifikatsiya.*

БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕДИЦИНСКИХ ОРГАНИЗАЦИЯХ: ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА И МЕТОДОЛОГИЯ

Кулибоев Азамат Шоназарович
Профессор Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

Abstract. *The accounting system currently applied in public medical organizations is designed to verify the execution of budget estimates, while the assessment of the cost of a unit of service is not incorporated into its design. This article measures the extent to which the information function of accounting is performed, identifies the points at which this function breaks down, and proposes a methodological solution to eliminate these discontinuities. The empirical base comprises complete reporting data from four public medical organizations for 2019–2025,*

covering more than 250 primary reporting forms. The study consists of diagnostic and design stages. At the diagnostic stage, the reporting-set completeness index, inter-form articulation tests, the diagnostic capacity index, and the partial identification method were employed. Three principal findings were obtained. First, of the eight elements of the accounting method, one operates fully, five operate partially, and two are not reflected in the reporting system; no document related to the costing element was identified. All four data items at the third level of regulatory provision are absent. Second, because depreciation is not recognized as an expense, the full cost of services is understated by 7.4–11.0%; in all seven years, the financial result is exactly equal to the difference between cash and actual expenditures, while the sensitivity of the cost estimate to the measurement base is 4.33. Third, the average reporting-data completeness index is 56.3%, while following the expansion of the reporting form in 2024, the articulation residual decreased from 1.798% to 0.0006%. This natural experiment demonstrates that a substantial share of reporting quality depends not on the organization itself but on the design of the reporting form. The study develops a methodological solution consisting of six proposals and tests it using actual reporting data. Seven control rules identify all 20 documented deviations; the index of answers to management questions increases from 43.8% to 93.8%, and the completeness of the reporting set rises to 96.3%, while the additional reporting burden amounts to only 5.9% of the existing reporting set.

Keywords: *articulation tests, budget accounting, accounting, public medical organization, depreciation, accounting method, financial reporting quality, healthcare financing, service cost, partial identification.*

ACCOUNTING IN PUBLIC MEDICAL ORGANIZATIONS: THEORY, PRACTICE AND METHODOLOGY

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

Professor at Tashkent State University of Economics
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

Аннотация. *Действующая в государственных медицинских организациях система бухгалтерского учета разработана преимущественно для подтверждения исполнения сметы, тогда как задача оценки стоимости единицы услуги в ее проект не включена. В статье измеряется степень выполнения информационной функции бухгалтерского учета, выявляются точки разрыва данной функции и предлагается методическое решение, направленное на устранение этих разрывов. Эмпирическую базу исследования составляют полные отчетные данные четырех государственных медицинских организаций за 2019–2025 годы, охватывающие более 250 форм первичной отчетности. Исследование включает диагностический и проектный этапы. На диагностическом этапе применялись индекс полноты отчетного массива, тесты артикуляции между формами отчетности, индекс диагностической мощности и метод частичной идентификации. Получены три основных результата. Во-первых, из восьми элементов метода бухгалтерского учета один функционирует в полном объеме, пять — частично, а два не находят отражения в отчетности; по элементу калькуляции не выявлено ни одного соответствующего документа. Все четыре показателя третьего уровня нормативного регулирования отсутствуют. Во-вторых, вследствие того, что амортизация не включается в расходы, полная стоимость услуг занижается на 7,4–11,0%; финансовый результат во все семь лет в точности соответствует разнице между кассовыми и фактическими расходами, а чувствительность оценки себестоимости к измерительной базе составляет 4,33. В-третьих, средний индекс полноты отчетных данных составляет 56,3%, при этом после расширения формы отчетности в 2024 году остаток артикуляции снизился с 1,798% до*

0,0006%. Данный естественный эксперимент показывает, что значительная часть качества отчетности зависит не от самой организации, а от конструкции формы отчетности. В работе разработано методическое решение, включающее шесть предложений, и проведено его тестирование на фактических отчетных данных. Семь контрольных правил выявляют все 20 документированных отклонений; индекс ответов на вопросы руководства повышается с 43,8% до 93,8%, а полнота отчетного массива возрастает до 96,3%, при этом дополнительная отчетная нагрузка составляет лишь 5,9% действующего отчетного массива.

Ключевые слова: *тесты артикуляции, бюджетный учет, бухгалтерский учет, государственная медицинская организация, амортизация, метод бухгалтерского учета, качество финансовой отчетности, финансирование здравоохранения, себестоимость услуги, частичная идентификация.*

Kirish

Davlat tibbiyot tashkiloti har kuni ikki xil savolga javob berishga majbur. Birinchisi g‘azna oldidagi savol: ajratilgan mablag‘ qayerga sarflandi?. Ikkinchisi bemor va vazirlik oldidagi savol: shu mablag‘ evaziga qanday xizmat hosil bo‘ldi va uning qiymati qancha? Mamlakatimizda amal qilayotgan budjet hisobi tizimi birinchi savolga puxta javob beradi. Ikkinchi savol esa ochiq qolmoqda.

Farq texnik xususiyatga ega emas. 2019–2025–yillarda sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan budjet xarajatlari nominal ifodada 2,9 barobar, 2019–yil narxlarida esa 1,6 barobar o‘sdi. Resurs hajmi kengaygani sari uni taqsimlash to‘g‘risidagi qarorlar ham murakkablashadi, ya‘ni tarif belgilash, koyka fondini rejalashtirish, xizmatlar ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish. Bularning har biri xizmat birligining qiymati haqidagi ishonchli raqamni talab qiladi. Bunday raqam esa amaldagi hisobot shakllaridan kelib chiqmaydi.

Muammoning ildizi boshqa yerda. Hisobchining malakasi bunga aloqador emas. Hisobot shakllari smetaning ijrosini tasdiqlash uchun loyihalashtirilgan bo‘lib, ular aynan shu vazifani bajaradi. Xizmat tannarxini baholash, aktivning iste’mol qilingan qismini xarajatga o‘tkazish, moliyalashtirish manbalarini bitta ko‘rinishda jamlash kabi vazifalar esa shakl loyihasiga umuman kiritilmagan. Shu bois kamchiliklarni tuzatish uchun tizimni buzib tashlash shart emas, yetishmayotgan kesim va tekshiruvni mavjud shaklga qo‘shish kifoya qiladi.

Tadqiqotning maqsadi quyidagicha belgilandi: davlat tibbiyot tashkilotida buxgalteriya hisobining axborot funksiyasi qay darajada bajarilayotganini baholash, funksiya uzilgan nuqtalarni aniqlash va uzilishni bartaraf etadigan uslubiy yechimni loyihalashtirish. Vazifalar uchta: hisob usuli elementlarining haqiqiy ish qobiliyatini baholash; moliyalashtirish, tannarx va moliyaviy natija bo‘yicha miqdoriy chetlanishlarni hujjatlashtirish; hisobot shakllarining axborot imkoniyatini baholaydigan vosita yaratish va uning asosida takliflar tizimini shakllantirish.

Ishning ilmiy yangiligi uch jihatda ko‘rinadi. Birinchidan, hisob usulining sakkizta klassik elementi hisobot hujjatlari bo‘yicha alohida–alohida tekshirildi va ularning har biri uchun ish qobiliyati darajasi belgilandi. Ikkinchidan, hisobot ma‘lumotlarining to‘liqligini baholaydigan indeks, shakllararo bog‘lanishni tekshiradigan oltita sinov va ko‘rsatkichlarning diagnostik quvvatini baholaydigan indeks taklif etildi; uchalasi ham faqat topshirilgan hisobotga tayanadi va qo‘shimcha so‘rov talab qilmaydi. Uchinchidan, tannarx bahosi nuqtaviy qiymat sifatida emas, qisman identifikatsiya usuli yordamida chegaralar oralig‘i sifatida hisoblandi; bu yondashuv sohada ilgari qo‘llanilmagan.

Maqola quyidagi tartibda shakllantirilgan. Keyingi bo‘limda adabiyotlar sharhi berilib, tadqiqot dolzarbligi ko‘rsatiladi. Uchinchi bo‘lim ma’lumotlar bazasi va uslubiyatni bayon qiladi. To‘rtinchi bo‘lim natijalarni to‘rt yo‘nalishda keltiradi. Beshinchi bo‘limda natijalar muhokama qilinadi, oltinchisida xulosa va cheklovlar bayon etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Davlat sektorida hisobni isloh qilish bo‘yicha adabiyot ikki yirik yo‘nalishga ajraladi.

Birinchi yo‘nalish hisoblash metodiga o‘tishning shart–sharoitlarini o‘rganadi. Lyuder taklif etgan kontingent modeli islohotning muvaffaqiyati mamlakatning siyosiy–ma’muriy muhitiga bog‘liqligini ko‘rsatgan edi [20]. Keyingi tadqiqotlar bu xulosani boyitdi: Xepvort tayyorgarlik bosqichining ahamiyatini [10], Kristiaens va boshqalar esa islohot natijalarining mamlakatlar kesimidagi tafovutini qayd etdi [7]. Lapsli, Mussari va Paulsson hisoblash metodiga o‘tish o‘z–o‘zidan hisob sifatini oshirmasligini ta’kidlagan [19]. Ikki hisob metodining yonma–yon mavjudligi yuzaga keltiradigan ziddiyatlar Anessi–Pessina va Steccolini tomonidan italyan mahalliy budjetlari misolida ochib berilgan [1], Barton esa islohot davomida hisob atamalarining mazmuni o‘zgarib ketishi xavfini ko‘rsatgan [3]. Brusca va Martines xalqaro standartlarni qabul qilish jarayonini uyg‘unlashtirish nuqtayi nazaridan baholagan [4], Xindman va Konnolli esa amaliyotda ko‘pincha qabul qilinmagan yo‘l tanlanishini qayd etgan [12]. Ouda hisoblash metodining amaliy ahamiyatini axborot ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchi nuqtayi nazaridan tahlil qilgan [26].

Ikkinchi yo‘nalish hisobot axborotining haqiqatda qo‘llanilishini tekshiradi. Jorge va boshqalar siyosatchilar moliyaviy hisobotdan bevosita emas, vositachi orqali foydalanishini aniqladi [17]. Kidxolm boshchiligidagi olimlar guruhi to‘qqizta Yevropa mamlakatida shifoxona rahbarlari bilan suhbat o‘tkazib, ular talab qiladigan axborotning katta qismi standart hisobotda mavjud emasligini ko‘rsatdi [18]. Ivankovich va boshqalar esa ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lgan taqdirda ham ulardan foydalanish darajasi pastligini qayd etgan [15]. Nazariy asos sifatida Davlat sektorida umumiy maqsadli moliyaviy hisobotning kontseptual asosi olinadi. Unda hisobotning maqsadi hisobdorlik va qaror qabul qilish deb belgilangan [14], davlat sektori hisobining klassik bayoni esa Jones va Pendlebrining qo‘llanmasida keltirilgan [16]. Mamlakatlarning hisob islohotidagi o‘rni IFAC va CIPFA indeksi orqali qiyoslanadi [13], sog‘liqni saqlash xarajatlarining xalqaro tasnifi esa Sog‘liqni saqlash hisoblari tizimida bayon etilgan [24].

Tibbiyot xizmatining tannarxini hisoblash bo‘yicha alohida adabiyot mavjud. Mogyorosi va Smit uslubiy masalalarni tizimlashtirgan [22], Chapko va boshqalar “yuqoridan pastga” va “pastdan yuqoriga” yondashuvlar natijasining yaqinligini empirik tekshirgan [6]. Drummond va boshqalarning qo‘llanmasi xarajatlarni tibbiy dastur kesimida baholash metodikasini beradi [9]. Bu ishlarning barchasi xarajat to‘g‘risidagi birlamchi ma’lumot mavjud deb faraz qiladi, birlamchi ma’lumotning o‘zi yetishmaydigan holat ularda ko‘rib chiqilmaydi.

Mahalliy adabiyotlarda budjet tashkilotlari hisobini takomillashtirish masalasi doimiy e’tiborda. A.A.Ostonokulov xalqaro standartlarga o‘tish bosqichlarini tahlil qilgan [25], N.K.Rizayev hisobot axborotining tahliliy imkoniyatlarini o‘rgangan [27], A.A.Ostonokulov davlat auditining hisobot bazasiga bog‘liqligini ko‘rsatgan [23]. Mazkur ishlarda asosan normativ hujjatlar matni va umumlashtirilgan statistika tahlil qilinadi; ayrim tashkilotning to‘liq hisobot arxivi birlamchi manba sifatida deyarli qo‘llanilmagan.

Shu tariqa uchta bo‘shliq ajraladi. Birinchisi: hisob usuli elementlarining ish qobiliyati nazariy jihatdan muhokama qilinadi, ammo hisobot hujjatlari bo‘yicha tekshirilmaydi. Ikkinchisi: hisobot sifatini baholash vositalari, asosan, so‘rovnomaga yoki ekspert bahosiga tayanadi, holbuki topshirilgan hisobotning o‘zi obyektiv baholash bazasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Uchinchisi: tannarx bahosidagi noaniqlik odatda yashiriladi, uni ochiq ko‘rsatadigan yondashuv esa deyarli qo‘llanilmaydi. Ushbu maqola shu uch bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot uslubiyati

Empirik baza to‘rtta davlat tibbiyot tashkilotining 2019–2025–yillardagi to‘liq hisobot ma‘lumotlaridan iborat. Obyektlar ataylab turlicha tanlangan: respublika darajasidagi ixtisoslashgan markaz, gematologiya markazi, ruhiy salomatlik markazi va ko‘p tarmoqli shifoxona, ya’ni tarmoqning bir–biridan keskin farq qiladigan to‘rt bo‘g‘ini bitta kuzatuv doirasiga kiritildi. Ular moliyalashtirish tuzilmasi, koyka fondi hamda o‘z daromadining ulushi bo‘yicha bir–biridan sezilarli farq qiladi, shu bois hisobotlar bitta tashkilotning o‘ziga xos holatiga bog‘lanib qolmaydi.

Yillik moliyaviy hisobotlar ikki yuz ellikdan ortiq birlamchi hisobot shaklini qamraydi. Asosiy obyekt bo‘yicha sakkizta shakl oilasiga tegishli yetmish to‘rtta hisobot shakli tahlilga kiritildi: balans, xarajatlar smetasining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot, Rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari harakati, boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisoboti, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, nomoliyaviy aktivlar harakati, debitor va kreditor qarzlar hisoboti hamda tarmoq, shtatlar va kontingent to‘g‘risidagi statistik hisobot. Makrodarajadagi ko‘rsatkichlar Davlat statistika qo‘mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy nashrlaridan olindi.

Ma’lumotlarning ishonchliligi beshta qoida asosida ta’minlandi. Har bir raqam imzolangan hisobot faylidan olinadi, ikkilamchi manbadan olingan qiymat birlamchi hujjat bilan taqqoslanadi, shakllar orasidagi bog‘lanish tenglik ko‘rinishida tekshiriladi, yillar bo‘yicha uzilish aniqlanganda uning sababi hujjat bilan izohlanadi va hisob–kitobning har bir bosqichi takrorlanadigan tarzda qayd etiladi.

1–jadval

Tahlilga kiritilgan birlamchi hisobot shakllarining kesimi, dona[32]

Hisobot shakli	Respublika markazi	Gematologiya markazi	Ruhiy salomatlik markazi	Ko‘p tarmoqli shifoxona	Jami
Balans	7	7	7	7	28
Xarajatlar smetasi ijrosi	7	7	6	7	27
Rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari	7	7	5	7	26
Boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar	7	5	4	7	23
Valyuta mablag‘lari	7	0	0	3	10
Moliyaviy natijalar	5	5	0	4	14
Nomoliyaviy aktivlar harakati	7	7	7	7	28
Debitor va kreditor qarzlar	7	7	0	7	21
Tarmoq, shtatlar va kontingent	7	6	5	6	24
Jami	**61**	**51**	**34**	**55**	**201**

Tadqiqot ishi ikki bosqichda shakllantirilgan. Diagnostika bosqichida mavjud holat baholanadi, loyihalash bosqichida esa yechim ishlab chiqiladi va sinovdan o‘tkaziladi. Ikkinchi bosqich Xevner va boshqalar tomonidan asoslangan loyihaviy tadqiqot mantig‘iga tayanadi: muammo aniqlanadi, artefakt yaratiladi, u haqiqiy ma’lumotda sinaladi va natija hujjatlashtiriladi [11].

Diagnostika uchun to‘rtta vosita qo‘llanildi. Birinchisi hisobot yillik moliyaviy hisobot shakllariining to‘liqligi indeksidan iborat. O‘nta mezonning har biri uch bosqichli shkala bo‘yicha baholanadi: element mavjud va to‘liq bo‘lsa bir ball, mavjud lekin chala bo‘lsa yarim ball, umuman ko‘zda tutilmagan bo‘lsa nol ball. Indeks ballar yig‘indisini o‘n ikki bo‘lgan nisbatning foizdagi ifodasidan iborat.

$$HTI = (\Sigma s_i / 10) \times 100\ \%, \quad s_i \in \{0; 0{,}5; 1\}$$

Ikkinchi vosita sifatida shakllararo artikulyatsiya sinovlari qo‘llanildi. Oltita tenglik tekshiriladi: aktivning yil boshidagi qoldig‘i, kirimi, chiqimi va yil oxiridagi qoldig‘i orasidagi bog‘lanish; kassa va haqiqiy xarajatlarning shakllar kesimidagi mosligi; debitor qarzning balans va tahliliy hisobotdagi qiymati; jamg‘arma mablag‘lari qoldig‘ining uzluksizligi; moliyaviy natijaning daromad va xarajat farqiga tengligi; tovar–moddiy zaxiralarning ikki shakldagi qiymati. Chetlanish absolyut va nisbiy ko‘rinishda o‘lchanadi.

Uchinchi vosita ko‘rsatkichning diagnostik quvvat indeksidir. U to‘rt komponentdan tashkil

[32]Muallif tomonidan tuzilgan.

topadi: ko‘rsatkichning hisoblanish imkoniyati, uning obyektlar kesimidagi tarqoqligi, vaqt bo‘yicha barqarorligi hamda talqin qilinish aniqligi. Indeks qaysi ko‘rsatkich haqiqatan ma’lumot berishini, qaysi biri esa shunchaki raqam bo‘lib qolishini ajratadi.



1–rasm. Hisob tizimining qatlamlari, aniqlangan uzilishlar va taklif etilgan yechim[33]

To‘rtinchi vosita qisman identifikatsiyadan iborat. Xizmat birligining tannarxi to‘g‘risida yagona nuqtaviy baho berish uchun zarur ma’lumot yetishmaydi, ammo bahoning joylashishi mumkin bo‘lgan oraliqni hisoblash mumkin. Quyi chegara faqat bevosita bog‘lanadigan xarajatlardan, yuqori chegara esa barcha xarajatlarning bitta baholash bazasiga taqsimlanishidan kelib chiqadi. Keyin qo‘shimcha shartlar kiritilib, oraliq toraytiriladi. Manski asoslagan bu yondashuv noaniqlikni yashirmaydi, aksincha uni baholash obyektiga aylantiradi [21].

Tahlil va natijalar

Hisob metodining klassik elementlari birin–ketin ko‘rib chiqildi va ularning har biri topshirilgan hujjatlar bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi. Baholash mezoni bitta: element hisobotda o‘z natijasini qoldiradimi yoki qoldirmaydimi.

Natija notekis. Elementlarning ish qobiliyati bir xil emas. Bitta element to‘liq ishlaydi, beshtasi qisman ishlaydi, ikkitasi esa hisobotda umuman ko‘rinmaydi. Kalkulyatsiya elementi bo‘yicha birorta hujjat topilmadi: na hisob siyosatida, na ichki buyruqda, na hisobotga ilova qilingan izohda.

2–jadval

Hisob usuli elementlarining hisobot hujjatlari bo‘yicha ish qobiliyati[34]

Element	Holati	Hisobotdagi izi	Aniqlangan uzilish
Hujjatlashtirish	To‘liq ishlaydi	Har bir operatsiya birlamchi hujjat bilan rasmiylashtiriladi	—
Inventarizatsiya	Qisman	Natija balansda aks etadi, chetlanish sababi ochilmaydi	Farqning tuzilmasi ko‘rinmaydi
Baholash	Qisman	Boshlang‘ich qiymat qayd etiladi,	Bir obyektda baza

[33]Muallif ishlanmasi
[34] Muallif ishlanmasi

		qayta baholash izohsiz	izohsiz o‘zgargan
Hisobvaraqlar tizimi	Qisman	Sintetik daraja to‘liq, tahliliy daraja tor	Xarajat markazi kesimi yo‘q
Ikkiyoqlama yozuv	Qisman	Registrda ishlaydi, jamlashda uziladi	Artikulyatsiya qoldig‘i 1,798 %
Balans umumlashtirish	Qisman	Shakl to‘ldiriladi, izohlar berilmaydi	Moddalarning tarkibi ochilmaydi
Kalkulyatsiya	Ishlamaydi	Hujjat topilmadi	Tannarx o‘lchanmaydi
Hisobot	Qisman	Shakllar topshiriladi, to‘plam chala	To‘liqlik indeksi 56,3 %

Eng og‘ir oqibat eskirish bilan bog‘liq. Asosiy vositalarga eskirish hisoblanadi va uning summasi hisobotda ko‘rsatiladi, ammo bu summa xizmat xarajatiga o‘tkazilmaydi. Asosiy obyektda eskirish darajasining besh yillik o‘sishi 44,2 foizdan 61,5 foizgacha yetgan, biroq xizmat qiymati shu davrda 7,4–11,0 foizga past baholanib kelingan. Aktivning eskirgani hujjatda qayd etiladi, xizmat qiymatiga esa ta’sir qilmaydi. Shu tariqa hisobot bir vaqtning o‘zida aktivning yemirilayotganini tan oladi va bu yemirilishning bahosini xizmat tannarxidan chiqarib tashlaydi.

Normativ tartibga solishning uchinchi darajasi bo‘yicha topilma alohida e’tiborga loyiq. Birinchi daraja qonun va standartlardan, ikkinchisi vazirlik hujjatlaridan, uchinchisi esa tashkilotning o‘z hujjatlaridan iborat. Dastlabki ikki daraja to‘liq bajariladi. Uchinchi darajaga tegishli hujjatlar, xususan hisob siyosati, hujjatlar aylanmasi jadvali hamda ichki nazorat tartibi, to‘rtta arxivning birortasida uchramadi. Tashqi majburiyat kuchi bilan talab qilinadigan narsa bajariladi, tashkilotning o‘z ixtiyoriga qoldirilgan narsa esa bajarilmaydi.



2–rasm. Makroiqtisodiy kontekst, aktivlarning eskirishi va to‘liq qiymatning kam ko‘rsatilishi[35]

Tashkilotda to‘rttagacha mustaqil moliyaviy pul mablag‘lari harakati mavjud: budjet mablag‘lari, Rivojlantirish jamg‘armasi, boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar va valyuta hisobvarag‘i. Har bir mablag‘ o‘z shakli bo‘yicha alohida hisobot beradi, ammo ularni bitta ko‘rinishda birlashtiradigan yig‘uvchi shakl ko‘zda tutilmagan, shu bois tashkilotning umumiy moliyaviy holati faqat to‘rtta hujjatni qo‘lda jamlash yo‘li bilan tiklanadi.

Pul mablag‘larining nisbati barqaror emas. O‘z daromadining umumiy resursdagi ulushi kuzatuv davrida 36,5 foizdan 60,4 foizgacha tebrandi. Bu shunchaki tuzilmaviy o‘zgarish emas: ulush oshgani sari tashkilotning moliyaviy barqarorligi bozor omillariga ko‘proq bog‘lanadi, hisobot esa bu bog‘liqlikni ko‘rsatadigan kesimga ega emas.

[35] Muallif ishlanmasi

Xarajatlarning tasnif intizomi ham yetarli emas. Tafsilotsiz “boshqa xarajatlar” moddasining ulushi 2022–yilda 37,6 foizga yetgan. Xarajatning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i mazmuni ochilmagan holda qayd etilganda, tasnif tahlil uchun asos bo‘lolmaydi.



3–rasm. Moliyalashtirish kanallarining tuzilmasi va xarajatlar tasnifining intizomi[36]

Tannarxni hisoblash ikki bosqichdan iborat bo‘lishi kerak: avval xarajatlar yordamchi bo‘linmalardan asosiy bo‘linmalarga taqsimlanadi, so‘ng xizmat birligiga o‘tkaziladi. Arxivda ikkinchi bosqich topilmadi. Bevosita bog‘lanadigan xarajatlarning ulushi 2019–yildagi 50,7 foizdan 2024–yilda 11,3 foizga tushgan, qolgan qismning xizmat birligiga qanday yetib borishi hujjatda ko‘rsatilmagan.

Shu sababli tannarx bahosi chegaralar oralig‘i sifatida hisoblandi. 2024–yilda bitta koyka–kunning qiymati 67,4 dan 597,7 ming so‘mgacha oraliqda joylashadi. Oraliq deyarli to‘qqiz barobar keng bo‘lib, bunday baho hech qanday qaror uchun asos bo‘la olmaydi. Ikkita qo‘shimcha shart kiritilganda, ya’ni ambulatoriya qatnovi koyka–kunga nisbatan ma’lum nisbatda baholanganda va yordamchi xarajatlar bosqichli taqsimlash orqali o‘tkazilganda, oraliq 512,4–571,2 ming so‘mgacha torayadi, markaziy baho esa 555,0 ming so‘mni tashkil etadi.

3–jadval

Xarajatlar tarkibi va bitta koyka-kun qiymatining chegaralari[37]

Yil	Jami xarajat, mln so‘m	Bevosita bog‘lanadigan xarajat, mln so‘m	Ulushi, %	Quyi chegara, ming so‘m	Yuqori chegara, ming so‘m	Chegaralar nisbati	Toraytirilgan oraliq, ming so‘m
2019	30 283,6	15 364,7	50,7	166,8	328,8	1,97	—
2020	20 973,4	4 124,6	19,7	52,1	264,8	5,08	—
2021	22 678,7	4 373,1	19,3	47,3	245,4	5,19	201,6-233,1
2022	26 071,4	3 772,9	14,5	—	—	—	—
2023	31 624,8	3 996,9	12,6	—	—	—	—
2024	37 321,9	4 208,9	11,3	67,4	597,7	8,87	512,4-571,2

Baholash bazasining ta’sirini alohida tahlil qildim. Sezgirlik koeffitsienti, ya’ni bahoning eng yuqori va eng past qiymatlari nisbati, 2024–yilda 4,33 ni tashkil etdi. Ya’ni, hisoblash metodini o‘zgartirmasdan, faqat baholash bazasini almashtirish orqali tannarx bahosini to‘rt baravardan ko‘proq o‘zgartirish mumkin. Normativ hujjatda baza belgilanmagan ekan, har qanday hisoblangan tannarx bahs mavzusi bo‘lib qolaveradi.

Moliyaviy natija bo‘yicha topilma kutilmagan bo‘ldi. Yetti yilning barchasida e’lon qilingan natija kassa va haqiqiy xarajat farqiga aynan teng chiqdi. Bu ayniyat hisobning xatosi emas, uning

[36] Muallif ishlanmasi
[37] Muallif ishlanmasi

tuzilishidan kelib chiqadigan qonuniyat: natija xo‘jalik faoliyatining samarasini emas, ikki yo‘nalish orasidagi vaqt farqini baholaydi. Kapital iste’moli hisobga olinganda esa natijaning ishorasi besh yildan to‘rttasida qarama–qarshi tomonga o‘zgaradi.

Yillik moliyaviy hisobotning to‘liqligi o‘nta mezon bo‘yicha to‘rtta obyekt kesimida o‘lchandi. O‘rtacha qiymat 56,3 foizni tashkil etdi, eng past ko‘rsatkich ruhiy salomatlik markazida 40,0 foiz, eng yuqorisi respublika markazida 65,0 foiz. Uchta mezon bo‘yicha, ya’ni pul oqimi hisoboti, sof aktivlar o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot hamda hisob siyosati va izohlar bo‘yicha, birorta obyektda hujjat topilmadi.

Artikulyatsiya sinovlarida boshqacha holat aniqlandi. Hisob registri darajasida ikkiyoqlama yozuv buzilmaydi, uzilish jamlash bosqichida yuzaga keladi. Eski tahrirdagi shakllar bo‘yicha nomoliyaviy aktivlar harakatining qoldig‘i 2021–yilda 1,798 foizga yetgan edi. 2024–yilgi tahrirda shakl kengaytirilib, satrlar soni uch yuz yetmish to‘qqiztaga chiqarilgach, qoldiq 0,0006 foizga tushdi va keyingi yilda nolga teng bo‘ldi. Aynan shu holat tabiiy tajriba sifatida qimmatlidir. Hisob siyosati ham, dastur ham, xodimlar ham o‘zgarmadi, faqat shakl tuzilishi o‘zgardi. Demak chetlanishning manbai hisobchining xatosi emas, shaklning axborotni yig‘ish tartibi ekan. Shakl qanchalik batafsil bo‘lsa, jamlash bosqichida yo‘qoladigan ma’lumot shunchalik kam bo‘ladi.



4–rasm. Hisobot shakllarining to‘liqligi, artikulyatsiya qoldig‘i va ko‘rsatkichlarning diagnostik quvvati[38]

Diagnostik quvvat indeksi 56,0 dan 88,1 gacha oraliqda joylashdi. Eng yuqori qiymat balans moddalaridan kelib chiqadigan ko‘rsatkichlarga, eng pasti esa xarajat hisobotidan olinadigan ko‘rsatkichlarga to‘g‘ri keldi. O‘rtacha hisoblanuvchanlik darajasi 47,9 foizni tashkil etdi: ya’ni talab qilinadigan ko‘rsatkichlarning yarmidan kamrog‘ini amaldagi hisobotdan hisoblash mumkin.

Alohida topilma avtomatlashtirish bilan bog‘liq. Hisobot elektron tizimda shakllantiriladi, ammo tizimda mantiqiy tekshiruv o‘rnatilmagan. 2021–yilgi statistik hisobotni misol qilaman. Shifokorlar shtati bo‘yicha satrning ijro ustunida 47 121 850,75 raqami turadi, o‘sha satrning reja ustunida esa atigi 127,75 ko‘rsatil-gan. Xarajat hisobotida esa 148 217,2 mln. so‘m qiymati qayd etilgan bo‘lib, u tashkilotning o‘sha yilgi butun budjetidan bir necha barobar katta. Ikkala holat ham tizim tomonidan qabul qilingan va hech qanday e’tiroz keltirilmagan. Natura shaklida olingan qiymatliklar bo‘yicha chetlanish miqyosi eng katta bo‘lib chiqdi. Gematologiya markazida 2024–yilda markazlashgan tartibda olingan dori vositalarining qiymati kassa orqali to‘langan summadan 66,5 barobar ko‘p bo‘lgan. Ikkala yo‘nalish bitta ustunda yig‘iladi, ularni ajratadigan satr esa shaklda yo‘q. Shu sababli haqiqiy va kassa xarajat nisbati 0,05 dan 66,46 gacha tebranadi va bu nisbat tashkilotning ish samaradorligi haqida hech narsa aytmaydi. Diagnostika bosqichida aniqlangan uzilishlar oltita taklifda jamlandi. Har bir taklif uchun uni rasmiylashtiradigan normativ hujjat darajasi belgilandi, ta’siri va murakkabligi baholandi, joriy etish navbati aniqlandi.

[38] Muallif ishlanmasi

4–jadval

Hisobotning axborot imkoniyatini o‘lchaydigan ko‘rsatkichlar[39]

Ko‘rsatkich	Tebranish oralig‘i	O‘rtacha	Izoh
Hisobot to‘plamining to‘liqligi indeksi	40,0-65,0	56,3	Uchta element birorta obyektda yo‘q
Artikulyatsiya qoldig‘i, eski tahrir	0,30-1,80	—	Besh yildan beshtasida chetlanish
Artikulyatsiya qoldig‘i, yangi tahrir	0,0000-0,0011	—	Chetlanish qayd etilmadi
Diagnostik quvvat indeksi	56,0-88,1	—	Xarajat ko‘rsatkichlari eng past
Ko‘rsatkichlarning hisoblanuvchanligi, %	—	47,9	Yarmidan kamrog‘i hisoblanadi
Natura va kassa xarajat nisbati	0,05-66,46	—	Ajratadigan satr yo‘q
Balansdan tashqari zaxira nisbati	0,33-1,89	1,38	Balansdagidan ko‘p

Birinchi taklif uch darajali tahliliy kodni joriy etadi: moliyalashtirish manbai, xarajat markazi va xizmat turi. Kod hisobvaraqlar rejasiga qo‘shimcha kesim sifatida kiritiladi, yangi birlamchi hujjat talab qilmaydi va mavjud tahliliy hisobning ustiga qo‘yiladi, ya’ni hisobchining kundalik ish tartibi o‘zgarmaydi, faqat har bir yozuvga uch belgidan iborat qo‘shimcha rekvizit ilova qilinadi. Ikkinchisi hisob siyosati bayonini majburiy qiladi, bunda bayon beshta pozitsiya bilan cheklanadi, shu bois u rasmiy hujjatga aylanib qolmaydi. Uchinchisi hisobot topshirish jarayoniga yettita nazorat qoidasini o‘rnatadi. To‘rtinchisi haqiqiy xarajat ustunini ikki qismga ajratadi: g‘aznachilik orqali to‘langan summa alohida, markazlashgan ta’minot bo‘yicha olingan qiymatliklar alohida ko‘rsatiladi. Beshinchisi shakl o‘zgarganda eski va yangi satrlarning mosligini ko‘rsatuvchi jadvalni talab qiladi. Oltinchisi amaldagi shaklga kanallarni birlashtiruvchi ustun qo‘shadi.

Takliflar ikki indeks bo‘yicha baholandi. Ta’sir indeksi uchta elementdan tashkil topadi: taklif bartaraf etadigan uzilishning miqdoriy miqyosi, uning bir necha shaklga tegishliligi hamda natijani tekshirish imkoniyati. Murakkablik indeksi ham uchta elementni qamraydi: rasmiylashtirish uchun zarur normativ hujjatning darajasi, axborot tizimini qayta sozlash hajmi va qo‘shimcha ma’lumot yig‘ish zarurati. Har bir element bir balldan uch ballgacha baholanib, yig‘indi yuz ballik shkalaga keltiriladi. Baholash natijalari 5–jadvalda keltirilgan.

5–jadval

Takliflarning baholanishi va joriy etish navbati[40]

Kod	Taklif	Rasmiylashtirish darajasi	Ta’sir indeksi	Murakkablik indeksi	Navbat
T5	Qiyoslanuvchanlik protokoli	Vazirlik uslubiy xati	66,7	33,3	I bosqich
T4	Natura ta’minotini ajratish	3-son BHSga qo‘shimcha	88,9	44,4	I bosqich
T3	Yettita nazorat qoidasi	Vazirlik buyrug‘i va tizim sozlamasi	100,0	55,6	I bosqich
T2	Hisob siyosati bayoni	3-son BHSga qo‘shimcha	66,7	44,4	II bosqich
T6	Kanallarni birlashtiruvchi ustun	3-son BHSga qo‘shimcha	66,7	66,7	II bosqich
T1	Xarajat markazlari va tahliliy kod	Hisobvaraqlar rejasiga o‘zgartirish	100,0	100,0	III bosqich

[39] Muallif ishlanmasi
[40] Muallif ishlanmasi

Nazorat qoidalari to‘plami retrospektiv sinovdan o‘tkazildi. Oldingi bo‘limlarda qayd etilgan yigirmata hodisa ro‘yxat qilindi va ularning har biri qaysi qoida bilan ilinishi belgilab chiqildi. Taqsimot notekis bo‘lib chiqdi: to‘qqizta hodisani ichki yig‘indi tengligi ushlaydi, uchtadan hodisa mantiqiy chegara va o‘lchov birligi qoidalariga tushadi, ikkitasi to‘ldirilganlik talabi bilan aniqlanadi, qolgan uchta hodisani esa uchta turli qoida alohida–alohida ilib oladi. Yakuniy hisob yigirmaga teng. Amaldagi yagona tekshiruv esa shu yigirmatadan bittasini ham ilib ololmagan.

Bu raqamga ortiqcha ma’no yuklamaslik kerak. Qoidalar o‘sha hodisalarni tekshirish jarayonida tug‘ilgan, demak yuz foizli natija namuna ichidagi moslikni ko‘rsatadi, uning tashqarisidagi samaradorlikni emas. Natijaning haqiqiy qimmati boshqa jihatda: yettita qoidaning hech biri tashqi ma’lumot so‘ramaydi, ularga shaklning o‘zi va o‘tgan yilgi shakl yetarli, joriy etish esa mavjud tizimga dastur kodini qo‘shish bilan chegaralanadi.



5–rasm. Takliflarning ta’sir va murakkablik kesimidagi joylashuvi, nazorat qoidalarining sinovi hamda kutilayotgan natija[41]

Takliflarning yig‘indi ta’siri ikki ko‘rsatkich orqali baholandi. Rahbariyat qo‘yadigan o‘n oltita savolning nechtasiga hisobotdan javob topilishini ifodalaydigan indeks 43,8 foizdan 93,8 foizga ko‘tariladi. Hisobotning to‘liqligi indeksi esa 56,3 foizdan 96,3 foizga yetadi. Qo‘shimcha hisobot yuki ellik satrni tashkil qiladi, bu amaldagi to‘plamning 5,9 foiziga teng.

6–jadval

Takliflar joriy etilgandan keyin kutilayotgan natija[42]

Ko‘rsatkich	Amaldagi holat	Taklifdan keyin	O‘zgarish
Rahbariyat savollariga javob indeksi, %	43,8	93,8	+50,0
Hisobot to‘plamining to‘liqligi indeksi, %	56,3	96,3	+40,0
Aniqlanadigan chetlanishlar, yiliga	0	3	+3
Tannarx bahosining sezgirlik koeffitsienti	4,33	1,50	−2,83
Hisobot satrlari soni, dona	850	900	+50 (5,9 %)

Olingan natijalar adabiyotlardagi bir qancha xulosalarni tasdiqlaydi va ayrimlarini aniqlashtiradi. Islohotning shaklan qabul qilinishi sifat kafolati bo‘lolmasligi haqidagi fikr [19] mazkur tadqiqotda yangi dalil bilan quvvatlandi: eskirish hisoblanadi, ammo xarajatga o‘tkazilmaydi, ya’ni hisoblash usulining shakli qabul qilingan, mazmuni esa qabul qilinmagan.

[41] Muallif ishlanmasi
[42] Muallif ishlanmasi

Ayni holat Karnegi va Vest ta’riflagan “hisobning hisobdorlik qobiliyati” muammosiga yaqin turadi [5]. Notijorat tashkilotlarida boshqaruv nazorati bo‘yicha klassik ish ham xuddi shu nuqtaga ishora qiladi: xarajat markazi ajratilmagan joyda javobgarlik ham ajratilmaydi [2].

Uchinchi normativ daraja bo‘yicha topilma nazariy jihatdan qiziq. Institutsional nazariyada majburiy izomorfizm tushunchasi mavjud bo‘lib, u tashkilotlarning tashqi bosim ostida o‘xshash tuzilma qabul qilishini tushuntiradi. Bizning holatda esa teskari tomon ko‘rinadi: tashqi bosim mavjud bo‘lmagan sohada tashkilot hech qanday tuzilma yaratmaydi. Hisob siyosatining yo‘qligi qasddan qilingan tanlov emas, balki talab bo‘lmagan joyda ish bajarilmasligining tabiiy oqibatidir.

Hisobot shaklining o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiiy tajriba alohida ahamiyatga ega. Adabiyotda hisobot sifati odatda tashkilot xususiyatlari bilan, ya’ni uning hajmi, rahbariyat malakasi va audit mavjudligi bilan izohlanadi. Bizning ma’lumotda tashkilot xususiyatlari o‘zgarmagan holda sifat ko‘rsatkichi uch tartib pog‘onaga yaxshilangan. Demak hisobot sifatining sezilarli qismi tashkilotga emas, shakl loyihasiga bog‘liq. Bu xulosa Debresseni va boshqalarining elektron hisobot sifati bo‘yicha topilmalari bilan hamohang [8].

Tannarx bo‘yicha natija amaliy ahamiyatga ega. Xizmat tarifi belgilanayotganda odatda bitta raqam keltiriladi va uning atrofidagi noaniqlik ko‘rsatilmaydi. Chegaralar usuli noaniqlikni ochiq qiladi. 2024–yil uchun hisoblangan baho deyarli to‘qqiz barobar keng oraliqqa tushar ekan, uni toraytirmasdan turib tarif belgilash asossiz bo‘ladi. Toraytirish uchun esa yangi ma’lumot yig‘ish shart emas–mavjud shaklga xarajat markazi kesimini qo‘shish kifoya.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot ishining boshida qo‘yilgan savol sodda edi: hisob tizimi o‘zidan kutilgan axborotni beradimi? Javob ham sodda chiqdi. Tizim mablag‘ning qayerga sarflanganini ishonchli qayd etadi, biroq u nimaga aylanganini o‘lchay olmaydi.

Uchta asosiy natija olindi. Nazariy jihatdan sakkizta elementdan bittasi to‘liq, beshtasi esa qisman ishlashi ko‘rsatildi, tannarxni hisoblash bo‘yicha hech qanday hujjat arxivda uchramadi. Amaliy jihatdan eskirish summasining xarajatga kiritilmasligi xizmat qiymatini 7,4–11,0 foizga pasaytirishi, moliyaviy natija ko‘rsatkichining ikki xarajat yo‘nalishi orasidagi farqni takrorlashi, tannarx bahosining baholash bazasiga sezgirligi 4,33 ni tashkil etishi hujjatlashtirildi. Uslubiy jihatdan hisobot shakllarining to‘liqligini, shakllararo bog‘lanishni va ko‘rsatkichlarning diagnostik quvvatini baholaydigan vositalar ishlab chiqildi hamda oltita taklif tizimi shakllantirildi.

Takliflarning qiymati ularning natijaliligida. Yangi hisobot shakli joriy etilmaydi, yangi birlamchi hujjat talab qilinmaydi, hisobchining ish hajmi 5,9 foizga oshadi. Buning evaziga rahbariyat savollariga javob berish imkoniyati 43,8 foizdan 93,8 foizga, hisobot shakllarining to‘liqligi esa 56,3 foizdan 96,3 foizga ko‘tariladi. Ro‘yxatdagi yechimlardan faqat bittasi jiddiy mehnat talab qiladi, ya’ni xarajat markazlari modeli, biroq uning ham qurilish materiali amaldagi shakllarda mavjud.

Kelgusi tadqiqot uchun uchta yo‘nalish ochiq qolmoqda. Birinchisi nazorat qoidalarini namunadan tashqaridagi hisobotlarda sinovdan o‘tkazishni nazarda tutadi. Ikkinchisi xarajat markazlari modelini bitta tibbiyot tashkilotida tajriba tariqasida joriy etib, hisoblangan tannarx bilan chegaralar oralig‘ini taqqoslashga qaratilgan. Uchinchisi hisobot to‘liqligi indeksini tarmoqning kengroq namunasiga qo‘llashni va uning tibbiyot tashkiloti xususiyatlari bilan bog‘liqligini tekshirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anessi-Pessina, E., Steccolini, I. Effects of budgetary and accruals accounting coexistence: evidence from Italian local governments // Financial Accountability & Management. - 2007. - Vol. 23, № 2. - P. 113-131.

2. Anthony, R. N., Young, D. W. Management Control in Nonprofit Organizations. - 7th ed. - Boston: McGraw-Hill/Irwin, 2003. - 1024 p.

3. Barton, A. The use and abuse of accounting in the public sector financial management reform program in Australia//Abacus. -2009. -Vol.45, №2. -P.221-248.

4. Brusca, I., Martínez, J. C. Adopting International Public Sector Accounting Standards: a challenge for modernizing and harmonizing public sector accounting // International Review of Administrative Sciences. - 2016. - Vol. 82, №4. -P.724-744.

5. Carnegie, G. D., West, B. P. Making accounting accountable in the public sector // Critical Perspectives on Accounting. - 2005. - Vol. 16, № 7. - P. 905-928.

6. Chapko, M. K., Liu, C.-F., Perkins, M. et al. Equivalence of two healthcare costing methods: bottom-up and top-down // Health Economics. - 2009. - Vol. 18, № 10. - P. 1188-1201.

7. Christiaens, J., Vanhee, C., Manes-Rossi, F. et al. The effect of IPSAS on reforming governmental financial reporting: an international comparison// International Review of Administrative Sciences. - 2015. -Vol. 81, №1. -P. 158-177.

8. Debreceny, R., Farewell, S., Piechocki, M. et al. Does it add up? Early evidence on the data quality of XBRL filings to the SEC // Journal of Accounting and Public Policy. - 2010. - Vol. 29, № 3. - P. 296-306.

9. Drummond, M. F., Sculpher, M. J., Claxton, K. et al. Methods for the Economic Evaluation of Health Care Programmes. - 4th ed. - Oxford: Oxford University Press, 2015. - 464 p.

10. Hepworth, N. Preconditions for successful implementation of accrual accounting in central government // Public Money & Management. - 2003. - Vol. 23, № 1. - P. 37-44.

11. Hevner, A. R., March, S. T., Park, J., Ram, S. Design science in information systems research // MIS Quarterly. - 2004. - Vol. 28, № 1. - P. 75-105.

12. Hyndman, N., Connolly, C. Accruals accounting in the public sector: a road not always taken // Management Accounting Research. - 2011. - Vol. 22, № 1. - P. 36-45.

13. IFAC, CIPFA. International Public Sector Financial Accountability Index: 2021 Status Report. - New York: IFAC, 2021. - 44 p.

14. IPSASB. The Conceptual Framework for General Purpose Financial Reporting by Public Sector Entities. - New York: IFAC, 2023. - 78 p.

15. Ivanković, D., Poldrugovac, M., Garel, P. et al. Why, what and how do European healthcare managers use performance data? // PLOS ONE. - 2020. - Vol. 15, № 4. - e0231345.

16. Jones, R., Pendlebury, M. Public Sector Accounting. - 6th ed. - Harlow: Pearson Education, 2010. - 280 p.

17. Jorge, S., Jesus, M. A., Nogueira, S. P. Information brokers and the use of budgetary and financial information by politicians: the case of Portugal // Public Money & Management. - 2016. - Vol. 36, № 7. - P. 515-520.

18. Kidholm, K., Ølholm, A. M., Birk-Olsen, M. et al. Hospital managers’ need for information in decision-making: an interview study in nine European countries // Health Policy. - 2015. - Vol. 119, № 11. - P. 1424-1432.

19. Lapsley, I., Mussari, R., Paulsson, G. On the adoption of accrual accounting in the public sector: a self-evident and problematic reform // European Accounting Review. - 2009. - Vol. 18, № 4. - P. 719-723.

20. Lüder, K. A contingency model of governmental accounting innovations in the political-administrative environment // Research in Governmental and Nonprofit Accounting. - 1992. - Vol. 7. - P. 99-127.

21. Manski, C. F. Partial Identification of Probability Distributions. - New York: Springer, 2003. - 178 p.

22. Mogyorosy, Z., Smith, P. The main methodological issues in costing health care services: a literature review. CHE Research Paper 7. - York: Centre for Health Economics, University of York, 2005. - 236 p.

23. Ostonokulov, Azamat. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions. // E3S Web of Conferences. Volume 296. 28 July 2021. DOI: 10.1051/e3sconf/202129606029

24. OECD, Eurostat, WHO. A System of Health Accounts 2011: Revised Edition. - Paris: OECD Publishing, 2017. - 518 p.

25. Ostonokulov A. A. Budjet hisobi islohoti sharoitida davlat sektori hisobi va hisobotining xalqaro standartlarini qo‘llash // Moliya. - 2020. - № 4. - B. 45-52.;

26. Ouda, H. A. G. Practice-Relevant Accrual Accounting in the Public Sector: Producers’ and Users’ Perspectives. - Cham: Palgrave Macmillan, 2021. - 407 p.

27. Rizayev N.K. Moliyaviy hisobotning tahliliy imkoniyatlari va ularni kengaytirish yo‘llari // Iqtisodiyot va ta’lim. - 2022. - № 2. - B. 214-221.

28. Kuliboyev A.Sh. Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy nazorat: nazariya va amaliyot. Monografiya. -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2023. -236 b.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BUDJET TASHKILOTLARIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA

Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi
iqtisodiyot va moliya vazirligi bosh mutaxassisi
E-mail: jamshid.jaxbarov@gmail.com
ORCID: 0009-0000-1876-3709

Annotatsiya. *Maqolada raqamli texnologiyalardan foydalangan holda budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish masalalari Farg‘ona viloyati misolida tadqiq etilgan. Tadqiqot maqsadi — budjet xarajatlari nazorati jarayonida axborot tizimlari o‘rtasidagi integratsiya yo‘qligi sabab yuzaga kelayotgan moliyaviy yo‘qotishlarni miqdoriy baholash va ularni bartaraf etishning raqamli mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Farg‘ona viloyati Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va Hisob palatasining 2020–2025-yillardagi audit hisobotlari, statistik ma’lumotlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida “UzASBO-2” dasturiy majmuasini elektr energiyasi va tabiiy gazni hisobga olish tizimlari, Soliq qo‘mitasining elektron hisobot tizimi hamda “E-Kengash”/“E-Qaror” dasturlari bilan real vaqt rejimida integratsiya qilishga asoslangan besh yo‘nalishdagi raqamli yechim taklif etilgan bo‘lib, ularning joriy etilishi bir yilda, bitta viloyat miqyosida, jami taxminan 469 mlrd so‘mdan ortiq moliyaviy samara berishi asoslab berilgan. Shuningdek, davlat moliyaviy nazorati tizimini tashkiliy takomillashtirish, jumladan nazorat inspeksiyasi va ichki auditni institutsional ajratish, ichki audit tuzilmalarini rivojlantirish markazini tashkil etish hamda sun’iy intellektga asoslangan monitoring vositalarini (masalan, “AI budget control”) joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar Janubiy Koreya (dBrain+), Fransiya va Avstraliya tajribalari bilan qiyoslangan.*

Kalit so‘zlar: *davlat moliyaviy nazorati, raqamli texnologiyalar, budjet tashkilotlari, ichki audit, UzASBO-2, sun’iy intellekt, moliyaviy nazorat samaradorligi, Farg‘ona viloyati.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Жахбаров Жамшидбек Тилаволди угли
главный специалист
Министерства экономики и финансов
Республики Узбекистан
E-mail: jamshid.jaxbarov@gmail.com
ORCID: 0009-0000-1876-3709

Аннотация. *В статье исследуются вопросы совершенствования государственного финансового контроля в бюджетных организациях с использованием цифровых технологий на примере Ферганской области. Цель исследования — количественная оценка финансовых потерь, возникающих вследствие отсутствия интеграции между информационными системами в процессе контроля бюджетных расходов, и разработка цифровых механизмов их устранения. Проанализированы отчёты по результатам аудита и статистические данные Инспекции государственного финансового контроля и Счётной палаты Ферганской области за 2020–2025 годы. В результате исследования предложено пять направлений цифровых решений, основанных на интеграции программного комплекса «UzASBO-2» с системами учёта электроэнергии и природного газа, электронной системой налоговой отчётности, а также приложениями «E-Kengash»/«E-Qaror» в режиме*

реального времени; обосновано, что их внедрение обеспечит суммарный финансовый эффект более 469 млрд сум в год в масштабе одной области. Также разработаны предложения по организационному совершенствованию системы, включая институциональное разграничение инспекции и внутреннего аудита, создание центра развития служб внутреннего аудита и внедрение инструментов мониторинга на основе искусственного интеллекта («AI budget control»). Полученные результаты сопоставлены с опытом Южной Кореи (dBrain+), Франции и Австралии.

Ключевые слова: *государственный финансовый контроль, цифровые технологии, бюджетные организации, внутренний аудит, UzASBO-2, искусственный интеллект, эффективность финансового контроля, Ферганская область.*

IMPROVING STATE FINANCIAL CONTROL IN BUDGET ORGANISATIONS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: EVIDENCE FROM FERGANA REGION

Jakhbarov Jamshidbek Tilavoldi ogli
Chief Specialist at the
Ministry of Economy and Finance
of the Republic of Uzbekistan
E-mail: jamshid.jaxbarov@gmail.com
ORCID: 0009-0000-1876-3709

Abstract. *This article examines the improvement of state financial control in budget organisations through digital technologies, using Fergana region as a case study. The research aims to quantify the financial losses arising from the lack of integration between information systems in the process of controlling budget expenditures, and to develop digital mechanisms to eliminate them. Audit reports and statistical data of the State Financial Control Inspectorate and the Accounts Chamber of Fergana region for 2020–2025 were analysed. The study proposes five directions of digital solutions based on the real-time integration of the “UzASBO-2” software package with electricity and natural gas metering systems, the electronic tax reporting system, and the “E-Kengash”/“E-Qaror” applications; it is substantiated that their implementation would yield a combined financial effect exceeding 469 billion UZS per year in a single region. Proposals for organisational improvement of the system are also developed, including the institutional separation of inspection and internal audit, the establishment of an internal audit development centre, and the introduction of AI-based monitoring tools (“AI budget control”). The findings are compared with the experience of South Korea (dBrain+), France and Australia.*

Keywords: *state financial control, digital technologies, budget organisations, internal audit, UzASBO-2, artificial intelligence, control effectiveness, Fergana region.*

Kirish

Davlat moliyasini boshqarish tizimining raqamli transformatsiyasi so‘nggi o‘n yillikda dunyo mamlakatlarining moliyaviy siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalarning davlat budjeti jarayonlari, g‘aznachilik operatsiyalari, davlat xaridlari, soliq ma’murchiligi hamda moliyaviy nazorat tizimlariga keng joriy etilishi davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, real vaqt rejimida moliyaviy ma’lumotlarni monitoring qilish, xarajatlarni avtomatik nazorat qilish, budjet mablag‘larining harakatini kuzatish va turli moliyaviy axborot tizimlarini o‘zaro integratsiyalash davlat moliyasini boshqarish sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Transparency International tashkilotining 2025-yilgi Korrupsiyani qabul qilish indeksi natijalariga ko‘ra, 182 davlat va hududdan 122 tasi 50 balldan past ko‘rsatkichga ega bo‘lib, global o‘rtacha ko‘rsatkich 42 ballni tashkil etgan [1]. Ushbu holat davlat sektorida moliyaviy resurslardan foydalanish ustidan nazorat, ochiqlik va jamoatchilik hisobdorligi mexanizmlarini

yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, davlat moliyasini boshqarishda raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, katta hajmdagi ma’lumotlar tahlili va elektron monitoring vositalaridan foydalanish inson omilini qisqartirish, moliyaviy xatolar va suiiste’mol holatlarini barvaqt aniqlash hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada raqamli transformatsiya nafaqat davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshiruvchi texnologik vosita, balki davlat sektorida shaffoflik, moliyaviy intizom va institutsional ishonchni mustahkamlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda ham davlat moliyaviy nazorati tizimini raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalari asosida takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi PF-252-son va 2026-yil 6-iyuldagi PF-123-son Farmonlari davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini belgilab berdi [2]. Shu bilan birga, budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan real vaqt rejimidagi monitoringni yo‘lga qo‘yish, nazorat jarayonlarini integratsiyalashgan axborot tizimlari orqali amalga oshirish masalalari hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Xalqaro tajribada davlat moliyaviy nazorati tizimini raqamlashtirish yo‘nalishida bir qator muvaffaqiyatli amaliyotlar mavjud. Xususan, Janubiy Koreyaning dBrain+ tizimi 63 ta axborot tizimi bilan integratsiyalashgan holda sun’iy intellekt yordamida budjet operatsiyalarini real vaqtda tahlil qiladi; Fransiyada munitsipalitetlarning moliyaviy muammolarini sun’iy intellekt orqali oldindan aniqlash tizimi joriy etilgan; Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotlariga ko‘ra, sun’iy intellektga asoslangan audit tizimlari yuqori riskli operatsiyalarni 95 foizgacha aniqlash qobiliyatiga ega bo‘lib, an’anaviy tanlanma (sampling) usulida bu ko‘rsatkich atigi 40–60 foizni tashkil etadi [3; 4].

Shu bilan birga, O‘zbekiston amaliyotida budjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobi tizimi (“UzASBO-2”) bilan kommunal xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, Soliq qo‘mitasi va boshqa tashqi axborot tizimlari o‘rtasida avtomatlashtirilgan ma’lumot almashinuvi hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Ushbu integratsiya yo‘qligi natijasida hisobotlardagi tafovutlar, kechiktirilgan to‘lovlar, penya va jarima xarajatlari, shuningdek soliq bazasining yashirilishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bunday muammolarning moliyaviy ko‘lamini aniq raqamlar bilan baholash va ularni bartaraf etishning amaliy raqamli mexanizmlarini ishlab chiqish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Farg‘ona viloyati budjet tashkilotlari misolida davlat moliyaviy nazorati jarayonida axborot tizimlari integratsiyasining yo‘qligi sabab yuzaga kelayotgan moliyaviy yo‘qotishlarni empirik ma’lumotlar asosida miqdoriy baholash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan raqamli va tashkiliy mexanizmlarni ilmiy asoslash va xalqaro tajriba bilan qiyoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati hamda budjet tizimida ichki auditni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari, shuningdek, mazkur sohada yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish masalalari xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan. Xususan, L. Doe, S. Pattanayak, A. Narcisa, E. Hlaciuc, A. Zaiceanu, V. Munteanua, D. Zahariab, R. D. Koning, N. V. Milyakov, A. P. Zudilin, F. N. Axmedov, V. I. Samaruxa, I. V. Derevsova, S. Ye. Prokofyev, M. V. Melnik, A. S. Panteleev, A. L. Zvezdin, N. Yu. Isakova, Yu. A. Dolgix, A. G. Lachixina, S. O. Shoxin, N. S. Matveeva, S. A. Sannikov, S. Ye. Platonova, V. S. Lopatnikov, V. V. Mizinseva hamda V. V. Filippova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqotlarda moliyaviy nazoratning nazariy va metodologik jihatlari, davlat moliyasini boshqarish tizimida nazorat mexanizmlarining funksional ahamiyati, shuningdek, budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatini

samarali tashkil etish va uning natijadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan [5–12].

Davlat moliyaviy nazorati va budjet tizimida ichki auditni rivojlantirish masalalari mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida ham muhim tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘lgan. Jumladan, A. Vaxobov, T. Malikov, N. Xaydarov, P. Jalilov, Z. Srojiddinova, M. To‘laxo‘jayeva, M. Ostonaqulov, A. Ibragimov, B. Sug‘irbayev, I. Azizova, S. Mehmonov, M. Temirov, Sh. Qurbonov va B. Yuldashevlarning ilmiy ishlarida davlat moliyaviy nazorati va budjet tizimining nazariy asoslari, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ustidan nazoratni tashkil etish mexanizmlari hamda ichki audit tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarda davlat moliyaviy nazoratining institutsional asoslarini rivojlantirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va nazorat jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar ilgari surilgan [13–15].

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar va tadqiqot natijalarining tahlili O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati va audit tizimini shakllantirish hamda rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar turli konseptual yondashuvlar asosida rivojlanganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, davlat moliyaviy nazorati va ichki audit faoliyatini yagona tizimli yondashuv asosida muvofiqlashtirish, ularning o‘zaro funksional chegaralarini belgilash hamda natijadorligini kompleks baholash imkonini beruvchi yaxlit ilmiy-uslubiy va tashkiliy modelning yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi.

Xususan, mavjud tadqiqotlarda davlat moliyaviy nazorati va auditning alohida jihatlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, ularni o‘zaro integratsiyalashgan holda, takroriy nazorat amaliyotlarini kamaytirish, nazorat resurslaridan oqilona foydalanish va budjet mablag‘larining samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan tashkil etish masalalari yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Mazkur holat davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimining zamonaviy institutsional, tashkiliy hamda metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan, mazkur yo‘nalishda kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash va budjet nazorati samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg‘ona viloyatidagi budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazorati va audit jarayonlari, xususan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hamda Farg‘ona viloyati Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (DMNI) faoliyati tanlab olindi. Tadqiqot predmeti — budjet xarajatlarini davlat moliyaviy nazorati orqali takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir.

Tadqiqotda quyidagi ma’lumot manbalaridan foydalanildi: Hisob palatasining Farg‘ona viloyati mahalliy budjeti 2023 va 2025-yillar ijrosi bo‘yicha tashqi audit hisobotlari; Farg‘ona viloyati DMNI tomonidan 2023–2025-yillarda o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari; G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining 2024-yilgi masofaviy monitoring statistikasi; “UzASBO-2” dasturiy majmuasi va tegishli tashqi axborot tizimlari (CASS, “Hududgaz ta’minot” AJ tizimi, Soliq qo‘mitasining elektron hisobot tizimi) bo‘yicha texnik-tashkiliy tahlil natijalari.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi: (1) statistik tahlil — audit natijalarining vaqt oralig‘idagi dinamikasini (2020–2025) baholash uchun; (2) qiyosiy tahlil — aniqlangan muammolarning har biri bo‘yicha amaldagi va taklif etilayotgan jarayonlarni solishtirish uchun; (3) guruhlash usuli — moliyaviy yo‘qotishlarni turlari (penya, yashirin soliq bazasi, hisobot tafovutlari, kirim qilinmagan aktivlar, manbasiz xarajatlar) bo‘yicha tasniflash uchun; (4) case-study (holat tahlili) usuli — Farg‘ona viloyati misolida aniqlangan har bir muammoning moliyaviy ko‘lamini hisoblab chiqish uchun; (5) xalqaro qiyosiy tahlil — Janubiy Koreya, Fransiya, Avstraliya, Gruziya, Qozog‘iston va Buyuk Britaniya tajribalari bilan solishtirish uchun.

Tadqiqot 2020–2025-yillarni qamrab oladi, asosiy miqdoriy hisob-kitoblar esa 2023–2025-yillar davri (so‘nggi audit tsikli) bo‘yicha amalga oshirilgan. Moliyaviy samara hisob-kitoblari rasmiy audit hisobotlarida qayd etilgan aniq summalarga asoslanib, taklif etilayotgan raqamli yechim joriy etilgan taqdirda bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar sifatida baholandi.

Tahlil va natijalar

Farg‘ona viloyati budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazorati tizimining amaldagi holatini tahlil qilish natijasida axborot tizimlari integratsiyasining yo‘qligi bilan bog‘liq beshta asosiy muammo va ularning miqdoriy ko‘lami aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

Farg‘ona viloyatida aniqlangan muammolar va ularning moliyaviy ko‘lami*

№	Muammo	Moliyaviy ko‘lami (yiliga)	Taklif etilgan raqamli yechim
1	Elektr energiya va tabiiy gaz xarajatlari qog‘oz hisobvaraq-fakturalar asosida qo‘lda hisoblanadi	≈24 922,3 mln so‘m	“UzASBO-2”ni CASS va “Hududgaz ta’minot” tizimlari bilan real vaqt integratsiyasi
2	Tovar-xizmatlar realizatsiyasi bo‘yicha hisobvaraq-fakturalar Uzasbo-2 va soliq organlarida alohida yuritiladi	41,3 mlrd so‘m (yashirin baza) + 4,85 mlrd so‘m (hisoblanmagan soliq)	Uzasbo-2 ichida “Realizatsiya moduli” va Soliq qo‘mitasi bilan API integratsiyasi
3	JShODS va ijtimoiy soliq hisobotlari qo‘lda tayyorlanadi	5 538,1 mln so‘m (penya)	Har bir xodim bo‘yicha avtomatik soliq hisoboti generatsiyasi
4	Musodara qilingan mol-mulk balansdan tashqari schyotlarga avtomatik kirim qilinmaydi	57 000,0 mln so‘m (“ko‘rinmas aktiv”)	Musodara mol-mulk hisobi uchun yangi modul (kelib chiqish hujjati bilan majburiy bog‘lash)
5	“E-Kengash”/“E-Qaror” va DMBAT tizimlari bir-biridan ajratilgan	378,7 mlrd so‘m (manbasiz xarajatlar)	“E-Kengash”/“E-Qaror”ni DMBAT bilan avtomatik integratsiyasi

*Manba: Hisob palatasi va Farg‘ona viloyati DMNI audit hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan. [16]

Funksional-uslubiy takomillashtirish natijalari

Elektr energiya va tabiiy gaz xarajatlari bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki, penya summasi 2023-yildagi 1 113,6 mln so‘mdan 2025-yilga 1 887,4 mln so‘mga, ya’ni taxminan 69 foizga oshgan. “UzASBO-2” dasturiy majmuasini elektron hisoblagichlar asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar bilan integratsiya qilish ushbu o‘sish tendensiyasini to‘xtatib, penya xarajatlarini deyarli bartaraf etish imkonini beradi.

Soliq bazasi integratsiyasi bo‘yicha natijalar shuni ko‘rsatadiki, eng katta soliq turi (JShODS — 1 853,1 mlrd so‘m, viloyat budjet daromadlarining qariyb yarmi) bo‘yicha hisob-hisobot jarayonida hatto 1 foizlik yaxshilanish ≈18,5 mlrd so‘m qo‘shimcha budjet resursini anglatadi. Bu “UzASBO-2” va soliq tizimi o‘rtasidagi to‘liq avtomatik integratsiyaning potensial samarasi naqadar katta ekanligini ko‘rsatadi.

JShODS va ijtimoiy soliq hisobotlari bo‘yicha 588 ta tashkilot va korxonada 2 303,2 mln so‘m penya hisoblangan, 571 ta tashkilot tomonidan 3 234,9 mln so‘m penya to‘lab berilgan (2-

jadval).

2-jadval.

Avtomatlashtirish natijasida bartaraf etiladigan moliyaviy yo‘qotishlar (JShODS va ijtimoiy soliq bo‘yicha, Farg‘ona viloyati)*

Ko‘rsatkich	Qiymati
Penya hisoblangan (588 ta korxona)	2 303,2 mln so‘m
Penya to‘lab berilgan (571 ta tashkilot)	3 234,9 mln so‘m
Qaytarilmagan ortiqcha to‘lov (90 ta tashkilot)	450,7 mln so‘m
Hisoblanmagan JShODS (126 ta korxona)	352 mln so‘m

*Manba: Farg‘ona viloyati Davlat soliq boshqarmasi va Hisob palatasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan. [16]

Musodara qilingan tovar-moddiy boyliklar bo‘yicha tahlil “UzASBO-2” tizimida bunday aktivlarning o‘ziga xos hayot siklini (kelib chiqish hujjati → vaqtinchalik saqlash → baholash → yakuniy taqdir → tushumni budjetga yo‘naltirish) qamrab oluvchi maxsus modul mavjud emasligini ko‘rsatdi. Natijada Farg‘ona viloyati audit xulosasida hujjat asosida qabul qilingan, biroq balansga kirim qilinmagan 57 000,0 mln so‘mlik aktivlar aniqlandi — bu “ko‘rinmas aktiv” muammosi deb nomlangan.

Tashkiliy takomillashtirish natijalari

Davlat moliyaviy nazorati tizimidagi tuzilmalar o‘rtasidagi funksional takrorlanishlarni tahlil qilish natijasida moliyaviy inspeksiya, tashqi audit va ichki audit o‘rtasida maqsad, faoliyat qamrovi va bo‘ysunuv bo‘yicha katta farqlar mavjudligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval.

Davlat moliyaviy nazorati tizimidagi funksiyalarning qiyosiy tavsifi*

Ko‘rsatkich	Moliyaviy nazorat (inspeksiya)	Tashqi audit	Ichki audit
Maqsadi	Qonunbuzilishni aniqlash va jazolash	Faoliyat samaradorligi va xarajatlar qonuniyligini baholash	Tashkilot maqsadlariga erishishga ko‘maklashish, ichki nazoratni yaxshilash
Bo‘ysunuvi	Bosh prokuratura (2024-yildan)	Prezident va Oliy Majlis	Tashkilot birinchi rahbari
Faoliyat qamrovi	Tekshirilayotgan tashkilot	Davlat organlari, tarmoqlar, hududlar	Tashkil etilgan vazirlik/idora

*Manba:muallif ishlanmasi.

Farg‘ona viloyati DMNI tomonidan 2023–2025-yillarda o‘tkazilgan nazorat tadbirlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, nazorat tadbirlari soni deyarli barqaror qolgan holda (648 dan 647 taga), moliyaviy xatoliklar aniqlangan obyektlar soni 251 tadan 536 taga, ya’ni 2,1 baravar ortgan; tiklangan mablag‘lar esa 11 783,6 mln so‘mdan 65 229,4 mln so‘mga, ya’ni 5,5 baravar oshgan. Bu tendensiya nazorat tizimida tizimli xarakter kasb etgan muammolar mavjudligini va xavflarni aniqlash tizimini chuqurroq rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi bo‘yicha 2024-yil davomida masofaviy monitoring asosida jami 1 466 ta xato va kamchilik (24 810,97 mln so‘m) aniqlangan bo‘lib, ulardan 83,5 foizi avtomatik (masofaviy) rejimda, faqat 16,5 foizi xodimlarning bevosita ishtirokida aniqlangan. Bu masofaviy, texnologiyaga asoslangan nazorat usullarining an’anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Tashkiliy tahlil natijasida davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining Bosh prokuratura

tarkibida joylashtirilishi xalqaro amaliyotdan farq qilishi, ichki audit tuzilmalarini rivojlantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi alohida markaz mavjud emasligi hamda moliyaviy huquqbuzarliklarning yagona tasnifi ishlab chiqilmaganligi aniqlandi. Ushbu uchta muammoni bartaraf etish bo‘yicha tegishli institutsional takliflar ishlab chiqildi: inspeksiyani Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuriga qaytarish; Rossiya, Ruminiya, Turkiya, Qozog‘iston va Bolgariya tajribasiga asoslangan ichki audit rivojlantirish markazini tashkil etish; moliyaviy huquqbuzarliklarning yagona tasnifini yaratish.

Sun’iy intellektga asoslangan monitoring imkoniyatlari

2025-yil davomida faqat respublika budjeti bo‘yicha 21 846 ta o‘zgarish amalga oshirilgan, 2025-yilda 1 664 765 ta shartnoma va 2 325 949 ta to‘lov topshiriqnomasi ro‘yxatga olingan. Bunday ko‘lamdagi operatsiyalarni an’anaviy, qo‘lda yoki tanlanma (sampling) usulida to‘liq tekshirish amaliy jihatdan imkonsiz. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu holat “AI budget control” — tenderlar, kontraktlar va to‘lovlarni to‘liq qamrovda real vaqtda tahlil qiluvchi tizim; “AI-based Reporting Validator” — hisobotlardagi arifmetik, mantiqiy va matnli xatolarni NLP texnologiyasi orqali aniqlovchi tizim; hamda “Predictive budgeting” — kassa uzilishlarini oldindan prognozlovchi tizim — joriy etilishini obyektiv zarurat sifatida asoslaydi.

Olingan natijalar davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirishda axborot tizimlari integratsiyasining hal qiluvchi rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Farg‘ona viloyati misolida aniqlangan yo‘qotishlarning umumiy ko‘lami — energiya resurslari bo‘yicha ≈24,9 mlrd so‘m, soliq bazasi bo‘yicha ≈46,2 mlrd so‘m, JShODS penyalari bo‘yicha ≈5,5 mlrd so‘m, musodara aktivlari bo‘yicha 57,0 mlrd so‘m va manbasiz xarajatlar bo‘yicha 378,7 mlrd so‘m, jami taxminan 512 mlrd so‘mga yaqin — bitta viloyat, bir yil doirasida integratsiya yo‘qligi narxi qanchalik yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Respublika miqyosida ekstrapolyatsiya qilinganda bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshishi mumkin, biroq bu holat alohida tadqiqotni talab qiladi.

Xalqaro tajriba bilan qiyoslash natijalari shuni ko‘rsatadiki, Janubiy Koreyaning dBrain+ tizimi (63 ta axborot tizimi bilan integratsiya) [17], Fransiyaning munitsipal moliyaviy risklarni AI orqali oldindan aniqlash tizimi [18] va Avstraliyaning siyosat ta’sirini modellashtiruvchi AI vositalari barchasi bitta umumiy tamoyilga asoslanadi — turli manbalardan kelayotgan moliyaviy ma’lumotlarni yagona raqamli makonda birlashtirish. Ushbu tamoyil O‘zbekiston uchun ham universal yechim sifatida qo‘llanilishi mumkin, chunki mavjud DMBAT va “UzASBO-2” infratuzilmasi zarur ma’lumotlar bazasini allaqachon shakllantirgan, biroq bu ma’lumotlar hali nazorat maqsadida to‘liq ishlatilmayapti.

Tashkiliy jihatdan, tadqiqot natijalari xalqaro amaliyotda keng tarqalgan yondashuvni — moliyaviy inspeksiya funksiyasini markazlashgan tartibda (moliya vazirligi tizimida), ichki auditni esa nomarkazlashgan asosda tashkil etishni — tasdiqlaydi. Bu, ayniqsa, Gruziya, Fransiya, Qozog‘iston va Buyuk Britaniya tajribalarini qiyosiy tahlil qilish natijalariga mos keladi: moliyaviy inspeksiya funksiyasi Fransiyada markazlashgan, Gruziyada nomarkazlashgan tarzda tashkil etilgan bo‘lsa, Qozog‘iston va Buyuk Britaniyada bu funksiya alohida mavjud emas.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: birinchidan, hisob-kitoblar faqat Farg‘ona viloyati ma’lumotlariga asoslangan bo‘lib, respublika miqyosidagi umumlashtirish uchun qo‘shimcha tadqiqot talab etiladi; ikkinchidan, taklif etilayotgan raqamli yechimlarning amaliy samaradorligi ularni pilot loyiha sifatida joriy etgandan so‘ng qo‘shimcha baholashni talab qiladi; uchinchidan, musodara qilingan mol-mulk moduli bo‘yicha to‘liq miqdoriy baho berish uchun Bojxona qo‘mitasi, Soliq qo‘mitasi va Majburiy ijro byurosining tegishli statistik ma’lumotlarini jalb etish zarur.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi lozim:

1) “UzASBO-2” dasturiy majmuasini elektr energiya va tabiiy gazni hisobga oluvchi avtomatlashtirilgan tizimlar bilan real vaqt rejimida integratsiya qilish va buxgalteriya o‘tkazmalarini avtomatik tarzda berish (Dt 710000, … Kt 341900; Kod: Mos xarajatlar moddasi), bu Farg‘ona viloyati misolida yiliga ≈24,9 mlrd so‘mlik moliyaviy samara beradi;

2) davlat tashkilotlarining tovar-xizmatlar realizatsiyasi bo‘yicha hisobvaraq-fakturalarni “UzASBO-2”da avtomatik shakllantirish va Soliq qo‘mitasi bilan API orqali bog‘lash va buxgalteriya o‘tkazmalarini avtomatik tarzda berish (Pullik xizmatlar hisoblandi (Dt 151900, Kt 520340…; Kod: 4821190), Mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasi (Dt 151200, Kt 911200; Kod: 4821190)), bu yashirin soliq bazasi va hisoblanmagan soliq holatlarining oldini oladi;

3) JShODS va ijtimoiy soliq hisobotlarini buxgalteriya o‘tkazmalarini avtomatik tarzda berish (Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar hisoblandi (Dt 710000, …, Kt 343400; Kod: Mos xarajatlar moddasi), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ushlandi Dt 343400, Kt 342100 hamda JBPT ga badal ushlandi Dt 342100, Kt 342300, Ish haqidan xodimning arizasiga asosan ushlanmalar ushlandi Dt 343400, Kt 343900) orqali har bir xodim bo‘yicha avtomatik generatsiya qilish, bu yiliga 5,5 mlrd so‘mdan ortiq penya xarajatlarini butunlay bartaraf etadi;

4) musodara qilingan tovar-moddiy boyliklar uchun to‘liq hisobni ta’minlovchi yangi modulni joriy etish va buxgalteriya o‘tkazmalari orqali (Dt 02, 08,…; Kt 02, 08,…) buxgalteriya balansida aks ettirish, bu “ko‘rinmas aktiv” muammosining oldini oladi;

5) “E-Kengash”/“E-Qaror” dasturlarini DMBAT bilan integratsiya qilish, bu manbasiz xarajatlarning oldini oladi;

6) UzASBO-2 hamda my.bsa.uz (Boshqaruv samaradorligi agentligi) dasturiy majmualarini o‘zaro integratsiya qilish va buxgalteriya o‘tkazmalarini avtomatik tarzda berish (Dt 710000, … Kt 343400; Kod 41 11 100, 41 11 210, 41 11 230 …) – ishchi-xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash hamda ortiqcha to‘lovlarni oldini olish imkoniyatini yaratadi;

7) davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va ichki audit funksiyalarini institutsional jihatdan ajratish, inspeksiyani markazlashgan (moliya vazirligi tizimida), ichki auditni esa nomarkazlashgan asosda tashkil etish;

8) “AI budget control”, “AI-based Reporting Validator” va “Predictive budgeting” kabi sun’iy intellektga asoslangan monitoring vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish.

Ushbu yo‘nalishlarning kompleks tarzda joriy etilishi davlat moliyaviy nazorati tizimini an’anaviy, kamchiliklarni keyinchalik aniqlashga qaratilgan inspeksiya modelidan zamonaviy, profilaktik va xavflarga asoslangan raqamli boshqaruv modeliga o‘tkazish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning boshqa hududlarida ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Corruption Perceptions Index 2025. Transparency International. URL: https://www.transparency.org/en/news/cpi-2025-findings-insights-corruption (murojaat sanasi: 2026-yil yanvar).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi PF-252-son “Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/7926706.

3. IMF. Artificial Intelligence as Public Financial Management Infrastructure. PFM Blog, 2025. URL: https://blog-pfm.imf.org.

4. OECD. Governing with Artificial Intelligence. OECD Publishing, 2025. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/06/governing-with-artificial-intelligence_398fa287/795de142-en.pdf.

5. Lubin Doe, Pattanayak Sailendra Financial control in african countries. Public Financial Management Technical Guidance Note February 2008, 4.

6. Munteanua V., Zahariab D. Current Trends in Internal Audit. 5th World Conference on Educational Sciences 2013, ScienceDirect, Procedia - Social and Behavioral Sciences 116 (2014) 2239 - 2242.

7. Koning Robert. Public internal financial control. 2007.

8. Самаруха В.И., Деревсова И.В. Государственный финансовый контроль в российской федерации Учебное пособие Иркутск Издательство БГУ 2018 8-стр.

9. Миляков Н.В. Финансы учебник Москва ИНФРА М 2004 г.

10. Зудилин А.П., Ахмедов Ф.Н. Финансовый контроль Учеб. Пособие Москва Издательство Российского университета дружбы народов 2000 г.

11. Прокофьев С.Е. Новации в сфере государственного финансового контроля, осуществляемого казначейством россии Финансы и кредит 10 (634) - 2015 3-стр.

12. Мелник М.В., Пантелеев А.С., Звездин А.Л. Ревизия и контроль учебного пособия Москва ИД ФБК-ПРЕСС 2003 23.

13. Vaxobov A., Malikov T. “Moliya” (darslik), Noshir, 2011.

14. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. “Budjet–soliq siyosati” (o‘quv qo‘llanma), Iqtisod-moliya, 2011.

15. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. “Budjet nazorati va auditi” (o‘quv qo‘llanma), infoCOM.UZ, 2010.

16. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. Farg‘ona viloyati mahalliy budjeti 2023 va 2025-yillar ijrosi bo‘yicha tashqi audit hisoboti.

17. Ministry of Economy and Finance, Republic of Korea. (2023). dBrain+ AI-Integrated Fiscal Management System. Seoul.

18. European Commission. (2021). Public Internal Financial Control (PIFC) Guidelines. Brussels.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

AVTOMATLASHTIRISH DAVRIDA AYOLLARNING MEHNAT BOZORIDAGI TRANSFORMATSIYASI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O’ZBEKISTONNING 2030-YILGACHA IMKONIYATLARI

Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi



iqtisodiyot va menejment kafedrasi o’qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: shahzoda_xasanova@tsuos.uz
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali, mehnat iqtisodiyoti va strategik menejment kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sshakhzoda@yahoo.com
ORCID: 0009-0000-4452-0073

Annotatsiya. *Maqolada avtomatlashtirish sharoitida ayollarning mehnat bozoridagi o’rniga oid global tendensiyalar Makkinzi Global Instituti (2019) ma’lumotlari asosida, O’zbekistonning 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi doirasidagi chora-tadbirlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Vazifaga asoslangan texnologik o’zgarish nazariyasiga tayanib, global va milliy darajadagi o’rtasidagi mosliklar va tafovutlar aniqlanadi.*

Kalit so’zlar: *avtomatlashtirish, mehnat bozori transformatsiyasi, gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, raqamli ko’nikmalar, 2030-yilgacha strategiya.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ ПОЛОЖЕНИЯ ЖЕНЩИН НА РЫНКЕ ТРУДА В ЭПОХУ АВТОМАТИЗАЦИИ: ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА ДО 2030 ГОДА

Хасанова Шахзода Сарвар кизи

преподаватель кафедры экономика и менеджмент
Ташкентский государственный университет востоковедения
E-mail: shahzoda_xasanova@tsuos.uz
ORCID: 0009-0000-4452-0073
Ташкентский филиал Российского экономического университета имени Г.В. Плеханова
соискатель кафедры экономика труда и стратегический менеджмент
E-mail: sshakhzoda@yahoo.com
ORCID: 0009-0000-4452-0073

Аннотация. *В статье на основе данных Global Institute McKinsey (2019) проводится сопоставительный анализ глобальных тенденций положения женщин на рынке труда в условиях автоматизации с мерами, предусмотренными Стратегией достижения гендерного равенства в Узбекистане до 2030 года. Опираясь на теорию технологических изменений на основе задач, выявляются соответствия и разрывы между глобальными и национальными приоритетами (инвестициями в навыки, инфраструктурой ухода и доступом к технологиям).*

Ключевые слова: *автоматизация, трансформация рынка труда, гендерное равенство, женское предпринимательство, цифровые навыки, стратегия до 2030 года.*

WOMEN’S LABOR MARKET TRANSFORMATION IN THE AGE OF AUTOMATION: GLOBAL TRENDS AND UZBEKISTAN’S OPPORTUNITIES TOWARD 2030

Khasanova Shakhzoda Sarvar kizi
Tashkent State University of Oriental Studies
Lecturer, Department of Economics and Management
E-mail: shahzoda_xasanova@tsuos.uz
Tashkent Branch of the Plekhanov
Russian University of EconomicsExternal
Doctoral Candidate, Department
of Labor Economics and Strategic Management
E-mail: sshakhzoda@yahoo.com
ORCID: 0009-0000-4452-0073

Abstract. *Drawing on McKinsey Global Institute (2019) data, the article compares global trends in women’s labor market position under automation with the measures set out in Uzbekistan’s Strategy for Achieving Gender Equality until 2030. Applying task-based technological change theory, it identifies alignments and gaps between global and national priorities: skills investment, care infrastructure, and access to technology.*

Keywords: *automation, labor market transformation, gender equality, women’s entrepreneurship, digital skills, strategy toward 2030.*

Kirish

Ish o’rinlarining tarkibi so’nggi o’n yillikda texnologik omillar hisobiga tezlashgan sur’atda qayta shakllanmoqda. Makkinzi Global Instituti 2019-yilda e’lon qilgan hisobotga ko’ra, 2030-yilga borib dunyoda 40 milliondan 160 milliongacha ayol boshqa kasb turiga o’tishga majbur bo’lishi mumkin bu hozirgi bandlikning 7 dan 24 foizigacha qismini tashkil qiladi va ko’pincha yuqoriroq malaka talab qiluvchi yo’nalishlarga siljishni bildiradi. Xuddi shunday jarayon erkaklarni ham chetlab o’tmaydi: ularda bu ko’rsatkich 8 dan 28 foizgacha, ya’ni 60 dan 275 milliongacha kishini qamrab oladi. Farq shundaki, ayollar bu o’tishni qanchalik uddalay olsa, bandlikdagi ulushini o’sha darajada saqlab qolish imkoniga ega bo’ladi; aks holda mehnat bozoridagi mavjud tengsizlik yanada kengayishi mumkin [1].

Bu jarayon O’zbekiston uchun ham chetda qolmaydi: 2021-yilda tasdiqlangan 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi aynan shunday tuzilmaviy siljish davrida ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan hujjat sifatida qabul qilingan [4]. Shu sababli mazkur maqolada ikki qatlamli masala ko’tariladi: birinchidan, avtomatlashtirish ayollarning mehnat bozoridagi o’rniga qanday ta’sir ko’rsatishi global miqyosda qanday baholanmoqda; ikkinchidan, O’zbekiston strategiyasidagi chora-tadbirlar shu tendensiyalarga qay darajada javob beradi.

Avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta’sirini tushuntirishda D. Acemoglu va P. Restrepo ishlab chiqqan vazifaga asoslangan yondashuv qo’l keladi [2]. Bu yondashuvga ko’ra, texnologik o’zgarish ikki qarama-qarshi jarayonni bir vaqtda ishga tushiradi: bir tarafda takrorlanuvchi operatsiyalarga asoslangan ish o’rinlari siqilib chiqadi, boshqa tarafda esa yangi texnologik vazifalar atrofida ilgari mavjud bo’lmagan kasblar paydo bo’ladi. Muammo shundaki, erkaklar va ayollar iqtisodiyotning turli tarmoq va lavozimlarida bir xil taqsimlanmagan, shu bois ikkala jarayon ham ularga bir xil kuch va shaklda ta’sir qilmaydi.

Adabiyotlar sharhi

Avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta’sirini tushuntirishda D. Acemoglu va P. Restrepo ishlab chiqqan vazifaga asoslangan yondashuv qo’l keladi [2]. Bu yondashuvga ko’ra, texnologik o’zgarish ikki qarama-qarshi jarayonni bir vaqtda ishga tushiradi: bir tarafda takrorlanuvchi

operatsiyalarga asoslangan ish o’rinlari siqilib chiqadi, boshqa tarafda esa yangi texnologik vazifalar atrofida ilgari mavjud bo’lmagan kasblar paydo bo’ladi. Muammo shundaki, erkaklar va ayollar iqtisodiyotning turli tarmoq va lavozimlarida bir xil taqsimlanmagan, shu bois ikkala jarayon ham ularga bir xil kuch va shaklda ta’sir qilmaydi.

Vazifaga asoslangan nazariy asos empirik ma’lumotlar bilan to’ldiriladi. Makkinzi Global Instituti (2019) o’n mamlakat kesimida avtomatlashtirishning ayollar bandligiga ta’sirini miqdoriy baholagan yirik tadqiqot hisoblanadi va mazkur maqolaning asosiy global ma’lumot manbai bo’lib xizmat qiladi [1]. BMTTDning O’zbekistondagi ayollar tadbirkorligi bo’yicha 2025-yilgi so’rovnomasi milliy darajadagi amaliy qiyinchiliklarni, xususan ish va oila mas’uliyati o’rtasidagi muvozanatni, ko’rsatib beradi [6]. Jahon banki har yili e’lon qiladigan “Women, Business and the Law” hisoboti esa ayollarning iqtisodiy faoliyatiga oid huquqiy-me’yoriy muhitni kuzatib boradi va tadqiqotga qo’shimcha normativ fon yaratadi [7]. Uch manba birgalikda nazariy, statistik va huquqiy o’lchamlarni qamrab oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot sifat tavsifiga ega qiyosiy tahlil sifatida qurilgan va ikkilamchi manbalar ustida olib borilgan. Global qatlamda Makkinzi Global Institutining 2019-yilgi hisoboti, milliy qatlamda esa O’zbekiston Respublikasining tegishli qonuni va Senat qarorlari [3, 4, 5], shuningdek gender.stat.uz portali ma’lumotlari ishlatildi. Ikki qatlamni bog’lash uchun Acemoglu va Restreponing vazifaga asoslangan texnologik o’zgarish nazariyasi tahliliy asos sifatida qo’llanildi: bu nazariya avtomatlashtirishning ish o’rinlarini yo’qotish va yangi vazifa yaratish jarayonlarini bir vaqtda hisobga olish imkonini beradi.

Qiyoslash ko’nikmalarga sarmoya, g’amxo’rlik infratuzilmasi va texnologiyaga kirish bilan rahbarlik ulushi kabi uch yo’nalish kesimida amalga oshirildi: har bir yo’nalish bo’yicha Makkinzi hisobotidagi global ko’rsatkichlar O’zbekiston strategiyasidagi tegishli chora-tadbirlar bilan solishtirildi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, milliy dasturlarning bir qismi, jumladan STEM laboratoriyalari va “Step to PhD” dasturi bo’yicha ochiq qamrov statistikasi mavjud emas, shu sababli ularning real ta’sirini miqdoriy baholash imkoni hozircha cheklangan.

Tahlil va natijalar

Makkinzi tahlilchilari olti rivojlangan (Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh) va to’rtta rivojlanayotgan (Xitoy, Hindiston, Meksika, Janubiy Afrika) iqtisodiyot misolida hisob-kitob o’tkazgan. Natijaga ko’ra, 2030-yilgacha ayollarning ish vaqti hajmining o’rtacha beshdan biri, aniqrog’i 107 million ish o’rniga teng qismi, avtomatlashtirish tufayli yo’qolishi mumkin; erkaklarda bu ko’rsatkich 163 million ish o’rni, ya’ni 21 foizni tashkil etadi. Ayni paytda yangi texnologiyalar hisobiga ochiladigan lavozimlar ham katta: ayollar uchun 171 million (joriy bandlikning 20 foizi), erkaklar uchun 250 million (19 foizi) qo’shimcha ish o’rni yaratilishi mumkin. Raqamlarning umumiy hajmi deyarli tenglashsa-da, ularning ichki tarkibi bir-biridan tubdan farq qiladi [1].

Yo‘qotilishi kutilayotgan lavozimlar tarkibi gender kesimida sezilarli farqlarga ega. Xususan, ayollar bandligida xizmat ko‘rsatish, ma’muriy yordam va kotibiyat vazifalari asosiy qisqarish manbai sifatida namoyon bo‘lib, ushbu toifa ayollar orasida yo‘qotiladigan ish o‘rinlarining yarmidan ko‘prog‘ini, ya’ni 52 foizini tashkil etadi. Bu holat aynan takrorlanuvchi va standartlashtirilgan ma’muriy vazifalarning avtomatlashtirish hamda raqamlashtirish ta’siriga nisbatan yuqori darajada sezgir ekanini ko‘rsatadi. Erkaklar bandligida esa mashina operatorligi, ishlab chiqarish bilan bog‘liq texnik vazifalar va hunarmandchilik kasblari asosiy yo‘qotish manbai bo‘lib, ularning umumiy ulushi 40 foizga yetadi.

Yangi yaratiladigan ish o‘rinlari tarkibida esa mutlaqo boshqa tendensiya kuzatiladi. Ayollar uchun eng katta bandlik o‘sishi sog‘liqni saqlash sohasida qayd etilib, uning ulushi 25 foizni tashkil etsa, erkaklar uchun yangi imkoniyatlarning eng katta qismi sanoat ishlab chiqarishi hissasiga to‘g‘ri kelib, bu ko‘rsatkich ham 25 foiz darajasida shakllanadi [1]. Mazkur tendensiyalar

mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar nafaqat kasblar kesimida, balki gender nuqtayi nazaridan ham turlicha kechayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli kelgusida bandlik siyosatini shakllantirishda ayollar va erkaklar uchun alohida qayta tayyorlash, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda yuqori talabga ega bo‘lgan yangi kasblarga moslashtirish dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kerakli malaka darajasi ham mamlakat rivojlanish bosqichiga qarab boshqacha shakllanadi. Rivojlangan iqtisodiyotlarda oliy va undan yuqori ma’lumotga ega ayollarga talab ortadi, biroq faqat o’rta maxsus ta’limga tayangan lavozimlar soni sezilarli qisqaradi.

1-jadval

Raqamli transformatsiya ta’sirida ayollar va erkaklarning mehnat bozoridagi o‘zgarishi: global prognoz (2030-yilgacha)*

Ko’rsatkich (2030-yilgacha)	Ayollar	Erkaklar
Kasb turini almashtirishi mumkin bo’lganlar ulushi	7–24% (40–160 mln)	8–28% (60–275 mln)
Avtomatlashtirish hisobiga yo’qoladigan ish vaqti ulushi	20% (107 mln)	21% (163 mln)
Yangi ish o’rinlari hisobiga yaratiladigan imkoniyat	20% (171 mln)	19% (250 mln)
Eng katta yo’qotish tarmog’i	Xizmat ko’rsatish (52%)	Mashina operatorligi (40%)
Eng katta o’sish tarmog’i	Sog’liqni saqlash (25%)	Sanoat (25%)

*Manba: Muallif tomonidan bajarilgan

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda esa manzara boshqacha: o’rta ta’lim darajasidagi malakaga ehtiyoj keskin oshadi, shu bilan birga oliy va o’rta maxsus ta’limga bo’lgan talab ham pasaymay, aksincha ko’tariladi. Ish haqi bo’yicha ham shunga o’xshash ikkilanish kuzatiladi: rivojlangan mamlakatlarda yuqori maoshli o’tishlar o’rtacha 4 foiz qo’shimcha daromad bersa, o’rta va past maoshli o’tishlarda mos ravishda 11 va 7 foizlik yo’qotish xavfi bor. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda esa vaziyat aksincha: barcha maosh toifalarida, yuqorida 8, o’rtada 10, pastda 7 foizgacha, ijobiy o’sish kutiladi. Bu O’zbekiston singari mamlakatlar uchun texnologik o’tish jarayoni, agar to’g’ri boshqarilsa, ish haqi nuqtai nazaridan foydaga aylanishi mumkinligini ko’rsatadi [1].

Tadqiqotchilar uchta amaliy yo’nalishni ustuvor deb belgilaydi: birinchisi, ayollarni zamonaviy ko’nikmalar bilan qurollantiruvchi o’quv dasturlariga mablag’ yo’naltirish; ikkinchisi, pullik mehnat bilan uy xo’jaligi majburiyatlarini muvozanatlashtirishga xizmat qiluvchi infratuzilmani rivojlantirish; uchinchisi, ayollarning texnologik vositalardan foydalanish ko’nikmasini, shuningdek texnologiya sohasidagi ish o’rinlari va rahbarlik lavozimlaridagi ulushini kengaytirish [1].

O’zbekistonning milliy chora-tadbirlari

Milliy darajada gender tengligi masalasi ikkita asosiy hujjatga tayanadi: 2019-yil 2-sentyabrda kuchga kirgan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida"gi Qonun (O’RQ-562-son) [3] va 2021-yil 28-mayda Senat tomonidan ma’qullangan 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi (SQ-297-IV-son) [4]. Ushbu strategiyaning o’ziga xosligi shundaki, u bir marta tasdiqlanib qolgan hujjat emas: har yil uchun alohida amalga oshirish dasturi qabul qilinadi, jumladan 2025-yilga mo’ljallangan chora-tadbirlar dasturi shu yilning 18-martida SQ-102-V-son Senat qarori bilan kuchga kiritilgan [5]. Hujjat Barqaror rivojlanish maqsadlarining beshinchi bandiga (gender tenglikka) muvofiq to’qqizta yo’nalishni

qamrab oladi va ayollarning siyosat, iqtisodiyot hamda jamiyat boshqaruvidagi qaror qabul qilish jarayonlariga to’liq jalb etilishini nazarda tutadi.

Amaliyotda bu strategiya bir necha institutsional tuzilma orqali ishlaydi: Senat qoshidagi Ayollar va gender tenglik qo’mitasi, Ayollar tadbirkorligi markazi, zo’ravonlikdan jabr ko’rganlarni reabilitatsiya qilish respublika markazi va “Oila” ilmiy-tadqiqot markazi. Avtomatlashtirish kontekstida ayniqsa e’tiborli tomoni: qizlar va ayollarni texnika yo’nalishlariga jalb qiluvchi STEM laboratoriyalarining ochilishi, ilmiy martaba qurishga yordam beruvchi "Step to PhD" dasturi va "Future: Community of Scientific Girls" tashabbusi. Bunga qo’shimcha, 2017-yildan boshlab universitetlarda farzand parvarishi bilan ta’limni birga olib borish imkonini beruvchi bo’limlar ham faoliyat yuritmoqda. Bu chora-tadbirlarning natijaviyligi gender.stat.uz portalida joriy etilgan 54 ta qo’shimcha ko’rsatkich orqali kuzatilmoqda [8].

Raqamlar ham ijobiy manzarani tasdiqlaydi: 2024-yilda mamlakatda faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar soni 2,1 million kishiga yetgan, bu 2020-yilgi ko’rsatkichdan yetti barobar yuqori. Ayollarga qaratilgan tijorat bank kreditlari hajmi shu davrda 4,9 trillion so’mdan 16,8 trillion so’mgacha o’sgan, "Oilaviy tadbirkorlik" dasturi doirasidagi loyihalar soni esa 4615 tadan 188 minggacha ko’paygan [8]. Biroq Senat o’z monitoringida kamchiliklarni ham qayd etgan: zo’ravonlik sodir etganlarni qayta tarbiyalash dasturlari to’liq bajarilmagan, Milliy kadrlar zaxirasidan davlat korxonalari kuzatuv kengashlariga ayollarning jalb qilinishi esa hamon past darajada qolmoqda [5]. Bu holat rahbarlik pog’onasidagi nomutanosiblik hali bartaraf etilmaganidan darak beradi

Global va milliy tendensiyalarning qiyosiy tahlili

Ikki darajadagi, global va milliy, ma’lumotlarni yonma-yon qo’yish qiziqarli mosliklar va nomosliklarni ochadi. Makkinzi hisobotida ayollar uchun eng zaif nuqta xizmat ko’rsatish va kotibiyat sohasi sifatida ko’rsatilgan bo’lsa, O’zbekistonda ayol tadbirkorlarning asosiy qismi savdo va qishloq xo’jaligida jamlangan: bular unumdorligi past, biroq avtomatlashtirish nuqtai nazaridan hozircha birinchi galdagi nishon hisoblanmaydigan tarmoqlar. Xavf boshqa yoqda: ayollarning iqtisodiy faoliyati aynan shu past unumdorlikdagi bo’shliqda qotib qolishi mumkin, holbuki dunyo miqyosida o’sish salohiyati sog’liqni saqlash va texnologik xizmatlar kabi yo’nalishlarga siljimoqda.

STEM laboratoriyalari va "Step to PhD" singari dasturlar Makkinzi ta’kidlagan birinchi ustuvorlik, ya’ni ko’nikmalarga sarmoya, bilan bevosita ohangdosh. Ammo bu dasturlarning qanchalik keng qamrovga ega ekani haqida ochiq statistika yetishmaydi, natijada ularning real ta’sirini baholash qiyinlashadi. Ikkinchi ustuvorlik, ya’ni g’amxo’rlik va pullik mehnat o’rtasidagi muvozanat uchun infratuzilma, BMTTDning 2025-yilgi so’rovnomasida chiqqan xulosa bilan to’g’ridan-to’g’ri kesishadi: unda ishtirok etgan ayol tadbirkorlarning deyarli yarmi, 48 foizi, ish va oila mas’uliyatini muvozanatlashtirishni eng jiddiy muammo sifatida ko’rsatgan [6]. Ikki mustaqil manbaning aynan shu nuqtaga kelib to’xtashi g’amxo’rlik infratuzilmasi masalasining naqadar ustuvor ekanini tasdiqlaydi. Uchinchi yo’nalish, texnologiyaga kirish va rahbarlik ulushi, faqat qisman qamrab olingan: texnik ko’nikmalarga sarmoya kiritilsa-da, Senatning o’z hisobotida tan olinganidek [5], ayollarning davlat korxonalari boshqaruviga kirib borishi hamon cheklangan. Demak, texnik tayyorgarlikning o’zi rahbarlik tafovutini bartaraf etish uchun yetarli emas.

Xulosa

Tahlil yakunida shuni aytish mumkin: O’zbekistonning 2030-yilgacha gender strategiyasi avtomatlashtirish davri talab qilayotgan yo’nalishlarning bir qismini, xususan ta’lim va ko’nikma tarkibini, allaqachon qamrab olgan. Biroq bu chora-tadbirlarning o’lchanadigan natijaga aylanishi, shuningdek tadbirkorlik va rahbarlik siyosati bilan bog’lanishi hali yetarli emas.

Shundan kelib chiqib, quyidagi yo’nalishlar taklif etiladi. Birinchidan, gender.stat.uz tizimidagi 54 ta ko’rsatkich qatoriga ayollarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ishtiroki va raqamli savodxonlik darajasini aks ettiruvchi yangi indikatorlar kiritilishi

kerak. Ikkinchidan, Ayollar tadbirkorligi markazining qo’llab-quvvatlash yo’nalishi savdo va qishloq xo’jaligidan tashqariga, sog’liqni saqlash xizmatlari va texnologik yechimlar kabi yuqori qiymat yaratuvchi sohalarga, kengaytirilishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, STEM laboratoriyalari va "Step to PhD" dasturi o’lchanadigan qamrov ko’rsatkichlari bilan ta’minlanishi, shuningdek Milliy kadrlar zaxirasi orqali rahbarlik lavozimlariga chiqish yo’li bilan bog’lanishi lozim. Va nihoyat, davlat mablag’lari hisobidan bolalar va keksalarga g’amxo’rlik infratuzilmasini kengaytirish, global va milliy tadqiqotlarning ikkalasida ham eng izchil takrorlangan tavsiya sifatida, ustuvor chora bo’lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McKinsey Global Institute. The Future of Women at Work: Transitions in the Age of Automation. – 2019.

2. Acemoglu D., Restrepo P. The Race between Man and Machine: Implications of Technology for Growth, Factor Shares, and Employment // American Economic Review. – 2018. – Vol. 108, No. 6. – P. 1488–1542.

3. O’zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida"gi Qonuni, 2019-yil 2-sentyabr, O’RQ-562-son.

4. O’zbekiston Respublikasi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son qarori. 2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida.

5. O’zbekiston Respublikasi Senatining 2025-yil 18-martdagi SQ-102-V-son qarori. 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to’g’risida.

6. UNDP. Women’s Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and Recommendations. Tashkent, 2025.

7. World Bank. Women, Business and the Law 2024. – Washington, D.C., 2024.

8. O’zbekiston Respublikasi hukumat portali (gov.uz). Uzbekistan’s Strategy for Achieving Gender Equality. – kirish sanasi: 2026-yil sentyabr.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА УЗОҚ МУДДАТЛИ АКТИВЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ МОЛИЯЛАШТИРИШ МАНБАЛАРИ



Abdullaeva Nilufar Javdat qizi

Тошкент давлат иқтисодиёт университети доценти в.б
E-mail:abdullayeva9383.gmail.com@mail.ru
ORCID:0000-0001-7456-7403

Аннотация. *Ушбу мақолада бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активларни шакллантириш, харид қилиш, модернизациялаш, реконструкция қилиш ва капитал таъмирлаш билан боғлиқ молиялаштириш манбалари тадқиқ этилган. Давлат бюджети маблағлари, бюджетдан ташқари жамғармалар, ҳомийлик ва хайрия маблағлари, грантлар, мақсадли тушумлар ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбаларнинг иқтисодий мазмуни ва ўзига хос хусусиятлари ёритилган. Узоқ муддатли активларни молиялаштириш жараёнида маблағлардан мақсадли, самарали ва оқилона фойдаланиш, уларнинг бухгалтерия ҳисобида тўғри акс эттирилиши ҳамда молиявий ҳисоботларда ишончли очиб берилиши масалалари таҳлил қилинган. Шунингдек, молиялаштириш манбалари бўйича таҳлилий ҳисобни такомиллаштириш, ички назоратни кучайтириш ва рақамли мониторинг тизимларидан фойдаланиш юзасидан илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқилган. Тадқиқот натижалари бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активларни бошқариш самарадорлигини ошириш, молиявий шаффофликни таъминлаш ва давлат маблағларидан фойдаланиш устидан назоратни кучайтиришга хизмат қилади.*

Калит сўзлар: *Бюджет ташкилоти, узоқ муддатли активлар, асосий воситалар, номоддий активлар, капитал қўйилмалар, молиялаштириш манбалари, давлат бюджети маблағлари, бюджетдан ташқари маблағлар, грантлар, ҳомийлик маблағлари, мақсадли тушумлар, бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисобот, ички назорат, рақамли мониторинг, маблағлардан самарали фойдаланиш.*

ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ДОЛГОСРОЧНЫМИ АКТИВАМИ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Нилуфар Жавдат кизи Абдуллаева

Ташкентский государственный экономический университет
и. о. доцента
E-mail: abdullayeva9383.gmail.com@mail.ru
ORCID: 0000-0001-7456-7403

Аннотация. *В данной статье исследованы источники финансирования, связанные с формированием, приобретением, модернизацией, реконструкцией и капитальным ремонтом долгосрочных активов в бюджетных организациях. Раскрыты экономическое содержание и специфические особенности средств государственного бюджета, внебюджетных фондов, спонсорских и благотворительных средств, грантов, целевых поступлений, а также других источников, не запрещённых законодательством. Проанализированы вопросы целевого, эффективного и рационального использования средств в процессе финансирования долгосрочных активов, их правильного отражения в бухгалтерском учёте и достоверного раскрытия в финансовой отчётности. Кроме того, разработаны научно-практические предложения по совершенствованию аналитического учёта в разрезе источников финансирования, усилению внутреннего контроля и*

применению систем цифрового мониторинга. Результаты исследования способствуют повышению эффективности управления долгосрочными активами в бюджетных организациях, обеспечению финансовой прозрачности и усилению контроля за использованием государственных средств.

Ключевые слова: *Бюджетная организация, долгосрочные активы, основные средства, нематериальные активы, капитальные вложения, источники финансирования, средства государственного бюджета, внебюджетные средства, гранты, спонсорские средства, целевые поступления, бухгалтерский учёт, финансовая отчётность, внутренний контроль, цифровой мониторинг, эффективное использование средств.*

SOURCES OF FINANCING RELATED TO LONG-TERM ASSETS INBUDGETARY ORGANIZATIONS

Nilufar Javdat qizi Abdullaeva

Tashkent State University
of Economics, Acting Associate Professor
E-mail: abdullayeva9383.gmail.com@mail.ru
ORCID: 0000-0001-7456-7403

Abstract. *This article examines the sources of financing associated with the formation, acquisition, modernization, reconstruction, and major repair of long-term assets in budgetary organizations. It explains the economic substance and specific features of state budget funds, extra-budgetary funds, sponsorship and charitable contributions, grants, earmarked receipts, and other sources not prohibited by law. The study analyzes the targeted, efficient, and prudent use of funds in financing long-term assets, their proper recognition in accounting records, and their reliable disclosure in financial statements. The article also develops scientific and practical proposals for improving analytical accounting by source of financing, strengthening internal control, and using digital monitoring systems. The findings contribute to more effective management of long-term assets in budgetary organizations, greater financial transparency, and stronger oversight of the use of public funds.*

Keywords: *Budgetary organization, long-term assets, fixed assets, intangible assets, capital investments, sources of financing, state budget funds, extra-budgetary funds, grants, sponsorship funds, earmarked receipts, accounting, financial reporting, internal control, digital monitoring, efficient use of funds.*

Кириш

Бюджет ташкилотларининг самарали фаолият юритишида узоқ муддатли активлар билан таъминланганлик даражаси ва улардан оқилона фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Узоқ муддатли активларни харид қилиш, янгилаш, модернизациялаш ва капитал таъмирлаш давлат бюджети, бюджетдан ташқари маблағлар, грантлар, ҳомийлик маблағлари ҳамда бошқа қонуний манбалар ҳисобидан молиялаштирилади. Мазкур молиялаштириш манбаларини тўғри шакллантириш, ҳисобга олиш ва самарали бошқариш бюджет маблағларидан мақсадли фойдаланиш ҳамда молиявий шаффофликни таъминлашга хизмат қилади.

Адабиётлар шарҳи

Иқтисодий адабиётларда бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активларни шакллантириш ва улар билан боғлиқ харажатларни молиялаштириш масалалари давлат инвестицияларини бошқариш, бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш ҳамда номолиявий активлар ҳисобини ташкил этиш нуқтаи назаридан тадқиқ этилган.

Хорижий иқтисодчилар А. Ражарам, Т.М. Ле, Н. Билецка ва Ж. Брамби давлат инвестицияларини бошқаришни лойиҳани дастлабки баҳолаш, бюджетга киритиш,

молиялаштириш, амалга ошириш ва фойдаланиш натижаларини назорат қилишдан иборат яхлит жараён сифатида кўриб, капитал активларга йўналтириладиган маблағларни стратегик устуворликлар ва бюджет имкониятлари билан мувофиқлаштириш зарурлигини таъкидлаганлар [1].

Уларнинг ёндашувига кўра, узоқ муддатли активларни молиялаштириш фақат уларни харид қилиш харажатларини қоплаш билан чекланмасдан, балки лойиҳалаш, қуриш, фойдаланиш, таъмирлаш ва янгилаш босқичларини ҳам қамраб олиши лозим.

Мамлакатимиз иқтисодчиси С.У. Меҳмонов бюджет ташкилотларида асосий воситалар ҳисобининг муҳим хусусияти уларни маблағлар манбалари бўйича алоҳида ҳисобга олишдан иборатлигини таъкидлаган. Олим бюджет маблағлари, тўлов-контракт тушумлари, бюджет ташкилотини ривожлантириш жамғармаси ва бошқа бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан олинган асосий воситалар ҳамда улар бўйича ҳисобланган эскиришни алоҳида аналитик счётларда акс эттиришни таклиф қилган [2].

Ушбу таклиф ҳар бир молиялаштириш манбаси ҳисобидан шаклланган активлар ҳаракатини назорат қилиш, маблағларнинг мақсадли сарфланишини баҳолаш ва молиявий ҳисоботларнинг ахборот имкониятларини кенгайтиришга хизмат қилади.

Таҳлил ва натижалар

Ўзбекистонда бюджет ташкилотларининг узоқ муддатли активларини молиялаштириш амалиётини 2020–2024 йиллар кесимида таҳлил қилиш мазкур активларни шакллантириш ва янгилашда давлат бюджети доирасида икки асосий канал устувор аҳамиятга эга эканини кўрсатади: капитал қўйилмалар ва асосий воситалар бўйича харажатлар.

Бюджет кодексининг 44-моддасига мувофиқ, бюджет ташкилотларининг ривожлантириш жамғармаси ва бошқа бюджетдан ташқари жамғармалари ҳам қўшимча молиялаштириш манбаи сифатида мавжуд. Бироқ очиқ ижро маълумотларида узоқ муддатли активларга дахлдор, йиллар кесимида ўзаро таққослаш мумкин бўлган асосий кўрсаткичлар айнан капитал қўйилмалар ҳамда асосий воситаларга сарфланган харажатлар орқали намоён бўлади [3].

Таҳлил натижаларига кўра, 2020 йилда ушбу икки манба бўйича жами молиялаштириш 18 442,7 млрд сўмни ташкил этган бўлса, 2021 йилда у 23 404,8 млрд сўмгача ёки 26,9 фоизга ошган. 2022 йилда жами ҳажм 19 222,0 млрд сўмга тушган, 2023 йилда эса 15 876,0 млрд сўмгача қисқарган. 2024 йилда молиялаштириш қайта тикланиб, 19 569,3 млрд сўмни ташкил этган ва 2023 йилга нисбатан 23,3 фоизга ўсган[4].

Мазкур динамика узоқ муддатли активларни молиялаштириш ҳажми доимий эмаслигини, у давлат инвестиция устуворликлари, қурилиш ва реконструкция дастурлари, шунингдек жиҳозлаш харажатларининг таркибий ўзгаришига боғлиқ равишда тебраниб боришини англатади.

Давр давомида молиялаштириш таркибида капитал қўйилмаларнинг етакчи ўрни сақланиб қолган. Унинг жами узоқ муддатли активлар билан боғлиқ харажатлардаги улуши 2020 йилда 77,9 фоизни, 2021 йилда 74,6 фоизни, 2022 йилда 72,8 фоизни, 2023 йилда 67,6 фоизни ва 2024 йилда 74,2 фоизни ташкил этган.

Бу ҳолат бюджет ташкилотларини узоқ муддатли активлар билан таъминлашда тайёр ускуна ва жиҳозларни оддий харид қилишдан кўра, объектларни қуриш, реконструкция қилиш, модернизациялаш ва инфратузилмани ривожлантиришга қаратилган молиялаштириш шакли устувор бўлганини англатади[5].

Шу билан бирга, асосий воситалар бўйича харажатлар 2020–2024 йилларда 4 071,7 млрд сўмдан 5 057,1 млрд сўмгача ўсгани бюджет ташкилотларида жиҳозлаш, техника билан таъминлаш ва мавжуд активларни қисман янгилаш жараёни ҳам барқарор молиялаштирилганини кўрсатади.

Шу тариқа, Ўзбекистон амалиётида бюджет ташкилотларининг узоқ муддатли

активларини молиялаштиришнинг асосий манбалари сифатида давлат бюджети доирасидаги капитал қўйилмалар ва асосий воситаларга харажатлар майдонга чиқмоқда, бюджетдан ташқари жамғармалар эса қўшимча қўллаб-қувватловчи манба вазифасини бажаради.

2020–2024 йиллар динамикаси эса мазкур соҳада молиялаштириш ҳажми ўзгарувчан бўлган тақдирда ҳам капитал қўйилмаларнинг устувор ўрни сақланиб келганини тасдиқлайди.

1-жадвал.

Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари динамикаси, 2020–2024 йй[43]

Йил	Капитал қўйилмалар, млрд сўм	Асосий воситалар, млрд сўм	Жами, млрд сўм	Капитал улуши, %
2020	14 371.0	4 071.7	18 442.7	77.9
2021	17 455.4	5 949.4	23 404.8	74.6
2022	13 986.8	5 235.2	19 222.0	72.8
2023	10 730.5	5 145.5	15 876.0	67.6
2024	14 512.2	5 057.1	19 569.3	74.2

Демак, бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар сиёсати самарадорлигини баҳолашда умумий маблағ ҳажми билан бир қаторда, капитал қўйилмалар ва асосий воситалар харажатлари ўртасидаги нисбатни ҳам алоҳида таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.



1-расм. Капитал қўйилмалар ва асосий воситалар харажатлари динамикаси[44]

Диаграмма 2021 йилда молиялаштириш ҳажми юқори нуқтага чиққанини, 2022–2023 йилларда пасайиш кузатилганини ва 2024 йилда капитал қўйилмалар бўйича тикланиш юз берганини кўрсатади.

Жадвал маълумотларига кўра, жами молиялаштириш ҳажми 2020 йилда 18 442,7

[43] Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг “Фуқаролар учун бюджет: 2021, 2022, 2023 ва 2024 йил ижроси” материаллари асосида тайёрланди

[44] Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг “Фуқаролар учун бюджет: 2021, 2022, 2023 ва 2024 йил ижроси” материаллари асосида тайёрланди

млрд сўмни ташкил этган бўлса, 2021 йилда 23 484,8 млрд сўмгача ошиб, таҳлил давридаги энг юқори кўрсаткичга етган. Мазкур кўрсаткич 2022 йилда 19 222,0 млрд сўмга ва 2023 йилда 15 876,0 млрд сўмгача пасайган, 2024 йилда эса 19 569,3 млрд сўмгача қайта ўсган. Капитал қўйилмалар улуши 2020 йилдаги 77,9 фоиздан 2023 йилда 67,6 фоизгача изчил камайган, 2024 йилда эса 74,2 фоизгача кўтарилган.

Умуман, 2024 йилда жами молиялаштириш ҳажми ва капитал қўйилмалар улушининг ўсиши узоқ муддатли активларни янгилаш ҳамда ривожлантиришга йўналтирилган маблағлар фаоллашганини кўрсатади.



2-расм. Жами молиялаштириш ҳажми ва капитал қўйилмалар улуши[45]

Иккинчи диаграмма 2020–2024 йиллар давомида жами молиялаштириш ҳажми тебранишини, аммо капитал қўйилмаларнинг таркибий устуворлиги сақланиб қолганини аниқ намоён этади.

Хулоса

Тадқиқот натижалари бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активларни молиялаштиришда давлат бюджети доирасидаги капитал қўйилмалар ва асосий воситаларни харид қилиш харажатлари асосий манба эканлигини кўрсатди. 2020–2024 йилларда молиялаштириш ҳажми ўзгарувчан динамикага эга бўлиб, энг юқори кўрсаткич 2021 йилда 23 404,8 млрд сўмни ташкил этган, 2023 йилда 15 876,0 млрд сўмгача пасайган ва 2024 йилда 19 569,3 млрд сўмгача қайта ўсган. Капитал қўйилмалар улушининг 67,6–77,9 фоиз оралиғида шаклланганлиги бюджет ташкилотларида қурилиш, реконструкция, модернизация ва инфратузилмани ривожлантиришга устувор аҳамият берилганини тасдиқлайди.

Шу билан бирга, узоқ муддатли активларни молиялаштириш самарадорлигини фақат ажратилган маблағлар ҳажми билан баҳолаш етарли эмас. Бунда активларнинг техник ҳолати, хизмат муддати, фойдаланиш интенсивлиги, хизмат кўрсатиш салоҳияти, таъмирлаш харажатлари ва бир бирлик давлат хизматига тўғри келадиган активлар қийматини ҳам ҳисобга олиш зарур. Давлат бюджети, ривожлантириш жамғармаси, тўлов-контракт маблағлари, грантлар, ҳомийлик тушумлари ва бошқа манбалар ҳисобидан шаклланган активлар бўйича алоҳида аналитик ҳисоб юритилиши молиявий шаффофлик ва маблағлардан мақсадли фойдаланиш устидан назоратни кучайтиради.

[45] Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг “Фуқаролар учун бюджет: 2021, 2022, 2023 ва 2024 йил ижроси” материаллари асосида тайёрланди

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Келгусида узоқ муддатли активларни молиялаштиришни уларнинг бутун ҳаётий цикли билан боғлаш, ҳар бир молиялаштириш манбасининг натижадорлигини баҳолаш ҳамда электрон паспорт, QR-код ва рақамли мониторинг воситаларини жорий этиш мақсадга мувофиқ. Мазкур чоралар бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш, активларни ўз вақтида янгилаш, фойдаланилмаётган объектларни аниқлаш ва бюджет ташкилотларининг давлат хизматларини кўрсатиш салоҳиятини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Rajaram A., Le T.M., Biletska N., Brumby J. A Diagnostic Framework for Assessing Public Investment Management. World Bank Policy Research Working Paper, 2010.

2. Меҳмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш. DSc диссертацияси автореферати. Тошкент, 2018.

3. Хайдаров М.Т. Бюджет ташкилотларида асосий воситалар ва бошқа узоқ муддатли номолиявий активлар счётлари бўйича ҳисоб юритиш тартиби. «Иқтисод ва молия», 2015.

4. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси, 44-модда: бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари.

5. “Фуқаролар учун бюджет: 2021 йил ижроси”, Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва БМТТД, 2022.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАДЕЖНОСТИ АУДИТОРСКИХ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ ПРИ АУДИТЕ ДОЛГОСРОЧНЫХ АКТИВОВ

Худойкулова Дилора Дилмуродовна

докторант
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: xudoyqulovadilora5@gmail.com
ORCID:0009-0004-2851-7084

Аннотация. *Долгосрочные активы формируют значительную часть валюты баланса крупных компаний, однако в аудиторской практике традиционно относятся к зонам умеренного риска. Цель данной статьи — систематизировать требования Международных стандартов аудита (МСА) к сбору доказательств по долгосрочным активам, сопоставить их с выводами зарубежных и исследователей. По результатам исследования предложена трёхконтурная модель сбора доказательств, разделяющая процедуры подтверждения наличия, полноты и оценочных значений. Результаты применимы при разработке внутрифирменных методик аудита в странах, перешедших на МСА, включая Республику Узбекистан.*

Ключевые слова: *аудит, аудиторские доказательства, долгосрочные активы, основные средства, МСА 500, МСА 540, обесценение активов, качество аудита, аудиторские процедуры.*

UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR AUDITIDA AUDITORLIK DALILLARNING ISHONCHLILIGINI TA’MINLASH

Xudoyqulova Dilora Dilmurodovna

докторант
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
E-mail: xudoyqulovadilora5@gmail.com
ORCID:0009-0004-2851-7084

Annotatsiya. *Yirik kompaniyalar balansida uzoq muddatli aktivlar salmoqli ulushni tashkil etadi; biroq audit amaliyotida ular an'anaviy tarzda o‘rtacha xavf darajasiga ega sohalar sifatida tasniflanadi. Ushbu maqola uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha dalillarni to‘plashga oid Xalqaro audit standartlari (XAS) talablarini tizimlashtirish hamda ularni xalqaro tadqiqotchilarning xulosalari bilan taqqoslashni maqsad qilgan. Tadqiqot natijalari asosida dalillarni to‘plashning uch bosqichli modeli taklif etilgan bo‘lib, unda mavjudlik, to‘liqlik va baholash ko‘rsatkichlarini tekshirish tartib-taomillari o‘zaro farqlanadi. Mazkur xulosalar XASni qabul qilgan mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ichki audit uslubiyotlarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so’zlar: *audit, auditorlik dalillar, uzoq muddatli aktivlar, asosiy vositalar, AXS 500, AXS 540, aktivlar qadrsizlanishi, audit sifati, audit tartib-taomillari.*

ENSURING THE RELIABILITY OF AUDIT EVIDENCE IN THE AUDIT OF LONG-TERM ASSETS

Xudoyqulova Dilora Dilmurodovna

Doctoral Student
at Tashkent State University of Economics
E-mail: xudoyqulovadilora5@gmail.com
ORCID:0009-0004-2851-7084

Abstract. *Long-term assets form a significant part of the balance sheet of large companies, but in audit practice they are traditionally considered to be areas of moderate risk. The purpose of this article is to systematize the requirements of the International Auditing Standards (IAS) for gathering evidence regarding long-term assets and to compare them with the conclusions of foreign researchers. Based on the results of the study, a three-circuit model for gathering evidence is proposed, which separates the procedures for confirming the existence, completeness, and estimated values. The results are applicable in the development of internal audit methodologies in countries that have adopted IAS, including the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *audit evidence, long-term assets, property plant and equipment, ISA 500, ISA 540, impairment, audit quality, audit procedures.*

Введение

Долгосрочные (внеоборотные) активы объединяют основные средства, нематериальные активы, инвестиционную недвижимость, активы в форме права пользования и долгосрочные финансовые вложения. Их экономическая значимость подтверждается количественно: по выборке из 39 898 наблюдений американских публичных компаний за 2000–2015 гг. чистая стоимость основных средств составляла в среднем 24,2 % совокупных активов, а средняя степень их амортизации достигала 53 % [3]. Для капиталоёмких отраслей — добывающей промышленности, машиностроения — эта доля существенно выше, что делает раздел долгосрочных активов определяющим для достоверности финансовой отчётности в целом.

Также наблюдается противоречие, что при столь высокой материальности данный участок традиционно воспринимается как относительно простой для аудита: первоначальная стоимость подтверждается договорами и счетами, амортизация поддаётся пересчёту, а объекты проверяются физическим наблюдением. Именно эта кажущаяся простота неоднократно становилась причиной неправильных аудиторских заключений. Классические случаи WorldCom и Waste Management были основаны на неправомерной капитализации операционных расходов, завышении ликвидационной стоимости и произвольном продлении сроков полезной службы долгосрочных активов. В более поздних эпизодах компании Penn West Petroleum, Miller Energy Resources и Rio Tinto завысили стоимость долгосрочных активов соответственно на 164 млн, 500 млн и 3,7 млрд долл. США; по делу Miller Energy аудиторская фирма KPMG урегулировала претензии регулятора выплатой 6,2 млн долл. США [3].

Актуальность темы усиливается следующими обстоятельствами:

Нормативная база находится в стадии обновления: Совет по международным стандартам аудита и подтверждения достоверности информации (IAASB) в 2026 году вынес на публичное обсуждение проекты пересмотренных МСА 330, МСА 500 и МСА 520, предусматривающие новое определение аудиторских доказательств, отражающее цифровую среду, и усиленные требования к оценке уместности и надёжности используемой информации.

Также, надзорная статистика прямо указывает на рассматриваемый участок: в отчётах об инспекциях крупнейших фирм долгосрочные активы устойчиво фигурируют среди областей выявленных недостатков, а регулятор Великобритании по итогам обзора 2026 года отдельно отметил аудит обесценения внеоборотных активов как направление, требующее улучшения. Особенно, для стран, недавно перешедших на МСА, включая Республику Узбекистан, вопрос методического наполнения общих требований стандартов конкретными процедурами по участкам учёта особенно играет значимую роль.

Методология исследования

В данной статье для анализа научных исследований, нормативных документов и международных стандартов, касающихся сбора доказательств при аудите долгосрочных

активов, были использованы такие методы исследования, как сравнительный и статистический анализ, бенчмаркинг, научная абстракция, анализ и синтез.

Анализ и результаты

Институциональный контекст Республики Узбекистан задан постановлением Президента № ПП-3946 от 19 сентября 2018 года, в соответствии с которым с 1 января 2020 года аудиторская деятельность осуществляется на основе Международных стандартов аудита, и Законом «Об аудиторской деятельности» № ЗРУ-677 от 25 февраля 2021 года, унифицировавшим регулирование в едином нормативном акте и отнёсшим порядок признания МСА к компетенции Кабинета Министров.

Изучение МСА показывают, что в данной системе отсутствует специальный стандарт, отдельно посвящённый долгосрочным активам. МСА 501, детализирующий особенности получения доказательств по отдельным статьям, охватывает запасы, судебные разбирательства и претензии, а также сегментную информацию, основные средства и нематериальные активы в его предмет не входят. Показательно, что начатый IAASB в 2026 году проект пересмотра стандартов серии МСА 500 также ограничен запасами и внешними подтверждениями. Исходя из этого, требования к доказательствам по долгосрочным активам собираются аудитором из общих норм — прежде всего МСА 500, МСА 540 и МСА 620 — и конкретизируются на уровне внутрифирменной методологии.

Ниже приведен анализ МСА по сбору доказательств при аудите долгосрочных активов (таблица 1).

Таблица 1.

Анализ требований МСА по сбору доказательств при аудите долгосрочных активов*

Стандарт	Ключевое требование	Применение к долгосрочным активам
МСА 200	Разумная уверенность и профессиональный скептицизм	Критическая оценка допущений руководства о сроках полезной службы, ликвидационной стоимости и признаках обесценения; недопустимость опоры на прошлогодние выводы без переоценки
МСА 230	Документирование аудита	Фиксация результатов осмотра объектов, выборок по поступлению и выбытию, расчётов амортизации, оснований привлечения эксперта
МСА 315 (пересм. 2019)	Выявление и оценка рисков существенного искажения, понимание системы внутреннего контроля	Риски неправомерной капитализации текущих затрат, неотражения выбытия, устаревания активов; контроль за реестром основных средств и авторизацией капитальных вложений
МСА 330	Ответные действия на оценённые риски	Сочетание тестирования средств контроля и процедур по существу; обязательность процедур по существу в отношении существенных классов операций с активами
МСА 500	Достаточность и надлежащий характер доказательств; уместность и надёжность информации; использование информации, подготовленной экспертом руководства	Базовый стандарт участка: определяет иерархию источников, требует оценки точности и полноты данных реестра основных средств, используемых в качестве доказательств
МСА 501	Особенности по запасам, судебным делам, сегментам	Прямо не распространяется на долгосрочные активы — методический пробел, восполняемый внутрифирменными стандартами

Стандарт	Ключевое требование	Применение к долгосрочным активам
МСА 505	Внешние подтверждения	Подтверждение прав собственности, обременений и залогов, местонахождения активов у третьих лиц, условий договоров аренды
МСА 520	Аналитические процедуры	Анализ коэффициента износа, соотношения амортизации и первоначальной стоимости, динамики капитальных вложений в сопоставлении с производственными показателями
МСА 540 (пере	Аудит оценочных значений и раскрытий	Центральный стандарт для обесценения по IAS 36: проверка модели, допущений денежных потоков, ставки дисконтирования, ретроспективный обзор прошлых оценок
МСА 580	Письменные заявления	Подтверждение намерений в отношении использования, модернизации и выбытия активов, отсутствия необъявленных обременений
МСА 620	Использование работы эксперта аудитора	Привлечение оценщиков недвижимости, специализированного оборудования, месторождений; оценка их компетентности, объективности и применённых методов
МСА 450	Оценка выявленных искажений	Накопление и оценка искажений в части амортизации, капитализации, обесценения, включая их совокупный эффект
МСА 700 / 701	Формирование мнения и сообщение ключевых вопросов аудита	Обесценение активов — наиболее часто раскрываемая категория КВА, что требует описания выполненных процедур в аудиторском заключении

*Источник: составлено автором на основе текстов МСА и материалов IAASB.

Следующий результат касается иерархии надёжности доказательств. МСА 500 устанавливает, что надёжность информации зависит от её источника и характера, а также от обстоятельств получения. Применительно к долгосрочным активам эта общая норма преобразуется в устойчивую иерархию, представленную на рисунке 1. Существенно, что подтверждение наличия объекта — процедура верхнего уровня надёжности, тогда как доказательства в отношении оценочных значений (срок полезной службы, ставка дисконтирования, прогноз денежных потоков) по своей природе относятся к нижним уровням, поскольку исходят от руководства. Именно это формирует основной риск искажения информации в финансовой отчетности.

Рисунок 1.

Иерархия надёжности аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов



*Источник: составлено автором на основе МСА 500.

По результатам исследования мы предлагаем трёхконтурная модель сбора

доказательств на основе требований МСА (рисунок 2). Она разделяет процедуры не по объектам учёта, а по природе подтверждаемого утверждения: контур наличия и прав, контур полноты и первоначальной оценки, контур последующих оценочных значений. Каждый контур требует принципиально различного соотношения источников доказательств и различного объёма профессионального суждения, а потому и различных механизмов контроля качества внутри аудиторской группы. Также эта модель помогает сбору доказательств по предпосылкам указанным в МСА при аудите долгосрочных активов.

Рисунок 2.

Трёхконтурная модель сбора аудиторских доказательств по долгосрочным активам*



*Источник: разработано автором.

Из рисунка 2 видно, что для сбора надежных и достаточных аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов, необходимо оценить риски искажения информации и на основе оценённого риска спланировать и провести аудиторские процедуры. И для оценки качества аудита требуется оценка достаточности доказательств. Предложенные контуры в свою очередь обеспечивают сбор доказательств по предпосылкам. Предпосылки по которым аудитор обязуется собрать доказательства при аудите указаны в таблице 2.

Таблица 2.

Соответствие предпосылок, процедур и источников доказательств по долгосрочным активам*

Предпосылка	Аудиторские процедуры	Типичные доказательства	Уровень надёжности
Существование	Осмотр объектов; наблюдение за инвентаризацией; выборочная сверка реестра с физическим наличием и обратная сверка	Акты осмотра, инвентаризационные описи, фотофиксация и геоданные	Высокий (уровень 1)
Права и обязанности	Изучение правоустанавливающих документов; внешние подтверждения обременений;	Свидетельства о регистрации, договоры, выписки реестров,	Высокий (уровни 1–2)

Предпосылка	Аудиторские процедуры	Типичные доказательства	Уровень надёжности
	анализ договоров аренды	ответы третьих лиц	
Полнота	Тест капитализации против списания по выборке ремонтных и капитальных затрат; анализ проводок по счетам активов; сверка с планом капитальных вложений	Первичные документы, регистры, бюджеты капитальных вложений	Средний (уровни 2–3)
Точность и оценка (первоначальная)	Пересчёт первоначальной стоимости; проверка включения затрат, подлежащих капитализации; тест курсовых разниц и процентов	Договоры, счета, таможенные документы, расчёты	Средний (уровни 2–3)
Оценка (последующая)	Пересчёт амортизации; оценка обоснованности сроков полезной службы; тест на обесценение по IAS 36; проверка ставки дисконтирования; ретроспективный обзор	Расчёты и модели руководства, отчёты оценщиков, рыночные данные	Ограниченный (уровни 3–4)
Классификация и представление	Проверка разграничения основных средств, инвестиционной недвижимости и активов в форме права пользования; анализ раскрытий	Учётная политика, примечания к отчётности	Средний (уровень 3)
Намерения руководства	Запросы; получение письменных заявлений; сопоставление с решениями органов управления	Письменные заявления, протоколы	Низкий (уровень 5)

**Источник: составлено автором на основе МСА 315, 330, 500, 540, 620 и IAS 16, 36.*

Необходимо отметить, что при аудите долгосрочных активов внимание уделяется оценке риска, и надежности аудиторских доказательств. Мы изучили несколько научных работ зарубежных ученых по данной теме и систематизировали их в таблице 3.

Таблица 3.

Систематизация зарубежных исследований по сбору доказательств при аудите долгосрочных активов*

Авторы, год публикации	Метод, выборка	Основной результат	Значение для сбора доказательств
Zhang D., Amin K., Deis D., 2021	Регрессия аудиторских вознаграждений; 39 898 наблюдений, 2000–2015 гг.	Доля основных средств в активах отрицательно связана с вознаграждением; возраст активов и обесценение — положительно	Подтверждает недостаточность усилий на капиталоёмких клиентах; обосновывает индикаторы для планирования объёма процедур
Stein S., 2019	Архивное исследование оценочных значений	Клиенты отраслевых специалистов признают обесценение чаще, в большем объёме и своевременнее	Отраслевая экспертиза группы — фактор надёжности доказательств по обесценению
Gunn J., Khurana I., Stein S., 2018	Анализ обесценений в период финансового кризиса	Признание обесценения систематически запаздывает относительно ухудшения показателей	Требует проактивного поиска признаков обесценения, а не проверки расчётов, представленных руководством

Авторы, год публикации	Метод, выборка	Основной результат	Значение для сбора доказательств
Gonçalves C. и соавт., 2023	Анализ КВА по обесценению гудвила	Обесценение раскрывается как КВА вследствие сложности определения возмещаемой суммы и веса актива в балансе	Обосновывает расширенное документирование процедур по оценочным значениям
Richardson S. и соавт., 2005	Анализ надёжности начислений	Менее надёжные компоненты начислений обладают меньшей устойчивостью прибыли	Теоретическое основание для дифференциации доказательств по степени субъективности статьи
Bedard J., Johnstone K., 2004	Анализ планирования аудита	Риск манипулирования прибылью влияет на планирование и ценообразование	Связывает оценку риска с объёмом планируемых процедур
Hay D., Knechel R., Wong N., 2006	Метаанализ детерминант вознаграждения	Сложность и риск клиента — устойчивые детерминанты затрат труда аудитора	Методологическая рамка для интерпретации вознаграждения как прокси усилий
Audit Analytics, 2020	База свыше 40 000 КВА, 4 600 компаний	Обесценение и возмещаемость активов — самая частая категория КВА (около 24 % отчётов в 2019 г.)	Указывает на приоритетную область концентрации доказательственной базы

*Источник: составлено автором по [3-7, 9–11, 16].

Наиболее содержательные результаты по теме получены в работе Zhang, Amin и Deis. Авторы использовали аудиторское вознаграждение как индикатор трудозатрат и риска. Содержательная интерпретация такова: аудиторы дифференцируют риск не по величине статьи, а по наличию видимых событий — устаревания активов и признанного обесценения. Пока такие события отсутствует, значительная по объёму статья получает пониженное внимание. Авторы отмечают, что в отчётах об инспекциях PCAOB зафиксировано 82 случая, когда выявлялись недостатки процедур именно в отношении долгосрочных материальных активов, включая недостаточный объём выборок по поступлению и выбытию и отсутствие тестирования средств контроля за разграничением капитализируемых и текущих затрат [3].

Изучение исследований показывают, что материальность статьи не транслируется автоматически в объём аудиторских усилий: отрицательная связь капиталоёмкости с трудозатратами сочетается с положительной связью для устаревших и обесцененных активов. Это указывает на стимулирующую, а не на постоянную модель внимания. Такая модель привлекает внимание тем, что при отсутствии явных событий искажение может накапливаться годами, как в случаях неправомерной капитализации операционных расходов. Исходя из этого формируется вывод: индикаторы возраста активов, отношения амортизации к первоначальной стоимости и динамики капитальных вложений следует включать в обязательную аналитическую программу этапа планирования, а не использовать реактивно.

Контур наличия опирается на доказательства высшего уровня надёжности, контур оценочных значений — на информацию, исходящую от руководства и предпосылок. Исследования показывают, что эта информация систематически смещена в сторону запаздывающего признания обесценения. Отсюда следует, что усиление процедур в контуре А не компенсирует слабость контура В; напротив, именно контур В требует применения МСА 540 в полном объёме, включая ретроспективный обзор ранее сделанных

оценок, и — при необходимости — привлечения эксперта в порядке МСА 620. Указание FRC на обесценение внеоборотных активов как область улучшения даже у фирмы с наилучшими показателями также подтверждает этот вывод.

Заключение

Проведённое исследование позволяет сформулировать следующие выводы.

1. Требования к сбору доказательств по долгосрочным активам в системе МСА распределены между общими стандартами (МСА 315, 330, 500, 520, 540, 620), также отсутствует специальный стандарт посвященный данному участку.

2. Доказательства по долгосрочным активам распадаются на три контура, различающиеся по достижимому уровню надёжности: наличие и права, полнота и первоначальная оценка, последующие оценочные значения. Наибольший остаточный риск сосредоточен в третьем контуре.

3. Научные и эмпирические исследования подтверждают «противоречие низкого риска»: аудиторские усилия по капиталоёмким клиентам ниже ожидаемых и возрастают лишь при наличии видимых событий — устаревания активов и признанного обесценения.

По результатам изученного материала сформированы следующие практические рекомендации. Аудиторским организациям целесообразно разработать внутрифирменный стандарт по участку долгосрочных активов, структурированный по трём контурам, включить показатели возраста активов и интенсивности капитальных вложений в обязательный аналитический блок планирования, формализовать процедуру ретроспективного обзора оценочных значений и закрепить критерии привлечения эксперта-оценщика. Регуляторам стран, перешедших на МСА, включая Республику Узбекистан, — дополнить признание стандартов методическими руководствами по наиболее материальным участкам и обеспечить мониторинг качества доказательственной базы в разрезе разделов отчётности.

Литературы

1.Закон Республики Узбекистан от 25.02.2021 г. № ЗРУ-677 «Об аудиторской деятельности». URL: https://lex.uz/ru/docs/5307899

2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 19.09.2018 г. № ПП-3946 «О мерах по дальнейшему развитию аудиторской деятельности в Республике Узбекистан».

3. Международные стандарты аудита. https://www.audit-it.ru/terms/audit/

4. Zhang D., Amin K., Deis D. R. Audit Risk Associated with Long-lived Tangible Asset Intensity, Age, and Impairment // Journal of Forensic and Investigative Accounting. 2021. Vol. 13, Iss. 2. P. 333–348.

5. Stein S. E. Auditor Industry Specialization and Accounting Estimates: Evidence from Asset Impairments // Auditing: A Journal of Practice & Theory. 2019. Vol. 38, No. 2. P. 207–234. DOI: 10.2308/ajpt-52231

6. Gunn J. L., Khurana I. K., Stein S. E. Determinants and Consequences of Timely Asset Impairments during the Financial Crisis // Journal of Business Finance & Accounting. 2018. Vol. 45, No. 1–2. P. 3–39.

7. Richardson S. A., Sloan R. G., Soliman M. T., Tuna I. Accrual Reliability, Earnings Persistence and Stock Prices // Journal of Accounting and Economics. 2005. Vol. 39, No. 3. P. 437–485.

8. Bedard J. C., Johnstone K. M. Earnings Manipulation Risk, Corporate Governance Risk, and Auditors’ Planning and Pricing Decisions // The Accounting Review. 2004. Vol. 79, No. 2. P. 277–304.

9. Hay D., Knechel W. R., Wong N. Audit Fees: A Meta-analysis of the Effect of Supply and Demand Attributes // Contemporary Accounting Research. 2006. Vol. 23, No. 1. P. 141–191.

10. Gonçalves C., Ferreira L., Rebelo E., Fernandes J. Goodwill Impairment and Key Audit

Matters // Cogent Business & Management. 2023. Vol. 10, No. 2. DOI: 10.1080/23311975.2023.2207877

11. An Overview of KAMs – 2019 // Audit Analytics. URL: https://blog.auditanalytics.com/an-overview-of-kams-2019/

12. Proposed Revisions for Audit Evidence and Risk Response: ISA 330, ISA 500, ISA 520 / IAASB, 2026. URL: https://www.iaasb.org/publications/proposed-revisions-audit-evidence-risk-response-isa-330-isa-500-isa-520

13. PCAOB Posts Report Detailing Significant Improvements Across Largest Firms / PCAOB, 31.03.2025. URL: https://pcaobus.org/news-events/news-releases/news-release-detail/pcaob-posts-report-detailing-significant-improvements-across-largest-firms--alongside-inspection-results-in-record-time

14. Big Four Firms Show Significant Improvement in PCAOB Audit Inspection Results for 2025 // Thomson Reuters Tax & Accounting, 2026. URL: https://tax.thomsonreuters.com/news/big-four-firms-show-significant-improvement-in-pcaob-audit-inspection-results-for-2025/

15. PCAOB Inspection Reports of Largest Audit Firms Show Improvements // Accounting Today, 2026. URL: https://www.accountingtoday.com/news/pcaob-inspection-reports-of-largest-audit-firms-show-improvements

16. PCAOB 2025 Inspections: All Big Six Audit Firms Improve // Accounting Weekly, 2026. URL: https://www.accountingweekly.com/trending-news/pcaob-2025-inspections-all-big-six-audit-firms-improve

17. FRC Publishes Annual Tier 1 Audit Firm Inspection Results / Financial Reporting Council, 2024. URL: https://www.frc.org.uk/news-and-events/news/2024/07/frc-publishes-annual-tier-1-audit-firm-inspection-results/

18. Leveraging Artificial Intelligence in Audit Planning // The CPA Journal. 2026. URL: https://www.cpajournal.com/2026/08/19/leveraging-artificial-intelligence-in-audit-planning/

XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti mustaqil Izlanuvchisi
E-mail: umidjon.tuxtayev008@gmail.com
Orcid id: 0009-0009-2372-7644

Annotatsiya: *Maqolada xususiy tibbiy xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi iqtisodiy, tashkiliy va sifat omillari tizimli tadqiq etilgan. Xususiy tibbiyot tashkilotlarining raqobat ustunligini ta’minlashda tibbiy xizmat sifati, bemor uchun yaratiladigan qiymat, narx va sifat mutanosibligi, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, kadrlar salohiyati, akkreditatsiya va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvning ahamiyati asoslangan. O‘zbekistonda xususiy tibbiyot sektorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar tahlil qilinib, xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida sifat, iqtisodiy samaradorlik va bemor qoniqishini yagona raqobat mexanizmiga birlashtirishga asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *xususiy tibbiyot, tibbiy xizmatlar, raqobatbardoshlik, raqobat ustunligi, xizmat sifati, bemor qoniqishi, qiymatga asoslangan tibbiy xizmat, akkreditatsiya, innovatsiya, raqamli tibbiyot, investitsiya, tibbiy sug‘urta, iqtisodiy mexanizm.*

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЧАСТНЫХ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ

Тохтаев Умиджон Шухрат ўғли
Бухарский государственный университет, независимый исследователь
Электронная почта: umidjon.tuxtayev008@gmail.com
Orcid id: 0009-0009-2372-7644

Аннотация: *В статье системно исследованы экономические, организационные и качественные факторы, формирующие конкурентоспособность на рынке частных медицинских услуг. Обоснована роль качества медицинских услуг, создаваемой для пациента ценности, соотношения цены и качества, инновационных технологий, цифровизации, кадрового потенциала, аккредитации и управления, ориентированного на результат, в обеспечении конкурентных преимуществ частных медицинских организаций. Проанализированы институциональные реформы, реализуемые в Узбекистане в целях развития частного медицинского сектора, и систематизированы приоритетные направления повышения конкурентоспособности частных медицинских услуг. По результатам исследования разработаны предложения, основанные на интеграции качества, экономической эффективности и удовлетворенности пациентов в единый механизм обеспечения конкурентоспособности.*

Ключевые слова: *частная медицина, медицинские услуги, конкурентоспособность, конкурентное преимущество, качество услуг, удовлетворенность пациентов, медицинские услуги, ориентированные на ценность, аккредитация, инновации, цифровая медицина, инвестиции, медицинское страхование, экономический механизм.*

WAYS TO ENHANCE THE COMPETITIVENESS OF PRIVATE MEDICAL SERVICES

To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li
Independent Researcher,

Bukhara State University
E-mail: umidjon.tuxtayev008@gmail.com
Orcid id: 0009-0009-2372-7644

Abstract: *The article systematically examines the economic, organizational, and quality factors that shape competitiveness in the private healthcare services market. It substantiates the importance of healthcare service quality, patient value creation, price–quality balance, innovative technologies, digitalization, human resource capacity, accreditation, and outcome-oriented management in ensuring the competitive advantages of private healthcare organizations. The institutional reforms being implemented in Uzbekistan to develop the private healthcare sector are analyzed, and the priority areas for enhancing the competitiveness of private healthcare services are systematized. Based on the research findings, proposals are developed to integrate quality, economic efficiency, and patient satisfaction into a unified mechanism for ensuring competitiveness.*

Keywords: *private healthcare, healthcare services, competitiveness, competitive advantage, service quality, patient satisfaction, value-based healthcare services, accreditation, innovation, digital healthcare, investment, health insurance, economic mechanism.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tarkibiy jihatdan murakkablashib borishi tibbiy xizmatlar bozorida ham raqobat munosabatlarining mazmunan yangi bosqichga o‘tishiga olib kelmoqda. Agar an’anaviy sharoitda tibbiyot tashkilotining bozordagi mavqei asosan moddiy-texnik bazasi, shifokorlar malakasi va xizmat narxi bilan belgilangan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda raqobat ustunligining shakllanishi klinik natija, xizmat ko‘rsatish tezligi, bemor xavfsizligi, raqamli qulaylik, axborot shaffofligi, personallashtirilgan yondashuv va bemorning umumiy qoniqish darajasi kabi o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlarni qamrab olmoqda.

Xususiy tibbiy xizmatlarning o‘ziga xosligi shundaki, mazkur bozorda raqobatning natijasi faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaydi. Tibbiyot tashkilotining bozordagi ustunligi inson salomatligi bilan bog‘liq ijtimoiy natijalar, davolash samaradorligi va xavfsizlik ko‘rsatkichlari bilan bevosita uyg‘unlashadi. Shu sababli xususiy tibbiyotda raqobatbardoshlikni faqat xizmat narxini pasaytirish yoki xizmatlar turini ko‘paytirish orqali ta’minlash uzoq muddatli iqtisodiy natija bermaydi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti xususiy sektor aksariyat mamlakatlar sog‘liqni saqlash tizimlarida muhim o‘rin egallashini, uning ishtiroki bevosita tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bir qatorda dori vositalari, kadrlar tayyorlash, axborot texnologiyalari, infratuzilma va tibbiyot tashkilotlarini boshqarish xizmatlarini ham qamrab olishini ta’kidlaydi [1]. Bu holat xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan institutsional islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. 2017-yilda qabul qilingan sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirishga oid choralar xususiy klinikalar tomonidan ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan tibbiy xizmatlar doirasini sezilarli kengaytirdi [2].

Mazkur jarayon keyingi bosqichlarda xususiy tibbiyotning milliy sog‘liqni saqlash tizimidagi iqtisodiy mavqeini yanada mustahkamlash bilan davom etdi. 2025-yil yakunida mamlakatda tibbiy xizmatlarning 30 foizi xususiy sektor tomonidan ko‘rsatilayotgani qayd etilgan [3]. Bu, bir tomondan, xususiy tibbiyotning milliy xizmatlar bozorida mustaqil iqtisodiy segment sifatida shakllanganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, xususiy klinikalar o‘rtasida narxdan tashqari raqobat omillarining ahamiyati ortib borayotganligini anglatadi.

2026-yilda qabul qilingan xususiy tibbiyot sektorini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralari ushbu jarayonni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, investitsiya va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish, hududlarda xizmat sifati va qulayligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi [4].

Ayni paytda xususiy sektor miqdoriy jihatdan kengayishi avtomatik ravishda uning raqobatbardoshligi oshganligini anglatmaydi. Yangi bozor sharoiti xususiy tibbiyot tashkilotlaridan xizmat natijadorligi, klinik sifat, texnologik yangilanish, malakali kadrlarni saqlab qolish, bemor ishonchini mustahkamlash va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha yangi raqobat strategiyalarini talab etmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Tibbiy xizmatlar bozorida raqobat munosabatlarining nazariy asoslarini tadqiq etishda M. Porter va E. Teysberg tomonidan ishlab chiqilgan qiymatga asoslangan raqobat konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Olimlarning fikricha, sog‘liqni saqlash tizimida samarali raqobat xarajatlarni bir subyektdan ikkinchisiga o‘tkazish yoki faqat bozor ulushi uchun kurashish emas, balki bemor uchun yuqori qiymat yaratishga yo‘naltirilishi lozim [5].

M. Porter va E. Teysbergning keyingi tadqiqotlarida tibbiyot sohasidagi raqobat davolashning butun sikli davomida bemor uchun qiymat yaratishga asoslanishi lozimligi yanada keng asoslangan [6]. Bunday yondashuv xususiy klinika raqobatbardoshligini uning xizmatlari soni yoki narxi emas, balki klinik natija, bemorga sarflangan xarajat va xizmatdan olingan foydaning o‘zaro nisbati orqali baholash imkonini beradi.

P.A. Rivers va M.D. Glover tibbiy xizmatlar sohasida raqobat, xizmat sifati, xarajatlar va bemor qoniqishi o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etib, bemor qoniqishini raqobat muhiti natijadorligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich sifatida baholaydilar [7].

Empirik tadqiqotlarda tibbiy xizmatlar bozorida raqobat kuchayishi bemorlar tomonidan baholanadigan xizmat sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlangan [8]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti esa xususiy sektorni samarali boshqarilishi lozim bo‘lgan aralash sog‘liqni saqlash tizimining tarkibiy qismi sifatida baholaydi [9].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini klinik natija – iqtisodiy samaradorlik – xizmat sifati – bemor qoniqishi – innovatsion faollik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash qobiliyati sifatida talqin etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish, monografik tadqiqot, guruhlash hamda institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omillar ularning iqtisodiy mazmuni va natijaga ta’siri bo‘yicha guruhlandi. Shuningdek, xorijiy ilmiy yondashuvlar va O‘zbekistonda xususiy tibbiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar qiyosiy o‘rganildi. Tadqiqotda xususiy tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhitining shakllanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, institutsional, moliyaviy va texnologik omillar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Xizmatlar sifati, narx siyosati, zamonaviy tibbiy texnologiyalardan foydalanish, malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik, investitsion faollik hamda davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyoz va preferensiyalarning raqobatbardoshlikka ta’siri tizimli yondashuv asosida baholandi. Nazariy umumlashtirish va mantiqiy tahlil asosida xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishda davlat qo‘llab-quvvatlashi, investitsiyalarni rag‘batlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar sifatini yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlari asoslandi.

Tahlil va natijalar

Xususiy tibbiy xizmatlar bozorida raqobatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, iste’molchi

xizmatning haqiqiy sifatini uni xarid qilishdan oldin to‘liq baholash imkoniyatiga ega emas. Bemor ko‘p holatlarda tibbiy xizmatni tanlash jarayonida klinikaning obro‘si, shifokor malakasi, boshqa bemorlarning tajribasi, xizmat narxi, joylashuv qulayligi va axborot ochiqligiga tayanadi. Shu sababli mazkur bozorda ishonch iqtisodiy resurs xususiyatini kasb etadi.

Xususiy klinika uchun raqobat ustunligi faqat zamonaviy tibbiy jihozlarni xarid qilish hisobiga shakllanmaydi. Texnologik jihozlanish yuqori bo‘lgan sharoitda ham diagnostikadagi xatolar, bemorni qabul qilishda uzoq kutish, narxlarning noaniqligi, tibbiy ma’lumotlarning yo‘qolishi yoki personalning kommunikatsiya madaniyati pastligi xizmatning yakuniy qiymatini pasaytiradi. Demak, raqobatbardoshlik klinikaning alohida resurslari yig‘indisi emas, balki ularni bemor uchun natija yaratishga yo‘naltira oladigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligini ifodalaydi.

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning birinchi ustuvor yo‘nalishi xizmatlar sifatini natijaga asoslangan mezonlar bo‘yicha boshqarish hisoblanadi. Bunda xizmat sifatini faqat sanitariya talablari yoki bemor shikoyatlari soni orqali emas, balki qayta murojaatlar, asoratlar, davolash natijasi, bemor xavfsizligi, xizmatdan qoniqish va davolash sikli davomiyligi kabi ko‘rsatkichlar orqali baholash zarur.

Ikkinchi yo‘nalish – narx va sifat o‘rtasida iqtisodiy mutanosiblikni ta’minlash. Tibbiy xizmatlarda eng past narx har doim ham yuqori raqobatbardoshlikni anglatmaydi. Shuning uchun xususiy klinikalar narx raqobatidan ko‘ra bemor oladigan natijaga nisbatan optimal xarajatni ta’minlashga harakat qilishi lozim.

Uchinchi yo‘nalish – xususiy klinikalar faoliyatini raqamlashtirish. Onlayn qabul, elektron tibbiy karta, laboratoriya natijalarining mobil yetkazilishi, masofaviy konsultatsiya, elektron to‘lov, avtomatlashtirilgan navbat va bemor bilan davolashdan keyingi aloqa tizimlari tranzaksion xarajatlarni kamaytirib, xizmatdan foydalanish qulayligini oshiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish – tibbiy kadrlar salohiyatini raqobat ustunligiga aylantirish. Xususiy klinikada kadrlarni boshqarish siyosati faqat ish haqi bilan cheklanmasdan, uzluksiz malaka oshirish, ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish, klinik protokollarga rioya qilish va natijaga bog‘langan moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini qamrab olishi lozim.

Beshinchi yo‘nalish – ixtisoslashuv asosida bozor pozitsiyasini mustahkamlash. Muayyan kasallik yoki tibbiy yo‘nalish bo‘yicha yuqori kompetensiya shakllantirgan klinika bilim, tajriba va texnologiyalarni konsentratsiyalash hisobiga yuqori natijadorlikka erishishi mumkin [5; 6].

1-jadval

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari*

№	Ustuvor yo‘nalish	Amalga oshirish mexanizmi	Kutiladigan raqobat natijasi
1	Tibbiy xizmat sifatini oshirish	Klinik natijalar va bemor xavfsizligini KPI asosida baholash	Bemor ishonchining oshishi
2	Qiymatga asoslangan narx siyosati	Narxni davolash natijasi va resurs sarfi bilan muvofiqlashtirish	Narx–sifat mutanosibligi
3	Raqamli transformatsiya	Elektron karta, onlayn qabul, telemeditsina, CRM	Xizmat tezligi va qulayligining oshishi
4	Kadrlar salohiyati	Uzluksiz ta’lim va natijaga asoslangan motivatsiya	Klinik kompetensiyaning oshishi
5	Ixtisoslashuv	Muayyan xizmat yo‘nalishlarida kompetensiya markazlari	Barqaror bozor pozitsiyasi
6	Akkreditatsiya	Milliy va xalqaro sifat standartlarini joriy	Reputatsion

		etish	ustunlik
7	Innovatsion investitsiyalar	Yuqori texnologik uskunalar va zamonaviy davolash usullari	Texnologik ustunlik
8	Tibbiy sug‘urta	Davlat va xususiy sug‘urta mexanizmlariga integratsiya	Talab bazasining kengayishi
9	Bemorga yo‘naltirilgan boshqaruv	Qoniqish va tajribani muntazam baholash	Mijoz sodiqligining oshishi
10	Axborot shaffofligi	Narx, xizmat tarkibi va natijalarni ochiq taqdim etish	Axborot asimmetriyasining qisqarishi

*Manba: muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Oltinchi yo‘nalish – milliy va xalqaro akkreditatsiyadan raqobat signali sifatida foydalanish. Mustaqil akkreditatsiya klinika sifati haqida tashqi tasdiqlangan axborot vazifasini bajaradi va uning bozor qiymati hamda bemor ishonchini oshiradigan iqtisodiy instrumentga aylanadi.

Yettinchi yo‘nalish – investitsiya va innovatsion faollikni kuchaytirish. Xususiy tibbiy xizmatlar bozori kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan xizmatlar sohasi hisoblanadi. Diagnostika uskunalari, laboratoriya tizimlari va raqamli infratuzilma katta boshlang‘ich investitsiyalarni talab etadi.

Sakkizinchi yo‘nalish – davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlariga xususiy sektorni integratsiya qilish. Bunday sharoitda bemor uchun kurash narxni oshirish orqali emas, balki belgilangan moliyaviy resurs doirasida yuqori sifat va natijaga erishish orqali amalga oshishi mumkin.

Jadvaldan ko‘rinadiki, xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish alohida bir instrumentdan foydalanishga emas, balki o‘zaro bog‘liq iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni bir vaqtning o‘zida takomillashtirishga asoslanishi lozim. Bunda sifat markaziy element sifatida xizmat qilib, raqamlashtirish, investitsiya, kadrlar, akkreditatsiya va sug‘urta mexanizmlari uni ta’minlovchi vositalar sifatida ishtirok etadi.

2-jadval

Xususiy tibbiyot tashkiloti raqobatbardoshligini baholash ko‘rsatkichlari*

Yo‘nalish	**Asosiy ko‘rsatkichlar**	**Iqtisodiy mazmuni**
Klinik samaradorlik	Davolash natijasi, asoratlar, qayta murojaat	Xizmatning yakuniy natijadorligi
Sifat	Standartlarga muvofiqlik, akkreditatsiya	Barqaror sifat kafolati
Iqtisodiy samaradorlik	Bir bemorga xarajat, rentabellik	Resurslardan foydalanish samaradorligi
Bemor qoniqishi	Qoniqish indeksi, takroriy murojaat	Iste’molchi sodiqligi
Innovatsionlik	Yangi texnologiya va xizmatlar ulushi	Texnologik yangilanish qobiliyati
Raqamlashtirish	Elektron xizmatlar ulushi	Tranzaksion xarajatlarni qisqartirish
Kadrlar	Malaka darajasi, kadrlar qo‘nimsizligi	Inson kapitali barqarorligi
Bozor pozitsiyasi	Bemorlar soni, xizmatlar segmenti	Bozordagi raqobat mavqei

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan yondashuv xususiy klinikalarni faqat iqtisodiy natijalari bo‘yicha emas, balki bemor uchun yaratayotgan tibbiy-iqtisodiy qiymati bo‘yicha ham o‘zaro taqqoslash imkonini

beradi. Bunda raqobatbardosh klinika eng qimmat yoki eng arzon xizmat ko‘rsatuvchi subyekt emas, balki mavjud resurslar hisobiga bemor uchun barqaror yuqori natija yarata oladigan tashkilot sifatida namoyon bo‘ladi. Xususiy tibbiyotda bunday yondashuvning joriy etilishi bozordagi raqobat mazmunini ham o‘zgartiradi. Klinikalar bemorlarni reklama yoki narx chegirmalari orqali jalb qilishdan ko‘ra, davolash natijasi, xavfsizlik, servis va innovatsiyalar bo‘yicha ustunlik yaratishga intiladi. Natijada raqobat tibbiy xizmatlar sifatini uzluksiz yaxshilash mexanizmiga aylanadi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligi ko‘p omilli iqtisodiy kategoriya ekanligini ko‘rsatdi. Uning shakllanishi klinik xizmat sifati, bemor uchun yaratiladigan qiymat, xizmat narxi, texnologik imkoniyatlar, inson kapitali, axborot shaffofligi va boshqaruv samaradorligining o‘zaro ta’siriga bog‘liq.

Birinchidan, xususiy tibbiyotda raqobatni narx ustunligiga emas, natijaga asoslangan sifat raqobatiga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Buning uchun klinik natija, asoratlar, bemor qoniqishi, qayta murojaat va bir bemorga to‘g‘ri keladigan xarajat kabi ko‘rsatkichlarni yagona baholash tizimiga birlashtirish lozim.

Ikkinchidan, milliy va xalqaro akkreditatsiya tizimlaridan xususiy tibbiyot tashkilotlari uchun bozorda sifatni tasdiqlovchi iqtisodiy signal sifatida foydalanish zarur.

Uchinchidan, xususiy klinikalarning raqamli sog‘liqni saqlash platformalariga integratsiyasini kuchaytirish orqali bemor harakatining uzluksiz elektron trayektoriyasini shakllantirish zarur.

To‘rtinchidan, xususiy tibbiyot tashkilotlarining investitsion faolligini rag‘batlantirish mexanizmlarini ular tomonidan erishilayotgan sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, xususiy tibbiy xizmatlar bozorida bemor uchun axborot ochiqligini oshirish talab etiladi. Klinikalar tomonidan xizmat narxi, uning tarkibi, shifokor malakasi, akkreditatsiya holati va asosiy sifat ko‘rsatkichlarini ochiq taqdim etish bemorning ratsional tanlov imkoniyatini kengaytiradi.

Umuman, xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning strategik yo‘nalishi “ko‘proq xizmat sotish” modelidan “bemor uchun ko‘proq qiymat yaratish” modeliga o‘tish bilan ifodalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Health Organization. The private sector, universal health coverage and primary health care. – Geneva: WHO, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-apreldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2863-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar natijadorligi tahlil qilinib, kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. – Toshkent, 2025.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tibbiyot sohasida xususiy sektorni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlashga oid hujjatlari. – Toshkent, 2026.

5. Porter M.E., Teisberg E.O. Redefining Competition in Health Care // Harvard Business Review. – 2004. – Vol. 82, No. 6. – P. 64–76, 136.

6. Porter M.E., Teisberg E.O. Redefining Health Care: Creating Value-Based Competition on Results. – Boston: Harvard Business School Press, 2006. – 506 p.

7. Rivers P.A., Glover S.H. Health care competition, strategic mission, and patient satisfaction: research model and propositions // Journal of Health Organization and Management. – 2008. – Vol. 22, No. 6.

8. Gravelle H., Liu D., Propper C., Santos R. Spatial competition and quality: Evidence from the English family doctor market // Journal of Health Economics. – 2019/2020.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

9. World Health Organization. Engaging the private health service delivery sector through governance in mixed health systems. – Geneva: WHO, 2020. – 52 p.

10. World Health Organization. The private sector in health service delivery: an operational definition. – Geneva: WHO, 2023. – 16 p.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Djumaniyazov Shavkat Raximovich
Geologiya fanlari universtiteti,
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsenti I.f.f.d (PhD)
Email:shavkat.jumaniyozon@gmail.com
ORCID:0009-0006-0920-2081

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, institutsional asoslari va istiqbolli yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini oshirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, investitsiyalarni jalb etish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, innovatsion va raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish, hududlarda biznes infratuzilmasini kengaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi Yangi O‘zbekistonning yuqori qo‘shilgan qiymatga asoslangan, innovatsion va raqobatbardosh iqtisodiyotini shakllantirishga xizmat qilishi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhiti, investitsiya, moliyalashtirish, innovatsiya, raqamli tadbirkorlik, raqobatbardoshlik, biznes infratuzilmasi, iqtisodiy o‘sish.*

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Джуманиязов Шавкат Рахимович
Университет геологических наук,
доцент кафедры «Экономика и менеджмент» (кандидат наук)
Электронная почта: shavkat.jumaniyozon@gmail.com
ORCID:0009-0006-0920-2081

Аннотация: *В статье исследованы современные тенденции, институциональные основы и перспективные направления развития предпринимательства в условиях Нового Узбекистана. Особое внимание уделено повышению экономической активности субъектов предпринимательства, формированию благоприятной деловой среды, привлечению инвестиций, расширению доступа к финансовым ресурсам и внедрению цифровых технологий в предпринимательскую деятельность. Проанализирована роль малого бизнеса и частного предпринимательства в создании новых рабочих мест, повышении доходов населения, эффективном использовании экономического потенциала регионов и обеспечении устойчивого экономического роста. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения по совершенствованию механизмов поддержки предпринимательства, диверсификации источников финансирования, развитию инновационного и цифрового предпринимательства, расширению бизнес-инфраструктуры в регионах и повышению конкурентоспособности субъектов предпринимательства. Обосновано, что последовательная реализация данных направлений будет способствовать формированию в Новом Узбекистане инновационной,*

конкурентоспособной экономики, основанной на создании высокой добавленной стоимости, расширении предпринимательской активности и эффективном использовании экономических ресурсов.

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, предпринимательство, малый бизнес, частное предпринимательство, деловая среда, инвестиции, финансирование, инновации, цифровое предпринимательство, конкурентоспособность, бизнес-инфраструктура, экономический рост.*

PROSPECTS FOR ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Djumaniyazov Shavkat Raximovich
University of Geological Sciences,
Department of Economics and Management,
Associate Professor, PhD in Economics
Email:shavkat.jumaniyozon@gmail.com
ORCID:0009-0006-0920-2081

Abstract: *This article examines the current trends, institutional foundations, and promising directions for developing entrepreneurship in the context of New Uzbekistan. Particular attention is paid to increasing the economic activity of business entities, creating a favorable business environment, attracting investment, expanding access to financial resources, and introducing digital technologies into entrepreneurial activities. The study analyzes the role of small business and private entrepreneurship in creating new jobs, increasing household incomes, effectively utilizing the economic potential of regions, and ensuring sustainable economic growth. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are developed to improve entrepreneurship support mechanisms, diversify financing sources, promote innovative and digital entrepreneurship, expand business infrastructure in the regions, and enhance the competitiveness of business entities. The study substantiates that the consistent implementation of these directions can contribute to the formation of an innovative and competitive economy in New Uzbekistan based on high value-added activities, expanded entrepreneurial initiative, and efficient use of economic resources.*

Keywords: *New Uzbekistan, entrepreneurship, small business, private entrepreneurship, business environment, investment, financing, innovation, digital entrepreneurship, competitiveness, business infrastructure, economic growth.*

Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan globallashuv, raqamli transformatsiya, texnologik yangilanish va raqobat muhitining kuchayishi mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Tadbirkorlik nafaqat yangi korxonalar va ish o‘rinlarini yaratish, balki innovatsiyalarni iqtisodiyotga joriy etish, raqobat muhitini kuchaytirish, aholi daromadlarini oshirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik uchun qulay institutsional va moliyaviy muhitni shakllantirish, biznes yuritishdagi ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish va xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini kengaytirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususiy mulk va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyaviy faollikni oshirish hamda bozor mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar shakllanmoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, kredit va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, soliq va ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish

hamda raqamli xizmatlarni rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi iqtisodiy o‘sishning miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda uning sifat jihatlarini ham ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmini kengaytirishi, yangi bozorlarni egallashi, eksport salohiyatini oshirishi, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishi va mehnat unumdorligini yuksaltirishi iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasiga xizmat qiladi. Shu sababli tadbirkorlikni faqat aholi bandligini ta’minlovchi faoliyat sifatida emas, balki iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishning muhim instituti sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Tadbirkorlik muhitining rivojlanishida hududiy omillar ham alohida ahamiyatga ega. Hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, mehnat resurslari, infratuzilmasi, investitsiyaviy jozibadorligi, bozor sig‘imi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari tadbirkorlik faolligining hududlar kesimidagi farqlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish, biznes infratuzilmasini rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlari uchun teng iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi esa tadbirkorlik faoliyatining mazmuni va shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Elektron tijorat, raqamli to‘lovlar, onlayn davlat xizmatlari, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar va raqamli marketing vositalarining keng qo‘llanilishi tadbirkorlik subyektlariga xarajatlarni optimallashtirish, yangi iste’molchilar segmentlariga chiqish va boshqaruv qarorlarining tezkorligini oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, tadbirkorlarning raqamli kompetensiyalari, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bilan bog‘liq masalalar yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Mazkur sharoitda tadbirkorlikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va samarali institutsional mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish, investitsiya va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion tadbirkorlikni rag‘batlantirish, raqamli biznes modellarini rivojlantirish, eksportga yo‘naltirilgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash hamda hududlarda biznes infratuzilmasini takomillashtirish masalalari alohida tadqiqotni talab qiladi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning **asosiy maqsadi** Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, uning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rnini baholash hamda tadbirkorlikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda xususiy sektor faolligini oshirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Xususan, World Bank tomonidan ishlab chiqilgan **Business Ready (B-READY)** metodologiyasida tadbirkorlik muhiti tartibga solish tizimi, davlat xizmatlari va operatsion samaradorlik kabi uchta asosiy yo‘nalish orqali baholanadi. Mazkur yondashuv tadbirkorlik faoliyatini faqat korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan emas, balki biznesning butun hayotiy sikli va xususiy sektor rivojlanishi bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi [1].

O‘zbekiston misolida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarda xususiy sektorning iqtisodiy o‘sishdagi rolini kuchaytirish muhim yo‘nalish sifatida qayd etiladi. World Bankning O‘zbekiston bo‘yicha tadqiqotlarida biznes muhitini yaxshilash, raqobatni kuchaytirish, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish va firmalarning o‘sishi uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish zarurligi ta’kidlangan [2].

Osiyo taraqqiyot banki tadqiqotlarida esa kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bankdan tashqari moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish, ma’muriy xarajatlarni kamaytirish, savdo jarayonlarini raqamlashtirish va tadbirkorlarning ko‘nikmalarini oshirish muhim omillar sifatida ko‘rsatilgan [3].

Tadbirkorlikning innovatsion yo‘nalishlari ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. ADBning O‘zbekiston texnologik startaplari bo‘yicha tadqiqotida mamlakatda texnologiyaga asoslangan startaplar soni oshib borayotgani, biroq ularning rivojlanishi uchun moliyalashtirish, mentorlik, inkubatsiya va malakali kadrlar tizimini yanada takomillashtirish zarurligi qayd etilgan [4].

2023-yilgi **Asia Small and Medium-Sized Enterprise Monitor** hisobotida ham O‘zbekiston kichik va o‘rta biznesi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilib, ushbu sektorni rivojlantirish siyosatini dalillarga asoslangan holda shakllantirish zarurligi ko‘rsatilgan. Mazkur yondashuv tadbirkorlikni rivojlantirishda statistik ma’lumotlar va empirik ko‘rsatkichlardan foydalanishning ahamiyatini oshiradi [5].

UNDPning O‘zbekistondagi ayollar tadbirkorligi bo‘yicha 2025-yilgi tadqiqotida ayollar tadbirkorligi sezilarli darajada kengaygani, biroq moliyaviy resurslardan foydalanish, malaka oshirish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish bilan bog‘liq ayrim cheklovlar mavjudligi qayd etilgan. Tadqiqotda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosatida gender jihatlarini hisobga olish zarurligi asoslangan [6].

Shuningdek, UNDP tomonidan 2024-yilda O‘zbekiston delegatsiyasining Germaniyada kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash tajribasini o‘rganishi doirasida innovatsion yechimlar, raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish muhimligi ko‘rsatib berilgan [7].

OECDning kichik va o‘rta biznes siyosatini baholash metodologiyasi tadbirkorlik siyosatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, davlat siyosatini xalqaro ilg‘or tajribalar bilan taqqoslash hamda strategik ustuvor yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi [8].

World Bankning O‘zbekiston bo‘yicha 2025-yilgi **Country Economic Memorandum** hisobotida esa xususiy sektor yetakchiligidagi iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun tartibga solish yukini kamaytirish, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish, raqobat muhitini kuchaytirish, savdo integratsiyasini chuqurlashtirish va raqamli yechimlardan foydalanishni kengaytirish muhimligi ta’kidlangan [9].

Tadqiqotlar metodologiyasi

Tadqiqotda Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarini kompleks baholashga yo‘naltirilgan **tizimli, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan** foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, xalqaro tashkilotlar hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga oid rasmiy ma’lumotlar tashkil etdi. Tahlil jarayonida tadbirkorlik subyektlari soni, kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi, bandlik, investitsiyalar va boshqa asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasi o‘rganildi.

Tadqiqotda **statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, taqqoslash, tizimli tahlil va umumlashtirish** usullaridan foydalanildi. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi moliyaviy, institutsional, innovatsion va raqamli omillar o‘zaro bog‘liqlikda baholandi. Olingan natijalar asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari aniqlanib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonini baholashda uning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi, bandlikni ta’minlashdagi o‘rni, yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi hamda iqtisodiyotning alohida tarmoqlaridagi faolligini birgalikda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. So‘nggi yillardagi statistik ma’lumotlar tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2021-yildagi 56,3 foizdan 2022-yilda 54,3 foizga, 2023-yilda 53,8 foizga, 2024-yilda 53,5 foizga va 2025-yilda 52,2 foizga teng bo‘lgan. Shu bilan birga, 2025-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan YaIM hajmi **923,5 trln so‘m**ni tashkil etgan.

1-jadval.

Kichik biznesning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi asosiy ko‘rsatkichlari*

Ko‘rsatkich	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
YaIMdagi ulushi, %	56,3	54,3	53,8	53,5	52,2
Kichik biznes tomonidan yaratilgan YaIM, trln so‘m	455,7	533,1	646,8	789,5	923,5
Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari, birlik	98 886	90 177	86 030	77 046	82 386
Bandlikdagi ulushi, %	74,5	73,9	74,0	73,9	74,9

***Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadval ma’lumotlari tadbirkorlik rivojlanishida muhim jihatni ko‘rsatadi: kichik biznesning YaIMdagi ulushi pasaygan bo‘lsa-da, uning iqtisodiyotda yaratgan **mutlaq qo‘shilgan qiymati izchil oshgan**. Xususan, 2021–2025-yillarda kichik biznes tomonidan yaratilgan YaIM 455,7 trln so‘mdan 923,5 trln so‘mgacha oshgan. Bu davrda nominal hajm qariyb ikki barobarga yaqin ko‘paygan. Shu sababli ulushning kamayishini tadbirkorlik faoliyatining mutlaq qisqarishi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas; mazkur ko‘rsatkich, avvalo, umumiy iqtisodiy o‘sish va iqtisodiyot tarkibidagi boshqa sektorlarning kengayishi bilan birgalikda baholanishi lozim.

Tadbirkorlikning ijtimoiy ahamiyati, ayniqsa, bandlik ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. 2025-yilda kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi **74,9 foiz**ni tashkil etgan. Bu 2024-yilga nisbatan 1 foiz punktga yuqori bo‘lib, kichik biznesning mehnat bozoridagi rolini saqlab qolganini ko‘rsatadi. Demak, tadbirkorlikni rivojlantirish siyosati nafaqat iqtisodiy faollikni, balki aholining daromad manbalarini kengaytirish va bandlikni ta’minlashni ham qamrab olishi zarur.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonida ham muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi. 2021-yilda 98 886 ta yangi subyekt tashkil etilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 77 046 taga tushgan, 2025-yilda esa **82 386 taga** yetgan. Ya’ni 2025-yilda yangi tashkil etilgan subyektlar soni oldingi yilga nisbatan tiklanish tendensiyasini namoyon qilgan. Bu holat tadbirkorlikka kirish jarayonida faollik saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Tarmoqlar kesimidagi tahlil tadbirkorlikning iqtisodiyotning barcha sohalarida bir xil darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. 2025-yilda kichik biznesning tegishli tarmoq YaIMidagi ulushi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida **93,1 foiz**, qurilishda **75,6 foiz**, xizmatlar sohasida **47,2 foiz**, sanoatda esa **28,5 foiz**ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlar tadbirkorlik subyektlarining ayniqsa qishloq xo‘jaligi va qurilishdagi iqtisodiy faolligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Sanoatdagi ko‘rsatkichlar esa tadbirkorlikning rivojlanishi uchun hali katta imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. 2025-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan **383,9 trln so‘mlik sanoat mahsuloti** ishlab chiqarilgan va ularning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 34,9 foizni tashkil etgan. 2024-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishi 14,8 foizga oshgan.

Qurilish sohasida ham kichik biznesning ishtiroki yuqori bo‘lib, 2025-yilda ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **230,9 trln so‘m**ni tashkil etgan va jami qurilish ishlarining 73,6 foizi kichik biznes hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu holat tadbirkorlikning real sektor rivojlanishidagi ahamiyati yuqoriligini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida esa tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, 2025-yilda kichik biznesning YaIMdagi ulushi Jizzax viloyatida 71,2 foiz, Buxoro viloyatida 71,0 foiz, Andijon viloyatida 70,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Navoiy viloyatida 21,1 foizni tashkil qilgan.

Mazkur tafovut hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, yirik korxonalar ulushi, ishlab

chiqarish tarkibi, resurs bazasi va tadbirkorlik infratuzilmasi bilan bog‘liq holda izohlanishi mumkin. Shu sababli kelgusida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yagona yondashuvdan tashqari, **hududlarning iqtisodiy salohiyati va ixtisoslashuviga mos differensial mexanizmlarni** qo‘llash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tahlil natijalari O‘zbekistonda tadbirkorlik sektorining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Biroq keyingi bosqichda asosiy e’tiborni tadbirkorlik subyektlari sonini ko‘paytirish bilan bir qatorda, ularning **mehnat unumdorligi, innovatsion faolligi, eksport salohiyati, raqamlashtirish darajasi va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini oshirishga** qaratish zarur. Ayniqsa, sanoatda kichik biznes ulushini oshirish, innovatsion startaplarni moliyalashtirish, raqamli biznes xizmatlarini kengaytirish va hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirish Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim istiqbolli yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik iqtisodiy o‘sish, bandlikni ta’minlash va aholi daromadlarini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida shakllanmoqda. So‘nggi yillarda kichik biznes tomonidan yaratilayotgan iqtisodiy qiymatning ortib borishi tadbirkorlik faoliyatining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tarmoqlar va hududlar kesimida mavjud tafovutlar tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **Tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish** – kichik biznes subyektlari uchun kredit, kafillik va boshqa moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash.
2. **Innovatsion tadbirkorlikni rag‘batlantirish** – texnologik startaplar, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish.
3. **Raqamli tadbirkorlikni kengaytirish** – elektron tijorat, raqamli to‘lovlar, onlayn xizmatlar va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash.
4. **Hududiy yondashuvni kuchaytirish** – tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini hududlarning resurs salohiyati, iqtisodiy ixtisoslashuvi va mavjud infratuzilmasidan kelib chiqib shakllantirish.
5. **Sanoatdagi kichik biznes ulushini oshirish** – qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.
6. **Tadbirkorlarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish** – moliyaviy savodxonlik, marketing, eksport, raqamli texnologiyalar va biznes boshqaruvi bo‘yicha amaliy o‘quv dasturlarini kengaytirish.

Shunday qilib, tadbirkorlikni rivojlantirishning keyingi bosqichida asosiy e’tibor biznes subyektlari sonini ko‘paytirish bilan bir qatorda, ularning **barqarorligi, raqobatbardoshligi, innovatsion faolligi va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini oshirishga** qaratilishi lozim. Mazkur yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish va Yangi O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank Group. *Business Ready 2024*. Washington, DC: World Bank Group, 2024.
2. World Bank. *Uzbekistan’s Reforms for Private Sector Growth, Social Protection, and Climate Action to Benefit from World Bank Support*. Washington, DC, 2024.
3. Asian Development Bank. *Small and Medium-Sized Enterprises Development Program (Subprogram 2): Uzbekistan*. Manila: ADB, 2023.
4. Asian Development Bank. *Uzbekistan’s Ecosystem for Technology Startups*. Manila:

ADB, 2023.

5. Asian Development Bank. *Asia Small and Medium-Sized Enterprise Monitor 2023: Uzbekistan*. Manila: ADB, 2023.

6. UNDP Uzbekistan. *Women’s Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and Recommendations*. Tashkent, 2025.

7. UNDP Uzbekistan. *Uzbek Delegation Studies Germany’s Experience in Supporting Small and Medium Enterprises (SMEs)*. Tashkent, 2024.

8. OECD. *SME Policy Index: Assessing the Implementation of the Small Business Act for Europe*. OECD Publishing.

9. World Bank. *Uzbekistan – Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration*. Washington, DC: World Bank, 2025.

O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNI STATISTIK PROGNOZLASH VA MONITORING TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Siroj Zarina Rustambekovna
Toshkend davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti
Toshkent Amaliy fanlar universiteti “Bank va moliya” kafedrasi dotsenti. i.f.f.d., (PhD)
E-mail: zarina36.84@gmail.com
Orcid: 0009-0007-7266-3515

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish va migratsiya ko‘rsatkichlarining dinamikasi tahlil qilinib, ularni muntazam statistik kuzatish va prognozlashning ilmiy-uslubiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida demografik ma’lumotlarni shakllantirish, qayta ishlash va monitoring qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida demografik jarayonlarni statistik baholash va prognozlash samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *demografik jarayonlar, aholi soni, statistik prognozlash, demografik monitoring, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, migratsiya, statistik ma’lumotlar, raqamli texnologiyalar.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТАТИСТИЧЕСКОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И МОНИТОРИНГА ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Сирож Зарина Рустамбековна
Докторант Ташкентского государственного экономического университета
Доцент кафедры «Банковское дело и финансы» Ташкентского университета прикладных наук, PhD
E-mail: zarina36.84@gmail.com
Orcid: 0009-0007-7266-3515

Аннотация. *В статье исследованы вопросы совершенствования системы статистического прогнозирования и мониторинга демографических процессов в Узбекистане. Проанализирована динамика численности населения, рождаемости, смертности, естественного прироста и миграции, а также рассмотрены научно-методические аспекты их систематического статистического наблюдения и прогнозирования. Особое внимание уделено возможностям формирования, обработки и мониторинга демографических данных на основе современных цифровых технологий. По результатам исследования разработаны предложения, направленные на повышение эффективности статистической оценки и прогнозирования демографических процессов.*

Ключевые слова: *демографические процессы, численность населения, статистическое прогнозирование, демографический мониторинг, рождаемость, смертность, естественный прирост, миграция, статистические данные, цифровые технологии.*

IMPROVING THE SYSTEM OF STATISTICAL FORECASTING AND MONITORING OF DEMOGRAPHIC PROCESSES IN UZBEKISTAN

Siroj Zarina Rustambekovna
Doctoral Researcher at Tashkent State University of Economics

Associate Professor of the Department of
“Banking and Finance” at
Tashkent University of Applied Sciences, PhD
E-mail: zarina36.84@gmail.com
Orcid: 0009-0007-7266-3515

Abstract. *The article examines the issues of improving the system of statistical forecasting and monitoring of demographic processes in Uzbekistan. The dynamics of population size, birth rate, mortality, natural population growth, and migration are analyzed, with particular attention paid to the scientific and methodological aspects of their systematic statistical observation and forecasting. The study also considers the potential of modern digital technologies for the collection, processing, and monitoring of demographic data. Based on the research findings, recommendations are developed to improve the effectiveness of statistical assessment and forecasting of demographic processes.*

Keywords: *demographic processes, population size, statistical forecasting, demographic monitoring, birth rate, mortality, natural population growth, migration, statistical data, digital technologies.*

Kirish

Aholi demografik jarayonlari mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi fundamental omillardan biri hisoblanadi. Aholi soni va tarkibining o‘zgarishi, tug‘ilish va o‘lim darajasi, tabiiy ko‘payish, migratsiya, aholining yosh-jins tarkibi hamda hududiy joylashuvi mehnat bozori, bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, ijtimoiy himoya va davlat byudjeti xarajatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli demografik jarayonlarni muntazam statistik kuzatish, ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va kelgusidagi holatini ilmiy asosda prognozlash davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda aholi sonining barqaror o‘sishi bilan bir qatorda demografik jarayonlarning ichki tarkibida ham muayyan o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Tug‘ilish darajasining dinamikasi, o‘lim ko‘rsatkichlari, tabiiy o‘sish sur’atlari, ichki va tashqi migratsiya hamda urbanizatsiya jarayonlari demografik vaziyatni kompleks baholashni talab etmoqda. Ayniqsa, aholining mutlaq soni ortib borayotgan sharoitda kelgusida mehnat resurslariga bo‘lgan talab, yangi ish o‘rinlari yaratish, ta’lim va tibbiy xizmatlarni kengaytirish hamda hududiy infratuzilmani rivojlantirish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda.

Demografik jarayonlarning o‘zgaruvchanligi ularni faqat joriy statistik ma’lumotlar asosida baholash bilan cheklanib qolmasdan, kelgusidagi ehtimoliy tendensiyalarni aniqlashni ham taqozo etadi. Bunda statistik prognozlash usullaridan foydalanish aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish va migratsiyaning kelajakdagi dinamikasini baholash, demografik yuklamaning o‘zgarishini aniqlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish uchun zarur axborot bazasini shakllantirish imkonini beradi. Prognoz natijalarining ishonchliligi esa statistik ma’lumotlarning to‘liqligi, aniqligi, muntazamligi va yagona metodologik asosda shakllantirilishiga bog‘liq.

Bugungi kunda demografik statistikani raqamlashtirish va turli ma’lumotlar manbalarini integratsiyalash ushbu yo‘nalishdagi muhim vazifalardan biridir. Aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tizimi, migratsiya statistikasi va boshqa ma’muriy ma’lumotlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish demografik jarayonlarni tezkor monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari va statistik modellashtirish vositalaridan foydalanish hududlar kesimida demografik o‘zgarishlarni chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik monitoring qilishning takomillashtirilishi, avvalo, ma’lumotlarni shakllantirish, qayta ishlash, tahlil qilish va prognozlash bosqichlarining yagona tizimga birlashtirilishi bilan bog‘liq. Bunday tizim nafaqat demografik holatni tavsiflash, balki demografik o‘zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini oldindan baholash imkonini ham beradi. Ayniqsa, hududlar o‘rtasidagi demografik tafovutlarni aniqlash va ularning rivojlanish

xususiyatlarini hisobga olish statistik monitoringning amaliy samaradorligini oshiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik baholash, prognozlash va monitoring qilishning mavjud holatini o‘rganish hamda uni takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari sifatida demografik ko‘rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilish, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish va migratsiya jarayonlarini statistik baholash, mavjud monitoring tizimining imkoniyatlarini aniqlash, demografik prognozlashning zamonaviy usullarini ko‘rib chiqish hamda statistik monitoringni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish belgilangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi demografik jarayonlarni statistik baholash va prognozlashni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqish, hududiy demografik tafovutlarni monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda statistik ma’lumotlardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish yo‘nalishlarini asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda demografik jarayonlarni muntazam kuzatish, statistik prognozlash sifatini oshirish va demografik siyosatni axborot-statistik jihatdan ta’minlashda foydalanish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring qilish masalalari zamonaviy demografik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, migratsiya va yosh-jins tarkibining uzoq muddatli dinamikasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. BMTning World Population Prospects 2024 tadqiqotida demografik o‘tish nazariyasi asosida aholi soni va tarkibining tarixiy o‘zgarishlari tahlil qilinib, 237 mamlakat va hudud bo‘yicha 2100-yilgacha bo‘lgan prognozlar shakllantirilgan [1].

BMT tadqiqotlarida demografik prognozlarning ishonchliligi, avvalo, aholiga oid statistik ma’lumotlarning sifati va to‘liqligiga bog‘liqligi ta’kidlanadi. World Population Prospects 2024da aholi ro‘yxatlari, fuqarolik holatini qayd etish tizimlari va tanlama kuzatuvlar ma’lumotlari birgalikda qo‘llanilgan. Bu esa demografik monitoringni turli ma’lumot manbalarini integratsiyalash asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi [2].

BMTning Demographic Yearbook 2024 nashrida aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, chaqaloqlar o‘limi, umr davomiyligi va fertilitet kabi ko‘rsatkichlar yagona statistik tizim asosida jamlangan [3]. Mazkur yondashuv demografik jarayonlarni muntazam monitoring qilish bilan birga, mamlakatlar va hududlar o‘rtasida statistik taqqoslashlarni amalga oshirish uchun ham metodologik asos yaratadi.

Aholi migratsiyasi ham demografik prognozlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. BMTning International Migrant Stock 2024 ma’lumotlarida 233 ta mamlakat va hudud bo‘yicha xalqaro migrantlarning soni, jinsi, kelib chiqishi va boradigan hududi haqidagi ma’lumotlar shakllantirilgan [4]. Mazkur ma’lumotlar migratsiyaning aholi soni va hududiy demografik tarkibga ta’sirini monitoring qilish imkonini beradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining World Health Statistics 2024 hisobotida umr davomiyligi, o‘lim va sog‘liq bilan bog‘liq 50 dan ortiq indikatorlar tahlil qilingan [5]. Ushbu ko‘rsatkichlar demografik jarayonlarni faqat miqdoriy jihatdan emas, balki aholining umr davomiyligi va sog‘liq holati bilan bog‘liq sifat jihatlari orqali ham baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Eurostatning Demography of Europe – 2024 edition nashrida aholi soni, aholi zichligi, yosh tarkibi va aholining qarishi bo‘yicha ko‘rsatkichlar uzoq muddatli dinamikada tahlil qilingan. Tadqiqotda demografik statistikadan davlat siyosatining turli yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilgan [6].

O‘zbekiston misolida UNFPAning 2025-yildagi mamlakat dasturiga oid tahliliy materiallarida aholining 37 milliondan oshgani, aholining o‘sish sur’ati, tug‘ilish va fertilitet dinamikasi hamda aholining yosh tarkibi bo‘yicha muhim tendensiyalar qayd etilgan. Hujjatda 30 yoshgacha bo‘lgan aholining yuqori ulushi mamlakat uchun demografik dividend imkoniyatlarini

yuzaga keltirishi, buning uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash va ko‘nikmalarni rivojlantirishga investitsiyalar zarurligi ta’kidlangan [7].

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yilgi ma’lumotlarida mamlakat doimiy aholisi, uning jinsiy va hududiy tarkibi, shahar va qishloq aholisi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar keltirilgan. Xususan, 2025-yil 1-aprel holatiga doimiy aholi 37,7 million kishini tashkil etgani va bir yil davomida 2 foizga oshgani qayd etilgan [8]. Ushbu ma’lumotlar milliy darajadagi demografik monitoringning amaliy axborot bazasini shakllantiradi.

Milliy statistika qo‘mitasining demografik ko‘rsatkichlarga oid keyingi ma’lumotlarida esa aholi soni bilan bir qatorda shahar va qishloq aholisi, nikoh va ajralishlar hamda tashqi migratsiya ko‘rsatkichlari ham aks ettirilgan [9]. Bu esa zamonaviy demografik monitoringni faqat tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari bilan cheklamasdan, migratsiya va aholining ijtimoiy-demografik tarkibi bilan bog‘liq indikatorlarni ham qamrab olgan holda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili demografik prognozlash va monitoringning samaradorligi ishonchli statistik ma’lumotlar, zamonaviy prognozlash usullari, turli ma’lumot manbalarining integratsiyasi va hududiy monitoring bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida demografik ko‘rsatkichlarni yagona monitoring tizimida birlashtirish, hududlar kesimida prognozlashni kuchaytirish va statistik ma’lumotlarni tezkor boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish masalalari ushbu tadqiqotning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring qilishni takomillashtirish, avvalo, aholining soni va tarkibidagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatishni talab etadi. So‘nggi yillarda mamlakat aholisi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonning doimiy aholisi 38,24 mln kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich demografik yuklama, mehnat resurslari va ijtimoiy infratuzilmaga bo‘lgan talabning kelgusida ham ortib borishini ko‘rsatadi.

Demografik o‘sishning asosiy manbai tabiiy ko‘payish bo‘lib qolmoqda. 2025-yilda mamlakatda 879,6 mingta tug‘ilish va 177,1 mingta o‘lim qayd etilgan. Natijada tabiiy o‘sish **702,5 ming kishini** tashkil etgan. Biroq tug‘ilishlar sonining oldingi yillarga nisbatan kamayishi demografik o‘sish sur’atlarida bosqichma-bosqich o‘zgarish yuz berayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval.

O‘zbekistonda asosiy demografik ko‘rsatkichlar dinamikasi*

Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Tug‘ilganlar, ming kishi	962,0	926,4	879,6
Vafot etganlar, ming kishi	172,8	174,4	177,1
Tabiiy o‘sish, ming kishi	789,2	752,0	702,5

** Muallif ishlanmasi*

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2023–2025-yillarda tug‘ilishlar soni 82,4 ming kishiga, tabiiy o‘sish esa 86,7 ming kishiga kamaygan. Shu davrda vafot etganlar sonining ortishi ham tabiiy ko‘payish sur’atining pasayishiga ta’sir qilgan. Mazkur holat demografik monitoringda faqat aholining mutlaq sonini emas, balki tug‘ilish va o‘limning yosh, jins va hududlar bo‘yicha tarkibini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Demografik monitoringning yana bir muhim yo‘nalishi — hududiy tafovutlarni aniqlashdir. O‘zbekistonda tug‘ilish, aholi zichligi, migratsiya va yosh tarkibi hududlar bo‘yicha bir xil emas. Shu sababli mamlakat miqyosidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar ayrim hududlardagi real demografik vaziyatni to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Hududiy monitoring tizimida viloyat, tuman va shaharlar kesimida demografik indikatorlarni muntazam shakllantirish muhimdir.

Aholining yosh tarkibi ham prognozlash jarayonida alohida ahamiyatga ega. Yosh aholining salmoqli ulushi kelgusida mehnat bozoriga kirib keluvchi yangi ishchi kuchining ko‘payishini anglatadi. Shu bilan birga, mazkur demografik salohiyatdan samarali foydalanish uchun ta’lim,

kasbiy tayyorgarlik va bandlik bo‘yicha ehtiyojlarni oldindan baholash zarur. Demografik prognoz aynan shu jarayonlarni iqtisodiy rejalashtirish bilan bog‘lash imkonini beradi.

Migratsiya ham aholining umumiy dinamikasiga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biridir. 2025-yilda O‘zbekistonga xorijdan 1,2 mingga yaqin kishi kelgan, xorijga esa 10,1 ming kishi chiqib ketgan. Migratsiya ko‘rsatkichlarini hudud, yosh, jins va mehnat faoliyati bo‘yicha ajratib monitoring qilish demografik jarayonlarning real yo‘nalishini aniqlash uchun zarur.

Statistik prognozlash imkoniyatlari

Demografik jarayonlarni prognozlashda vaqt qatorlari asosida trend tahlili, eksponensial tekislash, ARIMA modellari hamda demografik komponentlar usulidan foydalanish mumkin. Bunda umumiy aholi soni alohida prognoz qilinishidan ko‘ra, tug‘ilish, o‘lim va migratsiya komponentlarini alohida baholash aniqroq natijalarga erishish imkonini beradi.

Masalan, aholi sonining kelajakdagi o‘zgarishini quyidagi demografik balans orqali ifodalash mumkin:

$$P_{t+1} = P_t + B_t - D_t + M_t \quad (1)$$

bu yerda:

P_t — t-davrdagi aholi soni;

B_t — tug‘ilganlar soni;

D_t — vafot etganlar soni;

M_t — sof migratsiya.

Mazkur yondashuv demografik prognozlashni oddiy trendga emas, balki aholining tabiiy va mexanik harakatini shakllantiruvchi omillarga asoslash imkonini beradi.

1-formula. Demografik monitoring va prognozlashning taklif etilayotgan tizimi

Ma’lumotlarni yig‘ish → Ma’lumotlarni integratsiya qilish → Statistik monitoring → Tahlil va modellashtirish → Prognozlash → Natijalarni vizualizatsiya qilish → Boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash

Ushbu tizimda aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari, fuqarolik holati dalolatnomalari, migratsiya statistikasi va boshqa ma’muriy ma’lumotlarni o‘zaro integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Natijada demografik ko‘rsatkichlarni kechikib emas, balki imkon qadar tezkor va hududiy kesimda kuzatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda demografik monitoringni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ma’lumotlar sifatini oshirish, turli statistik manbalarni integratsiyalash, hududiy monitoringni kuchaytirish va prognozlashning zamonaviy ekonometrik usullaridan foydalanish bilan bog‘liq. Bunday yondashuv demografik jarayonlarning kelajakdagi o‘zgarishlarini oldindan baholash va ularning mehnat bozori, ijtimoiy infratuzilma hamda iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini hisobga olish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tahlillar natijasida O‘zbekistonda demografik jarayonlarning asosiy xususiyati aholi sonining barqaror o‘sishi bilan birga, tug‘ilish sur’atlarining bosqichma-bosqich pasayishi, tabiiy o‘sish hajmining qisqarishi va migratsiya jarayonlarining demografik dinamikaga ta’siri ortib borayotganida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Bu holat demografik jarayonlarni faqat mavjud statistik ko‘rsatkichlar asosida emas, balki ularning kelgusidagi o‘zgarishlarini prognozlash asosida boshqarish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari demografik monitoring tizimida **aholini ro‘yxatga olish, fuqarolik holati dalolatnomalari, migratsiya va boshqa ma’muriy ma’lumotlarni yagona axborot tizimida integratsiyalash** muhimligini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv demografik ma’lumotlarning tezkorligi, to‘liqligi va o‘zaro muvofiqligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, demografik jarayonlarning hududlar bo‘yicha sezilarli farqlanishi mamlakat miqyosidagi umumiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda **viloyat, tuman va shaharlar kesimida alohida monitoring va prognozlash** tizimini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Yagona demografik monitoring platformasini yaratish** — aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish va migratsiya ma’lumotlarini yagona raqamli tizimda birlashtirish.
2. **Hududiy demografik prognozlashni rivojlantirish** — har bir hudud bo‘yicha aholi soni va tarkibining o‘rta va uzoq muddatli prognozlarini muntazam ishlab chiqish.
3. **Zamonaviy ekonometrik modellarni joriy etish** — ARIMA, eksponensial tekislash, trend modellari va demografik komponentlar usulidan foydalanib, prognozlarning aniqligini oshirish.
4. **Demografik indikatorlarning avtomatik monitoringini yo‘lga qo‘yish** — asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha belgilangan chegaralardan og‘ishlarni avtomatik aniqlaydigan analitik tizimni shakllantirish.
5. **Migratsiya monitoringini takomillashtirish** — migratsiya oqimlarini hudud, yosh, jins va iqtisodiy faollik bo‘yicha muntazam tahlil qilish.
6. **Demografik ma’lumotlar sifatini oshirish** — statistik va ma’muriy ma’lumotlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash va ma’lumotlarni muntazam verifikatsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish.
7. **Demografik prognozlarni ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishga integratsiya qilish** — prognoz natijalaridan ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, uy-joy va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha qarorlar ishlab chiqishda foydalanish.

Umuman, **statistik monitoring va prognozlashning yagona, raqamlashtirilgan hamda hududiy jihatdan differensiallashgan tizimini shakllantirish** O‘zbekistonda demografik jarayonlarni chuqurroq baholash va kelgusidagi o‘zgarishlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish imkonini beradi. Mazkur yondashuv demografik statistikani boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlashning samarali vositasiga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations Department of Economic and Social Affairs, Population Division. **World Population Prospects 2024: Summary of Results.** New York: United Nations, 2024.
2. United Nations Department of Economic and Social Affairs, Population Division. **World Population Prospects 2024: Methodology Report.** New York: United Nations, 2024.
3. United Nations Statistics Division. **Demographic Yearbook 2024.** New York: United Nations, 2025.
4. United Nations Department of Economic and Social Affairs, Population Division. **International Migrant Stock 2024.** New York: United Nations, 2024.
5. World Health Organization. **World Health Statistics 2024: Monitoring Health for the SDGs.** Geneva: WHO, 2024.
6. Eurostat. **Demography of Europe – 2024 Edition.** Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2024.
7. UNFPA Uzbekistan. **Country Programme Document for Uzbekistan 2026–2030.** United Nations Population Fund, 2025.
8. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. **Structure of the Permanent Population of the Republic of Uzbekistan.** Tashkent, 2025.
9. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. **Demographic Indicators of the Republic of Uzbekistan in Figures.** Tashkent, 2025.

KORPORATIV MIJOZLARGA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI

To‘laev Safarmurod Boymuhammad o‘g‘li
mustaqil tadqiqotchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0003-8740-6715

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi tahlil qilingan. Buyuk Britaniya, AQSh, Singapur va boshqa rivojlangan moliya bozorlarida open banking, API-banking, real vaqt rejimidagi to‘lovlar, smart cash-management, raqamli trade finance, sun’iy intellekt hamda tokenlashtirilgan hisob-kitoblarning korporativ bankingdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, yetakchi xorijiy banklarning korporativ va institutsional banking segmentlari bo‘yicha 2023–2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, innovatsion xizmatlarning bank daromadlari va mijozlar bilan munosabatlar samaradorligiga ta’siri baholangan. Tadqiqot natijalari asosida xorijiy tajribaning samarali elementlarini O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotiga bosqichma-bosqich moslashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *korporativ mijoz, innovatsion bank xizmatlari, xorijiy tajriba, open banking, API-banking, smart cash-management, trade finance, sun’iy intellekt, tokenizatsiya, raqamli transformatsiya.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ ДЛЯ КОРПОРАТИВНЫХ КЛИЕНТОВ

Тулаев Сафармурод Боймухаммад угли
независимый исследователь
Ташкентский государственный экономический университет
ORCID: 0009-0003-8740-6715

Аннотация. *В статье исследован зарубежный опыт развития инновационных банковских услуг для корпоративных клиентов. Рассмотрена роль open banking, API-banking, платежей в режиме реального времени, smart cash-management, цифрового trade finance, искусственного интеллекта и токенизированных расчетов в корпоративном банковском обслуживании Великобритании, США, Сингапура и других развитых финансовых рынков. Проведен сравнительный анализ финансовых показателей корпоративного и институционального банковского бизнеса ведущих зарубежных банков за 2023–2025 годы, а также оценено влияние инновационных услуг на доходность банков и эффективность взаимоотношений с корпоративными клиентами. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения по поэтапной адаптации эффективных элементов зарубежного опыта к деятельности коммерческих банков Узбекистана.*

Ключевые слова: *корпоративный клиент, инновационные банковские услуги, зарубежный опыт, open banking, API-banking, smart cash-management, trade finance, искусственный интеллект, токенизация, цифровая трансформация.*

FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE BANKING SERVICES FOR CORPORATE CLIENTS

Tolaev Safarmurod Boymuhammad ogli
Independent Researcher

Tashkent State University of Economics
ORCID: 0009-0003-8740-6715

Abstract. *This article examines international experience in developing innovative banking services for corporate clients. It analyzes the role of open banking, API banking, real-time payments, smart cash management, digital trade finance, artificial intelligence, and tokenized settlement mechanisms in corporate banking across the United Kingdom, the United States, Singapore, and other developed financial markets. The study also provides a comparative analysis of the financial performance of corporate and institutional banking segments of leading international banks over the 2023–2025 period and assesses the impact of innovative services on bank revenues and the effectiveness of corporate client relationships. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed for the gradual adaptation of effective international practices to the activities of commercial banks in Uzbekistan.*

Keywords: *corporate client, innovative banking services, international experience, open banking, API banking, smart cash management, trade finance, artificial intelligence, tokenization, digital transformation.*

Kirish

Jahon bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, ochiq bank xizmatlari (Open Banking), API texnologiyalari, sun’iy intellekt, Big Data hamda ma’lumotlarga asoslangan moliyaviy yechimlarning keng joriy etilishi korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatishning an’anaviy modelini tubdan o‘zgartirmoqda. Agar ilgari banklar korporativ mijozlar bilan munosabatlarda asosan kreditlash, hisob-kitob-kassa xizmatlari, depozit operatsiyalari va xalqaro to‘lovlarni amalga oshirish bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi kunda mijozlar bank infratuzilmasining o‘z biznes jarayonlariga bevosita integratsiyalashuvini talab qilmoqda. Xususan, real vaqt rejimida to‘lovlarni amalga oshirish, cash-management tizimlari orqali pul oqimlarini markazlashgan holda boshqarish, trade finance operatsiyalarini raqamlashtirish, API-banking vositasida korporativ axborot tizimlari va bank platformalarini o‘zaro bog‘lash, avtomatlashtirilgan likvidlik boshqaruvi, elektron hujjat aylanishi hamda individual biznes ehtiyojlariga moslashtirilgan raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish korporativ bank xizmatlarining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Natijada banklar o‘rtasidagi raqobat faqat kredit foiz stavkalari yoki xizmat tariflari bilan emas, balki xizmatlarni ko‘rsatish tezligi, raqamli platformalarning funksionalligi, integratsiya darajasi, ma’lumotlarni qayta ishlash sifati, axborot xavfsizligi va mijoz uchun yaratilayotgan qo‘shimcha qiymat bilan belgilanmoqda. Ayniqsa, korporativ mijozlarning ERP, CRM, buxgalteriya va treasury tizimlarini bank xizmatlari bilan API orqali integratsiyalash imkoniyati tranzaksiyalarni avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish uchun muhim shart bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur tendensiyalar korporativ bank xizmatlarining jahon moliya tizimidagi iqtisodiy ahamiyati tobora ortib borayotganini ham ko‘rsatadi. McKinsey & Company ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda global transaction banking segmenti, ya’ni korporativ to‘lovlar, savdoni moliyalashtirish, depozitlar va likvidlikni boshqarish mahsulotlarini qamrab oluvchi xizmatlar qariyb 1,3 trln AQSh dollari miqdorida daromad yaratib, global ulgurji bank xizmatlari daromadlarining 47 foizini tashkil etgan [1]. Bu ko‘rsatkich transaction banking faoliyati banklar uchun nafaqat barqaror komissiya va foiz daromadlari manbai, balki korporativ mijozlar bilan uzoq muddatli strategik munosabatlarni shakllantirish vositasi ekanligini namoyon etadi. Shu bilan birga, tadqiqotlarda har yili korxonalarning qariyb har beshtadan biri o‘zining asosiy operatsion depozitlariga xizmat ko‘rsatuvchi bankini almashtirishi qayd etilishi ushbu segmentda mijozlar sodiqligi doimiy ravishda raqobat bosimi ostida ekanligini anglatadi. Korporativ mijozlar endilikda bankni faqat moliyaviy resurs yetkazib beruvchi institut sifatida emas, balki biznes jarayonlarini optimallashtiruvchi, pul oqimlarini boshqaruvchi, risklarni kamaytiruvchi va strategik qarorlar qabul qilish uchun analitik axborot taqdim etuvchi texnologik hamkor sifatida

baholamoqda. Shu sababli banklarning kelgusidagi raqobatbardoshligi ochiq API ekotizimlarini rivojlantirish, mijoz ma’lumotlari asosida personalizatsiyalangan mahsulotlarni shakllantirish, real vaqt rejimidagi analitik xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, biznes jarayonlarni avtomatlashtirish hamda mijozlar uchun yagona raqamli xizmat muhitini yaratish qobiliyatiga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib boradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi innovatsion bank xizmatlarini shakllantirishda ochiq bank infratuzilmasi va API ekotizimining alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyada 2025-yil mart holatiga open banking xizmatlarining faol foydalanuvchilari soni 13,3 mln nafarga yetib, bir yil davomida 40 foizga oshgan; shu oyning o‘zida 31 mln open banking to‘lovi amalga oshirilgan, to‘lovlar hajmining yillik o‘sishi esa 70 foizni tashkil etgan. Shuningdek, bozorda 145 ta faol uchinchi tomon provayderi open banking mahsulotlarini taklif qilgan [2]. 2025-yil yakunlariga kelib Buyuk Britaniyada open banking orqali amalga oshirilgan to‘lovlar soni 351 mln taga, API murojaatlari esa 24 mlrd taga yetgan [3]. Mazkur tajriba korporativ va biznes mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishda ochiq API, real vaqt rejimidagi ma’lumot almashinuvi, avtomatlashtirilgan to‘lovlar va bank xizmatlarini korxonalarning biznes tizimlari bilan integratsiyalash muhim yo‘nalishlar ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini qiyosiy o‘rganish va uning milliy bank amaliyotiga mos jihatlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish masalasi, avvalo, bank biznes-modellarining raqamli transformatsiyasi, ochiq banking, FinTech hamkorligi va mijozlarga yo‘naltirilgan platformaviy xizmatlar kontekstida tadqiq etilgan. D. Broby moliyaviy texnologiyalar banklarning an’anaviy vositachilik modelini o‘zgartirib, mijozlarni ushlab qolish, yangi mijozlarni jalb etish, Banking-as-a-Service hamda API asosidagi xizmatlarni rivojlantirishni banklarning asosiy strategik yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatadi [4]. Muallif, shuningdek, banklar mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini chuqurroq aniqlash uchun raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlaridan foydalanishi zarurligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, open banking bo‘yicha tadqiqotlarda mijozning roziligi asosida tranzaksion ma’lumotlarni API orqali almashish kredit bozorida axborot assimetriyasini kamaytirishi va moliyaviy xizmatlar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirishi mumkinligi asoslangan [5]. Biroq ushbu modelning samarasi ma’lumotlardan foydalanish mexanizmi, axborot xavfsizligi va bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi raqobat muvozanatiga bog‘liq ekanligi ham qayd etiladi. M. Santos korporativ bankingdagi raqamli transformatsiyani faqat yangi texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmaydigan, balki bank va korporativ mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni platformaviy va integratsiyalashgan model asosida qayta shakllantiruvchi jarayon sifatida baholaydi [6].

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishda raqamlashtirish va texnologik integratsiya ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. S. Sayfullayev korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini o‘rganib, masofaviy xizmatlar, API asosidagi bank mahsulotlari va xorijiy tajribani milliy bank amaliyotiga moslashtirish korporativ bankingni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari ekanligini asoslaydi [7]. M.R. Sagdiyeva tijorat banklari tizimini raqamlashtirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, to‘lov infratuzilmasi, masofaviy xizmatlar hamda innovatsion bank texnologiyalarini rivojlantirish bank xizmatlari samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan ekanligini ta’kidlaydi [8]. M.A. Qosimova esa bank faoliyatining innovatsion rivojlanishida axborot texnologiyalari mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini va banklararo raqobatni kuchaytirishini, shu bilan birga, raqamli xizmatlarning kengayishi axborot xavfsizligi va texnologik risklarni boshqarish masalalarini ham dolzarb etishini qayd etadi [9].

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda korporativ bankingni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi ochiq API, platformaviy banking, ma’lumotlarga asoslangan individual xizmatlar va FinTech bilan hamkorlik bilan bog‘lanayotgan

bo‘lsa, mahalliy tadqiqotlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, masofaviy xizmatlarni kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Shu jihatdan, rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini qiyosiy o‘rganish va ularning O‘zbekiston bank tizimiga mos elementlarini aniqlash mazkur tadqiqotning muhim ilmiy yo‘nalishini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribasini o‘rganishda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda qo‘llanilayotgan open banking, API-banking, raqamli trade finance, cash-management va boshqa innovatsion xizmatlar amaliyoti tahlil qilinib, ularning samarali jihatlarini O‘zbekiston bank tizimiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Tahlil va natijalar

Xorijiy mamlakatlar tajribasining tahlili korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish jarayoni uchta asosiy yo‘nalishda shakllanayotganini ko‘rsatadi: birinchidan, bank va korporativ mijozning axborot tizimlarini API asosida integratsiyalash; ikkinchidan, real vaqt rejimidagi to‘lovlar va likvidlikni boshqarish xizmatlarini kengaytirish; uchinchidan, sun’iy intellekt, tokenizatsiya va ma’lumotlar tahlili asosida xizmatlarni individuallashtirish. Rivojlangan moliya bozorlarida bank xizmati alohida mahsulot sifatida emas, balki korporativ mijozning operatsion va moliyaviy jarayonlariga integratsiyalashgan raqamli yechim sifatida shakllanmoqda.

Buyuk Britaniyada open banking ushbu modelning amaliy ko‘rinishlaridan biridir. 2025-yil mart holatiga mamlakatda open banking xizmatlarining faol foydalanuvchilari soni 13,3 mln nafarga yetgan, mart oyining o‘zida 31 mln ta open banking to‘lovi amalga oshirilgan va to‘lovlar soni yillik hisobda 70 foizga oshgan. Shu bilan birga, bozorda 145 ta faol uchinchi tomon provayderi xizmat ko‘rsatgan. Mazkur ko‘rsatkichlar bank xizmatlarini mijozning biznes platformasi, buxgalteriya tizimi yoki boshqa FinTech yechimlari bilan integratsiyalash imkoniyatlari tobora kengayayotganini ko‘rsatadi.

AQShda esa real vaqt rejimidagi to‘lov infratuzilmasining rivojlanishi korporativ bank xizmatlarining tezkorligini oshirmoqda. Federal Reserve Financial Services ma’lumotlariga ko‘ra, FedNow tizimi orqali 2025-yilda 8,41 mln ta to‘lov amalga oshirilib, ularning umumiy qiymati 853,4 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Bu 2024-yilga nisbatan operatsiyalar sonining 458,9 foizga, qiymatining esa 2 134,2 foizga oshganini anglatadi. Bir to‘lovning o‘rtacha qiymati 101,4 ming AQSh dollariga yetgani ushbu tizimdan nafaqat chakana, balki yuqori qiymatli biznes operatsiyalarida foydalanish imkoniyati ham kengayayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Ayrim rivojlangan mamlakatlarda korporativ bank xizmatlarini innovatsion rivojlantirish ko‘rsatkichlari*

Mamlakat / tizim	Innovatsion yo‘nalish	Asosiy statistik ko‘rsatkich	Korporativ mijozlar uchun ahamiyati
Buyuk Britaniya	Open banking, API	13,3 mln faol foydalanuvchi; 31 mln oylik to‘lov; 70% yillik o‘sish	Bank xizmatlarini biznes platformalari bilan integratsiyalash
AQSh – FedNow	Real-time payments	8,41 mln to‘lov; 853,4 mlrd AQSh dollari	24/7 rejimida tezkor hisob-kitoblar
Singapur – DBS	AI va raqamli corporate banking	20 mingdan ortiq korporativ va SME mijoz DBS Joy’dan foydalangan	AI asosida mijozlarga tezkor va individual xizmat
AQSh – J.P. Morgan	Blockchain va tokenizatsiya	Kinexys orqali kuniga 5 mlrd dollardan ortiq tranzaksiya	Dasturlashtiriladigan va tokenlashtirilgan hisob-kitoblar

**Manba: Open Banking Limited, Federal Reserve Financial Services, DBS Bank va JPMorgan Chase rasmiy ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Singapur tajribasida korporativ bank xizmatlarini sun’iy intellekt asosida rivojlantirish alohida e’tiborga loyiq. DBS Bank 2025-yilda 2 000 dan ortiq AI/ML modelini 430 dan ortiq foydalanish holatlarida qo‘llagan va ma’lumotlar tahlili hamda sun’iy intellektdan qariyb 1 mlrd Singapur dollari miqdorida iqtisodiy qiymat yaratganini ma’lum qilgan. Shuningdek, GenAI asosidagi DBS Joy xizmatidan 20 mingdan ortiq korporativ va SME mijoz foydalanishi ushbu texnologiyalar endilikda eksperimental vosita emas, balki korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatishning amaliy kanaliga aylanayotganini ko‘rsatadi.

J.P. Morgan amaliyotida esa korporativ bank xizmatlarining innovatsion rivojlanishi to‘lovlar, sun’iy intellekt va raqamli aktivlar bilan uzviy bog‘langan. Bankning Commercial & Investment Bank segmentidagi raqamli platformalari 400 mingdan ortiq foydalanuvchini qamrab oladi, Payments yo‘nalishi kuniga qariyb 65 mln tranzaksiyani qayta ishlab, 120 ta valyutada qariyb 12 trln AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ harakatini ta’minlaydi. Kinexys blokcheyn platformasi esa kuniga 5 mlrd AQSh dollaridan ortiq operatsiyalarni qayta ishlamoqda.

Xorijiy banklarda innovatsion korporativ xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun faqat texnologik ko‘rsatkichlarni emas, balki korporativ va institutsional segmentlarning moliyaviy natijalarini ham tahlil qilish muhim. Shu maqsadda 2023–2025-yillarda J.P. Morgan Chase, HSBC va DBS Bank korporativ hamda institutsional segmentlari daromadlari dinamikasi o‘rganildi.

2-jadval.

Yetakchi xorijiy banklarning korporativ va institutsional banking segmentlari daromadlari dinamikasi, 2023–2025-yillar*

Bank	Segment	Valyuta	2023	2024	2025	2025/2023 o‘zgarish, %	O‘rtacha yillik o‘sish, %
J.P. Morgan Chase	Commercial & Investment Bank	mlrd AQSh dollari	64,353	70,114	78,454	**+21,9**	**+10,4**
HSBC	Corporate & Institutional Banking	mlrd AQSh dollari	24,723	26,772	27,637	**+11,8**	**+5,7**
DBS Bank	Institutional Banking	mlrd SGD	9,388	9,159	8,906	**–5,1**	**–2,6**

*Manba: J.P. Morgan Chase, HSBC va DBS Bankning 2025-yilgi rasmiy yillik hisobotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2-jadval ma’lumotlari korporativ banking segmentlarida bir xil tendensiya shakllanmaganini ko‘rsatadi. J.P. Morgan Chase Commercial & Investment Bank segmentining jami sof daromadi 2023-yildagi 64,4 mlrd AQSh dollaridan 2025-yilda 78,5 mlrd AQSh dollariga oshib, uch yillik o‘sish 21,9 foizni tashkil etdi. Shu davrda Payments biznesi daromadi 17,8 mlrd dollardan 19,3 mlrd dollarga ko‘tarilgan. Bu bankning korporativ tranzaksion xizmatlar, to‘lovlar va raqamli platformalarni rivojlantirish strategiyasi uning daromad bazasida muhim o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

HSBC Corporate & Institutional Banking segmentida ham ijobiy dinamika kuzatilib, daromad 2023-yildagi 24,7 mlrd AQSh dollaridan 2025-yilda 27,6 mlrd AQSh dollariga oshgan. Uch yillik umumiy o‘sish 11,8 foizni tashkil etgan. 2025-yilda mazkur segmentning soliqqa tortilgunga qadar foydasi 11,4 mlrd AQSh dollariga yetgan. Ushbu natijalar transchegaraviy transaction banking, to‘lov, likvidlik boshqaruvi va kapital bozori xizmatlarining korporativ bank biznesidagi barqaror rolini ko‘rsatadi.

DBS Bankning Institutional Banking segmentida esa jami daromad 2023-yildagi 9,388 mlrd SGDdan 2025-yilda 8,906 mlrd SGDga kamaygan. Biroq ushbu pasayishni innovatsion korporativ xizmatlar samaradorligining susayishi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. 2025-yilda segmentning sof foizsiz daromadi 9 foizga oshib, 2,64 mlrd SGDga yetgan va ushbu o‘sish kredit bilan bog‘liq komissiyalar, cash-management xizmatlari hamda treasury mijozlari daromadlari hisobiga

shakllangan. Jami daromadning qisqarishi esa asosan sof foiz marjasining pasayishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Mazkur natijalar muhim metodologik xulosani shakllantirish imkonini beradi: korporativ bank xizmatlarining innovatsion rivojlanish darajasini faqat jami segment daromadi bilan baholash yetarli emas. Chunki makroiqtisodiy muhit, foiz stavkalari va sof foiz marjasi segmentning jami daromadiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli innovatsion korporativ banking samaradorligini baholashda payments daromadi, cash-management komissiyalari, trade finance daromadlari, foizsiz daromadlar, API orqali bajarilgan operatsiyalar, real vaqt to‘lovlari, raqamli foydalanuvchilar soni hamda mijoz qoniqish darajasi kabi ko‘rsatkichlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

1-rasm.

Korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribaga asoslangan modeli*



*Manba: Buyuk Britaniya, AQSh va Singapur bank amaliyotlarini umumlashtirish asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston tijorat banklari uchun xorijiy tajribadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nusxa olishdan ko‘ra, uning funksional elementlarini bosqichma-bosqich moslashtirish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda korporativ mijozlarning ERP va buxgalteriya tizimlarini bank platformalari bilan API asosida integratsiyalash, ikkinchi bosqichda real vaqt rejimidagi to‘lovlar va avtomatlashtirilgan cash-management xizmatlarini kengaytirish, keyingi bosqichda esa sun’iy intellekt asosida kredit riskini baholash va individual xizmat paketlarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Tokenlashtirilgan depozitlar va dasturlashtiriladigan to‘lovlar esa texnologik va normativ infratuzilma yetarli darajada shakllanganidan so‘ng rivojlantirilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, xorijiy tajriba korporativ bank xizmatlarining innovatsion rivojlanishi “ko‘proq mahsulot taklif qilish”dan “mijoz biznesiga chuqurroq integratsiyalashish”ga o‘tish bilan tavsiflanayotganini ko‘rsatadi. Bank uchun innovatsiyaning iqtisodiy qiymati tranzaksion va komission daromadlarning o‘sishi, mijozni ushlab qolish va operatsion samaradorlik orqali namoyon bo‘lsa, korporativ mijoz uchun uning natijasi to‘lovlar tezligi, likvidlikni samarali boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy qarorlar qabul qilishning tezlashishida aks etadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari xorijiy mamlakatlarda korporativ bank xizmatlarini

innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari open banking, API-banking, real vaqt rejimidagi to‘lovlar, smart cash-management, sun’iy intellekt asosidagi personalizatsiya, raqamli trade finance hamda tokenlashtirilgan hisob-kitoblar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Buyuk Britaniya, AQSh va Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy korporativ bankingda bank mahsulotlarini alohida taklif etishdan korporativ mijozning biznes jarayonlariga integratsiyalashgan moliyaviy xizmatlar modeliga o‘tish tendensiyasi kuchaymoqda. Shuningdek, xorijiy banklarning 2023–2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari korporativ va institutsional banking segmentida innovatsion xizmatlarning bank daromadlari, tranzaksion faollik va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston tijorat banklari uchun korporativ mijozlarga innovatsion xizmatlarni rivojlantirishda bir nechta ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: korporativ mijozlarning ERP va buxgalteriya tizimlarini bank infratuzilmasi bilan API orqali integratsiyalash; real vaqt rejimidagi to‘lovlar va avtomatlashtirilgan cash-management xizmatlarini kengaytirish; sun’iy intellekt va Big Data asosida mijoz ehtiyojlari hamda kredit riskini baholash tizimlarini rivojlantirish; trade finance operatsiyalarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish; innovatsion xizmatlar samaradorligini tranzaksion daromadlar, komission tushumlar, raqamli operatsiyalar ulushi va mijoz qoniqish darajasi asosida baholash tizimini joriy etish. Shu bilan birga, tokenlashtirilgan depozitlar va dasturlashtiriladigan to‘lovlar kabi ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy bank tizimiga joriy etishda normativ-huquqiy, texnologik va risklarni boshqarish infratuzilmasining tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur. Mazkur yondashuvlar korporativ bank xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish, bank–mijoz munosabatlarini mustahkamlash va tijorat banklarining barqaror daromad bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McKinsey & Company. *Charting a Path to Increasing Transaction Banking Value by 50 Percent*. 10 September 2025. Global transaction banking revenue — qariyb $1.3 trln; ulgurji banking daromadlaridagi ulushi — 47 foiz.

2. Open Banking Limited. *Impact Report 7: Open Banking Delivers Real-World Impact as Adoption Accelerates Year-on-Year*. 16 May 2025.

3. Open Banking Limited. *Open Banking in 2025: Now Part of the UK’s Everyday Financial Life*. 29 January 2026. 2025-yilda 351 mln open banking to‘lovi va 24 mlrd API murojaati qayd etilgan.

4. Broby, D. (2021). *Financial Technology and the Future of Banking*. Financial Innovation, 7, Article 47. DOI: 10.1186/s40854-021-00264-y.

5. *Open Banking: Credit Market Competition When Borrowers Own the Data*. (2023). *Journal of Financial Economics*, Vol. 147, No. 2, pp. 449–474. DOI: 10.1016/j.jfineco.2022.12.003.

6. Santos, M. (2023). *“If You Believe in a Platform World…” – Corporate Banking and Digital Transformation in Investor Relations Discourse*. Geoforum, 103695. DOI: 10.1016/j.geoforum.2023.103695.

7. Sayfullayev, S. (2026). “Korporativ mijozlarga ko‘rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish”. *Moliya va bank ishi*, 12(2), 228–232-b.

8. Sagdiyeva, M.R. (2025). “Tijorat banklari tizimini raqamlashtirish jarayonida innovatsion bank texnologiyalarni rivojlantirish”. *Economics and Innovative Technologies*, 13(4), 94–100. DOI: 10.55439/EIT/vol13_iss4/702.

9. Qosimova, M.A. (2024). “Banklar faoliyatini innovatsion rivojlantirishda axborot texnologiyalarining roli”. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 347–355. DOI: 10.55439/AFA/vol4_iss03/168.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

БАНК ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА МАСОФАВИЙ БАНК ХИЗМАТЛАРИНИНГ ТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ АМАЛИЁТИ

Эрдонаев Аликул Халимович

Тошкент давлат иқтисодиёт университети иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Аннотация. *Мақолада замонавий банк технологиялари ва масофавий банк хизматларининг асосий турлари, улардан Ўзбекистон тижорат банклари амалиётида фойдаланиш ҳолати ҳамда рақамли хизматларнинг банк операцион самарадорлиги ва мижозлар учун қулайликка таъсири тадқиқ этилган. Интернет-банкинг, мобил банкинг, масофавий идентификация, Face ID, QR ва контактсиз тўловлар, автоматлаштирилган кредитлаш, CRM, API, булутли технологиялар ва сунъий интеллектнинг банк бизнесидаги ўрни очиб берилган. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий статистикаси ҳамда Капиталбанк, Ипак Йўли банки, Hamkorbank ва бошқа банклар амалиёти асосида масофавий хизматлар ривожланиш тенденциялари баҳоланган. Банк технологияларини баҳолаш учун функционаллик, хавфсизлик, тезлик, қамров ва иқтисодий самарадорлик мезонларини бирлаштирувчи илмий-амалий ёндашув таклиф этилган.*

Калит сўзлар: *банк технологиялари, масофавий банк хизмати, интернет-банкинг, мобил банкинг, Face ID, рақамли идентификация, QR-тўлов, API, CRM, сунъий интеллект, киберхавфсизлик, рақамли банк.*

ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БАНКОВСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И РАЗЛИЧНЫХ ВИДОВ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ

Эрдонаев Аликул Халимович

Ташкентский государственный экономический университет Доктор экономических наук, доцент

Аннотация. *В статье исследованы современные банковские технологии и практика использования дистанционных банковских услуг в коммерческих банках Узбекистана. Рассмотрены интернет-банкинг, мобильный банкинг, дистанционная идентификация, Face ID, QR- и бесконтактные платежи, автоматизированное кредитование, CRM, API и искусственный интеллект. На основе официальной статистики Центрального банка и практических материалов коммерческих банков оценены тенденции развития дистанционного обслуживания и предложены направления повышения его эффективности и безопасности.*

Ключевые слова: *банковские технологии, дистанционное банковское обслуживание, интернет-банкинг, мобильный банкинг, Face ID, цифровая идентификация, QR-платежи, API, CRM, искусственный интеллект.*

PRACTICE OF USING BANKING TECHNOLOGIES AND VARIOUS TYPES OF REMOTE BANKING SERVICES

Erdonaev Aliqul Halimovich

Tashkent State University of Economics Doctor of Economics, Associate Professor

Abstract. *The article examines modern banking technologies and the practice of remote banking services in commercial banks of Uzbekistan. It analyzes internet and mobile banking, remote identification, Face ID, QR and contactless payments, automated lending, CRM, APIs and artificial intelligence. Based on official Central Bank statistics and practical banking materials,*

the study assesses the development of remote services and proposes measures to improve their efficiency, accessibility and cybersecurity.

Keywords: *banking technologies, remote banking, internet banking, mobile banking, Face ID, digital identification, QR payments, API, CRM, artificial intelligence.*

Кириш.

Рақамли иқтисодиёт шароитида банк технологиялари молиявий воситачиликнинг техник инфратузилмасидан банк рақобатбардошлигини белгиловчи стратегик ресурсга айланди. Мижоз банкка боришни эмас, молиявий вазифани исталган вақт ва жойда бажаришни кутади. Шу сабабли масофавий банк хизматлари филиал хизматининг қўшимча канали эмас, балки банк бизнес-моделининг асосий элементи сифатида шаклланмоқда.

Ўзбекистонда мазкур жараён айниқса тўловлар, мобил иловалар, рақамли идентификация ва масофадан ҳисобварақ очиш соҳасида жадаллашди. Марказий банкнинг расмий ҳисоботига кўра, 2025 йил бошига Face ID технологиясидан фойдаланувчи тижорат банклари сони 28 тага етган, рақамли идентификациядан ўтган мижозлар сони эса 12,2 млн нафарга етган [1]. Бу банк хизматларини филиалдан смартфонга кўчириш учун институционал ва технологик база кенгайганини англатади.

Банк технологияси деганда банк маҳсулотини яратиш, сотиш, ҳисобга олиш, назорат қилиш ва мижозга етказиб беришда қўлланиладиган ахборот, дастурий, коммуникацион ва ташкилий ечимлар мажмуи тушунилади. Замонавий банк технологияларини front-office, middle-office ва back-office технологияларига ажратиш мумкин.

Front-office технологиялари мижоз билан тўғридан-тўғри алоқани таъминлайди: мобил илова, интернет-банкинг, банкомат, инфокиоск, call-center, чат-бот ва QR-тўловлар. Middle-office технологиялари скоринг, риск-менежмент, AML, fraud monitoring ва CRMни қамраб олади. Back-office эса core banking, бухгалтерия, ҳисоб-китоб, маълумотлар омбори ва интеграция платформаларини ўз ичига олади.

Технологик трансформациянинг асосий вазифаси ушбу уч қатламни ягона маълумот ва жараён архитектурасига бирлаштиришдир. Акс ҳолда мижоз мобил илова орқали ариза берса ҳам, банк ичида жараён қўлда давом этиши мумкин.

Тадқиқот методологияси

Мазкур тадқиқотда банк технологиялари ва масофавий банк хизматларининг турларидан фойдаланиш амалиётини ўрганишда тизимли, комплекс ва қиёсий ёндашувлардан фойдаланилди. Тадқиқот жараёнида банк тизимида рақамли технологияларни жорий этиш ҳолати, масофавий банк хизматларининг ривожланиш тенденциялари, улардан фойдаланиш кўлами ва самарадорлиги ўрганилди. Шунингдек, интернет-банкинг, мобил банкинг, SMS-банкинг, электрон тўлов тизимлари, масофавий идентификация, QR-тўловлар, API-банкинг ва бошқа рақамли хизмат турларининг банк мижозларига кўрсатилаётган хизматлар сифати ва тезкорлигига таъсири таҳлил қилинди.

Тадқиқотда илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, қиёсий таҳлил, статистик гуруҳлаш, динамик қаторлар таҳлили ҳамда график ва жадвал усулларидан фойдаланилди. Банк технологиялари ва масофавий хизматларнинг ривожланиш динамикасини баҳолашда расмий статистик маълумотлар, Марказий банк маълумотлари, тижорат банкларининг ҳисоботлари, илмий адабиётлар ва соҳада амалга оширилган тадқиқот натижалари асосий ахборот манбалари сифатида хизмат қилди. Олинган маълумотларни умумлаштириш орқали масофавий банк хизматларини ривожлантиришга таъсир этувчи асосий омиллар, мавжуд муаммолар ва уларни бартараф этиш йўналишлари аниқланди.

Шу билан бирга, тадқиқотда хорижий давлатлар банк тизимида қўлланилаётган замонавий рақамли технологиялар ва масофавий хизмат кўрсатиш амалиёти қиёсий жиҳатдан таҳлил қилиниб, уларнинг Ўзбекистон банк тизими шароитида қўллаш

имкониятлари баҳоланди. Тадқиқот натижалари асосида банк хизматларини рақамлаштириш, мижозларга масофадан хизмат кўрсатиш сифатини ошириш, хизмат кўрсатиш харажатларини камайтириш ва банк операцияларининг самарадорлигини ошириш бўйича илмий-амалий хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди.

Адабиётлар таҳлили

Банк технологиялари ва масофавий банк хизматларини ривожлантириш масалалари хорижий ва маҳаллий иқтисодчи олимларнинг илмий тадқиқотларида кенг ўрганилган. Замонавий илмий адабиётларда банк хизматларини рақамлаштириш жараёни нафақат анъанавий банк операцияларини электрон шаклга ўтказиш, балки банкнинг бизнес модели, мижозлар билан муносабатлари, хизмат кўрсатиш каналлари ва операцион жараёнларини тубдан трансформация қилиш сифатида талқин этилмоқда. Хусусан, рақамли банк хизматларининг ривожланиши мобил банкинг, интернет-банкинг, электрон тўловлар, масофавий идентификация, API-банкинг, QR-код асосидаги тўловлар, автоматлаштирилган скоринг, сунъий интеллект ва маълумотларни таҳлил қилиш технологияларининг банк фаолиятига кенг кириб бориши билан боғлиқ. Шу нуқтаи назардан, масофавий банк хизматлари мижозларнинг банк офисига бевосита ташриф буюрмасдан молиявий операцияларни тезкор, хавфсиз ва қулай амалга оширишини таъминлайдиган замонавий хизмат кўрсатиш механизми сифатида қаралмоқда.

Хорижий олимлардан Xavier Vives банк соҳасидаги рақамли трансформацияни молиявий воситачилик тизимидаги таркибий ўзгариш сифатида баҳолайди. Муаллифнинг фикрича, рақамли технологиялар анъанавий банклар билан FinTech ва BigTech компаниялари ўртасидаги рақобатни кучайтириш билан бирга, банк хизматлари самарадорлигини ошириш ва мижозларга йўналтирилган платформавий бизнес моделларини шакллантириш имкониятини яратади. Шу билан бирга, рақамли технологияларнинг кенг тарқалиши банкларнинг филиалларга асосланган анъанавий хизмат кўрсатиш моделидан рақамли платформаларга асосланган моделга босқичма-босқич ўтишини тезлаштиради. Мазкур ёндашувдан келиб чиқиб, банк технологияларини ривожлантириш фақат янги дастурий маҳсулотларни жорий қилиш билан чекланмасдан, банкнинг ташкилий тузилмаси, маҳсулот сиёсати, маълумотларни бошқариш тизими ҳамда мижозлар билан ўзаро муносабатларини комплекс равишда ўзгартиришни талаб қилади[11].

Aijaz A. Shaikh ва Heikki Karjaluoto мобил банкингдан фойдаланиш бўйича илмий тадқиқотларни тизимлаштириб, мижозларнинг масофавий банк хизматларини қабул қилишига таъсир этувчи асосий омилларни аниқлаган. Муаллифлар томонидан ўрганилган тадқиқотларда хизматдан фойдаланишнинг қулайлиги, унинг фойдалилигини англаш, технологиянинг мижоз турмуш тарзига мослиги, ишонч ва хавфсизлик каби омиллар мобил банкингни қабул қилишда муҳим аҳамият касб этиши қайд этилган. Шунингдек, улар масофавий хизматлар ривожланишида Technology Acceptance Model (TAM) каби назарий моделлардан кенг фойдаланилганини кўрсатади. Бу эса банклар масофавий хизмат турларини кўпайтириш билан бир қаторда уларнинг интерфейси соддалиги, операциялар тезлиги, ахборот хавфсизлиги ва мижозлар ишончини таъминлаш масалаларига ҳам устувор эътибор қаратиши лозимлигини кўрсатади[12].

Cajetan Mbama ва Patrick Ezepue томонидан рақамли банк хизматлари, мижозлар тажрибаси ва банкларнинг молиявий натижалари ўртасидаги боғлиқлик тадқиқ этилган. Уларнинг ёндашувида рақамли банкингнинг самарадорлиги фақат технологик инфратузилманинг мавжудлиги билан эмас, балки мижознинг банк билан рақамли мулоқот жараёнида оладиган умумий тажрибаси билан баҳоланади. Рақамли каналларнинг қулайлиги, хизматларнинг узлуксизлиги, операцияларни амалга ошириш тезлиги, персонализация даражаси ва хавфсизлик мижозларнинг қониқиш даражасига таъсир кўрсатувчи муҳим омиллар сифатида қаралади. Уларнинг тадқиқоти рақамли банк

хизматлари мижозлар тажрибаси ва банкнинг молиявий натижалари билан ўзаро боғлиқлигини ўрганишга қаратилган. Шу сабабли замонавий шароитда банкнинг рақобатбардошлигини баҳолашда филиаллар сони ёки анъанавий маҳсулотлар ҳажми билан бир қаторда рақамли хизматлардан фойдаланиш қулайлиги ва уларнинг функционал имкониятлари ҳам муҳим мезонга айланмоқда[13].

Ўзбекистон банк тизимига бағишланган тадқиқотларда ҳам масофавий хизматлар молиявий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш, тўлов операцияларини тезлаштириш ва банкларнинг операцион харажатларини оптималлаштириш воситаси сифатида қаралмоқда. Жумладан, Т.М. Шарипов Ўзбекистонда 2021–2025 йилларда масофавий банк хизматларининг ривожланиш тенденцияларини молиявий оммабоплик билан боғлиқ ҳолда тадқиқ қилиб, мобил банкинг, банк карталари, рақамли транзакциялар ва тўлов инфратузилмасининг ривожланишини молиявий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини оширувчи омиллар сифатида баҳолайди[14]. Ф.У. Тошмуродов эса Ўзбекистон тижорат банкларида масофавий банк хизматларини ташкил этиш ва амалга ошириш механизмларини ўрганиб, интернет-банкинг, мобил банкинг, QR-код тўловлари, онлайн кредитлаш ва автоматлаштирилган тўлов тизимларининг технологик ҳамда институционал асосларига алоҳида эътибор қаратган. Ушбу тадқиқотда масофавий хизматларнинг самарадорлиги билан бир қаторда киберхавфсизлик, инфратузилманинг тайёрлиги ва мижозлар ишончини таъминлаш масалаларининг аҳамияти қайд этилган[15].

Шунингдек, З.З. Худайберганова ва С.А. Мухамедова томонидан банк тизимида масофавий хизматларнинг амалий қўлланилиши, иқтисодий самарадорлиги ва банк фаолияти трансформациясидаги ўрни таҳлил қилинган. Муаллифлар мобил банкинг, интернет-банкинг, онлайн тўловлар, Telegram-ботлар ва автоматлаштирилган хизмат кўрсатиш каналларини замонавий банк хизматларининг муҳим шакллари сифатида тадқиқ этган. Мазкур тадқиқотлар Ўзбекистон банк тизимида масофавий хизматларни ривожлантириш фақат хизмат турларини кўпайтириш билан чекланмасдан, уларнинг иқтисодий самарадорлиги, мижоз учун қулайлиги, хавфсизлиги ва банкнинг бошқа ахборот тизимлари билан интеграциялашув даражасини ошириш зарурлигини кўрсатади[16].

Таҳлил ва натижалар

Марказий банк статистикаси масофавий хизматларнинг оммавийлашганини кўрсатади. 2025 йил 1 октябрь ҳолатига масофавий банк хизматлари фойдаланувчилари бўйича Халқ банкида 8,19 млн, Алоқабанкда 6,28 млн, Ўзсаноатқурилишбанкда 6,01 млн, Ипотека-банкда 4,74 млн, Ипак Йўли банкида 4,58 млн, Hamkorbankда 2,63 млн ва Капиталбанкда 2,03 млн умумий фойдаланувчи қайд этилган [2]. Бу рақамлар банклар кесимида рақамли каналлар қамрови катта масштабга чиққанини кўрсатади.

Шу билан бирга, фойдаланувчилар сонини тўғридан-тўғри “фаол мижозлар” деб қабул қилиш методологик жиҳатдан тўғри эмас. Бир шахс бир нечта банк тизимида рўйхатдан ўтиши мумкин, шунингдек рўйхатдан ўтган аккаунт ҳар ой фаол бўлмаслиги мумкин. Шу сабабли банклар MAU, DAU/MAU, digital transaction share ва digital sales share каби қўшимча KPIларни очиқлашга ўтиши мақсадга мувофиқ.

2025 йил 1 июлдан 1 октябргача Ипак Йўли банкида умумий масофавий хизмат фойдаланувчилари 4,106 млндан 4,578 млнга, Капиталбанкда 1,891 млндан 2,027 млнга, Hamkorbankда 2,601 млндан 2,627 млнга ўзгарган [2; 3]. Ушбу динамика банклар бўйича рақамли база ўсиш суръати турлича эканини кўрсатади. Масофавий хизматнинг тўлиқ цикли мижозни ишончли идентификация қилишдан бошланади. Марказий банк маълумотига кўра, 2025 йил бошига Face ID технологиясидан 28 та тижорат банки ва 15 та тўлов ташкилоти фойдаланган. Рақамли идентификациядан ўтган мижозлар сони 12,2 млн нафарга етган ва бир йилда 5,4 млн нафарга кўпайган [1].

Рақамли идентификациянинг иқтисодий самараси бир нечта йўналишда намоён

бўлади: филиалга ташриф камаяди; onboarding вақти қисқаради; географик қамров кенгаяди; ходимнинг қўл меҳнати камаяди; маҳсулотни 24/7 сотиш имкони пайдо бўлади. Бироқ идентификация технологияси fraud ва account takeover хавфларини ҳам ҳисобга олиши керак. Шу сабабли liveness detection, device fingerprint, transaction monitoring ва risk-based authentication биргаликда қўлланилиши мақсадга мувофиқ.

Мобил банкинг банк ва мижоз ўртасидаги энг тез ривожланаётган каналдир. Ипак Йўли банкининг расмий маълумотига кўра, Ipak Yuli Mobile 2025 йилда CX Banking Index рейтингида First Impression бўйича кумуш ва Daily Banking бўйича бронза натижасини олган [4]. Бу мобил хизматларни баҳолашда функциялар сонидан ташқари интерфейс, ишончлилик ва кундалик операцияларнинг соддалиги муҳим эканини кўрсатади.

Банк мобил иловасини “рақамли филиал” сифатида эмас, мижознинг шахсий молиявий платформаси сифатида ривожлантириш мақсадга мувофиқ. Бунда карта ва тўловлардан ташқари бюджетлаш, шахсий молия таҳлили, автоматик жамғарма, кредит лимити, депозит, инвестиция ва персоналлаштирилган тавсиялар бир интерфейсда интеграция қилиниши мумкин.

Мобил банкинг самарадорлигини downloads ёки registration билан эмас, MAU, transaction frequency, crash-free sessions, completion rate, average task time, digital product conversion ва NPS орқали баҳолаш зарур.

Корпоратив мижозлар учун масофавий банк технологиялари тўлов топшириқномалари, ҳисобварақ назорати, иш ҳақи лойиҳалари, валюта операциялари, корпоратив карталар, аккредитив ва бошқа операцияларни электрон каналга ўтказади. Бу ерда интерфейсдан ташқари ERP ва бухгалтерия тизимлари билан API-интеграция катта аҳамиятга эга.

Open API ва host-to-host интеграцияси корхонада тўлов ҳужжатини бир тизимда тайёрлаб, банк тизимига автоматик юбориш имконини беради. Бу double entry хатоларини камайтиради ва treasury функциясини тезлаштиради. Келгусида Ўзбекистон банклари учун корпоратив API banking B2B сегментида рақобатнинг муҳим омили бўлади.

Юридик шахслар учун хавфсизликда role-based access, икки босқичли тасдиқ, электрон имзо, лимитлар, maker-checker механизми ва аномал операцияларни мониторинг қилиш муҳим.

Сунъий интеллект ва маълумотлар таҳлили масофавий хизматларни пассив операция каналидан интеллектуал сервисга айлантиради. AI кредит скоринги, fraud detection, AML, чат-бот, speech analytics, персоналлаштирилган таклиф ва churn predictionда қўлланилиши мумкин.

CRM ва Customer 360° мижознинг турли каналлардаги ҳаракатини ягона профилга бирлаштиради. API эса банкнинг ички ва ташқи тизимлари ўртасида маълумот алмашинувини тезлаштиради. Шу сабабли келгуси рақобат мобил илованинг ташқи дизайнидан кўра API architecture, data quality ва real-time decision engine сифатидан кўпроқ боғлиқ бўлади.

AI жорий этишда модель хатоси, дискриминация, маълумот махфийлиги ва қарорларнинг тушунарлилиги назорат қилиниши лозим. Инсон назорати талаб қилинадиган юқори рискли қарорлар учун human-in-the-loop механизми сақланиши мақсадга мувофиқ.

Масофавий хизматлар банкнинг операцион моделига тўғридан-тўғри таъсир қилади. Рақамли операциянинг маржинал харажати филиалда бажариладиган операцияга нисбатан одатда паст бўлади, бироқ IT-инфратузилма, киберхавфсизлик ва дастурий таъминот учун юқори доимий инвестициялар талаб этилади. Шу сабабли рақамли моделда scale effect муҳим.

Иқтисодий самарадорликни Cost per Transaction, Cost-to-Income Ratio, digital sales share, straight-through-processing, average handling time ва филиал юкламасининг камайиши орқали баҳолаш мумкин. Мижоз нуқтаи назаридан эса вақт тежалиши, 24/7 доступ, географик чекловларнинг камайиши ва операция шаффофлиги асосий самара ҳисобланади.

Банк технологиясига инвестицияларни баҳолашда фақат IT бюджет эмас, process saving, risk reduction, incremental revenue ва retention effect ҳам ҳисобга олиниши лозим. Шу асосда рақамли лойиҳалар учун ROI ва payback period ҳисоблаш мумкин.

Ўзбекистон банкларида масофавий хизматлар кенгайиши билан бир қаторда бир нечта муаммолар долзарблигича қолмоқда: legacy core systems, маълумотларнинг тарқоқлиги, каналлар ўртасида интеграция етишмаслиги, киберфирибгарлик, рақамли саводхонлик фарқи, мобил илова UX сифатининг бир хил эмаслиги ва рақамли хизматларнинг фаоллик кўрсаткичлари бўйича очиқ статистиканинг чекланганлиги.

Биринчидан, банкларда mobile-first билан бирга API-first архитектурага ўтиш мақсадга мувофиқ. Иккинчидан, Face ID ва рақамли onboarding fraud monitoring билан ягона риск контурига бирлаштирилиши керак. Учинчидан, ҳар бир асосий масофавий хизмат учун SLA ва customer journey KPI белгиланиши лозим.

Тўртинчидан, банклар registered usersдан ташқари active users, digital sales, STP ва task completion ratени мониторинг қилиши керак. Бешинчидан, корпоратив мижозлар учун ERP/API интеграцияларини стандартлаштириш лозим. Олтинчидан, киберхавфсизлик бўйича мижозларни доимий хабардор қилиш ва transaction risk scoringни кучайтириш зарур.

Банк технологиялари ва масофавий банк хизматлари Ўзбекистон банк тизимининг рақобат моделига туб ўзгариш киритмоқда. Мобил ва интернет-банкинг, рақамли идентификация, Face ID, QR-тўловлар, CRM, API ва AI банк хизматларини вақт ва макон чекловларидан чиқариб, 24/7 форматга ўтказиш имконини бермоқда.

Марказий банк статистикаси масофавий банк хизматлари миллионлаб фойдаланувчиларни қамраб олганини ва digital onboarding инфратузилмаси кенгайганини тасдиқлайди. Бироқ кейинги босқичда асосий вазифа фойдаланувчилар сонини кўпайтириш эмас, балки фаоллик, операция сифати, хавфсизлик ва иқтисодий самарадорликни оширишдан иборат.

Шу боис Ўзбекистон тижорат банкларида “remote banking” тушунчаси алоҳида канал сифатида эмас, end-to-end digital banking platform сифатида шакллантирилиши лозим. Технологиянинг якуний мезони унинг замонавийлиги эмас, мижоз вазифасини қанчалик тез, хавфсиз ва кам харажат билан ҳал қилиши ҳисобланади.

1-жадвал.

Масофавий банк хизматларининг асосий турлари*

Хизмат тури	Асосий канал	Асосий операциялар	Банк учун самара
Мобил банкинг	Smartphone app	P2P, тўлов, карта, депозит, кредит	24/7 сотув ва хизмат
Интернет-банкинг	Web	Ҳисобварақ, тўлов, корпоратив операция	Филиал юкламасини камайтириш
Digital onboarding	Face ID / e-KYC	Идентификация, ҳисоб очиш	Масофадан мижоз жалб қилиш
QR/contactless	QR, NFC	Чакана тўловлар	Cashless операцияларни ошириш
Chat/Call center	Bot, voice	Ахборот, мурожаат, ёрдам	FCR ва хизмат тезлиги
API banking	API / H2H	ERP, treasury, B2B интеграция	Автоматлаштириш ва STP

**Манба: муаллиф ишланмаси.*

2-жадвал.

Айрим банкларда масофавий хизмат фойдаланувчилари, 2025 йил 1 октябрь*

Банк	Юридик шахс ва ЯТТ	Жисмоний шахс	Жами
Халқ банки	136 729	8 058 043	8 194 772
Алоқабанк	92 529	6 190 516	6 283 045
Ўзсаноатқурилишбанк	94 052	5 912 984	6 007 036
Ипотека-банк	183 175	4 557 871	4 741 046
Ипак Йўли банки	85 776	4 492 661	4 578 437
Hamkorbank	161 037	2 466 132	2 627 169
Капиталбанк	71 390	1 955 682	2 027 072

**Манба: Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари [2].*



1-расм. Масофавий банк хизматларининг технологик архитектураси*

**Манба: муаллиф ишланмаси.*

3-жадвал.

Масофавий банк технологияларини баҳолаш учун KPI тизими*

Йўналиш	KPI	Мақсад
Қамров	Registered users, MAU, DAU/MAU	Реал фаолликни баҳолаш
Фойдаланиш	Digital transaction share, frequency	Рақамли каналга миграция
Сотув	Digital sales share, conversion	Онлайн маҳсулот сотуви
Самарадорлик	Cost/transaction, STP, cycle time	Харажат ва вақтни камайтириш
Сифат	NPS, CSAT, task completion	Мижоз тажрибасини яхшилаш
Хавфсизлик	Fraud loss, false positive, incident rate	Рақамли рискни назорат қилиш

**Манба: муаллиф ишланмаси.*

Масофавий банк хизматларининг кенгайиши банкнинг операцион риск профилини ўзгартиради. Филиалда ходим иштирокида бажарилган операцияларда идентификация ва назоратнинг бир қисми инсон орқали амалга оширилган бўлса, рақамли каналларда ушбу функцияларни дастурий алгоритмлар бажаради. Шунинг учун digital onboarding, mobile banking ва онлайн кредитлашда хавфсизлик бизнес-жараённинг охиридаги алоҳида текширув эмас, маҳсулот архитектурасининг бошланғич шарти бўлиши лозим.

Рақамли банкда асосий хавфлар phishing, social engineering, SIM-swap, account takeover, зарарли дастурлар, сохта мобил иловалар, credential stuffing ва мижоз қурилмасининг компрометацияси билан боғлиқ. Уларни камайтириш учун risk-based authentication, device fingerprinting, liveness detection, transaction velocity checks, behavioral

analytics ва real-time fraud scoringдан комплекс фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Марказий банкнинг 2025 йиллик ҳисоботида Face ID технологиясидан фойдаланувчи тижорат банклари сони 28 тага, тўлов ташкилотлари сони 15 тага етгани, рақамли идентификациядан ўтган мижозлар эса 12,2 млн нафарни ташкил этгани қайд этилган. Бу кўлам хавфсиз рақамли идентификацияни банк тизими учун инфратузилмавий масалага айлантиради [1].

Банкда киберхавфсизлик KPIлари фақат ҳужумлар сони билан чекланмаслиги керак. Fraud loss per 1,000 transactions, false-positive rate, authentication failure rate, incident response time, compromised account recovery time ва customer-reported fraud каби кўрсаткичлар масофавий хизмат сифати билан биргаликда мониторинг қилиниши лозим.

Марказий банкнинг 2025 йил 1 октябрь ҳолатига статистикаси бўйича масофавий банк хизматлари тизимларида жами 74 178 175 та фойдаланувчи қайд этилган, шундан 72 493 744 таси жисмоний шахслар, 1 684 431 таси юридик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорларга тўғри келган [2]. Бу кўрсаткич масофавий хизматлар банк тизимининг оммавий инфратузилмасига айланганини кўрсатади.

Айрим банклар кесимида Халқ банки 8,19 млн, Алоқабанк 6,28 млн, Ўзсаноатқурилишбанк 6,01 млн, TBC bank 5,59 млн, Uzum Bank 5,90 млн, Ипотека-банк 4,74 млн ва Ипак Йўли банки 4,58 млн фойдаланувчига эга бўлган [2]. Рақамли моделда ишловчи банкларнинг қисқа вақтда миллионлаб жисмоний шахсларни қамраб олиши филиаллар сони рақобатнинг ягона мезони эмаслигини тасдиқлайди.

Бироқ мазкур статистикани таҳлил қилишда муҳим методологик чеклов мавжуд: кўрсаткичлар уникал фуқаролар сонини эмас, банклар тизимида рўйхатдан ўтган фойдаланувчиларни акс эттиради. Бир шахс бир нечта банкда ҳисобга олиниши мумкин. Шу сабабли банклар рақамли стратегиясини баҳолашда registered users билан бир қаторда MAU, DAU, транзакцион фаоллик ва рақамли маҳсулотлар конверсиясини ҳам ҳисобга олиш зарур.

2025 йил сентябридан октябригача айрим банкларда фойдаланувчилар сонининг ўсиши рақамли каналларга талаб сақланаётганини кўрсатади. Лекин кейинги стратегик босқич экстенсив ўсиш — яъни янги аккаунтлар очишдан — интенсив ўсишга, яъни ҳар бир мижознинг рақамли каналдан фойдаланиш частотаси ва маҳсулотлар сонини оширишга ўтиши керак.

Масофавий банк хизматлари банк даромадлари ва харажатлари структурасига икки томонлама таъсир кўрсатади. Бир томондан, филиал операциялари, қоғоз ҳужжатлар, қўлда маълумот киритиш ва front-office меҳнат харажатлари қисқаради. Иккинчи томондан, core banking модернизацияси, cloud ёки data center инфратузилмаси, cybersecurity, лицензиялар, DevOps ва рақамли маҳсулот жамоалари учун инвестициялар ортади.

Шу сабабли банк рақамли лойиҳасини баҳолашда Total Cost of Ownership ёндашувидан фойдаланиши мақсадга мувофиқ. TCO таркибига дастурий таъминот, интеграция, техник қўллаб-қувватлаш, хавфсизлик, сервер инфратузилмаси, ходимлар ва кейинги модернизация харажатлари киритилади. Иқтисодий самара эса филиал харажатларининг тежалиши, қўшимча комиссия даромади, cross-sell, мижозларни сақлаб қолиш ва risk-loss камайиши билан ўлчанади.

Масофавий хизматларнинг яна бир таъсири — банкнинг географик масштабланиш имконияти. Анъанавий моделда янги ҳудудга кириш филиал, ижара, ходим ва касса инфратузилмасини талаб қилса, рақамли моделда мижозни жалб қилишнинг маржинал харажати нисбатан паст бўлади. Бу digital-only ёки branch-light бизнес-моделларни ривожлантиришга шароит яратади.

Шу билан бирга, барча сегментларни тўлиқ рақамли каналга ўтказиш мақсадга мувофиқ эмас. Мураккаб корпоратив кредитлар, инвестицион маҳсулотлар, йирик ипотека ва хусусий банкингда инсон маслаҳати юқори қиймат яратади. Демак, оптимал модель — рақамли self-service ва эксперт маслаҳатини мижоз эҳтиёжига қараб бирлаштирувчи гибрид

банк моделидир.

4-жадвал.

Масофавий банк хизматларининг банк ва мижоз учун иқтисодий самараси*

Йўналиш	Банк учун натижа	Мижоз учун натижа
Digital onboarding	Филиал юкламаси ва onboarding cost камаяди	Банкка бормасдан ҳисоб очиш
STP ва automation	Қўл меҳнати, хатолар ва cycle time камаяди	Тезкор операция
Mobile banking	Масштабланиш ва cross-sell имконияти	24/7 хизмат
API banking	Корпоратив операциялар автоматлашади	ERPдан тўғридан-тўғри банк хизмати
AI/Fraud analytics	Risk loss ва false positive оптималлашади	Хавфсиз ва тез тасдиқ
Omnichannel	Каналлар самарадорлиги ва retention ошади	Узлуксиз мижоз тажрибаси

**Манба: муаллиф ишланмаси.*

Банк технологиясининг муваффақияти дастурий маҳсулотни сотиб олиш билан эмас, уни банкнинг бизнес-жараёнлари ва бошқарув моделига интеграция қилиш билан белгиланади. Амалиётда кўплаб рақамли лойиҳаларнинг самараси технология ва бизнес бўлинмалари мақсадларининг фарқ қилиши сабабли чекланади. IT бўлими тизимнинг техник барқарорлигини, бизнес бўлими сотувни, риск бўлими эса назоратни устувор деб билади. Мижоз нуқтаи назаридан эса ушбу функцияларнинг барчаси ягона хизмат сифатида қабул қилинади.

Шу сабабли йирик рақамли лойиҳалар учун cross-functional product team ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Унинг таркибига product owner, бизнес-аналитик, IT архитектор, дастурчи, UX/UI мутахассис, риск, комплаенс, ахборот хавфсизлиги ва молия вакиллари киритилиши мумкин. Бундай жамоа маҳсулотнинг ғоядан ишга туширишгача бўлган бутун ҳаётий цикли учун жавобгар бўлади.

Технологик лойиҳаларда Agile ва DevSecOps ёндашувларидан фойдаланиш time-to-marketни қисқартиришга ёрдам беради. DevSecOpsнинг муҳим хусусияти хавфсизлик назоратини маҳсулот ишлаб чиқишнинг охирги босқичига эмас, код яратиш ва тестлаш жараёнига интеграция қилишидир. Банк каби юқори тартибга солинадиган соҳада бу ёндашув инновация тезлиги ва риск назорати ўртасида мувозанат яратиши мумкин.

Ҳар бир рақамли маҳсулот учун product P&L ёки камида иқтисодий самара картасини шакллантириш мақсадга мувофиқ. Масалан, мобил кредит функцияси учун аризалар сони, approval rate, conversion, average ticket, risk cost, acquisition cost, servicing cost ва net contribution биргаликда баҳоланиши керак. Шунда банк функциянинг оммабоплигини эмас, унинг ҳақиқий иқтисодий қийматини кўра олади.

Рақамли хизматда мижоз тажрибаси интерфейс дизайнидан кенгроқ тушунчадир. Мижоз иловага кириш тезлиги, авторизация, операцияни топиш, реквизит киритиш, тасдиқлаш, хатолик юз берганда тушунарли хабар олиш ва муаммони ҳал қилишгача бўлган бутун занжирни ягона тажриба сифатида баҳолайди. Шу сабабли UX тадқиқотлари банк бизнес-жараёнларини оптималлаштириш билан бирга олиб борилиши лозим.

Ipak Yuli Mobilenинг CX Banking Index 2025да First Impression бўйича кумуш ва Daily Banking бўйича бронза натижасига эришгани Ўзбекистон бозорида ҳам рақамли мижоз тажрибаси мустақил рақобат мезонига айланаётганини кўрсатади [4]. Бундай баҳолашлар банклар учун интерфейсни ташқи кўриниш эмас, мижознинг вазифани бажариш қобилияти нуқтаи назаридан кўриб чиқиш зарурлигини кўрсатади.

Банк мобил иловасида customer funnel ҳар бир асосий операция учун алоҳида ўлчаниши керак. Масалан, онлайн депозитда “маҳсулот саҳифасини кўрди → шартларни

очди → аризани бошлади → идентификациядан ўтди → шартномани тасдиқлади → маблағ киритди” босқичларида conversion аниқланади. Қайси босқичда мижозлар кўпроқ чиқиб кетса, айнан шу нуқта UX ёки бизнес-жараён муаммоси сифатида таҳлил қилинади.

Шикоятлар ва call-center мурожаатлари ҳам рақамли маҳсулот аналитикасига қўшилиши керак. Агар мобил иловада муайян функция бўйича мурожаатлар кўпайса, бу фақат контакт-марказ юкламаси эмас, маҳсулот дизайнидаги нуқсон сигнали ҳисобланади. Шу тарзда Voice of Customer маълумотлари product backlogга автоматик киритилиши мумкин.

Келгуси босқичда банк технологиялари embedded finance, Banking-as-a-Service, open banking, real-time analytics ва генератив сунъий интеллект билан янада интеграциялашади. Embedded finance банк маҳсулотининг банк иловасидан ташқари — электрон савдо, транспорт, бухгалтерия ёки бошқа рақамли платформалар ичида тақдим этилишини англатади. Бу банкнинг мижоз билан алоқа нуқталарини кенгайтиради.

Open banking ва API иқтисодиёти мижоз розилиги асосида молиявий маълумотлар ва хизматларни стандарт интерфейслар орқали интеграция қилиш имконини беради. Ўзбекистонда бу йўналишнинг ривожланиши рақобат, маълумотлар хавфсизлиги ва стандартлаштириш масалаларини бир вақтда ҳал қилишни талаб этади. Банклар учун API management, consent management ва third-party risk management янги компетенцияларга айланади.

Генератив сунъий интеллект call-center операторига real-time ёрдам, ҳужжатларни қисқача таҳлил қилиш, мижоз мурожаатларини классификациялаш ва ички билимлар базасидан жавоб тайёрлашда фойдаланилиши мумкин. Бироқ молиявий маслаҳат ва кредит қарорларида hallucination, model governance ва маълумот махфийлиги рисклари сабабли назорат механизми жуда муҳим.

Хулоса ва таклифлар

Тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб, Ўзбекистон тижорат банкларида масофавий хизматларни ривожлантириш учун қуйидаги ёндашувлар таклиф этилади. Биринчидан, рақамли стратегияда “мобил илова функциялари сони” эмас, end-to-end digital journey улуши асосий KPI бўлиши керак. Яъни мижоз операцияни бошидан охиригача филиалга мурожаат қилмасдан якунлай олиши баҳоланиши лозим.

Иккинчидан, банклар registered usersдан ташқари MAU, DAU/MAU, digital sales share, STP rate, task completion rate ва cost per digital transaction каби кўрсаткичларни бошқарув ҳисоботига киритиши зарур. Учинчидан, масофавий идентификация, fraud monitoring ва transaction scoring ягона real-time risk engine орқали бошқарилиши мақсадга мувофиқ.

Тўртинчидан, юридик шахслар учун API banking ва ERP интеграциясини ривожлантириш, стандарт API каталогларини шакллантириш ва корпоратив treasury операцияларини автоматлаштириш керак. Бешинчидан, мобил иловаларда Customer Journey Analytics ва process miningдан фойдаланиб, мижозлар энг кўп тарк этадиган босқичларни аниқлаш ва мунтазам оптималлаштириш лозим.

Олтинчидан, банк технологияларига инвестицияларни тасдиқлашда техник KPIлар билан бир қаторда молиявий KPIлар — ROI, payback period, incremental revenue, cost saving ва risk reduction — мажбурий ҳисобланиши керак. Еттинчидан, банк ходимлари ва мижозлар учун кибермаданиятни ошириш дастурлари доимий жараёнга айлантирилиши лозим.

Умуман, банк технологияларининг келажакдаги ривожланишини “кўпроқ функция” эмас, “кўпроқ интеграция ва интеллектуал қарор” тенденцияси белгилайди. Рақобат устунлиги катта IT бюджетидан эмас, маълумотларни тез қарорга, қарорни эса мижоз учун қийматга айлантириш қобилиятидан шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. 2025 йил учун йиллик ҳисобот. IV-боб:

Миллий тўлов тизими, банк ахборот технологиялари, ахборот ва киберхавфсизлик. Тошкент, 2026.

2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. 2025 йил 1 октябрь ҳолатига масофавий банк хизматлари тизимларидан фойдаланувчилар сони. Расмий статистика.

3. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. 2025 йил 1 июль ҳолатига масофавий банк хизматлари тизимларидан фойдаланувчилар сони. Расмий статистика.

4. Ipak Yuli Bank. Ipak Yuli Mobile CX Banking Index 2025 reytingida e’tirof etildi. 05.12.2025.

5. Basel Committee on Banking Supervision. Digitalisation of finance and implications for banking supervision.

6. World Bank. Digital Financial Services: analytical and policy materials.

7. Davenport T.H. Process Innovation: Reengineering Work through Information Technology. Harvard Business School Press.

8. King B. Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. Wiley.

9. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. Pearson.

10. Ўзбекистон Республикасининг «Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида»ги Қонуни.

11. Vives X. Digital Disruption in Banking // *Annual Review of Financial Economics*. — 2019. — Vol. 11. — P. 243–272. — DOI: 10.1146/annurev-financial-100719-120854.

12. Shaikh A. A., Karjaluoto H. Mobile Banking Adoption: A Literature Review // *Telematics and Informatics*. — 2015. — Vol. 32, No. 1. — P. 129–142. — DOI: 10.1016/j.tele.2014.05.003.

13. Mbama C. I., Ezepue P. O. Digital Banking, Customer Experience and Bank Financial Performance: UK Customers’ Perceptions // *International Journal of Bank Marketing*. — 2018. — Vol. 36, No. 2. — P. 230–255. — DOI: 10.1108/IJBM-11-2016-0181.

14. Sharipov T. M. The Role of Remote Banking Services in Enhancing Financial Inclusion in Uzbekistan // *Innovation Science and Technology*. — 2026. — Vol. 4, No. 9. — P. 20–25. — DOI: 10.5281/zenodo.22478287.

15. Toshmurodov F. U. Ўзбекистон тижорат банкларида масофавий банк хизматларини ташкил этиш ва амалга ошириш механизмини такомиллаштириш // *International Finance & Accounting: илмий электрон журнали*. — 2025. — № 6. — 8 б.

16. Xudayberganova Z. Z., Muxamedova S. A. Analysis of the Practice of Remote Banking Services in the Banking System // *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*. — 2026. — Vol. 4, No. 6. — P. 1–6.

Изоҳ: банклар бўйича статистик маълумотлар расмий очиқ манбалар асосида келтирилган; рўйхатдан ўтган фойдаланувчилар сони уникал ёки ойлик фаол мижозлар сонига тенг деб талқин қилинмайди.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ИҚТИСОДИЁТДА ЯШИРИН МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ АЙЛАНМАСИ: ИШ БЕРУВЧИЛАРНИ МАСЪУЛИЯТИ ВА НОРАСМИЙ БАНДЛИКНИ БАРТАРАФ ЭТИШНИНГ ТИЗИМЛИ ЕЧИМЛАРИ

Муродов Бобиржон Ҳаётжон ўғли
мустақил тадқиқотчи
Тошкент давлат
иқтисодиёт университети
E-mail: bobur0053@mail.ru
ORCID: 0009-0009-5357-2647

Аннотация. *Мазкур мақолада меҳнат бозоридаги норасмий меҳнат муносабатлари, яширин бандлик ва норасмий сектордаги бандлик муаммолари тадқиқ этилган. «Норасмий (яширин) бандлик» тушунчасининг мазмун-моҳиятига оид илмий-назарий ёндашувлар таҳлил қилиниб, меҳнат бозори, аҳоли даромадлари, иш ҳақи ва тўлиқ бўлмаган бандликни ифодаловчи кўрсаткичлар ўрганилган.*

Калит сўзлар: *норасмий бандлик, яширин бандлик, норасмий иқтисодиёт, яширин иқтисодиёт, меҳнат бозори, меҳнат муносабатлари, норасмий сектор, аҳоли бандлиги, меҳнат даромадлари, институционал механизмлар.*

ОБОРОТ СКРЫТЫХ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ В ЭКОНОМИКЕ: ОТВЕТСТВЕННОСТЬ РАБОТОДАТЕЛЕЙ И СИСТЕМНЫЕ РЕШЕНИЯ ПО СОКРАЩЕНИЮ НЕФОРМАЛЬНОЙ ЗАНЯТОСТИ

Муродов Бобиржон Хаётжон угли
независимый исследователь
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: bobur0053@mail.ru
ORCID: 0009-0009-5357-2647

Аннотация. *В статье исследуются проблемы неформальных трудовых отношений, скрытой занятости и занятости в неформальном секторе на рынке труда. Проанализированы научно-теоретические подходы к определению сущности понятия «неформальная (скрытая) занятость», а также показатели, характеризующие состояние рынка труда, доходы населения, уровень заработной платы и неполную занятость.*

Ключевые слова: *неформальная занятость, скрытая занятость, неформальная экономика, теневая экономика, рынок труда, трудовые отношения, неформальный сектор, занятость населения, трудовые доходы, институциональные механизмы.*

HIDDEN LABOUR RESOURCE CIRCULATION IN THE ECONOMY: EMPLOYER RESPONSIBILITY AND SYSTEMIC SOLUTIONS TO REDUCE INFORMAL EMPLOYMENT

Murodov Bobirjon Xayotjon ugli
independent researcher
Tashkent State the University
of Economics
E-mail: bobsn0053@mail.ru
ORCID: 0009-0009-5357-2647

Abstract. *This article examines the problems of informal labor relations, hidden employment, and employment in the informal sector of the labor market. The study analyzes*

scientific and theoretical approaches to defining the essence of the concept of “informal (hidden) employment,” as well as indicators characterizing the state of the labor market, household incomes, wage levels, and underemployment.

Keywords: *informal employment, hidden employment, informal economy, shadow economy, labor market, labor relations, informal sector, employment, labor income, institutional mechanisms.*

Кириш

Норасмий меҳнат муносабатлари, жумладан, яширин бандлик ва норасмий секторлаги бандлик масалалари, уларнинг иқтисодий мазмуни ҳамда иқтисодиёт ва ижтимоий соҳадаги аҳамияти меҳнат бозоридаги институционал ўзгаришлар билан узвий боғлиқ бўлган долзарб илмий йўналишлардан бири ҳисобланади. Норасмий бандликнинг кўлами, шакллари, унинг юзага келиш омиллари ва расмий меҳнат бозорига ўтиш механизмлари халқаро ва миллий илмий адабиётларда кенг тадқиқ этилган [1–5].

Адабиётлар шарҳи

Қатор мутахассислар «норасмий бандлик» категориясини меҳнат муносабатлари тегишли тарзда расмийлаштирилмаган ҳолда даромад келтирувчи фаолият сифатида талқин қиладилар [1; 2].

Айрим мутахассислар мазкур ҳодисанинг турли жиҳатларини қамраб олган янада кенгроқ таърифни таклиф этадилар. Уларнинг фикрига кўра, «...норасмий бандлик ходим ва иш берувчи ўртасида меҳнат вазифасини бажариш бўйича меҳнат шартномаси тузилмаган ҳолда юзага келадиган, ахлоқий-этик тамойилларга зид бўлмаган меҳнат муносабатлари тури бўлиб, у оғзаки келишувлар асосида амалга оширилади [1; 3].

Бунда иш берувчининг давлат томонидан белгиланган ижтимоий кафолатларни таъминлаш харажатларини камайтириш, шунингдек, меҳнатга ҳақ тўлаш, меҳнат ва дам олиш режими ҳамда хавфсиз меҳнат шароитларига риоя этишни тартибга солувчи меҳнат ҳуқуқи нормаларини бажаришдан бўйин товлаш мақсад қилинади».

Бошқа олимларнинг норасмий бандлик тушунчасига берган таърифларида эса жиноий-криминал хусусиятлар ҳам намоён бўлади. Уларнинг талқинига кўра, «...норасмий бандлик — юридик ва жисмоний шахслар томонидан амалга ошириладиган, солиққа тортиш, ижтимоий ҳимоя ва меҳнат қонунчилиги талабларига риоя этиш мақсадида декларация қилинмайдиган, жамият ва давлатдан яшириладиган ҳамда коррупцион алоқаларга асосланган даромад олишга қаратилган фаолиятдир».

Мутахассислар норасмий бандликнинг бошқа жиҳатларига эътибор қаратиб, мазкур соҳада доимий иш ўринлари ва қонунчиликда назарда тутилган иш ҳақи, ижтимоий кафолатлар ва бошқа меҳнат ҳуқуқлари мавжуд эмаслигини таъкидлайдилар [1; 4; 5].

Норасмий сектордаги бандликка эътибор қаратганда, мазкур сектор расмий белгиларига кўра норасмий бандлик билан айнан бир тушунча эмаслигини ва статистик баҳолаш ҳамда ҳисобга олиш объекти бўлиши лозимлигини таъкидлаш зарур. Миллий статистика қўмитасининг методологиясига кўра, хўжалик юритувчи субъектни норасмий секторга киритишнинг асосий мезони унинг юридик шахс мақомига эга эмаслиги ҳисобланади. Булар қаторига ўзини ўзи банд қилган шахслар, якка тартибдаги тадбиркорлар ва улар томонидан ёлланган ходимлар ҳамда юридик шахс сифатида рўйхатдан ўтмаган бошқа шахслар киради. Жумладан, транспорт, умумий овқатланиш, савдо соҳаларида фаолият юритувчилар, нотариуслар, аудиторлар, шифокорлар ва бошқа мутахассислар шулар жумласидандир.

Шу билан бирга, норасмий секторни норасмий иқтисодиёт билан бир хиллаштириш мумкин эмас. Оғзаки келишув асосида меҳнат қилаётган фуқаролар эса ҳозирги вақтда расмий статистик ҳисоб доирасидан ташқарида қолмоқда.

Давлат ва жамият учун иқтисодиётнинг норасмий секторидаги бандликнинг ўзини

мутлақо чеклаш мақсадга мувофиқ эмас, чунки мазкур сектор амалдаги қонунчилик доирасида фаолият юритиши мумкин. Шу сабабли яширин иқтисодиёт кўламини ва унда иштирок этаётган фуқаролар сонини аниқлаш механизмлари ҳамда мезонларини ишлаб чиқишга кўпроқ эътибор қаратиш муҳим [6–9;].

Шу билан бирга, яширин иқтисодиёт кўлами қисқармас экан, норасмий бандлик миқёсини ҳам сезиларли даражада камайтириш қийин. Бироқ бугунги кунда норасмий, жумладан, расмийлаштирилмаган иккиламчи ва бошқа турдаги бандлик кўп ҳолларда аҳолининг тирикчилик қилиши учун ягона имконият бўлиб қолмоқда. Яширин иқтисодиёт мавжуд экан, унда иштирок этишга тайёр бўлган кишилар ҳам деярли ҳар доим ва ҳар қандай ҳудудда топилади. Бу ҳолат, айниқса, юқори даражада дотацияга муҳтож ва меҳнат ресурслари ортиқча бўлган ҳудудлар учун долзарб аҳамиятга эга [1; 4; 8].

Яширин иқтисодиётни легаллаштириш, ўз навбатида, яширин бандлик кўламини қисқартиришга олиб келиши алоҳида таъкидлаб ўтиш керак.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқотнинг ахборот-таҳлилий базасини Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг маълумотлари, ОАВларинг очиқ маълумотлар базаси, шунингдек, норасмий иқтисодий ва меҳнат муносабатлари соҳасида ихтисослашган маҳаллий ва хорижий олимларнинг илмий нашрлари ташкил этади. Тадқиқотда статистик, мантиқий, қиёсий ва гипотетик усуллардан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар

Норасмий бандлик замонавий меҳнат бозорининг долзарб институционал муаммоларидан бири бўлиб, унинг таъсири фақат давлат бюджети даромадларининг камайиши билан чекланмайди.

Мазкур ҳодиса меҳнат муносабатларининг расмийлаштирилмаганлиги натижасида аҳолининг ижтимоий ҳимоя механизмларидан фойдаланиш имкониятларини чеклайди, меҳнат ҳуқуқларининг кафолатланиш даражасини пасайтиради ва меҳнат бозоридаги институционал барқарорликка салбий таъсир кўрсатади.

Шу нуқтаи назардан, норасмий бандликни иқтисодий фаолиятнинг алоҳида шакли сифатида эмас, балки фискал, ижтимоий ва институционал хусусиятларга эга бўлган комплекс муаммо сифатида баҳолаш мақсадга мувофиқ [1; 4; 5].

Халқаро меҳнат ташкилоти маълумотларига кўра, жаҳон миқёсида 2 млрддан ортиқ киши норасмий секторда банд бўлиб, бу жаҳон аҳолисининг қарийб чорак қисмини ташкил этади [12;]. Норасмий бандликнинг бундай юқори даражаси меҳнат бозорида расмий институтлар билан қамраб олинмаган аҳоли қатлами салмоқли эканини кўрсатади.

Айниқса, норасмий меҳнат муносабатларида иштирок этувчи шахслар, одатда, барқарор меҳнат шартномаси, ижтимоий суғурта, пенсия таъминоти, ишсизликдан ҳимояланиш ва меҳнат ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг институционал механизмларидан тўлиқ фойдаланиш имкониятига эга бўлмайди.

Ўзбекистон меҳнат бозоридаги мавжуд ҳолат ҳам мазкур масаланинг долзарблигини тасдиқлайди. Мамлакатда иқтисодий фаол аҳоли сони 15,1 млн нафарни ташкил этиб, шундан 14,3 млн нафари иш билан таъминланган. Иқтисодий фаол аҳолининг 7,5 млн нафари ёки 50 фоизи расмий секторда меҳнат фаолиятини амалга оширмоқда [13;].

Шу билан бирга, 4,4 млн нафар ёки 29,6 фоиз аҳоли ўзини ўзи банд қилган шахс сифатида рўйхатдан ўтган, 836,4 минг нафар (5,8 фоиз) ишсизлар қатламини ташкил этади, 1,4 млн нафар (9,1 фоиз) фуқаро эса хорижда меҳнат фаолиятини амалга оширмоқда [12;].

Шу ўринда норасмий бандлик даражасининг сўнгги икки йил мобайнида иқтисодий фаол аҳолига нисбатан 35,8 фоиз атрофида сақланиб қолаётгани алоҳида эътиборни талаб этади. Мазкур кўрсаткич мутлақ ифодада қарийб 5,4 млн нафар аҳоли норасмий меҳнат

муносабатлари доирасида фаолият юритаётганини англатади [12;].

Демак, меҳнат бозорида расмийлаштирилмаган бандлик кўламининг юқорилиги аҳолининг сезиларли қисми меҳнат қонунчилигида назарда тутилган ижтимоий ва ҳуқуқий кафолатлардан тўлиқ фойдалана олмаётганини кўрсатувчи муҳим индикатор сифатида намоён бўлади.

Норасмий бандликнинг яна бир муҳим жиҳати унинг давлат молияси ва солиқ базасига таъсири билан боғлиқ. Норасмий банд аҳоли даромадлари меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори — 1,27 млн сўм асосида шартли ҳисобланган тақдирда, ушбу меҳнат фаолиятидан давлат бюджетига тушиши мумкин бўлган солиқ тушумларининг тахминий ҳажми 17,9 трлн сўмни ташкил этади. Мазкур ҳисоб-китоб норасмий меҳнат муносабатларининг фискал салоҳиятдан тўлиқ фойдаланиш имкониятини чеклаётганини кўрсатади.

Норасмий бандликнинг соҳалар ва ҳудудлар кесимидаги тақсимоти мазкур ҳодисанинг айрим иқтисодий фаолият турлари ва меҳнат ресурслари юқори жамланган ҳудудларда концентрациялашган хусусиятга эга эканини кўрсатади.

Хусусан, умумий норасмий бандлик таркибида қишлоқ хўжалигининг улуши 57 фоизни, хизмат кўрсатиш соҳасининг улуши 26,8 фоизни, қурилиш соҳасининг улуши 2,7 фоизни ҳамда умумий овқатланиш соҳасининг улуши 2,4 фоизни ташкил этмоқда. Ҳудудлар кесимида эса норасмий бандликнинг юқори улуши Фарғона (13 фоиз), Самарқанд (12 фоиз) ва Наманган (11 фоиз) вилоятларида кузатилмоқда [12;].

Мазкур соҳалар ва ҳудудларнинг жами улуши 88,6 фоизни ташкил этиши норасмий бандликни қисқартириш сиёсатида умумий ёндашув билан бир қаторда, юқори хавф концентрацияси мавжуд бўлган тармоқ ва ҳудудларга йўналтирилган манзилли механизмларни ишлаб чиқиш зарурлигини кўрсатади.

Айниқса, қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш, қурилиш ва умумий овқатланиш каби меҳнат ресурсларидан фойдаланиш интенсивлиги юқори бўлган соҳаларда меҳнат муносабатларини расмийлаштириш механизмларининг содда, тезкор ва иқтисодий жиҳатдан мақбул бўлиши муҳим аҳамият касб этади.

Шу билан бирга, норасмий бандликнинг иқтисодий оқибатларини фақат бюджетга тушмай қолаётган солиқлар ҳажми орқали баҳолаш чекланган ёндашув ҳисобланади. Чунки норасмий меҳнат муносабатларининг кенгайиши меҳнат бозорида ижтимоий суғурта тизимининг қамровини қисқартиради, пенсия ҳуқуқларининг шаклланишига таъсир кўрсатади, меҳнат ҳуқуқларини ҳимоя қилиш имкониятларини чеклайди ҳамда аҳолининг иқтисодий барқарорлигига нисбатан қўшимча хатарларни юзага келтиради.

Бундан ташқари, норасмий бандликнинг гендер жиҳатлари ҳам мавжуд бўлиб, меҳнат бозорида ижтимоий кафолатлардан маҳрум бўлган қатламнинг кенгайиши ижтимоий ва иқтисодий тенгсизликларнинг чуқурлашишига олиб келиши мумкин.

Шундай қилиб, норасмий бандликни қисқартириш меҳнат бозорини расмийлаштиришнинг оддий фискал воситаси эмас, балки инсон капитали, ижтимоий ҳимоя, меҳнат ҳуқуқлари ва давлат молияси ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таъминлашга қаратилган комплекс институционал вазифа сифатида қаралиши лозим.

Шу нуқтаи назардан, норасмий бандлик даражасини пасайтиришнинг самарали механизмларини ишлаб чиқиш меҳнат муносабатларини расмийлаштиришни рағбатлантириш, ижтимоий суғурта қамровини кенгайтириш, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва аҳолининг расмий меҳнат бозорида иштирок этишини иқтисодий жиҳатдан рағбатлантириш чораларини ўзаро уйғунлаштиришни талаб этади.

Хулоса

Таҳлил натижалари норасмий бандликнинг сақланиб қолишига таъсир кўрсатаётган асосий омиллар институционал, ҳуқуқий ва маъмурий хусусиятга эга эканини кўрсатмоқда.

Биринчидан, ходимлар билан меҳнат шартномаларини тезкор ва тўлиқ рақамли

шаклда расмийлаштириш имкониятларининг етарли даражада соддалаштирилмагани иш берувчилар учун маъмурий юкламани оширмоқда. Хусусан, меҳнат шартномасини расмийлаштириш жараёни ҳар бир янги ходим учун ўртача 2 соат вақт ва 90 минг сўм миқдорида харажат талаб қилиши расмий меҳнат муносабатларини шакллантиришнинг транзакцион харажатлари мавжудлигини кўрсатади. Бу эса, айниқса, қисқа муддатли ва мавсумий иш ўринлари кўп бўлган соҳаларда норасмий меҳнатдан фойдаланишга рағбатни кучайтириши мумкин.

Иккинчидан, кунбай ва соатбай ҳақ тўланадиган меҳнат муносабатларини ҳуқуқий жиҳатдан аниқ тартибга солиш ва уларни рақамли шаклда расмийлаштириш механизмларининг етарлича такомиллашмагани иш берувчи ва ходим ўртасида меҳнат шартларига оид низолар юзага келишига замин яратади. Айниқса, қишлоқ хўжалиги, қурилиш, умумий овқатланиш ва хизмат кўрсатиш соҳаларида қисқа муддатли меҳнат муносабатларининг кенг тарқалганини инобатга олган ҳолда, мазкур сегмент учун алоҳида рақамли меҳнат шартномаси механизмини жорий этиш зарурати мавжуд [10].

Учинчидан, мавсумий меҳнат муносабатларини тартибга солувчи ҳуқуқий нормалардаги мавжуд бўшлиқлар меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш ва кадрлар қўнимсизлиги билан боғлиқ муаммоларни кучайтирмоқда.

Хусусан, қишлоқ хўжалиги, умумий овқатланиш, савдо ва қурилиш соҳаларида янги ишга қабул қилинган ҳар 10 нафар ходимдан 7 нафари тўртинчи иш кунига келиб иш жойини тарк этаётгани меҳнат муносабатларининг қисқа муддатли ва ўзгарувчан хусусиятини ҳисобга оладиган ҳуқуқий механизмларга эҳтиёж юқорилигини кўрсатади.

Тўртинчидан, “Ягона миллий меҳнат тизими” (my.mehnat.uz) ахборот тизимига ишга қабул қилинган ходимлар ҳақидаги маълумотларни ўз вақтида киритиш талабининг бажарилмаслиги учун таъсирчан жавобгарлик механизмларининг мавжуд эмаслиги меҳнат ва солиқ ахборот тизимлари ўртасида маълумотлар тафовути шаклланишига олиб келиши мумкин. Натижада расмий меҳнат муносабатлари бўйича статистик ва фискал маълумотларнинг ўзаро мувофиқлиги пасаяди ҳамда норасмий бандликни аниқлаш ва баҳолаш жараёни мураккаблашади.

Юқоридаги таҳлиллар норасмий бандлик муаммосининг асосий сабаблари фақат иш берувчиларнинг қонунчилик талабларига риоя қилмаслиги билан изоҳланмаслигини кўрсатади.

Мазкур ҳодисанинг сақланиб қолишига меҳнат муносабатларини расмийлаштириш харажатлари, қисқа муддатли ва мавсумий меҳнатни ҳуқуқий тартибга солишдаги институционал бўшлиқлар, рақамли платформалардан фойдаланишдаги маъмурий тўсиқлар, шунингдек, назорат ва жавобгарлик механизмларининг етарлича мутаносиб эмаслиги ҳам таъсир кўрсатмоқда [4; 5; 8–10].

Шу боис норасмий бандликни қисқартириш сиёсати асосан жазо чораларини кучайтиришга эмас, балки расмий меҳнат муносабатларига ўтишнинг транзакцион харажатларини камайтириш, уларни рақамлаштириш ва иш берувчи ҳамда ходим учун расмийлаштириш жараёнини иқтисодий ва маъмурий жиҳатдан соддалаштиришга қаратилган комплекс ёндашувга асосланиши мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. International Labour Organization. *Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture*. 3rd ed. Geneva: International Labour Office, 2018. Расмий ILO манбаси

2. International Labour Organization. More than 60 per cent of the world’s employed population are in the informal economy. Geneva: ILO, 2018. Расмий ILO манбаси

3. International Labour Organization. *Measuring Informality: A Statistical Manual*. Geneva: International Labour Office, 2013.

4. International Labour Organization. *Addressing Informality: An ILO Perspective*. Geneva: ILO, 2021. ILO манбаси

5. International Labour Organization. *Decent Work and the Informal Economy*. Report VI, International Labour Conference, 90th Session. Geneva: International Labour Office, 2002.

6. Schneider F., Enste D. H. Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences // *Journal of Economic Literature*. 2000. Vol. 38, No. 1. P. 77–114.

7. Williams C. C., Schneider F. *Measuring the Global Shadow Economy: The Prevalence of Informal Work and Labour*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2016.

8. Perry G. E., Maloney W. F., Arias O. S., Fajnzylber P., Mason A., Saavedra-Chanduvi J. *Informality: Exit and Exclusion*. Washington, D.C.: World Bank, 2007.

9. La Porta R., Shleifer A. Informality and Development // *Journal of Economic Perspectives*. 2014. Vol. 28, No. 3. P. 109–126.

10. International Labour Organization. *Non-standard Employment around the World: Understanding Challenges, Shaping Prospects*. Geneva: International Labour Office, 2016. Расмий ILO манбаси

11. Ўзбекистон Республикаси. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. 2022 йил 28 октябрдаги ЎРҚ-798-сон Қонун. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси (LexUZ)

12. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Меҳнат бозори статистикаси. Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Миллий статистика қўмитаси расмий сайти

13. Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитаси. Солиқ статистикаси ва солиқ маъмуриятчилигига оид маълумотлар. Тошкент. Солиқ қўмитаси расмий сайти

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayeva Shaxnoza Erkinovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi doktoranti, PhD
E-mail: shakhnoza_abdullayeva@list.ru

Annotatsiya. *Maqolada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholashning nazariy va metodologik jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda aholi salomatligi, bandlik, daromad, kasbiy ta'lim, uy-joy bilan ta'minlanganlik va pensionerlar farovonligi kabi natijaviy indikatorlar tahlil qilinib, ijtimoiy himoyani moliyalashtirish samaradorligini "resurs - qamrov - natija - ta'sir" tamoyili asosida baholash yondashuvi taklif etilgan. Shuningdek, moliyaviy, ijtimoiy va fiskal-strategik baholash bosqichlarini birlashtiruvchi integrallashgan model shakllantirilgan. Olingan natijalar ijtimoiy himoya tizimida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy dasturlarning real ta'sirini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *moliyalashtirish, samaradorlik, ijtimoiy himoya, natijadorlik, manzillilik, qamrov, farovonlik, barqarorlik.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ

Абдуллаева Шахноза Эркиновна
докторант кафедры экономическая теория экономического факультета, PhD национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
E-mail: shakhnoza_abdullayeva@list.ru

Аннотация. *В статье исследованы теоретические и методологические аспекты оценки эффективности финансирования системы социальной защиты населения. В исследовании проанализированы результативные показатели, такие как здоровье населения, занятость, доход, профессиональное образование, обеспечение жильем и благосостояние пенсионеров, предложен подход к оценке эффективности финансирования социальной защиты на основе принципа «ресурс - охват - результат - воздействие». Также сформирована интегрированная модель, объединяющая этапы финансовой, социальной и фискально-стратегической оценки. Полученные результаты показывают необходимость совершенствования механизмов ориентированного на результат бюджетирования в системе социальной защиты, эффективного использования ресурсов и мониторинга реального воздействия социальных программ.*

Ключевые слова: *финансирование, эффективность, социальная защита, результативность, адресность, охват, благосостояние, устойчивость.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFICIENCY OF FINANCING THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM FOR THE POPULATION

Abdullayeva Shakhnoza Erkinovna
National University of Uzbekistan

named after Mirzo Ulugbek
PhD Researcher, Department of
Economic Theory, Faculty of Economics
E-mail: shakhnoza_abdullayeva@list.ru

Abstract. *The article explores the theoretical and methodological aspects of evaluating the efficiency of financing the social protection system for the population. The study analyzed outcome indicators such as population health, employment, income, vocational education, housing availability, and the well-being of pensioners, and proposed an approach to assess the efficiency of social protection financing based on the 'resources - coverage - results - impact' principle. Additionally, an integrated model combining financial, social, and fiscal-strategic assessment stages was developed. The results highlight the need to improve mechanisms for results-oriented budgeting in the social protection system, efficient use of resources, and monitoring the real impact of social programs.*

Keywords: *financing, efficiency, social protection, results-orientation, targeting, coverage, well-being, sustainability.*

Kirish

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishi nafaqat yetarli hajmdagi moliyaviy resurslarni shakllantirish, balki ushbu resurslardan oqilona, maqsadli va natijador foydalanishni ta’minlash bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligini ilmiy asoslangan mezonlar va indikatorlar asosida baholash davlat ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda moliyalashtirish samaradorligini faqat budjetdan ajratilgan mablag‘lar hajmi, ularning o‘zlashtirilish darajasi yoki belgilangan xarajatlar rejasining bajarilishi orqali baholash yetarli emas. Chunki ijtimoiy xarajatlarning haqiqiy iqtisodiy va ijtimoiy mazmuni sarflangan moliyaviy resurslarning aholi turmush farovonligi, bandlik darajasi, real daromadlar, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari, kasbiy ta’lim va malaka oshirish, uy-joy sharoitlari hamda aholining ijtimoiy zaiflik darajasini kamaytirishga qay darajada ta’sir ko‘rsatgani orqali namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash jarayonida resurslar hajmi, aholining tegishli qatlamlarini qamrab olish darajasi, mablag‘larning maqsadli yo‘naltirilganligi, bir nafar benefitsiar yoki bitta xizmat birligiga to‘g‘ri keladigan xarajat, erishilgan bevosita ijtimoiy natijalar hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir o‘rtasidagi o‘zaro sababiy bog‘liqlikni kompleks tarzda hisobga olish zarur. Bunda “xarajat–natija–ta’sir” zanjiri asosida baholash yondashuvining qo‘llanilishi ijtimoiy dasturlarga yo‘naltirilayotgan moliyaviy mablag‘larning nafaqat sarflanishini, balki ularning real ijtimoiy samara yaratish darajasini aniqlash imkonini beradi. Natijada davlat mablag‘laridan foydalanishning shaffofligi, hisobdorligi va manzilliligi oshib, ijtimoiy siyosat choralarining aholining ehtiyojlariga muvofiqligi yanada kuchayadi. Ayniqsa, ijtimoiy yordam, nafaqa, subsidiya, kompensatsiya, ijtimoiy xizmatlar, bandlik dasturlari va boshqa qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayib borishi hamda ularni moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalanishi sharoitida samaradorlikni baholashning yagona metodologik asoslarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari, mahalliy budjetlar, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari, xususiy sektor va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilayotgan dasturlar bo‘yicha xarajatlarni o‘zaro qiyoslash, har bir birlik moliyaviy resurs hisobiga yaratilgan ijtimoiy natijani aniqlash, takrorlanuvchi va samarasiz xarajatlarni qisqartirish hamda yuqori natija berayotgan yo‘nalishlarga resurslarni qayta taqsimlash imkonini beruvchi kompleks indikatorlar tizimini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda. Bunday indikatorlar tizimi nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarni, balki ijtimoiy natijadorlik, qamrov sifati, yordamning manzilliligi, benefitsiarlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatidagi o‘zgarishlar, kambag‘allikdan chiqish darajasi, doimiy bandlikka erishish, daromadlar

barqarorligi va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining yaxshilanishi kabi mezonlarni ham qamrab olishi lozim.

Adabiyotlar sharhi

Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash bo‘yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlarda asosiy e’tibor xarajatlarning mutlaq hajmidan ko‘ra, ularning taqsimlanishi va yakuniy ijtimoiy natijalariga qaratilmoqda. D. Popova 101 mamlakatning 1998–2017-yillardagi ma’lumotlarini tahlil qilib, “ijtimoiy himoya xarajatlarining adolatli taqsimlanishi kambag‘allik va tengsizlikning qisqarishini kuchliroq bashorat qiladi”[1], degan xulosaga keladi. Muallifning natijalari ayniqsa past va o‘rta daromadli mamlakatlarda xarajatlarning eng kam daromadli kvintilga yetib borishi ularning umumiy hajmidan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Sh. Yarashov, N. Baryshnikova va J. Kakhkharov esa yuqori va o‘rta daromadli mamlakatlarni qamrab olgan tadqiqotida ijtimoiy himoya xarajatlari samaradorligini kambag‘allik darajasi, Gini koeffitsienti va eng quyi daromad guruhining ulushi kabi natijaviy indikatorlar orqali baholaydi hamda “xarajatlarning samaradorligi ularning kambag‘allik va tengsizlikka real ta’siri orqali namoyon bo‘lishi”[2] ni asoslaydi. R. Slater rivojlanayotgan mamlakatlardagi pul transfertlarini o‘rganib, “naqd pul transfertlari ijtimoiy himoya dasturlarining muhim va kengayib borayotgan elementi”[3] ekanini qayd etadi, biroq ularning kambag‘allikni qisqartirishdagi natijasi dastur dizayni, qamrov va mahalliy institutsional sharoitlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlar umumiy holda moliyalashtirish samaradorligini “qancha mablag‘ sarflandi ?” degan savoldan “mablag‘ kimga yetib bordi va qanday natija berdi?” degan natijaga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy xarajatlarning samaradorligi faqat qayta taqsimlash natijalari bilan emas, balki ularning o‘rta va uzoq muddatli iqtisodiy qaytimi bilan ham baholanishi lozim. S.-H. Ahn va S.-W. Kim 15 ta farovonlik davlati bo‘yicha olib borgan panel tahlilida “ijtimoiy xizmatlarga yo‘naltirilgan xarajatlar ulushining oshishi iqtisodiy o‘sish va mehnat bozori natijalariga ijobiy hissa qo‘shishi”[4] ni aniqlagan. S.-W. Kim va S.-H. Ahnning keyingi tadqiqotida ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga davlat xarajatlari “inson kapitalini oshirish, mehnat bozorida ishtirokni qo‘llab-quvvatlash va ish o‘rinlari yaratish”[5] orqali ijtimoiy investitsiya sifatida iqtisodiy qaytim berishi ko‘rsatilgan. Ularning 15 ta rivojlangan davlat bo‘yicha 1980–2015-yillarni qamrab olgan fixed-effects baholashlari xizmatlarga yo‘naltirilgan xarajatlarning o‘rta va uzoq muddatli ijobiy ta’sirini aniqlagan. D. Cardoso va hammualliflar esa 42 mamlakatning 1985–2020-yillardagi ma’lumotlarini SVAR modeli orqali tahlil qilib, “ijtimoiy himoyaga davlat xarajatlarining ijobiy multiplikativ ta’siri ko‘pchilik mamlakatlarda vaqt davomida to‘planib borishini”[6] ko‘rsatadi. Shu bilan birga, multiplikatorlar mamlakatlar bo‘yicha keskin farqlanishi xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini baholashda faqat yagona normativ koeffitsientdan foydalanish metodologik jihatdan yetarli emasligini anglatadi.

Ijtimoiy himoyani moliyalashtirish samaradorligini baholash bo‘yicha uchinchi yo‘nalish xarajatlar tarkibi va turli ijtimoiy dasturlar o‘rtasidagi funksional muvozanatga e’tibor qaratadi. K. Kuitto 23 ta Yevropa davlatining xarajatlar tarkibini o‘rganib, “ijtimoiy investitsiya siyosatining rivojlanishi an’anaviy kompensatsion ijtimoiy himoyani avtomatik ravishda siqib chiqarmaydi”[7] ligini ta’kidlaydi; bunda xarajatlarning optimal tarkibi hayot sikli bosqichlari va farovonlik modeli xususiyatlariga bog‘liq. A. Hemerijck, S. Ronchi va I. Plavgo ijtimoiy siyosat natijalarini uchta funksional blok — inson kapitalini shakllantirish, hayot va mehnat bozori o‘tishlarini yengillashtirish hamda ijtimoiy xavflarga qarshi “buffer” yaratish — asosida baholashni taklif etib, “faqat qayta taqsimlashga asoslangan yondashuv XXI asr farovonlik davlatining murakkabligini to‘liq qamrab olmaydi”[8] degan fikrni ilgari suradi. H. Pöyliö esa Germaniya tajribasida aynan “stock–flow–buffer” funksiyalarining kambag‘allik xavfiga ta’sirini yosh va oila turlari kesimida baholab, ijtimoiy dasturlar samaradorligi benefitsiarlarning demografik va hayot sikli xususiyatlariga qarab farqlanishini ko‘rsatadi[9]. Ushbu ilmiy yondashuvlarning sintezi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasi

xarajatlar hajmi, qamrov va manzillilik bilan cheklanmasdan, **resurs tejamkorligi, taqsimot adolatliligi, qisqa muddatli ijtimoiy natija, uzoq muddatli iqtisodiy ta’sir va fiskal barqarorlikni** yagona indikatorlar tizimida birlashtirishi zarur. O‘zbekiston sharoitida aynan ushbu ko‘rsatkichlarni integratsiyalovchi natijaga yo‘naltirilgan baholash mexanizmining yetarlicha shakllanmaganligi mazkur tadqiqotning asosiy metodologik bo‘shlig‘ini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash uchun tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, koeffitsiyentlar tahlili va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida ijtimoiy himoya xarajatlarining mutlaq hajmini baholashdan tashqari, ularning qamrov darajasi, maqsadli yo‘naltirilganligi, resurslardan foydalanish tejamkorligi hamda erishilgan ijtimoiy natijalar bilan bog‘liqligi hisobga olindi. Xususan, aholi salomatligi, uy-joy bilan ta’minlanganlik, bandlik, pul daromadlari, kasbiy ta’lim bilan qamrov va pensionerlar farovonligi kabi natijaviy indikatorlar ijtimoiy himoyani moliyalashtirish samaradorligining asosiy mezonlari sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro ilmiy adabiyotlarda qo‘llaniladigan natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish, ijtimoiy investitsiya va xarajat–natija yondashuvlari O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish nuqtai nazaridan baholanib, moliyaviy resurslar va ijtimoiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks ifodalovchi metodologik takliflar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholashda faqat ajratilgan yoki o‘zlashtirilgan mablag‘lar hajmiga tayanish yetarli emas. Moliyaviy samaradorlik ijtimoiy xarajatlarning aholi farovonligiga qanday natija bergani, qaysi ijtimoiy risklarni kamaytirgani va resurslar qanchalik maqsadli yo‘naltirilganini ifodalashi lozim. Tadqiqot materiallarida ijtimoiy himoya tizimining natijaviy samaradorligini baholash uchun aholi salomatligi, uy-joy bilan ta’minlanganlik, real demografik o‘sish, kasbiy ta’lim bilan qamrov, pul daromadlari, bandlik hamda pensionerlar farovonligi kabi indikatorlar taklif etilgan. Mazkur ko‘rsatkichlarning afzalligi shundaki, ular ijtimoiy xarajatlarning bevosita moliyaviy hajmini emas, balki xarajatlar hisobiga shakllanishi kutiladigan ijtimoiy natijalarni aks ettiradi.

1-jadval.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirishning natijaviy samaradorligini baholash indikatorlari*

№	Indikator	Baholash mazmuni	Ijtimoiy natija yo‘nalishi
1	Aholi salomatligi koeffitsienti	Kasallanish, nogironlik va ishlab chiqarish jarohatlari bilan bog‘liq ijtimoiy risklarni ifodalaydi	Sog‘liq va mehnat salohiyati
2	Uy-joy bilan ta’min-langanlik koeffitsienti	Aholining minimal yashash maydoni va uy-joy sharoitiga mosligini baholaydi	Turmush sharoiti
3	Aholining real o‘sish koeffitsienti	Tug‘ilish va o‘lim nisbatlari orqali demografik holatni ifodalaydi	Demografik barqarorlik
4	Kasbiy ta’lim bilan qamrov koeffitsienti	Mehnatga layoqatli aholining kasbiy tayyorgarlik darajasini baholaydi	Inson kapitali
5	Aholi pul daromadlari koeffitsienti	Jon boshiga daromadlarning minimal yashash ehtiyojlariga nisbatan holatini ifodalaydi	Daromad va farovonlik
6	Aholi bandligi koeffitsienti	Iqtisodiy faol aholining bandlik darajasini baholaydi	Mehnat bozori
7	Pensionerlar turmush farovonligi koeffitsienti	Pensiya daromadlarining minimal turmush ehtiyojlariga mosligini baholaydi	Keksalar ijtimoiy himoyasi

*Muallif ishlanmasi.

1-jadvaldagi indikatorlar ijtimoiy himoya tizimining natijaviy tomonini yetarlicha keng qamrab oladi, biroq ularni moliyalashtirish samaradorligi bilan bevosita bog‘lash uchun qo‘shimcha metodologik qatlam zarur. Masalan, bandlik koeffitsientining oshishi ijobiy ijtimoiy natija hisoblanadi, ammo uning o‘zi bu natijaga qancha budjet resursi hisobiga erishilganini ko‘rsatmaydi. Xuddi shuningdek, pensionerlar turmush farovonligining yaxshilanishi ijtimoiy siyosat natijadorligini ifodalasa-da, xarajatlarning tejamkorligi yoki dastur qamrovining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida alohida xulosa chiqarish imkonini bermaydi. Shuning uchun mavjud natijaviy indikatorlarni resurs - qamrov - natija - ta’sir zanjiri asosida qayta guruhlash moliyalashtirish samaradorligini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

2-jadval.

Ijtimoiy himoyani moliyalashtirish samaradorligini baholashning taklif etilayotgan mezonlar tizimi*

Baholash bloki	Asosiy ko‘rsatkichlar	Baholash savoli	Iqtisodiy mazmuni
Resurs samaradorligi	Bir benefitsiarga to‘g‘ri keladigan xarajat; ma’muriy xarajatlar ulushi	Qancha resurs sarflandi?	Xarajatlar tejamkorligini baholaydi
Qamrov samaradorligi	Benefitsiarlar ulushi; ehtiyojmand aholining qamrov darajasi	Mablag‘ kimlarga yetib bordi?	Dastur qamrovini aniqlaydi
Manzillilik	Ehtiyojmand qatlamlarga yo‘naltirilgan mablag‘lar ulushi	Resurslar to‘g‘ri guruhga yo‘naltirildimi?	Targeting sifatini baholaydi
Natijaviy samaradorlik	Bandlik, daromad, sog‘liq, ta’lim va uy-joy ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarish	Qanday ijtimoiy natija olindi?	Dastur bevosita va kutilayotgan samara darajalarini ko‘rsatadi
Ta’sir samaradorligi	Kambag‘allik, ijtimoiy zaiflik va tengsizlikning qisqarishi	Uzoq muddatda nima o‘zgardi?	Ijtimoiy siyosatning yakuniy ta’sirini baholaydi
Fiskal barqarorlik	Ijtimoiy xarajatlarning budjet va YAIMga nisbati, xarajatlar dinamikasi	Natija moliyaviy jihatdan barqarormi?	Uzoq muddatli moliyaviy imkoniyatlarni baholaydi

*Muallif ishlanmasi.

2-jadvalda taklif etilgan yondashuv moliyalashtirish samaradorligini faqat natijaviy indikatorlar bilan emas, balki resurslardan foydalanish sifati bilan ham bog‘laydi. Bunda resurs samaradorligi xarajatlarning tejamkorligini, qamrov va manzillilik esa mablag‘larning benefitsiarlarga yetib borish darajasini ifodalaydi. Natijaviy samaradorlik ijtimoiy himoya dasturining bevosita ijtimoiy natijalarini, ta’sir samaradorligi esa kambag‘allik va ijtimoiy zaiflik kabi yakuniy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishni aks ettiradi. Fiskal barqarorlik blokining kiritilishi esa qisqa muddatda ijobiy natija bergan dastur uzoq muddatda davlat moliyasiga haddan tashqari yuk bo‘lib qolmasligini nazorat qilish imkonini beradi. Shu sababli moliyalashtirish samaradorligini baholashda “ko‘proq xarajat bu yuqori samaradorlik” tamoyilidan voz kechib, “bir birlik resurs hisobiga yaratilgan ijtimoiy natija” tamoyiliga o‘tish metodologik jihatdan muhim hisoblanadi. Mazkur yondashuvni amaliyotda qo‘llash uchun ko‘rsatkichlarni yagona integrallashgan baholash mexanizmiga birlashtirish zarur. Bunda har bir indikatorni normallashtirish, yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash va ularning umumiy samaradorlikka hissasini aniqlash mumkin. Ushbu tadqiqot

doirasida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligini uch bosqichli - moliyaviy, ijtimoiy va fiskal -baholash modeli taklif etiladi.

3-jadval.

Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligini integrallashgan baholash modeli*

Bosqich	Baholash obyekti	Tavsiya etiladigan indikatorlar	Kutiladigan natija
I. Moliyaviy baholash	Ajratilgan resurslardan foydalanish	Xarajatlar o‘zlashtirilishi, bir benefitsiarga xarajat, ma’muriy xarajatlar ulushi	Moliyaviy tejamkorlik aniqlanadi
II. Ijtimoiy natijani baholash	Moliyalashtirish hisobiga yuzaga kelgan o‘zgarish	Bandlik, daromad, sog‘liq, ta’lim, uy-joy, pensionerlar farovonligi	Ijtimoiy natijadorlik baholanadi
III. Fiskal va strategik baholash	Uzoq muddatli barqarorlik va ta’sir	Kambag‘allik dinamikasi, ijtimoiy zaiflik, budjet yuklamasi, xarajatlarning YAIMga nisbati	Dastur barqarorligi va uzoq muddatli samarasi aniqlanadi

*Muallif ishlanmasi.

3-jadvalda taklif etilgan modelning asosiy afzalligi moliyaviy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni bir-biridan ajratib emas, balki ketma-ket sababiy zanjir sifatida baholashidadir. Birinchi bosqichda davlat mablag‘laridan foydalanish tejamkorligi aniqlanadi; ikkinchi bosqichda ushbu xarajatlarning bevosita ijtimoiy natijasi baholanadi; uchinchi bosqich esa dastur natijalarining uzoq muddatli fiskal va ijtimoiy barqarorligini ko‘rsatadi. Masalan, ijtimoiy dastur bo‘yicha xarajatlarning to‘liq o‘zlashtirilishi birinchi bosqich nuqtai nazaridan ijobiy ko‘rinishi mumkin, biroq bandlik, daromad yoki ijtimoiy zaiflik ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘zgarish yuz bermasa, ushbu moliyalashtirishni yuqori samarali deb baholash metodologik jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu jihatdan taklif etilayotgan model budjet ijrosini ijtimoiy natijalar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Tahlil natijalari ijtimoiy himoyani moliyalashtirish samaradorligini baholashda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarini kuchaytirish zarurligini ham ko‘rsatadi. Bunda har bir ijtimoiy dastur uchun moliyalashtirish hajmi bilan birga oldindan belgilangan natija indikatorlari, bazaviy qiymatlar va maqsadli ko‘rsatkichlar shakllantirilishi lozim. Masalan, bandlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlarida ajratilgan mablag‘ miqdori emas, barqaror ish bilan ta’minlangan benefitsiarlar ulushi; ijtimoiy nafaqalarda to‘lovlar soni emas, kambag‘allik chuqurligining qisqarishi; kasbiy ta’lim dasturlarida esa o‘qitilganlar soni emas, o‘qishni tugatgandan keyingi bandlik natijasi asosiy samaradorlik mezoni sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, tavsiya etilayotgan metodologiyaning amaliy tatbiqi ma’lumotlar sifatiga bevosita bog‘liq. Ijtimoiy himoya, bandlik, sog‘liqni saqlash, ta’lim, soliq va hududiy statistika axborot tizimlarining o‘zaro integratsiyasi bo‘lmasa, resurs va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq kuzatish qiyinlashadi. Shu sababli samaradorlik monitoringini yagona raqamli ma’lumotlar bazasi asosida tashkil etish, ko‘rsatkichlarni hududlar va benefitsiar guruhlari kesimida kuzatish hamda yillik baholash bilan cheklanmasdan dinamik monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Natijada ijtimoiy himoya tizimida moliyaviy resurslarni ko‘paytirishning o‘zi emas, balki har bir sarflangan resurs birligi hisobiga erishilgan ijtimoiy natijani maksimal darajada oshirish asosiy boshqaruv mezoniga aylanishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholashda faqat ajratilgan budjet mablag‘lari hajmi, ularning o‘zlashtirilish darajasi yoki xarajatlar dinamikasi bilan cheklanib qolish yetarli emasligini ko‘rsatdi. Ijtimoiy himoya xarajatlarining haqiqiy samaradorligi moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilishi,

ehtiyojmand qatlamlarni qamrab olish darajasi, bir benefitsiarga to‘g‘ri keladigan xarajatlar, ma’muriy sarflar ulushi hamda ushbu xarajatlar hisobiga erishilgan ijtimoiy natijalar bilan kompleks ravishda aniqlanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, moliyalashtirish samaradorligini “resurs - qamrov - natija - ta’sir” zanjiri asosida baholash metodologik jihatdan nisbatan mukammal yondashuv hisoblanadi. Mazkur yondashuv moliyaviy tejamkorlikni ijtimoiy natijadorlikdan ajratib qo‘ymaydi, aksincha, sarflangan mablag‘larning bandlik, daromad, sog‘liq, kasbiy ta’lim, uy-joy sharoiti, pensionerlar farovonligi va ijtimoiy zaiflikning kamayishiga qay darajada ta’sir qilganini baholash imkonini beradi. Tadqiqotda taklif etilgan uch bosqichli model - moliyaviy baholash, ijtimoiy natijani baholash hamda fiskal-strategik baholash - ijtimoiy dasturlarning qisqa muddatli natijalari bilan uzoq muddatli budjet barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa “ko‘proq mablag‘ ajratish - yuqori samaradorlik” degan sodda yondashuvdan “bir birlik moliyaviy resurs hisobiga yaratilgan ijtimoiy natija” tamoyiliga o‘tish zarurligini asoslaydi. Shu bilan birga, moliyalashtirish samaradorligi barcha hudud va ijtimoiy guruhlarda bir xil bo‘lmasligi mumkinligi sababli, baholash tizimida hududiy, demografik va ijtimoiy tafovutlarni ham hisobga olish zarur.

O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq. Birinchidan, har bir ijtimoiy dastur bo‘yicha moliyalashtirish hajmi bilan bir qatorda aniq bazaviy va maqsadli indikatorlar - qamrov darajasi, manzillilik, birlik xarajat, ijtimoiy natija va yakuniy ta’sir ko‘rsatkichlarini belgilash zarur. Ikkinchidan, ijtimoiy dasturlar bo‘yicha mablag‘larni rejalashtirishda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarini kengaytirib, keyingi davr moliyalashtirish hajmini avvalgi davrda erishilgan natijalar va samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash lozim. Uchinchidan, ijtimoiy himoya, bandlik, sog‘liqni saqlash, ta’lim, soliq, kadastr va hududiy statistika ma’lumotlarini yagona axborot tizimiga integratsiya qilish orqali xarajatlar va ularning ijtimoiy natijalarini benefitsiar hamda hududlar kesimida kuzatish imkoniyatini yaratish zarur. To‘rtinchidan, samaradorlik monitoringida inklyuziya va eksklyuziya xatolari, ma’muriy xarajatlar ulushi, takroriy moliyalashtirish holatlari va past natija berayotgan dasturlarni muntazam aniqlash tizimini joriy etish lozim. Beshinchidan, ijtimoiy himoya dasturlarini davriy ravishda mustaqil baholash, xarajat–natija va xarajat–samara tahlillarini qo‘llash hamda samarasiz yo‘nalishlardan yuqori ijtimoiy qaytim berayotgan dasturlarga resurslarni qayta taqsimlash amaliyotini kuchaytirish zarur. Shu asosda ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy modeli nafaqat mablag‘larni taqsimlash vositasiga, balki ijtimoiy natijalarni boshqarish va davlatning cheklangan moliyaviy resurslaridan maksimal ijtimoiy qaytim olishga xizmat qiluvchi kompleks mexanizmga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Popova, D. (2023). Impact of equity in social protection spending on income poverty and inequality. *Social Indicators Research, 169*, 697–721.
2. Yarashov, S., Baryshnikova, N. V., & Kakhkharov, J. (2026). The impact of social protection expenditure on poverty and inequality in high- and middle-income countries. *Economic Record*, *102*(336), 99–137.
3. Slater, R. (2011). Cash transfers, social protection and poverty reduction. *International Journal of Social Welfare, 20*(3), 250–259.
4. Ahn, S.-H., & Kim, S.-W. (2015). Social investment, social service and the economic performance of welfare states. *International Journal of Social Welfare, 24*(2), 109–119.
5. Kim, S.-W., & Ahn, S.-H. (2020). Social investment effects of public education, health care, and welfare service expenditures on economic growth. *Asian Social Work and Policy Review, 14*(1), 34–44.
6. Cardoso, D., et al. (2025). The multiplier effects of government expenditures on social protection: A multi-country study. *Development and Change*, *56*(1), 172–224.
7. Kuitto, K. (2016). From social security to social investment? Compensating and social

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

investment welfare policies in a life-course perspective. *Journal of European Social Policy*, *26*(5), 442–459.

8. Hemerijck, A., Ronchi, S., & Plavgo, I. (2023). Social investment as a conceptual framework for analysing well-being returns and reforms in 21st century welfare states. *Socio-Economic Review*, *21*(1), 479–500.

9. Pöyliö, H. (2026). Social investment impact on poverty: Empirical evidence of the stock, flow and buffer policy functions in Germany. *Social Policy and Society*.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ МОДЕЛЛАРИ

Саттаров Тулкин Абдихалилович
Тошкент Амалий фанлар университети
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
ORCID: 0009-0001-3779-4508,
Email: sattarovozfdtek@gmail.com

Аннотация: *Мақолада қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини баҳолашда қўлланиладиган замонавий моделлар, уларнинг назарий-методологик асослари ҳамда аграр сектор хусусиятларини ҳисобга олиш имкониятлари тадқиқ этилади. Тадқиқот доирасида Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлар туманларидан танлаб олинган 486 та фермер хўжалигининг 2021–2025 йилларга оид бухгалтерия баланси ва молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботлари асосида таҳлил ўтказиш назарда тутилади. Аграр соҳадаги мавсумийлик, табиий-иқлим хавфлари, ҳосилдорлик, кредит ресурслари, субсидиялар ҳамда ер ва сув ресурсларига боғлиқликни баҳолаш моделларида акс эттириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилади.*

Калит сўзлар: *Молиявий барқарорлик, молиявий коэффициентлар, Altman Z-score, Springate модели, Beaver модели, Logit модели, Probit модели, панель маълумотлар, динамик панель модель, стресс-тестлаш, сценарийли моделлаштириш, интеграл индекс, мавсумийлик, табиий-иқлим хавфлари.*

MODELS FOR ASSESSING THE FINANCIAL STABILITY OF AGRICULTURAL ENTERPRISES

Sattarov Tulkin Abdixalilovich
Tashkent University of Applied Sciences
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
ORCID: 0009-0001-3779-4508
Email: sattarovozfdtek@gmail.com

Abstract: *This article examines modern models used to assess the financial stability of agricultural enterprises, their theoretical and methodological foundations, and their applicability in accounting for the specific characteristics of the agricultural sector. The study is intended to analyze the financial statements of 486 farms selected from the districts of the Republic of Karakalpakstan and the regions of Uzbekistan for the period 2021–2025, based on their balance sheets and income statements. Particular attention is paid to incorporating seasonality, natural and climatic risks, crop yields, credit resources, subsidies, and dependence on land and water resources into financial stability assessment models.*

Keywords: *Financial stability, financial ratios, Altman Z-score, Springate model, Beaver model, Logit model, Probit model, panel data, dynamic panel model, stress testing, scenario modeling, integral index, seasonality, natural and climatic risks. Модели оценки финансовой устойчивости сельскохозяйственных предприятий*

МОДЕЛИ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Саттаров Тулкин Абдихалилович
Ташкентский университет прикладных наук
доктор философии (PhD) по экономическим наукам

ORCID: 0009-0001-3779-4508
Email: sattarovozfdtek@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуются современные модели, применяемые для оценки финансовой устойчивости сельскохозяйственных предприятий, их теоретико-методологические основы и возможности учета особенностей аграрного сектора. В рамках исследования предусматривается проведение анализа на основе бухгалтерских балансов и отчетов о финансовых результатах 486 фермерских хозяйств, отобранных из районов Республики Каракалпакстан и областей Узбекистана, за 2021–2025 годы. Особое внимание уделяется вопросам отражения в моделях оценки таких факторов, как сезонность в аграрном секторе, природно-климатические риски, урожайность, кредитные ресурсы, субсидии, а также зависимость от земельных и водных ресурсов.*

Ключевые слова: *финансовая устойчивость, финансовые коэффициенты, Altman Z-score, модель Springate, модель Beaver, модель Logit, модель Probit, панельные данные, динамическая панельная модель, стресс-тестирование, сценарное моделирование, интегральный индекс, сезонность, природно-климатические риски.*

Кириш

Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини таъминлаш аграр секторнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш, ишлаб чиқариш узлуксизлигини таъминлаш, инвестицион жозибадорликни мустаҳкамлаш ҳамда молиявий хавфларни камайтиришнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади. Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш жараёнининг мавсумий хусусиятга эгалиги, табиий-иқлим шароитларига боғлиқлик, ҳосилдорликнинг ўзгарувчанлиги, айланма маблағларга бўлган эҳтиёжнинг юқорилиги ва кредит ресурсларидан фойдаланиш зарурати корхоналарнинг молиявий ҳолатига бевосита таъсир кўрсатади.

Молиявий барқарорликни баҳолашда анъанавий молиявий коэффициентлар, банкротликни прогнозлаш моделлари ва эҳтимолий баҳолаш усулларидан фойдаланиш кенг имкониятлар яратади. Бироқ мазкур моделларнинг аксарияти умумий корхона молиявий ҳисоботлари асосида шакллантирилган бўлиб, аграр соҳанинг мавсумийлиги, ишлаб чиқариш циклининг давомийлиги, табиий хавфлар ва давлат молиявий кўмагининг таъсирини алоҳида ҳисобга олишни талаб қилади.

Шу нуқтаи назардан, қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини фақат битта кўрсаткич ёки модель асосида баҳолаш уларнинг ҳақиқий молиявий ҳолатини тўлиқ ифодаламаслиги мумкин. Мазкур муаммони ҳал этиш учун молиявий коэффициентлар таҳлили, банкротликни прогнозлаш моделлари, эҳтимолий эконометрик усуллар, панель маълумотлар таҳлили ҳамда стресс-тестлаш ва сценарийли моделлаштиришни ўзаро уйғунлаштириш зарур. Бундай комплекс ёндашув корхонанинг жорий молиявий ҳолатини баҳолаш билан бирга, унинг вақт давомидаги ўзгаришларини, молиявий муаммолар юзага келиш эҳтимолини ва ташқи шокларга чидамлилигини аниқлаш имконини беради.

Тадқиқотнинг долзарблиги, шунингдек, 486 та фермер хўжалигининг 2021–2025 йиллардаги молиявий ҳисоботлари асосида аграр сектор учун мослаштирилган баҳолаш ёндашувини ишлаб чиқиш зарурати билан белгиланади. Ушбу маълумотлардан фойдаланиш фермер хўжаликларининг молиявий барқарорлигидаги ўзгаришларни вақт ва ҳудудлар кесимида ўрганиш, молиявий кўрсаткичлар ўртасидаги боғлиқликларни аниқлаш ҳамда миллий шароитга мос баҳолаш мезонларини шакллантириш учун методологик асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Демак, қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини баҳолаш моделларини аграр соҳанинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда такомиллаштириш, уларни комплекс қўллаш ва миллий маълумотлар асосида мослаштириш илмий ва амалий жиҳатдан долзарб ҳисобланади.

Иқтисодий адабиётлар таҳлили

Корхоналарнинг молиявий барқарорлиги, тўлов қобилияти ва банкротлик хавфини баҳолаш масалалари молиявий таҳлил ва корпоратив молия назариясининг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Хорижий иқтисодий адабиётларда мазкур муаммо асосан молиявий коэффициентлар, дискриминант таҳлил, эҳтимолий моделлар ва корхоналарнинг вақт давомидаги молиявий ҳолатини ўрганиш усуллари орқали тадқиқ этилган.

Муаммонинг ҳозирги ҳолати таҳлили.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини баҳолашда бир нечта моделлар мавжуд. Булар жумласига Молиявий коэффициентлар усули, Altman Z-score усули, Springate модели, Beaver модели, Logit модель, Probit модель, Панель маълумотлар модели, Динамик панель модель, Стресс-тестлаш усули, Сценарийли моделлаштириш, Интеграл индекс усули ва бошқа моделларни келтириш мумкин. Уларнинг ҳар бирини алоҳида ҳолатда кўриб чиқамиз.

1. Altman Z-score усули

Altman (1968) кўп омилли дискриминант таҳлил асосида корхоналарнинг банкротлик хавфини баҳолаш модели — Z-score моделини ишлаб чиққан. Модель бир нечта молиявий коэффициентларни ягона интеграл кўрсаткичга бирлаштириш орқали корхоналарни молиявий ҳолатига кўра фарқлаш имконини беради.

Altman модели банкротлик хавфини баҳолашда кенг қўлланилади.

$$Z = 1.2X_1 + 1.4X_2 + 3.3X_3 + 0.6X_4 + 1.0X_5 \quad (1)$$

Бу ерда:

$$X_1 = \frac{\text{Айланма капитал}}{\text{Жами активлар}} \quad (1{,}1)$$

$$X_2 = \frac{\text{Тақсимланмаган фойда}}{\text{Жами активлар}} \quad (1{,}2)$$

$$X_3 = \frac{EBIT}{\text{Жами активлар}} \quad (1{,}3)$$

$$X_4 = \frac{\text{Хусусий капитал}}{\text{Жами мажбуриятлар}} \quad (1{,}4)$$

$$X_5 = \frac{\text{Сотув тушуми}}{\text{Жами активлар}} \quad (1{,}5)$$

Баҳолаш:

Z-score	**Хулоса**
Z > 2.99	молиявий барқарор
1.81–2.99	кулранг зона
Z < 1.81	банкротлик риски юқори

Қишлоқ хўжалиги корхоналари учун классик чегараларни тўғридан-тўғри қўллаш ҳар доим ҳам тўғри эмас. Шунинг учун 2020–2025 йиллар миллий маълумотлари асосида чегараларни қайта ҳисоблаш тавсия этилади.

2. Springate модели

Springate модели ҳам молиявий коэффициентлар асосида банкротликни прогноз қилишга қаратилган дискриминант таҳлил усулларидан бири ҳисобланади. Унда ликвидлик, рентабеллик ва молиявий самарадорликни ифодаловчи кўрсаткичлардан фойдаланилади. Бироқ ушбу моделларни аграр соҳада қўллашда молиявий натижаларнинг мавсумий ўзгариши ва ишлаб чиқариш циклининг хусусиятларини ҳисобга олиш талаб этилади.

$$S = 1.03A + 3.07B + 0.66C + 0.4D \quad (2)$$

Бу ерда:

$$A = \frac{\text{Айланма капитал}}{\text{Жами активлар}} \quad (2,1)$$

$$B = \frac{EBIT}{\text{Жами активлар}} \quad (2,2)$$

$$C = \frac{EBIT}{\text{Жорий мажбуриятлар}} \quad (2,3)$$

$$D = \frac{\text{Сотув тушуми}}{\text{Жами активлар}} \quad (2,4)$$

Баҳолаш мезони:

S қиймати	**Хулоса**
S > 0.862	молиявий барқарор
S < 0.862	банкротлик риски юқори

Қишлоқ хўжалиги корхоналарида Springate модели операцион фойда ва айланма капиталга катта эътибор бергани учун фойдали, лекин мавсумий зарарларни нотўғри талқин қилиши мумкин.

3. Beaver модели

Beaver (1966) корхоналарнинг молиявий муваффақиятсизлигини прогноз қилишда молиявий коэффициентларнинг аҳамиятини тадқиқ этган. Муаллиф пул оқимининг қарзларга нисбати, соф фойданинг активларга нисбати ва бошқа молиявий кўрсаткичлар орқали корхоналарнинг молиявий муаммоларини олдиндан аниқлаш имкониятларини ўрганган. Ушбу ёндашув пул оқимлари ва қарз мажбуриятларини қоплаш қобилиятини баҳолашда муҳим назарий асос бўлиб хизмат қилади (1-жадвал).

1-жадвал

Пул оқимлари ва қарзни қоплаш қобилиятини асосий кўрсаткичлари

Кўрсаткич	**Формула**	**Мазмуни**
Cash-flow / Debt	Пул оқими / Жами қарз	Қарзни қоплаш имконияти
Net profit / Assets	Соф фойда / Жами актив	Активлар самарадорлиги
Debt / Assets	Мажбуриятлар / Активлар	Қарз юки
Working capital / Assets	Айланма капитал / Активлар	Ликвидлик
Current ratio	Жорий активлар / Жорий мажбуриятлар	Қисқа муддатли тўлов қобилияти

Бу метод қишлоқ хўжалиги корхоналари учун фойдали, чунки аграр секторда пул оқимлари мавсумий бўлади.

4. Logit модель

Корхоналарнинг молиявий муаммога тушиш эҳтимолини баҳолашда эҳтимолий эконометрик моделлардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Ohlson (1980) корхоналар банкротлигини прогноз қилишда Logit моделидан фойдаланиб, корхона ҳажми, молиявий таркиби, фаолият натижалари ва ликвидлик кўрсаткичларининг аҳамиятини тадқиқ этган.

Logit модели молиявий муаммо юзага келиш эҳтимолини 0 дан 1 гача бўлган оралиқда ҳисоблаш имконини беради. Probit модели ҳам шунга ўхшаш вазифани бажаради, аммо эҳтимолларни нормал тақсимот функцияси орқали баҳолайди. Ушбу моделлар молиявий барқарорликка таъсир этувчи омилларнинг таъсир йўналиши ва статистик аҳамиятини аниқлашда қўлланилиши мумкин (2-жадвал).

$$P_i = \frac{1}{1 + e^{-Z_i}}$$

$$Z_i = \beta_0 + \beta_1 ROA + \beta_2 LEV + \beta_3 LIQ + \beta_4 SIZE + \beta_5 TURN \quad (3)$$

2-жадвал

Logit моделида қишлоқ хўжалиги корхонасининг молиявий муаммога тушиш эҳтимоли

Белги	Мазмуни
P_i	молиявий муаммо эҳтимоли
ROA	активлар рентабеллиги
LEV	мажбуриятлар / активлар
LIQ	жорий ликвидлик
SIZE	ln(жами активлар)
TURN	сотув тушуми / активлар

Мисол учун:

P_i	Хулоса
P < 0.30	риск паст
0.30–0.60	ўртача риск
P > 0.60	риск юқори

Logit моделнинг афзаллиги — натижа фоиз кўринишида чиқади. Масалан, корхонада молиявий муаммо эҳтимоли 42% деб баҳоланади.

5. Probit модель

Probit модель Logitга ўхшаш, лекин нормал тақсимот функциясидан фойдаланади. У ҳам молиявий муаммо эҳтимолини баҳолайди.

$$P(Y = 1) = \Phi(\beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \ldots + \beta_n X_n) \quad (4)$$

Probit модели иқтисодий хавфларни эҳтимолий баҳолашда ишлатилади. Logitга нисбатан натижалари яқин бўлади, лекин талқини бироз мураккаброқ.

6. Молиявий коэффициентлар усули

Бу энг кўп қўлланиладиган анъанавий усул ҳисобланади. Унда бухгалтерия баланси ва молиявий натижалар ҳисоботи асосида қишлоқ хўжалиги корхонасининг ликвидлиги, тўлов қобилияти, рентабеллиги ва қарз юки баҳоланади.

3-жадвал

Қишлоқ хўжалиги корхонасининг ликвидлиги, тўлов қобилияти, рентабеллиги ва қарз юки баҳоланиши

Йўналиш	Асосий кўрсаткичлар	Формула
Ликвидлик	Жорий ликвидлик	Жорий активлар / Жорий мажбуриятлар
Молиявий мустақиллик	Автономия коэффициенти	Хусусий капитал / Жами активлар
Қарз юки	Левераж	Мажбуриятлар / Жами активлар
Рентабеллик	ROA	Соф фойда / Жами активлар
Айланувчанлик	Активлар айланувчанлиги	Сотув тушуми / Жами активлар

Қишлоқ хўжалиги корхонаси учун бу усулнинг афзаллиги – ҳисоблаш осон. Камчилиги – мавсумийлик ва табиий хавфларни тўлиқ ҳисобга олмайди.

7. Панель маълумотлар модели

Панель маълумотлар моделлари бир нечта корхоналарнинг кўп йиллик маълумотларини биргаликда таҳлил қилиш имконини беради. Ушбу ёндашувда корхоналарга хос доимий хусусиятлар ва вақт давомида ўзгарувчи омилларни ажратиб ўрганиш мумкин.

Қишлоқ хўжалиги корхоналари учун панель таҳлилнинг аҳамияти шундаки, молиявий барқарорликка таъсир этувчи омиллар йиллар давомида ўзгариши мумкин. Ҳосилдорлик, маҳсулот нархлари, қарз мажбуриятлари, субсидиялар ва ишлаб чиқариш харажатларидаги ўзгаришлар корхоналарнинг молиявий натижаларида акс этади.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарини 2020–2025 йиллар кесимида таҳлил қилишда панель модель жуда қулай.

$$FS_{it} = \alpha + \beta_1 ROA_{it} + \beta_2 LEV_{it} + \beta_3 LIQ_{it} + \beta_4 SIZE_{it} + \mu_i + \varepsilon_{it} (5)$$

Бу ерда:

Белги	Мазмуни
FS_{it}	i-корхонанинг t-йилдаги молиявий барқарорлик индекси
ROA	рентабеллик
LEV	қарз юки
LIQ	ликвидлик
$SIZE$	корхона ҳажми
μ_i	корхонага хос доимий хусусият
ε	тасодифий хатолик

Афзаллиги - ҳар бир корхонанинг йиллар давомидаги ўзгаришини кўрсатади.

8. Динамик панель модель

Динамик панель моделларида эса молиявий барқарорликнинг олдинги даврдаги даражаси жорий даврдаги ҳолатга таъсир этувчи омил сифатида киритилади. Бу ёндашув молиявий ҳолатнинг инерцион хусусиятларини ва ўтган даврдаги молиявий қарорларнинг кейинги давр натижаларига таъсирини ўрганишга ёрдам беради.

Бу модель олдинги йилдаги молиявий ҳолатнинг кейинги йилга таъсирини ҳисобга олади.

$$FS_{it} = 0.62FS_{i,t-1} + 0.35ROA_{it} - 0.28LEV_{it} + 0.14LIQ_{it} + 0.09SIZE_{it} + \mu_i + \varepsilon_{it} \quad (6)$$

Бу ерда $FS_{i,t-1}$— олдинги йил молиявий барқарорлик даражаси.

Қишлоқ хўжалигида бу муҳим, чунки бир йилдаги ҳосилдорлик, қарз ёки зарар кейинги йил молиявий ҳолатига таъсир қилади.

9. Стресс-тестлаш усули

Стресс-тестлаш қишлоқ хўжалиги корхонасининг ташқи шокларга қанчалик чидамли эканини баҳолайди 4-жадвалга қаранг.

4-жадвал

Қишлоқ хўжалиги корхонасини Стресс-тестлаш модели орқали баҳолаш

Сценарий	Шок
Базавий	ўзгариш йўқ
Салбий	тушум 15% камаяди
Қурғоқчилик	ҳосилдорлик 25% пасаяди
Фоиз хавфи	кредит фоизи 5 пунктга ошади
Валюта хавфи	импорт харажатлари 20% ошади

Стресс-тест натижасида ликвидлик, қарзни қоплаш, рентабеллик ва Z-score қайта ҳисобланади.

10. Сценарийли моделлаштириш

5-жадвал

Сценарийли моделлаштириш модели тавсифи

Сценарий	Тавсиф
Оптимистик	ҳосилдорлик ошади, нархлар қулай

Базавий	амалдаги тенденция сақланади
Пессимистик	қурғоқчилик, харажатлар ошиши, тушум пасайиши

Бу усулда бир нечта ривожланиш варианти баҳоланади. Сценарийли таҳлил фермер хўжаликларининг келгуси йилдаги молиявий ҳолатини прогноз қилишда қўлланилади.

11. Интеграл индекс усули

Бу усулда бир нечта молиявий кўрсаткичлар ягона индексга бирлаштирилади.

$$I = \sum w_i K_i \qquad (7)$$

Бу ерда:

Белги	Мазмуни
I	молиявий барқарорлик интеграл индекси
w_i	кўрсаткич вазни
K_i	нормаллаштирилган кўрсаткич

Масалан:

Кўрсаткич	Вазн
Ликвидлик	0.20
Рентабеллик	0.25
Қарз юки	0.20
Айланувчанлик	0.15
Пул оқими	0.20

Бу метод миллий рейтинг тизими яратишда қулай.

12. Қишлоқ хўжалиги корхоналари учун энг мақбул ёндашув Шу боис битта усул билан чекланмаслигимиз керак 6-жадвал. Бу энг тўғри ёндашувдир.

6-жадвал

Мақбул ёндашув усули

Босқич	усул
1	Молиявий коэффициентлар таҳлили
2	Altman, Springate, Beaver моделлари
3	Logit/Probit модель
4	Панель маълумотлар модели
5	Стресс-тест ва сценарийли моделлаштириш
6	Миллий интеграл молиявий барқарорлик индекси

Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини баҳолашда комплекс ёндашув зарур. Анъанавий коэффициентлар корхонанинг жорий ҳолатини кўрсатса, Altman ва Springate банкротлик хавфини баҳолайди. Logit ва Probit моделлари молиявий муаммо эҳтимолини ҳисоблайди. Панель моделлар йиллар кесимида омиллар таъсирини аниқлайди. Стресс-тест ва сценарийли моделлаштириш эса ташқи шоклар таъсирида корхонанинг молиявий чидамлилигини баҳолаш имконини беради.

Таклиф ва тавсиялар.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини баҳолашда аграр соҳанинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш, мавжуд моделларни ўзаро уйғунлаштириш ҳамда миллий маълумотлар асосида такомиллаштириш мақсадида қуйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.

1. Молиявий барқарорликни комплекс баҳолаш тизимини жорий этиш.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини фақат битта молиявий коэффициент ёки банкротликни прогнозлаш модели асосида баҳолаш ўрнига, молиявий коэффициентлар таҳлили, Altman Z-score, Springate, Beaver, Logit ва Probit моделларини

ўзаро тўлдирувчи усуллар сифатида қўллаш таклиф этилади. Бунда молиявий коэффициентлар корхонанинг жорий ҳолатини, дискриминант моделлар банкротлик хавфини, эҳтимолий моделлар эса молиявий муаммо юзага келиш эҳтимолини баҳолашга хизмат қилади.

2. Аграр сектор хусусиятларини баҳолаш моделларига киритиш.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини баҳолашда мавсумийлик, ҳосилдорлик, табиий-иқлим хавфлари, ер ва сув ресурслари билан таъминланганлик, имтиёзли кредитлар ва субсидиялардан фойдаланиш каби омилларни ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ.

Бунинг учун мавжуд молиявий кўрсаткичларга қўшимча равишда аграр фаолиятни ифодаловчи ўзгарувчиларни киритиш орқали молиявий барқарорликка таъсир этувчи омилларни аниқлаш мумкин.

3. Молиявий барқарорликни баҳолашнинг миллий мезонларини шакллантириш.

Altman ва Springate моделларида келтирилган классик чегараларни қишлоқ хўжалиги корхоналарига тўғридан-тўғри қўллаш ўрнига, Ўзбекистон аграр секторининг молиявий маълумотлари асосида уларнинг мослигини текшириш таклиф этилади.

Бунинг учун 486 та фермер хўжалигининг 2021–2025 йилларга оид маълумотлари асосида моделларнинг таснифлаш қобилияти, хатолик даражаси ва прогноз натижалари баҳоланиши лозим. Шундан сўнг миллий шароитга мос баҳолаш мезонларини шакллантириш мумкин.

4. Панель ва динамик панель моделларидан фойдаланиш.

486 та фермер хўжалигининг беш йиллик маълумотлари панель маълумотлар тузилмасини шакллантириш имконини беради. Ушбу маълумотлар асосида корхоналарнинг молиявий барқарорлигига таъсир этувчи омилларни вақт ва корхоналар кесимида таҳлил қилиш тавсия этилади.

Динамик панель моделидан фойдаланиш орқали олдинги йилдаги молиявий ҳолатнинг кейинги йилдаги барқарорликка таъсирини баҳолаш мумкин. Бу, айниқса, аграр соҳада қарз мажбуриятлари, мавсумий зарарлар ва ҳосилдорлик ўзгаришларининг узоқроқ даврдаги таъсирини ўрганишда аҳамиятлидир.

4.4. Аграр секторда моделларни мослаштириш зарурати

Юқорида кўриб чиқилган моделлар молиявий барқарорликни баҳолашнинг турли жиҳатларини қамраб олади. Бироқ қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий ҳолатига таъсир этувчи мавсумийлик, табиий-иқлим хавфлари, ҳосилдорлик, ер ва сув ресурслари билан таъминланганлик ҳамда давлат молиявий кўмаги каби омилларни бир вақтнинг ўзида ҳисобга олиш зарур.

Шу сабабли мазкур тадқиқотда молиявий коэффициентлар ва банкротликни прогнозлаш моделларини панель таҳлил, стресс-тестлаш ҳамда сценарийли моделлаштириш билан уйғунлаштириш таклиф этилади. Бундай ёндашув қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини фақат ҳисобот давридаги натижалар орқали эмас, балки вақт давомидаги ўзгаришлар ва эҳтимолий ташқи хавфлар нуқтаи назаридан ҳам баҳолаш имконини яратади.

5. Стресс-тестлаш ва сценарийли моделлаштиришни қўллаш.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг ташқи хавфларга чидамлилигини аниқлаш мақсадида базавий, салбий ва пессимистик сценарийлар асосида стресс-тестлашни амалга ошириш таклиф этилади.

Бунда маҳсулот тушумининг 15 фоизга камайиши, ҳосилдорликнинг 25 фоизга пасайиши, кредит фоиз ставкасининг 5 фоиз пунктга ошиши ва импорт харажатларининг 20 фоизга кўпайиши каби шартли шоклар таъсирида корхоналарнинг ликвидлиги, рентабеллиги, қарзни қоплаш қобилияти ва Z-score кўрсаткичлари қайта ҳисобланиши мумкин.

Мазкур шоклар тадқиқот учун таклиф этилаётган шартли сценарийлар бўлиб,

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

уларнинг реал эҳтимоли эмпирик маълумотлар асосида алоҳида баҳоланиши лозим.

6. Миллий интеграл молиявий барқарорлик индексини ишлаб чиқиш.

Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий ҳолатини ягона кўрсаткич орқали баҳолаш мақсадида ликвидлик, рентабеллик, қарз юки, активлар айланувчанлиги ва пул оқимларини қамраб олувчи интеграл индексни шакллантириш таклиф этилади.

Индексни ишлаб чиқишда кўрсаткичларни нормаллаштириш, уларнинг вазнларини асослаш ва натижаларни молиявий барқарорлик даражалари бўйича таснифлаш талаб этилади.

Тақдим этилган дастлабки вариантда қуйидаги вазнлар таклиф қилинган:

Кўрсаткич	Вазн
Ликвидлик	0,20
Рентабеллик	0,25
Қарз юки	0,20
Айланувчанлик	0,15
Пул оқими	0,20
Жами	1,00

Ушбу вазнлар дастлабки таклиф сифатида қаралиши керак. Уларнинг илмий асосланганлиги статистик таҳлил, эксперт баҳолаш ёки бошқа вазн аниқлаш усуллари орқали текширилиши лозим.

Тадқиқот мавзуси бўйича хулоса

Олиб борилган назарий-методологик таҳлиллар қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини баҳолаш кўп омилли ва мураккаб иқтисодий жараён эканлигини кўрсатади. Аграр соҳада молиявий барқарорлик фақат корхонанинг ликвидлиги, рентабеллиги ва қарз юки билан эмас, балки мавсумийлик, ҳосилдорлик, табиий-иқлим шароитлари, ер ва сув ресурслари, кредитлар ҳамда давлат молиявий кўмагидан фойдаланиш имкониятлари билан ҳам белгиланади.

Молиявий коэффициентлар усули корхонанинг жорий молиявий ҳолатини баҳолаш имконини берса, Altman Z-score, Springate ва Beaver моделлари молиявий муаммолар ҳамда банкротлик хавфини аниқлашга хизмат қилади. Logit ва Probit моделлари молиявий муаммо юзага келиш эҳтимолини ҳисоблаш, панель ва динамик панель моделлари эса молиявий барқарорликка таъсир этувчи омилларни вақт давомида ўрганиш имконини беради. Стресс-тестлаш ва сценарийли моделлаштириш ташқи хавфлар шароитида корхоналарнинг молиявий чидамлилигини баҳолаш учун қўлланилиши мумкин.

Шу билан бирга, мазкур моделларнинг ҳар бири молиявий барқарорликнинг муайян жиҳатини қамраб олиши сабабли уларни алоҳида қўллаш корхонанинг молиявий ҳолати ҳақида тўлиқ хулоса чиқариш учун етарли бўлмаслиги мумкин. Шу нуқтаи назардан, моделларни комплекс қўллаш ва аграр соҳанинг ўзига хос хусусиятларини баҳолаш жараёнига киритиш муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқотда 486 та фермер хўжалигининг 2021–2025 йилларга оид молиявий ҳисоботларидан фойдаланиш орқали молиявий барқарорликнинг вақт ва ҳудудлар кесимидаги ўзгаришларини ўрганиш, моделларнинг Ўзбекистон аграр сектори шароитидаги мослигини текшириш ҳамда миллий баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш учун эмпирик асос яратилади.

Умуман олганда, қишлоқ хўжалиги корхоналарининг молиявий барқарорлигини баҳолашда молиявий коэффициентлар, банкротликни прогнозлаш моделлари, эҳтимолий эконометрик усуллар, панель таҳлил ва стресс-тестлашни бирлаштирувчи комплекс ёндашувни шакллантириш мақсадга мувофиқ. Ушбу ёндашув келгусида аграр корхоналарнинг молиявий хавфларини эрта аниқлаш, молиявий ресурслардан самарали фойдаланиш ва молиявий барқарорликни таъминлашга қаратилган бошқарув қарорларини такомиллаштириш учун методологик асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Beaver W. H. Financial Ratios as Predictors of Failure // Journal of Accounting Research. — 1966. — Vol. 4, Empirical Research in Accounting: Selected Studies. — P. 71–111.

2. Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. — 1968. — Vol. 23, No. 4. — P. 589–609.

3. Altman E. I., Haldeman R. G., Narayanan P. ZETA Analysis: A New Model to Identify Bankruptcy Risk of Corporations // Journal of Banking & Finance. — 1977. — Vol. 1, No. 1. — P. 29–54.

4. Ohlson J. A. Financial Ratios and the Probabilistic Prediction of Bankruptcy // Journal of Accounting Research. — 1980. — Vol. 18, No. 1. — P. 109–131.

5. Zmijewski M. E. Methodological Issues Related to the Estimation of Financial Distress Prediction Models // Journal of Accounting Research. — 1984. — Vol. 22, Supplement. — P. 59–82.

6. Deakin E. B. A Discriminant Analysis of Predictors of Business Failure // Journal of Accounting Research. — 1972. — Vol. 10, No. 1. — P. 167–179.

7. Balcaen S., Ooghe H. 35 Years of Studies on Business Failure: An Overview of the Classic Statistical Methodologies and Their Related Problems // The British Accounting Review. — 2006. — Vol. 38, No. 1. — P. 63–93.

8. Aziz A., Dar H. A. Predicting Corporate Bankruptcy: Where We Stand? // Corporate Governance. — 2006. — Vol. 6, No. 1. — P. 18–33.

9. Mensah Y. M. An Examination of the Stationarity of Multivariate Bankruptcy Prediction Models: A Methodological Study // Journal of Accounting Research. — 1984. — Vol. 22, No. 1. — P. 380–395.

10. Altman E. I., Sabato G. Modeling Credit Risk for SMEs: Evidence from the U.S. Market // Abacus. — 2007. — Vol. 43, No. 3. — P. 332–357.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TIJORAT BANKLARIDA MIJOZNING TRANZAKSION FAOLLIGIGA ASOSLANGAN ADAPTIV TARIFLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Sanayev Javohir Shavkat o’g’li
mustaqil tadqiqotchi
Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0006-1398-7563

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tijorat banklarida hisob-kitob va tranzaksion xizmatlarni tariflash tizimini mijozning individual iqtisodiy qiymati asosida takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. B. Avezov tomonidan taklif etilgan adaptiv tariflash metodikasi asosida mijozning barqaror hisobvaraq qoldig‘i, tranzaksion faolligi, xizmat ko‘rsatish tannarxi va bankning maqsadli marjasini o‘zaro bog‘liq holda hisobga olish imkoniyatlari tahlil qilingan. Barqaror hisobvaraq qoldig‘ini aniqlashda kunlik qoldiqlar taqsimotining 10 foizlik quyi kvantilidan foydalanishning iqtisodiy ahamiyati asoslangan. ICICI Bank tajribasi hamda ATB “Turonbank” ma’lumotlari asosida mijoz qiymatiga yo‘naltirilgan differensial tariflashning amaliy imkoniyatlari baholangan. Tahlil natijalari adaptiv tariflash mijozlarni iqtisodiy qiymati bo‘yicha segmentlash, bankning barqaror resurs bazasini mustahkamlash, tranzaksion faollikni rag‘batlantirish va komissiya daromadlarini oshirish imkonini berishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banki, adaptiv tariflash, tranzaksion faollik, barqaror hisobvaraq qoldig‘i, mijoz qiymati, differensial tarif, xizmat tannarxi, komissiya daromadi, resurs bazasi, raqamli bank xizmatlari.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА АДАПТИВНОЙ ТАРИФИКАЦИИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ НА ОСНОВЕ ТРАНЗАКЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ КЛИЕНТА

Санаев Жавохир Шавкат угли
независимый исследователь
Ташкентский государственный
экономический университет
ORCID: 0009-0006-1398-7563

Аннотация. *В статье исследованы вопросы совершенствования системы тарификации расчетных и транзакционных услуг коммерческих банков на основе индивидуальной экономической ценности клиента. На основе методики адаптивной тарификации, предложенной Б. Авезовым, проанализированы возможности комплексного учета устойчивого остатка средств на счете клиента, его транзакционной активности, себестоимости обслуживания и целевой маржи банка. Обосновано экономическое значение использования 10-процентного нижнего квантиля распределения ежедневных остатков при определении устойчивого остатка на счете. На основе опыта ICICI Bank и данных АКБ «Туронбанк» оценены практические возможности применения дифференцированной тарификации, ориентированной на ценность клиента. Результаты анализа показывают, что адаптивная тарификация способствует сегментации клиентов по их экономической ценности, укреплению устойчивой ресурсной базы банка, стимулированию транзакционной активности и расширению возможностей получения комиссионных доходов.*

Ключевые слова: *коммерческий банк, адаптивная тарификация, транзакционная активность, устойчивый остаток на счете, ценность клиента, дифференцированный тариф, себестоимость обслуживания, комиссионный доход, ресурсная база, цифровые*

банковские услуги.

IMPROVING THE ADAPTIVE PRICING MECHANISM IN COMMERCIAL BANKS BASED ON CUSTOMER TRANSACTION ACTIVITY

Sanayev Javohir Shavkat ogli
Independent Researcher
Tashkent State
University of Economics
ORCID: 0009-0006-1398-7563

Abstract. *This article examines the improvement of pricing mechanisms for settlement and transaction services in commercial banks based on the individual economic value of customers. Using the adaptive pricing methodology proposed by B. Avezov, the study analyzes the integrated consideration of a customer’s stable account balance, transaction activity, service cost, and the bank’s target margin. Particular attention is paid to the economic rationale for using the 10th percentile of daily account balances to determine the customer’s stable balance. Based on the experience of ICICI Bank and data from Turonbank, the practical possibilities of applying customer-value-oriented differentiated pricing are assessed. The results indicate that adaptive pricing can facilitate customer segmentation according to economic value, strengthen the bank’s stable funding base, stimulate transaction activity, and expand opportunities for generating commission income.*

Keywords: *commercial bank, adaptive pricing, transaction activity, stable account balance, customer value, differentiated pricing, service cost, commission income, funding base, digital banking services.*

Kirish

Jahon bank tizimida raqamli transformatsiya va to‘lov infratuzilmasining kengayishi mijozlarning tranzaksion faolligini keskin oshirib, bank xizmatlari narxini shakllantirishga nisbatan an’anaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. McKinsey & Company’ning *Global Payments Report 2025* hisobotiga ko‘ra, global to‘lovlar bozori 3,6 trln tranzaksiya va qariyb 2,0 kvadrillion AQSh dollari miqdoridagi pul oqimlarini qamrab olib, 2,5 trln AQSh dollari daromad shakllantirgan. Shu bilan birga, to‘lovlar bozoridagi daromadlarning o‘sish sur’ati 2023-yildagi 12 foizdan 2024-yilda 4 foizgacha pasaygan. Hisobotda past xarajatli account-to-account to‘lovlar va raqamli hamyonlarning kengayishi, shuningdek, kuchayib borayotgan narx bosimi banklarning an’anaviy komissiya daromadlari modeliga ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etilgan [1]. Mazkur holat bank xizmatlariga yagona standart tariflarni qo‘llash o‘rniga mijozning bank uchun yaratadigan real iqtisodiy qiymatini hisobga oluvchi differensial tarif mexanizmlarini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.

Mazkur muammo ayniqsa korporativ va tijorat mijozlariga ko‘rsatiladigan tranzaksion bank xizmatlarida dolzarbdir. McKinsey ma’lumotlariga ko‘ra, global tranzaksion banking yiliga qariyb 1,3 trln AQSh dollari daromad yaratib, ulgurji bank xizmatlari daromadlarining qariyb 47 foizini tashkil etadi. 2025-yilgi *Corporate and Commercial Deposits Survey* natijalarida kompaniyalarning qariyb 20 foizi muayyan yil davomida operatsion depozitlar bo‘yicha asosiy bank hamkorini almashtirishi aniqlangan. Bankni almashtirish sabablarida 55 foiz respondent yaxshiroq narx yoki foiz shartlarini, 36 foizi qulay bank platformasini va 31 foizi API integratsiyasining soddaligini qayd etgan [2]. Bu natijalar tarif siyosati korporativ mijozni saqlab qolish va bank-mijoz munosabatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim boshqaruv instrumentiga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Xalqaro amaliyotda ham mijozlarning narxga sezgirligi, hisobvaraqdagi mablag‘lari va xizmatlardan foydalanish xususiyatlarini hisobga oluvchi ma’lumotlarga asoslangan tariflash tizimlariga o‘tish kuchaymoqda. McKinsey tahliliga ko‘ra, banklarda tizimli pricing excellence

dasturlarini joriy etish operatsion foydani 5–10 foizgacha oshirish imkonini berishi mumkin; ayni paytda ko‘plab banklarda mijozning narx elastikligini aniqlash yetarli darajada rivojlanmagan va tariflar haddan tashqari standartlashtirilgan. Shu nuqtayi nazardan, mijozning barqaror hisobvaraq qoldig‘i, tranzaksiyalar soni va hajmi hamda xizmat ko‘rsatish tannarxini o‘zaro bog‘lagan adaptiv tariflash mexanizmini shakllantirish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot uchun asos bo‘lgan ilmiy ishda mazkur mexanizm yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan hisob-kitob xizmatlari tarifini mijozning barqaror qoldig‘i, tranzaksion faolligi va bank uchun yaratadigan iqtisodiy qiymatiga moslashtirish vositasi sifatida asoslangan.

Shundan kelib chiqib, maqolaning maqsadi tijorat banklarida standart tariflashdan mijozning individual iqtisodiy qiymatiga asoslangan tariflashga o‘tishning ilmiy-uslubiy jihatlarini tadqiq etish hamda hisobvaraq qoldig‘i, tranzaksion faollik va xizmat ko‘rsatish tannarxini hisobga oluvchi adaptiv tariflash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida bank xizmatlarini raqamlashtirish, mijoz qiymatini oshirish va texnologik yechimlarning bank daromadliligiga ta’siri keng o‘rganilgan. A.N. Berger bank texnologiyalarining rivojlanishi xizmat ko‘rsatish xarajatlari va bank faoliyati samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslagan [3]. E. Beccalli Yevropa banklari misolida texnologik investitsiyalar hajmining ortishi avtomatik ravishda yuqori moliyaviy natijani kafolatlamasligini, investitsiyalarning iqtisodiy qaytimini alohida baholash zarurligini ko‘rsatadi [4]. R. DeYoung va K.P. Roland esa bank daromadlari tarkibida komissiyaviy xizmatlarning kengayishi daromadlilik bilan birga risk va xarajatlar tuzilmasini ham o‘zgartirishini aniqlagan [5]. Zamonaviy tadqiqotlarda S. Struebi va A. Lim ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellektdan foydalanish banklarda mijozlarning narxga sezgirligi va iqtisodiy qiymatini chuqurroq baholash orqali yanada moslashuvchan pricing strategiyalarini shakllantirish imkonini berishini ta’kidlaydi [6]. Ushbu qarashlar bank xizmatlari narxini faqat standart tariflar asosida emas, balki mijozning xulq-atvori va bank uchun yaratadigan qiymati asosida differensiallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida mazkur masala asosan innovatsion xizmatlar, masofaviy banking, mijozga yo‘naltirilgan raqamli strategiya va bank resurs bazasi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. M. Ataniyazova bank innovatsiyalarini mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish va bank foydasini oshirishga xizmat qiluvchi yangi mahsulot hamda texnologiyalar majmui sifatida baholaydi [7]. Z.T. Mamadiyarov masofaviy xizmatlarning rivojlanishini axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish va mijozlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar bilan bog‘laydi [8]. A.A. Azlarova bank transformatsiyasida mijozga yo‘naltirilgan raqamli strategiyani ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatsa [9], I.I. Jo‘rayev mijozlarni segmentlash va shaxsiylashtirilgan takliflar bankning barqaror resurs bazasini shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [10]. Biroq mavjud tadqiqotlarda mijozning barqaror hisobvaraq qoldig‘i, tranzaksion faolligi va xizmat ko‘rsatish tannarxini yagona mexanizmda birlashtirib individual tarif shakllantirish masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu bois adaptiv tariflash mexanizmini ishlab chiqish mavjud ilmiy yondashuvlarni amaliy jihatdan rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik-iqtisodiy usullar, segmentlash va koeffitsiyentlar usulidan foydalanildi. Adaptiv tariflash mexanizmini shakllantirishda mijozning bank uchun yaratadigan iqtisodiy qiymatini ifodalovchi barqaror hisobvaraq qoldig‘i, tranzaksion faollik va xizmat ko‘rsatish tannarxi o‘zaro bog‘liq holda baholandi. Barqaror qoldiqni aniqlashda 90 yoki 180 kunlik kunlik qoldiqlar taqsimotining quyi kvantilidan, tranzaksion faollikni baholashda esa operatsiyalar soni va zarur hollarda ularning hajmidan foydalanildi. Mijozlar iqtisodiy qiymati bo‘yicha segmentlanib, individual tarif xizmat tannarxi, bankning maqsadli marjasi, barqaror qoldiq va tranzaksion faollik ko‘rsatkichlari asosida shakllantirildi; tadqiqotning axborot bazasini banklarning moliyaviy hisobotlari hamda CRM, core-banking va boshqaruv

hisobi tizimlaridan olinadigan mijoz darajasidagi ma’lumotlar tashkil etdi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklarida hisob-kitob va tranzaksion xizmatlarga nisbatan qo‘llaniladigan an’anaviy tariflash amaliyotida, odatda, muayyan xizmat turi bo‘yicha mijozlarning barchasiga bir xil yoki oldindan belgilangan standart tarif qo‘llaniladi. Bunday yondashuv sodda va boshqarish uchun qulay bo‘lsa-da, mijozlarning bank uchun yaratadigan iqtisodiy qiymatidagi tafovutlarni to‘liq hisobga olmaydi. Xususan, bir xil xizmat paketidan foydalanuvchi mijozlarning hisobvaraqda saqlaydigan mablag‘lari, operatsiyalar soni va hajmi hamda ularga xizmat ko‘rsatish tannarxi sezilarli farq qilishi mumkin. Shu sababli B. Avezov tomonidan ishlab chiqilgan adaptiv tariflash metodikasida tarifni mijozning individual iqtisodiy qiymati bilan bog‘lash yondashuvi asoslangan. Mazkur mexanizmning asosiy tarkibiy elementlari sifatida barqaror hisobvaraq qoldig‘i, tranzaksion faollik va xizmat ko‘rsatish tannarxi qabul qilingan.

Adaptiv tariflash mexanizmining dastlabki bosqichi mijozning bank resurs bazasiga real va barqaror qo‘shayotgan hissasini aniqlashdan iborat. Oddiy o‘rtacha hisobvaraq qoldig‘i ayrim kunlarda hisobvaraqqa vaqtincha kelib tushgan katta miqdordagi mablag‘lar ta’sirida yuqori shakllanishi mumkin. Shu sababli barqaror qoldiqni baholashda 90 yoki 180 kunlik kuzatuv davridagi kunlik qoldiqlar taqsimotining 10 foizlik quyi kvantilidan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Barqaror hisobvaraq qoldig‘i quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$BQi = Q0{,}10(Bi, 1, Bi, 2, \dots, Bi, D)$$

bu yerda, BQi— *i*-mijozning barqaror hisobvaraq qoldig‘i; Bi,d— *i*-mijoz hisobvarag‘ining *d*-kundagi qoldig‘i; D — kuzatuv davridagi kunlar soni; Q0,10 — kunlik qoldiqlar taqsimotining 10 foizlik quyi kvantili.

Mazkur yondashuvning iqtisodiy ahamiyati shundaki, quyi kvantildan foydalanish hisobvaraqda faqat qisqa muddat mavjud bo‘lgan yuqori qoldiqlar ta’sirini cheklaydi va bank tasarrufida nisbatan muntazam saqlanayotgan mablag‘lar hajmini ehtiyotkorlik asosida aniqlash imkonini beradi. Demak, barqaror qoldiq mijozning bank uchun qiymatini faqat komissiya daromadi nuqtayi nazaridan emas, balki uning bank resurs bazasini shakllantirishdagi hissasi orqali ham baholash imkoniyatini yaratadi.

Adaptiv tariflashning ikkinchi asosiy elementi — tranzaksion faollik bo‘lib, u mijozning ma’lum davr mobaynida bankning hisob-kitob xizmatlaridan foydalanish intensivligini tavsiflaydi. Ushbu ko‘rsatkich amalga oshirilgan operatsiyalar soni va zarur hollarda ularning hajmi asosida shakllantiriladi. Barqaror qoldiq va tranzaksion faollik turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lganligi sababli ular tegishli mijozlar bazasi doirasida normallashtiriladi. Natijada mijozlarning resurs qiymati va tranzaksion faoliyatini yagona qiyosiy shkalada baholash imkoniyati yuzaga keladi.

Mijozning barqaror qoldig‘i va tranzaksion faolligi aniqlangandan so‘ng individual adaptiv tarifni quyidagi metodik konstruksiya asosida shakllantirish mumkin:

$$AT_i = max\ \{T_{min};\ C_i(1 + m^*)[1 - \lambda_B \cdot NBQ_i - \lambda_T \cdot NTF_i]\}$$

bu yerda, ATi — *i*-mijoz uchun individual adaptiv tarif; Ci — mijozga tegishli xizmatni ko‘rsatish tannarxi; m∗ — bankning maqsadli marjasi; Tmin— xizmat tannarxini qoplashni ta’minlaydigan minimal tarif; NBQi — barqaror hisobvaraq qoldig‘ining normallashtirilgan qiymati; NTFi — tranzaksion faollikning normallashtirilgan qiymati; λB va λT esa ushbu omillarning tarifga rag‘batlantiruvchi ta’sir darajasini ifodalovchi koeffitsiyentlardir. Metodik konstruksiyada max operatorining qo‘llanishi mijozga beriladigan rag‘bat natijasida tarifning bank uchun iqtisodiy jihatdan asoslangan minimal chegaradan pastga tushib ketishining oldini oladi.

Shu tariqa, yuqori barqaror qoldiq saqlaydigan va bank xizmatlaridan faol foydalanadigan mijozga rag‘batlantiruvchi tarif qo‘llanishi mumkin, biroq ushbu chegirma xizmat tannarxi va bankning minimal rentabellik talabini buzmasligi lozim. Mazkur xususiyat adaptiv tariflashni oddiy chegirma siyosatidan farqlaydi: tarif mijozni rag‘batlantirishi bilan birga bankning iqtisodiy manfaatlarini ham himoya qiladi.

1-jadval.

Adaptiv tariflash mexanizmining asosiy tarkibiy elementlari*

Ko‘rsatkich	Baholash usuli	Iqtisodiy mazmuni	Tarif siyosatidagi vazifasi
Barqaror hisobvaraq qoldig‘i	90/180 kunlik qoldiqlarning 10% quyi kvantili	Bank resurs bazasiga barqaror hissa	Rag‘batlantiruvchi tarif uchun asos
Tranzaksion faollik	Operatsiyalar soni va hajmi	Xizmatlardan foydalanish intensivligi	Faol mijozni differensial baholash
Xizmat tannarxi	Boshqaruv hisobi ma’lumotlari	Bankning real xarajati	Tarifning iqtisodiy bazasini belgilash
Maqsadli marja	Bankning tarif siyosati	Talab etiladigan rentabellik	Bazaviy tarifni shakllantirish
Minimal tarif	Tannarxni qoplash sharti	Bankning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish	Tarifning quyi chegarasini belgilash

**Manba: B. Avezov tomonidan ishlab chiqilgan adaptiv tariflash metodikasi asosida tizimlashtirildi.*

Xorijiy tajribani tahlil qilish ushbu metodik yondashuvning iqtisodiy asoslarini tasdiqlaydi. ICICI Bank biznes mijozlariga xizmat ko‘rsatishda hisobvaraq qoldig‘i, tranzaksion faollik va mijozning bank bilan munosabatlari ko‘lamini e’tiborga oladi. Bankning InstaBIZ platformasida to‘lovlar, inkassatsiya, joriy hisobvaraqlar, merchant xizmatlari, biznes kreditlari va savdoni moliyalashtirish xizmatlari yagona raqamli muhitda birlashtirilgan. 2022-yil yakunida platformaning faol mijozlari soni 1 mln nafardan oshgan, InstaBIZ orqali amalga oshirilgan moliyaviy tranzaksiyalar qiymati esa bir yil davomida 70,9 foizga oshgan.

2-jadval.

ICICI Bankda joriy hisobvaraqlar va CASA depozitlari dinamikasi, 2021–2025-yillar, mlrd rupiy*

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025	2025/2021
Joriy hisobvaraq depozitlari	1 361,7	1 584,8	1 614,9	1 935,7	2 329,6	+71,1%
Jamg‘arma hisobvarag‘i depozitlari	2 954,5	3 599,6	3 797,8	4 023,0	4 407,7	+49,2%
CASA depozitlari	4 316,2	5 184,4	5 412,6	5 958,7	6 737,3	+56,1%

**Manba: ICICI Bank Form 20-F ma’lumotlari asosidagi dissertatsiya hisob-kitoblari.*

Tahlil qilinayotgan davrda ICICI Bank joriy hisobvaraq depozitlari 1 361,7 mlrd rupiydan 2 329,6 mlrd rupiygacha, ya’ni 71,1 foizga, CASA resurslari esa 4 316,2 mlrd rupiydan 6 737,3 mlrd rupiygacha yoki 56,1 foizga oshgan. Joriy hisobvaraq depozitlariga foiz to‘lanmasligi ularni bank uchun nisbatan arzon resurs manbai sifatida shakllantiradi. Shu jihatdan hisobvaraqda yuqori va barqaror qoldiq saqlaydigan biznes mijozga tarif imtiyozi berilishi iqtisodiy nuqtayi nazardan asoslangan bo‘lishi mumkin.

ICICI Bankda merchantlar uchun individual hisob-kitob davrlari, raqamli inkassatsiya, avtomatik hisob-kitoblarni muvofiqlashtirish hamda Minimum Average Balance (MAB) bilan bog‘langan xizmat shartlarining mavjudligi mijozning hisobvaraqdagi mablag‘i va xizmat ko‘rsatish shartlari o‘rtasida amaliy iqtisodiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq hisobvaraq qoldig‘i, tranzaksion faollik, xizmat tannarxi va bankning maqsadli marjasini yagona miqdoriy tarif modelida integratsiyalashgan shaklda qo‘llash ochiq manbalarda to‘liq kuzatilmaydi. Shu sababli Avezov metodikasining uslubiy farqi ushbu omillarni yagona adaptiv tarif mexanizmida o‘zaro bog‘lashdan iborat.

O‘zbekiston sharoitida ushbu yondashuvni qo‘llash imkoniyatlari Turonbank ma’lumotlari asosida ham kuzatiladi. 2025-yilda bankning innovatsion hisob-kitob xizmatlaridan olingan komissiya daromadlari 2024-yilga nisbatan 13 921 mln so‘mga yoki 23,66 foizga oshgan, innovatsion siljish koeffitsiyenti esa 79,72 foizdan 88,96 foizga ko‘tarilgan. Mazkur o‘sishni faqat adaptiv tariflashning alohida sof ta’siri sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi; u innovatsion va hisob-kitob xizmatlarini monetizatsiya qilish bo‘yicha kompleks choralarning umumiy natijasini ifodalaydi.

3-jadval.

ATB “Turonbank”da innovatsion hisob-kitob xizmatlari bo‘yicha 2025-yilda erishilgan natijalar*

Ko‘rsatkich	Natija
Innovatsion siljish koeffitsiyenti (ISK), 2025-yil	88,96 %
ISKning 2024-yilga nisbatan o‘zgarishi	+9,24 foiz punkt
Innovatsion hisob-kitob xizmatlaridan olingan komissiya daromadining mutlaq o‘sishi	+13 921 mln so‘m
Komissiya daromadining o‘sish sur’ati	+23,66 %

**Manba: ATB “Turonbank”ning 2025-yil 10-iyuldagi 1-02-31-sonli ma’lumotnomasida keltirilgan natijalar asosida B. Avezov dissertatsiyasidagi ma’lumotlar bo‘yicha tuzildi.*

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda ATB “Turonbank”da innovatsion siljish koeffitsiyenti 88,96 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 9,24 foiz punktga oshgan. Shu davrda innovatsion hisob-kitob xizmatlaridan olingan komissiya daromadlari 13 921 mln so‘mga yoki 23,66 foizga ko‘paygan. Mazkur natijalar bankda tranzaksion va hisob-kitob xizmatlarini monetizatsiya qilish imkoniyatlari kengayganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu o‘sishni faqat adaptiv tariflash mexanizmining alohida sof ta’siri sifatida talqin qilish metodik jihatdan to‘g‘ri emas, chunki manbada ko‘rsatilgan natijalar innovatsion xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlarning umumiy samarasi sifatida qayd etilgan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari tijorat banklarida standart tariflash yondashuvi mijozlarning bank uchun yaratadigan iqtisodiy qiymatidagi tafovutlarni to‘liq hisobga olmasligini ko‘rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, barqaror hisobvaraq qoldig‘i, tranzaksion faollik va xizmat ko‘rsatish tannarxini o‘zaro bog‘liq holda baholashga asoslangan adaptiv tariflash mexanizmi mijozlarni iqtisodiy qiymati bo‘yicha differensiallashtirish imkonini beradi. Barqaror qoldiqni 90 yoki 180 kunlik kunlik qoldiqlar taqsimotining 10 foizlik quyi kvantili asosida aniqlash qisqa muddatli yuqori qoldiqlar ta’sirini cheklab, mijozning bank resurs bazasiga qo‘shayotgan nisbatan barqaror hissasini ehtiyotkorlik bilan baholashga xizmat qiladi. Tranzaksion faollikning operatsiyalar soni va hajmi orqali baholanishi esa mijozning bank xizmatlaridan foydalanish intensivligini tarif siyosatiga integratsiya qilish imkonini yaratadi.

ICICI Bank tajribasi hisobvaraq qoldig‘i va xizmat ko‘rsatish shartlari o‘rtasida iqtisodiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib, adaptiv tariflashning amaliy asoslarini mustahkamlaydi. Turonbank bo‘yicha tahlilda esa 2025-yilda innovatsion hisob-kitob xizmatlaridan olinadigan komissiya daromadlarining 13 921 mln so‘mga yoki 23,66 foizga oshgani va ISKning 88,96 foizga yetgani qayd etildi. Mazkur natijalar adaptiv tariflashni bankning CRM, core-banking va boshqaruv hisobi ma’lumotlari bilan integratsiya qilgan holda qo‘llash, mijozlarni iqtisodiy qiymati bo‘yicha segmentlash hamda tarifning minimal darajasini xizmat tannarxi va maqsadli marja bilan cheklash zarurligini asoslaydi. Shu tariqa adaptiv tariflash bankning resurs bazasini mustahkamlash, tranzaksion faollikni rag‘batlantirish va komissiya daromadlarini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks boshqaruv vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McKinsey & Company. *The 2025 McKinsey Global Payments Report: Competing Systems, Contested Outcomes* [Elektron resurs]. – 2025. – 26 September. – McKinsey &

Company.

2. Sasia E., Faridi F., Jeenah U., Mantoan M., Porwal P., Jain R., ten Have R. *Charting a Path to Increasing Transaction Banking Value by 50 Percent* [Elektron resurs] // McKinsey & Company. – 2025. – 10 September.

3. Berger A. N. The Economic Effects of Technological Progress: Evidence from the Banking Industry // *Journal of Money, Credit and Banking*. – 2003. – Vol. 35, No. 2. – P. 141–176.

4. Beccalli E. Does IT Investment Improve Bank Performance? Evidence from Europe // *Journal of Banking & Finance*. – 2007. – Vol. 31, No. 7. – P. 2205–2230.

5. DeYoung R., Roland K. P. Product Mix and Earnings Volatility at Commercial Banks: Evidence from a Degree of Total Leverage Model // *Journal of Financial Intermediation*. – 2001. – Vol. 10, No. 1. – P. 54–84.

6. Struebi S., Lim A. Harnessing AI for Smarter Pricing Strategies in Banking [Elektron resurs]. – Simon-Kucher, 2025.

7. Ataniyazova M. Tijorat banklarining innovatsion faoliyati xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar va ularga mualliflik munosabatlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2015. – № 1. – B. 1–6.

8. Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish : iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 56 b.

9. Azlarova A. A. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining bank-moliya xizmatlari bozoriga ta’siri // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2021. – № 2. – B. 308–315.

10. Jo‘rayev I. I. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash : iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent : Akademiya nashriyot markazi, 2020. – 54 b.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ НЕОБХОДИМОСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА ВЕТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ УСТАНОВОК В УЗБЕКИСТАНЕ

Хасанов Сабирджан Садикович
кандидат технических наук
советник председателя Ассоциации китайских предпринимателей китайской провинции Чжэцзян в Узбекистане
E-mail: Khasanovsabir43@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5029-5299

Раимова Мадинабону Сабирджан кизи
независимый соискатель на получение ученой степени, главный бухгалтер компании «BFB groups»
E-mail: madinas1310@icloud.com
ORCID: 0009-0007-2464-5056

Аннотация. *В статье приведены цифровые параметры модернизации энергетической отрасли Узбекистана за последние годы, виды альтернативных источников выработки электроэнергии и, соответственно, необходимость развития альтернативных источников энергии. Отмечена недостаточность выработки электроэнергии за счет генерации ветроэнергетических установок (ВЭУ). Приведены факты экономической эффективности от применения ВЭУ.*

Ключевые слова: *Реформа энергетической отрасли, «зеленая экономика», виды альтернативных источников электроэнергии, ветроэнергетические установки (ВЭУ), инвестиционный проект, экономическая эффективность применения ВЭУ.*

ЎЗБЕКИСТОНДА ШАМОЛ ЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИ ҚУРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЗАРУРАТИНИ БАҲОЛАШ

Хасанов Собиржон Садиқович
техника фанлари номзоди Ўзбекистондаги Чжэцзян Хитой провинцияси тадбиркорлари Уюшмаси раисининг маслаҳатчиси
E-mail: Khasanovsabir43@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5029-5299

Раимова Мадинабону Собиржон қизи
мустақил равишда илмий даража олишга даъвогар, «BFB groups» компаниясининг Бош бухгалтери.
E-mail: *madinas1310@icloud.com*
ORCID: 0009-0007-2464-5056

Аннотация. *Мақолада сўнгги йилларда Ўзбекистон энергетика секторини модернизация қилишга оид миқдорий маълумотлар келтирилган, электр энергияси ишлаб чиқаришнинг турли муқобил манбалари кўриб чиқилган ҳамда ушбу манбаларни ривожлантириш зарурати асослаб берилган. Унда шамол генераторлари ёрдамида электр энергияси ишлаб чиқариш ҳажмининг етарли эмаслиги қайд этилган ва шамол*

энергетикаси технологияларидан фойдаланишнинг иқтисодий самарадорлигини тасдиқловчи далиллар келтирилган.

Калит сўзлар: *энергетика секторини ислоҳ қилиш, "яшил иқтисодиёт", электр энергиясининг муқобил манбалари, шамол генераторлари, инвестиция лойиҳаси, шамол генераторларини ўрнатишнинг иқтисодий самарадорлиги.*

ASSESSMENT OF THE ECONOMIC NECESSITY OF CONSTRUCTING WIND POWER INSTALLATIONS IN UZBEKISTAN

Khasanov Sabirdzhan Sadikovich
candidate of technical sciences (PhD)
Advisor to the Chairman of the Association of Chinese Entrepreneurs from Zhejiang Province in Uzbekistan
E-mail: Khasanovsabir43@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5029-5299
Raimova Madinabony Sabirdjan kizi
Chief Accountant, BFB groups
E-mail: madinas1310@icloud.com
ORCID: 0009-0007-2464-5056

Abstract. *The article presents quantitative data on the modernization of Uzbekistan’s energy sector in recent years, outlines various alternative electricity generation sources, and highlights the resulting need to develop such sources. It notes the insufficiency of electricity generation from wind turbines and presents evidence regarding the economic efficiency of utilizing wind power technology.*

Keywords*: energy sector reform, "green economy", alternative electricity sources, wind turbines, investment project, economic efficiency of wind turbine deployment.*

Введение

Одной из базовых отраслей народного хозяйства Республики Узбекистан, выступающей важнейшим драйвером активизации промышленного развития и последовательной структурной трансформации национальной экономики, является энергетическая отрасль. Ее устойчивое и эффективное функционирование непосредственно влияет на темпы экономического роста, развитие производственного потенциала, обеспечение энергетической безопасности страны и повышение конкурентоспособности отечественной промышленности.

Топливно-энергетический сектор республики играет ключевую роль в социально-экономическом развитии Узбекистана, обеспечивая потребности промышленности, сельского хозяйства, транспортной инфраструктуры, сферы услуг и населения в энергетических ресурсах. Значимость данного сектора подтверждается тем, что в него направляется почти 50% общего объема капиталовложений, а его вклад в формирование валового внутреннего продукта составляет около 7%. Это свидетельствует о высокой инвестиционной емкости отрасли и ее системообразующем значении для национальной экономики.

В современных условиях дальнейшее развитие энергетической отрасли связано не только с увеличением объемов производства и поставок энергоресурсов, но и с модернизацией существующих мощностей, внедрением энергоэффективных и ресурсосберегающих технологий, диверсификацией энергетического баланса, расширением использования возобновляемых источников энергии, а также привлечением отечественных и иностранных инвестиций. Реализация данных направлений способствует повышению надежности энергоснабжения, снижению энергоемкости экономики и

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

созданию необходимых условий для устойчивого развития промышленного комплекса Республики Узбекистан.

Обзор литературы

Согласно официальным данным министерства энергетики Республики Узбекистан [1], за последние годы наблюдается устойчивый рост выработки электроэнергии, достигнув к началу 2026 года производство 86,7 млрд кВт·ч, а за первое полугодие 2026 года выработка составила более 45,5 млрд кВт·ч, увеличившись на 7,1% по сравнению с аналогичным периодом прошлого года, а суммарная установленная мощность электростанций Узбекистана превысила 21 ГВт (21000 МВт). Потребление электроэнергии в стране увеличивается с каждым годом. Так, если в 2000 году месячное потребление одной семьи составляло 114 кВт/час, в 2017 году оно увеличилось на 35% и достигло 160 кВт/час, а уже в 2025 году этот показатель увеличился до 200 кВт, что обеспечило поставку электроэнергии потребителям Узбекистана за 2025 год в объеме 71,0 млрд кВт·ч.

Однако темпы роста выработки электроэнергии не удовлетворяют в полной мере потребности республики. Поддержание роста электроэнергии за счет генерации электроэнергии традиционными ТЭС приводит не только к сокращению запасов природного газа и других углеводородов, но и ухудшению экологической обстановки Узбекистана. Поэтому на современном этапе развития Узбекистана модернизация энергетического сектора, в том числе за счет продвижения возобновляемых источников энергии (*«зеленая энергетика»*), является ключевым условием для обеспечения устойчивого экономического роста и покрытия растущего спроса населения на энергоресурсах. Активно развивая «зеленую» энергетику за последние годы в республике, были запущены десятки солнечных и ветровых станций, суммарная мощность которых достигла 8 ГВт. Так, в июне 2026 года доля чистой генерации в отдельные часы превысила 45%, а объем выработанной электроэнергии от солнца и ветра с начала года рекордно ускорил темпы роста, снижая нагрузку на углеводородное ископаемое топливо и экономя миллионы кубометров природного газа.

Методология исследования

Выступая перед зарубежными инвесторами на III-Ташкентском Международном Инвестиционном Форуме, Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев отметил, что к 2030 году доля возобновляемых источников энергии в общем объеме генерации электроэнергии будет доведена до 54% [2]. Для достижения поставленной задачи по стимулированию привлечения и защиты западных инвесторов, в республике:

- приняты законы «О возобновляемых источниках энергии» и «О государственно-частном партнерстве», в рамках которых Узбекистан заключает с инвесторами долгосрочные соглашения о покупке электроэнергии (PPA) сроком на 20–25 лет, гарантируя обязательный выкуп всего объема генерируемой энергии национальной сетью,
- создана прочная нормативно-правовая база, на основе которой в 2027–2028 годы предусмотрено внедрение метода прозрачного расчета себестоимости для полноценного перехода на RAB-регулирование (Regulatory Asset Base). Данный механизм позволит частным управляющим компаниям возвращать вложенные в модернизацию сетей инвестиции за счет гарантированной нормы доходности, заложенной в тариф.

В условиях сокращения прироста не возобновляемых энергетических ресурсов, все большее значение приобретает внедрение новых технологий на предприятиях топливно-энергетического комплекса республики, а также поиск и широкое вовлечение новых альтернативных источников энергии в энергетический баланс страны. Большую роль в обеспечении рынка страны в энергоресурсах играют альтернативные (*возобновляемые*) источники энергии (АИЭ), которые за счет своей дешевизны (*Таблица №1*) и экологической привлекательности постепенно снижают зависимость страны от природного газа и угля.

Таблица 1.

Стоимость генерации электроэнергии, производимой за счет различных источников *(по данным Международного агентства по возобновляемым источникам энергии IRENA* [3] *и независимых источников* [4]*).*

№	Источники энергии	Средняя себестоимость *(*)* выработки электроэнергии,	Технические параметры ВЭУ, установленные в Узбекистане	
			Количество, *един.*	**Общая мощность, *МВт***
1. Возобновляемые источники электроэнергии				
1.	**Наземный ветер** *(Onshore wind):*	**$42** / МВт*час	**5** крупных ВЭУ	1672 МВт
	Морской ветер *(Offshore wind):*	**$78** / МВт*час	*В 2026-27г.г. у Чарвакского водохранилища строится ВЭУ общей мощностью 20 МВт*	
2.	**Солнечная фото-энергетика** *(Solar PV):*	**$41** / МВт*час	**147 000** станций	> 2000 МВт
	Концентрированная солнечная энергия *(CSP):*	**$115** / МВт*час	*Большое параболическое зеркало высотой 54 метра в «Институте Солнца» в Паркентском районе Ташкентской области.*	
3.	**Гидроэнергетика** *(Hydropower):*	**$62** / МВт*час	**100** ГЭС и МГЭС	> 2400 МВт
4.	**Биоэнергетика** *(Bioenergy):*	**$86** / МВт*час	*Небольшое количество локальных установок*	
5.	**Геотермальная энергия** *(Geothermal):*	**$89** / МВт*час	*В 2027-28г.г. планируются построить первые пилотные геотермальные установки общей мощностью 12 МВт*	
2. Неисчерпаемые источники электроэнергии				
	Атомная энергия *(**)*	**$40 -$70** / МВт*час	*В Джизакской области начато строительство одной АЭС (на 2110 МВт) и планируется строительство второй очереди на 1,6 МВт*	*Зависит от страны изготовителя реакторов, возраста станции и метода расчета*

Примечание: (*) - Для сравнения различных методов себестоимости электроэнергии используется показатель Levelized cost of energy **(*LCOE*)**

(**) - Взято из других источников [4], так как мандат организации **IRENA** сфокусирован исключительно на возобновляемых источниках

Анализ и результаты

Различают следующие виды электроэнергии, получаемые из возобновляемых (*солнечная, ветровая и др.*) или неисчерпаемых (*атомная энергетика*) источников:

- солнечная энергия, получаемая с помощью аккумулирования на специальных батареях электромагнитных потоков света и лучей солнца, с последующим преобразованием их в электроток. Это вид один из самых распространенных видов АИЭ, с общей установленной мощностью в 2,8 ТВт (или 2885 ГВт). Годовой объем вырабатываемой солнечными панелями электроэнергии составляет около 2000–2300 ТВт·ч, что обеспечивает примерно 9–10% от мирового спроса на электроэнергию. Кроме того, этот

вид выработки электроэнергии является самым дешевым, причем эффективность такого рода устройств напрямую зависит от климатической зоны. Поэтому этот вид энергии особенно выгоден для Узбекистана, где количество солнечных дней в году превышает 300 суток в году.

В настоящее время по данным министерства энергетики Узбекистана в Навоийской, Самаркандской, Бухарской, Хорезмской и других областях республики, на более чем 145 тысячах объектов установлены солнечные панели общей суммарной мощностью 2114 МВт, а по итогам 2025 года в стране ввели в эксплуатацию дополнительно крупных солнечных электростанций общей мощностью 1413 МВт.;

- *энергия ветра*, вырабатывающая электроток специализированными ветроэнергетическими установками (*ВЭУ*) за счет работы больших лопастей ветряков от действия воздушных потоков. Суммарная установленная мощность всех ВЭУ в мире превысила 1,3 тераватта (*около 1300–1350 ГВт*), а годовая выработка электроэнергии составляет около 3000 ТВт·ч (*примерно 11–12% от общемирового спроса на электричество*).

В Узбекистане к настоящему времени реализовано и вступили в эксплуатацию 5 ветровых электростанций, общей установленной мощностью около 1672 МВт (станции на 500 МВт в Тамдынском районе Навоийской области, на 500 МВт Баш-I в Бухарской области, на 200 МВт в Караузякском районе Республики Каракалпакстан и др.). Параллельно на стадии активного строительства и проектирования находится более 10 крупных проектов строительства ВЭС, общей мощностью свыше 10 ГВт. В их числе: ВЭС в Кунградском районе (Каракалпакстан), мощностью 5000 МВт, где инвестором выступает ACWA Power (Саудовская Аравия), ВЭС в Гиждуванском районе (Бухарская область), мощностью 600 МВт, где инвестором также выступает ACWA Power (Саудовская Аравия), ВЭС в Самаркандской и Джизакской областях, с суммарной мощностью 500 МВт, по которым инвестором выступает Universal Energy (Китай) и др.

- гидроэнергетика, обеспечивающая, за счет силы движущейся воды рек или морских приливов вращение турбин и, тем самым выработку электроэнергии. В России, Норвегии и других странах с наличием значительных ресурсов водных запасов этот вид энергии является наиболее распространёнными из числа АИЭ. Во всем мире за счет гидроэнергетики вырабатывается около 4500–4578 ТВт·ч (тераватт-часов) электроэнергии в год, что составляет примерно 14% от общего объема мировой генерации. Общая установленная мощность всех гидроэлектростанций на планете превышает 1460 ГВт (гигаватт), причем, например, в России примерно 98% всей возобновляемой энергии приходятся на гидроэлектростанции, а в Норвегии практически вся электроэнергия для промышленности и городов поступает из гидроэнергетики. приходятся на гидроэлектростанцииприходятся на гидроэлектростанции

В Узбекистане действует более 100 гидроэлектростанций, включая крупные и микро-ГЭС, однако, учитывая, что наша страна не обладает большими водными ресурсами, суммарная установленная мощность гидроэлектростанций составляет всего 2,44 ГВт (*2441 МВт*), а годовой объем выработки энергии держится на уровне 6,5 млрд кВт·ч.

- ***геотермальная энергия***, вырабатываемая за счет тепла горячих подземных источников земли, которые нагревают воды и, таким образом вырабатывают ток. Этот вариант выработки электричества особенно характерен для регионов с повышенной тектонической и вулканической активностью.

Доля в мировом энергобалансе составляет менее 1% от общего мирового спроса на электроэнергию, а совокупная установленная мощность геотермальных электростанций в мире составляет около 17,17 гигаватт (ГВт) или примерно 17 173 мегаватт (МВт). Годовая выработка электроэнергии при этом достигает порядка 95–100 тераватт-часов (ТВт·ч). Лидерами по использованию геотермальной энергии выступают США, с установленной

мощности около 3 734 МВт, Индонезия - около 2 432 МВт, Филиппины - около 1 937 МВт. и др.

В Узбекистане, вследствие незначительного количества геотермальных ресурсов *(термальные воды и петротермальный потенциал имеется в Кызылкуме, Ферганской долине и др. регионах),* промышленная электроэнергия за счет геотермальных источников не вырабатывается, а используется исключительно для прямого применения — отопления, горячего водоснабжения и бальнеологии.

- ***биоэнергетика*** – электроэнергия, получаемая из отходов растений и животных, перерабатываемых в газ. Этот вид энергии из возобновляемых ресурсов может быть произведен практически в любой стране, однако такие нетрадиционные источники энергии имеют относительно низкую теплотворную способность, а также несут риски экологического дисбаланса (*например, производство биомассы из древесины может привести к уменьшению площади лесов и, как следствие, загрязнению атмосферы*). Согласно мировым статистическим данным, во всем мире за счет биоэнергетики вырабатывается около 698–711 ТВт·ч электроэнергии в год (*или около 7% от общей генерации всех возобновляемых источников энергии)*, а общая установленная мощность биоэнергетических электростанций составляет примерно 151 ГВт.

В Узбекистане объемы официальной выработки электроэнергии за счет переработки отходов био-организмов крайне маленькие и не имеет значительных промышленных показателей в общей энергосистеме страны.

- *атомная (ядерная) энергетика, вырабатывающая электрическую и тепловую энергию за счет деления ядра атомов, при котором освобождается большое количество тепловой энергии (порядка 200 МэВ -мегаэлектронвольт), которая за счет нагрева воды от деления атомов, на атомных электростанциях (АЭС) вращает турбины паром и обеспечивает выработку тока генератором. Положительной стороной атомной энергетики является тот факт, что она практически неисчерпаема и не производит выбросов парниковых газов.*

Согласно данным World Nuclear Association [5], в 32 странах действуют около 440 единиц АЭС, с общей установленной электрической мощностью на них порядка 376–397 ГВт (гигаватт). Годовой объем выработанной электроэнергии на АЭС достиг рекордных 2667 ТВт·ч (тераватт-часов), что обеспечивает примерно 9% от общей потребности планеты в электричестве.

В Узбекистане строительство АЭС находится в стадии проектных изысканий и начала строительства в Джизакской области. После завершения работ по внедрению атомной электростанции и выхода ее на полную проектную мощность строящаяся комбинированная атомная электростанция в Узбекистане сможет ежегодно вырабатывать около 17,2 миллиарда киловатт-часов (*кВт·ч*) электроэнергии, что обеспечит долю в энергобалансе страны около 14–15% общего объема потребления электроэнергии в Узбекистане.

Страна активно диверсифицирует свой энергобаланс, однако в структуре возобновляемой энергетики (ВИЭ) наблюдается существенный дисбаланс. В то время как солнечная генерация развивается высокими темпами, доля ветроэнергетических установок (ВЭУ) остается критически малой (*см.Таблицу №1*). По состоянию на 2026 год в республике функционирует всего 6 крупных промышленных ветровых электростанций, что недостаточно для полноценного использования ветрового потенциала страны, особенно в таких перспективных регионах, как Республика Каракалпакстан, Навоийская область и южные регионы Узбекистана.

В мае 2015г. в Ташкенте проходила Международная Энергетическая конференция, на которой национальная компания ООО НАУЧНЫЙ ЦЕНТР «SHAMS», совместно со своими немецкими партнерами, озвучили результаты многолетних совместных исследований по всей территории Узбекистана в области получения электроэнергии за счет силы ветра. (***Справка:*** *ООО НЦ «SHAMS» имеет патент изыскания и является разработчиком*

технических условий эксплуатации ВЭУ в Узбекистане, утвержденных в 2017г. Госкомстандарт РУз (с 2023г. Национальным комитетом Республики Узбекистан по статистике). Было отмечено, что, наиболее перспективными и быстро окупаемыми являются отдельные районы Сурхандарьинской, Кашкадарьинской и Навоийской областей, а также Республики Каракалпакстан, где имеются все условия для получения электроэнергии посредством возведения ветроэнергетических установок. При этом строительство ветроэнергетических установок в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях несет в себе стратегические выгоды**, т.к.** согласно данным Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, годовое суммарное потребление электроэнергии в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях, составляет порядка **9–10 млрд кВт·ч**.

Заключение

Учитывая вышеизложенное, НЦ «SHAMS» было разработано ТЭО проекта строительства парка (261 единица) ВЭУ общей мощностью 600 МВт, в котором, для получения наибольшей экономической эффективности от реализации проекта строительства парка ВЭУ, было рекомендовано создание производственного предприятия по производству ВЭУ и локализации комплектующих к ним (лопасти, возведение железобетонных башен ВЭУ за счет строительства на выбранной территории небольшого железобетонного завода). Помимо высокого ветрового потенциала целесообразность строительства парка ВЭУ именно в этих регионах была обусловлена следующими факторами:

во-первых, в этих южных регионах республики действуют крупные производственные предприятия нефтегазовой, химической и перерабатывающей отраслей (в Кашкадарьинской области - Шуртанский ГХК, Uzbekistan GTL, Дехканабадский завод калийных удобрений и др., а в Сурхандарьинской области - Шерабадский солекомбинат, ряд хлопко очистительных заводов, цементный завод и др.), которые, также нуждаются в непрерывном обеспечении электроэнергии в формате 24/7;

во-вторых, экспорт электроэнергии в Афганистан, Кыргызстан и другие приграничные государства обеспечит поступления в госбюджет значительные суммы валютной выручки;

в-третьих, строительство парка ВЭУ позволит создать новые современные высокотехнологичные производственные мощности и новые рабочие места, обеспечив занятость, не менее 180-200 человек;

в-четвертых, обеспечит поступление в государственный бюджет финансовых средств от налогов и других обязательных платежей от производственной деятельности предприятия по выпуску и сборке ВЭУ;

в-пятых, снизит потери при транспортировке электричества из северных и центральных областей и обеспечит стабильное сетевое электроснабжение удаленных предгорных населенных пунктов и фермерских хозяйств;

в-шестых, позволит отказаться от финансирования дорогостоящих инвестиционных проектов (Талимарджан-2 и др.) и сэкономит невозобновляемые природные углеводородные ресурсы (природный газ и уголь), освобождаемые от их использования на ТЭС;

в-седьмых, позволит значительно сократить выбросы вредных веществ, парниковых газов (включая CO_2), смога и снизить тепловое загрязнение атмосферы.

Литературы

1. Статистические данные энергетической отрасли Узбекистана// Официальный web-сайт министерства энергетики Республики Узбекистан. https://gov.uz/ru/minenergy.

2. Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева на III

Международном Инвестиционном Форуме, касательно приоритетов экономической открытости Узбекистана и поддержке иностранных вложений. // Ташкент, 2 мая 2024г. https://president.uz/ru/lists/view/7194

3. Международное агентство по возобновляемым источникам энергии (IRENA)//. Отчет IRENA «Стоимость производства электроэнергии из возобновляемых источников в 2025 году». Июль 2026г.
https://www.irena.org/Publications/2026/Jul/Renewable-Power-Generation-Costs-in-2025

4. Бюллетень МАГАТЭ. Доклады исследований// Весна, 1985г.// https://www.iaea.org/sites/default/files/27104784044_ru.pdf

5. Бюллетень World Nuclear_Performance.//Доклад «Всемирная ядерная энергетика: показатели за 2025 год»//https://world-nuclear.org/images/articles/World_Nuclear_Performance_Report_2025_ec7e189b.f

O’ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA XIZMATLARI BOZORINING INSTITUTSIONAL TUZILMASI: AUDITORLIK VA SOLIQ MASLAHATCHILARI TASHKILOTLARI REESTRLARI TAHLILI

Karimov Shohruh Ahmadullo o’g’li
Farg’ona davlat texnika universiteti doktoranti,
«FISCAL AUDIT» MChJ direktori
E-mail: newcyberx@gmail.com
ORCID: 0009-0006-3563-1277

Annotatsiya. *Maqolada O’zbekistonda buxgalteriya autsorsing xizmatlarini ko’rsatishga qonunan vakolatli tashkilotlar rasmiy reestrlar asosida tahlil qilinadi. 281 ta tashkilotning hududiy taqsimoti, reestrga kiritilish dinamikasi va hajmi o’rganilib, bozorning Toshkent shahrida keskin markazlashgani aniqlangan. Mintaqaviy xizmat taqchilligini kamaytirish va sohani tartibga solishni takomillashtirish bo’yicha ilmiy takliflar berilgan.*

Kalit so’zlar: *buxgalteriya autsorsingi, buxgalteriya xizmatlari bozori, auditorlik tashkiloti, soliq maslahatchisi, rasmiy reestr, hududiy taqsimot, bozor konsentratsiyasi, Herfindal–Hirshman indeksi, institutsional tartibga solish, kichik biznes, mintaqaviy rivojlanish.*

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ СТРУКТУРА РЫНКА БУХГАЛТЕРСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИЗ РЕЕСТРОВ АУДИТОРСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ И НАЛОГОВЫХ КОНСУЛЬТАНТОВ

Каримов Шохрух Ахмадулло угли
докторант Ферганского государственного технического университета,
директор ООО «FISCAL AUDIT»
E-mail: newcyberx@gmail.com
ORCID: 0009-0006-3563-1277

Аннотация. *В статье на основе официальных реестров анализируются организации, законодательно уполномоченные оказывать услуги бухгалтерского аутсорсинга в Узбекистане. Изучены территориальное распределение, динамика включения в реестр и размер 281 организации, выявлена высокая концентрация рынка в Ташкенте. Предложены меры по сокращению регионального дефицита услуг и совершенствованию регулирования.*

Ключевые слова: *бухгалтерский аутсорсинг, рынок бухгалтерских услуг, аудиторская организация, налоговый консультант, официальный реестр, территориальное распределение, концентрация рынка, индекс Херфиндаля–Хиршмана, институциональное регулирование, малый бизнес, региональное развитие.*

INSTITUTIONAL STRUCTURE OF THE ACCOUNTING SERVICES MARKET IN UZBEKISTAN: AN ANALYSIS OF THE REGISTERS OF AUDIT AND TAX CONSULTING ORGANIZATIONS

Karimov Shohruh Ahmadullo o’g’li
doctoral student, Fergana State Technical University,
Director, FISCAL AUDIT LLC
E-mail: newcyberx@gmail.com
ORCID: 0009-0006-3563-1277

Abstract. *The article analyzes organizations legally authorized to provide accounting outsourcing services in Uzbekistan using official registers. The regional distribution, registration dynamics and size of 281 organizations are examined, revealing strong concentration in Tashkent.*

Measures to reduce the regional service gap and improve regulation are proposed.

Keywords: *accounting outsourcing, accounting services market, audit organization, tax consultant, official register, regional distribution, market concentration, Herfindahl–Hirschman index, institutional regulation, small business, regional development.*

Kirish

Buxgalteriya hisobini yuritish funksiyasini tashqi ixtisoslashgan tashkilotga topshirish — buxgalteriya autsorsingi — kichik va o’rta biznes uchun malakali kadrlar taqchilligi va xarajatlarni qisqartirish muammosini hal qilishning keng tarqalgan usulidir. O’zbekistonda tadbirkorlik subyektlari sonining o’sishi, soliq ma’muriyatchiligining raqamlashuvi hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) bosqichma-bosqich o’tilishi buxgalteriya xizmatlariga bo’lgan talabni oshirmoqda. «2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» ham tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xizmatlar sohasini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan [1].

Biroq buxgalteriya autsorsingi mamlakatimizda alohida litsenziyalanadigan faoliyat turi emas va unga oid yagona davlat reestri yuritilmaydi. Natijada bozor hajmi, xizmat ko’rsatuvchilar soni va ularning hududiy joylashuvi haqida rasmiy statistika mavjud emas. Bu holat davlat siyosatini ishlab chiqish, mintaqaviy ehtiyojlarni baholash va ilmiy tadqiqotlar o’tkazishni qiyinlashtiradi. Ilmiy adabiyotlarda bozor ko’lami ko’pincha ekspert baholari yoki tanlanma so’rovnomalar asosida taxmin qilinadi, bunday baholar esa tekshirib bo’lmaydigan xarakterga ega.

Ushbu maqolaning maqsadi — buxgalteriya xizmatini ko’rsatishga qonunan vakolatli tashkilotlarning rasmiy reestrlarini tahlil qilish orqali O’zbekiston buxgalteriya xizmatlari bozorining institutsional tuzilmasini miqdoriy tavsiflash va uni rivojlantirish bo’yicha takliflar ishlab chiqishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo’yildi: vakolatli tashkilotlarning huquqiy asosini aniqlash; ularning hududiy taqsimotini, reestrga kiritilish dinamikasini va hajm tuzilmasini tahlil qilish; bozor konsentratsiyasini baholash; aniqlangan nomutanosibliklarni bartaraf etish yo’llarini asoslash.

Adabiyotlar sharhi

Autsorsingning nazariy asosi R.Kouzning firma chegaralari haqidagi ishiga borib taqaladi: korxona funksiyani ichkarida bajarish yoki bozordan sotib olishni tranzaksion xarajatlarni solishtirish orqali tanlaydi [2]. O.Uilyamson bu yondashuvni rivojlantirib, aktivlarning o’ziga xosligi, noaniqlik va bitimlar takrorlanuvchanligini tanlovning asosiy omillari sifatida ko’rsatgan [3]. K.Prahalad va G.Hamel esa korxona o’z resurslarini asosiy kompetensiyalarga jamlashi, qo’llab-quvvatlovchi funksiyalarni esa tashqariga berishi kerakligini asoslagan [4]. J.Kvinn va F.Hilmer strategik autsorsingni raqobat ustunligini oshirish vositasi sifatida tahlil qilgan [5].

Buxgalteriya autsorsingi bo’yicha empirik tadqiqotlarda P.Everaert va hammualliflari Belgiya kichik korxonalari misolida tranzaksion xarajatlar nazariyasining buxgalteriya funksiyasini autsorsingga berish qarorini tushuntirish qobiliyatini tasdiqlagan [6]. Y.Kamyabi va S.Devi Eron kichik va o’rta korxonalarida buxgalteriya autsorsingi korxona faoliyati natijalariga ijobiy ta’sir ko’rsatishini aniqlagan [7]. M.Laciti va L.Uillkoks esa robototexnik jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA) buxgalteriya kabi standartlashgan xizmatlar iqtisodiyotini tubdan o’zgartirayotganini ko’rsatgan [8].

Ushbu tadqiqotlarning umumiy jihati shundaki, ular bozor ishtirokchilari to’g’risida ishonchli statistika mavjud bo’lgan rivojlangan mamlakatlar sharoitiga tayanadi. O’tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda, jumladan O’zbekistonda, buxgalteriya xizmatlari bozorining tarkibi rasmiy ma’lumotlar asosida deyarli o’rganilmagan. Mahalliy adabiyotlarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish masalalari keng yoritilgan bo’lsa-da, buxgalteriya autsorsingi bozori mustaqil tadqiqot obyekti sifatida kam o’rganilgan. Ushbu maqola mazkur bo’shliqni rasmiy reestrlar tahlili orqali qisman to’ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning asosiy metodologik muammosi — buxgalteriya autsorsingi bozorining chegaralarini aniqlash. Yagona reestr bo’lmagani sababli, bozorning rasmiy qismi sifatida buxgalteriya xizmatini ko’rsatish huquqi qonunda bevosita belgilangan tashkilotlar olindi. «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi Qonunning 33-moddasiga ko’ra auditorlik tashkilotlari turdosh xizmat sifatida «buxgalteriya hisobini yo’lga qo’yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish» huquqiga ega [9]. «Soliq maslahatiga oid faoliyat to’g’risida»gi Qonunning 18-moddasiga ko’ra soliq maslahatchilari tashkilotlari «buxgalteriya hisobini va moliyaviy hisobni yuritish» xizmatini ko’rsatishi mumkin [10].

Axborot bazasini uchta rasmiy reestr tashkil etdi: Iqtisodiyot va moliya vazirligining auditorlik tashkilotlari reestri (2026-yil 1-iyun holatiga) [11], Soliq maslahatchilari palatasining soliq maslahatchilari tashkilotlari reestri va autsorsing tashkilotlari reestri [12]. Auditorlik reestrining 175 ta faol yozuvi (reestrdan chiqarilgan 2 ta tashkilot hisobga olinmadi) bo’yicha pochta manzili, reestrga kiritilgan sana va auditorlar tarkibi birlamchi ma’lumot sifatida qayta ishlandi. Hudud pochta manzili bo’yicha aniqlandi, tashkilot hajmi esa unda ishlovchi sertifikatlangan auditorlar soni bilan o’lchandi.

Tahlilda guruhlash, tuzilmaviy va dinamik tahlil usullari qo’llanildi. Hududiy konsentratsiya darajasini baholash uchun Herfindal–Hirshman indeksi (HHI) hududlar kesimida hisoblandi:

$$HHI = \Sigma s_i^2,$$

bu yerda s_i — i-hududning tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi (foizda). Indeks 0 dan 10 000 gacha qiymat oladi; tashkilotlar 14 ta hudud o’rtasida teng taqsimlanganda uning qiymati 714 ga teng bo’lar edi. Raqobat siyosati amaliyotida 1800 dan yuqori qiymat yuqori konsentratsiya belgisi sifatida qaraladi [13]. Mazkur maqolada indeks raqobat emas, balki xizmatlarning hududiy joylashuvi konsentratsiyasi o’lchovi sifatida qo’llanildi.

Tahlil va natijalar

Rasmiy reestrlar ma’lumotlariga ko’ra, 2026-yil holatiga O’zbekistonda buxgalteriya xizmatini ko’rsatishga qonunan vakolatli 281 ta tashkilot faoliyat yuritmoqda (1-jadval).

1-jadval

Buxgalteriya xizmatini ko’rsatishga vakolatli tashkilotlar (2026-yil)

Tashkilot turi	Soni	Ulushi, %	Sertifikatlangan mutaxassislar	Huquqiy asos
Auditorlik tashkilotlari	175	62,3	851 auditor	O’RQ-677, 33-modda
Soliq maslahatchilari tashkilotlari	95	33,8	288 soliq maslahatchisi	O’RQ-787, 18-modda
Autsorsing tashkilotlari	11	3,9	—	Palata reestri
Jami	**281**	**100,0**	**1 139**	**—**

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq maslahatchilari palatasi reestrlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [11; 12].

Jadvaldan ko’rinadiki, bozorning rasmiy qismida auditorlik tashkilotlari ustunlik qiladi (62,3%). Biroq bu raqam faqat reestrga kiritilgan tashkilotlarni qamrab oladi: amalda buxgalteriya xizmatini ko’rsatayotgan ko’plab mikrofirmalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va frilanser buxgalterlar hech qanday reestrda qayd etilmaydi. Shu sababli 281 ta tashkilot bozorning tartibga solinadigan, sifat nazorati mavjud bo’lgan yadrosini ifodalaydi, deb baholash to’g’riroq bo’ladi. Bir auditorlik tashkilotiga o’rtacha 4,9 nafar auditor, bir soliq maslahatchilari tashkilotiga esa 3,0 nafar soliq maslahatchisi to’g’ri keladi — bu sohadagi tashkilotlarning asosan kichik hajmli ekanini ko’rsatadi.

Auditorlik tashkilotlarining hududiy taqsimoti bozorning keskin markazlashganini ko’rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Auditorlik tashkilotlarining hududlar bo’yicha taqsimoti (2026-yil 1-iyun, n=175)
Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi auditorlik tashkilotlari reestri asosida muallif tomonidan tuzilgan [11].

175 ta tashkilotdan 129 tasi (73,7%) Toshkent shahrida joylashgan. Undan keyingi o’rinlarda Farg’ona (10 ta; 5,7%), Andijon (7 ta; 4,0%), Samarqand (5 ta; 2,9%) va Namangan (4 ta; 2,3%) viloyatlari turadi. Qolgan to’qqiz hududda jami 20 ta tashkilot faoliyat ko’rsatadi, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida esa bittadan tashkilot mavjud. Hududlar kesimida hisoblangan HHI qiymati 5 512 ni tashkil etdi — bu teng taqsimotdagi darajadan (714) 7,7 barobar, yuqori konsentratsiya chegarasidan (1800) esa uch barobar yuqori. Mutaxassislar bo’yicha nomutanosiblik yanada kuchli: 851 nafar auditordan 650 nafari (76,4%) poytaxtdagi tashkilotlarda ishlaydi.

Bu holat viloyatlardagi tadbirkorlik subyektlari uchun malakali buxgalteriya xizmatidan foydalanish imkoniyati cheklanganini anglatadi. Masofaviy xizmat ko’rsatish texnologiyalari bu nomutanosiblikni qisman yumshatsa-da, mintaqaviy soliq organlari bilan ishlash, hujjatlarni birlamchi qayta ishlash va mijoz bilan bevosita muloqot ehtiyoji xizmat ko’rsatuvchining hududiy yaqinligini muhim omil sifatida saqlab qolmoqda.

Reestrga kiritilish dinamikasi 2-rasm va 2-jadvalda keltirilgan.



2-rasm. Auditorlik tashkilotlarining reestrga kiritilgan yillar bo’yicha taqsimoti
*Izoh: * 2026-yil uchun 1-iyungacha bo’lgan ma’lumot. Manba: [11] asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

2-jadval

Reestrga kiritilish dinamikasi: Toshkent shahri va hududlar kesimida

Yil	Jami	Toshkent sh.	Boshqa hududlar	Toshkent ulushi, %
2021	92	64	28	69,6
2022	28	21	7	75,0
2023	13	12	1	92,3
2024	16	13	3	81,3
2025	23	18	5	78,3
2026 (6 oy)	3	1	2	33,3
Jami	**175**	**129**	**46**	**73,7**

Manba: [11] asosida muallif hisob-kitoblari.

Faol tashkilotlarning 52,6 foizi (92 ta) reestrga 2021-yilda kiritilgan. Bu yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi Qonun qabul qilinib, reestr qayta shakllantirilgani bilan izohlanadi. Keyingi yillarda yiliga o’rtacha 20 ta yangi tashkilot qo’shilgan, 2023-yildagi pasayishdan so’ng o’sish tiklangan (2025-yilda 23 ta). Muhim jihati shundaki, 2022–2025-yillarda qo’shilgan 80 ta tashkilotdan 64 tasi (80,0%) Toshkent shahriga to’g’ri keladi. Demak, hududiy konsentratsiya vaqt o’tishi bilan kamaymayapti, aksincha, 2021-yildagi boshlang’ich darajadan (69,6%) yuqori sur’atda saqlanmoqda. Bozorning o’z-o’zidan rivojlanishi mintaqaviy nomutanosiblikni bartaraf etmayapti.

Tashkilotlar hajmi bo’yicha tuzilma 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Auditorlik tashkilotlarining auditorlar soni bo’yicha guruhlanishi

Auditorlar soni	Tashkilotlar	Ulushi, %	Auditorlar	Ulushi, %
1–3 nafar	70	40,0	208	24,4
4–7 nafar	83	47,4	400	47,0
8–15 nafar	19	10,9	193	22,7
16 va undan ko’p	3	1,7	50	5,9
Jami	**175**	**100,0**	**851**	**100,0**

Manba: [11] asosida muallif hisob-kitoblari.

Tashkilotlarning 87,4 foizi 7 nafargacha auditorga ega kichik va o’rta tashkilotlardir; 8 va undan ortiq auditorli yirik tashkilotlar atigi 22 ta (12,6%). Eng yirik tashkilotda 17 nafar auditor ishlaydi. Toshkent shahridagi tashkilotlarda o’rtacha 5,0 nafar, hududlardagilarda esa 4,4 nafar auditor mavjud. Bozor konsolidatsiyalashmagan: ko’plab kichik tashkilotlar yirik mijozlarga MHXS bo’yicha hisobot tuzish, avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini joriy etish yoki xalqaro standartlarga mos sifat nazoratini ta’minlash uchun yetarli resursga ega emas. Shu bilan birga, kichik tashkilotlar kichik biznes vakillari uchun arzon va moslashuvchan xizmat manbai bo’lib xizmat qilmoqda.

Olingan natijalar asosida O’zbekiston buxgalteriya xizmatlari bozorining uchta tuzilmaviy xususiyatini ajratish mumkin. Birinchidan, bozorning rasmiy, tartibga solinadigan qismi tor (281 ta tashkilot, 1 139 nafar sertifikatlangan mutaxassis), uning tashqarisida esa katta norasmiy segment mavjud. Ikkinchidan, xizmatlar poytaxtda haddan tashqari jamlangan va bu tendensiya o’zini-o’zi qayta ishlab chiqarmoqda. Uchinchidan, bozor parchalangan, yirik professional tashkilotlar soni kam. Bu xususiyatlar buxgalteriya autsorsingini tartibga solishga yaxlit yondashuv zarurligini ko’rsatadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

1. Buxgalteriya autsorsingi alohida litsenziyalanmasa-da, uni ko’rsatish huquqi O’RQ-677 ning 33-moddasi va O’RQ-787 ning 18-moddasi bilan bilvosita tartibga solinadi. Mazkur

tashkilotlarning rasmiy reestrlari bozorni miqdoriy baholash uchun tekshiriladigan asos bo’lib xizmat qiladi va 2026-yil holatiga 281 ta vakolatli tashkilotni qamrab oladi.

2. Auditorlik tashkilotlarining 73,7 foizi va auditorlarning 76,4 foizi Toshkent shahrida jamlangan; hududiy HHI 5 512 ni tashkil etadi. 2022–2025-yillarda yangi tashkilotlarning 80 foizi poytaxtda ro’yxatdan o’tgani nomutanosiblik o’z-o’zidan kamaymayotganini ko’rsatadi.

3. Tashkilotlarning 87,4 foizi 7 nafargacha auditorga ega; bozor parchalangan va yirik professional tashkilotlar kam.

Aniqlangan muammolarni hal etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

– buxgalteriya autsorsingi xizmatini ko’rsatuvchi tashkilotlarning yagona ochiq reestrini (masalan, Soliq maslahatchilari palatasi yoki kasbiy uyushma negizida) yuritish va unda xizmat turi, hudud va mutaxassislar soni to’g’risidagi ma’lumotlarni muntazam e’lon qilish;

– viloyatlarda ro’yxatdan o’tadigan buxgalteriya va auditorlik tashkilotlari uchun rag’batlantirish choralarini (ro’yxatdan o’tish yig’imlarini kamaytirish, mintaqaviy mutaxassislarni sertifikatlash imtihonlariga tayyorlash dasturlari) joriy etish;

– bulutli buxgalteriya platformalari va masofaviy xizmat ko’rsatish standartlarini ishlab chiqish orqali poytaxt tashkilotlarining hududlarga xizmat ko’rsatish imkoniyatini kengaytirish;

– kichik tashkilotlarning birlashishi va tarmoq shaklidagi hamkorligini qo’llab-quvvatlash orqali bozorni konsolidatsiyalash va xizmat sifatini oshirish.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, u faqat reestrga kiritilgan tashkilotlarni qamrab oladi va norasmiy segment hajmini baholamaydi. Keyingi tadqiqotlarda reestr ma’lumotlarini hududlardagi tadbirkorlik subyektlari soni bilan taqqoslash hamda xizmatdan foydalanuvchilar o’rtasida so’rovnoma o’tkazish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi Farmoni. – https://lex.uz/docs/5841063

2. Coase R.H. The Nature of the Firm // Economica. – 1937. – Vol. 4, No. 16. – P. 386–405.

3. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. – New York: Free Press, 1985. – 450 p.

4. Prahalad C.K., Hamel G. The Core Competence of the Corporation // Harvard Business Review. – 1990. – Vol. 68, No. 3. – P. 79–91.

5. Quinn J.B., Hilmer F.G. Strategic Outsourcing // Sloan Management Review. – 1994. – Vol. 35, No. 4. – P. 43–55.

6. Everaert P., Sarens G., Rommel J. Using Transaction Cost Economics to explain outsourcing of accounting // Small Business Economics. – 2010. – Vol. 35, No. 1. – P. 93–112.

7. Kamyabi Y., Devi S. Accounting outsourcing and firm performance in Iranian SMEs // International Journal of Economics and Finance. – 2011. – Vol. 3, No. 4. – P. 181–192.

8. Lacity M.C., Willcocks L.P. Robotic Process Automation at Telefónica O2 // MIS Quarterly Executive. – 2016. – Vol. 15, No. 1. – P. 21–35.

9. O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O’RQ-677-son «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi Qonuni (33-modda). – https://lex.uz

10. O’zbekiston Respublikasining 2022-yil 4-avgustdagi O’RQ-787-son «Soliq maslahatiga oid faoliyat to’g’risida»gi Qonuni (18-modda). – https://lex.uz

11. O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Auditorlik tashkilotlari reestri (2026-yil 1-iyun holatiga). – https://imv.uz

12. Soliq maslahatchilari palatasi. Soliq maslahatchilari tashkilotlari va autsorsing tashkilotlari reestrlari (murojaat: 2026-yil iyun). – https://pnk.uz

13. U.S. Department of Justice, Federal Trade Commission. Merger Guidelines. – Washington, 2023. – https://www.justice.gov/atr/merger-guidelines

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

BANK INFRATUZILMASI TRANSFORMATSIYASI SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Karimqulov Jasur Imomboyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
E-mail: Karimqulovj6233@gmail.com
ORCID:0000-0002-9241-9153

Xojanov Baxadir Omirbayevich
Nukus davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: baxadirxojanov190@gmail.com
ORCID: 0009-0005-3259-1241

Annotatsiya. *Maqolada bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini integral baholash metodikasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. O‘zbekiston bank tizimi hamda “O‘zmilliybank”, “TBC Bank” va “Mikrokreditbank”ning 2021–2025-yillardagi ma’lumotlari asosida infratuzilmaviy aktivlar, kredit portfeli, likvid mablag‘lar, operatsion xarajatlar va kapital o‘rtasidagi nisbatlar qiyosiy tahlil qilingan. Riskka moslashtirilgan kredit samaradorligi, likvidlik bosimi, operatsion samaradorlik va kapital bilan ta’minlangan infratuzilmaviy barqarorlik koeffitsiyentlarini modifikatsiyalangan min–maks usulida normallashtirish hamda geometrik o‘rtacha orqali umumlashtirishga asoslangan integral indeks taklif etilgan. Hisob-kitoblar bank tizimi bo‘yicha indeksning 2021-yildagi 0,509 dan 2025-yilda 0,395 gacha pasayganini ko‘rsatgan. Tanlangan mezonlar doirasida operatsion xarajatlar nisbatining yaxshilanishi boshqa yo‘nalishlardagi salbiy o‘zgarishlarni to‘liq qoplamagani aniqlangan. Infratuzilmaviy rivojlanishni moliyaviy imkoniyatlar bilan muvofiqlashtirish, ma’lumotlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlash va indeks natijalarining metodik tanlovlarga sezgirligini tekshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *bank infratuzilmasi, bank transformatsiyasi, integral baholash, kompozit indeks, riskka moslashtirilgan kredit samaradorligi, likvidlik bosimi, operatsion samaradorlik, kapital ta’minoti, normallashtirish, geometrik o‘rtacha.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИНТЕГРАЛЬНОЙ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Каримкулов Жасур Имомбоевич
профессор Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: Karimqulovj6233@gmail.com
ORCID:0000-0002-9241-9153

Xojanov Baxadir Omirbayevich
независимый исследователь в Нукусском государственном техническом университете
E-mail: baxadirxojanov190@gmail.com
ORCID: 0009-0005-3259-1241

Аннотация. *В статье исследуются вопросы совершенствования методики интегральной оценки эффективности трансформации банковской инфраструктуры. На*

основе данных банковской системы Узбекистана, а также банков «Узнацбанк», «TBC Bank» и «Микрокредитбанк» за 2021–2025 годы проведён сравнительный анализ соотношений между инфраструктурными активами, кредитным портфелем, ликвидными средствами, операционными расходами и капиталом. Предложен интегральный индекс, основанный на нормализации коэффициентов кредитной эффективности с учётом риска, нагрузки на ликвидность, операционной эффективности и обеспеченности инфраструктуры капиталом с использованием модифицированного метода минимакс и последующем агрегировании посредством среднего геометрического. Расчёты показали снижение индекса по банковской системе с 0,509 в 2021 году до 0,395 в 2025 году. Установлено, что в рамках выбранных критериев улучшение соотношения операционных расходов и доходов не полностью компенсировало отрицательные изменения по другим направлениям. Разработаны рекомендации по согласованию инфраструктурного развития с финансовыми возможностями банков, обеспечению сопоставимости данных и проверке чувствительности результатов индекса к методическим решениям.

Ключевые слова: *банковская инфраструктура, банковская трансформация, интегральная оценка, композитный индекс, кредитная эффективность с учётом риска, нагрузка на ликвидность, операционная эффективность, обеспеченность капиталом, нормализация, среднее геометрическое.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR COMPOSITE ASSESSMENT OF BANKING INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION EFFICIENCY

Karimqulov Jasur Imomboyevich

Professor of
Tashkent State of university of economics
E-mail: Karimqulovj6233@gmail.com
ORCID:0000-0002-9241-9153

Xojanov Baxadir Omirbayevich

Independent Researcher
at Nukus State Technical University
E-mail: baxadirxojanov190@gmail.com
ORCID: 0009-0005-3259-1241

Abstract. *This article examines how to improve the methodology for assessing the efficiency of banking infrastructure transformation using a composite index. Drawing on data for Uzbekistan’s banking system and three banks—National Bank of Uzbekistan, TBC Bank, and Mikrokreditbank—over 2021–2025, the study compares the relationships between infrastructure assets, loan portfolios, liquid funds, operating expenses, and capital. A composite index is proposed by normalizing indicators of risk-adjusted lending efficiency, liquidity pressure, operating efficiency, and capital coverage of infrastructure assets using a modified min–max method and aggregating them through the geometric mean. The calculations show that the banking system’s index declined from 0.509 in 2021 to 0.395 in 2025. Within the selected assessment framework, the improvement in the operating-expense-to-income ratio did not fully offset adverse changes in other dimensions. Recommendations focus on aligning infrastructure development with banks’ financial capacity, ensuring data comparability, and testing the sensitivity of index results to methodological choices.*

Keywords: *banking infrastructure, banking transformation, composite assessment, composite index, risk-adjusted lending efficiency, liquidity pressure, operating efficiency, capital coverage, normalization, geometric mean.*

Kirish

Jahon bank tizimida raqamli texnologiyalar, masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari va

platformaviy biznes modellarining rivojlanishi bank infratuzilmasini transformatsiyalash samaradorligini baholash masalasini dolzarblashtirmoqda. Jahon bankining «Global Findex 2025» ma’lumotlariga ko‘ra, bank, boshqa moliya instituti yoki mobil pul xizmatlari provayderida hisobvaraqqa ega bo‘lgan katta yoshli aholi ulushi dunyo bo‘yicha 2021-yildagi 74 foizdan 2024-yilda 79 foizga yetgan. Past va o‘rta daromadli mamlakatlarda esa katta yoshli aholining 61 foizi raqamli to‘lovni amalga oshirgan yoki qabul qilgan [1]. Ushbu ko‘rsatkichlar moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘lami kengayib, raqamli infratuzilmaning moliyaviy vositachilikdagi ahamiyati ortayotganini ko‘rsatadi. Bunday o‘zgarishlar banklardan texnologik quvvatlarni kengaytirish, axborot tizimlarini modernizatsiya qilish va xizmatlar uzluksizligini ta’minlash uchun katta miqdorda resurslar yo‘naltirishni talab etadi. McKinsey & Companyning 2024-yilda e’lon qilingan tahlilida Gartner ma’lumotlariga tayangan holda, global bank sektorining texnologiyalarga xarajatlari 2023-yilda 650 mlrd AQSH dollarini tashkil etgani qayd etilgan. Mazkur tahlilga ko‘ra, so‘nggi yillarda texnologik xarajatlar yiliga o‘rtacha 9 foizga, bank daromadlari esa 4 foizga o‘sgan.[2] Ushbu tafovut infratuzilmaviy transformatsiyani moliyalashtirish bilan uning iqtisodiy natijadorligi o‘rtasidagi mutanosiblikni baholash zaruratini kuchaytiradi.

Bank infratuzilmasiga yo‘naltirilayotgan resurslarning ko‘payishi sharoitida ularning moliyaviy qaytimini aniqlash xalqaro bank amaliyotining muhim uslubiy masalasi bo‘lib qolmoqda. McKinsey tahliliga ko‘ra, texnologik xarajatlarini oshkor qiluvchi yirik banklarda mavjud tizimlar faoliyatini ta’minlash va majburiy o‘zgarishlarni amalga oshirish xarajatlari texnologik budjetning 70 foizigacha qismini egallashi mumkin [2]. Bu esa yangi xizmatlar va raqobat ustunligini shakllantiruvchi loyihalar uchun resurslar taqsimotini puxta asoslashni talab qiladi. Bazel bank nazorati qo‘mitasining 2024-yildagi «Digitalisation of finance» hisobotida ham yangi texnologiyalar hamda texnologik xizmat ko‘rsatuvchilar bilan hamkorlik banklar uchun imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi risklarni yuzaga keltirishi qayd etilgan [3]. Mazkur holatlardan kelib chiqib, infratuzilmaviy transformatsiyani baholashda kredit portfelining riskka moslashtirilgan natijadorligi, infratuzilmaviy aktivlarning likvid resurslarga nisbati, operatsion xarajatlar samaradorligi va kapital bilan ta’minlanganlik darajasini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish zarur, deb hisoblaymiz. Ushbu yo‘nalishlarni yagona o‘lchovga keltiruvchi integral yondashuv transformatsiyaning moliyaviy muvozanatini baholash hamda uning zaif jihatlarini aniqlashga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli mazkur maqolaning maqsadi bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini ko‘p mezonli integral baholash metodikasini takomillashtirish va uning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida bank infratuzilmasi transformatsiyasi texnologik yangilanish, moliyaviy barqarorlik va ko‘p mezonli baholashning o‘zaro bog‘liqligi asosida yoritilgan. Jumladan, A. Boot, P. Hoffmann, L. Laeven va L. Ratnovski texnologik o‘zgarishlarning moliyaviy vositachilikka ta’sirini axborotni yig‘ish va qayta ishlash hamda mijozlar bilan munosabatlar va xizmatlarni yetkazish kanallarining o‘zgarishi orqali tushuntiradilar. Ularning yondashuvi bank infratuzilmasini moddiy, axborot va kommunikatsiya elementlari o‘zaro bog‘langan tizim sifatida o‘rganishga asos yaratadi [4]. N. Koont, T. Santos va L. Zingales esa raqamlashtirishning depozitlar barqarorligiga ta’sirini tadqiq etib, raqamli xizmatlar mijozlarning mablag‘larini muqobil moliyaviy vositalarga o‘tkazish imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatadilar. Ushbu natija transformatsiya samaradorligini baholashda operatsion natijalar bilan birga likvidlik va resurs bazasi barqarorligini hisobga olish zarurligini anglatadi [5]. Integral baholashning metodologik asoslari M. Nardo, M. Saisana, A. Saltelli va hammualliflar tadqiqotida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda indikatorlarni tanlash, normallashtirish, vaznlash, agregatsiyalash hamda natijalarning sezgirligini tekshirish bosqichlari ajratilgan. Mualliflar geometrik agregatsiya past natijali komponentlarning boshqa komponentlardagi yuqori qiymatlar hisobiga qoplanishini chiziqli agregatsiyaga nisbatan cheklashini ta’kidlaydilar [6]. Mazkur

yondashuvlar bank infratuzilmasi transformatsiyasining iqtisodiy natijalari va moliyaviy cheklovlarini yagona ko‘rsatkichda uyg‘unlashtirish uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy olim va tadqiqotchilarning ishlarida bank infratuzilmasining institutsional tarkibi, raqamlashtirish yo‘nalishlari va moddiy aktivlardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan. Xususan, M. Dauletbayev bank infratuzilmasini bank tizimining uzluksiz va samarali faoliyat yuritishi hamda xizmatlarni mijozlarga yetkazish uchun zarur sharoitlarni ta’minlovchi institutlar va elementlar majmuasi sifatida talqin qiladi. Muallif kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish, masofaviy xizmatlarni kengaytirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va xodimlar malakasini oshirishni infratuzilmani takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatadi [7]. U. Ortiqov va S. Hamroxujaeva bank tizimi transformatsiyasini raqobatni rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, risklarni boshqarish va xizmatlar ommabopligini oshirish bilan bog‘liq holda o‘rganadilar. Ularning fikricha, axborot texnologiyalarini joriy etish operatsiyalar tezligi va xavfsizligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi [8]. R. Xasanova esa bank infratuzilmasining moddiy asoslarini asosiy vositalar hisobi va tahlili orqali yoritib, aktivlar qiymatini ishonchli baholash, amortizatsiya siyosatini takomillashtirish va hisob jarayonlarini raqamlashtirishga e’tibor qaratadi [9]. Ushbu tadqiqotlar mazmunidan kelib chiqib, integral baholashda infratuzilmaning tarkibiy xususiyatlari, undan foydalanish natijalari va hisob ma’lumotlarining taqqoslanuvchanligini birgalikda ta’minlash muhim metodik shart sifatida qaralishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini baholash texnologik yangilanishning moliyaviy natijalar va barqarorlikka ta’sirini kompleks o‘rganishni talab etadi. Ko‘rib chiqilgan xorijiy tadqiqotlar raqamlashtirishning iqtisodiy mexanizmlari va integral indekslarni shakllantirish usullarini ochib bersa, mahalliy tadqiqotlar ushbu jarayonning milliy bank tizimidagi institutsional, tashkiliy va hisob-axborot xususiyatlarini yoritadi. Mazkur manbalar doirasida rivojlantirilishi zarur bo‘lgan metodologik yo‘nalish — infratuzilma resurslaridan foydalanish natijadorligi, operatsion xarajatlar, likvidlikka ta’sir va kapital bilan ta’minlanganlikni o‘zaro taqqoslanuvchi indikatorlar asosida yagona baholash tizimiga birlashtirishdir. Shunga ko‘ra, ushbu tadqiqotda indikatorlarning iqtisodiy mazmunini asoslash, ularni yagona yo‘nalishda normallashtirish va agregatsiyalash orqali integral baholash metodikasini takomillashtirish nazarda tutiladi. Bunda hisoblashning shaffofligi hamda yakuniy natijalarning normallashtirish, vaznlash va agregatsiyalash usullariga sezgirligini tekshirish metodikaning ishonchliligini ta’minlovchi muhim talablar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini integral baholash metodikasini takomillashtirish uchun tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil va indeks usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari hamda tanlangan tijorat banklarining 2021–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari tashkil etdi. Baholash jarayonida infratuzilma resurslaridan foydalanish natijadorligi, likvidlik bilan bog‘liq yuklama, operatsion xarajatlar samaradorligi va infratuzilmaning kapital bilan ta’minlanganligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tanlandi. Ularning iqtisodiy mazmuni va samaradorlikka ta’sir yo‘nalishidan kelib chiqib, rag‘batlantiruvchi hamda cheklovchi indikatorlar ajratildi va modifikatsiyalangan min–maks usuli orqali yagona o‘lchovsiz shkalaga keltirildi. Normallashtirilgan ko‘rsatkichlar teng vaznlar asosida geometrik o‘rtacha yordamida umumlashtirilib, infratuzilma transformatsiyasi samaradorligining integral indeksi shakllantirildi. Mazkur agregatsiya usuli ayrim yo‘nalishlardagi past natijalarning boshqa yo‘nalishlardagi yuqori qiymatlar hisobiga qoplanishini cheklash va tarkibiy nomutanosibliklarni baholashda hisobga olish maqsadida qo‘llanildi. Hisoblangan indekslar banklararo va yillar kesimida taqqoslanib, infratuzilma transformatsiyasi samaradorligidagi farqlar hamda o‘zgarish tendensiyalari aniqlandi.

Tahlil va natijalar

Bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini baholashda infratuzilmaviy aktivlarning kengayishini kreditlash natijadorligi, likvid resurslar, operatsion xarajatlar va kapital bazasi bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish muhimdir. Shu maqsadda O‘zbekiston bank tizimi hamda “O‘zmilliybank” AJ, “TBC Bank” ATB va “Mikrokreditbank” ATBning 2021–2025-yillardagi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Hisob-kitoblarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar yig‘indisi infratuzilmaning balansda aks ettirilgan qiymatini ifodalovchi ko‘rsatkich sifatida qabul qilindi. Mazkur yondashuv infratuzilmaviy resurslarning moliyaviy natijalar bilan mutanosibligini baholash imkonini beradi.

1-jadval.

O‘zbekiston bank tizimida infratuzilmaviy aktivlar va ularni baholashga asos bo‘luvchi moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasi, *mlrd so‘mda**

Ko‘rsatkichlar	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**	**2025/2021, marta**
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	11 031,9	14 242,9	19 874,9	24 955,8	29 894,0	2,71
Sof kredit portfeli	316 382,4	378 909,2	457 847,1	514 692,6	587 038,9	1,86
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	42 200,9	55 901,2	53 429,8	59 666,1	69 542,3	1,65
Jami kapital	70 900,0	79 600,0	97 100,0	114 800,0	135 300,0	1,91
Operatsion xarajatlar	10 997,8	14 876,5	19 563,3	23 715,4	30 250,4	2,75
Umumiy daromad	33 846,3	57 344,0	71 049,5	89 311,8	111 103,6	3,28

**Manba: dissertatsiyaning 2.8, 2.12, 2.13 va 2.18-jadvallari asosida tuzildi. O‘sish koeffitsiyentlari qayta hisoblandi.*

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2021–2025-yillarda bank tizimining infratuzilmaviy aktivlari 170,98 foizga oshgan. Ayni davrda sof kredit portfeli 85,55 foizga, jami kapital 90,83 foizga, pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari esa 64,79 foizga ko‘paygan. Demak, infratuzilmaviy aktivlarning balans qiymati kredit portfeli, kapital va pul mablag‘lariga nisbatan tezroq kengaygan. Bu tafovut infratuzilmaning har bir birligiga to‘g‘ri keladigan kredit portfeli hamda kapital qoplamining kamayishi uchun hisobiy asos yaratadi. Biroq balans qiymatining o‘sishini to‘liq yangi investitsiyalar bilan tenglashtirish mumkin emas: uning o‘zgarishiga aktivlarni qayta baholash, amortizatsiya va hisob siyosati ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Operatsion xarajatlar va daromadlar dinamikasi boshqa yo‘nalishni namoyon etadi. Tahlil davrida umumiy daromad 3,28 marta, operatsion xarajatlar esa 2,75 marta oshgan. Natijada xarajatlarning daromadga nisbati yaxshilangan. Shunday qilib, infratuzilmaviy kengayish sharoitida xarajatlar samaradorligi bilan kreditlash va kapital ta’minoti ko‘rsatkichlari turli yo‘nalishda o‘zgarishi mumkin. Ushbu holat transformatsiya natijalarini ko‘rsatkichlar tizimi asosida baholash zaruratini asoslaydi.

Tadqiqotda mazkur nisbatlarni ifodalash uchun quyidagi koeffitsiyentlardan foydalanildi:

$$\text{RMKS}=\frac{SKP}{AV+NA}\times\left(1-\frac{KZ}{YKP}\right);$$

$$\text{LBK}=\frac{AV+NA}{PME}\times 100\%;$$

$$\text{OSK}=\frac{OX}{UD}\times 100\%;$$

$$\text{IBK}=\frac{JK}{AV+NA}\times\left(1-\frac{KZ}{YKP}\right)$$

Bu yerda: SKP — sof kredit portfeli; AV — asosiy vositalar; NA — nomoddiy aktivlar;

KZKZ — kreditlar bo‘yicha zaxiralar; YKP — yalpi kredit portfeli; PME — pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari; OX — operatsion xarajatlar; UD — umumiy daromad; JK — jami kapital.

2-jadval.

O‘zbekiston bank tizimida infratuzilma transformatsiyasini baholash koeffitsiyentlari*

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	2025–2021 farqi
Riskka moslashtirilgan kredit samaradorligi — RMKS	27,80	26,17	22,74	20,26	19,33	−8,47
Likvidlik bosimi — LBK, %	26,14	25,48	37,20	41,83	42,99	+16,85 f.p.
Operatsion samaradorlik — OSK, %	32,49	25,94	27,53	26,55	27,23	−5,26 f.p.
Infratuzilmaviy barqarorlik — IBK	6,23	5,50	4,82	4,52	4,46	−1,77

**Manba: dissertatsiyaning 2.8, 2.12, 2.13 va 2.18-jadvallari asosida tuzildi. LBK infratuzilmaviy aktivlarning pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlariga nisbati sifatida qayta hisoblandi. F.p. — foiz punkti.*

2-jadvaldan ko‘rinadiki, RMKS koeffitsiyenti 27,80 dan 19,33 gacha pasaygan. Bu tanlangan hisoblash usuli doirasida infratuzilmaviy aktivlarning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan riskka moslashtirilgan kredit portfeli miqdori kamayganini bildiradi. IBKning 6,23 dan 4,46 gacha pasayishi ham infratuzilmaviy aktivlar kengayishi kapital o‘sishidan yuqori bo‘lganini aks ettiradi. Mazkur nisbatlar bank infratuzilmasini rivojlantirish rejalari kreditlash imkoniyatlari va kapital bazasining o‘sishi bilan muvofiqlashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

LBK 2022-yilda 25,48 foizgacha pasaygan bo‘lsa-da, keyingi yillarda oshib, 2025-yilda 42,99 foizga yetgan. Bu infratuzilmaviy aktivlarning pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlariga nisbati ortganini anglatadi. Shu bilan birga, OSK tahlil davrining boshiga nisbatan 5,26 foiz punktiga kamaygan. Demak, xarajatlar va daromadlar nisbatidagi yaxshilanish infratuzilmaning kreditlash natijadorligi hamda kapital bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichlaridagi pasayish bilan bir vaqtda kuzatilgan.

Alohida banklar kesimida ushbu koeffitsiyentlarni taqqoslash transformatsiya natijalarining biznes modeli va aktivlar tarkibiga qarab farqlanishini ko‘rsatadi.

3-jadval.

Tanlangan banklarda infratuzilma transformatsiyasini baholash koeffitsiyentlari, 2025-yil*

Banklar	RMKS	LBK, %	OSK, %	IBK
“O‘zmilliybank” AJ	16,95	17,21	20,0	3,70
“TBC Bank” ATB	11,86	111,98	16,2*	2,98
“Mikrokreditbank” ATB	19,26	27,55	26,4	5,50

**Manba: dissertatsiyaning 2.9–2.12, 2.14–2.16 va 2.19–2.21-jadvallari asosida tuzildi.*

** TBC Bank uchun OSK dissertatsiyaning 2.15-jadvalidagi 862,4 mlrd so‘mlik operatsion xarajat va 5 314,8 mlrd so‘mlik umumiy daromad asosida olingan. Dissertatsiyaning 2.6-jadvalida xarajatlar 1 315 mlrd so‘m ko‘rsatilgan. Ushbu farqning hisob tarkibi va hisobot qamrovi bo‘yicha sababi birlamchi hisobot bilan aniqlashtirilishi lozim.*

2025-yilda “O‘zmilliybank” AJ tanlangan banklar orasida eng past LBK qiymatiga ega bo‘lgan. Biroq uning RMKS va IBK ko‘rsatkichlari “Mikrokreditbank” ATBga nisbatan past shakllangan. “TBC Bank” ATBda esa 2.15-jadval ma’lumotlari bo‘yicha operatsion xarajatlarning daromadga nisbati eng past bo‘lishiga qaramay, infratuzilmaviy aktivlarning pul mablag‘lariga nisbati eng yuqori darajani tashkil etgan. LBKning 111,98 foizga tengligi infratuzilmaviy aktivlar qiymati pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlaridan yuqoriligini bildiradi; bankning to‘lov qobiliyati haqida xulosa chiqarish uchun esa majburiyatlar muddatlari va pul oqimlari ham o‘rganilishi zarur.

“Mikrokreditbank” ATBda 2024–2025-yillar davomida infratuzilmaviy aktivlar 1 556 mlrd

so‘mdan 1 097 mlrd so‘mga qisqargan, jami kapital 4 101 mlrd so‘mdan 6 271 mlrd so‘mga, sof kredit portfeli esa 18 235 mlrd so‘mdan 21 952 mlrd so‘mga oshgan. Ushbu o‘zgarishlar RMKSning 11,01 dan 19,26 gacha va IBKning 2,48 dan 5,50 gacha ko‘tarilishida aks etgan. Bunda koeffitsiyentlarning yaxshilanishi qisman ularning maxrajidagi infratuzilmaviy aktivlar qiymati kamayishi bilan bog‘liq. Shu sababli natijani talqin qilishda aktivlar qisqarishining iqtisodiy sabablari ham hisobga olinishi lozim.

Ko‘rsatkichlarni yagona bahoga birlashtirish uchun bank tizimi va uchta bank bo‘yicha besh yillik jami 20 ta kuzatuvdan iborat taqqoslash to‘plami shakllantirildi. Har bir koeffitsiyent ushbu to‘plamning umumiy minimal va maksimal qiymatlari asosida normallashtirildi:

$$n(x) = 0{,}05 + 0{,}90\frac{x - x_{min}}{x_{max} - x_{min}}$$

Mazkur usul qiymatlarni 0,05–0,95 oralig‘iga keltirib, geometrik agregatsiyada nol qiymat tufayli butun indeksning nolga tenglashishini oldini oladi. RMKS va IBK bevosita, LBK hamda OSK esa teskari yo‘nalishda hisobga olindi:

$$ITSI = \sqrt[4]{(n(RMKS) \times (1 - n(LBK)) \times (1 - n(OSK)) \times n(IBK)}$$

Dissertatsiyadagi hisoblash tartibiga muvofiq, normallashtirishdan oldin OSKning 100 foizdan yuqori qiymati 100 foiz bilan cheklandi. Bu tanlov haddan tashqari yuqori qiymatning umumiy shkalaga ta’sirini kamaytiradi, biroq 100 foizdan yuqori kuzatuvlar o‘rtasidagi farqni yo‘qotadi. Shuning uchun u metodikaning ochiq ko‘rsatilishi zarur bo‘lgan hisoblash sharti hisoblanadi.

4-jadval.

Bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligi integral indeksining dinamikasi*

Tahlil obyekti	2021	2022	2023	2024	2025	2025–2021 farqi
O‘zbekiston bank tizimi	0,509	0,490	0,432	0,404	0,395	−0,114
“O‘zmilliybank” AJ	0,910	0,950	0,685	0,662	0,386	−0,524
“TBC Bank” ATB	0,137	0,301	0,482	0,378	0,156*	+0,019
“Mikrokreditbank” ATB	0,414	0,446	0,196	0,228	0,450	+0,036

**Manba: dissertatsiyaning 2.23-jadvali; boshlang‘ich koeffitsiyentlar asosida qayta hisoblash bilan tekshirildi. Farqlar jadvaldagi yaxlitlangan qiymatlar bo‘yicha hisoblandi.*

** TBC Bankning 2025-yil operatsion xarajati shartli ravishda 1 315 mlrd so‘m bilan almashtirilib, daromad va qolgan parametrlar o‘zgarmas saqlanganda OSK 24,74 foizni, ITSI esa taxminan 0,152 ni tashkil etadi. Bu hisob tafovutning indeksga ta’sirini ko‘rsatadi; qaysi xarajat summasi to‘g‘ri ekanini belgilamaydi.*

4-jadvalga ko‘ra, bank tizimi bo‘yicha ITSI 2021-yildagi 0,509 dan 2025-yilda 0,395 gacha pasaygan. Ushbu natija operatsion xarajatlar nisbatidagi yaxshilanishga qaramay, RMKS va IBK pasayishi hamda LBK oshishi integral bahoni kamaytirganini ko‘rsatadi. Demak, tanlangan indikatorlar tizimida xarajatlar samaradorligining yaxshilanishi boshqa komponentlardagi salbiy o‘zgarishlarni to‘liq qoplay olmagan.

“O‘zmilliybank” AJda indeks 2022-yilda 0,950 ga yetgan, keyingi yillarda esa pasayib, 2025-yilda 0,386 ni tashkil etgan. Ayniqsa, 2024–2025-yillardagi 0,276 punktlik pasayish infratuzilmaviy aktivlar hajmining kengayishi bilan bir vaqtda RMKS va IBKning kamayishida aks etgan. Bu natija yangi yoki qayta baholangan infratuzilmaviy aktivlarning moliyaviy ko‘rsatkichlarga nisbatan o‘rnini chuqurroq o‘rganish zarurligini bildiradi.

“TBC Bank” ATBda indeks 2021–2023-yillarda 0,137 dan 0,482 gacha oshgan, 2025-yilda esa 0,156 gacha pasaygan. Ushbu holatda operatsion xarajatlar nisbatining yaxshilanishi LBKning oshishi va IBKning kamayishi bilan birga kuzatilgan. “Mikrokreditbank” ATBda esa 2023-yildagi 0,196 qiymatdan keyin tiklanish yuz berib, indeks 2025-yilda 0,450 ga yetgan. Bankning 2024-yilga nisbatan 0,222 punktlik o‘sishi tanlangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha holat yaxshilanganini ifodalaydi.

Natijalarni talqin qilishda indeksning tanlangan ma’lumotlar to‘plamiga nisbatan hisoblangan baho ekanini hisobga olish zarur. Masalan, 0,950 qiymat kuzatuvning tanlangan komponentlar bo‘yicha yuqori nisbiy natijasini bildiradi. Shuningdek, dissertatsiyada taklif etilgan 0,50 chegarasi mualliflik tasnifi bo‘lib, uning diagnostik ahamiyatini kengroq banklar tanlanmasida tekshirish talab etiladi. Bank tizimi ko‘rsatkichlari tarkibiga tanlangan banklar ham kirgani sababli 20 ta kuzatuv o‘zaro mustaqil statistik tanlanma sifatida talqin qilinmaydi.

Olingan natijalar integral baholashning amaliy qiymati transformatsiyaning turli yo‘nalishlaridagi o‘zgarishlarni birgalikda ko‘rsatishida ekanini namoyon etadi. Metodikani yanada takomillashtirish uchun banklar hisobotlarining taqqoslanuvchanligini ta’minlash, normallashtirish chegaralarini monitoring davri uchun belgilash hamda vaznlar va agregatsiya usuli o‘zgarishiga natijalarning sezgirligini tekshirish zarur. Bunda RMKS va IBK tarkibida bir xil kredit riskiga tuzatish ko‘paytuvchisi, bir nechta koeffitsiyentlarda esa infratuzilmaviy aktivlar takroran qatnashishi ularning yakuniy indeksdagi ta’sirini alohida baholashni talab qiladi. Shu shartlar asosida ITSI infratuzilmaviy rivojlanishning moliyaviy mutanosibligini kuzatish va boshqaruv qarorlarini asoslash uchun qo‘shimcha tahliliy vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini kreditlash natijadorligi, likvidlik bosimi, operatsion xarajatlar va kapital ta’minotining o‘zaro mutanosibligi asosida baholash zarurligini ko‘rsatdi. Ushbu yo‘nalishlarni ifodalovchi koeffitsiyentlarni normallashtirish va geometrik o‘rtacha orqali yagona indeksga birlashtirish transformatsiya jarayonidagi tarkibiy nomutanosibliklarni aniqlash imkonini berdi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekiston bank tizimida integral indeksning 2021-yildagi 0,509 dan 2025-yilda 0,395 gacha pasayishi operatsion xarajatlar nisbatidagi yaxshilanish boshqa komponentlardagi salbiy o‘zgarishlarni to‘liq qoplamaganini ifodalaydi. Shu asosda infratuzilmaviy rivojlanish dasturlarini kreditlash imkoniyatlari, likvid resurslar va kapital bazasi bilan muvofiqlashtirish, integral indeks hamda uning tarkibiy ko‘rsatkichlarini davriy monitoring qilish tavsiya etiladi. Metodikaning ishonchliligini oshirish uchun hisobot ma’lumotlarining taqqoslanuvchanligini ta’minlash, indikatorlarning o‘zaro bog‘liqligi va natijalarning hisoblash usullariga sezgirligini tekshirish zarur. Taklif etilgan yondashuv mazkur shartlar asosida bank infratuzilmasini rivojlantirishga doir investitsiya va boshqaruv qarorlarini asoslash uchun qo‘shimcha tahliliy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. *Digital technology is unlocking financial inclusion* // World Bank Blogs. «Global Findex 2025» natijalari. https://blogs.worldbank.org/en/allaboutfinance/digital-technology-is-unlocking-financial-inclusion.

2. McKinsey & Company. *Unlocking value from technology in banking: An investor lens*. — 23 October 2024. https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/unlocking-value-from-technology-in-banking-an-investor-lens.

3. Basel Committee on Banking Supervision. *Digitalisation of finance*. — Basel: Bank for International Settlements, 2024. — 16 May. — 46 p.

4. Financial Intermediation and Technology: What’s Old, What’s New? / A. W. A. Boot, P. Hoffmann, L. Laeven, L. Ratnovski. — Washington, D. C. : International Monetary Fund, 2020. — 32 p. — (IMF Working Papers ; No. 2020/161). — DOI: 10.5089/9781513552491.001.

5. Koont, N. Destabilizing Digital “Bank Walks” / N. Koont, T. Santos, L. Zingales. — Cambridge, MA : National Bureau of Economic Research, 2024. — (NBER Working Paper Series ; No. 32601).

6. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide / M. Nardo, M. Saisana, A. Saltelli, S. Tarantola, A. Hoffmann, E. Giovannini. — Paris : OECD Publishing, 2005. — 108 p. — (OECD Statistics Working Papers ; No. 2005/03). — DOI:

10.1787/533411815016. — URL: https://doi.org/10.1787/533411815016

7. Dauletbayev, M. Bank infratuzulmasining nazariy asoslari / M. Dauletbayev // Academic Research in Modern Science. — 2023. — Vol. 2, № 4. — B. 95–98. — DOI:10.5281/zenodo.7609238.URL:https://econferences.ru/index.php/arims/article/view/4097

8. Ортыков, У. Д. Трансформация банковской системы Республики Узбекистан / У. Д. Ортыков, С. Хамрохужаева // Moliyaviy texnologiyalar. — 2023. — Т. 3, № 2. — С. 36–43.

9. Xasanova, R. P. Tijorat banklarda asosiy vositalar hisobi va tahlilini takomillashtirish / R. P. Xasanova // Moliya va bank ishi. — 2025. — № 4. — B. 27–32.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTON BANK TIZIMINING MIQDORIY KENGAYISHI VA MOLIYAVIY BARQARORLIK NORMATIVLARIGA RIOYA ETISH DARAJASI: 2017–2025 YILLAR TAHLILI

Kasimova Zilolaxon Botir qizi
Statistika kafedrasi tayanch doktoranti (PhD)
Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti
E-mail: kasimovazilolaxon000@gmail.com
ORCID:0009-0005-7597-6600

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston bank tizimining 2017–2025 yillardagi miqdoriy kengayishi va moliyaviy barqarorlik normativlariga rioya etish darajasi statistik tahlil asosida o‘rganilgan. Natijalarga ko‘ra, aktivlar 5,6, kapital 5,7 barobar oshgan, muammoli kreditlar ulushi 3,0 foizgacha kamaygan, kapital yetarliligi va likvidlilik ko‘rsatkichlari belgilangan normativ darajalardan barqaror yuqori saqlanib kelmoqda.*

Kalit so‘zlar: *bank tizimi, aktivlar, kapital yetarliligi, muammoli kreditlar (NPL), likvidlilik, LCR, NSFR, moliyaviy barqarorlik, prudensial normativlar, O‘zbekiston.*

КОЛИЧЕСТВЕННОЕ РАСШИРЕНИЕ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА И УРОВЕНЬ СОБЛЮДЕНИЯ НОРМАТИВОВ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ: АНАЛИЗ ЗА 2017–2025 ГОДЫ

Касимова Зилолахон Ботир кизи
базовый докторант (PhD)
кафедры статистики
Ташкентский государственный
экономический университет,
E-mail: kasimovazilolaxon000@gmail.com
ORCID:0009-0005-7597-6600

Аннотация. *В статье на основе статистического анализа рассмотрены количественное расширение банковской системы Узбекистана за 2017–2025 годы и уровень соблюдения нормативов финансовой устойчивости. Активы выросли в 5,6 раза, капитал — в 5,7 раза, доля проблемных кредитов снизилась до 3,0%, показатели достаточности капитала и ликвидности стабильно превышают установленные нормативы.*

Ключевые слова: *банковская система, активы, достаточность капитала, проблемные кредиты (NPL), ликвидность, LCR, NSFR, финансовая устойчивость, пруденциальные нормативы, Узбекистан.*

QUANTITATIVE EXPANSION OF UZBEKISTAN'S BANKING SYSTEM AND THE LEVEL OF COMPLIANCE WITH FINANCIAL STABILITY REQUIREMENTS: AN ANALYSIS FOR 2017–2025

Kasimova Zilolakhon Botir kizi
Doctoral Candidate (PhD),
Department of Statistics
Tashkent State
University of Economics
E-mail: kasimovazilolaxon000@gmail.com
ORCID:0009-0005-7597-6600

Abstract. *This article analyzes the quantitative expansion of Uzbekistan's banking system over 2017–2025 and the level of compliance with financial stability requirements. Results show assets grew 5.6-fold, capital 5.7-fold, the NPL ratio declined to 3.0%, while capital adequacy and liquidity indicators remain consistently above the established regulatory minimums.*

Keywords: *banking system, assets, capital adequacy, non-performing loans (NPL), liquidity, LCR, NSFR, financial stability, prudential requirements, Uzbekistan.*

Kirish

Bank tizimining miqdoriy kengayishi va sifat ko‘rsatkichlarining birgalikda tahlil qilinishi milliy moliyaviy barqarorlikni baholashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Xalqaro Valyuta Fondining 2025-yilgi Moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP) doirasida o‘tkazilgan Moliyaviy tizim barqarorligini baholash (FSSA) hisobotida O‘zbekiston bank tizimining so‘nggi yillardagi jadal o‘sishi qayd etilgan bo‘lib, ushbu o‘sishning barqaror rivojlanishi uchun kapital va likvidlilik normativlariga rioya etish darajasining muntazam monitoring qilinishi zarurligi ta’kidlangan [1].

Jahon miqyosida bank tizimlari barqarorligi masalasi so‘nggi yillarda yanada dolzarblashib bormoqda. Xalqaro Valyuta Fondining 2025-yil oktabr oyidagi Global moliyaviy barqarorlik hisobotida moliya bozorlaridagi narxlarning fundamental ko‘rsatkichlardan yuqori darajada og‘ishi, banklar va nobank moliya institutlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi hamda rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlariga xos bo‘lgan qisqa muddatli ichki bank moliyalashtirishiga tayanish kabi tizimli zaifliklar alohida ta’kidlangan; shu sababli Bazel III standartlarini izchil joriy etish hamda kapital va likvidlilik zaxiralarini mustahkamlash global miqyosda ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2].

O‘zbekiston sharoitida bank sektori moliyaviy tizimning tayanch bo‘g‘ini hisoblanadi — 2024-yil o‘rtasiga kelib bank aktivlari mamlakat moliyaviy tizimi aktivlarining 94,6 foizini, bank kreditlari esa yalpi ichki mahsulotning taxminan 40 foizini tashkil etgan [3]. Davlat ulushidagi to‘qqizta tijorat banki (SOCB) 2019-yil boshida bank tizimi aktivlarining 84 foizini nazorat qilgan bo‘lsa, xususiylashtirish jarayonlari natijasida ularning ulushi 2025-yil oxiriga kelib 63 foizgacha, kredit portfelidagi ulushi esa 67 foizgacha pasaygan [3; 4]. Shu bilan bir vaqtda, bank tizimining sifat ko‘rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyon etmoqda: Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil mart holatiga kapital yetarliligi ko‘rsatkichi 18,5 foizga, muammoli kreditlar ulushi esa milliy tartibga solish mezonlari bo‘yicha 3,2 foizga yetgan, garchi XHXS (IFRS) asosidagi baholash milliy ko‘rsatkichdan deyarli ikki barobar yuqori bo‘lsa-da [4]. Ushbu transformatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan Bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida amalga oshirilmoqda, unga ko‘ra 2025-yilga qadar nodavlat banklar aktivlari ulushini umumiy tizim aktivlarining 15 foizidan 60 foizigacha, xususiy sektorga yo‘naltirilgan kredit majburiyatlari ulushini esa 28 foizdan 70 foizgacha oshirish ko‘zda tutilgan edi [5]. Aynan ushbu institutsional islohotlar fonida bank tizimining miqdoriy ko‘rsatkichlari jadal o‘sish dinamikasini namoyon etmoqda, bu esa ularning sifat va barqarorlik ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlikda tahlil qilinishini taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi

Bank tizimining miqdoriy kengayishi va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik xalqaro iqtisodiy adabiyotning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Schularick va Taylor (2012) 14 rivojlangan mamlakat bo‘yicha 1870–2008-yillarni qamrab olgan 140 yillik tarixiy ma’lumotlar asosida o‘tkazgan tadqiqotida kredit hajmining yalpi ichki mahsulotga nisbatan jadal o‘sishi — kredit bumi — keyingi moliyaviy inqirozlarning eng ishonchli oldindan aytuvchi omili ekanligini, bunda kreditlash dinamikasi aktivlar narxidagi o‘zgarishlardan ko‘ra ancha muhim rol o‘ynashini aniqlagan [6].

Kapital tartibga solish va bank barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik xalqaro empirik adabiyotda keng o‘rganilgan. Xususan, Shaddady va Moore (2019) 2000–2016-yillar oralig‘ida 47 ta Yevropa davlatining 2210 ta tijorat bankini CAMELS-DEA modeli va kvantil regressiya usuli asosida tahlil

qilib, kapitalga nisbatan qattiqroq tartibga solish choralarining bank barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, biroq bunday ta’sirning kichik banklar va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti banklarida nisbatan sezilarli farq qilishini aniqlagan [7].

Muammoli kreditlar (NPL) ulushining shakllanish omillari bo‘yicha ham keng qamrovli empirik tadqiqotlar mavjud. Beck, Jakubik va Piloiu (2015) 75 dan ortiq mamlakat bo‘yicha 2000–2010-yillar panel ma’lumotlari asosida o‘tkazgan tahlilida makroiqtisodiy sharoit — xususan YIM o‘sish sur’ati, milliy valyuta kursi va aksiya narxlari — NPL darajasining eng muhim aniqlovchi omillari ekanligini, bunda YIM o‘sishining sekinlashishi NPL ulushining sezilarli oshishiga olib kelishini aniqlagan [8].

Likvidlilik normativlarining bank faoliyatiga ta’siri borasida King (2013) 728 ta yirik xalqaro bankning 2002–2009-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida o‘tkazgan tadqiqotida sof barqaror moliyalashtirish me’yori (NSFR) talablariga muvofiqlashish banklarning barqaror, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalariga ko‘proq tayanishini talab qilishini, bu esa o‘rtacha hisobda bank foiz marjalarining bosqichma-bosqich oshishi bilan bog‘liq bo‘lishini aniqlagan [9].

Mintaqaviy darajada ham tegishli tadqiqotlar olib borilgan. Yudaruddin (2022) Markaziy Osiyoning besh davlati bo‘yicha 1993–2017-yillar panel ma’lumotlari asosida o‘tkazgan tahlilida bank tizimidagi kontsentratsiya darajasi bilan barqarorlik (Z-Score orqali o‘lchangan) o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini, ya’ni yuqori kapitallashgan va kontsentratsiyalashgan banklar barqarorlikni mustahkamlashini, biroq moliyaviy erkinlik darajasining oshishi bilan birga bu ijobiy ta’sir susayishini aniqlagan [10].

O‘zbekiston va mintaqa bo‘yicha eng so‘nggi tadqiqotlardan biri Jafarov va Matayev (2026) tomonidan Xalqaro Valyuta Fondi doirasida tayyorlangan ish qog‘ozida keltirilgan. Mazkur tadqiqotda Kavkaz va Markaziy Osiyo davlatlarida kreditlashning amaldagi rivojlanish darajasi makroiqtisodiy va moliyaviy muvozanat ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Mualliflar kreditlarning iqtisodiyotdagi o‘rni, xususiy sektorni moliyalashtirish darajasi, korporativ va chakana kreditlash nisbatlari hamda kredit bozorining tarkibiy xususiyatlarini baholashga alohida e’tibor qaratgan. Tadqiqot natijalari mintaqa mamlakatlari o‘rtasida kreditlash chuqurligi, moliyaviy vositachilik darajasi va kredit resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi [11].

Tadqiqotga ko‘ra, O‘zbekistonda korporativ kreditlash hajmi uy xo‘jaliklarini kreditlash hajmiga nisbatan hanuz sezilarli darajada yuqori bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, uy xo‘jaliklariga ajratilayotgan kreditlar nisbatan past bazadan tez sur’atlarda o‘sib borayotgani kuzatilmoqda. Mualliflar, shuningdek, iqtisodiyotning ayrim ustuvor tarmoqlari va yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yo‘naltirilgan hamda imtiyozli kreditlash amaliyotining saqlanib qolayotganini qayd etadi. Bunday holat kredit resurslarining bozor tamoyillari asosida taqsimlanishiga, bank aktivlari sifatiga va kredit risklarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli korporativ va chakana kreditlash o‘rtasidagi nisbat, imtiyozli kreditlarning ulushi hamda kredit portfelining tez o‘sishi moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan doimiy monitoring va chuqur tahlilni talab qiladigan muhim omillar sifatida baholanadi [11].

Ushbu natijalar bank tizimining yuqori kapitallashuv darajasi o‘zi bilan birga barcha sifat muammolarini avtomatik ravishda hal qilmasligini, balki kapital va likvidlilik ko‘rsatkichlarini alohida-alohida, dinamik tarzda kuzatib borish zarurligini ko‘rsatadi — bu esa mazkur maqolaning metodologik yondashuviga asos bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik byulleteni ma’lumotlaridan foydalanilgan, ko‘rsatkichlar tizimini tanlashda esa Xalqaro Valyuta Fondining Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanmasiga [12] va Bazel III standartlariga tayanilgan. Mazkur maqolada tavsiflovchi statistika usuli, bazis indeks usuli, tarkibiy tahlil (structural analysis), me’yoriy taqqoslash (benchmarking) usuli qiyosiy tahlil (comparative analysis) kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

2025-yilda banklarning jami aktivlari o‘tgan yilga nisbatan 155,4 trln so‘mga yoki 20,2 foizga oshib, 2026-yil 1-yanvar holatiga 924,8 trln so‘mga yetdi. Sof foyda hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 barobar o‘sib, 15,5 trln so‘mga yetdi, muammoli kreditlar ulushi esa 4,0 foizdan 3,0 foizgacha kamaydi. Markaziy bank tomonidan ro‘yxatga olingan kredit tashkilotlari soni 2017-yildagi 104 tadan 2025-yilda 260 tagacha, shu jumladan tijorat banklari soni 28 tadan 36 tagacha oshgani moliyaviy xizmatlar bozorining institutsional jihatdan kengayib borayotganidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar (yil oxiriga nisbatan)*

Ko‘rsatkichlar	2017	2019	2021	2023	2025
Ro‘yxatga olingan kredit tashkilotlari, ta	104	147	177	204	260
shu jumladan, tijorat banklari, ta	28	30	33	35	36
Bank aktivlari, trln so‘m	166,6	272,7	444,9	652,2	924,8
O‘z mablag‘lari (kapital), trln so‘m	23,7	51,0	70,9	97,1	135,3
Kredit qo‘yilmalari, trln so‘m	110,6	211,6	326,4	471,4	604,0
Kreditlarning bank aktivlaridagi ulushi, %	66,36	77,58	73,36	72,28	65,31

**O‘zR Markaziy banki Statistik byulleteni ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2017–2025-yillar davomida O‘zbekiston bank tizimi barqaror o‘sish tendensiyasini saqlab keldi: bank aktivlari 166,6 trln so‘mdan 924,8 trln so‘mga yetib 5,6 barobar, kapital 23,7 trln so‘mdan 135,3 trln so‘mga yetib 5,7 barobar, kredit qo‘yilmalari esa 110,6 trln so‘mdan 604,0 trln so‘mga yetib 5,5 barobar kengaydi. Shu bilan birga, kreditlarning bank aktivlaridagi ulushi 2019-yildagi 77,6 foizdan 2025-yilda 65,3 foizgacha pasaygani aktivlar tarkibida diversifikatsiya jarayoni kechayotganini ko‘rsatadi.

1-rasm.

O‘zbekiston bank tizimi asosiy ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’atlari dinamikasi, 2017-yil = 100%



**Kuzatuvlar asosida muallif ishlanmasi.*

1-rasmda aks etganidek, kapital o‘sish sur’ati (2025-yilda bazis yilga nisbatan 1274,5%)

barcha davr mobaynida aktivlar (915,1%) va kredit qo‘yilmalari (1013,3%) o‘sish sur’atidan izchil yuqori bo‘lib kelgan. Bu bank tizimi kapitallashuvining mustahkamlanib borayotganini, ya’ni aktivlar kengayishi kapital bazasining mutanosib o‘sishi bilan ta’minlanib borayotganini bildiradi. Kredit qo‘yilmalarining aktivlardan biroz yuqori sur’atda o‘sishi esa kreditlash faolligining saqlanib qolganligini izohlaydi.

2-jadval.

Bank aktivlari va passivlari tarkibidagi asosiy siljishlar, 2021 va 2025 yillar solishtirmasi, % *

Ko‘rsatkich	2021 y., %	2025 y., %	O‘zgarish, b.p.
Kredit qo‘yilmalari (aktivlar tarkibida)	71,1	63,5	-7,6
Investitsiyalar va qimmatli qog‘ozlar (aktivlar tarkibida)	4,4	11,1	+6,7
Likvid aktivlar — kassa, MB, banklararo (aktivlar tarkibida)	18,1	16,1	-2,0
Depozitlar (passivlar tarkibida)	41,8	52,9	+11,1
Olingan kreditlar va lizing (passivlar tarkibida)	46,5	31,4	-15,1
Taqsimlanmagan foyda (kapital tarkibida)	9,9	18,2	+8,3

**O‘zR Markaziy banki rasmiy veb-sayti va Statistik byulleteni ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

2-jadval ma’lumotlari bank tizimi resurs bazasi va aktivlar tarkibida sifatiy o‘zgarishlar kechayotganini ko‘rsatadi. Passivlar tarkibida depozitlar ulushining 41,8 foizdan 52,9 foizgacha ko‘tarilishi, olingan kreditlar va lizing ulushining esa 46,5 foizdan 31,4 foizgacha pasayishi moliyalashtirish strukturasining tashqi qarz mablag‘laridan ichki, nisbatan barqaror manbalar — aholi va yuridik shaxslar depozitlari — tomon siljiganidan dalolat beradi. Bu, o‘z navbatida, depozitlarning 156,2 trln so‘mdan 417,3 trln so‘mga, ya’ni 2,7 barobar oshgani bilan tasdiqlanadi va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi. Kapital tarkibida taqsimlanmagan foyda ulushining 9,9 foizdan 18,2 foizgacha o‘sishi banklarning ichki resurslar hisobiga kapitalni mustaqil shakllantirish salohiyati oshayotganini anglatadi.

Kredit portfeli sifati va prudensial normativlar. Kredit portfeli sifatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich — muammoli kreditlar (NPL) ulushi — bank tizimi barqarorligini baholashda markaziy o‘rin tutadi. Xalqaro amaliyotda, xususan IMF va Bazel qo‘mitasi standartlariga ko‘ra, to‘lov muddati 90 kundan oshgan kreditlar muammoli sifatida tasniflanadi.

2-rasm.

O‘zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar (NPL) ulushining dinamikasi, 2021–2025 yillar*



**Kuzatuvlar asosida muallif ishlanmasi.*

2-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, NPL ko‘rsatkichi 2021-yilda 5,2 foizga ko‘tarilgan — bu tahlil qilinayotgan davrning eng yuqori nuqtasi bo‘lib, o‘sha yilgi kredit portfelining jadal kengayishi fonida kredit risklarini boshqarish tizimida muayyan zaiflashish yuz berganidan dalolat beradi. Keyingi yillarda ko‘rsatkich pasayib, 2022–2023-yillarda 3,5–3,6 foiz atrofida barqarorlashgan, 2024-yilda 4,0 foizga qayta ko‘tarilgan, 2025-yilda esa 3,0 foizgacha kamaygan. Bu kredit portfeli sifatining umumiy yaxshilanish tendensiyasini, shuningdek restrukturizatsiya va zaxira shakllantirish mexanizmlarining takomillashtirilayotganini ko‘rsatadi.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda kapital yetarliligi ko‘rsatkichi (CAR) muhim prudensial normativ hisoblanadi. Bazel III standartlariga ko‘ra kapital yetarliligining minimal darajasi 8 foiz etib belgilangan bo‘lsa-da, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu talabni yanada qattiqlashtirib, minimal darajani 13 foiz qilib belgilagan. 2020–2025-yillar davomida O‘zbekiston bank tizimining kapital yetarliligi ko‘rsatkichi belgilangan normativdan sezilarli yuqori — 17,4–18,4 foiz oralig‘ida — barqaror saqlanib kelgan, bunda regulyativ kapital 58,2 trln so‘mdan 150,9 trln so‘mga, riskka tortilgan aktivlar esa 316,8 trln so‘mdan 822,7 trln so‘mga, ya’ni ikkalasi ham taxminan 2,6 barobar o‘sgan. Kapital va riskka tortilgan aktivlarning mutanosib o‘sishi kapital monandligi ko‘rsatkichining barqaror saqlanishiga imkon bergan.

Likvidlilik holatini baholashda yuqori likvidli aktivlar (YLA) muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. YLA hajmi 2020-yildagi 50,5 trln so‘mdan 2025-yilda 189,6 trln so‘mga, ya’ni 3,8 barobar oshgan, ularning jami aktivlardagi ulushi esa tebranish dinamikasini namoyon etib (2022-yilda 19,4 foiz, 2023-yilda 14,9 foiz), 2025-yilda 21,1 foizga yetgan — bu Markaziy bank tomonidan belgilangan 10 foizlik minimal talabdan sezilarli yuqori. Bazel III doirasida ishlab chiqilgan likvidlilikni qoplash me’yori (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me’yori (NSFR), shuningdek O‘zR Markaziy bankining milliy prudensial normativi — lahzali likvidlilik koeffitsiyenti (ILR) — bo‘yicha ham normativ talablar barqaror bajarilgan: LCR 164,8–224,5 foiz oralig‘ida (minimal talab — 100%), NSFR 109,9–119,9 foiz oralig‘ida (minimal talab — 100%), ILR esa 2020-yildagi 67,4 foizdan 2025-yilda 134,7 foizga yetib (minimal talab — 25%), bank tizimining qisqa va uzoq muddatli likvidlilik zaxirasi yetarli darajada ta’minlanganini tasdiqlaydi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston bank tizimi 2017–2025-yillar davomida miqdoriy jihatdan sezilarli kengaydi — aktivlar 5,6, kapital 5,7, kredit qo‘yilmalari 5,5 barobar oshdi, bunda kapitalning aktivlardan yuqori sur’atda o‘sishi tizim kapitallashuvining mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Aktivlar va passivlar tarkibida kuzatilayotgan sifatiy siljishlar — investitsiyalar ulushining ortishi, depozitlar bazasining kengayishi — bank tizimining an’anaviy kreditlashdan ko‘p qirrali moliyaviy vositachilikka o‘tish jarayonini aks ettiradi. Kapital yetarliligi, muammoli kreditlar va likvidlilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha barcha prudensial normativlarning barqaror bajarilishi bank tizimining moliyaviy barqarorligi hamda tashqi va ichki risklarga chidamliligi yetarli darajada ta’minlanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tizimning sifatiy rivojlanishi — rentabellik barqarorligi va operatsion samaradorlik — alohida chuqur tahlilni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Financial System Stability Assessment. IMF Country Report No. 25/145. Washington, D.C.: IMF, June 2025. https://www.imf.org/en/publications/cr/issues/2025/06/23/republic-of-uzbekistan-financial-sector-assessment-program-financial-system-stability-567987

2. International Monetary Fund. Global Financial Stability Report, October 2025: Shifting Ground beneath the Calm. Washington, D.C.: IMF, October 2025. https://www.imf.org/en/publications/gfsr/issues/2025/10/14/global-financial-stability-report-october-2025

3. World Bank. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment. Washington, D.C.: World Bank Group, 2025.

https://documents1.worldbank.org/curated/en/099081925064533229/pdf/P506984-16bbc722-0060-46ac-a68c-75e2fe5ab247.pdf

4. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation — Press Release; and Staff Report. IMF Country Report No. 26/152. Washington, D.C.: IMF, June 2026. https://www.imf.org/-/media/files/publications/cr/2026/english/1uzbea2026001.pdf

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-4811025

6. Schularick M., Taylor A. M. Credit Booms Gone Bust: Monetary Policy, Leverage Cycles, and Financial Crises, 1870–2008 // American Economic Review. — 2012. — Vol. 102, No. 2. — P. 1029–1061.

7. Shaddady A., Moore T. Investigation of the effects of financial regulation and supervision on bank stability: The application of CAMELS-DEA to quantile regressions // Journal of International Financial Markets, Institutions and Money. — 2019. — Vol. 58. — P. 96–116. https://doi.org/10.1016/j.intfin.2018.09.006

8. Beck R., Jakubik P., Piloiu A. Key Determinants of Non-performing Loans: New Evidence from a Global Sample // Open Economies Review. — 2015. — Vol. 26, No. 3. — P. 525–550.

9. King M. R. The Basel III Net Stable Funding Ratio and Bank Net Interest Margins // Journal of Banking & Finance. — 2013. — Vol. 37, No. 11. — P. 4144–4156.

10. Yudaruddin R. Bank Concentration and Stability in Central Asia: The Effect of Capital Regulation and Financial Freedom // Journal of Eastern European and Central Asian Research. — 2022. — Vol. 9, No. 2. — P. 206–216.

11. Jafarov E., Matayev C. Credit Expansion in the Caucasus and Central Asia. IMF Working Paper No. 26/137. Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2026.

12. International Monetary Fund. Financial Soundness Indicators: Compilation Guide 2019. Washington, D.C.: IMF, 2019. https://www.imf.org/en/data/statistics/fsi-guide

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МУАММОЛИ КРЕДИТЛАРНИ ЭРТА АНИҚЛАШ ВА МОНИТОРИНГ ТИЗИМИДА МАВЖУД МУАММОЛАРНИНГ ТИЗИМЛИ ЕЧИМИ

Олимова Қизлархон Тўра қизи
«Микрокредитбанк» АТБ
Стратегия ва ривожланиш департаменти
етакчи менежери
E-mail:qizlarxonolimova13@gmail.com

Аннотация. *Мақолада тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва мониторинг қилишнинг мавжуд муаммолари таҳлил қилинган. Муаллиф томонидан муаммоларни бартараф этишга қаратилган тўртта ўзаро боғлиқ йўналиш: эрта сигналларни аниқлаш, риск даражаси бўйича гуруҳлаш, сигналдан кейинги чораларни стандартлаштириш ва мониторингни рақамлаштириш таклиф этилган.*

Калит сўзлар: *муаммоли кредит, NPL, кредит риски, эрта огоҳлантириш тизими, мониторинг, риск индикатори, триггер, риск-балл, портфель мониторинги, реструктуризация, рақамлаштириш.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ РАННЕГО ВЫЯВЛЕНИЯ И МОНИТОРИНГА ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Олимова Кизлархон Тура кизи
АКБ «Микрокредитбанк»
Департамент стратегии и развития
ведущий менеджер
E-mail: qizlarxonolimova13@gmail.com

Аннотация. *В статье проанализированы основные проблемы раннего выявления и мониторинга проблемных кредитов в коммерческих банках. Предложены четыре взаимосвязанных направления совершенствования: выявление ранних сигналов ухудшения качества кредита, группировка кредитов по уровню риска, стандартизация действий после появления сигнала и цифровизация мониторинга. Обоснована последовательность «проблема — решение — механизм — ожидаемый результат».*

Ключевые слова: *проблемные кредиты, NPL, кредитный риск, раннее предупреждение, мониторинг, риск-индикаторы, триггеры, риск-скоринг, портфельный мониторинг, реструктуризация, цифровизация.*

IMPROVING THE EARLY DETECTION AND MONITORING SYSTEM FOR PROBLEM LOANS IN COMMERCIAL BANKS

Olimova Qizlarxon Tura qizi
JSCB “Mikrokreditbank”
Strategy and Development Department
Lead Manager
E-mail: qizlarxonolimova13@gmail.com

Abstract. *The article analyzes the main weaknesses of early detection and monitoring of problem loans in commercial banks. Four interconnected directions are proposed: identification of early warning signals, risk-based grouping of loans, standardization of actions after a warning signal, and digitalization of monitoring. The proposals are structured as problem, solution, implementation mechanism, and expected result.*

Keywords: *problem loans, NPL, credit risk, early warning system, monitoring, risk*

indicators, triggers, risk scoring, portfolio monitoring, restructuring, digitalization.

Кириш

Бугунги кунда тижорат банкларида кредит операциялари банк даромадининг асосий манбаларидан бири бўлиши билан бирга, кредит рискининг энг муҳим манбасини ҳам ташкил этади. Қарз олувчининг молиявий ҳолати, пул оқимлари, қарз юки, тўлов интизоми ёки ташқи иқтисодий омиллар ёмонлашганда кредит сифати пасайиши мумкин. Шу сабабдан муаммоли кредитларни бошқариш фақат NPL шаклланганидан кейин чора кўришга эмас, балки кредитнинг заифлашишини олдиндан аниқлашга қаратилиши лозим.

Базель қўмитасининг кредит рискини бошқариш бўйича янгиланган тамойилларида кредитларни беришдан кейинги мониторинг, қарз олувчининг молиявий ҳолатини кузатиш ва муаммоли кредитларни ўз вақтида аниқлаш муҳим вазифалар сифатида белгиланган [1]. Мониторинг кредит берилгандан кейинги оддий назорат эмас, балки кредит риск-менежментининг узлуксиз қисми ҳисобланади.

Ўзбекистон банк тизимидаги сўнгги йиллар динамикаси ҳам масаланинг қанчалик долзарблигини кўрсатади. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотларига кўра, 2026 йил 1 июль ҳолатига, Республикамиз банк тизими кредит портфели 642,81 трлн сўм, NPL ҳажми 22,943 трлн сўмни, NPL улуши эса 3,6 фоизни ташкил этган [2]. Кредит портфели ўсиши билан бир вақтда NPL ҳажмининг ҳам ортиши кредит сифати мониторингини кучайтириш заруратини кўрсатади.

Халқаро валюта жамғармасининг Ўзбекистон бўйича 2025 йил учун тақдим этилган баҳосида IFRS Stage 3 (кредит бўйича кредит йўқотиши аниқ ифодаланган ҳолат) кўрсаткичи регулятив NPLдан юқори бўлиши мумкинлиги ҳамда реструктуризация қилинган кредитлар сифати бўйича ноаниқликлар мавжудлиги қайд этилган [3]. Бу эса кредитнинг расман NPL мақомига ўтишини кутишдан олдинги заифлашиш белгиларини аниқлаш заруриятини кучайтиради.

Тадқиқотнинг мақсади — тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва улар бўйича ўз вақтида чора кўриш имконини берадиган мониторинг тизимини янада такомиллаштириш бўйича илмий-амалий таклифларни ишлаб чиқишдан иборат.

Адабиётлар шарҳи

Иқтисодий адабиётларда тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва мониторинг қилиш масалалари қатор иқтисодчи-олимлар томонидан турли ёндашувлар асосида тадқиқ этилган. Америкалик иқтисодчи У.Х. Бивер (William H. Beaver) ўзининг “Financial Ratios as Predictors of Failure” илмий мақоласида корхоналарнинг молиявий кўрсаткичлари асосида молиявий қийинчиликларни олдиндан аниқлаш имкониятларини тадқиқ этган. Олимнинг ёндашуви қарз олувчининг молиявий ҳолатидаги салбий ўзгаришларни муаммоли кредит шаклланишидан олдин аниқлаш муҳимлигини [1] кўрсатса, Э.И. Альтман (Edward I. Altman) “Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy” номли тадқиқотида молиявий коэффициентлар асосида корхоналарнинг банкротлик эҳтимолини олдиндан баҳолаш масаласини ўрганган. Ушбу ёндашув кредит мониторингида қарз олувчининг молиявий ҳолатини мунтазам кузатиб бориш ва салбий ўзгаришларни эрта сигнал сифатида баҳолаш зарурлигини асослайди [2]. А.Н. Бергер (Allen N. Berger) ва Р. ДеЯнг (Robert DeYoung) “Problem Loans and Cost Efficiency in Commercial Banks” илмий ишида тижорат банкларида муаммоли кредитлар ва банк фаолияти самарадорлиги ўртасидаги боғлиқликни тадқиқ қилган. Муаллифлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар натижалари муаммоли кредитларнинг шаклланиши банкнинг кредитлаш ва бошқарув жараёнлари билан ҳам боғлиқ бўлиши мумкинлигини кўрсатган [3]. Д.П. Лоузис (Dimitrios P. Louzis), А.Т. Вулдис (Angelos T. Vouldis) ва В.Л. Метаксас (Vasilios L. Metaxas) тадқиқотларида NPL даражасига макроиқтисодий ва банкка хос омилларнинг таъсири таҳлил қилинган. Муаллифлар томонидан кредит сифати

ўзгаришини баҳолашда қарз олувчи ҳолати билан бир қаторда ташқи иқтисодий омилларни ҳам ҳисобга олиш зарурлиги таъкидланган [4]. Мамлакатимиз иқтисодчиларидан Ш.З. Абдуллаеванинг “Банк рисклари ва кредитлаш” номли ўқув қўлланмасида кредит риски, уни бошқариш ва банк кредитлаш жараёнида рискларни камайтириш масалалари ёритилган. Муаллифнинг ёндашуви кредит рискларини кредит бериш босқичида эмас, балки кредитдан фойдаланиш жараёнида ҳам мунтазам назорат қилиш зарурлигини асослашга хизмат қилади [5].

Тадқиқот методологияси

Мазкур мақолада тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва улар бўйича ўз вақтида чора кўриш имконини берадиган мониторинг тизимини янада такомиллаштириш масалаларини ёритишда тизимли ёндашув, статистик таҳлил, динамик таҳлил, таққослама таҳлил, анализ ва синтез усулларидан фойдаланилди. Шунингдек, кредит рискларини баҳолаш ва мониторинг қилиш бўйича халқаро ёндашувлар ўрганилди.

Таклифларни ишлаб чиқишда асосий методик принцип сифатида «муаммо → сабаб → ечим → амалга ошириш механизми → кутиладиган натижа» занжиридан фойдаланилди. Бу ёндашув ҳар бир таклифнинг алоҳида асосланиши ва унинг амалий натижасини баҳолаш имконини беради.

Таҳлил ва натижалар

1-жадвал.

Ўзбекистон Республикаси банк тизимида NPL динамикаси

Кўрсаткич	01.01.2026	01.04.2026	01.07.2026	Ўзгариш
Кредит портфели, трлн сўм	604,0	623,3	642,8	+6,4%
NPL, трлн сўм	18,1	19,9	22,9	+27,1%
NPL улуши	3,0%	3,2%	3,6%	+0,6 п.п.

*Манба: Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2025 йилнинг IV чораги, 2026 йилнинг I чораги ҳамда II чораги ҳолатига маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган [2].

Келтирилган маълумотлар кредит портфели 2026 йил биринчи ярмида 6,4 фоизга ўсган бир вақтда NPL ҳажми 27,1 фоизга кўпайганини кўрсатади. Бу ҳолат кредит портфели ўсишини фақат ҳажм кўрсаткичлари билан эмас, кредит сифати ва эрта риск сигналлари билан биргаликда баҳолаш зарурлигини асослаб беради.

Тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва мониторинг қилиш жараёнида мавжуд муаммоларни шартли равишда бир нечта асосий йўналишларга ажратиш мумкин.

Эрта хавф сигналларини аниқлаш тизимини такомиллаштириш

Кредит мониторингида асосий эътибор тўлов кечикиши ёки NPL мақомига қаратилса, банк кредит сифати аллақачон ёмонлашганидан кейин ҳаракат бошлашини мавжуд муаммо сифатида белгилаш мумкин. Натижада муаммони бартараф этиш учун вақт қисқаради ва имкониятлар чекланади.

Мижозлар тўловларининг кечикиши кўп ҳолатларда кредит муаммосининг натижаси ҳисобланади. Ундан олдин мижознинг тушумлари, даромади, қарз юки ёки тўлов хулқида албатта ўзгаришлар пайдо бўлиши мумкин.

Ушбу вазиятда банкда NPLдан олдинги босқични кузатадиган Pre-NPL monitoring (кредит NPLга айланишидан олдинги мониторинг) тизимини жорий қилиш масаланинг ечими бўлиши мумкин. Ҳар бир кредит бўйича биринчи тўлов кечикиши, автотўловнинг рад этилиши, ҳисобрақам тушумларининг пасайиши, янги қарз мажбуриятларининг пайдо бўлиши, қарз юкининг ошиши, реструктуризацияга мурожаат қилиш каби белгилар кузатилган тақдирда кредитни кучайтирилган мониторингга ўтказиш талаб этилади.

Натижада банк муаммоли кредитни NPLга айланишидан олдин аниқлайди ва мижоз билан профилактик ишлаш учун қўшимча вақтга эга бўлади. Бу ундиришга қаратилган чоралардан олдинроқ профилактик чора кўриш имкониятини яратади.

Кредитларни риск даражаси бўйича гуруҳлаш тизимини жорий этиш

Кўп сонли индикаторлар алоҳида кўриб чиқилганда кредитнинг умумий хавф даражасини аниқлаш ва қайси кредитга биринчи навбатда эътибор бериш кераклигини белгилаш қийинлашади. Ўз навбатида, битта салбий белги ҳар доим ҳам кредитнинг муаммоли бўлишини англатмайди. Бир нечта белгининг бир вақтда ёмонлашиши эса хавфнинг юқори даражада эканини кўрсатиши мумкин. Бундай вазиятда кредитларни «паст риск», «ўрта риск» ва «юқори риск» гуруҳларига ажратиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Risk-score (кредитнинг умумий риск даражасини баҳоловчи балл) ушбу гуруҳлашнинг асосий воситаси бўлиши мумкин. Бунда тўлов интизоми, қарз юки, тушумлар, янги мажбуриятлар ва бошқа асосий индикаторлар биргаликда баҳоланади. Натижага кўра кредитлар учта риск зонасига ажратилади. «Паст риск»да стандарт мониторинг, «ўрта риск»да кучайтирилган кузатув, «юқори риск»да эса индивидуал чоралар қўлланади. Банк мониторинг ресурсларини барча кредитларга бир хил тақсимламай, хавфи юқори кредитларга кўпроқ йўналтириш имконига эга бўлади.

Риск гуруҳларининг кейинги кредит сифати билан қанчалик боғлиқ экани, юқори риск гуруҳидан NPLга ўтиш ҳолатлари ва нотўғри сигналлар улуши кузатилади.

Эрта сигналдан кейинги бошқарув чораларини стандартлаштириш

Эрта хавф сигнали аниқланган тақдирда ҳам кейинги ҳаракат ҳар доим бир хил ва аниқ тартибда амалга оширилмаслиги мумкин. Бунда инсон омили қарор қабул қилишдаги кечикишни кучайтиради. Сигнални ким кўриб чиқиши, қанча вақт ичида мижоз билан боғланиши ва қандай чора кўриши олдиндан белгиланмаган бўлса, эрта огоҳлантиришнинг амалий қиймати пасаяди.

Масаланинг ечими сифатида жараённи қуйидаги тартибда амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади:

* Манба: муаллиф томонидан тайёрланган.



Амалга ошириш механизми: ўрта рискда мижоз билан белгиланган муддатда алоқа қилиш, даромад ва тўлов имкониятини қайта баҳолаш ҳамда зарур бўлса кредит шартларини кўриб чиқиш; юқори рискда эса кучайтирилган мониторинг, реструктуризация (кредит шартларини қайта кўриб чиқиш) имкониятини баҳолаш ёки ундириш жараёнига ўтказиш назарда тутилади. Ҳар бир чора ва унинг натижаси тизимда қайд этилади. Натижада сигнал аниқланиши билан амалий чора ўртасидаги вақт қисқаради, масъулият аниқ белгиланади ва ҳар бир қарорнинг тарихи сақланади.

Белгиланган муддатда ишланган сигналлар улуши, сигналдан кейин чора кўришга кетган вақт ва кўрилган чорадан кейин кредит ҳолатининг яхшиланишини самарадорлик мезони сифатида белгилаш мумкин.

Мониторингни ягона рақамли тизимга бирлаштириш

Кредит ҳақидаги маълумотлар Core Banking, CRM, кредит бюроси, тўлов тизимлари ва бошқа манбаларда тарқоқ жойлашганда кредитнинг умумий риск ҳолатини тез баҳолаш

қийинлашади. Бунда маълумотларни анъанавий тарзда йиғиш вақт талаб қилади, маълумотларнинг янгиланишида кечикиш ва турли манбалар ўртасида номувофиқлик юзага келиши мумкин.

Кредит мониторинги учун ягона рақамли мониторинг қатламини шакллантириш ушбу муаммонинг ечими бўлиши мумкин. Унда турли манбалардан олинган маълумотлар бирлаштирилиб, хавф сигналлари ва кредит ҳолати ягона тизимда кўрсатилади.

Тизимнинг ишлаш механизми: маълумотлар автоматик йиғилади, асосий индикаторлар янгиланади, хавф сигнали пайдо бўлганда масъул ходимга вазифа шаклланади ва унинг бажарилиши қайд этилади. Раҳбарият учун эса портфель бўйича умумий мониторинг панели (dashboard) яратилади. Натижада турли хил дастурлар ва ресурслардан йиғма тарзда тайёрланадиган ҳисоботлар ҳажми камаяди, сигналлар тезроқ етказилади, ҳар бир кредит бўйича мониторинг тарихи сақланади ва қарор қабул қилиш жараёни шаффофлашади.

Автоматик шаклланадиган сигналлар улуши, маълумотларнинг тўлиқлиги, сигнални етказиш тезлиги ва одатий тарзда амалга ошириладиган мониторингга сарфланадиган вақтнинг қисқаришини баҳолаш самарадорликни ўлчашда асосий мезон сифатида кўрилиши мумкин.

Барча таклифларни ягона мониторинг жараёнига бирлаштириш

Юқоридаги тўртта йўналиш бир-биридан мустақил чоралар эмас, балки ягона мониторинг жараёнининг кетма-кет босқичларини ташкил этади. Уларнинг умумий мантиғи қуйидагича ифодаланади: маълумотларни йиғиш → хавф белгиларини аниқлаш → кредитни риск даражаси бўйича гуруҳлаш → мос бошқарув чорасини қўллаш → натижани кузатиш.

Ушбу ёндашувда ҳар бир босқич кейинги босқич учун асос бўлади. Агар маълумотлар ўз вақтида шаклланмаса, хавф сигналлари кеч аниқланади; сигналлар тўғри гуруҳланмаса, банк ресурслари самарасиз тақсимланади; сигналдан кейин аниқ чора белгиланмаса, эрта мониторингнинг амалий таъсири пасаяди. Шунинг учун тизимнинг асосий устунлиги алоҳида инструментларда эмас, балки уларнинг бир-бири билан боғланган ҳолда ишлашидадир.



* Манба: муаллиф томонидан тайёрланган.

Хулоса

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, муаммоли кредитларни бошқаришда асосий вазифа NPLни қайд этиш тезлигини ошириш эмас, балки кредитнинг муаммоли ҳолатга ўтишидан олдин унинг заифлашиш белгиларини аниқлаш ва ўз вақтида чора кўриш имконини яратишдан иборат.

Биринчи таклиф сифатида Pre-NPL monitoring тизимини жорий этиш. Унинг моҳияти тўлов кечикишини кутиш билан чекланмасдан, мижознинг тўлов хулқи, даромад ва тушумлари, қарз юки ҳамда янги мажбуриятларидаги ўзгаришларни олдиндан кузатишдан иборат.

Иккинчи таклиф — кредитларни риск даражаси бўйича гуруҳлаш. Ушбу ёндашув банкка юқори хавфли кредитларни тез ажратиш ва мониторинг ресурсларини уларга устувор равишда йўналтириш имконини беради.

Учинчи таклиф — эрта сигналдан кейинги чораларни стандартлаштириш. Бунда ҳар бир сигналга масъул ходим, аниқ муддат ва амалий чора бириктирилади. Шу орқали мониторинг натижаси ахборот сифатида қолиб кетмасдан, бошқарув қарорига айланади.

Тўртинчи таклиф — мониторингни ягона рақамли тизимга бирлаштириш. Core Banking, CRM, кредит бюроси ва бошқа ахборот манбаларининг интеграцияси кредит рисклари ҳақидаги маълумотларни тезкор олиш ва улар асосида автоматик сигнал бериш имконини оширади.

Шундай қилиб, мақолада таклиф этилган ёндашувнинг асосий илмий-амалий қиймати алоҳида индикаторларни санаб ўтишда эмас, балки «маълумот → эрта сигнал → риск гуруҳи → бошқарув чораси → натижа» занжири асосида проактив мониторинг жараёнини шакллантиришдадир. Мазкур ёндашув тижорат банкларининг реал кредит портфели маълумотлари асосида синовдан ўтказилиши ва унинг самарадорлиги баҳоланиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the management of credit risk. Bank for International Settlements. 30 April 2025.

2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Тижорат банкларининг муаммоли кредитлари (NPL) тўғрисида 2026 йил 1 июль ҳолатига маълумот. 2026.

3. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Financial System Stability Assessment. IMF Staff Country Reports, 2025/145.

4. Drehmann M., Juselius M. Evaluating early warning indicators of banking crises: satisfying policy requirements. BIS Working Paper No. 421. 2013.

5. Bank for International Settlements. Early warning indicators and credit risk monitoring materials.

6. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Detailed Assessment of Observance of the Basel Core Principles for Effective Banking Supervision. IMF Country Report, 2025.

7. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги низомга киритилган ўзгартиришлар ва қўшимча юзасидан шарҳ. 2025–2026.

8. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Тижорат банкларининг муаммоли кредитлари (NPL) тўғрисида 2026 йил 1 январь ва 1 апрель ҳолатига маълумотлар.

HUDUDIY EKSPORTNING QO'SHILGAN QIYMATI VA DIVERSIFIKATSIYA DARAJASINI O'LCHASH: XORAZM VILOYATIDA EXPORT QUALITY INDEX TAHLILI

Xolmurotov Fozil Saribayevich

buxgalteriya hisobi
kafedrasi dotsenti
Ma’mun Universiteti
E-mail: xolmurodov_fozil@mamunedu.uz
ORCID: 0000-0003-2745-1832

Annotatsiya:*Ushbu maqolada Xorazm viloyati eksport tarkibining sifat jihatdan o‘zgarishlari 2010–2024 yillar kesimida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mintaqaviy eksportning diversifikatsiya darajasini va qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlarini baholashdan iborat. Baholash uchun xalqaro tajribada keng qo‘llaniladigan Export Quality Index (EXPQ) metodologiyasi qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi o‘n yillikda Xorazm viloyati eksporti tarkibida sezilarli sifatlanish jarayoni kuzatilgan: paxta tolasi kabi xomashyo mahsulotlarining ulushi keskin kamaygan, oziq-ovqat, kimyo mahsulotlari va xizmatlar eksporti esa ortgan. 2010-yilda EXPQ 1.19 darajasida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 2.15 ga yetgan, bu esa eksportning yuqori texnologiyali va qayta ishlangan mahsulotlar tomon siljishini ifodalaydi. Tadqiqot eksport tarkibining modernizatsiya jarayonlarini aniqlab, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *Eksport, Sifat, Diversifikatsiya, Indeks, Xorazm, Qo‘shilgan qiymat, Texnologiya*

ИЗМЕРЕНИЕ ДОБАВЛЕННОЙ СТОИМОСТИ И СТЕПЕНИ ДИВЕРСИФИКАЦИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКСПОРТА: АНАЛИЗ ИНДЕКСА КАЧЕСТВА ЭКСПОРТА В ХОРЕСМСКОЙ ОБЛАСТИ

Холмуротов Фозил Сарибаевич

доцент кафедры
бухгалтерский учет
Университет Мамуна
E-mail: kholmurodov_fozil@mamunedu.uz
ORCID: 0000-0003-2745-1832

Аннотация. *В статье анализируются качественные изменения в структуре экспорта Хорезмской области за период 2010–2024 годов. Основная цель исследования заключается в оценке уровня диверсификации регионального экспорта и показателей добавленной стоимости. Для оценки использована методология* ***Export Quality Index (EXPQ)****, широко применяемая в международной практике. Результаты показывают, что за последнее десятилетие в структуре экспорта Хорезмской области наблюдается существенный процесс качественного обновления: доля сырьевых товаров, таких как хлопковое волокно, значительно сократилась, тогда как экспорт продовольственных, химических товаров и услуг увеличился. Если в 2010 году значение EXPQ составляло 1,19, то в 2024 году оно достигло 2,15, что свидетельствует о смещении экспорта в сторону более технологичных и переработанных продуктов. Исследование позволяет выявить процессы модернизации экспортной структуры и создает научную основу для совершенствования региональной экономической политики.*

Ключевые слова: *экспорт, качество, диверсификация, индекс, Хорезм, добавленная стоимость, технологии.*

MEASURING THE ADDED VALUE AND DIVERSIFICATION LEVEL OF REGIONAL EXPORTS: AN ANALYSIS OF THE EXPORT QUALITY INDEX IN THE KHOREZM REGION

Kholmurotov Fozil Saribayevich

Associate Professor
department of accounting
Ma’mun University
E-mail: xolmurodov_fozil@mamunedu.uz
ORCID: 0000-0003-2745-1832

Abstract: *This article analyzes qualitative changes in the export structure of Khorezm Region over the period 2010–2024. The main objective of the study is to assess the level of regional export diversification and value-added indicators. The* ***Export Quality Index (EXPQ)*** *methodology, widely used in international practice, was applied for the assessment. The results show that a significant process of qualitative transformation has occurred in the export structure of Khorezm Region over the past decade: the share of raw materials, such as cotton fiber, has declined substantially, while exports of food products, chemicals, and services have increased. While the EXPQ stood at 1.19 in 2010, it reached 2.15 in 2024, indicating a shift in exports toward higher-technology and processed products. The study identifies the modernization processes of the export structure and provides a scientific basis for improving regional economic policy.*

Keywords: *export, quality, diversification, index, Khorezm, value added, technology.*

Kirish

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida eksport hajmi bilan bir qatorda uning **sifat ko‘rsatkichlari** ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, global bozor sharoitida raqobat nafaqat eksport qilinayotgan mahsulotlar miqdoriga, balki ularning **qo‘shilgan qiymati**, **texnologik murakkabligi** va **diversifikatsiya darajasiga** ham bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, eksportni sifat jihatidan baholash davlat va hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida, xususan, **Xorazm viloyati** eksportida ham uzoq yillar davomida **xomashyo mahsulotlari, asosan paxta tolasi** ustunlik qilgan. Bu esa hududning xalqaro bozorlarda barqaror raqobatbardoshlik salohiyatini cheklab kelgan. Keyingi davrlarda iqtisodiy islohotlar, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, xizmatlar sektorini kengaytirish va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishga qaratilgan choralar natijasida eksport tarkibida sifatli o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — **Xorazm viloyati eksport tarkibining sifat darajasini baholash** va uning vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarini tahlil qilishdan iborat. Bunda xalqaro tajribada keng qo‘llaniladigan **Export Quality Index (EXPQ)** qo‘llanadi. Mazkur indeks yordamida 2010–2024 yillar kesimida eksport tarkibining **xomashyodan qayta ishlangan mahsulotlar va xizmatlarga siljishi** aniqlanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, eksport sifatini baholash orqali hududiy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, diversifikatsiya darajasi hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini aniqlash mumkin. Bu esa iqtisodiy siyosat uchun muhim xulosalar chiqarish, kelgusida **eksportni yanada sifatlash va diversifikatsiya qilish bo‘yicha strategiyalar** ishlab chiqishga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Eksport sifatini baholash ko'p qirrali masala bo'lib, globallashuv sharoitida tobora ortib borayotgan ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatlar global qiymat zanjirlariga yanada integratsiyalashgani sari eksportning nafaqat hajmini, balki sifati va tarkibiy tarkibini ham baholash zarurati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Eksport sifatini baholash uchun texnologik

tarkibga, qo‘shilgan qiymatga va ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligiga e’tibor qaratiladigan turli metodologiyalar ishlab chiqilgan.

Eksportning texnologik tuzilishi iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Yuqori texnologiyali va o'rta texnologiyali ishlab chiqarishlar yaxshi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq, bu ularning eksport tuzilmalarida yuqori texnologik tarkibga ega bo'lgan mamlakatlarda kuzatilgan o'sishning ijobiy ta'siridan dalolat beradi[1]. Eksportda qo'shilgan qiymatning parchalanishi yana bir muhim yondashuvdir. Bu mahalliy va xorijiy manbalar tomonidan qo'shilgan qiymatni ajratishni o'z ichiga oladi, bu ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichining yakuniy eksport sifatiga qo'shgan hissasini tushunishga yordam beradi[2].

Eksport sifatini baholashning bir qancha metodologiyalari, jumladan, tarmoq ichidagi savdoning klassik ko'rsatkichlari va sifatning eksport talabiga ta'sirini baholovchi mikro-asosli modellar taklif qilingan. Ushbu modellar mahsulotning vertikal tabaqalanishi va bozor kuchini ko'rib chiqadi, bu sifat eksport dinamikasiga qanday ta'sir qilishini aniq tushunishni ta'minlaydi[3]. Mahsulot darajasida sifat darajalarini yaratish uchun identifikatsiya qilinadigan sifat parametriga ega tizimli model ishlab chiqilgan. Ushbu usul sifatni xarajat va ta'm ta'siridan ajratib, eksport sifatining aniqroq o'lchovini taklif qiladi[4].

Braziliya va Xitoy o'rtasidagi kabi mamlakatlar o'rtasidagi qiyosiy tadqiqotlar eksport sifati va ALADI kabi muayyan hududlardagi raqobat dinamikasidagi farqlarni ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotlar sotilgan mahsulotlarning sifat o'zgarishini aniqlash uchun birlik qiymati farqlaridan foydalanadi[5]. Eksport sifatiga iqtisodiyotning murakkabligi ham ta’sir qiladi, bu esa ularning ishlab chiqarish jarayonlarining turli bosqichlarida ixtisoslashuvi bilan belgilanadi. Ushbu murakkablik eksport qiymatining kelib chiqishi va eksport qilinadigan tovarlar turlari kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi[6].

Eksport sifati muhim iqtisodiy ta'sirga ega, chunki yuqori sifatli mahsulotlar ko'pincha eksport qiluvchi mamlakatlar uchun yuqori daromad darajasiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar eksport sifatini saqlash va yaxshilashga e'tibor qaratmoqda, rivojlanayotgan mamlakatlar esa raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun mahsulot sifatini yaxshilashga intilmoqda[7].

Eksport sifatini baholash siyosatining oqibatlari xalqaro bozorlarda yaxshiroq joylashishni va narx raqobatidan ko'ra sifatga asoslangan raqobat dinamikasini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi[8].

Eksport sifatiga e'tibor iqtisodiy o'sish va xalqaro savdo dinamikasi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etsa-da, sifatni o'lchash bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqish juda muhimdir. Sifat ko'pincha kuzatilmaydigan xususiyat bo'lib, aniq baholashni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, global qiymat zanjirlarida ishlab chiqarish jarayonlarining parchalanishi eksport sifatini baholashni qiyinlashtiradi, chunki ishlab chiqarishning turli bosqichlari yakuniy mahsulot sifatiga turlicha hissa qo'shadi. Bu muammolar eksport sifatini to‘g‘ri va mazmunli baholashni ta’minlash uchun metodologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

“Mahsulot maydoni” tushunchasi mamlakat eksport portfeli uning rivojlanish istiqbollariga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tushunish uchun asos yaratadi. Bunday yondashuv eksportning sifati va diversifikatsiyasi ularning hajmi kabi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Rivojlangan mamlakatlar yuqori sifatli mahsulotlarning kengroq assortimentini eksport qilishga moyil bo'lib, bu ularning ilg'or texnologik imkoniyatlari va iqtisodiy tuzilmalari bilan bog'liq. Mahsulot fazosi nazariyasi mamlakatlar ko'pincha mahsulot makonining yadrosida joylashgan yanada murakkab mahsulotlarga o'tish orqali rivojlanishini taklif qiladi. Bu o‘tish iqtisodiy o‘sish va rivojlanish uchun zarur, chunki bu mamlakatlarga eksport sifatini oshirish va iqtisodiy faoliyatini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Mahsulot maydoni - bu turli xil mahsulotlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadigan tarmoq. Murakkab mahsulotlar zich bog'langan yadroda joylashgan bo'lsa, kamroq murakkab mahsulotlar kamroq bog'langan periferiyada joylashgan. Mamlakatlar bu makon bo'ylab harakatlanib, o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga yaqin mahsulotlar ishlab chiqarish orqali rivojlanadi[9].

Rivojlangan mamlakatlar yuqori sifatli, texnologik intensiv mahsulotlar ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka ega bo‘lib, ularni yuqori daromadli mamlakatlarga eksport qiladi. Ushbu ixtisoslashuv va sifatga e'tibor yuqori iqtisodiy daromadlarga olib keladi. Mahsulot maydoni modeli iqtisodiy rivojlanish uchun yuqori potentsialga ega bo'lgan tarmoqlarni aniqlash, mamlakatlarga eksportni diversifikatsiya qilish va ularning iqtisodiy murakkabligini yaxshilashga yordam berish orqali davlat siyosatini boshqarishi mumkin[10].

Eksport sifati iqtisodiy o'sishning muhim omilidir. Yuqori sifatli eksport ishlab chiqarishning tezroq o'sishi bilan bog'liq va sifatni oshirish rivojlanishning dastlabki bosqichlarida ayniqsa tezdir[11]. Sifatni oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish uchun diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. O'z eksportini diversifikatsiya qiladigan mamlakatlar global talab va texnologik taraqqiyotning o'zgarishiga yaxshiroq moslasha oladi.

Innovatsion imkoniyatlarni oshiruvchi va eksport subsidiyalarini taqdim etuvchi siyosat mamlakat eksport ko‘rsatkichlarini yaxshilashi mumkin. Biroq, bu siyosatlar boshqa mamlakatlar uchun raqobatdosh kamchiliklarga ham olib kelishi mumkin, chunki ular eksport xilma-xilligida oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Qulay ichki muhit, jumladan kuchli institutlar va inson kapitali sifatni oshirishni rag'batlantirish uchun zarurdir. Sektorga oid siyosatlar ichki muhitdagi keng ko'lamli yaxshilanishlarga qaraganda kamroq samaralidir.

Mahsulot fazosi nazariyasi eksport sifati va diversifikatsiyasini tushunish uchun mustahkam asos yaratsa-da, u rivojlanayotgan mamlakatlar duch keladigan muammolarni ham ta'kidlaydi. Bu mamlakatlar ko'pincha cheklangan texnologik imkoniyatlar va kamroq bog'langan iqtisodiy tuzilmalar tufayli mahsulot maydonining yadrosiga o'tish uchun kurashadilar. Oqibatda ular yuqori sifatli eksport mahsulotini ishlab chiqarishda rivojlangan davlatlar bilan raqobatlashishda qiynalishi mumkin. Biroq, institutsional sifat va inson kapitalini yaxshilashga e'tibor qaratish orqali rivojlanayotgan mamlakatlar sifatni oshirish va iqtisodiy o'sish uchun yanada qulay muhit yaratishi mumkin.

Xitoyning global mahsulot maydonida periferiyadan asosiy mavqega o'tishi uning eksport diversifikatsiyasi va murakkablashuvi ortib borayotganidan dalolat beradi. Ushbu transformatsiya Xitoyning global qiymat zanjirlariga (GVC) strategik integratsiyalashuvi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini aks ettiruvchi ko'p mehnat talab qiladigan mahsulotlardan ko'proq malakali va texnologik jihatdan rivojlangan eksportga o'tish bilan tavsiflanadi. Mamlakat eksport iqtisodiyoti ko‘proq diversifikatsiyalangan va muvozanatlashgan bo‘lib, global mahsulot makonida qutblangan tuzilmadan integratsiyalashgan tizimga o‘tdi. Ushbu siljish ham yo'lga bog'liqlik, ham yo'l yaratish bilan bog'liq, chunki Xitoy o'zining mavjud sanoat bazasidan foydalanadi, shu bilan birga o'sish va rivojlanish uchun yangi yo'llarni yaratadi[12].

Xitoyning eksport iqtisodiyoti sezilarli darajada rivojlandi, eksport mahsulotlarini diversifikatsiya qilish sezilarli darajada oshdi. Ushbu diversifikatsiya an'anaviy mehnat talab qiladigan tovarlardan yanada murakkab, yuqori texnologiyali mahsulotlarga o'tishda yaqqol namoyon bo'ladi[13]. 2001 yildan keyin Xitoy eksportida yuqori texnologiyali mahsulotlarning ulushi ortdi, bu esa ko'proq malakali va murakkab eksportga o'tishdan dalolat beradi. Yuqori texnologiyali mahsulotlar hozirda Xitoyning jami eksportining salmoqli qismini tashkil etadi, bu mamlakatning texnologik imkoniyatlari oshib borayotganini aks ettiradi.

Xitoy ishlab chiqarishning boshlang'ich bosqichlariga o'tib, oraliq importga kamroq bog'liq bo'lib, GVC doirasida ilgarilab ketdi. Ushbu siljish eksportni diversifikatsiya qilishni kamaytirmadi; Buning o'rniga u Xitoyning mamlakatlararo mahsulot taqsimotidagi rolini oshirdi[14].

Reeksport qilingan oraliq importning kamayishi Xitoyning tarkibiy qismlarni mahalliy ishlab chiqarish qobiliyatining o'sib borayotganini va shu bilan uning murakkab tovarlarni ishlab chiqarishdagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Xitoyning eksport mahsulot maydonining evolyutsiyasiga milliy va mahalliy hukumat siyosati katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu siyosatlar mintaqaviy sanoatni diversifikatsiya qilish va Xitoyning eksport evolyutsiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan rivojlanish zonalarini

yaratishga yordam berdi[15]. Hukumat aralashuvi mintaqaviy sanoat dinamikasini shakllantirishda ham qo‘llab-quvvatlovchi, ham qarama-qarshi rol o‘ynadi, Xitoy eksport iqtisodiyotidagi siyosat va bozor kuchlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni ta’kidladi.

Xitoyning eksport evolyutsiyasi texnologik bog'liqlik bilan tavsiflanadi, bu erda mavjud sanoat tuzilmalari asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ushbu yo'lga bog'liq diversifikatsiya Xitoyga o'z mahsulot maydonini kengaytirishga va eksportning murakkabligini oshirishga imkon berdi. Xitoyga nisbatan qo'llaniladigan mahsulot maydoni kontseptsiyasi mamlakatning muvaffaqiyatli diversifikatsiyasi va sanoatlashuvini, tabiiy resurslardan to'qimachilikka va oxir-oqibat elektronika va avtomobillarga o'tishni namoyish etadi[16].

Xitoyning eksport iqtisodiyoti diversifikatsiya va takomillashtirish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Mamlakatning savdo profili, kengayganiga qaramay, hali ham rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan mahsulot toifalarining past birlik qiymati segmentini egallaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, Xitoy o'z eksportini diversifikatsiya qilishda muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa-da, qiymat zanjirini yuqoriga ko'tarish va jahon bozorining yuqori qiymatli segmentlarini egallash nuqtai nazaridan hali ham yaxshilanish uchun imkoniyatlar mavjud[17].

Eksportni diversifikatsiya qilish tor doiradagi tovarlarga qaramlikni kamaytirish orqali iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq bo‘lib, bu narxlarning o‘zgarishi natijasida iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ijodiy tarmoqlarga diversifikatsiya eksport daromadlarini barqarorlashtirish va savdo o'zgaruvchanligini kamaytirish orqali o'sishni tezlashtirishi ko'rsatilgan[18]. Gorizontal va vertikal diversifikatsiya iqtisodiy o'sishni yanada rag'batlantiradigan, amalda o'rganish va xalqaro raqobatga duchor bo'lish kabi ijobiy tashqi ta'sirlarni keltirib chiqaradi[19]. Fazoviy tarmoq effektlari ham muhim rol o'ynaydi, yirik iqtisodiyotlarga yaqinlik diversifikatsiya jarayonini tezlashtiradi va o'sish istiqbollarini oshiradi[20].

Eksport sifatini oshirish iqtisodiy rivojlanish uchun, ayniqsa rivojlanishning dastlabki bosqichlarida juda muhimdir. Bu ishlab chiqarishning tezroq o'sishiga va jahon sifat chegarasiga yaqinlashishiga olib keladi. Institutsional sifat va inson kapitali sifatni oshirishga yordam beradigan muhim omillar bo'lib, bu o'z navbatida iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Eksport sifatini yaxshilash aholi jon boshiga real daromadni oshirish va daromadlar tengsizligi va qashshoqlikni kamaytirish orqali inklyuzivlikka hissa qo'shadi, ayniqsa iqtisodiy o'sish o'zgaruvchanligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda[21].

Eksport mahsulotlarini diversifikatsiya qilish rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq ko'rsatkichlari sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir kam rivojlangan mamlakatlarda ko'proq namoyon bo'lib, savdodan tashqari diversifikatsiyaning kengroq iqtisodiy foydasini ta'kidlaydi. Eksport sifatining yaxshilanishi ham inklyuzivlikni kuchaytiradi, barqaror iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi va kengroq rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Eksportni diversifikatsiya qilish va sifatni oshirish foydali bo'lsa-da, ular qo'llab-quvvatlovchi ichki muhitni, jumladan kuchli institutlarni va inson kapitalini rivojlantirishni talab qiladi. Bundan tashqari, tovarga qaramlikdan diversifikatsiyalangan eksportga o'tishni boshqarish qiyin bo'lishi mumkin, chunki u iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi[22]. Kakao va qahva kabi tovarlarda xalqaro narxlarni barqarorlashtirishning roli ushbu eksportga katta bog'liq bo'lgan mamlakatlar uchun muhim bo'lib qolmoqda.

O‘zbekiston eksport landshafti xomashyoga bog‘liqlikdan qayta ishlangan oziq-ovqat, kimyo mahsulotlari va xizmatlarni o‘z ichiga oluvchi ko‘proq diversifikatsiyalangan portfelga o‘tayotgan sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu o'zgarish mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish strategiyasining bir qismi sifatida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlarni eksport qilishga intilayotgan global tendentsiyalarga mos keladi. O‘zbekiston eksportini diversifikatsiya qilish nafaqat xalqaro tajribaning aksi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategik qadamdir. Bu o‘tish mamlakat eksport

salohiyatini oshirishga qaratilgan turli siyosiy chora-tadbirlar va iqtisodiy islohotlar bilan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

O‘zbekistonda yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirish orqali eksport tuzilmasini diversifikatsiya qilish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda. Bunga eksport portfelida asta-sekin o'rin egallab borayotgan qayta ishlangan oziq-ovqat, kimyo mahsulotlari va xizmatlar kiradi[23]. Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga o‘tish global ishlab chiqarish va texnologik zanjirlardagi tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, O‘zbekistonga katta iste’mol salohiyatiga ega bo‘lgan yuqori texnologiyali tovarlarning yangi bozorlariga chiqish imkonini beradi. Hukumat eksportni diversifikatsiya qilishni jadallashtirish uchun iqtisodiy siyosatning turli yo‘nalishlari, jumladan, savdo, investitsiya va sanoat siyosati bo‘yicha o‘zaro bog‘liq kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradigan yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishda innovatsiyalar va texnologiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati ta’kidlanadi. 1956 yilda Robert Solou tomonidan ishlab chiqilgan Solou iqtisodiy o'sish modeli texnologik taraqqiyot va samaradorlik iqtisodiy o'sish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, bu omillarni eksport tarkibi bilan bevosita bog'laydi. Yangi g‘oyalar va texnologiyalar orqali yaratilgan yuqori qiymatli mahsulotlar savdosini nazarda tutuvchi innovatsiyalarga asoslangan eksport bu borada muhim o‘rin tutadi. Ushbu eksportga e'tibor qaratish orqali mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari va jahon bozoridagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishlari mumkin.

Yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish nafaqat mamlakat eksport portfeliga hissa qo'shadi, balki eksport qilinadigan har bir birlikdan olinadigan qiymatni oshirish orqali umumiy iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Bundan tashqari, eksportga asoslangan o'sish strategiyalari kontseptsiyasi eksportdan iqtisodiy rivojlanishga erishishning asosiy vositasi sifatida foydalanish muhimligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo‘lgan yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini ta’kidlaydi.

Texnologik yutuqlar ushbu jarayonning ajralmas qismidir, chunki ular xalqaro bozorlarda yuqori narxlarni egallashi mumkin bo'lgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Va nihoyat, samarali innovatsion siyosat ushbu yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qulay muhitni yaratish uchun juda muhimdir. Bunday siyosat tadqiqot va ishlanmalarni rag'batlantirishi mumkin, natijada innovatsiyalarning ortishiga va raqobatbardosh iqtisodiyotga olib keladi. Innovatsiyalar, texnologiya va eksport strategiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun asosiy hisoblanadi.Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, eksport sifat indeksini hisoblash — xalqaro tajribada keng qo‘llaniladigan metod bo‘lib, u milliy va mintaqaviy iqtisodiyotlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning ushbu adabiyotlar sharxi Xorazm viloyati misolida olib borilgan hisob-kitoblarning nazariy asosini mustahkamlab, natijalarni xalqaro ilmiy muhitga integratsiya qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyati eksport tarkibining sifat ko‘rsatkichlarini baholash uchun Export Quality Index (EXPQ) hisoblandi. Metodologiya xalqaro tajribaga[24] asoslanib ishlab chiqilgan bo‘lib, indeks eksport tarkibining diversifikatsiya darajasi va qo‘shilgan qiymat elementlarini birlashtiradi.

2010–2024 yillar davomida Xorazm viloyati eksporti tarkibiy kesimda tahlil qilindi. Eksport toifalari quyidagilarni o‘z ichiga oldi: paxta tolasi, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo mahsulotlari, energetika, mashina va uskunalar, xizmatlar hamda “boshqa” tovarlar. Har bir yil uchun toifalarning umumiy eksportdagi ulushi (S_i) aniqlanib, 0–1 oralig‘ida normalizatsiya qilindi.

Eksport tarkibining sifatini aniqlashda toifalarga ularning qayta ishlash darajasi va texnologik murakkabligidan kelib chiqib koeffitsientlar tayinlandi: Paxta va Energetika → q = 1

(xomashyo mahsulotlar), Oziq-ovqat, Kimyo, Boshqalar → q = 2 (qisman qayta ishlangan mahsulotlar), Mashina va Xizmatlar → q = 3 (yuqori texnologiyali va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar). Mazkur tasnif xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan SITC (Standard International Trade Classification) tasnifiga moslashtirilgan.

EXPQ usuli Xorazm viloyati eksportidagi sifat o‘zgarishlarini oddiy va tushunarli tarzda ko‘rsatib beradi. U siyosatchilar va iqtisodchilar uchun eksportni diversifikatsiya qilish strategiyalarini baholash imkonini yaratadi. Biroq, metodologiyaning ayrim cheklovlari mavjud:

Sifat koeffitsientlari ekspert bahosiga asoslangan bo‘lib, turli variantlarda natijalar darajasi farq qilishi mumkin.

Indeks tarkibida mahsulotlarning ichki xilma-xilligi (masalan, kimyo ichidagi yuqori texnologiyali tarmoqlar) to‘liq aks ettirilmagan.

Shu sababli, EXPQ natijalari deskriptiv va qiyosiy tahlil vositasi sifatida qaralishi lozim, ammo chuqur texnologik baho berishda qo‘shimcha metodlar bilan birgalikda qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot doirasida Xorazm viloyatining 2010-2024 yillardagi eksport tarkibi va sifat ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Eksport sifat indeksi (EXPQ) metodologiyasi asosida viloyat eksportining strukturaviy o'zgarishlari va sifat jihatidan rivojlanish tendentsiyalari baholandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati eksport tarkibida so'nggi 15 yil davomida tubdan o'zgarishlar yuz bergan. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar eksport tarkibining dramatik transformatsiyasini aks ettiradi.

1-jadval.

Eksport tarkibi foizlarda, 2010-2024 yillar*

Yil	Paxta (%)	Oziq-ovqat (%)	Kimyo (%)	Energetika (%)	Mashina (%)	Xizmatlar (%)	Boshqa (%)
2010	83.8	1.1	0.0	0.0	0.2	2.5	12.4
2011	85.0	0.3	0.2	0.0	0.1	3.9	10.6
2012	82.3	0.7	0.5	0.0	0.0	6.6	9.8
2013	65.3	1.4	0.4	0.0	0.0	27.8	5.1
2014	84.8	2.6	0.6	0.0	0.0	9.3	2.6
2015	75.2	2.5	0.7	0.0	0.1	8.0	13.5
2016	55.3	10.1	0.8	0.0	0.0	8.2	25.6
2017	43.1	11.6	0.8	0.0	0.0	8.1	36.3
2018	10.7	27.8	1.0	0.1	1.4	13.6	45.3
2019	5.2	49.1	0.6	0.9	0.1	11.4	31.7
2020	4.3	31.7	0.8	0.0	0.1	5.2	57.1
2021	0.5	31.1	0.8	0.6	0.2	8.1	57.9
2022	0.1	33.0	0.9	2.1	0.1	6.6	55.6
2023	0.0	46.3	0.9	1.0	0.2	6.2	45.2
2024	0.0	4.8	1.2	0.0	2.1	13.6	78.1

*Muallif ishlanmasi.

Eslatma: Har bir ustun yig'indisi = 100%

Jadval ma'lumotlari tahlili quyidagi asosiy tendentsiyalarni ko'rsatadi:

Paxta eksportining keskin qisqarishi: 2010 yilda viloyat eksportining 83.8% ini tashkil etgan paxta ulushi 2018 yilgacha bosqichma-bosqich kamayib, 2024 yilga kelib deyarli nolga teng (0.0%) darajaga tushgan. Bu o'zgarish viloyat eksport strategiyasidagi fundamental siljishni bildiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o'sishi: 2010-2017 yillar oralig'ida 1-12% oralig'ida tebranib turgan oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 2018-2019 yillarda 50% ga yaqin ko'rsatkichga erishgan. 2020-2023 yillarda bu ko'rsatkich 31-46% oralig'ida barqarorlik ko'rsatdi, ammo 2024 yilda keskin qisqarib 4.8% ga tushgan.

"Boshqa" kategoriyasining kengayishi: Eksport tarkibidagi "boshqa" toifasi 2010-2017 yillarda 5-36% oralig'ida bo'lgan, 2020-2024 yillarda esa 45-78% gacha ko'tarilgan. 2024 yilda bu ko'rsatkich 78.1% ga erishib, eksportning asosiy qismini tashkil etgan.

Xizmatlar eksportining o'zgaruvchan dinamikasi: Xizmatlar ulushi 2013 yilda 27.8% gacha oshgan, so'ngra 2014-2022 yillarda 5-14% oralig'ida tushib turgan, 2024 yilda yana 13.6% ga ko'tarilgan.

Eksport sifat indeksini hisoblash uchun xalqaro metodologiya (Hummels & Klenow, 2005; Hausmann & Rodrik va boshqalar) asosida sifat koeffitsientlari belgilab olindi. Koeffitsientlar mahsulotlarning qo'shilgan qiymati va texnologik murakkablik darajasiga asoslanib tanlandi:

Paxta va Energetika (q = 1): Xom ashyo xarakteriga ega bo'lib, minimal qayta ishlash va kam qo'shilgan qiymat darajasida

Oziq-ovqat, Kimyo va Boshqa mahsulotlar (q = 2): Qisman qayta ishlangan mahsulotlar sifatida o'rtacha sifat darajasi

Mashina va Xizmatlar (q = 3): Yuqori texnologik tarkib va ko'p qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar

Ushbu yondashuv eksport mahsulotlarining rivojlanish potentsiali va iqtisodiy samaradorligini hisobga olish imkonini beradi.

Barcha variantlarda eksport sifatining oshish tendentsiyasi kuzatildi, bu tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Asosiy formula:

$$EXPQ = \sum_{i=1}^{n} (S_i \times q_i)$$

Bu yerda:

$EXPQ$ - eksport sifat indeksi, S_i - i-kategoriya eksportining umumiy eksportdagi ulushi (foizda, 0-1 oralig'ida), q_i - i-kategoriya uchun sifat koeffitsienti, n - eksport kategoriyalari soni.

2024 yil uchun hisoblash namunasi:

Kategoriyalar va ularning sifat koeffitsientlari: Paxta ($q_1 = 1$), Oziq-ovqat ($q_2 = 2$), Kimyo ($q_3 = 2$), Energiya ($q_4 = 1$), Mashinasozlik ($q_5 = 3$), Xizmatlar ($q_6 = 3$), Boshqa ($q_7 = 2$), $EXPQ_{2024} = (S_1 \times q_1) + (S_2 \times q_2) + (S_3 \times q_3) + (S_4 \times q_4) + (S_5 \times q_5) + (S_6 \times q_6) + (S_7 \times q_7)$

$$EXPQ_{2024} = (0.000 \times 1) + (0.048 \times 2) + (0.012 \times 2) + (0.000 \times 1) + (0.021 \times 3) + (0.136 \times 3) + (0.781 \times 2)$$

$$EXPQ_{2024} = 0.000 + 0.096 + 0.024 + 0.000 + 0.063 + 0.408 + 1.562$$

$$EXPQ_{2024} = 2.153$$

Har bir eksport kategoriyasi uchun belgilangan sifat koeffitsientlari asosida, kategoriya ulushlarini mos koeffitsientlarga ko'paytirib, yig'indisi olinadi.

Natijalar Xorazm viloyati eksportida sezilarli diversifikatsiya jarayoni borligini ko'rsatadi. Paxta monokulturasidan qayta ishlangan mahsulotlar va xizmatlar eksportiga o'tish viloyat iqtisodiyotining modernizatsiya jarayonidagi muhim yutuq hisoblanadi.

Eksport sifat indeksining 2010 yildagi 1.189 dan 2024 yildagi 2.153 gacha o'sishi (81% o'sish) viloyat eksportining sifat jihatidan yaxshilanganini tasdiqlaydi. Bu o'zgarish xususan: Xom ashyo eksportidan qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga o'tish, Yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar sektorining rivojlanishi, Eksport tarkibining diversifikatsiyalanishi bilan izohlanadi.

Ammo 2024 yilda "boshqa" kategoriyasining 78.1% gacha ko'tarilishi eksport tarkibidagi aniqlikni oshirish zarurligini ko'rsatadi va keyingi tadqiqotlarda ushbu kategoriyaning tarkibini batafsil tahlil qilish lozimligini bildiradi.

2-jadval.

Eksport sifat indekslari (2010-2024 yillar)*

	Yil	Asosiy indeks (1-2-3)	Yuqori indeks (1-2-4)	Konservativ indeks (1-1.5-2.5)
1	2010	1.189	1.216	1.108
2	2011	1.192	1.232	1.116
3	2012	1.241	1.307	1.153
4	2013	1.625	1.903	1.452
5	2014	1.243	1.336	1.168
6	2015	1.329	1.410	1.205
7	2016	1.529	1.611	1.305
8	2017	1.648	1.729	1.364
9	2018	2.040	2.190	1.594
1	2019	2.034	2.149	1.570
1	2020	1.994	2.047	1.519
1	2021	2.056	2.139	1.566
1	2022	2.013	2.080	1.532
1	2023	2.050	2.114	1.556
1	2024	2.153	2.310	1.654

*Muallif ishlanmasi.

Asosiy indeks (1-2-3) dinamikasining tahlili quyidagi bosqichlarni ko'rsatadi:

Dastlabki bosqich (2010-2012): Indeks 1.19-1.24 oralig'ida nisbatan barqaror ko'rsatkichlarni namoyon etgan. Bu davrda paxta eksportining hukmronligi saqlanib turgan.

O'tish davri (2013-2017): 2013 yilda indeks 1.625 ga sakrab oshgan, bu xizmatlar eksportining 27.8% gacha ko'tarilishi bilan bog'liq. 2014 yilda 1.243 gacha pasaygan, so'ngra 2017 yilgacha bosqichma-bosqich oshib 1.648 ga yetgan.

Sifat sakrashi (2018-2024): 2018 yildan boshlab indeks 2.0 dan yuqori darajada barqarorlashgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2024 yilda 2.153 ga erishgan.

Turli sifat koeffitsientlari variantlarining tahlili quyidagi natijalarni berdi:

Yuqori sezgir variant (1-2-4): Mashina va xizmatlarга ko'proq og'irlik berilganda indeks qiymatlari yuqoriroq bo'ldi. 2024 yilda 2.310 ga erishib, asosiy variantdan 7.3% yuqori natija ko'rsatdi.

Konservativ variant (1-1.5-2.5): Barcha koeffitsientlarni yumshatish natijasida indeks qiymatlari pastroq bo'ldi, 2024 yilda 1.654 ni tashkil etdi. Bu variantda ham umumiy o'sish tendentsiyasi saqlanib qoldi.

1-rasm.

Xorazm viloyati eksport sifati indeksi (EXPQ), 2010-2024 yillar*



*Muallif ishlanmasi.

1-rasmda Xorazm viloyati eksport sifat indeksi (EXPQ)ning 2010–2024 yillardagi dinamikasi aks ettirilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, dastlabki davrda (2010–2012 yillar) indeks qiymati deyarli o‘zgarmay, 1,2 atrofida saqlangan. Bu davrda eksport tarkibida paxta tolasi ustuvor bo‘lgani va diversifikatsiya darajasi pastligi kuzatilgan.

2013-yildan boshlab xizmatlar ulushining oshishi hisobiga indeks keskin o‘sib, 1,6 darajasiga chiqdi. Shunga qaramay, 2014-yilda paxtaning yuqori ulushi tufayli indeks yana 1,24 ga pasaydi. 2015–2017 yillarda oziq-ovqat va boshqa qayta ishlangan mahsulotlarning ulushi ortishi natijasida EXPQ izchil o‘sib, 1,65 ga yetdi.

2018-yildan keyingi davrda eksport tarkibida sezilarli sifatlanish kuzatildi. Xizmatlar va qayta ishlangan mahsulotlar ulushining oshishi indeksni 2,0 darajasidan yuqoriga olib chiqdi. Ayniqsa, 2018-yilda 2,04 ga, 2021-yilda esa 2,06 ga yetgani eksport tarkibining xomashyo mahsulotlaridan yuqori qo‘shilgan qiymatli tovarlar va xizmatlarga siljishini ko‘rsatadi.

2024-yilda EXPQ o‘zining eng yuqori darajasi — 2,15 ga erishdi. Bu natija Xorazm viloyati eksportining tarkibiy o‘zgarishlar orqali sifatlanib borayotganini yaqqol ifodalaydi. Shu tariqa, indeks dinamikasi hudud eksportining diversifikatsiya va qo‘shilgan qiymat darajasi ortib borayotganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

2-rasm.

EXPQ-turli vaznlash (weighting) sxemalari bo’yicha, 2010-2024*



*Muallif ishlanmasi

2-rasmda EXPQ indeksining uch xil vaznlash sxemasi bo‘yicha (Asosiy: 1/2/3, Yuqori: 1/2/4, Konservativ: 1/1.5/2.5) dinamikasi taqqoslangan. Uchala chiziqning shakli bir-biriga juda yaqin: burilish nuqtalari va trend yo‘nalishi deyarli bir xil, bu esa natijalar robust ekanini ko‘rsatadi. Farq asosan darajalarda: yuqori texnologiyalarga ko‘proq og‘irlik berilgan holatda (1/2/4) indeks eng yuqori, konservativ sxemada (1/1.5/2.5) esa eng past darajada bo‘ladi; asosiy sxema (1/2/3) ikkisining o‘rtasida joylashadi.

2010–2012 yillarda barcha sxemalarda indeks past (≈1.2 atrofida) va barqaror — eksport tarkibida paxta (raw materials) ulushi yuqori. 2013 yilda xizmatlar ulushi oshishi tufayli uchala chiziq keskin ko‘tariladi; 2014 yilda paxta ulushining vaqtinchalik kuchayishi indeksni pasaytiradi. 2015–2017 oralig‘ida oziq-ovqat va “boshqa” qayta ishlangan tovarlar ulushi ortib, indekslar izchil o‘sadi. 2018 yildan boshlab tarkibda xizmatlar hamda qayta ishlangan mahsulotlar (processing/high-tech) roli kuchaygani uchun hamma sxemalarda EXPQ > 2.0 zonaga kiradi. Shu bosqichda sxemalar orasidagi tafovut bir oz kengayadi: yuqori sxema (1/2/4) xizmatlar/mashina ulushi o‘sgan yillarda sezilarli ustunlik ko‘rsatadi, konservativ chiziq esa yumshatilgan vaznlar

tufayli pastroq darajada qoladi.

Umuman olganda, sxema tanlovidan qat’i nazar, 2010–2024 yillarda Xorazm eksporti “sifatlanish” (raw → processed/high-tech & services) yo‘nalishida barqaror siljigan: 2018 yildan keyin indeksning yuqori darajada saqlanishi tarkibiy diversifikatsiya va qo‘shilgan qiymat (value-added)ning ortishini tasdiqlaydi. Metodologik nuqtai nazardan, uch sxemadagi uyg‘un trendlar robustlik dalili, daraja farqlari esa siyosiy talqinlarda (masalan, xizmatlar/mashinasozlikka ustuvorlik berganda) sezgirlikni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqot natijalari Xorazm viloyati eksport tarkibining 2010–2024 yillar davomida sezilarli darajada sifatlanib borganini ko‘rsatdi. Hisoblangan eksport sifat indeksi (EXPQ) 2010-yilda **1.19** darajada bo‘lib, paxta tolasi va boshqa xomashyo mahsulotlarining ustuvorligi sababli past ko‘rsatkichni qayd etdi. Keyingi yillarda indeks asta-sekin o‘sib bordi, ayniqsa 2013-yildan boshlab xizmatlar ulushi ortishi natijasida eksport sifatida ijobiy siljish kuzatildi.

2014-yilda paxta ulushining vaqtincha ko‘payishi indeksni pasaytirgan bo‘lsa-da, 2015–2017 yillarda oziq-ovqat va qayta ishlangan mahsulotlarning ortishi tufayli EXPQ yana barqaror o‘sish traektoriyasiga qaytdi. **2018-yildan keyin** esa eksport tarkibida chuqur sifatli o‘zgarishlar ro‘y berdi: xizmatlar, qayta ishlangan oziq-ovqat va kimyo mahsulotlari ulushining sezilarli ortishi EXPQ ko‘rsatkichini **2.0 dan yuqoriga** olib chiqdi. Bu davr viloyat iqtisodiyotida eksportning diversifikatsiya jarayonlari kuchayganini anglatadi.

2024-yilda indeks eng yuqori daraja — **2.15** ga yetdi. Bu natija shuni anglatadiki, Xorazm viloyati eksporti xomashyo bazasidan qisman chiqib, qayta ishlangan mahsulotlar va xizmatlarga tayanib borayotganini ko‘rsatmoqda. Boshqacha aytganda, viloyatning xalqaro bozorga chiqarayotgan mahsulotlari tarkibi sifat jihatidan ortib bormoqda.

Muhim jihati shundaki, turli vaznlash sxemalarida (1/2/3, 1/2/4, 1/1.5/2.5) olingan natijalar umumiy trend bo‘yicha bir-birini tasdiqlaydi. Bu esa metodologik yondashuvning **robust** ekanini anglatadi. Farq asosan darajalar bo‘yicha kuzatiladi: yuqori texnologiyali mahsulot va xizmatlarga katta og‘irlik berilganda indeks tezroq o‘sadi, konservativ yondashuvda esa o‘sish biroz sekinlashadi. Ammo barcha variantlarda Xorazm viloyati eksporti tarkibining sifatlanishi aniq ko‘rinadi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyati eksport siyosatida diversifikatsiyani chuqurlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va xizmatlar sektorini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shu orqali nafaqat eksport hajmi, balki uning **sifat ko‘rsatkichlari** ham yanada yaxshilanadi. Biroq, indeks hisoblashda sifat koeffitsientlari ekspert baholariga asoslanganligi sababli, kelgusida yanada aniqroq tasnif va mikrodarajadagi ma’lumotlar bilan boyitilgan tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa

Tadqiqotda Xorazm viloyati eksport tarkibining sifat darajasi 2010–2024 yillar kesimida tahlil qilinib, **Export Quality Index (EXPQ)** hisoblab chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 2010-yilda indeksning qiymati **1.19** darajasida bo‘lib, eksportning asosiy qismi paxta tolasi kabi xomashyo mahsulotlariga tayanib kelgan. Bu davrda eksportning diversifikatsiyasi past, qo‘shilgan qiymat darajasi esa cheklangan edi.

Keyingi yillarda, ayniqsa **2013-yildan boshlab**, xizmatlar ulushi va qayta ishlangan mahsulotlarning ko‘payishi hisobiga eksport sifati izchil o‘sdi. **2018-yildan boshlab** esa EXPQ **2.0 dan yuqoriga** chiqib, eksport tarkibida sezilarli sifatlanish kuzatildi. 2024-yilda indeks eng yuqori ko‘rsatkich – **2.15** ga yetib, Xorazm viloyati eksportining tarkibiy o‘zgarishlar orqali xomashyo bazasidan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar va xizmatlarga siljishini tasdiqladi.

Turli vaznlash sxemalari asosida olingan natijalar ham umumiy trendni tasdiqladi, bu metodologiyaning barqarorligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, tadqiqotning asosiy xulosasi shuki, Xorazm viloyati eksporti so‘nggi o‘n yillikda **sifatli diversifikatsiya** bosqichiga o‘tib, xalqaro bozorlarda yuqori raqobatbardoshlikka erishish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Amaliy jihatdan, eksportni sifatlash jarayonini yanada chuqurlashtirish uchun quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin: qayta ishlash sanoatini kengaytirish va qo‘llab-quvvatlash, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, xizmatlar eksportini rag‘batlantirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish.

Shunday qilib, EXPQ tahlili Xorazm viloyati eksportining transformatsiya jarayonlarini aniq ko‘rsatib, hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Libânio, G., Moro, S., & Londe, A. C. (2016). Export quality and economic growth in the 2000s: new empirical evidence. *Research Papers in Economics*. https://EconPapers.repec.org/RePEc:cdp:texdis:td543

2. Maltcev, A. (2024). *Assessment of Value Added in Foreign Trade: Modern Approaches*. https://doi.org/10.52342/2587-7666vte_2024_1_48_64

3. Borin, A., & Lamieri, M. (2007). Estimating Product Quality in International Trade. *Research Papers in Economics*. https://mpra.ub.uni-muenchen.de/14678/

4. Vandenbussche, H. (2014). Quality in Exports. *Research Papers in Economics*. https://EconPapers.repec.org/RePEc:euf:ecopap:0528

5. Hiratuka, C., & Cunha, S. F. e. (2011). Qualidade e diferenciação das exportações brasileiras e chinesas: evolução recente no mercado mundial e na Aladi. *Research Papers in Economics*. http://repositorio.ipea.gov.br/bitstream/11058/1498/1/td_1622.pdf

6. Fujii-Gambero, G., & Morales-López, R. (2024). Calidad de las exportaciones manufactureras de México en el contexto de fragmentación internacional de la producción. *El Trimestre Económico*. https://doi.org/10.20430/ete.v91i361.1791

7. Değer, O. (2020). İhracat ürün kalitesinin belirleyicileri: gelişmiş ve gelişmekte olan ülkeler üzerine panel veri analizi. *The Journal of International Social Research*, *13*, 873–884. https://doi.org/10.17719/JISR.11087

8. Borin, A., & Lamieri, M. (2007). Estimating Product Quality in International Trade. *Research Papers in Economics*. https://mpra.ub.uni-muenchen.de/14678/

9. Hidalgo, C. A., Klinger, B., Barabási, A.-L., & Hausmann, R. (2007). The Product Space Conditions the Development of Nations. *Science*, *317*(5837), 482–487. https://doi.org/10.1126/SCIENCE.1144581

10. Desmarchelier, B., Regis, P. J., & Salike, N. (2018). Product space and the development of nations: A model of product diversification. *Journal of Economic Behavior and Organization*, *145*, 34–51. https://doi.org/10.1016/J.JEBO.2017.10.020

11. Henn, C., Papageorgiou, C., & Spatafora, N. (2013). Export Quality in Developing Countries. *IMF Working Papers*, *13*(108). https://doi.org/10.5089/9781484351635.001

12. Li, S., Li, X., & Lang, W. (2019). China’s Export Evolution in the Dynamic Global Product Space from 2000 to 2011. *Current Science*, *117*(3), 470–479. https://doi.org/10.18520/CS/V117/I3/470-479

13. Nataraj, G., & Tandon, A. (2011). *China’s Changing Export Structure: A Factor-Based Analysis*. https://doi.org/10.2139/ssrn.2705291

14. *Upstreamness, exports and international competitiveness: lessons from the case of China*. (2023). https://doi.org/10.1590/0103-6351/7252

15. He, C., & Zhu, S. (2018). Evolution of Export Product Space in China: Technological Relatedness, National/Local Governance and Regional Industrial Diversification. *Tijdschrift Voor Economische En Sociale Geografie*, *109*(4), 575–593. https://doi.org/10.1111/TESG.12309

16. Chen, C., Nimesh, S., & Willem, T. (2020). *East Asian Flying Geese Paradigm and Product Space*. *38*, 24–43.https://waseda.repo.nii.ac.jp/?action=repository_action_common_download&item_id=48371&item_no=1&attribute_id=162&file_no=1

17. Ferrarini, B., Scaramozzino, P., & Scaramozzino, P. (2015). The Product Space Revisited: China’s Trade Profile. *The World Economy*, *38*(9), 1368–1386. https://doi.org/10.1111/TWEC.12246

18. Chang, T.-C., Lyu, Y., Chang, T., Ranjbar, O., & Saboori, B. (2024). *Diversifying the export basket of creative products and accelerating economic growth*. https://doi.org/10.1080/09638199.2024.2323047

19. Herzer, D., & Nowak-Lehmann, D. F. (2004). Export Diversification, Externalities and Growth. *Research Papers in Economics*. https://ideas.repec.org/p/got/iaidps/099.html

20. Basile, R., Parteka, A., & Pittiglio, R. (2018). Export diversification and economic development: A dynamic spatial data analysis. *Review of International Economics*, *26*(3), 634–650. https://doi.org/10.1111/ROIE.12316

21. Gnangnon, S. K. (2024). Export product quality and inclusivity in developing countries. *Economics of Transition and Institutional Change*. https://doi.org/10.1111/ecot.12406

22. Natanael, Y. (2024). Is Less Commodity Dependence Better for Economic Equality, Economic Growth, and Human Development? *Global Journal of Emerging Market Economies*. https://doi.org/10.1177/09749101241300637

23. Sultanova, G. (2024). *Trends in development and diversification of exports of the republic of uzbekistan*. https://doi.org/10.60078/2992-877x-2024-vol2-iss10-pp232-249

24. Hausmann, R., Hwang, J. & Rodrik, D. What you export matters. *J Econ Growth* **12**, 1–25 (2007). https://doi.org/10.1007/s10887-006-9009-4

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH, TANNARXNI KALKULYATSIYA QILISH VA TAHLIL ETISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBA

Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich
moliyaviy tahlil kafedrasi dotsenti v.v.b.
PhD, mustaqil izlanuvchi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0006-3130-025;
E-mail: i.jumaniyazov@tsue.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini yuritish, mahsulot tannarxini aniqlash va xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishning xorijiy tajribasi tadqiq etilgan. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Turkiya va Xitoy amaliyotida qo‘llaniladigan zamonaviy xarajatlarni boshqarish usullari, jumladan, Activity-Based Costing (ABC), Target Costing, Kaizen Costing, Lean Accounting hamda Standard Costing yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur usullarni O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarida qo‘llash imkoniyatlari, ularni ERP, IoT va boshqa raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash masalalari asoslangan. Tadqiqot natijasida xarajatlarni texnologik bosqichlar, mahsulot turlari va xarajat omillari kesimida shakllantirish hamda boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *to‘qimachilik sanoati, xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxi, iqtisodiy tahlil, ABC, Target Costing, Kaizen Costing, Lean Accounting, Standard Costing, ERP, IoT.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЁТА ЗАТРАТ, КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ И АНАЛИЗА СЕБЕСТОИМОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Жуманиязов Искандар Баходирович
исполняющий обязанности PhD,
независимый исследователь
доцента кафедры финансового анализа
Ташкентского государственного
экономического университета
ORCID: 0009-0006-3130-025
E-mail: i.jumaniyazov@tsue.uz

Аннотация. *В статье исследован зарубежный опыт организации учета затрат, определения себестоимости продукции и анализа хозяйственной деятельности предприятий текстильной промышленности. Проанализированы современные методы управления затратами, применяемые в США, Японии, Германии, Турции и Китае, включая Activity-Based Costing (ABC), Target Costing, Kaizen Costing, Lean Accounting и Standard Costing. Особое внимание уделено возможностям адаптации зарубежных подходов к условиям текстильных предприятий Узбекистана, а также их интеграции с ERP, IoT и другими цифровыми технологиями. По результатам исследования разработаны предложения по формированию информации о затратах в разрезе технологических стадий, видов продукции и факторов затрат, а также повышению информационного обеспечения управленческих решений.*

Ключевые слова: *текстильная промышленность, учет затрат, себестоимость продукции, экономический анализ, ABC, Target Costing, Kaizen Costing, Lean Accounting, Standard Costing, ERP, IoT.*

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN COST ACCOUNTING, COST CALCULATION AND COST ANALYSIS IN TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES

Jumaniyazov Iskandar Bakhodirovich
Acting Associate Professor
Department of Financial Analysis
PhD, Independent Researcher,
Tashkent State University of Economics
ORCID:0009-0006-3130-025;
E-mail: i.jumaniyazov@tsue.uz

Abstract. *This article examines international practices in cost accounting, product costing, and economic analysis in textile manufacturing enterprises. It analyzes modern cost management approaches applied in the United States, Japan, Germany, Turkey, and China, including Activity-Based Costing (ABC), Target Costing, Kaizen Costing, Lean Accounting, and Standard Costing. Particular attention is paid to the possibilities of adapting these approaches to textile enterprises in Uzbekistan and integrating cost management systems with ERP, IoT, and other digital technologies. Based on the research findings, proposals are developed for organizing cost information by technological stages, product types, and cost drivers, as well as for improving the information support of managerial decision-making.*

Keywords: *textile industry, cost accounting, product costing, economic analysis, Activity-Based Costing, Target Costing, Kaizen Costing, Lean Accounting, Standard Costing, ERP, IoT.*

Kirish

To‘qimachilik sanoati yuqori moddiy va mehnat sig‘imi, energiya sarfi hamda eksport salohiyati bilan ajralib turadi. Mahsulot tannarxiga xomashyo, energiya, logistika, mehnat unumdorligi va texnologik jarayonlarning holati sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli xalqaro raqobat kuchayib borayotgan sharoitda xarajatlarni samarali boshqarish korxonaning moliyaviy natijalari va raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda Activity-Based Costing (ABC), Lean Accounting, Kaizen Costing, Standard Costing va Target Costing kabi usullardan foydalanish mahsulot tannarxini aniqroq hisoblash, bilvosita xarajatlarni asosli taqsimlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. O‘zbekistonda esa ko‘plab korxonalarda xarajatlar hisobining an’anaviy usullarga tayanishi, bilvosita xarajatlarni taqsimlashdagi kamchiliklar va boshqaruv hisobi axborotlaridan yetarli foydalanilmasligi dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi AQSh, Germaniya, Yaponiya, Turkiya va Xitoy tajribasini o‘rganish hamda mazkur yondashuvlarni O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida qo‘llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Xarajatlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari R. Cooper va R.S. Kaplan tomonidan ishlab chiqilgan “Activity-Based Costing konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, unda bilvosita xarajatlarni faoliyat turlari asosida taqsimlash orqali mahsulot tannarxini aniqroq shakllantirish nazarda tutiladi” [1]. Kaplan va Anderson esa Time-Driven “ABC orqali xarajatlarni vaqt va resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari asosida hisoblash imkoniyatlarini kengaytirgan” [2].

To‘qimachilik sanoatiga oid tadqiqotlarda Al-Obaidi va Al-Hailly “ABC usulining an’anaviy yondashuvga nisbatan bilvosita xarajatlarni taqsimlashdagi imkoniyatlarini asoslagan” [3]. Ekinci va Şener esa “Turkiya to‘qimachilik korxonasi misolida Time-Driven ABC usulining amaliy samaradorligini tadqiq qilgan” [4]. Y. Monden va K. Hamada “Target Costing hamda Kaizen Costingning xarajatlarni mahsulotni loyihalash bosqichidan boshlab boshqarishdagi ahamiyatini ko‘rsatgan” [5].

W.-H. Tsai va hammualliflarining tadqiqotida “Industry 4.0, ABC va Theory of Constraints yondashuvlarini integratsiyalash orqali to‘qimachilik ishlab chiqarishida xarajatlar, resurslar va barqarorlikni boshqarish masalalari ko‘rib chiqilgan” [6]. O‘zbekistonda A.N. Maxmudov tadqiqotlari esa “to‘qimachilik va trikotaj korxonalarida klaster tizimi hamda boshqaruv hisobini takomillashtirishga qaratilgan” [7]. Shu bilan birga, xarajatlarni “xarajat turi – texnologik bosqich – mahsulot turi” kesimida kompleks hisobga olish va tahlil qilish masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, statistik va monografik tahlil, induksiya va deduksiya, SWOT hamda grafik tahlil usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini MHXS, boshqaruv hisobi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va xorijiy ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqotning konseptual ketma-ketligi quyidagicha shakllantirildi: **Xarajatlarni aniqlash → tasniflash → tannarxni hisoblash → tahlil qilish → xorijiy tajriba bilan taqqoslash → takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.**

To‘qimachilik sanoatida tannarxning asosiy elementlari moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish ustama xarajatlaridan iborat. Ularning tarkibi mahsulot turi va texnologik jarayonga qarab farqlanadi.

Mahsulot tannarxini aniqlashning zamonaviy usullari. ***Job Order Costing*** individual buyurtmalar asosida ishlab chiqarishda har bir buyurtma xarajatlarini alohida hisoblash imkonini beradi. ***Process Costing*** esa uzluksiz ishlab chiqarish uchun mos bo‘lib, yigiruv, to‘quv, bo‘yash, pardozlash va tikuv bosqichlari bo‘yicha xarajatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Standard Costing rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlarni taqqoslab, og‘ishlarni aniqlashga yordam beradi. ***ABC*** bilvosita xarajatlarni faoliyat turlari orqali taqsimlash asosida mahsulot tannarxining aniqligini oshiradi. ***Target Costing*** bozor narxi va rejalashtirilgan foydadan kelib chiqib tannarxni belgilaydi, ***Kaizen Costing*** esa ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratiladi. ***Lean Accounting*** qo‘shimcha qiymat yaratmaydigan operatsiyalarni qisqartirish va resurslardan samarali foydalanishni ko‘zda tutadi.

Xorijiy tajriba tahlili rivojlangan mamlakatlarda an’anaviy tannarx hisobidan boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi zamonaviy tizimlarga o‘tish jarayoni kuchayganini ko‘rsatadi. Ushbu usullarni alohida emas, balki o‘zaro uyg‘unlashtirib qo‘llash xarajatlarni nazorat qilish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

To‘qimachilik sanoatida xarajatlarni boshqarish bo‘yicha xorijiy tajribalar, ya’ni rivojlangan davlatlar, ularda foydalanilayotgan asosiy usullar, usullarni qo‘llash maqsadi va kutilayotgan natijalar o‘rganilganda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (1-jadval).

1-jadval.

To‘qimachilik sanoatida xarajatlarni boshqarish bo‘yicha xorijiy tajribalar*

Davlat	Asosiy usul	Qo‘llash maqsadi	Kutilayotgan natija
AQSh	Activity-Based Costing (ABC)	Bilvosita xarajatlarni aniq taqsimlash	Mahsulot tannarxining aniqligi oshadi
Yaponiya	Target Costing, Kaizen Costing	Xarajatlarni loyihalash bosqichidayoq nazorat qilish	Tannarxning uzluksiz pasayishi
Germaniya	Standard Costing	Rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlarni taqqoslash	Xarajatlar og‘ishini tez aniqlash
Turkiya	Time-Driven ABC va Target Costing	Eksportbop mahsulot tannarxini optimallashtirish	Raqobatbardoshlikning oshishi
Xitoy	Lean Accounting va Industry 4.0 yechimlari	Resurslardan samarali foydalanish	Ishlab chiqarish samaradorligining ortishi

*Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan [9-13].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur usullar bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, ularni integratsiyalashgan holda qo‘llash korxonalarning moliyaviy natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Cooper va Kaplan tadqiqotlarida “ABC bilvosita xarajatlarni faoliyatlar bo‘yicha aniqroq taqsimlash vositasi sifatida tavsiflangan” [1]. Turkiyaning Denizli hududidagi to‘qimachilik korxonasi misolida esa “TDABC (Time-Driven Activity-Based Costing) - vaqtga asoslangan faoliyatlar bo‘yicha xarajatlarni hisoblash usuli) foydalanilmayotgan quvvat xarajatlarini hisobga olish orqali xarajatlar to‘g‘risida batafsilroq axborot shakllantirgan” [4].

Yaponiyaning Target Costing va Kaizen Costing tajribasi “xarajatlarni mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin emas, balki loyihalash bosqichidan boshlab boshqarish va ishlab chiqarish davomida uzluksiz kamaytirishga asoslanadi” [5]. Turkiya tikuvchilik va denim korxonalarida o‘tkazilgan tadqiqotlar “Target Costingning ortiqcha xarajatlarni dastlabki bosqichda aniqlash imkoniyatini ko‘rsatgan” [4].

Tayvan va Xitoy tajribasida IoT, sun’iy intellekt, sensorlar, ERP va real vaqt monitoringining ABC bilan integratsiyasi resurs sarfi, chiqindilar va ishlab chiqarish tannarxini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida an’anaviy xarajatlar hisobi hali ham muhim o‘rin tutadi. Bilvosita xarajatlarning yagona taqsimlash bazasi orqali mahsulotlarga yuklanishi tannarx ko‘rsatkichlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Boshqaruv va moliyaviy hisobning yetarli darajada integratsiyalashmaganligi, ERP tizimlaridan foydalanishning cheklanganligi hamda energiya, suv va logistika xarajatlarining ortishi mavjud muammolar qatoriga kiradi.

2024-yilda O‘zbekistonda ***89,5 trln so‘mlik*** to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati ***11,1 %***, sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 10,1 %ni tashkil etgan. Shu yili to‘qimachilik mahsulotlari eksporti ***2,867 mlrd AQSh dollari***ga yetib, jami eksportning 10,6 %ini tashkil qilgan. Eksport tarkibida ip-kalava 43,2 %, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari 39,2 % ulushga ega bo‘lgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar eksportga yo‘naltirilgan korxonalarda mahsulot tannarxini aniq shakllantirish, bilvosita xarajatlarni asosli taqsimlash va resurslardan samarali foydalanish zarurligini kuchaytiradi. 2024-yil yanvar–iyun oylarida 55 ta davlatga 1,5 mlrd dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksport qilinganligi ham ushbu masalaning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy xarajatlar boshqaruvi faqat xarajatlarni qayd etish bilan cheklanmay, ularni rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va optimallashtirishni ham qamrab oladi. AQShda ABC, Yaponiyada Target Costing va Kaizen Costing, Xitoy va Germaniyada esa raqamlashtirish, ERP hamda Industry 4.0 yechimlarining boshqaruv hisobi bilan uyg‘unlashuvi muhim yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston korxonalarida mavjud muammolarni kamaytirish uchun xarajatlarni texnologik jarayonlar kesimida hisobga olish, boshqaruv va moliyaviy hisobni integratsiyalash hamda raqamli monitoring vositalarini kengaytirish talab etiladi.

Shu asosda quyidagi yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish taklif etiladi:

1. ***ABC tizimi*** – yigiruv, to‘quv, bo‘yash, pardozlash, tikuv, sifat nazorati va qadoqlash faoliyatlari bo‘yicha bilvosita xarajatlarni taqsimlash;
2. ***Target Costing*** – eksport mahsulotlari tannarxini bozor narxi va maqsadli foyda asosida rejalashtirish;
3. ***Kaizen Costing*** – ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni muntazam kamaytirish;
4. ***Lean Accounting va ERP integratsiyasi*** – qo‘shimcha qiymat yaratmaydigan operatsiyalarni qisqartirish va xarajatlarni tezkor monitoring qilish.

Tadqiqot asosida boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobni yagona raqamli platformaga integratsiyalash, ABC asosida bilvosita xarajatlarni taqsimlash, eksport mahsulotlarida Target Costingni qo‘llash, Kaizen Costing tamoyillarini joriy etish, ERP orqali xarajatlarni monitoring

qilish hamda energiya va resurslar samaradorligini baholovchi KPI tizimini shakllantirish taklif etiladi.

Taklif etilayotgan boshqaruv hisobi modelining kutilayotgan natijalari quyidagilardan iborat (2-jadval).

2-jadval.

Taklif etilayotgan boshqaruv hisobi modelining kutilayotgan natijalari*

Taklif	Kutilayotgan iqtisodiy samara
Activity-Based Costing	Bilvosita xarajatlarni aniq taqsimlash, tannarx aniqligini oshirish
Target Costing	Bozor talabiga mos tannarx va eksport raqobatbardoshligini kuchaytirish
Kaizen Costing	Xarajatlarni uzluksiz kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish
Lean Accounting	Qo‘shimcha qiymat yaratmaydigan operatsiyalarni qisqartirish
ERP integratsiyasi	Xarajatlarni real vaqt rejimida monitoring qilish va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish

*Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan [9, 14-18].

Xulosa

Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoatida tannarxni aniq hisoblash va xarajatlarni samarali boshqarish korxonalarning moliyaviy barqarorligi hamda raqobatbardoshligi uchun muhim ekanini ko‘rsatdi. AQSh, Germaniya, Yaponiya, Turkiya va Xitoy tajribasida ABC, Target Costing, Kaizen Costing, Lean Accounting va Standard Costing kabi usullar xarajatlarni boshqarishning turli bosqichlarini qamrab oladi.

O‘zbekiston korxonalarida an’anaviy xarajatlar hisobining ustunligi, bilvosita xarajatlarni taqsimlashdagi kamchiliklar va boshqaruv hisobining raqamli tizimlar bilan yetarli integratsiyalashmaganligi metodologik takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. 2024-yilda to‘qimachilik eksportining 2,867 mlrd dollarga yetishi esa mazkur yo‘nalishning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu bois O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida ABCni ERP platformalari bilan integratsiyalash, Target Costingni eksport mahsulotlarini loyihalash bosqichida qo‘llash, Kaizen Costing orqali uzluksiz takomillashtirish va Lean Accounting elementlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuvlar tannarxni boshqarish, resurslardan foydalanish samaradorligi va eksport raqobatbardoshligini oshirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tsai W.-H., Chen H.-C., Chang S.-C., Chan K.-C. *Revolutionizing Textile Manufacturing: Sustainable and Profitable Production by Integrating Industry 4.0, Activity-Based Costing, and the Theory of Constraints*. Processes, 2024, 12(11), 2311. https://www.mdpi.com/2227-9717/12/11/2311?utm_source.

2. Cooper R., Kaplan R. S. *Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance*. Boston: Harvard Business School Press, 1998. - 357 p.

3. Kaplan R. S., Anderson S. R. Time-Driven Activity-Based Costing // *Harvard Business Review*. - 2004. - Vol. 82. - No. 11. - P. 131-138.

4. Al-Obaidi, R. K. N., & Al-Hailly, H. D. J. K. (2019). *The Allocation of Indirect Industrial Costs under the Traditional Methods and the Cost Method Based on the Activities (ABC): Comparative Study Design System in Public Company for Textile Industries/Hilla*. *Journal of University of Babylon for Pure and Applied Sciences*, *27*(1), 249–276. https://doi.org/10.29196/jubpas.v27i1.2120.

5. Ekinci M. A., Şener R. Zaman Esaslı Faaliyet Tabanlı Maliyet Yönteminin Bir Tekstil İşletmesinde Uygulanması // *Mehmet Akif Ersoy Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*. - 2020. - Cilt 12, Sayı 32. - B. 113–133. DOI: 10.20875/makusobed.788030.

6. Monden, Y., & Hamada, K. Target Costing and Kaizen Costing in Japanese Automobile Companies. *Journal of Management Accounting Research, 3*, 16–34., Monden, Y. (1995). *Cost Reduction Systems: Target Costing and Kaizen Costing*. Portland, OR: Productivity Press. 1991. p. 341-365.

7. Makhmudov, A. N. *Improvement of Cluster System and Cost Accounting in Textile and Knitting Enterprises*. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 2025, *6*(2), 489–497. https://doi.org/10.51699/cajitmf.v6i2.880.

8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *2024-yil yanvar–dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi to‘g‘risida*. 2025. https://stat.uz.

9. Lee, J.Y., Monden, Y. An international comparison of manufacturing-friendly cost management systems // *The International Journal of Accounting*. – 1996. – Vol. 31, Issue 2. – P. 197–212. DOI: 10.1016/S0020-7063(96)90004-7.

10. Hatai, R., Suzuki, A., Matsuo, T., Kato, Y. Interactions between Kaizen Costing and Target Costing: A Case Study of Three Manufacturing Companies // *The Journal of Cost Accounting Research*. – 2013. – Vol. 37, No. 1. – P. 40–52. DOI: 10.20747/jcar.37.1_40.

11. Ewert, R., Wagenhofer, A. Cost accounting in Germany // *Management Accounting Research*. – 1997. – Vol. 8, Issue 3. – P. 261–276. DOI: 10.1006/mare.1996.0047.

12. Şener, R., Ekinci, M.A. Zaman Esaslı Faaliyet Tabanlı Maliyet Yönteminin Bir Tekstil İşletmesinde Uygulanması // *Mehmet Akif Ersoy Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*. – 2020. – No. 32. – P. 113–133. DOI: 10.20875/makusobed.788030.

13. Yang, K., Wu, Q., Cormican, K. Lean accounting practices in Chinese listed companies: a Contingency Theory perspective // *Production Planning & Control*. – 2026. DOI: 10.1080/09537287.2026.2641024.

14. Gunasekaran, A., Sarhadi, M. Implementation of activity-based costing in manufacturing // *International Journal of Production Economics*. – 1998. – Vol. 56–57. – P. 231–242. DOI: 10.1016/S0925-5273(97)00139-4.

15. Filomena, T.P., Neto, F.J.K., Duffey, M.R. Target costing operationalization during product development: Model and application // *International Journal of Production Economics*. – 2009. – Vol. 118, No. 2. – P. 398–409. DOI: 10.1016/j.ijpe.2008.12.007.

16. Ittner, C.D., Lanen, W.N., Larcker, D.F. The Association Between Activity-Based Costing and Manufacturing Performance // *Journal of Accounting Research*. – 2002. – Vol. 40, No. 3. – P. 711–726. DOI: 10.1111/1475-679X.00068.

17. Lea, B.R. Management accounting in ERP integrated MRP and TOC environments // *Industrial Management & Data Systems*. – 2007. – Vol. 107, No. 8. – P. 1188–1211. DOI: 10.1108/02635570710822813.

18. Maiga, A.S., Nilsson, A., Jacobs, F.A. Assessing the interaction effect of cost control systems and information technology integration on manufacturing plant financial performance // *The British Accounting Review*. – 2014. – Vol. 46, No. 1. – P. 77–90. DOI: 10.1016/j.bar.2013.10.001.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI MOLIYAVIY RAQOBATBARDOSHLIGINI PROGNOZLASHNING EKONOMETRIK ASOSLARI

Vaisov Dilshod Ibodullayevich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent (yoki katta ilmiy xodim)
Mamun universiteti, Xorazm, O‘zbekiston
ORCID: 0009-0001-6293-1498
E-mail: vaisov_dilshod@mamunedu.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini prognozlashning ekonometrik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda moliyaviy raqobatbardoshlikni alohida moliyaviy ko‘rsatkichlar yig‘indisi sifatida emas, balki moliyaviy, investitsion, innovatsion, raqamli, bozor va institutsional omillar ta’sirida shakllanuvchi integral ko‘rsatkich sifatida prognozlash yondashuvi taklif etilgan. Muallif tomonidan avval ishlab chiqilgan kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshlik integral indeksini (KBMRI) prognozlashning panel ekonometrik modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot metodologiyasi O‘zbekiston hududlari va Xorazm viloyati tumanlari kesimida 2018–2025 yillar uchun shakllantirilishi rejalashtirilgan panel ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan. Modelga investitsiyalar, rentabellik, aktivlar, pul oqimlari, innovatsion mahsulotlar, R&D xarajatlari, raqamlashtirish, eksport, bozor ulushi, kredit resurslaridan foydalanish va institutsional qo‘llab-quvvatlash kabi determinantlar kiritilgan. Fixed Effects va Random Effects modellarini qo‘llash, Hausman testi orqali model spetsifikatsiyasini tanlash hamda diagnostik testlar asosida ekonometrik barqarorlikni tekshirish taklif etilgan. Shuningdek, ekonometrik prognoz natijalarini optimistik, bazaviy va pessimistik ssenariylar bilan bog‘lovchi Raqobatbardoshlik ssenariyalari matritsasi (CSM) hamda Raqobatbardoshlikni integral ekonometrik boshqarish modeli (IECMM) konsepsiyalari asoslangan. Tadqiqot natijalari kichik biznesning moliyaviy raqobatbardoshligini oldindan baholash, risklarni aniqlash va strategik boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beruvchi kompleks prognozlash tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, moliyaviy raqobatbardoshlik, KBMRI, ekonometrik prognozlash, panel ma’lumotlar, Fixed Effects, Random Effects, investitsiya, innovatsiya, raqamlashtirish, ssenariyli prognozlash, Xorazm.*

ECONOMETRIC FOUNDATIONS FOR FORECASTING THE FINANCIAL COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESS ENTITIES

Vaisov Dilshod Ibodullayevich
PhD in Economics, Associate Professor (or Senior Researcher)
Mamun University, Khorezm, Uzbekistan
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-6293-1498
E-mail: vaisov_dilshod@mamunedu.uz

Abstract. *This paper investigates the econometric foundations for forecasting the financial competitiveness of small business entities. Rather than treating financial competitiveness as a mere aggregation of isolated financial ratios, the study proposes a comprehensive forecasting approach based on an integrated composite index shaped by financial, investment, innovation, digital, market, and institutional factors. Expanding upon the author's prior methodological framework, a panel data econometric model is developed to forecast the Integrated Index of Small Business Financial Competitiveness (KBMRI). The research methodology relies on balanced panel data across the regions of Uzbekistan and districts of the Khorezm region covering the 2018–2025 period. The model incorporates critical determinants such as profitability, asset structures, cash flows, innovative product output, R&D expenditures, digitalization metrics, export*

capacity, market share, access to credit resources, and institutional support. The paper outlines the application of Fixed Effects and Random Effects models, the use of the Hausman test for model specification, and diagnostic tests to ensure econometric robustness against heteroskedasticity and autocorrelation. Furthermore, the concept is enriched by the Competitiveness Scenario Matrix (CSM), which links econometric forecasting results with optimistic, baseline, and pessimistic scenarios, and the Integrated Econometric Competitiveness Management Model (IECMM). The findings contribute to the establishment of a complex forecasting framework that enables proactive assessment of small business financial competitiveness, risk identification, and scientifically grounded strategic management decisions.

Keywords: *small business, financial competitiveness, KBMRI, econometric forecasting, panel data, Fixed Effects, Random Effects, investment, innovation, digitalization, scenario forecasting, Khorezm.*

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА

Ваисов Дилшод Ибодуллаевич
доктор философии по экономическим наукам (PhD)
Университет Мамуна, Хорезм, Узбекистан
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-6293-1498
E-mail: vaisov_dilshod@mamunedu.uz

Аннотация. *В данной статье исследуются эконометрические основы прогнозирования финансовой конкурентоспособности субъектов малого бизнеса. В исследовании предложен подход к прогнозированию финансовой конкурентоспособности не как совокупности отдельных финансовых показателей, а как интегрального индекса, формирующегося под влиянием финансовых, инвестиционных, инновационных, цифровых, рыночных и институциональных факторов. Разработана панельная эконометрическая модель прогнозирования интегрального индекса финансовой конкурентоспособности субъектов малого бизнеса (KBMRI), основанная на разработанных ранее автором методологических положениях. Методология исследования базируется на использовании панельных данных в разрезе регионов Узбекистана и районов Хорезмской области за период 2018–2025 гг. В модель включены такие детерминанты, как рентабельность, активы, денежные потоки, инновационная продукция, затраты на НИОКР, цифровизация, экспорт, доля рынка, доступ к кредитным ресурсам и институциональная поддержка. Предложено применение моделей с фиксированными (Fixed Effects) и случайными эффектами (Random Effects), выбор спецификации модели с помощью теста Хаусмана, а также проверка эконометрической стабильности на основе диагностических тестов. Также обоснованы концепции Матрицы сценариев конкурентоспособности (CSM), связывающей результаты эконометрического прогноза с оптимистическим, базовым и пессимистическим сценариями, и Интегральной эконометрической модели управления конкурентоспособностью (IECMM). Результаты исследования служат формированию комплексной системы прогнозирования, позволяющей осуществлять предварительную оценку финансовой конкурентоспособности малого бизнеса, выявлять риски и научно обосновывать стратегические управленческие решения.*

Ключевые слова: *малый бизнес, финансовая конкурентоспособность, KBMRI, эконометрическое прогнозирование, панельные данные, Fixed Effects, Random Effects, инвестиции, инновации, цифровизация, сценарное прогнозирование, Хорезм.*

Kirish.

Kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi ularning moliyaviy resurslardan samarali foydalanishi, investitsion faolligi, innovatsion imkoniyatlari, bozor pozitsiyasi va tashqi muhitdagi

o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatiga bevosita bog‘liq. Shu sababli, moliyaviy raqobatbardoshlikni faqat joriy moliyaviy natijalar orqali emas, balki uning kelajakdagi dinamikasini baholash asosida boshqarishni tashkillashtirish lozim. IHTT ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlarda so‘nggi yillarda inflyatsiya, foiz stavkalarining oshishi va kredit shartlarining qat’iylashuvi kichik va o‘rta biznesning moliyalashtirish imkoniyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan [1]. Bu holat ilmiy-tadqiqotchilar va Hukumat vakillari uchun kichik biznes subyektlari moliyaviy ko‘rsatkichlarini prognozlashning strategik ahamiyatini oshiradi. Bunda moliyaviy prognozlash natijalari iqtisodiy qarorlarni kelajakdagi ehtimoliy holatlarga moslashtirish imkonini yaratadi. An’anaviy yondashuvlarda sotuv hajmi, foyda, pul oqimi yoki investitsiyalar alohida tartibda prognoz qilinadi, biroq kichik biznesning moliyaviy raqobatbardoshligi ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi [17]. Shu sababli integral indeksni prognozlash alohida ko‘rsatkichlarni prognozlashga nisbatan boshqaruv uchun kengroq axborot bazasini yaratadi.

Ekonometrik tadqiqotlarda panel ma’lumotlardan foydalanish alohida birliklar o‘rtasidagi farqlarni va vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarni birgalikda hisobga olish imkonini beradi. Zamonaviy panel ekonometrikasi Fixed Effects, Random Effects, dynamic panel va GMM kabi usullarni qo‘llash imkonini beradi [2; 3]. Panel ma’lumotlarning muhim afzalligi korxona yoki hududga xos, bevosita kuzatilmaydigan heterogenlikni hisobga olish imkoniyatidir [4]. Shu jihatdan O‘zbekiston hududlari yoki Xorazm viloyati tumanlari bo‘yicha ma’lumotlar kichik biznes moliyaviy raqobatbardoshligi determinantlarini aniqlash uchun mos empirik baza bo‘lishi mumkin. Mazkur tadqiqotimizning alohida muhim jihati shundan iboratki, muallifning avvalgi ilmiy ishlanmalarida ishlab chiqilgan KBMRI integral indeksi endilikda prognozlashning bog‘liq o‘zgaruvchisi sifatida qo‘llanadi. Tadqiqotda moliyaviy raqobatbardoshlikni prognozlash uchun moliyaviy, innovatsion, texnologik, bozor va institutsional determinantlarni birlashtiruvchi panelli model taklif qilingan. Kichik biznesni moliyalashtirish masalasi ham prognozlash modelining muhim qismidir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotlarida kichik biznesning bank kreditlariga nisbatan yuqori darajadagi bog‘liqligi, axborot assimetriyasi, tranzaksiya xarajatlari va tadbirkorlarda moliyaviy bilimlar yetishmasligi kabi muammolarni qayd etilgan [5]. Turli yo’nalish va darajadagi moliyaviy cheklovlar innovatsion va raqamli investitsiyalarga ham ta’sir qilishi mumkinligi [6] asosida kredit resurslaridan foydalanish va institutsional qo‘llab-quvvatlashni prognoz modeliga kiritish nazariy jihatdan ham asoslangan.

Metodologiya.

Tadqiqotning metodologik bazasini muallif tomonidan ishlab chiqilgan KBMRI, MRSP, CRI, FCRP, FCEWS, DFCP, IFCMS, ISCAM va CSM ko’rsatkich, indeks va tizimlari tashkil etadi [20]. Tadqiqot faylida prognozlash uchun O‘zbekiston hududlarida faoliyat ko’rsatuvchi kichik biznes subyektlari kesimida panel ma’lumotlar bazasini shakllantirish, 2018–2025 yillar davrini qamrab olish va Fixed Effects hamda Random Effects modellaridan foydalanish nazarda tutilgan.

Panel ma’lumotlarning umumiy ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$\textbf{Panel} = \textbf{N} \times \textbf{T}$$

bu yerda: **N** — hududlar, tumanlar yoki korxonalar soni, **T** — vaqt davrlari soni. Tadqiqot loyihasida hududiy kesim uchun N=14 va T=2018–2025 davri ko‘zda tutilgan. Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida KBMRI — moliyaviy raqobatbardoshlik integral indeksi olinadi. Mustaqil o‘zgaruvchilar beshta guruhga ajratiladi: moliyaviy (FIN), investitsion (INV), innovatsion (INN), raqamli (DIG), bozor (MKT) va institutsional (INS). Mualliflik panel modeli quyidagi umumiy shaklda taklif etiladi:

$$\mathbf{KBMRI}_{it} = \alpha + \beta_1\mathbf{FIN}_{it} + \beta_2\mathbf{INV}_{it} + \beta_3\mathbf{INN}_{it} + \beta_4\mathbf{DIG}_{it} + \beta_5\mathbf{MKT}_{it} + \beta_6\mathbf{INS}_{it} + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it}$$

bu yerda:

- $\mathbf{KBMRI}_{it}$ — i-hudud yoki korxonaning t-davrdagi moliyaviy raqobatbardoshlik indeksi;
- **FIN** — moliyaviy omillar;

- **INV** — investitsion omillar;
- **INN** — innovatsion omillar;
- **DIG** — raqamlashtirish ko‘rsatkichlari;
- **MKT** — bozor omillari;
- **INS** — institutsional omillar;
- μ_i — individual hududiy yoki korxona effekti;
- λ_t — vaqt effekti;
- ε_{it} — tasodifiy xatolik.

Panel modelning Fixed Effects va Random Effects shakllarini baholash tavsiya etiladi. Fixed Effects modelida vaqt davomida o‘zgarmaydigan individual xususiyatlar nazorat qilinadi. Random Effects modelida esa individual effekt tasodifiy komponent sifatida qaraladi. Ushbu modellar panel ekonometrikasining standart vositalari bo’lib hisoblanadi [2; 3; 7]. Hausman testi Fixed Effects va Random Effects o‘rtasida spetsifikatsiya tanlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi [8].

Ekonometrik modelni baholashda multikollinearlik, geteroskedastiklik, avtokorrelyatsiya va kesimlararo bog‘liqlik kabi muammolar tekshirilishi va zaruriy holatlarda klasterlashtirilgan robust standart xatolardan foydalanish mumkin. Panel ma’lumotlar metodologiyasida bunday diagnostikalar model natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi [3; 9]. Prognozlash bosqichida model koeffitsiyentlari asosida KBMRIning kelajakdagi qiymatlari hisoblanadi. Shundan so‘ng prognozlar uchta ssenariyga — optimistik, bazaviy va pessimistik variantlarga ajratiladi. Tadqiqot materiallarida ushbu ssenariylarni KBMRI, CRI, FCRP va DFCP tizimlari bilan integratsiyalanuvchi Raqobatbardoshlik ssenariyalari matritsasi (Competitiveness Scenario Matrix -CSM) ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot natijasida KBMRI dinamikasini shakllantiruvchi determinantlar beshta asosiy blokka birlashtirildi. Mazkur bloklar korxonaning joriy moliyaviy holati bilan bir qatorda kelajakdagi rivojlanish salohiyatini ham ifodalaydi.

1-jadval.

KBMRI prognozlash modelining asosiy determinantlari xususiyatlari*

Determinant bloki	Asosiy ko‘rsatkichlar	Kutilayotgan ta’sir yo‘nalishi	Prognozlashdagi vazifasi
Moliyaviy (FIN)	Rentabellik, aktivlar, pul oqimi, moliyaviy barqarorlik	+	Joriy moliyaviy salohiyat
Investitsion (INV)	Asosiy kapital investitsiyalari, investitsiya hajmi	+	Ishlab chiqarish va kapital bazasi
Innovatsion (INN)	Innovatsion mahsulotlar, R&D xarajatlari, texnologik yangilanish	+	Uzoq muddatli raqobat salohiyati
Raqamli (DIG)	ERP, CRM, FinTech, elektron savdo	+	Boshqaruv va operatsion samaradorlik
Bozor (MKT)	Eksport, bozor ulushi, mijozlar soni	+	Bozor pozitsiyasi
Institutsional (INS)	Kreditga kirish, davlat ko‘magi, klaster va kooperatsiya	+/–	Tashqi institutsional muhit

**Manba: muallif ishlanmasi.*

Mazkur determinantlarni tanlash va xususiyatlarini tavsiflash kichik biznesning moliyaviy raqobatbardoshligi ko‘p omilli hodisa va jarayon ekanligini ifodalaydi. Investitsiyalar korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirsa, innovatsiya va raqamlashtirish uzoq muddatli samaradorlikni shakllantirishi mumkin. Bozor omillari esa moliyaviy resurslardan foydalanish natijasini real iqtisodiy faoliyat bilan bog‘laydi. Institutsional omillar kredit, davlat dasturlari va kooperatsiya imkoniyatlari orqali bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.IHT tashkiloti (OECD) tadqiqotlari ham kichik va o’rta biznesni moliyalashtirish imkoniyatlarini monitoring qilishda

qarz, kapital, moliyalashtirish shartlari, biznes sharoitlari va korxona distress indikatorlarini birgalikda ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi [1].

Tadqiqotning asosiy metodik natijasi KBMRI integral indeksini panel ma’lumotlar asosida prognozlash modelidir. Bunda alohida hudud yoki korxonaning o‘ziga xos, bevosita o‘lchanmaydigan xususiyatlarini individual effektlar orqali nazorat qilish imkoniyati mavjud. Modelning asosiy mantiqi quyidagicha: **FIN, INV, INN, DIG, MKT, INS → KBMRI → CRI/FCRP → CSM → Strategik qarorlar**

Bu zanjirda KBMRI prognozning asosiy natijaviy ko‘rsatkichi, CRI esa risklarning kelajakdagi holatini ifodalovchi qo‘shimcha indikator sifatida ishlatiladi.

2-jadval

Ekonometrik modelni baholash va prognozlash bosqichlari*

Bosqich	Ekonometrik amal	Asosiy vosita	Kutiladigan natija
1	Ma’lumotlar bazasini shakllantirish	Panel N×T	Balanslangan/nomuvozanat panel
2	Deskriptiv tahlil	Mean, SD, Min, Max	O‘zgaruvchilar xususiyati
3	Korrelatsion diagnostika	Correlation/VIF	Multikollinearlik nazorati
4	Model tanlash	Pooled OLS, FE, RE	Dastlabki spetsifikatsiya
5	Spetsifikatsiya testi	F/LR, LM, Hausman	FE yoki RE tanlovi
6	Diagnostika	Heteroskedastiklik, AR, CD	Robust model
7	Parametrlarni baholash	FE/RE/robust estimation	β koeffitsiyentlar
8	Prognoz	Dynamic/scenario forecast	KBMRI prognozi
9	Ssenariy	CSM	Strategik zonalar
10	Qaror	IECMM/SCDSS	Strategik boshqaruv

**Manba: muallif tomonidan [2; 3; 7; 8] asosida ishlab chiqilgan.*

Panel ma’lumotlar bo‘yicha ekonometrik adabiyotlarda Fixed Effects modeli individual heterogenlikni nazorat qilishda, Random Effects esa individual effektlar regressorlarga bog‘liq emasligi haqidagi taxmin ostida qo‘llanadi [2; 3]. Hausman testi ushbu ikki yondashuvdan foydalanish bo‘yicha empirik asos beradi [8]. Shuning uchun tadqiqotda modelni oldindan qat’iy ravishda FE yoki RE deb belgilash emas, balki statistik test natijasiga asoslanish metodologik jihatdan maqsadga muvofiq.



1-chizma. KBMRIni ekonometrik prognozlash va strategik boshqarishning mualliflik modeli*

*Manba: muallif ishlanmasi .

Ushbu modelda prognozlashning asosiy obyekti KBMRI bo‘lgani bilan yakuniy boshqaruv qarori faqat bitta indeksga asoslanmaydi. Prognoz natijasi risk profili, moliyaviy barqarorlik va strategik sharoit bilan birgalikda talqin qilinadi. Shu sababli modelning keyingi bosqichida CSM matritsasidan foydalanish taklif etiladi.

Ekonometrik prognoz bitta ehtimoliy yo‘nalishni ko‘rsatishi mumkin, biroq iqtisodiy muhitdagi noaniqlik sharoitida strategik boshqaruv uchun bir nechta rivojlanish variantlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda viloyatlar kesimida kichik biznesining 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanishi optimistik, bazaviy va pessimistik ssenariylar asosida shakllantirilgan. Optimistik ssenariyda investitsiyalar, innovatsiyalar, raqamlashtirish va eksport faolligining yuqori dinamikasi nazarda tutiladi. Bazaviy ssenariy mavjud tendensiyalarning davom etishini ifodalaydi. Pessimistik ssenariyda esa investitsiyalarning qisqarishi, kredit resurslari qimmatlashuvi, eksport va innovatsion faollikning pasayishi kabi omillar hisobga olinadi. Biroq, mazkur ssenariylar qiymatlarini kelajakdagi aniq statistik natijalar sifatida emas, balki model parametrlarini tekshirish uchun scenario assumptions sifatida talqin qilish lozim bo’ladi. Real prognoz natijalari esa ekonometrik baholashdan keyin aniqlanadi. CSMning asosiy o‘qlari KBMRI o‘sish sur’ati va CRI o‘zgarishidan tashkil topadi. Natijada strategik o‘sish, barqaror rivojlanish, riskli rivojlanish va inqiroz zonalari ajratiladi. Bu yondashuv prognoz natijasini boshqaruv qaroriga aylantirish imkonini beradi. Masalan, KBMRI prognozi yuqori va CRI pasayuvchi bo‘lsa, investitsion ekspansiya uchun sharoitlar tahlil qilinadi. Aksincha, KBMRI pasayib, CRI ortsa, moliyaviy sog‘lomlashtirish, qarz yuklamasini qayta ko‘rib chiqish va xarajatlarni optimallashtirish ustuvor bo‘ladi.

Tadqiqotning yana bir ilmiy xususiyati ekonometrik prognozni strategik boshqaruv tizimi bilan integratsiyalashdan iborat. Raqobatbardoshlikni integral ekonometrik boshqarish modeli (IECMM) diagnostika, risk, raqamli boshqaruv, intellektual tahlil va prognozlash bloklarini yagona tizimga birlashtiradi. IECMM tarkibida diagnostika bloki KBMRI, MRSP va ISCAM; risk bloki CRI, FCRM, FCRP va FCEWS; raqamli boshqaruv bloki DFCP va DFCE; intellektual tahlil bloki IFCMS, AI Scoring va Predictive Analytics; prognozlash bloki esa panel ekonometrik model va CSMdan tashkil topadi.

Mazkur tizimning muhim jihati — yopiq boshqaruv tizimi xusuiyatlariga egaligi, ya’ni ma’lumot yig‘ish → KPI → KBMRI → CRI → FCRP → FCEWS → ekonometrik prognoz → CSM → strategik qaror → monitoring siklidir. Bu yondashuv prognozlashni yakuniy raqamni olish jarayonidan strategik boshqaruvning doimiy axborot tizimiga aylantiradi. Shu bilan birga Kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini strategik boshqarish bo‘yicha qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi, ya’ni SCDSS konsepsiyasi real vaqt monitoringi, avtomatik prognozlash, strategik tavsiyalar va risk signalizatsiyasini yagona raqamli muhitda birlashtirishni nazarda tutadi.

Muhokama.

Tadqiqot natijalari moliyaviy raqobatbardoshlikni prognozlashda uchta metodologik yondashuvni birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Birinchisi — integral baholash bo’lib, bunda KBMRI turli moliyaviy va nomoliyaviy determinantlarni yagona ko‘rsatkichga birlashtiradi. Ikkinchisi, ya’ni panel ekonometrikasi hududlar yoki korxonalar o‘rtasidagi heterogenlik va vaqt dinamikasini birgalikda hisobga oladi. Uchinchisi — ssenariyli prognozlash bo’lib, u ekonometrik natijalarni turli tashqi sharoitlar ostida strategik qarorlarga aylantirish imkonini beradi. Panel ma’lumotlardan foydalanishning metodologik ustunligi kuzatilmaydigan individual effektlarni hisobga olish imkoniyatidir [2; 3]. Shu sababli faqat oddiy kesim yoki vaqt qatori modeliga nisbatan panel model hududiy va korxona darajasidagi farqlarni chuqurroq ifodalashi mumkin. Biroq panel modelning natijalari ma’lumotlarning sifatiga, o‘zgaruvchilarni o‘lchash usuliga va ekzogenlik taxminlariga bog‘liq. Shu sababli modelni baholashdan oldin diagnostik testlarni o‘tkazish zarur. Moliyaviy cheklovlar masalasi ham mazkur prognozlash modelida muhim o‘rin

tutadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tadqiqotlarida kichik biznesning moliyalashtirishga kirishida axborot assimetriyasi, tranzaksiya xarajatlari va moliyaviy bilimlar muammolarini qayd etadi [5]. Innovatsiya va raqamlashtirish esa qo‘shimcha investitsiyalarni talab qilgani sababli moliyalashtirish cheklovlari bilan bevosita bog‘lanadi [6]. Shu jihatdan, modelda INV, INN va DIG o‘zgaruvchilarining birgalikda qo‘llanilishi kichik biznes moliyaviy raqobatbardoshligining zamonaviy xususiyatlarini yaxshiroq ifodalash imkonini beradi.

Keyingi empirik bosqichda Pooled OLS, FE va RE modellari taqqoslanishi, Hausman testi orqali model tanlanishi, VIF orqali multikollinearlik, Wooldridge testi orqali serial korrelyatsiya va tegishli testlar orqali geteroskedastiklik hamda kesimlararo bog‘liqlik tekshirilishi lozim. Model diagnostikasidan keyin robust yoki klasterlashtirilgan standart xatolardan foydalanish mumkin [3; 9]. Prognoz sifatini baholash uchun MAE, RMSE va MAPE kabi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bir nechta model spetsifikatsiyasi mavjud bo‘lsa, prognoz xatosi kichik bo‘lgan modeldan foydalanish mumkin. Biroq model tanlovi faqat prognoz aniqligiga emas, balki iqtisodiy mazmun va parametrlarning interpretatsiyasiga ham asoslanishi kerak. Nazariy jihatdan maqolaning asosiy hissasi shundaki, moliyaviy raqobatbardoshlik prognozini risklarni boshqarish va strategik qarorlar tizimidan ajratmagan holda KBMRI → CRI → CSM → IECMM zanjiri baholash, prognozlash va boshqaruvni yagona tizimga birlashtiradi.

Xulosa.

Tadqiqotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini prognozlashning ekonometrik asoslari ishlab chiqildi. Moliyaviy raqobatbardoshlikni alohida moliyaviy ko‘rsatkichlarning kelajakdagi qiymati bilan emas, balki integral KBMRI indeksining dinamikasi orqali prognozlash yondashuvi taklif etildi.

Birinchidan, KBMRI prognozining determinantlari moliyaviy, investitsion, innovatsion, raqamli, bozor va institutsional bloklarga tizimlashtirildi. Ikkinchidan, ushbu determinantlarni panel ma’lumotlar asosida baholash imkonini beruvchi ekonometrik model spetsifikatsiyasi ishlab chiqildi. Uchinchidan, Fixed Effects va Random Effects modellarini taqqoslash hamda Hausman testi asosida tegishli spetsifikatsiyani tanlash metodikasi asoslandi. To‘rtinchidan, prognoz natijalarini CRI va FCRP kabi risk indikatorlari bilan birlashtirish taklif qilindi. Beshinchidan, CSM orqali KBMRI o‘zgarishi va risk dinamikasini birgalikda baholash hamda strategik zonalarni shakllantirish mexanizmi ishlab chiqildi. Oltinchidan, IECMM modeli orqali diagnostika, risklarni boshqarish, raqamli monitoring, ekonometrik prognoz va strategik qarorlarni yagona boshqaruv sikliga integratsiyalash konsepsiyasi shakllantirildi.

Taklif etilayotgan metodika hududlar kesimida kichik biznes subyektlari rivojlantirishni boshqarish uchun alohida amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bunda hududlar kesimidagi ma’lumotlar asosida KBMRI determinantlari baholanib, keyinchalik 2030-yilgacha bo‘lgan ssenariylar ishlab chiqilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu maqoladagi ssenariy diapazonlari empirik prognoz natijalari emas, balki keyingi ekonometrik hisob-kitob uchun metodik farazlar sifatida qaralishi lozim. Kelgusidagi tadqiqotlarda 2018–2025 yillar uchun iqtisodiy tarmoqlar kesimida ham to‘liq panel ma’lumotlar bazasi shakllantirib, model parametrlarini amaliy hisoblash, statistik ahamiyatlilikni aniqlash, prognoz xatolarini baholash va 2026–2030 yillar uchun KBMRI hamda CRI prognozlarini hisoblash maqsadga muvofiq [18; 19]. Natijada ekonometrik modelni CSM va SCDSS bilan integratsiyalash orqali kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini boshqarishning raqamli prognozlash tizimini shakllantirish mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. (2024). *Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/fa521246-en.
2. Wooldridge, J. M. (2010). *Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data* (2nd ed.). MIT Press.
3. Baltagi, B. H. (2021). *Econometric Analysis of Panel Data* (6th ed.). Springer.

4. Hsiao, C. (2014). *Analysis of Panel Data* (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. OECD. (2025). *SME and Entrepreneurship Financing*. OECD.
6. OECD. (2022). *Financing Growth and Turning Data into Business*. OECD Publishing.
7. Greene, W. H. (2018). *Econometric Analysis* (8th ed.). Pearson.
8. Hausman, J. A. (1978). Specification tests in econometrics. *Econometrica, 46*(6), 1251–1271.
9. Teece, D. J., Pisano, G., & Shuen, A. (1997). Dynamic capabilities and strategic management. *Strategic Management Journal, 18*(7), 509–533.
10. Teece, D. J. (2007). Explicating dynamic capabilities: The nature and microfoundations of sustainable enterprise performance. *Strategic Management Journal, 28*(13), 1319–1350.
11. Altman, E. I. (1968). Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. *The Journal of Finance, 23*(4), 589–609.
12. Merton, R. C. (1974). On the pricing of corporate debt: The risk structure of interest rates. *The Journal of Finance, 29*(2), 449–470.
13. Durst, S., & Zieba, M. (2020). Risk management in SMEs: A systematic literature review and future directions. *European Management Journal, 38*(1), 78–94.
14. Verbano, C., & Venturini, K. (2013). Managing risks in SMEs: A literature review and research agenda. *Journal of Technology Management & Innovation, 8*(3), 186–197.
15. Brustbauer, J. (2016). Enterprise risk management in SMEs: Towards a structural model. *International Small Business Journal, 34*(1), 70–85.
16. Arellano, M., & Bond, S. (1991). Some tests of specification for panel data: Monte Carlo evidence and an application to employment equations. *The Review of Economic Studies, 58*(2), 277–297.
17. Vaisov, D. I. (2026). Raqobatbardoshlik nazariyalarining rivojlanishi va zamonaviy talqinlari. *Marketing Journal*, 8. https://doi.org/10.67668/mj/2026iss8/1918
18. Vaisov, D. I. (2026). Prospects for The Development of Small Business Entities in The Medical Services Market. *American Journal of Economics and Business Management*, 9(1), 633-638. doi.org
19. Vaisov, D. I. (2025). Tibbiy xizmatlar bozorida tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari tahlili. *Marketing Jurnali*, 1, 282-291. https://marketingjournal.uz/index.php/mj/article/view/1253
20. Vaisov, D. I. (2025). Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta’minlashdagi ilg‘or tajribalar. *Marketing jurnali*, Portfolio.afu.uz. [1, 2, 3, 4, 5]

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Kabilova Zebo Babakulovna

iqtisodiyot kafedrasi
katta o‘qituvchisi
Termiz davlat universiteti
E-mail: zebokabilova2003@mail.ru
ORCID: 0009-0003-8400-5801

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonida mehnat resurslarining o‘rni, ularning shakllanishi, tarkibi va hududiy taqsimlanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, demografik, ijtimoiy va institutsional omillar tahlil qilingan. Mintaqada bandlikni ta’minlash, mehnat unumdorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va mehnat bozorining muvozanatli faoliyatini ta’minlash barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim shartlari sifatida asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *mintaqa iqtisodiyoti, barqaror rivojlanish, mehnat resurslari, mehnat bozori, bandlik, mehnat unumdorligi, inson kapitali, iqtisodiy salohiyat, hududiy rivojlanish, ishchi kuchi, aholi bandligi.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Кабилова Зебо Бабакуловна

старший преподаватель
кафедры экономика
Термезский государственный университет
E-mail: zebokabilova2003@mail.ru
ORCID: 0009-0003-8400-5801

Аннотация. *В статье исследованы научно-теоретические основы эффективного использования трудовых ресурсов в обеспечении устойчивого развития региональной экономики. Раскрывается роль трудовых ресурсов в процессах регионального экономического развития, рассматриваются особенности их формирования, структуры и территориального распределения. Проанализированы экономические, демографические, социальные и институциональные факторы, влияющие на эффективность использования трудовых ресурсов. Обосновано, что обеспечение занятости населения, повышение производительности труда, развитие человеческого капитала и сбалансированное функционирование рынка труда являются важными условиями устойчивого экономического роста региона.*

Ключевые слова: *региональная экономика, устойчивое развитие, трудовые ресурсы, рынок труда, занятость, производительность труда, человеческий капитал, экономический потенциал, региональное развитие, рабочая сила, занятость населения.*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF LABOR RESOURCE UTILIZATION IN SUSTAINABLE REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT

Kabilova Zebo Babakulovna

Senior Lecturer at the
Department of Economics

Termez State University
E-mail: zebokabilova2003@mail.ru
ORCID: 0009-0003-8400-5801

Abstract. *This article examines the scientific and theoretical foundations of the effective use of labor resources in ensuring sustainable development of the regional economy. The study highlights the role of labor resources in regional economic development and explores the characteristics of their formation, structure, and territorial distribution. Economic, demographic, social, and institutional factors affecting the efficiency of labor resource utilization are analyzed. The article substantiates that ensuring employment, increasing labor productivity, developing human capital, and maintaining a balanced labor market are important conditions for sustainable economic growth in the region.*

Keywords: *regional economy, sustainable development, labor resources, labor market, employment, labor productivity, human capital, economic potential, regional development, workforce, population employment.*

Kirish

Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu jarayon ko‘p jihatdan hududda mavjud mehnat resurslarining miqdori, sifati hamda ulardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi. Globallashuv, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etilishi va demografik o‘zgarishlar sharoitida mehnat resurslari iqtisodiy o‘sishning nafaqat asosiy ishlab chiqarish omili, balki hududlarning raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyati va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlovchi strategik resurs sifatida e’tirof etilmoqda.

Iqtisodiy nazariyaning evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, mehnat resurslariga bo‘lgan yondashuv vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada takomillashgan. Agar klassik iqtisodiy maktab vakillari mehnatni asosan moddiy ne’matlar yaratishning bosh omili sifatida talqin etgan bo‘lsalar, zamonaviy ilmiy qarashlarda u inson kapitali, bilimlar iqtisodiyoti, innovatsion rivojlanish hamda barqaror taraqqiyot konsepsiyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida baholanadi. Shu bois mehnat resurslarining mohiyatini faqat mehnatga layoqatli aholi soni bilan emas, balki ularning ta’lim darajasi, kasbiy malakasi, sog‘lig‘i, innovatsion salohiyati va mehnat unumdorligi kabi sifat ko‘rsatkichlari orqali ham baholash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mintaqalar kesimida iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar, bandlik tarkibidagi o‘zgarishlar, mehnat migratsiyasi, raqamli transformatsiya hamda mehnat bozorining yangi talablariga moslashish jarayonlari mehnat resurslaridan samarali foydalanishning nazariy va uslubiy asoslarini yanada chuqurroq tadqiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, hududlarning mavjud mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirish mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan mavjud mehnat resurslarining miqdori, sifati va ulardan foydalanish samaradorligiga bog‘liq. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda mehnat ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etilib, u nafaqat moddiy boyliklarni yaratish, balki innovatsiyalarni shakllantirish, texnologik taraqqiyotni jadallashtirish va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning strategik omili sifatida ham qaraladi. Shu bois mehnat resurslarining ilmiy-nazariy mohiyatini aniqlashtirish mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etishning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

Mehnat resurslari iqtisodiy tizimning faol elementi hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarishning boshqa omillari — kapital, yer, texnologiya va tabiiy resurslar — inson mehnati va bilimlari orqali iqtisodiy qiymatga aylantiriladi. Shu sababli mintaqa iqtisodiyotida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hududiy yalpi mahsulot hajmini oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish, aholi

daromadlarini ko‘paytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biridir.

Barqaror rivojlanishning xalqaro konsepsiyasida ham mehnat resurslaridan samarali foydalanish muhim o‘rin egallaydi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining 8-maqsadi barqaror va inklyuziv iqtisodiy o‘sish, to‘liq va unumdor bandlik hamda munosib mehnatni ta’minlashga qaratilgan. Mazkur maqsad doirasida mehnat unumdorligini oshirish, iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish, texnologik modernizatsiya va innovatsiyalarni rivojlantirish alohida belgilangan.

Mavzuning dolzarbligi O‘zbekiston iqtisodiyotidagi demografik jarayonlar bilan ham bevosita bog‘liq. Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda mehnat resurslari soni 2010-yildagi 16 726,0 ming kishidan 2025-yilda 20 602,6 ming kishigacha oshgan. Bu esa hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan bir qatorda mavjud mehnat salohiyatidan yanada yuqori samaradorlik bilan foydalanish zaruratini kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanishning nazariy asoslarini tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash va samaradorlikni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish hamda ularning samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy nazariya, mehnat iqtisodiyoti va inson kapitalini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda mehnat resurslarining miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda ularning ta’lim darajasi, kasbiy malakasi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy faolligi ham hududiy rivojlanishning muhim omillari sifatida qaraladi.

Inson kapitali nazariyasining asosiy vakillaridan biri T. Schultz mehnat resurslarining iqtisodiy samaradorligini ta’lim, malaka va inson salohiyatiga kiritiladigan investitsiyalar bilan bog‘laydi. Uning tadqiqotida inson kapitaliga investitsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi va iqtisodiy o‘sishning muhim manbalaridan biri bo‘lishi asoslab berilgan [1]. Mazkur yondashuv mintaqalar iqtisodiy rivojlanishida mehnat resurslarining faqat soni emas, balki ularning sifat xususiyatlari ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan mehnat statistikasi standartlarida mehnat, bandlik va mehnatdan to‘liq foydalanilmaslik tushunchalarini statistik jihatdan aniq o‘lchash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. ILO yondashuvi mehnat resurslaridan foydalanishni faqat ish bilan bandlik orqali emas, balki mehnat salohiyatidan foydalanilmaslik holatlarini ham hisobga olgan holda baholash zarurligini ko‘rsatadi [2]. Bu yondashuv hududiy mehnat bozorining real holatini kompleks tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha 2026-yilda e’lon qilingan *Poverty and Equity Assessment* hisobotida mamlakatda farovonlikni oshirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishda mehnat daromadlari, bandlik va inson kapitalining ahamiyati yoritilgan. Hisobotda aholining iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish barqaror farovonlikni ta’minlashning muhim sharti sifatida qaraladi [3]. Mazkur yondashuv mintaqalar kesimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda iqtisodiy imkoniyatlar va bandlik sifatini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

OECDning *Employment Outlook 2024* hisobotida zamonaviy mehnat bozorlarida demografik o‘zgarishlar, ishchi kuchiga talab, mehnat unumdorligi, ish sifati va xodimlarning ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda ishchi kuchi salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodiy o‘sish va mehnat bozorining barqarorligi bilan bog‘liqligi

ta’kidlanadi [4]. Ushbu qarash mintaqalar iqtisodiyotida mavjud mehnat resurslarini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirish zarurligini asoslaydi.

BMT Taraqqiyot dasturining *Human Development Report 2021/2022* hisobotida inson taraqqiyoti iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqilib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, daromad va inson imkoniyatlarining kengayishi o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratilgan [5]. Ushbu konsepsiya mehnat resurslarini faqat iqtisodiy ishlab chiqarish omili sifatida emas, balki inson taraqqiyoti va hududiy farovonlikni ta’minlovchi asosiy resurs sifatida baholash imkonini beradi.

K.H. Abdurakhmanov mehnat iqtisodiyotiga oid tadqiqotlarida mehnat bozori, ishchi kuchi, bandlik, mehnat unumdorligi va mehnatga haq to‘lash masalalarini tizimli ravishda yoritadi. Muallif mehnat resurslaridan samarali foydalanishni iqtisodiy manfaatlar, ishchi kuchining sifati va mehnat bozoridagi talab va taklifning o‘zaro muvofiqligi bilan bog‘laydi [6]. Mazkur yondashuv hududiy mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni birgalikda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

A.V. Vahobov va A. O‘lmasovlarning iqtisodiyot nazariyasiga oid ishlarida ishlab chiqarish omillari, iqtisodiy o‘sish, mehnat resurslari va iqtisodiy samaradorlikning nazariy asoslari yoritilgan. Mualliflarning yondashuviga ko‘ra, mehnat ishlab chiqarish jarayonining asosiy omillaridan biri bo‘lib, undan samarali foydalanish iqtisodiy resurslarning umumiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [7]. Ushbu nazariy yondashuv mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida mehnat resurslarining rolini tadqiq etish uchun fundamental asos yaratadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini uch asosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqish imkonini beradi: **birinchidan**, mehnat resurslarining miqdoriy va demografik salohiyati; **ikkinchidan**, inson kapitali, ta’lim va kasbiy malaka sifati; **uchinchidan**, mehnat resurslarining hududiy iqtisodiyotda real foydalanish samaradorligi. Mavjud tadqiqotlarda ushbu yo‘nalishlarning har biri alohida yoritilgan bo‘lsa-da, ularni mintaqalar kesimida yagona kompleks baholash metodologiyasida birlashtirish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Shu jihatdan, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanish jarayonlarini o‘rganishda tizimli, statistik, qiyosiy va iqtisodiy-tahliliy usullardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini mehnat iqtisodiyoti, mintaqaviy rivojlanish, inson kapitali va barqaror rivojlanish nazariyalari tashkil etdi. O‘zbekiston hududlarida mehnat resurslarining shakllanishi, bandlik darajasi va ulardan foydalanish samaradorligi rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ta’sir etuvchi demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va institutsional omillar o‘rganilib, mavjud ilmiy-nazariy yondashuvlar umumlashtirildi. Tadqiqotda Xalqaro mehnat tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning mehnat bozori, bandlik va barqaror rivojlanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalaridan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar

XX asrning ikkinchi yarmida mehnat resurslariga nisbatan yondashuv tubdan yangilandi. Teodor Shuls va Gari Bekker tomonidan ishlab chiqilgan inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning eng muhim manbalaridan biridir [1] Becker inson kapitalini shaxsning bilimlari, ko‘nikmalari, tajribasi va sog‘lig‘i yig‘indisi sifatida baholab, aynan ushbu omillar mehnat unumdorligini va daromadlarni oshirishini ilmiy jihatdan isbotlagan. Bugungi kunda mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ham inson kapitalining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog‘liq ekanligi xalqaro amaliyotda keng e’tirof etiladi.

Xalqaro tashkilotlar ham mehnat resurslarini iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida baholaydi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) metodologiyasiga ko‘ra, mehnat bozori tahlilida, ishchi kuchi tarkibiga ish bilan band va ish izlayotgan shaxslar kiradi [2]. Mazkur yondashuv mehnat taklifini baholash, bandlik siyosatini ishlab chiqish hamda hududiy mehnat bozori samaradorligini aniqlashda xalqaro standart sifatida qo‘llaniladi.

Jahon banki (World Bank) mehnat resurslarini inson kapitalining asosiy tarkibiy qismi sifatida baholab, zamonaviy iqtisodiyotda milliy boylikning eng katta ulushi aynan inson kapitaliga to‘g‘ri kelishini qayd etadi[3]. Tashkilot ekspertlarining fikricha, iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli barqarorligi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlaridan ko‘ra ko‘proq insonlarning bilim, ko‘nikma va mehnat unumdorligiga bog‘liq.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) mehnat resurslaridan samarali foydalanishni inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi eng muhim omillardan biri sifatida e’tirof etadi[4]. Tashkilotning yondashuviga ko‘ra, iqtisodiy taraqqiyot nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki mavjud mehnat resurslarining salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish hamda inson kapitalini uzluksiz rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, mehnat bozorining moslashuvchanligini ta’minlash, aholining zamonaviy kasbiy va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish, uzluksiz ta’lim (lifelong learning) tizimini takomillashtirish, yuqori samarali va munosib bandlikni kengaytirish hamda mehnat bozorida barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilanadi. OECD ekspertlarining ta’kidlashicha, yuqori malakali va moslashuvchan mehnat resurslari innovatsiyalarni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mintaqalar iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham tashkilot mehnat resurslariga yo‘naltirilgan investitsiyalarni iqtisodiy o‘sishning eng samarali va barqaror manbalaridan biri sifatida baholaydi.

Xuddi shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (UNDP) inson salohiyatini barqaror rivojlanishning markaziy omili sifatida e’tirof etadi[5]. UNDP konsepsiyasiga ko‘ra, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy maqsadi faqat yalpi ichki mahsulot yoki daromadlar hajmini oshirish emas, balki insonning bilim olish, sog‘lom va uzoq umr ko‘rish, munosib mehnat qilish hamda o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishdan iboratdir. Shu sababli tashkilot sifatli ta’lim, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda munosib mehnat sharoitlarini yaratishni inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilaydi.

UNDP ekspertlarining fikricha, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush sifatini yaxshilash orqali mamlakat hamda hududlarning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi. Ayniqsa, mintaqalar kesimida inson salohiyatini rivojlantirish, mehnat resurslarining kasbiy malakasi va raqamli kompetensiyalarini oshirish, yoshlar va ayollar bandligini kengaytirish hamda inklyuziv mehnat bozorini shakllantirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlari sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan, UNDP mehnat resurslaridan samarali foydalanishni nafaqat iqtisodiy o‘sishni jadallashtiruvchi omil, balki inson farovonligi, ijtimoiy adolat va Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) erishishning muhim vositasi sifatida talqin etadi.

Yuqorida tahlil qilingan xorijiy iqtisodiy maktablar vakillarining ilmiy qarashlari mehnat resurslari va inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur ilmiy yondashuvlar Rossiya iqtisodiyot maktabi vakillari tomonidan mehnat salohiyati, inson kapitali va inson resurslarini boshqarish nazariyalari bilan boyitilgan bo‘lsa, O‘zbekiston iqtisodchi olimlari tomonidan ularning mazmuni mamlakatning iqtisodiy islohotlari, hududiy rivojlanish xususiyatlari hamda mehnat bozorini modernizatsiya qilish jarayonlari bilan uyg‘un holda yanada takomillashtirilgan.

Jumladan, akademik Q.X. Abdurahmonovning fikricha, mehnat resurslari iqtisodiy taraqqiyotning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo‘lib, ularning samaradorligi faqat mehnatga layoqatli aholi soni bilan emas, balki ta’lim darajasi, kasbiy malaka, mehnat unumdorligi va inson kapitalining rivojlanganligi bilan belgilanadi[6]. Olim mehnat bozorini samarali boshqarish, munosib mehnat tamoyillarini joriy etish hamda inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim sharti ekanligini ta’kidlaydi.

Akademik A. Vahobov iqtisodiy o‘sish nazariyasiga tayangan holda, ishlab chiqarish omillari tarkibida inson omili yetakchi o‘rin tutishini qayd etadi[7]. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanishning intensiv modeli mehnat unumdorligini oshirish, ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini amaliyotga joriy etish va inson kapitaliga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali ta’minlanadi. Shu bois yuqori malakali mehnat resurslari hududlarning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Professor B.Berkinov esa hududiy mehnat bozori nuqtai nazaridan yondashib, mehnat resurslarini hududlar kesimida oqilona taqsimlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, norasmiy bandlikni qisqartirish va samarali bandlikni ta’minlash mintaqalar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Olimning fikricha, hududiy mehnat bozorining samaradorligi iqtisodiy o‘sish, investitsion faollik va aholi farovonligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlovchi muhim institutsional omildir.

Shunday qilib, xorijiy, rus va o‘zbek iqtisodchi olimlarining ilmiy qarashlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini nazariy va amaliy jihatdan to‘ldiradi. Xususan, klassik iqtisodiy maktab vakillari mehnatni ishlab chiqarishning asosiy omili va qiymat yaratuvchi resurs sifatida talqin qilgan bo‘lsalar, zamonaviy iqtisodiy maktab vakillari mehnat resurslarini inson kapitali, innovatsion salohiyat va iqtisodiy raqobatbardoshlikni belgilovchi strategik omil sifatida baholaydilar. Rossiya iqtisodiyot maktabi vakillari mehnat salohiyati, inson kapitali va inson resurslarini boshqarishning nazariy asoslarini chuqur tadqiq etgan bo‘lsa, O‘zbekiston iqtisodchi olimlari ushbu yondashuvlarni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari hamda hududiy mehnat bozori sharoitlariga moslashtirib, mehnat resurslaridan samarali foydalanishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar.

Mazkur ilmiy qarashlar Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki (World Bank) hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (UNDP) tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlar bilan hamohang bo‘lib, inson kapitalini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, samarali va munosib bandlikni ta’minlash, uzluksiz ta’limni rivojlantirish hamda mehnat bozori institutlari samaradorligini kuchaytirishni barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari sifatida e’tirof etadi.

Nazariy qarashlar va ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslarini baholash faqat ularning miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, ularning ta’lim darajasi, kasbiy malakasi, sog‘lig‘i, raqamli kompetensiyalari, innovatsion faolligi, mehnat unumdorligi hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini qamrab oluvchi kompleks yondashuvni qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim nazariy-uslubiy asosi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, mehnat bilan bog‘liq iqtisodiy kategoriyalar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lishiga qaramay, ularning mazmuni, iqtisodiy mohiyati va amaliy vazifalari bir-biridan farq qiladi. Ayrim tushunchalar mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan aholini ifodalasa, boshqalari ushbu resurslarning iqtisodiy jarayonlardagi real ishtiroki yoki sifat jihatlarini aks ettiradi. Shu sababli mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasini ilmiy jihatdan asoslash uchun mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyatini qiyosiy tahlil qilish muhim metodologik ahamiyatga ega(1-jadval).

1-jadval.

Mehnat resurslari bilan bog‘liq asosiy iqtisodiy tushunchalarning qiyosiy tavsifi va ularning mintaqa iqtisodiyotidagi ahamiyati*

Tushuncha	Ilmiy mazmuni	Asosiy xususiyati	Mintaqa iqtisodiyotidagi ahamiyati
Mehnat	Moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda xizmatlar yaratishga qaratilgan insonning ongli va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati.	Ishlab chiqarishning asosiy omili hamda iqtisodiy qiymat yaratuvchi jarayon.	Hududda ishlab chiqarish hajmini oshirish, yalpi hududiy mahsulotni ko‘paytirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi.
Mehnat resurslari	Mehnat qilish qobiliyatiga ega hamda iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lgan aholi majmui.	Hududning potensial mehnat imkoniyatlarini ifodalaydi.	Mintaqaning iqtisodiy salohiyati, investitsion jozibadorligi va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi.
Iqtisodiy faol aholi	Ish bilan band yoki faol ravishda ish izlayotgan shaxslar yig‘indisi.	Mehnat bozorining real ishtirokchilari va mehnat taklifining asosiy manbai hisoblanadi.	Bandlik darajasi, ishsizlik ko‘rsatkichlari va hududiy mehnat bozori samaradorligini tavsiflaydi.
Ishchi kuchi	Insonning jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlari yig‘indisi bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida bevosita foydalaniladi.	Qo‘shimcha qiymat yaratishda bevosita ishtirok etuvchi ishlab chiqarish omili.	Mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.
Inson kapitali	Ta’lim, kasbiy malaka, tajriba, sog‘liq va kompetensiyalar yig‘indisi bo‘lib, iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi resursdir.	Mehnat unumdorligi, innovatsion faollik va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.	Hududning innovatsion rivojlanishi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va uzoq muddatli iqtisodiy raqobatbardoshligini ta’minlaydi.
Mehnat salohiyati (potensiali)	Hududning mavjud va istiqboldagi mehnat imkoniyatlarini belgilovchi miqdoriy hamda sifat ko‘rsatkichlari majmui.	Mehnat resurslarining umumiy imkoniyatlarini kompleks baholash imkonini beradi.	Mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, mehnat bozori muvozanati va strategik rivojlanish istiqbollarini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

*Muallif ishlanmasi.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, mehnat bilan bog‘liq iqtisodiy kategoriyalar o‘zaro uzviy bog‘langan yagona tizimni tashkil etadi va ularning har biri mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda alohida funksional ahamiyat kasb etadi. Xususan, mehnat ishlab chiqarish jarayonining mazmunini ifodalovchi asosiy iqtisodiy kategoriya bo‘lsa, mehnat resurslari iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan insonlar majmuini tavsiflaydi. Iqtisodiy faol aholi va ishchi kuchi mehnat resurslarining mehnat bozorida bevosita ishtirok etayotgan faol qismini ifodalasa, inson kapitali ularning sifat tavsiflarini, ya’ni bilim, malaka, sog‘liq va kasbiy kompetensiyalarini aks ettiradi. O‘z navbatida, mehnat salohiyati mazkur kategoriyalarni yagona tizim sifatida birlashtirib, hududning mavjud va istiqboldagi mehnat imkoniyatlari hamda iqtisodiy rivojlanish salohiyatini belgilaydi.

Shundan kelib chiqib, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslarini baholash faqat ularning miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, iqtisodiy faollik darajasi, inson kapitalining sifati, kasbiy malaka, mehnat unumdorligi va mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini kompleks baholash hududning iqtisodiy o‘sishi va raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim metodologik asosi hisoblanadi. Shu bois mazkur iqtisodiy kategoriyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik mehnat resurslaridan samarali foydalanishni baholash va mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda tayanch nazariy-uslubiy yondashuv sifatida e’tirof etiladi.

Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi mavjud mehnat resurslari hajmiga emas, balki ulardan qay darajada samarali foydalanilishiga ham bevosita bog‘liqdir. Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy modelida mehnat resurslari ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida emas, balki iqtisodiy o‘sish, innovatsion rivojlanish va hududlarning raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategik resurs sifatida qaralmoqda. Shu sababli mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish iqtisodiy mazmuniga ko‘ra mavjud mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, uning sifat ko‘rsatkichlarini muntazam takomillashtirish hamda mehnat faoliyati natijasida yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samaraga erishish jarayonini anglatadi. Ushbu jarayon faqat bandlikni ta’minlash bilan cheklanmay, balki mehnat unumdorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarni yuksaltirish, mehnat bozorining moslashuvchanligini kuchaytirish va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

Nazariy jihatdan mehnat resurslaridan samarali foydalanish ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi, **miqdoriy samaradorlik** bo‘lib, u mehnat resurslarining iqtisodiy faoliyatga jalb etilish darajasi, bandlik ko‘lami va ish vaqtidan oqilona foydalanish orqali tavsiflanadi. Ikkinchisi esa **sifat samaradorligi** bo‘lib, u inson kapitalining rivojlanishi, ta’lim va kasbiy malaka darajasi, mehnat unumdorligi, innovatsion kompetensiyalar hamda zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda aynan sifat omillari hududlarning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanishning mohiyati mehnat salohiyatini iqtisodiy natijaga aylantirish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bunda mavjud bilim, malaka, tajriba va kasbiy kompetensiyalar yuqori mehnat unumdorligini ta’minlaydi, mehnat unumdorligining oshishi esa ishlab chiqarish samaradorligi va qo‘shilgan qiymat hajmini ko‘paytiradi. Natijada hududning yalpi hududiy mahsuloti ortadi, aholi daromadlari va turmush sifati yaxshilanadi, investitsion jozibadorlik kuchayadi hamda iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi ta’minlanadi.

Shu bilan birga, mehnat resurslaridan samarali foydalanish iqtisodiy natijalar bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, sifatli bandlikni kengaytirish, mehnat bozorida teng imkoniyatlarni yaratish, innovatsion iqtisodiyotga mos kadrlar tayyorlash va ekologik jihatdan mas’uliyatli ishlab chiqarishni rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni ham qamrab oladi. Shu jihatdan mazkur kategoriya iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va ekologik samaradorlikning o‘zaro uyg‘unlashuviga asoslangan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko‘p qirrali iqtisodiy kategoriya bo‘lib, uning natijalari faqat ishlab chiqarish samaradorligida emas, balki ijtimoiy rivojlanish, innovatsion faollik va ekologik barqarorlikda ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur jarayonni baholashda turli samaradorlik yo‘nalishlarini kompleks tarzda tahlil qilish zarur. Shunday qilib, mehnat resurslaridan samarali foydalanishni baholashda ushbu samaradorlik turlarini alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq yagona tizim sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday kompleks yondashuv mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash, mehnat bozorining samaradorligini oshirish hamda hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning asosiy turlari, ularning

mazmuni, baholash ko‘rsatkichlari hamda mintaqa iqtisodiyotiga ta’siri tizimli ravishda keltirilgan(2-jadval).

2-jadval.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish samaradorligining asosiy turlari va ularning tavsifi*

Samaradorlik turi	Mazmuni	Baholash ko‘rsatkichlari	Mintaqa iqtisodiyotiga ta’siri
Iqtisodiy samaradorlik	Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarish hajmi, qo‘shilgan qiymat va mehnat unumdorligining oshishini ifodalaydi.	Mehnat unumdorligi, YAHM (yalpi hududiy mahsulot), qo‘shilgan qiymat, o‘rtacha ish haqi, rentabellik darajasi.	Iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi, hududning raqobatbardoshligini oshiradi, investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi.
Ijtimoiy samaradorlik	Aholining bandligi, daromadlari, mehnat sharoitlari va turmush sifatining yaxshilanishi orqali namoyon bo‘ladi.	Bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, aholi daromadlari, kambag‘allik darajasi, munosib mehnat ko‘rsatkichlari.	Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, aholi farovonligini oshiradi, ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi.
Innovatsion samaradorlik	Inson kapitali, ilmiy salohiyat va zamonaviy texnologiyalar asosida mehnat unumdorligini oshirishni tavsiflaydi.	Innovatsion faol korxonalar ulushi, ilmiy-tadqiqot xarajatlari, raqamli kompetensiyalar darajasi, yangi texnologiyalarni joriy etish ko‘rsatkichlari.	Innovatsion rivojlanishni jadallashtiradi, yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishni kengaytiradi va hududning texnologik raqobatbardoshligini oshiradi.
Ekologik samaradorlik	Mehnat faoliyatini tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlik tamoyillari asosida tashkil etishni ifodalaydi.	Resurs tejamkorligi, energiya samaradorligi, chiqindilar hajmi, qayta ishlash ulushi, ekologik standartlarga rioya etish darajasi.	Atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytiradi, «yashil iqtisodiyot»ni rivojlantiradi hamda hududning ekologik barqarorligini ta’minlaydi.

**Muallif ishlanmasi.*

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, mehnat resurslaridan samarali foydalanish faqat iqtisodiy natijalar bilan cheklanmaydi. Uning samaradorligi iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va ekologik yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi. Xususan, iqtisodiy samaradorlik mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish hajmini oshirsa, ijtimoiy samaradorlik aholi bandligi va turmush farovonligini yaxshilaydi. Innovatsion samaradorlik yangi bilim va texnologiyalarni joriy etish orqali hududning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, ekologik samaradorlik esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Nazariy yondashuvlarni umumlashtirish va amalga oshirilgan tahlillar asosida mehnat resurslaridan samarali foydalanish hududning mavjud mehnat salohiyatini inson kapitalini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, zamonaviy kasbiy va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, mehnat bozori institutlari samaradorligini kuchaytirish hamda innovatsion

bandlikni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va mintaqaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuvni amaliy jihatdan baholash, avvalo, mamlakat va uning hududlarida mavjud mehnat resurslarining miqdoriy dinamikasi hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda mehnat resurslarining shakllanish va o‘sish tendensiyalarini ko‘rib chiqish mintaqaviy mehnat salohiyatini baholashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari mamlakatda mehnat resurslari soni uzoq muddatli davrda o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. 2010-yilda mamlakat mehnat resurslari 16 726,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 20 602,6 ming kishiga yetgan.

3-jadval.

O‘zbekistonda mehnat resurslari sonining dinamikasi*

№	Yil	Mehnat resurslari, ming kishi
1.	2010	16 726,0
2.	2015	18 276,1
3.	2020	19 158,2
4.	2021	19 334,9
5.	2022	19 517,5
6.	2023	19 739,6
7.	2024	20 085,2
8.	2025	20 602,6

*Muallif ishlanmasi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2010–2025-yillar davomida mamlakat mehnat resurslari qariyb 3,9 mln kishiga oshgan. Bu holat hududiy mehnat bozorlariga qo‘shimcha bosim bilan birga yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ham yaratadi.

Mehnat resurslarining o‘sishi bir tomondan mintaqalar uchun katta inson kapitali salohiyatini shakllantirsa, ikkinchi tomondan ushbu resurslarni samarali ish bilan ta’minlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va yuqori unumdor ish o‘rinlariga yo‘naltirish vazifasini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy modelida mehnat resurslarini faqat miqdoriy ko‘rsatkich sifatida baholash yetarli emas. Mehnat resurslarining sifati, unumdorligi, moslashuvchanligi va innovatsion salohiyati asosiy mezonlardan biri sifatida qaralishi lozim.

BMTning 8-Barqaror rivojlanish maqsadi ham iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda yuqori mehnat unumdorligi, munosib mehnat, samarali bandlik va iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilishga urg‘u beradi.

Xalqaro mehnat tashkilotining 2025-yilgi hisobotida ham global mehnat bozorida yoshlar bandligi, gender tafovutlari, malaka va ish o‘rinlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik hamda texnologik o‘zgarishlarning ta’siri muhim masalalar sifatida ko‘rsatilgan.

Bu holat mintaqalar uchun muhim xulosani beradi: mehnat resurslarini boshqarish siyosati faqat ish o‘rinlari sonini ko‘paytirishga emas, balki ularning iqtisodiy samaradorligi va sifatini oshirishga yo‘naltirilishi kerak.

O‘zbekiston bo‘yicha Jahon bankining 2026-yilda e’lon qilingan baholashida ham bandlikning o‘sishi kambag‘allikni qisqartirishga sezilarli hissa qo‘shgani qayd etilgan. Shu bilan birga, yangi ish o‘rinlarining katta qismi qurilish va savdo sohalarida jamlangani, norasmiy bandlik ulushi yuqoriligi hamda mehnat unumdorligini oshirish muhim vazifa bo‘lib qolayotgani ko‘rsatilgan.

Mintaqalarda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari. Tadqiqot asosida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni taklif etish mumkin:

Birinchidan, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga mos kasbiy ta’lim tizimini

shakllantirish zarur. Ta’lim muassasalaridagi mutaxassisliklar tarkibi mintaqaning real mehnat bozori ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

Ikkinchidan, mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan yangi ish o‘rinlarini yaratishga ustuvorlik berish kerak. Ayniqsa, qayta ishlash sanoati, zamonaviy xizmatlar, IT, logistika, turizm, agrotexnologiya va innovatsion ishlab chiqarish yo‘nalishlari hududiy bandlikni diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, yoshlar va ayollar bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. ILO ma’lumotlari ham yoshlar va ayollarning mehnat bozoridagi imkoniyatlari bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, mehnat bozorini raqamlashtirish lozim. Hududlarda ish beruvchilar va ish izlovchilarni yagona raqamli platformalar orqali bog‘lash, kasbiy kompetensiyalarni elektron baholash va mehnat bozoridagi talabni prognozlash samaradorlikni oshirishi mumkin.

Beshinchidan, norasmiy bandlikni qisqartirish va rasmiy bandlikni rag‘batlantirish muhim. Bu nafaqat mehnat huquqlarini himoya qilish, balki soliq bazasini kengaytirish va aholini ijtimoiy himoya qilish imkoniyatlarini ham oshiradi.

Oltinchidan, hududiy mehnat migratsiyasini samarali boshqarish zarur. Mehnat resurslarining hududlararo harakatini hisobga olgan holda transport, uy-joy, ta’lim va ijtimoiy infratuzilma siyosatini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

Yettinchidan, yashil iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi kasblarga tayyorlash tizimini rivojlantirish kerak. Texnologik o‘zgarishlar ayrim kasblarga talabni kamaytirishi bilan birga yangi kasbiy yo‘nalishlarga talabni yuzaga keltiradi. ILO ham texnologik o‘zgarishlar sharoitida ko‘nikmalarni yangilash va qayta tayyorlashga investitsiyalar zarurligini ta’kidlaydi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanish iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarning o‘zaro ta’siriga asoslangan murakkab jarayon ekanligi aniqlandi.

Mehnat resurslari mintaqaning iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ularning samaradorligi faqat miqdor bilan emas, balki ta’lim darajasi, kasbiy malaka, mehnat unumdorligi, innovatsion qobiliyat va mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashish darajasi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston misolida mehnat resurslari sonining izchil oshib borayotgani hududlar oldiga yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish va inson kapitalidan samarali foydalanish vazifalarini qo‘ymoqda. Rasmiy statistika bo‘yicha 2025-yilda mamlakat mehnat resurslari 20,6 mln kishidan oshgan.

Tadqiqot asosida mintaqalar iqtisodiyotida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi kompleks yondashuvni shakllantirish taklif etiladi:

ta’lim → malaka → bandlik → unumdorlik → daromad → inson kapitali → barqaror rivojlanish.

Mazkur yondashuvni amalga oshirish hududlarning mavjud mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, aholi daromadlarini oshirish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, mintaqaviy siyosatda mehnat resurslarining miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda mehnat unumdorligi, ish o‘rinlarining sifati, rasmiy bandlik, kasbiy kompetensiyalar, yoshlar va ayollar bandligi, raqamli ko‘nikmalar hamda inson kapitaliga investitsiyalar asosiy indikatorlar sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schultz, T.W. (1961). "Investment in Human Capital." *The American Economic Review*, 51(1), 1–17

2. International Labour Organization. Resolution concerning statistics of work, employment and labour underutilization. Geneva: ILO. 2013

3. World Bank. Uzbekistan Poverty and Equity Assessment: Rising to Prosperity — Broadening Opportunities for All. Washington, D.C., 2026.

4. OECD. *OECD Employment Outlook 2024*. Paris: OECD Publishing, 2024. P. 25–38.

5. United Nations Development Programme. *Human Development Report 2021/2022: Uncertain Times, Unsettled Lives: Shaping Our Future in a Transforming World*. – New York: UNDP, 2022. – 319 p.

6. Abdurakhmanov, K. Kh. . *Labour Economics: Theory and Practice*. London: Scientific Publishing House IVG. 2020. ISBN: 978-1912966011

7. Vahobov, A. V.,& O‘lmasov, A. *Iqtisodiyot nazariyasi*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.2014.ISBN: 978-9943-13-503-1.

TA’LIM MUASSASALARIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV MODELLARNING IQTISODIY VA IJTIMOIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li
Toshkent xalqaro universiteti,
DSc mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0002-0398-5477
E-mail: xuja05533@gmail.com

Annotatsiya. *Tadqiqotning maqsadi ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt (SI) asosidagi adaptiv modellarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash uslubiyatini ishlab chiqishdan iborat. Metodologiya sifatida xarajat-foyda tahlili, ko‘rsatkichlar tizimini qurish, nashr etilgan randomizatsiyalangan va eksperimental tadqiqotlar natijalarini ikkilamchi tahlil qilish hamda SI qo‘llash yo‘nalishlarini samara turlari bo‘yicha matritsali tasniflash qo‘llanildi. Natijada iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikning 12 ko‘rsatkichdan iborat tizimi hamda hisoblash formulalari taklif etildi. Xalqaro eksperimental dalillar SI ning unumdorlikni 14 foizgacha, ish vaqtini 40 foizgacha tejashini va OTMga kelmay qolish holatlarini 21 foizga qisqartirishini ko‘rsatdi. Xulosada samaradorlikni baholashni nazorat guruhlari asosida tashkil etish zarurligi asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, xarajat-foyda tahlili, sof joriy qiymat, randomizatsiyalangan tajriba, oliy ta’lim.*

ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ АДАПТИВНЫХ МОДЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Улмасходжаев Зоирходжа Аббос угли
Ташкентский международный университет,
независимый соискатель степени доктора экономических наук (DSc)
ORCID: 0009-0002-0398-5477
E-mail: xuja05533@gmail.com

Аннотация. *Цель исследования – разработать методику оценки экономической и социальной эффективности адаптивных моделей на основе искусственного интеллекта в образовательных учреждениях. Применены анализ «затраты–выгоды», построение системы показателей, вторичный анализ опубликованных экспериментальных исследований и матричная классификация направлений применения ИИ. Предложена система из 12 показателей; экспериментальные данные показывают рост производительности до 14%, экономию времени до 40% и сокращение отказа от зачисления на 21%.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, экономическая эффективность, социальная эффективность, анализ затрат и выгод, рандомизированный эксперимент.*

ASSESSMENT OF THE ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED ADAPTIVE MODELS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li
Tashkent International University,
Independent DSc Researcher
ORCID: 0009-0002-0398-5477
E-mail: xuja05533@gmail.com

Abstract. *The study develops a methodology for assessing the economic and social*

effectiveness of AI-based adaptive models in educational institutions. It applies cost-benefit analysis, the construction of an indicator system, a secondary analysis of published randomised and experimental studies and a matrix classification of AI use cases. A system of 12 indicators is proposed; experimental evidence shows productivity gains of up to 14%, time savings of up to 40% and a 21% reduction in “summer melt”.

Keywords: *artificial intelligence, economic effectiveness, social effectiveness, cost-benefit analysis, net present value, randomised trial.*

Kirish

Sun’iy intellektga investitsiyalar jadal o‘smoqda, biroq ularning samarasi ko‘pincha o‘lchanmaydi. Ta’lim muassasalarida SI loyihalari odatda texnologik yangilik sifatida taqdim etiladi, ularning iqtisodiy natijasi (xarajatlarni tejash, daromadni saqlash) va ijtimoiy natijasi (o‘zlashtirish, tenglik, qoniqish) esa tizimli baholanmaydi. Bu boshqaruv uchun jiddiy xavf tug‘diradi: samarasi isbotlanmagan loyihalar resurslarni band qiladi, samarali loyihalar esa kengaytirilmaydi.

O‘zbekistonda bu masala Sun’iy intellekt strategiyasi [1] doirasida dolzarb bo‘lib, moliyaviy mustaqillik berilgan davlat OTMlari [2] o‘z investitsiya qarorlarini asoslashi zarur. Bundan tashqari, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunga O‘RQ-1115-son Qonun bilan kiritilgan o‘zgartishlar inson huquqlariga daxldor qarorlarni faqat SI asosida qabul qilishni taqiqlaydi [3], bu esa SI samaradorligini baholashda ijtimoiy va huquqiy mezonlarni ham hisobga olishni talab qiladi.

Tadqiqot farazi

SI asosidagi adaptiv modellar samaradorligini to‘g‘ri baholash faqat iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni birgalikda o‘lchash hamda samarani nazorat guruhi bilan solishtirish orqali mumkin; bunday baholashda SI ning eng yuqori samarasi bir vaqtda iqtisodiy va ijtimoiy natija beruvchi yo‘nalishlarda (masalan, o‘qishni tashlashning oldini olish) namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashning klassik vositasi xarajat-foyda tahlili bo‘lib, A.Boardman va hammualliflar uni sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik me’yori va xarajat-samaradorlik ko‘rsatkichlari orqali tizimlashtirgan [4]. H.Levin va P.McEwan ta’lim sohasida xarajat-samaradorlik tahlilini ishlab chiqib, ta’lim natijalarining pul bilan o‘lchanmaydigan jihatlarini hisobga olish usullarini taklif qilgan [5].

SI ning mehnat unumdorligiga ta’siri bo‘yicha eksperimental dalillar so‘nggi yillarda paydo bo‘ldi. E.Brynjolfsson, D.Li va L.Raymond mijozlarga xizmat ko‘rsatish markazida generativ SI yordamchisi o‘rtacha unumdorlikni 14 foizga, tajribasiz xodimlarda esa 34 foizga oshirganini aniqlagan [6]. S.Noy va W.Zhang randomizatsiyalangan tajribada yozma vazifalarni bajarish vaqti 40 foizga qisqarib, sifat 18 foizga oshganini ko‘rsatgan [7]. F.Dell’Acqua va hammualliflar maslahat kompaniyasi xodimlarida SI vazifalarni 25,1 foiz tezroq va 40 foizdan ortiq yuqori sifat bilan bajarishga yordam berganini, biroq SI imkoniyatlari doirasidan tashqaridagi vazifalarda natija yomonlashganini aniqlagan [8]. Ta’lim muassasasi darajasida L.Page va H.Gehlbach SI yordamchisi qabul qilingan talabalarning kelmay qolishini 21 foizga kamaytirganini ko‘rsatgan [9].

Biroq bu tadqiqotlar alohida samaralarni o‘lchaydi; ta’lim muassasalari uchun iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni birlashtirgan yaxlit baholash tizimi ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda to‘rt usul qo‘llanildi. Birinchidan, xarajat-foyda va xarajat-samaradorlik tahlili nazariyasi asosida [4; 5] ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Ikkinchidan, nashr etilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari [6; 7; 8; 9] ikkilamchi tahlil qilindi; faqat nazorat guruhi

mavjud bo‘lgan tadqiqotlar tanlandi. Uchinchidan, SI qo‘llash yo‘nalishlari iqtisodiy va ijtimoiy samara o‘lchovlari bo‘yicha matritsali tasniflandi. To‘rtinchidan, samarani hisoblash uchun farqlar farqi (difference-in-differences) mantiqiga asoslangan formula taklif etildi: E = (Yt1 − Yt0) − (Yc1 − Yc0), bu yerda t – SI qo‘llangan guruh, c – nazorat guruhi, 0 va 1 – joriy etishdan oldingi va keyingi davrlar.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni birgalikda baholash uchun 12 ko‘rsatkichdan iborat tizim taklif etildi (1-jadval).

1-jadval

SI asosidagi adaptiv modellar samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi*

Guruh	Ko‘rsatkich	Hisoblash formulasi	Yo‘nalish
Iqtisodiy	Sof joriy qiymat (NPV)	Σ (Bt − Ct) / (1 + r)^t	↑
Iqtisodiy	Bir talabaga xarajat o‘zgarishi	(C1/N1 − C0/N0) / (C0/N0)	↓
Iqtisodiy	Saqlab qolingan kontrakt daromadi	ΔR × P × T (saqlangan talabalar × kontrakt × qolgan yillar)	↑
Iqtisodiy	Ma’muriy xarajatlar ulushi	Cadm / Cjami	↓
Iqtisodiy	Debitorlik qarzi aylanuvchanligi	Daromad / o‘rtacha debitorlik	↑
Iqtisodiy	Qoplanish muddati	Investitsiya / yillik sof foyda	↓
Ijtimoiy	Talabalarni saqlab qolish darajasi	N(t+1) qolganlar / N(t)	↑
Ijtimoiy	Bitiruv darajasi	o‘z vaqtida bitirganlar / qabul qilinganlar	↑
Ijtimoiy	Tenglik tafovuti	guruhlar o‘rtasidagi natijalar farqi	↓
Ijtimoiy	Talabalar qoniqishi	so‘rovnoma indeksi	↑
Ijtimoiy	SI savodxonligi darajasi	test natijalari	↑
Ijtimoiy	Bitiruvchilar bandligi	ish bilan ta’minlanganlar / bitiruvchilar	↑

**Manba: muallif ishlanmasi [4; 5] asosida.*

Tizimning muhim jihati shundaki, “saqlab qolingan kontrakt daromadi” ko‘rsatkichi iqtisodiy va ijtimoiy samarani bog‘laydi: o‘qishni tashlashning oldini olish ham talaba uchun ijtimoiy foyda, ham OTM uchun daromad hisoblanadi. “Tenglik tafovuti” ko‘rsatkichi esa SI modellari muayyan guruhlarni kamsitmasligini nazorat qiladi.

Xalqaro eksperimental dalillar. Nazorat guruhi asosida o‘lchangan SI samaralari 2-jadval va 1-rasmda umumlashtirilgan.

2-jadval

SI samaradorligi bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari*

Tadqiqot	Kontekst va dizayn	Asosiy natija	Muassasa uchun ahamiyati
Brynjolfsson, Li, Raymond (2023)	mijozlarga xizmat ko‘rsatish, 5 179 xodim, bosqichma-bosqich joriy etish	unumdorlik o‘rtacha +14%, yangi xodimlarda +34%	talabalarga xizmat ko‘rsatish markazlari
Noy, Zhang (2023)	yozma professional vazifalar, randomizatsiyalangan tajriba	vaqt −40%, sifat +18%	hujjatlar, hisobotlar, ma’muriy yozishmalar
Dell’Acqua va boshq. (2023)	maslahat kompaniyasi, 758 nafar konsultant, randomizatsiya	vazifalar 25,1% tezroq, sifat 40% dan ortiq yuqori; SI chegarasidan tashqarida natija pasaygan	tahliliy va strategik ishlar, ehtiyotkorlik bilan
Page, Gehlbach (2017)	universitet, ~7 000 qabul qilingan talaba, randomizatsiya	kelmay qolish −21%, ro‘yxatga olinish +3,3 f.b.	qabul jarayoni va kontrakt daromadi

Manba: muallif tomonidan [6; 7; 8; 9] asosida tuzilgan.



1-rasm. Eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan SI samaralari, %.

Manba: [6; 7; 8; 9] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Ko‘rsatkichlar turli kontekstlarda o‘lchangan va bevosita taqqoslanmaydi.

Dalillar SI samaradorligi sezilarli, ammo bir xil emasligini ko‘rsatadi. Birinchidan, samara tajribasi kam xodimlarda yuqori bo‘lgan [6], ya’ni SI malaka tafovutini qisqartiradi. Ikkinchidan, SI imkoniyatlari doirasidan tashqaridagi vazifalarda natija yomonlashgan [8], bu esa SI ni har qanday vazifaga qo‘llash samarali emasligini bildiradi. Uchinchidan, ta’lim muassasasidagi yagona randomizatsiyalangan tajriba [9] SI ning bir vaqtda iqtisodiy (daromad) va ijtimoiy (ta’limga kirish imkoniyati) samara berishini ko‘rsatgan.

Samara turlari matritsasi. SI qo‘llash yo‘nalishlari iqtisodiy va ijtimoiy samara bo‘yicha joylashtirildi (2-rasm).



2-rasm. OTMda SI qo‘llash yo‘nalishlarining samara turlari matritsasi (sxematik)

Manba: muallif ishlanmasi; joylashuv sifatli baholarga asoslangan.

Matritsadan kelib chiqadiki, OTMlar uchun ustuvor yo‘nalishlar o‘ng yuqori kvadrantda joylashgan: o‘qishni tashlash xavfini erta aniqlash va talabalar uchun SI yordamchilari. Ular ham daromadni saqlaydi, ham ijtimoiy natijalarni yaxshilaydi. Hujjat aylanishini avtomatlashtirish va auditoriya fondini optimallashtirish asosan iqtisodiy samara beradi va tez qoplanadi. Moslashuvchan ta’lim platformalari esa asosan ijtimoiy samara beradi, ularning iqtisodiy samarasi uzoq muddatda namoyon bo‘ladi va NPV hisob-kitobida diskontlash stavkasiga sezgir. Natijalar ilgari surilgan farazni tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijasida SI asosidagi adaptiv modellar samaradorligini baholovchi 12 ko‘rsatkichli tizim, farqlar farqi formulasi va samara turlari matritsasi ishlab chiqildi. Xalqaro eksperimental dalillar SI ning unumdorlik va natijalarga sezilarli ijobiy ta’sirini, biroq bu ta’sir vazifa turiga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Takliflar:

1) OTMlarda har bir SI loyihasini boshlashdan oldin bazaviy ko‘rsatkichlarni qayd etish va iloji boricha nazorat guruhini ajratish (masalan, bosqichma-bosqich joriy etish orqali).

2) SI loyihalarining biznes-rejalarida NPV va qoplanish muddati bilan birga kamida ikkita ijtimoiy ko‘rsatkichni majburiy kiritish.

3) Investitsiyalarni birinchi navbatda ikki tomonlama samara beruvchi yo‘nalishlarga – o‘qishni tashlashning oldini olish va talabalarga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirish.

4) Tenglik tafovuti ko‘rsatkichini SI modellarini joriy etishning majburiy sharti sifatida monitoring qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1115-son Qonuni.

4. Boardman A.E., Greenberg D.H., Vining A.R., Weimer D.L. Cost-Benefit Analysis: Concepts and Practice. 5th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 592 p.

5. Levin H.M., McEwan P.J. Cost-Effectiveness Analysis: Methods and Applications. 2nd ed. – Thousand Oaks: Sage, 2001. – 308 p.

6. Brynjolfsson E., Li D., Raymond L.R. Generative AI at Work. NBER Working Paper No. 31161. – Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2023.

7. Noy S., Zhang W. Experimental evidence on the productivity effects of generative artificial intelligence // Science. – 2023. – Vol. 381. – №. 6654. – P. 187–192.

8. Dell’Acqua F., McFowland E., Mollick E.R. et al. Navigating the Jagged Technological Frontier: Field Experimental Evidence of the Effects of AI on Knowledge Worker Productivity and Quality. Harvard Business School Working Paper No. 24-013. – 2023.

9. Page L.C., Gehlbach H. How an artificially intelligent virtual assistant helps students navigate the road to college // AERA Open. – 2017. – Vol. 3. – №. 4. – P. 1–12.

Foydalanilgan veb-saytlar ro‘yxati:

- www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
- www.nber.org – AQSh Milliy iqtisodiy tadqiqotlar byurosi.
- www.science.org – Science jurnali.

HUDUDLARDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI QISQA PANEL MA’LUMOTLARI ASOSIDA O‘RTA MUDDATGA PROGNOZLASH: TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA

Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich

O‘zbekiston Respublikasi
Milliy statistika qo‘mitasining
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi boshlig‘i,
Kadrlar malakasini oshirish
va statistik tadqiqotlar institute
mustaqil tadqiqotchisi;
E-mail: jomolovmuzaffar@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6019-8735

Annotatsiya. *Maqolada Toshkent viloyatining 22 ta shahar va tumani bo‘yicha investitsiyalar samaradorligi ko‘rsatkichlarini 2026–2028-yillarga prognozlash masalasi ko‘rib chiqilgan. Prognozlangan ko‘rsatkichlar: investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi (IPI), DEA-CCR texnik samaradorlik ballari va integral samaradorlik indeksi. Ma’lumotlar qisqa (T = 6), chegaralangan, o‘zgaruvchan va tuzilmaviy siljishlarga ega panel sifatida tavsiflangan. Yetti prognoz usuli aylanma validatsiya orqali qiyoslangan. Oddiy va kombinatsiyalashgan usullarni umumlashtiruvchi o‘rtachaga qaytuvchi model eng past o‘rtacha xatolikni berdi (MAPE 25,3–26,2 %). Prognoz natijalariga ko‘ra, joriy trayektoriya saqlansa, viloyat darajasida samaradorlikning sezilarli o‘sishi kutilmaydi: integral indeks 0,46 atrofida barqarorlashadi, hududlararo tafovutlar esa sekin qisqaradi.*

Kalit so‘zlar: *investitsiyalar samaradorligi, prognozlash, qisqa panel, o‘rtachaga qaytish, aylanma validatsiya, MAPE, DEA, integral indeks, Toshkent viloyati.*

СРЕДНЕСРОЧНОЕ ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНАХ НА ОСНОВЕ КОРОТКИХ ПАНЕЛЬНЫХ ДАННЫХ: НА ПРИМЕРЕ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

Джомолов Музаффар Мирзохитович

начальник управления статистики
инвестиций и строительства
национального комитета
Республики Узбекистан по статистике,
независимый исследователь
института повышения квалификации
кадров и статистических исследований;
E-mail: jomolovmuzaffar@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6019-8735

Аннотация. *В статье рассмотрена задача прогнозирования показателей эффективности инвестиций на 2026–2028 гг. для 22 городов и районов Ташкентской области. Прогнозируются индекс эффективности привлечения инвестиций (IPI), баллы технической эффективности DEA-CCR и интегральный индекс эффективности. Данные охарактеризованы как короткая (T = 6), ограниченная, изменчивая панель со структурными сдвигами. Семь методов прогнозирования сопоставлены с помощью скользящей валидации. Наименьшую среднюю ошибку показала модель возврата к среднему, обобщающая простые и комбинированные методы (MAPE 25,3–26,2 %). Согласно прогнозу, при сохранении текущей траектории существенного роста*

эффективности на уровне области не ожидается: интегральный индекс стабилизируется около 0,46, а межтерриториальные различия медленно сокращаются.

Ключевые слова: *эффективность инвестиций, прогнозирование, короткая панель, возврат к среднему, скользящая валидация, MAPE, DEA, интегральный индекс, Ташкентская область.*

MEDIUM-TERM FORECASTING OF REGIONAL INVESTMENT EFFICIENCY WITH SHORT PANEL DATA: EVIDENCE FROM TASHKENT REGION

Jomolov Muzaffar Mirzokhitovich
Head of the Department of Investment and Construction Statistics
National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan,
Independent Researcher at the Institute for Professional Development and Statistical Research;
E-mail: jomolovmuzaffar@gmail.com
ORCID:0009-0006-6019-8735

Abstract. *The article addresses the forecasting of investment efficiency indicators for 2026–2028 for 22 cities and districts of Tashkent region. The forecast indicators are the investment attraction efficiency index (IPI), DEA-CCR technical efficiency scores and a composite efficiency index. The data are characterised as a short (T = 6), bounded and volatile panel with structural breaks. Seven forecasting methods are compared using rolling-origin validation. A mean-reverting model that generalises simple and combination methods yields the lowest average error (MAPE 25.3–26.2%). According to the forecast, if the current trajectory persists, no substantial increase in efficiency is expected at the regional level: the composite index stabilises at about 0.46, and inter-district disparities narrow slowly.*

Keywords: *investment efficiency, forecasting, short panel, mean reversion, rolling-origin validation, MAPE, DEA, composite index, Tashkent region.*

Kirish

Statistik tahlilning muhim bosqichi — aniqlangan tendensiyalarning yaqin va o‘rta muddatdagi o‘zgarishini baholash, ya’ni prognozlash. Hududlarda investitsiyalar samaradorligini prognozlash investitsiya dasturlarini shakllantirish, resurslarni hududlar o‘rtasida taqsimlash va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [1] maqsadlariga erishish monitoringi uchun zarur.

Tuman va shahar darajasida prognozlashning o‘ziga xos qiyinchiligi bor. Samaradorlik ko‘rsatkichlari faqat so‘nggi yillar uchun hisoblangan, shu sababli vaqt qatorlari juda qisqa. Qator ko‘rsatkichlar esa [0; 1] oralig‘ida chegaralangan. Bunday sharoitda klassik ekonometrik usullarni qo‘llash cheklangan, murakkab modellar esa ortiqcha moslashish (overfitting) xavfini tug‘diradi [2; 3].

Tadqiqotning maqsadi — qisqa panel ma’lumotlari sharoitida investitsiyalar samaradorligi ko‘rsatkichlarini prognozlashning maqbul usulini empirik validatsiya asosida tanlash hamda Toshkent viloyatining 22 ta shahar va tumani bo‘yicha 2026–2028-yillarga prognoz ishlab chiqish. Prognoz obyekti — muallifning oldingi tadqiqotida [4] hisoblangan uchta ko‘rsatkich: investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi (IPI) [5], DEA-CCR texnik samaradorlik ballari [6] va integral samaradorlik indeksi (I_{int}).

Adabiyotlar sharhi

Jahon amaliyotida samaradorlik va unumdorlik ko‘rsatkichlarini prognozlashda bir necha uslubiy yo‘nalish shakllangan.

Boks–Jenkins (ARIMA) modellari [7] statsionar qatorning ichki bog‘liqlik tuzilmasini modellashtiradi:

$$\varphi_p(B)(1 - B)^d X_t = \theta_q(B)\varepsilon_t \quad (1)$$

bunda $\varphi_p(B)$ va $\theta_q(B)$ — avtoregressiya va siljuvchi o‘rtacha polinomlari; B — lag operatori; d — differensiallash tartibi; ε_t — oq shovqin. ARIMA odatda kamida 30–50 ta kuzatuvni talab qiladi [2], shu sababli qisqa qatorlarga yaroqsiz.

Eksponensial silliqlash usullari — R. Braun [8], C. Xolt [9] va P. Vinters [10] usullari hamda ularni umumlashtirgan E. Gardner ishi [11]. Dempfirlangan Xolt modeli ortiqcha ekstrapolyatsiyaning oldini oladi:

$$\ell_t = \alpha y_t + (1 - \alpha)(\ell_{t-1} + \varphi b_{t-1}), \quad b_t = \beta(\ell_t - \ell_{t-1}) + (1 - \beta)\varphi b_{t-1} \quad (2)$$

bunda ℓ_t — daraja; b_t — trend; α, β — silliqlash parametrlari; φ — dempfirlash koeffitsiyenti. S. Makridakis prognoz tanlovlari (M3, M4) qisqa va shovqinli qatorlarda oddiy va kombinatsiyalashgan usullar ko‘pincha murakkab modellardan aniqroq ekanini ko‘rsatdi [12; 13].

Grey tizimlar nazariyasi va GM(1,1) modeli [14; 15] kam sonli kuzatuvlar ($n \geq 4$) uchun ishlab chiqilgan. U dastlabki qatorni jamlash (AGO) orqali silliqlaydi va birinchi tartibli differensial tenglama bilan modellashtiradi:

$$\frac{dx^{(1)}}{dt} + ax^{(1)} = b \quad (3)$$

Uning kamchiligi — qatorning deyarli eksponensial o‘sishini nazarda tutishi. *Markov zanjirlari va taqsimot dinamikasi* [16] samaradorlik holatlari (past, o‘rta, yuqori) o‘rtasidagi o‘tish ehtimollarini modellashtiradi:

$$P_{ij} = P(S_{t+1} = j \mid S_t = i), \quad \pi_{t+1} = \pi_t P \quad (4)$$

Panel ekonometrikasi [17] fazoviy va vaqt o‘lchovlarini birlashtirib, kam yillik sharoitda ham parametrlarni baholay oladi. J. Beyts va C. Grenjer [18] asos solgan *kombinatsiyalashgan prognozlash* bir necha prognozni vaznli o‘rtacha orqali birlashtiradi:

$$\hat{y}_t^{\,c} = \sum_{i=1}^{m} w_i \hat{y}_t^{\,i}, \quad \sum_{i=1}^{m} w_i = 1 \quad (5)$$

Bazaviy usullar sifatida “Naive” (oxirgi kuzatuv) va “Mean” (tarixiy o‘rtacha) usullari qo‘llaniladi:

$$\hat{y}_{t+h} = y_t \ (Naive), \quad \hat{y}_{t+h} = \frac{1}{T}\sum_{t=1}^{T} y_t \ (Mean) \quad (6)$$

O‘zbekistonda mintaqaviy prognozlash amaliyoti asosan ekstrapolyatsiya, ekspert (Delfi), balans va normativ usullarga tayanadi [19; 20]. So‘nggi yillarda adaptiv prognoz usullari [21] ham ilmiy tadqiqotlarga kirib kelmoqda. Shu bilan birga, ko‘rsatkichlarning chegaralanganligi va qatorlarning qisqaligini hisobga oluvchi prognoz modellari hali yetarlicha qo‘llanilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ma’lumotlar bazasi 22 ta ma’muriy hudud (N = 22) bo‘yicha 2020–2025-yillarni (T = 6) qamrab oluvchi panel hisoblanadi. U prognoz usulini tanlashni belgilovchi beshta xususiyatga ega:

1) *qatorlarning qisqaligi* — har bir hudud bo‘yicha atigi 6 ta yillik kuzatuv;

2) *chegaralanganlik* — DEA-CCR va I_{int} qiymatlari [0; 1] oralig‘ida, samaradorlik chegarasidagi hududlar uchun DEA bali aynan 1,0 ga teng;

3) *yuqori o‘zgaruvchanlik va o‘rtachaga qaytish* — qatorlar barqaror trend emas, balki o‘z muvozanat darajasi atrofida tebranadi;

4) *tuzilmaviy siljishlar* — 2020–2021-yillardagi pandemiya ta’siri, 2022-yildagi investitsiya faolligining keskin o‘sishi va keyingi barqarorlashuv;

5) *kuchli fazoviy o‘lchov* — 22 ta hudud kesimi qisqa vaqt qatorini to‘ldiruvchi qo‘shimcha

axborot manbai bo‘ladi [17].

Ushbu xususiyatlarni hisobga olib, o‘rtachaga qaytuvchi (mean-reverting) model taklif etiladi:

$$\hat{y}_{i,t+h} = \mu_i + \varphi^h(y_{i,t} - \mu_i), \quad \mu_i = \frac{1}{T}\sum_{t=1}^{T} y_{i,t} \qquad (7)$$

bunda μ_i — i-hududning 2020–2025-yillardagi o‘rtacha qiymati (muvozanat darajasi); $y_{i,t}$ — 2025-yildagi haqiqiy qiymat; φ — qaytish (inersiya) koeffitsiyenti, $0 \le \varphi \le 1$; h — prognoz ufqi. Model bir necha klassik yondashuv g‘oyalarini umumlashtiradi. φ = 1 da u Naive usuliga, φ = 0 da Mean usuliga aylanadi. φ^h hadi prognozning muvozanat darajasiga eksponensial yaqinlashuvini ta’minlaydi. Bu AR(1) (Ornshteyn–Ulenbek) jarayoniga va dempfirlangan Xolt modelidagi so‘ndirish g‘oyasiga mos keladi. h = 1 da esa model Naive va Mean prognozlarining (5) ko‘rinishdagi vaznli kombinatsiyasiga teng bo‘ladi [18]. Trend parametri baholanmagani uchun model qisqa qatorda ortiqcha moslashmaydi. DEA-CCR va I_{int} prognozlari [0; 1] oralig‘ida saqlanadi.

Usullarni obyektiv tanlash uchun aylanma (rolling-origin) validatsiya o‘tkazildi. Unda ma’lum yilgacha bo‘lgan ma’lumotlar asosida keyingi yil prognoz qilinib, haqiqiy qiymat bilan solishtirildi. Uchta boshlang‘ich nuqta qo‘llanildi: 2020–2022 → 2023, 2020–2023 → 2024 va 2020–2024 → 2025. Har bir indikator bo‘yicha 66 ta prognoz xatosi olindi. Aniqlik o‘rtacha nisbiy xatolik moduli bilan baholandi [2]:

$$MAPE = \frac{100}{n}\sum_{k=1}^{n} \left| \frac{y_k - \hat{y}_k}{y_k} \right| \qquad (8)$$

Hududlararo tarqoqlik dinamikasi variatsiya koeffitsiyenti (CV = σ / ȳ · 100 %) orqali baholandi. Hisob-kitoblar Python dasturida bajarildi.

Tahlil va natijalar

Usullarni qiyosiy baholash. Prognoz usullarining ma’lumotlar xususiyatlariga mosligi 1-jadvalda keltirilgan. ARIMA va mashinaviy o‘rganish usullari ma’lumotlar qisqaligi sababli istisno qilindi. Qolgan usullar empirik validatsiya orqali qiyoslandi.

1-jadval.

Prognoz usullarining ma’lumotlar xususiyatlariga mosligi*

Usul	Minimal kuzatuvlar soni	Asosiy farazlar	Cheklanishlar (bizning holatda)	Mosligi
ARIMA	30–50	Statsionarlik, uzun qator	Qator juda qisqa	Past
Mashinaviy o‘rganish	Yuzlab	Katta hajmdagi ma’lumot	Ma’lumot yetishmasligi	Past
Xolt / Vinters	8–10	Barqaror trend	Trend kuchsiz, ortiqcha moslashish	O‘rta
Grey GM(1,1)	≥ 4	Eksponensial o‘sish	Tebranuvchi qatorlarda xato	O‘rta
Markov zanjiri	Panel	Holatlarning barqaror o‘tishi	Diskretlashda axborot yo‘qoladi	O‘rta–yuqori
O‘rtachaga qaytuvchi model	≥ 4	Muvozanat + inersiya	Tuzilmaviy siljishlarni bevosita aks ettirmaydi	Yuqori

*Muallif ishlanmasi.

Validatsiya natijalari 2-jadval va 1-rasmda keltirilgan. Trend ekstrapolyatsiyasiga asoslangan usullar (Xolt, GM(1,1)) va Markov zanjiri qisqa hamda o‘zgaruvchan qatorlarda

ortiqcha moslashish tufayli eng past aniqlikni ko‘rsatdi. Uch indikator bo‘yicha o‘rtacha eng kichik xatolikni o‘rtachaga qaytuvchi model berdi: umumiy φ = 0,55 da MAPE 26,2 %, indikatorlarga moslashtirilgan φ da esa 25,3 %.

2-jadval.

Prognoz usullarining aylanma validatsiya bo‘yicha aniqligi (MAPE, %)*

Usul	IPI	DEA-CCR	I_int	O‘rtacha
O‘rtachaga qaytuvchi model (φ = 0,55; 0,90; 0,30)	**47,8**	**5,6**	**22,6**	**25,3**
O‘rtachaga qaytuvchi model (umumiy φ = 0,55)	**47,8**	**5,9**	**25,0**	**26,2**
Naive (oxirgi qiymat, φ = 1)	44,5	5,6	31,0	27,0
Mean (o‘rtacha, φ = 0)	55,7	7,3	20,5	27,8
Kombinatsiya (Mean + Naive + Markov)	57,3	6,8	25,7	29,9
Xolt (dempfirlangan)	56,9	7,5	28,1	30,8
Markov zanjiri	79,0	9,5	29,0	39,1
Grey GM(1,1)	64,0	10,6	49,9	41,5

*Muallif hisob-kitoblari (3 ta boshlang‘ich nuqta × 22 ta hudud).

1-rasm.

Prognoz usullarining aniqlik bo‘yicha taqqoslanishi (2023–2025-yillar bo‘yicha aylanma validatsiya)*



*Muallif hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, indikatorlar kesimida tanlangan model har doim ham eng aniq emas. IPI bo‘yicha Naive usuli (44,5 %), I_{int} bo‘yicha esa Mean usuli (20,5 %) biroz kamroq xatolik berdi. Bu tasodifiy emas: ikkala usul ham (7) modelning chegaraviy holatlari (φ = 1 va φ = 0). Demak, ular IPI qatorlarining tasodifiy sayrga, I_{int} qatorlarining esa o‘z o‘rtachasiga kuchli qaytishga moyilligini ko‘rsatadi. Model afzalligi yagona formula doirasida har bir indikator dinamikasiga φ orqali moslasha olishidadir.

φ koeffitsiyentining sezgirligi. Uch indikator uchun umumiy φ ning o‘zgarishi o‘rtacha xatolikka kuchsiz ta’sir ko‘rsatadi: minimum φ ≈ 0,55–0,60 da (MAPE ≈ 26,2 %) bo‘lib, 0,45–0,65 oralig‘ida barqaror (2-rasm, b). Indikatorlar kesimida IPI bo‘yicha xatolik φ ortishi bilan, I_{int} bo‘yicha esa φ kamayishi bilan pasayadi (2-rasm, a). Shu sababli indikatorlarga moslashtirilgan φ

qo‘llanildi: IPI uchun 0,55, DEA-CCR uchun 0,90, I_{int} uchun 0,30 (3-jadval).

2-rasm.

φ koeffitsiyentining sezgirlik tahlili*



*Muallif hisob-kitoblari.

3-jadval.

Indikatorlarga moslashtirilgan φ koeffitsiyenti va prognoz aniqligi

Indikator	Qo‘llanilgan φ	MAPE, %	Dinamika tavsifi	Validatsiya bo‘yicha optimal φ (MAPE, %)
IPI	0,55	47,8	Tasodifiy sayrga yaqin, yuqori tebranish	1,00 (44,5)
DEA-CCR	0,90	5,6	Yuqori inersiya: samarali hududlar samarali qoladi	0,90 (5,6)
I_int	0,30	22,6	O‘rtachaga kuchli qaytish	0,00 (20,5)

*Muallif hisob-kitoblari.

Viloyat darajasidagi prognoz. Viloyat o‘rtachasi darajasida uchala indikator barqarorlashuv tendensiyasini namoyon etadi (4-jadval, 3-rasm).

4-jadval.

Samaradorlik ko‘rsatkichlarining viloyat o‘rtachasi va hududlararo tarqoqligi: fakt (2020–2025) va prognoz (2026–2028)*

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2026p	2027p	2028p
IPI: o‘rtacha	1,083	0,982	0,903	0,933	0,892	1,000	0,985	0,976	0,971
IPI: CV, %	89,8	99,8	82,2	103,7	106,0	74,6	73,4	75,5	77,5
DEA-CCR: o‘rtacha	0,924	0,871	0,917	0,891	0,907	0,941	0,937	0,934	0,932
DEA-CCR: CV, %	14,4	17,5	13,6	16,2	14,6	8,8	8,8	8,9	9,0
DEA-CCR: chegaradagi hududlar soni	15	10	13	12	12	11	6	6	6
I_int: o‘rtacha	0,462	0,417	0,554	0,437	0,485	0,434	0,456	0,462	0,464
I_int: CV, %	32,4	27,6	18,6	31,3	16,8	33,2	23,5	21,6	21,2

Izoh: p — prognoz; viloyat o‘rtachasi — 22 ta hudud qiymatlarining oddiy o‘rtachasi.

*Muallif hisob-kitoblari.

3-rasm.

Viloyat o‘rtachasi: fakt (2020–2025) va prognoz (2026–2028) trayektoriyasi



*Muallif hisob-kitoblari.

IPI bo‘yicha viloyat o‘rtachasi 2020–2025-yillarda 0,89–1,08 oralig‘ida tebrangan. Prognoz davrida u 1,000 dan (2025) asta-sekin 0,971 gacha (2028) pasayadi. Indikatorning asosiy xususiyati — o‘ta yuqori hududlararo tarqoqlik. Variatsiya koeffitsiyenti fakt yillarida 75–106 %, prognozda 73–78 % ni tashkil etadi. Olmaliq shahri barqaror yetakchi bo‘lib qoladi (3,78–3,94). Bekobod va Yangiyo‘l shaharlari, Parkent, Oqqo‘rg‘on va Bo‘ka tumanlari esa past qatlamda (0,3–0,6) qoladi.

DEA-CCR bo‘yicha viloyat o‘rtachasi yuqori va barqaror: prognoz davrida 0,93–0,94. Tarqoqlik ham eng past (CV ≈ 9 %). Olmaliq, Bekobod, Ohangaron, Yangiyo‘l shaharlari hamda Bekobod va Bo‘ka tumanlari butun davr mobaynida samaradorlik chegarasida (1,000) turadi va “etalon” hududlar hisoblanadi. Chegaradagi hududlar soni fakt yillarida 10–15 ta bo‘lsa, prognozda 6 taga tushadi. Bu real pasayish emas, balki model qiymatlarni muvozanat sari “yumshatishi” natijasidir. Eng zaif bo‘g‘inlar Bo‘stonliq tumani (0,78–0,81), Yangiyo‘l tumani (0,73) va Angren shahri (0,75–0,77).

18. Asian Development Bank. Uzbekistan Mortgage Refinancing Company – domestic green bond framework and issuance note. – Manila: ADB, 2024.
19. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. At the meeting on 29th of July, the Board of the Central Bank decided to keep the policy rate unchanged at 14 percent per annum. – 29.07.2026.
20. World Bank. Corporate Governance of State-Owned Enterprises: A Toolkit. – Washington, DC: World Bank, 2014 (2023 update on SOE decarbonization pathways).
21. International Capital Market Association (ICMA). Green Bond Principles: Voluntary Process Guidelines for Issuing Green Bonds. – Paris: ICMA, June 2025.
22. International Capital Market Association (ICMA). Social Bond Principles: Voluntary Process Guidelines for Issuing Social Bonds. – Paris: ICMA, June 2025.
23. International Capital Market Association (ICMA). Sustainability Bond Guidelines. – Paris: ICMA, June 2021.
24. Regulation (EU) 2023/956 of the European Parliament and of the Council of 10 May 2023 establishing a carbon border adjustment mechanism // Official Journal of the European Union. – L 130. – 16.05.2023.
25. Asian Development Bank. ADB Issues Inaugural Uzbekistan Sum-Denominated Bond and Third Mongolian Togrog Bond in 2025. – 2025.
26. ICMA. Introduction to Sustainable Bonds. Training materials. – London: ICMA, December 2025. – Day 1. – P. 42–43.
27. ICMA, IsDB, LSEG. Guidance on Green, Social and Sustainability Sukuk. – April 2024. – P. 4–12.
28. United Nations. Paris Agreement. – UNFCCC, 2015. – Article 6.
29. Hong Kong Monetary Authority. HKSAR Government’s inaugural tokenised green bond offering. Press release. – Hong Kong: HKMA, 16.02.2023.
30. European Investment Bank. EIB issues its first ever digital bond on a public blockchain. Press release. – Luxembourg: EIB, 28.04.2021.
31. UNFCCC. New collective quantified goal on climate finance. Decision 1/CMA.6. – Baku, November 2024. – Para. 7–8.
32. World Bank. Blended Finance for Climate Investment: Instruments and Country Experience. – Washington, DC: World Bank Group, 2023.
33. ICMA. Introduction to Sustainable Bonds. Training materials. – London: ICMA, December 2025. – Day 2. – P. 36.
34. IFRS Foundation. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information; IFRS S2 Climate-related Disclosures. – London: ISSB, June 2023.
35. Regulation (EU) 2020/852 of the European Parliament and of the Council of 18 June 2020 on the establishment of a framework to facilitate sustainable investment // Official Journal of the European Union. – L 198. – 22.06.2020.
36. Directive (EU) 2022/2464 of the European Parliament and of the Council of 14 December 2022 as regards corporate sustainability reporting // Official Journal of the European Union. – L 322. – 16.12.2022.
37. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the effective management and supervision of climate-related financial risks. – Basel: BIS, June 2022.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MOLIYA BOZORIDA QARZ INSTRUMENTLARI ORQALI SAVDOLARNI MOLIYALASHTIRISH

Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li
PhD, katta o‘qituvchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: xushvaqovislombek@gmail.com
ORCID:0009-0004-1221-7829

Annotatsiya. *Mazkur maqolada moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdo operatsiyalarini moliyalashtirish masalalari tahlil qilingan. Agentlik faktoringi, diskontlangan akkreditivlar asosida forfeyting mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, qarz majburiyatlarini tartibga solish, risklarni boshqarish va likvidlikni ta’minlash bo‘yicha ilmiy takliflar hamda amaliy natijalar asosida asosiy xulosalar va takliflar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *qarz instrumentlari, moliya bozori, savdo operatsiyalari, moliyalashtirish, agentlik faktoringi, forfeyting, diskontlangan akkreditiv, qarz majburiyatlari, risklarni boshqarish, likvidlik.*

ФИНАНСИРОВАНИЕ СДЕЛОК ПОСРЕДСТВОМ ДОЛГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА ФИНАНСОВОМ РЫНКЕ.

Хушваков Исламбек Мухаммади угли
PhD, старший преподаватель
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: xushvaqovislombek@gmail.com
ORCID: 0009-0004-1221-7829

Аннотация. *В данной статье проанализированы вопросы финансирования торговых операций посредством долговых инструментов на финансовом рынке. Освещены механизмы агентского факторинга, форфейтинга на основе дисконтированных аккредитивов. Также на основе научных предложений и практических результатов по регулированию долговых обязательств, управлению рисками и обеспечению ликвидности сформулированы основные выводы и предложения.*

Ключевые слова: *долговые инструменты, финансовый рынок, торговые операции, финансирование, агентский факторинг, форфейтинг, дисконтированный аккредитив, долговые обязательства, управление рисками, ликвидность.*

FINANCING OF TRADES THROUGH DEBT INSTRUMENTS IN THE FINANCIAL MARKET

Khushvakov Islombek Mukhammadi ogli
PhD, Senior Lecturer
Tashkent State University of Economics
E-mail: xushvaqovislombek@gmail.com
ORCID: 0009-0004-1221-7829

Abstract. *This article analyzes the issues of financing trade operations through debt instruments in the financial market. The mechanisms of agency factoring and forfeiting based on discounted letters of credit are covered. Also, based on scientific proposals and practical results on regulating debt obligations, risk management, and ensuring liquidity, main conclusions and proposals have been formulated.*

Keywords: *debt instruments, financial market, trade operations, financing, agency*

factoring, forfeiting, discounted letter of credit, debt obligations, risk management, liquidity.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday savdo operatsiyasini moliyalashtirish korxonalardan o‘z mablag‘lari bilan bir qatorda turli shakldagi qarz mablag‘larini ham jalb etishni talab qiladi. Ayniqsa, xalqaro savdo hajmining kengayishi, yetkazib berish zanjirlarining murakkablashuvi, kontragentlar o‘rtasidagi hisob-kitob muddatlarining uzayishi hamda to‘lov bilan bog‘liq risklarning ortib borishi korxonalarning aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda korxonalar uchun nafaqat yetarli moliyaviy resurslarni shakllantirish, balki debitor va kreditor qarzdorlikni muvozanatli boshqarish, pul oqimlarining uzluksizligini ta’minlash hamda likvidlik darajasini saqlab qolish muhim vazifaga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, moliya bozorida savdo operatsiyalarini moliyalashtirish va ular bilan bog‘liq risklarni kamaytirishga xizmat qiluvchi faktoring, forfeyting, akkreditivlar hamda fyuchers shartnomalari kabi moliyaviy instrumentlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur vositalar korxonalarga tovar va xizmatlar realizatsiyasidan tushum kelib tushishini kutmasdan aylanma mablag‘larni tezkor shakllantirish, eksport-import operatsiyalarida to‘lov kafolatlarini kuchaytirish, kredit va valyuta risklarini kamaytirish hamda kelgusidagi narx o‘zgarishlaridan himoyalanish imkonini beradi.

Jahon moliyaviy infratuzilmasining so‘nggi yillardagi ko‘rsatkichlari ushbu instrumentlarga bo‘lgan talabning izchil o‘sib borayotganini tasdiqlaydi. Xususan, Factors Chain International (FCI) ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda global faktoring aylanmasi ilk bor 4 trillion yevrodan oshib, 4 039 milliard yevroni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yildagi 3 895 milliard yevroga nisbatan 3,7 foizga o‘sishni anglatadi. Mamlakatlar kesimida Xitoy 713 milliard yevro bilan eng yirik faktoring bozori bo‘lib qolmoqda, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi esa 995 milliard yevro hajm bilan global aylanmaning 24,6 foizini ta’minlagan [1]. Forfeyting bozori ham barqaror o‘sish trayektoriyasini saqlab qolgan: 2025-yilda global forfeyting bozori hajmi 15,2 milliard AQSh dollariga baholanib, 2034-yilga kelib 20,1 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [2].

Shu bilan birga, xalqaro savdoni moliyalashtirishda sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Osiyo taraqqiyot bankining (ADB) 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, global savdo moliyasi bo‘shlig‘i 2,5 trillion AQSh dollari darajasida qolmoqda, bu jahon savdo hajmining qariyb 10 foizini tashkil etadi. Kichik va o‘rta biznes subyektlariga nisbatan rad etish darajasi yirik korporatsiyalarga qaraganda ikki baravar yuqori bo‘lib, kichik korxonalarning 41 foizi savdo moliyasi bo‘yicha arizalari rad etilmoqda [3]. Ushbu holat rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham qarz instrumentlari orqali savdolarni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda xalqaro miqyosda savdo operatsiyalarini qarz instrumentlari orqali moliyalashtirish masalasi bir qancha xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari markazida bo‘lib kelmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar faktoring, forfeyting, akkreditivlar, savdo krediti kabi instrumentlarning savdo moliyasidagi o‘rni, samaradorligi va risklarni boshqarishdagi ahamiyatini yoritib beradi.

Xususan, Jahon savdo tashkiloti iqtisodchilari Marc Auboin, Harry Smythe va Robert Teh tomonidan olib borilgan tadqiqotda “faktoring, mavjud bo‘lgan mamlakatlarda, kichik va o‘rta biznes subyektlarining xalqaro savdoda ishtirok etish qobiliyatini oshirishi” aniqlangan [4]. Mualliflar 2008 - 2015 - yillar davomida Factor Chain International (FCI) ma’lumotlaridan foydalanib, faktoringning savdo hajmiga ta’sirini empirik jihatdan isbotlaganlar. Ushbu tadqiqot faktoringning nafaqat moliyaviy instrument, balki savdo siyosati vositasi sifatidagi rolini ham ko‘rsatib beradi.

Forfeyting instrumenti bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa uning ikki tomonlama

ahamiyati ta’kidlanadi. Xususan, forfeyting bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar “forfeyting eksportchiga nafaqat savdo bilan bog‘liq risklarni bartaraf etish, balki debitorlik qarzlarini forfeyterga sotish orqali likvidligini oshirish imkoniyatini ham taqdim etadi” degan xulosaga kelganlar. Biroq, mazkur tadqiqotda “forfeyting mamlakat riskiga qarab bitim yoki muddat cheklovlari, valyuta va majburiyat muddati cheklovlari hamda firibgarlik holatlarida qaytarib olinmaslik kabi cheklovlarga ham ega” [5] ekanligi qayd etilgan.

Savdo krediti va yetkazib berish zanjiri moliyasi yo‘nalishida Andy Naranjo va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotda savdo krediti firma moliyalashtirishning muhim manbasi bo‘lib, uning to‘lov muddatliligi bo‘yicha boy informatsion mazmuni aktivlarni narxlashda yetarli darajada o‘rganilmagan ekanligi ta’kidlangan. Mualliflar “firmaning o‘z yetkazib beruvchilariga to‘lovini kechiktirishi uning aksiyalari bo‘yicha kelgusi daromadlilikning sezilarli darajada past bo‘lishini prognoz qilishini” [6] aniqlaganlar. Bu esa savdo kreditining nafaqat moliyaviy, balki axborot signalizatsiyasi funktsiyasini ham ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, qarz instrumentlari orqali savdo operatsiyalarini moliyalashtirish bo‘yicha xorijiy olimlarning ilmiy xulosalari ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi: bir guruh tadqiqotchilar ushbu instrumentlarning savdo hajmini oshirish va likvidlikni ta’minlashdagi ijobiy ta’sirini ta’kidlasa, boshqa guruh ularning cheklovlari va risklarini, xususan, rivojlanayotgan bozorlardagi infratuzilma yetishmovchiligini ko‘rsatib beradi. Savdo moliyasi instrumentlarining samaradorligi bo‘yicha fikrlar va xulosalar ham moliya bozori munosabatlarining jadallashuvi bilan o‘zgarib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdo operatsiyalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Xususan, qarz instrumentlari bo‘yicha umumiy nazariy qarashlardan xususiy xulosalarga kelishda induksiya, alohida mamlakat va institutsional amaliyotlarni umumiy qonuniyatlar asosida izohlashda deduksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqot predmetining mazmun-mohiyatini chuqur anglash, omillar o‘rtasidagi sabab-natija bog‘liqliklarini aniqlash maqsadida mantiqiy tahlil, sintez va ilmiy abstraktsiya usullariga murojaat qilindi. Shuningdek, faktoring, forfeyting, akkreditiv va fyuchers shartnomalari bo‘yicha xorijiy hamda milliy amaliyotni taqqoslashda qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni guruhlash va dinamik qatorlarni o‘rganish usullari qo‘llanildi. Xalqaro hisobotlar FCI, BIS, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, shuningdek O‘zbekiston Markaziy banki, O‘zRTXB va Ipoteka bank ma’lumotlari asosida raqamli tahlillar amalga oshirildi [11,12].

Tahlil va natijalar

Jahon miqyosida qarz instrumentlari orqali savdo operatsiyalarini moliyalashtirish bozori so‘nggi o‘n yillikda izchil kengayib bormoqda. FCI ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda global faktoring aylanmasi tarixda ilk bor 4 trillion yevrodan oshib, 4 039 milliard yevroni tashkil etdi. Mintaqaviy kesimda Yevropa 2 658 milliard yevro (global aylanmaning 65,8 foizi) bilan yetakchi bo‘lib qolmoqda, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi esa 995 milliard yevro (24,6 foiz) hajm bilan ikkinchi o‘rinda turibdi. AQShda faktoring aylanmasi 35,5 foizga o‘sib, 160 milliard yevroga yetgan. Ushbu tendentsiyalar qarz instrumentlarining real iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi rolini tasdiqlaydi.

Forfeyting bozori ham barqaror o‘sish trendini saqlab qolmoqda. 2025-yilda global forfeyting bozori hajmi 15,2 milliard AQSh dollari darajasida baholanib, 2034-yilga kelib 20,1 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi forfeyting bozorining 42,5 foizini egallab, yetakchi hudud sifatida shakllangan.

Akkreditivlar bo‘yicha tadqiqotlarda esa ushbu instrumentning global savdodagi o‘rni miqdoriy jihatdan baholangan. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, “akkreditivlar global savdoning 10 foizdan ortig‘ini qamrab oluvchi asosiy savdo moliyasi instrumenti bo‘lib, past va o‘rta

daromadli iqtisodiyotlarda sezilarli darajada katta rol o‘ynaydi” [7]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “akkreditivdan foydalanish ehtimoli yosh, kichik va xorijiy mulkchilikdagi savdo firmalari uchun tizimli ravishda pastroq” [7] bo‘lib, bu kichik biznes subyektlarining savdo moliyasiga kirishda to‘siqlarga duch kelishini tasdiqlaydi.

1-jadval.

Global faktoring bozorining mintaqaviy tuzilmasi*

Mintaqa	Aylanma, mlrd yevro	Global ulush, %	O‘sish sur’ati, %
Yevropa	2 658	65,8	2,2
Osiyo-Tinch okeani	995	24,6	3,2
Amerika qit’asi	326	8,1	20,0
Afrika	51,4	1,3	2,2
Yaqin Sharq	8,8	0,2	8,7
Jami	**4 039**	**100,0**	**3,7**

*Manba: FCI World Factoring Statistics, 2025.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qarz instrumentlari orqali savdolarni moliyalashtirish global miqyosda jadal rivojlanmoqda. Faktoring va forfeyting bozorlarining barqaror o‘sishi, akkreditivlarning xalqaro savdodagi muhim o‘rni ushbu instrumentlarning real iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining savdo moliyasiga kirishdagi to‘siqlari mavjudligi bozor infratuzilmasini takomillashtirish zaruratini ham ko‘rsatadi.

O‘zbekiston moliya bozorida ham ushbu yo‘nalishda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda kredit tashkilotlari tomonidan jami 9,5 trillion so‘mlik faktoring xizmatlari ko‘rsatilgan [8]. Shundan 8,8 trillion so‘m (93 foiz) tijorat banklari va 699 milliard so‘m (7 foiz) mikromoliya tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Faktoring xizmatlarining 4,4 trillion so‘mi (46 foiz) raqamli platformalar orqali amalga oshirilgan bo‘lib, shundan 2,5 trillion so‘m (58 foiz) “Ozplanet” va 1,8 trillion so‘m (42 foiz) “Finmakon” elektron faktoring platformalari orqali amalga oshirilgan. 2024-yil dekabrida faktoring xizmatlari hajmi 630 milliard so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilning shu davrida bu ko‘rsatkich ikki barobar oshib, 1,2 trillion so‘mga yetgan. Faktoringning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2024-yildagi 0,10 foizdan 2025-yilda 0,51 foizga, bank kreditlash hajmidagi ulushi esa 0,4 foizdan 2,4 foizga o‘sgan. Ushbu ijobiy tendentsiyalar bevosita tovar-xom ashyo birjalari amaliyotida ham qo’llash ijobiy natijalarga olib keladi deb hisoblaymiz.

2-jadval.

O‘zbekiston moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdo operatsiyalarini moliyalashtirish mexanizmlari*

№	Mexanizm	Moliyaviy institut	Moliyalashtirish sharti	Risklarni boshqarish usuli
1	Agentlik faktoringi	Ipoteka bank OTP Group	90 kungacha to‘lovni kechiktirish	Aylanma mablag‘larni saqlash, pul oqimini boshqarish
2	Forfeyting (diskontlangan akkreditivlar asosida)	Xalqaro forfeyterlar	Eksport tushumlarini muddatidan oldin sotib olish	Valyuta va kredit risklarini forfeyterga o‘tkazish
3	Fyuchers shartnomalari	UZEX Global (Phillip Nova bilan integratsiya)	Marja talablarini bajarish asosida	Boshlang‘ich va variatsion marja mexanizmlari
4	Kliring mexanizmi	O‘zRTXB kliring markazi	Kunlik hisob-kitoblar	Qarz majburiyatlarini kafolatlash

*Manba: O‘zRTXB, Ipoteka bank OTP Group va UZEX Global ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublika tovar xom-ashyo birjasi (O‘zRTXB) faoliyatida qarz instrumentlari orqali savdo operatsiyalarini moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy etish maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan, respublika miqyosida faktoring xizmatlarining jadal o‘sishi va raqamlashtirilishi birja savdolarida ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Birja savdolarida qo‘llanilayotgan moliyalashtirish usullari qarz instrumentlarining amaliy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Ushbu mexanizmlar orqali xaridorlar aylanma mablag‘larini tejab, ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom ettirish imkoniga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublika tovar xom-ashyo birjasi (O‘zRTXB) amaliyotida qarz instrumentlari orqali savdo operatsiyalarini moliyalashtirishning 90 kungacha to‘lovni kechiktirish bilan moliyalashtirilishini ko’zda tutuvchi savdo mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Bunda albatta bank ishtiroki talab etiladi va ushbu bitim doirasida bank mablag‘larni belgilangan hisob-kitob tartibiga muvofiq bevosita birjaga o‘tkazgan, xomashyo yetkazib berilgach, yetkazib beruvchi tovarlar uchun to‘lovni oladi. Xaridor uchun mazkur mexanizm o‘z aylanma mablag‘larining sezilarli qismini bir yo‘la yo‘naltirmasdan kerakli xomashyoni xarid qilish imkonini yaratdi. Kompaniyaga 90 kungacha to‘lovni kechiktirish imkoniyati berilib, bu pul oqimlarini yanada moslashuvchan boshqarish, kassa uzilishlarini kamaytirish va aylanma mablag‘larni joriy biznes ehtiyojlariga saqlab qolish imkonini beradi. Ushbu amaliyotni xalqaro atamalarga tayangan holda agentlik faktoringi deb atashimiz ham mumkin.

Eksport jarayonlarida qarz instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish maqsadida uzoq muddatli qarz majburiyatlarini diskontlangan akkreditivlar asosida forfeyting yo‘li bilan sotib olish mexanizmini joriy etish ushbu yo’nalishni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada, O‘zbekiston eksport amaliyotida diskontlangan akkreditivlar asosida forfeyting operatsiyalari amalga oshirilishiga erishiladi. Forfeyting mexanizmi eksportchiga bir qator afzalliklarni taqdim etadi: eksportdan tushumlarni muddatidan oldin olish, valyuta va kredit risklarini forfeyterga o‘tkazish hamda likvidlikni ta’minlash imkoniyati yaratiladi. O‘zRTXB orqali eksport qilinayotgan tovarlar bo‘yicha forfeyting mexanizmini qo‘llash tovarlar aylanmasini qarz instrumentlari hisobidan eksport qilish imkoniyatlarini yaratadi.

UZEX da faktoring va forfeyting operatsiyalarining joriy etilishi bevosita risklarni boshqarish zarurati bilan bog‘liq. Agentlik faktoringi xaridorning to‘lov qobiliyati riskini boshqarish orqali savdo uzluksizligini ta’minlaydi. Forfeyting esa eksport tushumlarini muddatidan oldin diskontlash orqali valyuta va kredit risklarini forfeyterga o‘tkazadi, bu esa eksportchi uchun risklarni kamaytiradi. Bu instrumentlarning paydo bo‘lishi birja savdolarida hisob-kitob risklarini minimallashtirishga qaratilgan. Fitch reyting agentligi UZEX ning kontragent riskini boshqarish yondashuvini “ibtidoiy” deb baholagan bo‘lsa-da, marja talablari orqali himoya mexanizmlari ishlayotganini tan olgan. Shunday qilib, faktoring va forfeyting UZEX uchun nafaqat moliyalashtirish vositasi, balki risklarni taqsimlash va boshqarishning muhim institutsional mexanizmi sifatida ahamiyatlidir.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdo operatsiyalarini moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilib, ularning hajmi izchil o‘sib bormoqda. Agentlik faktoringi mexanizmi xaridorlarga aylanma mablag‘lariga ortiqcha yuklama bermasdan xomashyo sotib olish imkonini taqdim etmoqda. Diskontlangan akkreditivlar asosida forfeyting operatsiyalari eksportchi korxonalarning likvidligini ta’minlovchi muhim instrument sifatida shakllanmoqda. Fyuchers shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarni tartibga solishning institutsional mexanizmi xalqaro savdo platformalari bilan integratsiya qilinib, kliring tizimida qarz majburiyatlarini kafolatlash va marja talablarini bajarish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu mexanizmlarning samarali ishlashi uchun moliyaviy infratuzilmani yanada rivojlantirish, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va milliy qonunchilikni takomillashtirish zarur.

Xulosa

Ushbu tadqiqot olib borish natijasida moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdo

operatsiyalarini moliyalashtirishning samaradorligi va iqtisodiy o‘sishga ta’siri o‘rganildi. To‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlash, mantiqiy xulosalash hamda tahlil va sintez qilish orqali quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Agentlik faktoringi mexanizmidan foydalanish xaridorlarga aylanma mablag‘lariga ortiqcha yuklama bermasdan xomashyo sotib olish imkonini taqdim etadi. Bu esa qarz instrumentlarining real sektordagi amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Diskontlangan akkreditivlar asosida forfeyting operatsiyalari eksportchi korxonalarning likvidligini ta’minlovchi muhim instrument sifatida shakllanmoqda. Ushbu mexanizm orqali eksportchilar kelgusi tushumlarini muddatidan oldin olish, valyuta va kredit risklarini forfeyterga o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘zbekiston eksport amaliyotida forfeyting operatsiyalarining joriy etilishi milliy eksportchilarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Fyuchers shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarni tartibga solishning institutsional mexanizmi xalqaro savdo platformalari bilan integratsiya qilinib, kliring tizimida qarz majburiyatlarini kafolatlash va marja talablarini bajarish mexanizmlarining yo‘lga qo‘yilishi sohadagi tub burilish hisoblanadi. Bu esa bozor ishtirokchilarining narx va hisob-kitob risklariga yangicha yondoshuv bilan qarashlarini talab etadi.

Moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdo operatsiyalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish, milliy qonunchilikni takomillashtirish va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish zarur. Faktoring va forfeyting xizmatlarining raqamli platformalar orqali ko‘rsatilishini kengaytirish, fyuchers savdolarida risklarni boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish kelgusida ushbu sohada yanada samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. FCI (Factors Chain International). (2025). https://fci.nl/en/news/fci-releases-2025-world-industry-statistics-global-factoring-market-surpasses-eu4-trillion?language_content_entity=en

2. Forfaiting Market Research Report 2034. https://marketintelo.com/report/forfaiting-market

3. Global Value Chains and Inclusive Development: Asian Development Policy Report 2026. https://www.adb.org/sites/default/files/publication/1143716/adpr-2026-main-report.pdf#41#15

4. Auboin, M., Smythe, H., & Teh, R. (2016). Supply Chain Finance and SMEs: Evidence from International Factoring Data. CESifo Working Paper No. 6039. Geneva: World Trade Organization. https://doi.org/10.30875/4db4762a-en

5. Won-jin Kang. Availability and Limitation of Forfaiting 2008, vol.33, no.2, pp. 425-445 (21 pages)

6. Naranjo, A., & Velikov, M. (2025). Trade credit and asset pricing. Journal of Financial Economics, 172.

7. Xiangyuan Lu, Product line design for a capital-constrained supply chain: financing via bank or trade credit, 2026, Fuyang Normal University: Fuyang, Anhui, CN - School of Business.

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Factoring Services Market Review as of Year-End 2025. Toshkent: Markaziy bank. https://cbu.uz

9. Ipoteka bank OTP Group. (2026). Toshkent: Ipoteka bank. https://www.ipotekabank.uz

10. Phillip Nova. (2026). UZEX and PhillipCapital Launch UZEX Global to Connect Uzbekistan with International Futures Markets. Singapore: Phillip Nova. https://www.phillipnova.com.sg

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

11. Bank for International Settlements. (2024). BIS Statistics on Debt Securities and International Banking. Basel: BIS. https://www.bis.org

12. World Bank. (2025). Trade Finance: A Lifeline for Jobs and Businesses. Washington, DC: World Bank. https://blogs.worldbank.org

YASHASH VA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARI SAMARADORLIGINI STATISTIK BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI

Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: shaxnozaqudratova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik baholashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda xizmatlar hajmi, o‘sish sur’atlari, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni, mehnat unumdorligi, aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va rentabellik kabi ko‘rsatkichlarning samaradorlikni baholashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xizmatlar samaradorligiga ta’sir etuvchi talab, aholi daromadlari, turistik oqimlar, investitsiyalar va infratuzilma omillari statistik jihatdan baholash mezonlari sifatida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini kompleks baholash hamda sohaning rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *yashash xizmatlari, umumiy ovqatlanish, xizmatlar samaradorligi, statistik baholash, statistik mezonlar, dinamik tahlil, mehnat unumdorligi, rentabellik, turizm, xizmatlar sohasi.*

МЕТОДЫ И КРИТЕРИИ СТАТИСТИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ПРОЖИВАНИЯ И ОБЩЕСТВЕННОГО ПИТАНИЯ

Кудратова Шахноза Шухрат кизи
независимый исследователь
Термезского государственного университета
E-mail: shaxnozaqudratova@gmail.com

Аннотация. *В статье исследованы теоретические и практические аспекты статистической оценки эффективности услуг проживания и общественного питания. Рассмотрено значение таких показателей, как объём услуг, темпы роста, количество субъектов сферы услуг, производительность труда, объём услуг на душу населения и рентабельность при оценке эффективности. Кроме того, в качестве критериев статистической оценки рассмотрено влияние спроса, доходов населения, туристических потоков, инвестиций и инфраструктуры на эффективность услуг. Результаты исследования позволяют комплексно оценивать эффективность услуг проживания и общественного питания и определять перспективные направления их дальнейшего развития.*

Ключевые слова: *услуги проживания, общественное питание, эффективность услуг, статистическая оценка, статистические критерии, динамический анализ, производительность труда, рентабельность, туризм, сфера услуг.*

METHODS AND CRITERIA FOR STATISTICAL ASSESSMENT OF THE EFFICIENCY OF ACCOMMODATION AND FOOD SERVICES

Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi
Independent Researcher
at Termez State University
E-mail: shaxnozaqudratova@gmail.com

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of statistical assessment of the efficiency of accommodation and food services. The study highlights the importance of indicators such as service volume, growth rates, number of service providers, labor productivity, service volume per capita, and profitability in assessing sectoral efficiency. In addition, demand, household income, tourist flows, investment, and infrastructure are considered as important*

factors and statistical criteria affecting the efficiency of accommodation and food services. The findings provide a basis for comprehensive assessment of service efficiency and for identifying promising directions for the further development of the sector.

Keywords: *accommodation services, food services, service efficiency, statistical assessment, statistical criteria, dynamic analysis, labor productivity, profitability, tourism, service sector.*

Kirish

Bugungi kunda xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida shakllanib, aholining turmush darajasi, bandligi, tadbirkorlik faolligi va hududiy iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, turizm, savdo, transport va boshqa xizmat turlari bilan uzviy bog‘langan holda rivojlanmoqda. Shu sababli mazkur xizmatlar faoliyatining nafaqat hajmi, balki undan foydalanish samaradorligini statistik jihatdan baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligi xizmat ko‘rsatish hajmining o‘sishi, mavjud resurslardan foydalanish darajasi, mehnat unumdorligi, xizmat ko‘rsatish obyektlarining bandligi, daromadlilik va rentabellik kabi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur ko‘rsatkichlarni muntazam statistik kuzatish va tahlil qilish sohaning real holatini aniqlash, mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini baholash hamda samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini baholashda birgina xizmatlar hajmining o‘sishi yetarli hisoblanmaydi. Chunki xizmatlar hajmining ortishi har doim ham resurslardan samarali foydalanilganligini anglatmaydi. Shu nuqtayi nazardan, xizmatlar hajmi bilan bir qatorda mehnat resurslari, moddiy va moliyaviy xarajatlar, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni, bandlik darajasi, aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va daromadlilik ko‘rsatkichlarini kompleks o‘rganish zarur.

Mazkur sohaning samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar ham ko‘p qirrali xususiyatga ega. Aholi daromadlarining o‘zgarishi, iste’mol talabi, turistlar oqimi, investitsiyalar hajmi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, xizmatlarning sifati, raqamli texnologiyalardan foydalanish va tadbirkorlik subyektlari faolligi yashash hamda umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligining muhim determinantlari hisoblanadi. Ushbu omillarni statistik usullar yordamida baholash samaradorlikning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, xizmatlar bozorida raqobatning kuchayib borayotganligi va iste’molchilarning xizmat sifati hamda qulayligiga bo‘lgan talablarining ortishi bilan belgilanadi. Bunday sharoitda xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini obyektiv statistik mezonlar asosida baholash, yuqori samaradorlikka ega faoliyat yo‘nalishlarini aniqlash va mavjud resurslardan foydalanish darajasini oshirish muhim vazifaga aylanmoqda.

Statistik baholash usullaridan foydalanish yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini turli jihatlardan o‘rganish imkonini beradi. Jumladan, dinamik tahlil orqali samaradorlik ko‘rsatkichlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi, qiyosiy tahlil orqali hududlar o‘rtasidagi tafovutlar, tarkibiy tahlil orqali xizmatlar tarkibidagi o‘zgarishlar, korrelyatsion va omilli tahlil orqali esa samaradorlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanishi mumkin.

Tadqiqotning **asosiy maqsadi** yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlarni tizimlashtirish, ularni baholashning asosiy mezonlarini aniqlash hamda samaradorlikni statistik tahlil qilishning amaliy jihatlarini yoritishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash, ularning dinamikasini o‘rganish, samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni guruhlash, statistik baholash mezonlarini shakllantirish hamda soha samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot natijalari yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini obyektiv baholash, hududlar va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatini taqqoslash, mavjud

muammolarni aniqlash hamda sohaning kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik baholash zamonaviy xizmatlar iqtisodiyotining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur sohaning samaradorligini aniqlashda xizmatlar hajmi, o‘sish sur’atlari, mehnat unumdorligi, bandlik, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni, turistlar oqimi, investitsiyalar va hududiy ko‘rsatkichlardan kompleks foydalanish talab etiladi.

OECD tadqiqotlarida turizm bilan bog‘liq xizmatlarning iqtisodiy o‘sish va bandlikni ta’minlashdagi ahamiyati keng yoritilgan. Xususan, yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari turizm iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, ushbu sohalarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [1].

Zamonaviy tadqiqotlarda turizm va xizmatlar sektorining raqobatbardoshligini baholashda statistik ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarurligi ta’kidlanadi. Bunda xizmatlar hajmi bilan bir qatorda xizmat sifati, mehnat unumdorligi, raqamlashtirish darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligi ham muhim mezonlar sifatida qaraladi [2].

O‘zbekiston Respublikasida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlarning shakllantirilishi mazkur sohani miqdoriy jihatdan baholash uchun muhim axborot bazasini yaratmoqda. Xizmatlar hajmining yillar bo‘yicha o‘zgarishi sohaning iqtisodiyotdagi ulushi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi [3].

Hududiy statistik ko‘rsatkichlarni o‘rganish yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini baholashda alohida ahamiyatga ega. Chunki turizm salohiyati, aholi soni, daromadlar darajasi, infratuzilma va tadbirkorlik faolligining hududlar bo‘yicha farqlanishi xizmatlar rivojlanishida ham tafovutlarni yuzaga keltiradi [4].

Xizmatlar samaradorligini statistik baholashda dinamik ko‘rsatkichlardan foydalanish ham muhim metodologik yo‘nalish hisoblanadi. Xizmatlar hajmining o‘sish sur’atlari, qo‘shimcha o‘sish ko‘rsatkichlari va o‘rtacha yillik o‘sish tendensiyalarini aniqlash orqali sohaning barqaror rivojlanish darajasiga baho berish mumkin [5].

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligining muhim tarkibiy qismlaridan biri mehnat resurslaridan foydalanish hisoblanadi. OECD tadqiqotlarida mazkur tarmoqlarda bandlik, mehnat unumdorligi va ishchi kuchiga bo‘lgan talabning o‘zgarishi xizmatlar samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar qatorida ko‘rsatilgan [6].

Turistik oqimlarning o‘zgarishi ham yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Turistlar sonining ortishi mehmonxonalar, mehmon uylari, restoranlar, kafelar va boshqa xizmat ko‘rsatish obyektlariga bo‘lgan talabni oshiradi. Shu sababli turistlar oqimi va xizmatlar hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik jihatdan baholash muhim hisoblanadi [7].

O‘zbekistonning rasmiy statistik ma’lumotlarida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari bo‘yicha uzoq muddatli dinamik qatorlarning shakllantirilishi ushbu sohaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini bermoqda. Mazkur ma’lumotlar asosida xizmatlar hajmining yillar davomida o‘zgarishini, o‘sish sur’atlarini va rivojlanish barqarorligini baholash mumkin [8].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini bitta ko‘rsatkich asosida baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Xizmatlar hajmi, mehnat unumdorligi, rentabellik, bandlik, turistlar soni, investitsiyalar, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni va hududiy ko‘rsatkichlarni kompleks tahlil qilish sohaning real samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, statistik baholashning dinamik, qiyosiy, tarkibiy va omilli usullarini birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiqdir [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik

baholashning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlashga qaratilgan kompleks statistik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi xizmatlar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tizimlashtirish, ularning dinamikasini baholash, hududiy tafovutlarni aniqlash hamda samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni statistik jihatdan tahlil qilishga asoslandi.

Tadqiqotning **obyekti** sifatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasi, **predmeti** sifatida esa ushbu xizmatlarning samaradorligini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar, ularning o‘zgarish tendensiyalari va samaradorlikka ta’sir qiluvchi omillar belgilandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlari, hududiy statistik ko‘rsatkichlar, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning xizmatlar va turizm sohasiga oid tahliliy materiallari tashkil etdi. Ma’lumotlarni shakllantirishda ularning taqqoslanishi, davriyligi va statistik jihatdan ishonchliligiga e’tibor qaratildi.

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini baholash uchun bir nechta asosiy ko‘rsatkichlar guruhi shakllantirildi. Jumladan, xizmatlar hajmi, o‘sish sur’atlari, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni, aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, bandlik, mehnat unumdorligi, daromadlilik va rentabellik ko‘rsatkichlari asosiy mezonlar sifatida tanlandi. Ushbu ko‘rsatkichlarning birgalikdagi tahlili xizmatlar samaradorligini har tomonlama baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda **dinamik tahlil usuli** yordamida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligi ko‘rsatkichlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi o‘rganildi. Mazkur usul orqali xizmatlar hajmining o‘sish yoki pasayish tendensiyalari, o‘sish sur’atlarining barqarorligi hamda ayrim davrlarda yuzaga kelgan o‘zgarishlar aniqlandi. Dinamik tahlil samaradorlikning faqat joriy holatini emas, balki uning rivojlanish yo‘nalishini ham baholash imkonini beradi.

Tarkibiy tahlil orqali yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarining xizmatlar sektoridagi o‘rni hamda uning alohida tarkibiy qismlarining ulushi o‘rganildi. Bunday yondashuv xizmatlar tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlarni aniqlash va samaradorlikning qaysi yo‘nalishlar hisobiga shakllanayotganini baholash imkonini beradi.

Xizmatlar samaradorligini hududlar bo‘yicha baholash maqsadida **qiyosiy tahlil** usulidan foydalanildi. Bunda hududlarning xizmatlar hajmi, o‘sish sur’atlari, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni va aholi jon boshiga xizmatlar ko‘rsatkichlari taqqoslandi. Hududiy taqqoslash orqali yuqori samaradorlikka ega hududlar bilan bir qatorda, mavjud iqtisodiy va turistik salohiyatidan yetarli darajada foydalanmayotgan hududlarni aniqlash imkoniyati yaratildi.

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda **korrelyatsion va omilli tahlil** usullaridan foydalanish nazarda tutildi. Bunda aholi daromadlari, turistlar soni, investitsiyalar hajmi, tadbirkorlik subyektlari soni, bandlik, infratuzilma va iste’mol talabi kabi omillarning xizmatlar samaradorligi bilan bog‘liqligi baholandi. Ushbu yondashuv samaradorlikning shakllanishida qaysi omillar muhimroq ekanligini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda **statistik guruhlash usuli** ham qo‘llanilib, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar va hududlarni samaradorlik darajasiga ko‘ra guruhlarga ajratish imkoniyati ko‘rib chiqildi. Bunday guruhlash xizmatlar rivojlanishida o‘xshash xususiyatlarga ega hududlarni aniqlash hamda ular uchun differensial rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, xizmatlar samaradorligini baholashda **statistik mezonlar tizimi** shakllantirildi. Ushbu mezonlar iqtisodiy samaradorlik, mehnat samaradorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, bozor faolligi va xizmatlar rivojlanishining barqarorligi kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mazkur mezonlarning kompleks qo‘llanilishi soha samaradorligini faqat bitta ko‘rsatkich orqali baholashning cheklanganligini bartaraf etadi.

Tadqiqot metodologiyasida **mavsumiy tahlil** ham muhim yo‘nalish sifatida qaraldi. Ayniqsa, turizm faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarida mavsumiy talabning o‘zgarishi xizmatlar hajmi va samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli oylik va choraklik statistik ma’lumotlardan foydalanish orqali mavsumiy

tebranishlarni aniqlash va ularning xizmatlar samaradorligiga ta’sirini baholash mumkin.

Umuman olganda, tanlangan metodologik yondashuv yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini **dinamik, tarkibiy, hududiy va omilli jihatdan kompleks baholash** imkonini beradi. Statistik usullarning o‘zaro uyg‘un qo‘llanilishi sohaning mavjud holatini obyektiv baholash, samaradorlikning asosiy omillarini aniqlash va xizmatlar sektorini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos yaratadi.

Tahlil va natijalar

Jahon iqtisodiyotida aholining turmush sifati va farovonligini ta’minlashda xizmatlar sohasi, xususan yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tarmoq nafaqat aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, balki turizm rivoji, hududiy iqtisodiy faollik va bandlik darajasining oshishida muhim ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. Mehmonxona xo‘jaligi va umumiy ovqatlanish tizimining rivojlanganligi hududning investitsion jozibadorligi hamda xizmatlar bozori raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. UNWTO (World Tourism Organization) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulot tarkibida yuqori mavqega ega bo‘lib, ayrim rivojlangan mamlakatlarda uning ulushi 70 % dan yuqori darajani tashkil etadi. Xususan, AQSHda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari turizm infratuzilmasining asosiy komponenti sifatida shakllangan bo‘lib, xizmatlardan foydalanish intensivligi yuqori darajada. Aksincha, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu tarmoq so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, hududlar kesimida sezilarli nomutanosibliklar mavjud. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda xizmatlar sektorining YAIMdagi ulushi 2023-yilda taxminan 40-45 % atrofida shakllangan bo‘lib, uning tarkibida savdo, transport va turizm bilan bog‘liq xizmatlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Xususan, yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi so‘nggi yillarda turizm oqimining oshishi hisobiga barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2019-yilda respublikaga 6,7 mln. nafar turist tashrif buyurgan bo‘lsa, pandemiyadan keyingi davrda ushbu ko‘rsatkich tiklanib, 2023-yilda 7 mln. nafardan oshgan. Bular bevosita mehmonxona xo‘jaligi va umumiy ovqatlanish xizmatlariga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirgan. Hududlar kesimida tahlil qilganimizda shuni ko‘rish mumkinki, Surxondaryo viloyatida ham xizmatlar sektori rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, uning salohiyati to‘liq ishga solinmagan. Viloyatda turizm obyektlari sonining ortishi, xususan tarixiy-madaniy va ziyorat turizmi yo‘nalishlarining rivojlanishi yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. So‘nggi yillarda hududda mehmonxona va oilaviy mehmon uylari soni ko‘payib, umumiy ovqatlanish shoxobchalari tarmog‘i kengaymoqda. Biroq xizmatlar sifati, infratuzilma ta’minoti va xizmat ko‘rsatish samaradorligi bo‘yicha ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur tafovutlar hududlar kesimida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini oshirish, mavjud moddiy-texnik resurslar va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek xizmatlar sifatini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, xizmatlar hajmi, daromadlilik darajasi, bandlik ko‘rsatkichlari hamda mijozlar oqimini kompleks baholash asosida tarmoq rivojlanish tendensiyalarini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Shu sababli hududlarda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmini, ularning iqtisodiy samaradorligini hamda aholining ushbu xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasini tizimli tahlil qilish dolzarb masaladir. Shu bilan bir qatorda, xizmatlar samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar asosida aniqlash, hududlararo tafovutlarni baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishimizda Surxondaryo viloyati misolida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorlik darajasini kompleks baholash amalga oshirildi. Ushbu hudud o‘zining qulay tabiiy-iqlim sharoitlari, boy tarixiy-madaniy merosi hamda turizm salohiyatining mavjudligi bilan xizmatlar sektorini rivojlantirish uchun istiqbolli mintaqalardan sanaladi. Viloyatda mehmonxona xo‘jaligi va umumiy ovqatlanish tarmoqlari orqali aholiga xizmat ko‘rsatish hajmini kengaytirish, turistlar oqimini samarali qabul qilish hamda hududiy xizmatlar bozorida barqaror

rivojlanishni ta’minlash imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, hududda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari orqali ichki va tashqi turistlar ehtiyojini qondirish, xizmatlar eksportini oshirish hamda hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkoniyati mavjud. Xususan, viloyatning geografik joylashuvi va transport-logistika imkoniyatlari uni qo‘shni hududlar bilan integratsiyalashgan holda xizmatlar ko‘rsatish markaziga aylantirish salohiyatini yaratadi. Biroq olib borilgan tahlillarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, mavjud imkoniyatlarga qaramay, hududda xizmatlar samaradorligi darajasi yetarli darajada yuqori emas.

Jumladan, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining ayrim elementlari yetarli rivojlanmaganligi, mehmonxona xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv va raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi, shuningdek xizmatlar sifatini baholash va monitoring qilishning ilmiy asoslangan mexanizmlarining yetishmasligi ushbu sohaning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, hududda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini oshirish uchun mavjud resurslardan optimal foydalanish, xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda iqtisodiy baholash asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Quyida biz tomonimizdan Surxondaryo viloyatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasining so‘nggi 15 yilda rivojlanish tendensiyasi hamda oxirgi 5 yillik ma’lumotlar asosida hozirgi real samaradorlik darajasini baholash amalga oshirildi. Birinchi bosqichda taklif etilayotgan ko‘rsatkichlar tizimi orqali ko‘rsatkichlarning me’yorlashtirilgan qiymatlari hisoblanib, ularning umumiy o‘rtacha qiymatlari aniqlandi. Assosiy ko‘rsatkichlar sifatida yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasining integrallashgan samaradorlik indeksi tanlab olindi.

Ilmiy tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, mintaqalarda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanish samaradorligini baholashda eng maqbul yondashuv – integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash usulidir. Bu usulda biz tomonimizdan xorijiy turistlar koeffitsienti (T_X), ichki turistlar (T_I), mehmonxonalar soni (K_M), umumiy ovqatlanish korxonalari soni (K_O), jami xizmatlar hajmi (V_X) va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (V_I) hisobga olindi. Har bir ko‘rsatkichning yetishtirish samradorligiga ta’siri turlicha bo‘lishi sababli, har biriga alohida vazn (ω_i) berdik. Ma’lumki vazn (ω_i) har bir ko‘rsatkichlarning indeksni hisoblashdagi nisbiy ahamiyatini belgilaydi. Masalan, xorijiy turistlar va ichki turistlar koeffitsienti yoki jami xizmatlar hajmi va asosiy kapitalga investitsiya hajmi o‘zgarib turishi samaradorlik holatiga ko‘proq ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun ular yuqori vaznga ega bo‘ladi. Aksincha, ba’zi ko‘rsatkichlar yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanish samaradorligi darajasiga ta’sir qilishda kamroq ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bu holatda ular past vaznga ega bo‘ladi. Biz buni mehmonxonalar va umumiy umumiy ovqatlanish korxonalari misolida tahlil qilib o‘tdik.

Yuqoridagilar asosida mintaqalarda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanish samaradorligini oshirishning integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash formulasi quyidagi ko‘rinishga keltirildi:

$$I_T = \sum_{k=1}^{3} \omega_k \left(\frac{1}{n_k} \sum_{j \in G_k} Z_{jt}\right)$$

Ushbu ifodani quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

$$I_T = \omega_1 * \frac{T_I + T_X}{2} + \omega_2 * \frac{K_M + K_O}{2} + \omega_3 * \frac{V_X + V_I}{2}$$

Yuqorida taklif etilgan uslubiyat bo‘yicha viloyatda yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining samaradorlik darajasini baholash amalga oshirildi.

1-jadval.

Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlariini integrallashgan samaradorlik indeksi asosida baholash mezonlari va ko‘rsatkich qiymatlari[46]

№	Mezonlar	Ko‘rsatkich vazni
1	Xorijiy va ichki turistlar koeffitsiyenti	0.35
2	Mexmonxonalar va umumiy ovqatlanish korxonalari koeffitsiyenti	0.30
3	Jami xizmatlar hajmi va investitsiyalar hajmi	0.35

Xorijiy va ichki turistlar koeffitsiyenti ($T_{X,I}$). Xorijiy va ichki turistlar soni nisbatini ifodalovchi ko‘rsatkich turizm oqimining tarkibiy tuzilmasini tavsiflovchi muhim indikator hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich hududga tashrif buyurayotgan turistlar tarkibida ichki va xorijiy segmentlar ulushini aniqlash, shuningdek, turizm bozorining yo‘nalganligini baholash imkonini beradi.

Iqtisodiy jihatdan u turizm sohasining xalqaro jozibadorlik darajasi, ichki turizmning rivojlanish holati hamda turizm xizmatlarining eksportga yo‘naltirilganligini aks ettiradi. Shu sababli, mazkur ko‘rsatkich turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va hududiy turizm siyosatini asoslashda strukturaviy tahlil vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Выбор конкретных инструментов зависит от масштаба бизнеса, имеющегося бюджета и специфики решаемых задач. Небольшим локальным сетям часто достаточно внедрить удобную систему микрообучения в смартфоне и базовую платформу проверки знаний. Крупные федеральные компании или дистрибьюторы могут позволить себе полноценные виртуальные симуляторы для подготовки операторов складов или специалистов по логистике. Важно не просто закупить современный софт, а интегрировать его в ежедневную работу каждого подразделения. Обучение должно восприниматься работниками не как формальная повинность, а как удобный и полезный помощник в решении их повседневных задач. В результате в компании формируется здоровая образовательная среда, ориентированная на реальные показатели бизнеса.

4.Стратегический чек-лист для HR и руководства торгового предприятия

Построение эффективной системы развития персонала требует от руководства компании последовательных и продуманных шагов. Нельзя запускать образовательные программы хаотично, без четкого понимания конечных целей и критериев успеха. Каждая обучающая инициатива должна быть тесно связана с финансовыми и операционными показателями торговой сети. Руководству важно с самого начала определить, как именно повышение квалификации сотрудников повлияет на скорость обслуживания, средний чек или количество ошибок при учете. Для этого необходимо сформировать понятную дорожную карту, которая поможет контролировать изменения на каждом этапе трансформации. Системный подход предотвращает бессмысленную трату бюджетов и обеспечивает слаженную работу всех отделов. Пошаговый план внедрения изменений включает в себя несколько обязательных этапов:

1. **Провести аудит цифровой зрелости кадров.** Оценить текущий уровень цифровых навыков сотрудников на всех уровнях – от логистов до директоров магазинов;
2. **Сформировать матрицу компетенций.** Четко определить, какие навыки

понадобятся подразделениям через 1-3 года с учетом планов по автоматизации.

3. **Внедрить непрерывное обучение (Lifelong Learning).** Сделать образование регулярным процессом, а не разовым мероприятием при внедрении софта;

4. **Развивать культуру экспериментов.** Поощрять инициативу сотрудников по оптимизации рутинных процессов с помощью цифровых инструментов.

Заключение

Завершая построение этой системы, важно регулярно анализировать полученные результаты и вносить корректировки в учебные программы. Рынок и технологии меняются настолько быстро, что созданные сегодня стандарты могут потерять актуальность уже через год. Руководству следует постоянно собирать обратную связь от линейного персонала и руководителей подразделений, чтобы вовремя замечать возникающие сложности. Прозрачная система оценки помогает видеть реальный прогресс сотрудников и своевременно поощрять тех, кто показывает высокие результаты. Когда обучение становится неотъемлемой частью рабочей культуры, организация приобретает высокую гибкость и устойчивость к внешним кризисам. В конечном итоге именно развитый кадровый потенциал позволяет торговым предприятиям сохранять лидерство и уверенно развиваться в условиях цифровой экономики.

Литературы

1.Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории [Текст]: пер. с англ. / Г.С. Беккер; под ред. Р.И. Капелюшникова. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 672 с

2. Добрынин А.Н., Дятлов С.А., Цыренова Д.Е. Человеческий капитал в транзитивной экономике: формирование, оценка, эффективность использования)// СПб.: «Наука». - 1999. – с. 309.

3. Капелюшников Р. Проблема безработицы в российской экономике. М., Центр политических технологий, 1994.

4. Бриньолфсон, Э. Вторая эра машин : работа, прогресс и процветание в эпоху новейших технологий / Э. Бриньолфсон, Э. Макафи; перевод с английского П. В. Миронов. — Москва : АСТ, 2017. — 384 с.:

5. Вайл, П. Цифровая трансформация бизнеса : изменение бизнес-модели для организации нового поколения : перевод с английского / П. Вайл, С. Ворнер. — Москва : Альпина Паблишер, 2019. — 218 с

6. Люшина, Э. Ю. Управление человеческими ресурсами : учебное пособие / Э. Ю. Люшина, Е. Г. Моисеева, Е. О. Тихонова. — Саратов : Вузовское образование, 2017. — 235 с. — ISBN 978-5-4487-0158-0.

7. Питер Сенге Пятая дисциплина: Искусство и практика самообучающейся организации /; [Пер. с англ. Б.С. Пинскер]. - Москва : Олимп-Бизнес, 2003 (Новости). - 406 с. : ил.; 24 см.; ISBN 5-901028-62-7.

8. Шваб, К. Четвертая промышленная революция = The fourth industrial revolution [Текст] = The fourth industrial revolution : [перевод с английского : 12+] / Клаус Шваб. — Москва : Эксмо, 2018. — 285 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI BOSHQARISHDA EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH STRATEGIYASI

Qodirov Humoyun Tolibjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti, “Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi dotsenti, DSc.
E-mail: khumoyun.kadirov1992@gmail.com
ORCID: 0009-0001-3928-208X

Annotatsiya. *Maqolada to‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini boshqarishda eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasining asosiy yo‘nalishlari, amalga oshirish bosqichlari va kutiladigan natijalari yoritiladi. Bozorlarni kengaytirish, mahsulot assortimentini yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar hisobiga boyitish, xalqaro standartlar va sifat boshqaruvini joriy etish, marketing hamda brendlash bo‘yicha yondashuvlar tizimlashtirildi. Strategiyani tahlil, rejalashtirish, joriy etish va monitoring bosqichlarida amalga oshirish modeli taklif etiladi. Keltirilgan ma’lumotlar manbadagi maqsadli ko‘rsatkichlar sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *eksport salohiyati, eksport diversifikatsiyasi, to‘qimachilik korxonasi, bozor diversifikatsiyasi, mahsulot diversifikatsiyasi, xalqaro standartlar, brendlash, HHI, RCA.*

СТРАТЕГИЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКСПОРТА В УПРАВЛЕНИИ ЭКСПОРТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Кадиров Хумоюн Толибжон угли
Ташкентский государственный экономический университет
Андижанский факультет, доцент кафедры «Специальные, социально-гуманитарные и точные науки», DSc.
E-mail: khumoyun.kadirov1992@gmail.com
ORCID: 0009-0001-3928-208X

Аннотация. *В статье рассматриваются основные направления, этапы реализации и ожидаемые результаты стратегии диверсификации экспорта при управлении экспортным потенциалом текстильных предприятий. Систематизированы подходы к расширению географии рынков, развитию ассортимента продукции с высокой добавленной стоимостью, внедрению международных стандартов и систем управления качеством, маркетингу и брендингу. Предложена модель реализации стратегии, включающая анализ, планирование, внедрение и мониторинг. Приведённые проценты и сроки рассматриваются как целевые ориентиры исходного материала.*

Ключевые слова: *экспортный потенциал, диверсификация экспорта, текстильное предприятие, диверсификация рынков, диверсификация продукции, международные стандарты, брендинг, HHI, RCA.*

EXPORT DIVERSIFICATION STRATEGY IN MANAGING THE EXPORT POTENTIAL OF TEXTILE ENTERPRISES

Qodirov Humoyun Tolibjon ogli
Tashkent State University of Economics, Andijan Faculty, Associate Professor at the Department of

“Specialized, Social-Humanitarian and Exact Sciences”, DSc.
E-mail: khumoyun.kadirov1992@gmail.com
ORCID: 0009-0001-3928-208X

Abstract. *The article examines the main directions, implementation stages, and expected outcomes of an export diversification strategy for managing textile enterprises’ export potential. It systematizes approaches to expanding market coverage, developing higher value-added products, adopting international standards and quality management systems, and strengthening marketing and branding. A four-stage implementation model covering analysis, planning, implementation, and monitoring is presented. Percentages and timelines are treated as target values stated in the source material.*

Keywords: *export potential, export diversification, textile enterprise, market diversification, product diversification, international standards, branding, HHI, RCA.*

Kirish

Global iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan beqarorlik, xalqaro savdo munosabatlaridagi tarkibiy o‘zgarishlar, tashqi bozorlarda raqobatning tobora kuchayishi, tarif va notarif to‘siqlarning mavjudligi, shuningdek, global logistika va yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar mahalliy ishlab chiqaruvchilardan bozor talablariga tezkor, moslashuvchan hamda samarali javob qaytarishni talab etmoqda. Ayniqsa, jahon bozorlarida mahsulot sifati, narx raqobatbardoshligi, ekologik standartlarga muvofiqlik, ishlab chiqarish jarayonlarining shaffofligi va yetkazib berish muddatlariga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi sanoat korxonalari faoliyatini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlarini joriy qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish, mahsulot tannarxini pasaytirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish hamda eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning yetakchi va strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biri hisoblanib, mamlakat sanoat ishlab chiqarishi, tashqi savdo faoliyati, investitsiyalarni jalb etish hamda aholi bandligini ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Mazkur tarmoq mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xalqaro bozorlarga olib chiqish imkoniyatlari bilan boshqa sanoat yo‘nalishlaridan ajralib turadi. Bugungi kunda tarmoqda 6 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritib, 570 mingdan ziyod fuqaroni doimiy ish o‘rinlari bilan ta’minlamoqda. Ushbu ko‘rsatkichlar to‘qimachilik sanoatining nafaqat iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, balki aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirish, hududlar iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi strategik ahamiyatini ham yaqqol namoyon etadi.Shuni alohida ta’kidlash joizki, sanoat tarmoqlari orasida eng ko‘p ish o‘rinlarini yaratgan va eng katta bandlik ulushini shakllantirgan soha aynan to‘qimachilik sanoati hisoblanadi. Bu holat tarmoqning eksport salohiyatini oshirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimlarini keng joriy etish orqali yanada mustahkamlanmoqda. Natijada, to‘qimachilik sanoati O‘zbekistonning sanoat ishlab chiqarishidagi asosiy lokomotiv tarmoqlaridan biri sifatida mamlakat iqtisodiy rivojlanishida yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda.

To‘qimachilik korxonalari eksportining ayrim mahsulot turlari yoki bozorlarga ortiqcha bog‘liqligi tashqi talab, valyuta kurslari va savdo siyosatidagi o‘zgarishlar ta’sirini kuchaytiradi. Eksport geografiyasi hamda mahsulot tarkibini muvozanatlashtirish bunday xatarlarni kamaytirish va korxonalarning tashqi bozordagi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Eksport salohiyati ishlab chiqarish imkoniyatlaridan tashqari, infratuzilma, institutsional muhit va xalqaro bozorlarga chiqish shartlari bilan ham belgilanadi [2; 4; 6; 7].

Diversifikatsiya strategiyasi tayyor va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini

ko‘paytirish, yangi bozor segmentlariga kirish va savdo aloqalarini mustahkamlashni qamrab oladi. Shuning uchun strategiyani alohida marketing tadbirlari majmui sifatida emas, mahsulot siyosati, sifat boshqaruvi, innovatsiya va eksport geografiyasini o‘zaro bog‘laydigan boshqaruv vositasi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar sharhi

Eksport salohiyati va raqobatbardoshlikni rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlarda ishlab chiqarish bazasi, institutsional sharoit va bozorlarga chiqish imkoniyatlari o‘zaro bog‘liq omillar sifatida talqin qilinadi. Jahon bankining eksport raqobatbardoshligi bo‘yicha qo‘llanmasi eksport siyosatini shakllantirishda korxonalar salohiyati hamda biznes muhiti omillarini birgalikda ko‘rib chiqadi [2]. UNCTAD nashrlarida rivojlanayotgan mamlakatlar va kichik korxonalarning eksport raqobatbardoshligini oshirishda ishlab chiqarish salohiyati, bozorga kirish va institutsional qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratiladi [4; 5].

Mahalliy tadqiqotlarda hududiy resurslardan samarali foydalanish va eksport salohiyatini baholash masalalari yoritilgan. R.A. Xolboev eksport imkoniyatlarini hududiy resurslar bilan, Sh.M. Xodjayev esa raqobatbardoshlik va eksportni ta’minlovchi iqtisodiy-logistik sharoitlar bilan bog‘laydi [6; 7]. Mazkur qarashlar ushbu maqolada eksportni diversifikatsiya qilish bo‘yicha bozor, mahsulot, standartlar va marketing yo‘nalishlarini yagona strategik tizimda ko‘rib chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot tavsifiy-tahliliy va tizimli yondashuvga asoslanadi. Mavzu bo‘yicha taqdim etilgan materialdagi strategik yo‘nalishlar, xorijiy tajriba misollari, maqsadli ko‘rsatkichlar va amalga oshirish muddatlari guruhlandi hamda o‘zaro bog‘liqligi asosida maqola tarkibiga kiritildi. Bozor va mahsulot konsentratsiyasini kuzatish uchun Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI), nisbiy eksport ustunligini baholash uchun esa Revealed Comparative Advantage (RCA) indeksidan foydalanish tavsiya etilgan [11].

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda to‘qimachilik mahsulotlari mamlakatimiz umumiy eksport hajmining qariyb 10,6 foizini tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich tarmoqning respublika tashqi savdo balansidagi muhim o‘rnini tasdiqlasada, eksport tarkibida kuzatilayotgan ayrim tizimli muammolar uning barqaror rivojlanishiga to‘siq bo‘layotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, eksport bozorlarining yuqori darajada konsentratsiyalashuvi tarmoqni tashqi omillar ta’siriga sezgir qilib qo‘ymoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, to‘qimachilik mahsulotlari eksportining qariyb 80%i atigi 4 ta asosiy bozorlarga - Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi va Turkiya Respublikasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa bozorlarning geografik diversifikatsiyasi yetarli darajada emasligini, natijada ayrim yirik hamkor davlatlardagi iqtisodiy inqirozlar, siyosiy beqarorlik yoki savdo cheklovlari eksport hajmining keskin pasayishiga olib kelishi mumkinligini anglatadi.

Bundan tashqari, mahsulot turlari bo‘yicha diversifikatsiya darajasi ham past**.** Eksportning asosiy qismini tashkil qiluvchi bir necha turdagi mahsulotlar ayrim hollarda faqat bitta bozorga yo‘naltirilgan. Masalan, ma’lum turdagi ip-kalava yoki to‘qima mato mahsulotlari faqat birgina mamlakatga eksport qilinadi, bu esa talab pasayishi yoki import siyosati o‘zgarishi bilan tarmoq uchun sezilarli yo‘qotish xavfini oshiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eksport tarkibining 43,2%i xom ashyo, 15,3%i esa yarim tayyor mahsulotlardan iborat. Bu yuqori ulush tashqi bozorlardagi narx kon’yunkturasiga to‘liq bog‘liqlikni oshiradi, chunki xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarning narxi xalqaro talab va taklif tebranishlariga juda tezkor javob qaytaradi. Shuning uchun, eksport strukturasida tayyor, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish

nafaqat valyuta tushumlarini barqarorlashtirish, balki tashqi iqtisodiy xavflarni kamaytirish imkonini beradi.

Eksport diversifikatsiyasi asosan to‘rtta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda olib borilishi mumkin: bozorlarni diversifikatsiya qilish; mahsulot tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatni oshirish; xalqaro standartlar va sifat boshqaruvini rivojlantirish; marketing va brendlashni kuchaytirish. Har bir yo‘nalish uchun amalga oshiriladigan ishlar va kutiladigan natijalar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval.

Eksport diversifikatsiyasi strategiyasining yo‘nalishlari va kutiladigan natijalari[52]

№	Yo‘nalish	Tarkibiy elementlar	Kutiladigan natijalar
1	Bozorlar diversifikatsiyasi	Eksport geografiyasini kengaytirish; ayrim bozorlar bo‘yicha bog‘liqlikni kamaytirish; Osiyo, Afrika va Yaqin Sharqdagi istiqbolli bozorlarni o‘rganish; savdo missiyalari, ko‘rgazmalar va elektron tijoratdan foydalanish.	Bozorlar konsentratsiyasini pasaytirish. Manbada HHI < 0,25 maqsadi ko‘rsatilgan.
2	Mahsulot diversifikatsiyasi	Assortimentni kengaytirish; yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini 60–70% va undan yuqoriga olib chiqish; dizayn va R&D bo‘linmalarini rivojlantirish; sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘yish.	Tayyor mahsulotlar ulushini kamida 70% ga yetkazish.
3	Xalqaro standartlar va sifat boshqaruvi	ISO, OEKO-TEX, GOTS kabi sertifikatlarni joriy etish; barcha ishlab chiqarish bosqichlarida sifat menejmentini qo‘llash; ekologik toza ishlab chiqarish orqali premium segmentlarga chiqish.	Yangi bozorlar ulushini kamida 20–25% ga yetkazish.
4	Marketing va brendlash	“Made in Uzbekistan” yoki tarmoq brendlarini targ‘ib qilish; raqamli marketing va B2B platformalaridan foydalanish; dizayn va qadoqlash standartlarini qo‘llash.	Xalqaro sertifikatlangan korxonalar sonini oshirish.

Bozorlarni rejalashtirishda an’anaviy, istiqbolli va yangi bozorlarni alohida guruhlash tavsiya etiladi. An’anaviy bozorlar amaldagi savdo aloqalari va eksport hajmining asosiy qismini ta’minlaydi; istiqbolli bozorlar talab va o‘sish imkoniyati yuqori bo‘lsa-da, hozirgi eksport ulushi nisbatan past bo‘lgan yo‘nalishlardir; yangi bozorlar esa eksport aloqalari endigina shakllanayotgan, kelgusida o‘sish salohiyatiga ega mamlakatlarni qamrab oladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra Rossiya, Qozog‘iston va Turkiya davlatlarini an’anaviy, Xitoy, Janubiy Koreya va BAA davlatlarini esa istiqbolli, Janubi-Sharqiy Osiyo hamda Afrika mamlakatlari yangi bozorlar misoli sifatida keltirish mumkin.

Har bir istiqbolli va yangi bozorga kirish uchun talab, logistika, mahsulot muvofiqligi va sotuv kanallarini hisobga olgan individual reja zarur. Savdo missiyalari, xalqaro ko‘rgazmalar va B2B/B2C elektron tijorat platformalari mijozlar hamda hamkorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Bu vositalar eksport geografiyasini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi. Mahsulot diversifikatsiyasida xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar bilan cheklanib qolmasdan, tayyor mahsulotlarni rivojlantirish, dizayn va ilmiy-tadqiqot salohiyatini kuchaytirish hamda kooperatsiya orqali texnologiyalar transferini rag‘batlantirish ko‘zda tutiladi. Turkiya tajribasi tahlil qilinganda, ushbu mamlakatda mahsulot tarkibini tayyor mahsulotlar foydasiga o‘zgartirish va qiymat zanjirini chuqurlashtirish muhim omillar sifatida qayd etilgan. Ushbu tadqiqot natijlalaridan kelib chiqib O‘zbekiston uchun 2-jadvalda takliflar ishlab chiqilgan.

[52] Muallif ishlanmasi

2-jadval.

Mahsulot diversifikatsiyasida Turkiya tajribasi va O‘zbekiston uchun tavsiyalar[53]

№	Asosiy yo‘nalish	Turkiya tajribasi	O‘zbekiston uchun tavsiya
1	Mahsulot assortimentini kengaytirish	Xom ashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o‘tish orqali bozor segmentini kengaytirish.	Mahsulot assortimentini xalqaro bozor talablariga muvofiq diversifikatsiya qilish.
2	Yuqori qo‘shilgan qiymat ulushini oshirish	Tayyor mahsulotlar ulushini oshirish orqali qo‘shilgan qiymat hajmini uch barobar ko‘paytirish.	Tayyor mahsulotlar ulushini kamida 60-70% ga yetkazish.
3	Innovatsion mahsulot yaratish	Dizayn markazlari va texnologik innovatsiyalar orqali mahsulot sifatini oshirish.	Dizayn markazlari va R&D bo‘linmalarini rivojlantirish.
4	Sanoat kooperatsiyasi va qo‘shma korxonalar	Xorijiy sheriklar bilan qo‘shma korxonalar tashkil etib, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish.	Qo‘shma korxonalar va texnologiyalar transferini sanoat kooperatsiyasi asosida yo‘lga qo‘yish.

Xalqaro standartlar va sifat menejmenti mahsulotni eksport bozorlarining texnik va iste’mol talablariga moslashtirishga xizmat qiladi. Sohada ilg‘or natijalarga erishgan davlatlar sifatida Bangladesh tajribasini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu davlatda eksport diversifikatsiyasi ISO 9001, OEKO-TEX va GOTS kabi standartlar hamda yirik brendlar bilan hamkorlik bilan bog‘liq holda olib borilmoqda. O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari uchun ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001, OEKO-TEX va GOTS sertifikatlarini bosqichma-bosqich joriy etish, xom ashyo xaridan tayyor mahsulot yetkazib berishgacha sifat nazoratini kuchaytirish, ekologik toza ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, mahalliy sertifikatlash va konsalting xizmatlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Marketing va brendlash yo‘nalishida yagona milliy yoki tarmoq brendini shakllantirish, mahsulot dizayni va qadoqlanishini xaridor talablariga moslashtirish, xalqaro ko‘rgazma va moda haftaliklarida qatnashish ham muhim hisoblanadi. “Made in Uzbekistan”, “UzTextile” va tarmoq brendlari bilan hamkorlikda ish olib borish hamda B2B va B2C elektron platformalar raqamli savdo kanallarini kengaytirish vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Diversifikatsiya strategiyasi ketma-ket tahlil, rejalashtirish, joriy etish va monitoring bosqichlaridan iborat bo‘lishi mumkin. Har bir bosqichning vazifasi va muddatlari 3-jadvalda keltirib o‘tilgan.

3-jadval.

Eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasini amalga oshirish bosqichlari[54]

№	Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar	Muddat
1	Tahlil	Eksport tarkibi va bozor konsentratsiyasini HHI va RCA indekslari yordamida tahlil qilish.	3-6 oy
2	Rejalashtirish	Yangi bozorlar va mahsulot segmentlarini aniqlash; investitsiya va R&D rejasini ishlab chiqish.	6-12 oy
3	Joriy etish	Mahsulotlarni modernizatsiya qilish; sertifikatlashtirish; marketing kampaniyalarini amalga oshirish.	1-3 yil
4	Monitoring	Eksport ko‘rsatkichlarini muntazam baholash; bozor o‘zgarishlari asosida strategiyani yangilash.	Doimiy

Tahlil bosqichida eksport tarkibi, mahsulot va bozor konsentratsiyasi o‘lchanib,

[53] Muallif ishlanmasi
[54] Muallif ishlanmasi

boshlang‘ich ko‘rsatkichlar belgilanadi. Manbada HHI < 0,25, tayyor mahsulotlar eksporti ulushini 70 foizga, yangi bozorlar ulushini 20-25 foizga yetkazish hamda xalqaro sertifikatlangan korxonalar sonini oshirish maqsadlari keltirilgan. Bular amalda erishilgan natijalar emas, keyinchalik bajarilishini baholash mumkin bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlardir. HHI bo‘yicha maqsadni qo‘llashdan avval indeks shkalasini (0-1 yoki 0-10 000) bir xilda belgilash lozim. Bu hisoblangan natijalar bilan maqsadni qiyoslashdagi nomuvofiqlikni bartaraf etadi. Umumlashtirilgan natija shundan iboratki, diversifikatsiya bozor, mahsulot, standartlar va marketing qarorlarining muvofiqlashtirilgan holda bajarilishini talab qiladi. Yangi bozorlarni tanlash va mahsulot tarkibini o‘zgartirish investitsiya, R&D, sertifikatlash hamda sotuvdan keyingi marketing bilan bog‘liq reja asosida olib borilgandagina strategiyaning kutilgan natijalarini monitoring qilish mumkin bo‘ladi.

Xulosa

Yuqorida tahlillar natijasi eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasini to‘rtta asosiy yo‘nalishda shakllantirish mumkinligini ko‘rsatib o‘tmoqda. Bular quyidagilar: geografik bozorlarni kengaytirish, tayyor va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish, xalqaro standartlarga muvofiqlikni kuchaytirish hamda milliy mahsulotlarni marketing va brendlash orqali ilgari surish. Ushbu yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq jarayon bo‘lib, ularni alohida amalga oshiriash kutilgan samaraga erishishni qiyinlashtiradi. Shu sababli tadqiqot natijasida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Har bir korxonaning eksport tarkibi, bozor konsentratsiyasi va mahsulot rentabelligini baholab, bozorlarni an’anaviy, istiqbolli va yangi yo‘nalishlarga ajratish.

Mahsulot assortimentini kengaytirish va tayyor mahsulotlar ulushini oshirish uchun dizayn, R&D hamda xorijiy hamkorlikka doir investitsiya rejasini ishlab chiqish.

Xalqaro standart va sertifikatlarni bosqichma-bosqich joriy etib, ekologik talablarni hisobga olgan holda barcha ishlab chiqarish bosqichlarida sifat nazoratini amalga oshirish.

Milliy va tarmoq brendlari, elektron savdo, xalqaro ko‘rgazmalar hamda savdo missiyalaridan o‘zaro uyg‘un holda foydalanish.

Eksport ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatib, HHI maqsadini qo‘llashdan avval indeks shkalasi va chegara qiymatini yagona tartibda belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–361-son qarori, 2022-yil 24-avgust.
2. World Bank. Export Competitiveness: A Policy Toolkit. Washington, D.C., 2017.
3. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari. https://www.mift.uz
4. UNCTAD. Enhancing the Export Competitiveness of SMEs in Developing Countries. Geneva, 2019.
5. UNCTAD. Building Productive Capacities in Least Developed Countries: Issues for Discussion. United Nations Publication, 2012.
6. Xolboev, R.A. “Eksport salohiyatini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, № 6, 2020, 45–50-b.
7. Xodjayev, Sh.M. “O‘zbekistonning eksport salohiyatini baholashning nazariy asoslari”. TDIU Ilmiy axborotlari, № 3, 2019, 73–79-b.
8. “Eksport salohiyatini oshirish borasida muhim qadamlar tashlanmoqda”. https://uza.uz/oz/posts/eksport-salohiyatini-oshirish-borasida-muhim-qadamlar-tashlanmoqda_446569
9. United Nations Conference on Trade and Development. Trade and Development Report 2022: From Recovery to Resilience. UNCTAD, 2022. https://unctad.org/webflyer/trade-and-development-report-2022
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
11. Investopedia. “Herfindahl-Hirschman Index (HHI)”. https://www.investopedia.com/terms/h/hhi.asp

KORXONA MOLIYAVIY HOLATINING TIZIMLI TAHLILI

Abdujaborova Mahmura Toshmuxamadovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
E-mail: maamura@bk.ru
ORCID: 0009-0009-5880-4961

Annotatsiya. *Maqolada korxona moliyaviy holatining tizimli tahlili uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda ishlab chiqilgan. Avvalo tahlilning maqsadi, obyekti, bosqichlari va ko‘rsatkichlarini birlashtiruvchi to‘qqiz bosqichli tizim taklif qilingan. So‘ngra bosqichlar natijalarini sintez qilish uchun morfologik yondashuv qo‘llanilib, moliyaviy barqarorlik, to‘lov qobiliyati, faollik va rentabellik ko‘rsatkichlarining me’yorga nisbatan holatlari yagona morfologik matritsada tizimlashtirilgan, moliyaviy holat turlari va tuzatish choralari belgilangan. Nihoyat, nomoliyaviy kapital va balansdan tashqari risklarni qamrab oluvchi integratsiyalashgan hisobot modeli va uning tahlildagi ahamiyati asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *moliyaviy holat, tizimli tahlil, integratsiyalashgan hisobot, to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik, pul oqimi, integral indeks, morfologik tahlil, boshqaruv qarorlari.*

СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ

Абдужаборова Маъмура Тошмухамадовна
доцент Ташкентского государственного экономического университета, PhD
E-mail: maamura@bk.ru
ORCID: 0009-0009-5880-4961

Аннотация. *В статье системный анализ финансового состояния предприятия разработан по трем взаимосвязанным направлениям. Сначала предложена девятиэтапная система организации анализа, объединяющая его цель, объект, этапы и показатели. Затем для синтеза результатов этапов применен морфологический подход: состояния показателей финансовой устойчивости, платежеспособности, деловой активности и рентабельности относительно нормативов систематизированы в единой морфологической матрице, определены типы финансового состояния и корректирующие меры. Наконец, обоснована модель интегрированной отчетности, охватывающая нефинансовые капиталы и забалансовые риски, и ее значение для анализа.*

Ключевые слова: *финансовое состояние, системный анализ, интегрированная отчетность, платежеспособность, финансовая устойчивость, денежный поток, интегральный индекс, морфологический анализ, управленческие решения.*

SYSTEMS ANALYSIS OF AN ENTERPRISE’S FINANCIAL CONDITION

Abdujaborova Mamura Toshmuxamadovna
Associate professor of Tashkent State University of Economics, PhD
E-mail: maamura@bk.ru
ORCID: 0009-0009-5880-4961

Abstract. *The article develops a systems analysis of an enterprise’s financial condition in three interrelated directions. First, a nine-stage system for organizing the analysis is proposed, linking its purpose, object, stages and indicators. Second, a morphological approach is applied to synthesize stage results: the states of financial stability, solvency, activity and profitability*

indicators relative to their norms are arranged in a single morphological matrix, and types of financial condition and corrective measures are defined. Finally, an integrated reporting model covering non-financial capitals and off-balance-sheet risks is substantiated together with its role in analysis.

Key words: *financial condition, systems analysis, integrated reporting, solvency, financial stability, cash flow, integral index, morphological analysis, management decisions.*

Kirish

Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini takomillashtirish [1] va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish [2] sharoitida korxonalar moliyaviy holatini xolis va har tomonlama baholash zarurati ortib bormoqda. Mulkdorlar, kreditorlar, investorlar va davlat organlari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda korxonaning moliyaviy barqarorligi, to‘lovga qobiliyatliligi, faoliyat samaradorligi va rivojlanish istiqbollari to‘g‘risidagi ishonchli axborotga tayanadi. Bu holat moliyaviy holat tahlilini tashkil etish va uning natijalarini umumlashtirishga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltiradi.

Amaliyotda moliyaviy holat tahlili ko‘pincha alohida koeffitsiyentlar guruhlarini hisoblash bilan cheklanadi. Bunda tahlilning maqsadi, obyekti, bosqichlari va ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik yetarlicha asoslanmaydi, bosqichlar esa bir-biridan ajralgan holda bajariladi. An’anaviy moliyaviy hisobot faqat pul bilan o‘lchanadigan resurslarni aks ettirgani sababli inson, intellektual, ijtimoiy va tabiiy kapital hamda balansdan tashqari majburiyatlar tahlil doirasidan chetda qoladi. Natijalar yagona integral ballga keltirilganda esa taqchillik va nomutanosiblik bir-biridan farqlanmaydi, tuzatish choralarini tanlash esa ko‘p hollarda tahlilchining shaxsiy tajribasiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun moliyaviy holat tahlilini tizimli tahlil sifatida, ya’ni o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat yaxlit model sifatida qurish zarur. Tadqiqotning maqsadi shunday modelni ishlab chiqish va uni amaliy ma’lumotlar asosida sinovdan o‘tkazishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etildi: maqsad, obyekt, bosqich va ko‘rsatkichlar birligini ta’minlovchi tahlilni tizimli tashkil etish tartibini shakllantirish; bosqichlar natijalarini sintez qilish uchun morfologik yondashuvni qo‘llash, moliyaviy holat turlarini tabaqalashtirish va har bir turga tuzatish choralarini bog‘lash; tahlilning axborot bazasini kengaytiruvchi integratsiyalashgan hisobot modelini ishlab chiqish va uning ahamiyatini asoslash; taklif etilgan yondashuvni amaliy ma’lumotlar asosida sinovdan o‘tkazish.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Korxona moliyaviy holatini tahlil qilish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. MDH mamlakatlari olimlari moliyaviy holatni asosan korxonaning o‘z faoliyatini moliyalashtirish qobiliyati bilan bog‘laydi va uni likvidlik, to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik, ishbilarmonlik faolligi va rentabellik ko‘rsatkichlari guruhlari orqali baholaydi [21; 25; 26]. A.D. Sheremet va Ye.V. Negashev tahlilni ketma-ket bajariladigan bloklar ko‘rinishida tashkil etadi, biroq bloklar natijalarini yagona xulosaga umumlashtirish tartibi yetarlicha asoslanmagan [27].

Mahalliy mualliflar moliyaviy resurslarning mavjudligi, joylashuvi va ulardan foydalanish darajasini keng ko‘rsatkichlar tizimi orqali ifodalashga urg‘u beradi [11–13]. Muallifning oldingi tadqiqotlarida to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik, pul oqimlari va bankrotlik ehtimoli tahlili alohida yo‘nalishlar sifatida o‘rganilgan [4–6; 8–10], moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash esa tahlilni kelgusi davrga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatgan [3]. Aynan shu yo‘nalishlarni yagona tizimga birlashtirish mazkur tadqiqotning vazifasi hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda esa, moliyaviy holatni baholash ko‘proq kelgusi risklarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini asoslash vositasi sifatida qaraladi. E. Altman moliyaviy holatni baholashni inqiroz va to‘lovga qobiliyatsizlikni prognoz qilish vositasi deb biladi [14]. E. Brigham va M.

Ehrhardt, CFA Instituti, S. Penman va K. Subramanyam moliyaviy hisobot tahlilini kapitalni samarali taqsimlash, risk va kutilayotgan daromadlilikni baholash hamda iqtisodiy qaror qabul qilish jarayoni sifatida talqin etadi [16; 17; 19; 20].

Tizimli yondashuv murakkab obyektni o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida o‘rganishni, har bir elementning vazifasini butun tizim maqsadidan kelib chiqib belgilashni talab qiladi [23; 24]. Integratsiyalashgan hisobot sohasida Xalqaro integratsiyalashgan hisobot kengashi tomonidan 2013 yilda e’lon qilinib, 2021 yilda qayta ko‘rib chiqilgan konseptual asoslar olti kapital – moliyaviy, ishlab chiqarish, intellektual, inson, ijtimoiy-munosabat va tabiiy kapital tasnifini taklif etadi [18]. Biroq bu asoslar tamoyillarga tayanadi va milliy hisobot shakllari bilan bog‘langan miqdoriy baholash tartibini nazarda tutmaydi.

Morfologik tahlil usuli dastlab F. Tsvikki tomonidan murakkab muammolarning barcha mumkin bo‘lgan yechimlarini tartibli ravishda aniqlash vositasi sifatida ishlab chiqilgan [22]. Mazkur usul muhandislik va boshqaruv masalalarida keng qo‘llanilsa-da, moliyaviy holatni baholashda kam ishlatiladi. Amaliyotda ko‘rsatkichlar yo har biri alohida talqin qilinadi, yo yagona integral ballga birlashtiriladi; birinchi holatda umumlashgan xulosa shakllanmaydi, ikkinchi holatda esa ballning tarkibi, ya’ni qaysi yo‘nalishda taqchillik mavjudligi ko‘rinmay qoladi. Mazkur jihatlar tadqiqot yo‘nalishini belgilab berdi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, gorizontal va vertikal tahlil, koeffitsiyentlar usuli, morfologik tahlil (morfologik matritsa usuli), normallashtirish va vaznli jamlash hamda korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama

Moliyaviy holat tahlilining samaradorligi ko‘p jihatdan uning tashkil etilish tartibiga bog‘liq. Agar koeffitsiyentlar guruhlari bir-biridan ajralgan holda hisoblansa, turli guruhlar asosida chiqarilgan xulosalar bir-biriga zid kelishi ehtimoli ortadi. Shu sababli tahlilni tizim sifatida qurish, ya’ni uning maqsadi, obyekti, bosqichlari va ko‘rsatkichlarini yagona mantiqiy zanjirga bog‘lash taklif etiladi. Bunda har bir bosqich o‘z maqsadiga ega bo‘lib, muayyan obyektni o‘rganadi, shu maqsadga mos ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi va aniq axborot foydalanuvchisiga yo‘naltiriladi. Bosqichning xulosasi keyingi bosqich uchun boshlang‘ich axborot hisoblanadi va unda qaysi ko‘rsatkichlarga ustuvor e’tibor qaratish kerakligini belgilab beradi [27].

Tahlil bosqichlarining ketma-ketligi umumiylikdan xususiylikka hamda qisqa muddatli holatdan uzoq muddatli istiqbolga o‘tish tamoyillari asosida belgilanadi. Har bir bosqichda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tarkibi axborot foydalanuvchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi: yetkazib beruvchilar uchun joriy majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishi, banklar uchun qarzning qaytarilish imkoniyati, investorlar uchun esa kapital qiymatining oshishi ustuvor ahamiyatga ega. Taklif etilayotgan tizimning asosiy afzalligi bosqichlarning o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Dastlabki baho jarayonida aniqlangan tarkibiy o‘zgarishlar, masalan, qayta tashkil etish, faoliyat turini boshqa subyektga berish yoki ijara standartini qo‘llash, keyingi barcha bosqichlarda ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri talqin qilish uchun tuzatish sifatida inobatga olinadi. To‘lov qobiliyatini baholashda an’anaviy likvidlik koeffitsiyentlari pul oqimlari ko‘rsatkichlari bilan to‘ldiriladi, chunki balansdagi likvidlik real pul tushumlaridan farq qilishi mumkin [4; 5]. Moliyaviy barqarorlik bosqichida o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik kapital tarkibi bilan birgalikda o‘rganiladi [8; 10]. To‘lovga qobiliyatsizlik ehtimoli oldingi bosqichlar natijalarini umumlashtiradi: rivojlanayotgan bozorlar uchun moslashtirilgan Altman modelining [9; 14] omillari aynan barqarorlik va rentabellik bosqichlarida hisoblanadigan ko‘rsatkichlardan iborat, miqdoriy baho esa J. Argenti taklif etgan sifat mezonlari [15] bilan to‘ldiriladi. Investitsion jozibadorlik bosqichida kapital rentabelligi kapitalning o‘rtacha tortilgan qiymati bilan taqqoslanadi [7].

Ushbu tamoyillar asosida tahlil to‘qqiz bosqichdan iborat tizim sifatida shakllanadi (1-

jadval).

1-jadval

Moliyaviy holat tahlilining tizimli tashkil etilishi*

Bosqich	Maqsadi	Obyekti	Asosiy ko‘rsatkichlar	Foydalanuvchi
1. Dastlabki baho	Hisobot tuzilishi va tarkibiy o‘zgarishlarni aniqlash	Balans va moliyaviy natijalar	Mutlaq o‘zgarish, o‘sish sur’ati, solishtirma og‘irlik	Barcha foydalanuvchilar
2. Balans likvidliligi	Aktiv va majburiyatlarning muddat bo‘yicha muvofiqligini baholash	Aktivlar (A1–A4) va majburiyatlar (P1–P4) guruhlari	Likvidlik shartlari	Kreditorlar, rahbariyat
3. To‘lov qobiliyati	Joriy majburiyatlarni qoplash imkoniyatini aniqlash	Joriy aktivlar, pul oqimlari	Likvidlik koeffitsiyentlari, operatsion va erkin pul oqimi	Yetkazib beruvchilar, kreditorlar
4. Moliyaviy barqarorlik	Manbalar tarkibining uzoq muddatli muvozanatini baholash	Kapital va majburiyatlar tarkibi	O‘z aylanma mablag‘lari, avtonomiya, qarz yuki, manevrlilik	Mulkdorlar, kreditorlar
5. Ish faolligi	Resurslardan foydalanish jadalligini aniqlash	Aylanma aktivlar va hisob-kitoblar	Aylanuvchanlik, aylanish davri	Rahbariyat
6. Rentabellik	Faoliyat samaradorligini baholash	Foyda va uning manbalari	ROS, ROA, ROE	Mulkdorlar, investorlar
7. To‘lovga qobiliyatsizlik	Bankrotlik ehtimolini baholash	4- va 6-bosqich natijalari	Altman, Argenti modellari	Kreditorlar, rahbariyat
8. Kreditga layoqatlilik	Qarz jalb etish imkoniyatini aniqlash	Qarz yuki, shartnoma shartlari	Foizlarni qoplash, kovenantlar	Banklar, xalqaro moliya institutlari
9. Investitsion jozibadorlik	Kapital qiymatining oshishini baholash	Rentabellik va kapital qiymati	ROE va WACC nisbati, o‘sish sur’ati	Investorlar

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Tizimli tashkil etilgan tahlil har bir bosqichda asosli xususiy xulosa bersa-da, to‘qqiz bosqichda hisoblangan ko‘rsatkichlarni yagona baho va aniq boshqaruv qaroriga aylantirish masalasi hal etilmagan holda qoladi. Bu masalani hal etish uchun morfologik yondashuvdan foydalanish taklif etiladi. Mazkur yondashuvning moliyaviy tahlildagi mohiyati shundaki, korxona holatini belgilovchi ko‘rsatkichlar matritsa qatorlariga, ularning me’yorga nisbatan mumkin bo‘lgan holatlari esa ustunlarga joylashtiriladi, har bir ko‘rsatkich bo‘yicha bittadan holat tanlanganda hosil bo‘ladigan kombinatsiya korxonaning moliyaviy holatini ifodalaydi [22]. Mumkin bo‘lgan kombinatsiyalar soni har bir ko‘rsatkich holatlari sonining ko‘paytmasiga teng:

$$N = k_1 \times k_2 \times \ldots \times k_n$$

bunda k_i – i-ko‘rsatkich bo‘yicha mumkin bo‘lgan holatlar soni.

Klassik morfologik tahlildan farqli ravishda, moliyaviy holatni baholashda barcha kombinatsiyalarni birma-bir ko‘rib chiqish talab etilmaydi: korxonaning amaldagi holati hisobot ma’lumotlari asosida bevosita aniqlanadi va matritsadagi bitta variant sifatida qayd etiladi, keyin esa bu variantning me’yoriy variantdan qay darajada chetlashgani baholanadi. Shu tariqa moliyaviy holat bitta umumlashgan ball bilan emas, ko‘rsatkichlar bo‘yicha holatlar majmui bilan tavsiflanadi.

Matritsaga kiritiladigan ko‘rsatkichlar tizimli tahlilning to‘rt bosqichidan olinadi: moliyaviy

barqarorlik, to‘lov qobiliyati, ishbilarmonlik faolligi va rentabellik. Demak, morfologik matritsa tizimli tahlilning sintez bo‘g‘ini vazifasini bajaradi va bosqichlar natijalarini yagona bahoga keltiradi. Har bir yo‘nalish bitta ko‘rsatkich bilan ifodalanadi, rentabellik esa, aktivlar va xususiy kapital bo‘yicha alohida baholanadi, chunki foyda miqdori bir xil bo‘lganda ham ularning qiymati kapital tarkibiga qarab sezilarli farq qiladi (2-jadval).

2-jadval

Korxona moliyaviy holatining morfologik matritsasi*

Ko‘rsatkich	Hisoblash tartibi	Me’yordan past	Me’yor doirasida	Me’yordan yuqori
O‘z kapitali mustaqilligi (K1)	Xususiy kapital / Jami passivlar	< 0,5 – qarz manbalariga kuchli bog‘liqlik	0,5–0,8 – yetarli mustaqillik	> 0,8 – qarz imkoniyatlaridan foydalanilmaydi
To‘lov qobiliyati (K2)	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	< 1,5 – to‘lovlarni bajarmaslik xavfi	1,5–2,5 – muvozanatli holat	> 2,5 – mablag‘lar harakatsiz qolgan
Faollik (K3)	Sof tushum / Aylanma aktivlarning o‘rtacha qiymati	< 2 marta – resurslarning sekin aylanishi	2–4 marta – me’yoriy faollik	> 4 marta – zaxiralar yetishmasligi, uzilish xavfi
Aktivlar rentabelligi (K4)	Sof foyda / Aktivlarning o‘rtacha qiymati	< 5% – aktivlardan samarasiz foydalanish	5–15% – samarali foydalanish	> 15% – yangilanmagan aktivlar hisobiga
Xususiy kapital rentabelligi (K5)	Sof foyda / Xususiy kapital	< 10% – kapital samarasi past	10–25% – barqaror daromadlilik	> 25% – yuqori risk hisobiga erishilgan foyda

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Me’yordan har ikki tomonga chetlashish ham maqbul emas, ammo ularning iqtisodiy mazmuni turlicha hisoblanadi. Me’yordan past qiymat korxonada majburiyatlarni qoplash, resurslarni aylantirish yoki foyda olish imkoniyati yetishmasligini, ya’ni *taqchillikni* bildiradi. Me’yordan yuqori qiymat esa, to‘lov qobiliyatiga bevosita tahdid solmaydi, biroq mablag‘larning samarasiz bog‘lanib qolganini, ya’ni *nomutanosiblikni* ko‘rsatadi. Shuning uchun moliyaviy holat turini aniqlashda me’yordan past ko‘rsatkichlar soni asos qilib olinadi (3-jadval).

3-jadval

Me’yordan past ko‘rsatkichlar soniga ko‘ra moliyaviy holat turlari*

Me’yordan past ko‘rsatkichlar soni	Holat turi	Tavsifi
0	Barqaror	Taqchillik kuzatilmaydi; mavjud holatni saqlash va ortiqcha resurslarni ishga solish lozim
1	Barqarorga yaqin	Bitta yo‘nalishda taqchillik; nuqtali tuzatish yetarli
2	Nomutanosib	Ikki yo‘nalishda taqchillik; holat yomonlashishga moyil, aralashuv talab etiladi
3	Xavfli	Uch yo‘nalishda taqchillik; to‘lov qobiliyatini yo‘qotish ehtimoli yuqori
4–5	Inqirozli	Deyarli barcha yo‘nalishlarda taqchillik; to‘liq moliyaviy sog‘lomlashtirish zarur

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Chegaralarni belgilashda quyidagi mulohazalarga tayanildi. Bitta yo‘nalishdagi taqchillikni qolgan yo‘nalishlardagi zaxira hisobiga qoplash mumkin. Ikki yo‘nalishda taqchillik paydo bo‘lganda qoplash imkoniyati kamayadi va muammolar bir-birini kuchaytira boshlaydi. Taqchillik ko‘rsatkichlarning ko‘pchiligini, ya’ni uch yo‘nalishni qamrab olganda tuzatish uchun ichki manba deyarli qolmaydi, shu bois aynan shu chegara xavfli holatning boshlanishi deb qabul qilindi. Me’yordan yuqori ko‘rsatkichlar holat turini o‘zgartirmaydi, biroq ular ko‘pincha taqchil yo‘nalishni tuzatishda ichki manba vazifasini o‘tashi mumkin.

Yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, me’yordan chetlashgan har bir ko‘rsatkich muayyan boshqaruv choralari bilan bog‘lanadi. Besh ko‘rsatkichning har biri ikki yo‘nalishda chetlashishi mumkinligi sababli o‘nta tuzatish yo‘nalishi ajratiladi (4-jadval).

4-jadval

Me’yordan chetlashgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha tuzatish choralari*

Ko‘rsatkich	Me’yordan past bo‘lganda	Me’yordan yuqori bo‘lganda
K1	Foydani kapitalga yo‘naltirish, dividend to‘lovlarini vaqtincha cheklash, qimmat qarzlarni arzonroq manbalar bilan almashtirish	Investitsiya loyihalarini uzoq muddatli qarz mablag‘lari hisobiga moliyalashtirish
K2	Qisqa muddatli majburiyatlarni uzoq muddatlilariga aylantirish, debitorlik qarzini undirishni jadallashtirish	Zaxira me’yorlarini qayta ko‘rish, debitorlik muddatini qisqartirish, bo‘shagan mablag‘ni qarzni qoplashga yo‘naltirish
K3	Sotilmayotgan zaxiralardan xalos bo‘lish, ishlab chiqarish siklini qisqartirish, sotish kanallarini kengaytirish	Zaxiralarning eng kam darajasini belgilash, ta’minot grafigini barqarorlashtirish
K4	Foydalanilmayotgan aktivlarni sotish yoki ijaraga berish, quvvatlardan foydalanish darajasini oshirish	Asosiy vositalarni yangilashga mablag‘ yo‘naltirish, amortizatsiya siyosatini qayta ko‘rish
K5	Xarajatlar tarkibini tahlil qilish, zarar keltiruvchi mahsulotlardan voz kechish, narx siyosatini qayta ko‘rish	Foydaning bir qismini zaxira sifatida qoldirish, qarz yukini kamaytirish

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

«O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari» AJ ning MHXS asosidagi hisobotlari [28] ma’lumotlari bo‘yicha tizimli tahlil bosqichlarida hisoblangan besh ko‘rsatkich matritsadagi me’yoriy oraliqlar bilan solishtirilib, har biri uchun tegishli holat aniqlandi (5-jadval).

5-jadval

O‘zMET AJ moliyaviy holatining morfologik matritsa asosidagi tahlili natijalari*

Ko‘rsatkich	2023 y.	2024 y.	2025 y.
O‘z kapitali mustaqilligi (K1)	me’yordan past	me’yordan past	me’yor doirasida
To‘lov qobiliyati (K2)	me’yordan past	me’yor doirasida	me’yordan past
Faollik (K3)	me’yordan yuqori	me’yordan yuqori	me’yordan yuqori
Aktivlar rentabelligi (K4)	me’yordan past	me’yordan past	me’yordan past
Xususiy kapital rentabelligi (K5)	hisoblanmaydi	hisoblanmaydi	me’yor doirasida
Me’yordan past ko‘rsatkichlar soni	3	2	2
Holat turi	Xavfli	Nomutanosib	Nomutanosib

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Jadval ma’lumotlari jamiyat moliyaviy holatining xavfli turdan nomutanosib turga o‘tganini ko‘rsatadi. Biroq holat yaxshilanishining manbai yillar bo‘yicha farq qiladi: 2024 yilda to‘lov qobiliyati me’yorga yetgan, 2025 yilda esa mustaqillik tiklangani holda to‘lov qobiliyati yana pasaygan, aktivlar rentabelligi esa butun davr davomida taqchil yo‘nalish bo‘lib qolgan. 2023–2024 yillarda xususiy kapital manfiy bo‘lgani sababli K5 ko‘rsatkichi iqtisodiy mazmunga ega emas va holat to‘rt ko‘rsatkich bo‘yicha aniqlangan; matritsa bunday ko‘rsatkichni alohida qayd etib, qolganlari bo‘yicha tasniflashni davom ettirishga imkon beradi, integral baholashda esa bunday ko‘rsatkich umumiy natijaning ishonchliligini pasaytiradi. Agar 2024 yil uchun dastlabki baho bosqichida aniqlangan tuzatish, ya’ni taqsimlash uchun saqlanayotgan majburiyatlar inobatga olinsa, to‘lov qobiliyati ham me’yordan past bo‘lib, holat xavfli turda qoladi. Faollik ko‘rsatkichining uchala yilda me’yordan yuqori bo‘lishi an’anaviy yondashuvda ijobiy natija sifatida talqin qilinardi, matritsada esa u nomutanosiblik sifatida baholandi: yuqori aylanish aylanma aktivlarning faoliyat miqyosiga nisbatan juda kamligidan kelib chiqqan va aynan shu holat to‘lov qobiliyatining pastligiga ham sabab bo‘lgan.

4-jadvalga muvofiq jamiyat uchun ustuvor choralar to‘lov qobiliyati (joriy majburiyatlarning bir qismini uzoq muddatli manbalar bilan almashtirish, bitta bog‘liq tarafda jamlangan debitorlik qarzini undirish) va aktivlar rentabelligi (tarif va xarajatlar tarkibini qayta ko‘rish, tugallanmagan qurilish obyektlarini foydalanishga topshirish) yo‘nalishlarida belgilandi. Shu bilan birga morfologik matritsa faqat hisobotda aks etgan moliyaviy ko‘rsatkichlarga tayanadi va balansdan tashqaridagi omillarni qamrab olmaydi. Bu kamchilikni integratsiyalashgan hisobot bartaraf etadi.

An’anaviy moliyaviy hisobot tugallangan davr natijalarini aks ettiradi, faqat pul bilan o‘lchanadigan resurslarni qamrab oladi va natijalarni yuzaga keltirgan operatsion hamda nomoliyaviy omillarni ochib bermaydi. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish va tizimli tahlilning axborot bazasini kengaytirish maqsadida to‘rt blokdan iborat integratsiyalashgan hisobot tuzilmasi taklif etiladi (6-jadval).

6-jadval

Integratsiyalashgan hisobotning tuzilishi*

Blok	Mazmuni	Asosiy ko‘rsatkichlar	Tahlildagi vazifasi
1. Moliyaviy holat va kapital tuzilishi	Kapital tarkibi, likvidlik va rentabellik	Mustaqillik, likvidlik, rentabellik koeffitsiyentlari, sof pul oqimi	Joriy moliyaviy holatni baholash
2. Ishlab chiqarish va operatsion ko‘rsatkichlar	Resurslardan foydalanish samaradorligi	Aylanish davrlari, pul aylanish sikli, asosiy vositalar eskirishi, quvvatlardan foydalanish	Moliyaviy natijalarning operatsion sabablarini aniqlash
3. Nomoliyaviy kapital	Intellektual, inson, ijtimoiy-reputatsion va tabiiy kapital	Nomoddiy aktivlar ulushi, kadrlar qo‘nimsizligi, mehnat unumdorligi, doimiy mijozlar ulushi, ekologik xarajatlar	Balansda aks etmaydigan resurslarni hisobga olish
4. Prognoz va ssenariylar	Kelgusi holat va risklar	Integral indeks, elastiklik koeffitsiyentlari, stress-test natijalari, balansdan tashqari risklar	Kelgusi to‘lov qobiliyati va risklarni baholash

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Dastlabki uch blok korxonaning joriy holatini, to‘rtinchi blok esa kelgusi holatini tavsiflaydi. Shu tariqa integratsiyalashgan hisobot tahlilni nafaqat hisobotdagi raqamlar, balki ularni yuzaga keltirgan omillar va kelgusi risklar haqidagi axborot bilan ta’minlaydi [3].

Integratsiyalashgan hisobot axborotini yakuniy bahoga kiritish uchun integral barqarorlik indeksidan foydalaniladi. Turli o‘lchov birligiga ega ko‘rsatkichlar 0 dan 1 gacha oraliqqa

keltiriladi, vaznlar esa har bir ko‘rsatkichning sof pul oqimi bilan korrelyatsiya koeffitsiyenti (k_i) asosida aniqlanadi:

$$I_i = (x_i - x_{yomon}) / (x_{yaxshi} - x_{yomon});\ v_i = |k_i| / \Sigma|k_j|;\ I_{mb} = \Sigma\, v_i \cdot I_i$$

bunda x_i – ko‘rsatkichning amaldagi qiymati, x_{yaxshi} va x_{yomon} – uning me’yoriy eng yaxshi va eng yomon qiymatlari.

Ishonch oraliqlari prognozning noaniqligini haqiqiy ko‘rsatadi: 2029-yilda 95 foizli oraliq 85,92–144,74, ya’ni nuqtali prognozdan ±29 birlik atrofida. Demak, “prognoz ishonchli” deyishdan ko‘ra, yaqin ufqda (2025–2026) aniqroq, uzoq ufqda esa stsenariy sifatida talqin qilish to‘g‘ri. Ansambl natijalari ham xuddi shu xulosani kuchaytiradi: ARIMA xatosining kross-validatsiyada 3,4 baravar oshishi kichik namunada ortiqcha moslashuv xavfini ko‘rsatadi, shu sababli murakkab modellar o‘rniga oddiy Holt asosiy vosita sifatida tanlanishi oqlanadi. Yashil–sariq–qizil signal tizimi aynan shu noaniqlikni boshqarish uchun mo‘ljallangan: prognoz doimiy qayta baholanib, og‘ish chegaradan chiqsa siyosat qayta ko‘riladi.

Cheklovlar. Prognoz bitta kompozit indeksga asoslangan va u omillar o‘zgarishining stsenariylarini (masalan, investitsiya yoki bandlik shoklarini) hisobga olmaydi. Namuna hajmi kichik bo‘lgani uchun tashqi namunadagi (out-of-sample) aniqlik bahosi cheklangan. Monitoring maqsadlari (YaHM, investitsiya, daromad) prognoz modelining natijasi emas, balki siyosiy maqsadlar sifatida belgilanganligi sababli ularning real bajarilishi alohida omillar prognozi bilan asoslanishi kerak. Ishlab chiqilgan tavsiyalar (kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya va infratuzilmani tezlashtirish — 2025–2026; innovatsion ekotizim, hududiy muvozanat va SDG monitoringi — 2027–2029) prognoz yo‘nalishiga tayangan sifat xarakteridagi takliflar bo‘lib, modelga miqdoriy bog‘lanmagan.

Xulosa

Xorazm viloyati kompozit farovonlik indeksi uchun oltita prognoz modeli ichida Holt eksponensial silliqlash modeli eng past MAE (5,29) va RMSE (7,10) ni berdi, qoldiqlari oq shovqin xususiyatiga ega (Ljung–Box $p = 0{,}1405$). Unga ko‘ra indeks 2025-yilda 96,81 ga, 2029-yilda 115,33 ga yetadi (taxminan yiliga 4,6 foiz), lekin noaniqlik ufq bilan ortadi (2029-yilda 95 foizli oraliq 85,92–144,74). Taklif etilgan monitoring tizimi — bazaviy va maqsadli qiymatlar, yashil–sariq–qizil signal zonalari — prognozning bajarilishini nazorat qilish va siyosiy choralarni o‘z vaqtida moslashtirish imkonini beradi. Keyingi bosqichda uzunroq ma’lumotlar, so‘nuvchi trend stsenariysi va omillar bo‘yicha stsenariy prognozlarini qo‘shish tavsiya etiladi.

Shuningdek, olingan natijalar hududiy farovonlik indeksini prognozlashda model tanlash

jarayonini faqat prognoz qiymatlari bilan emas, balki modelning xatolik ko‘rsatkichlari va qoldiqlar diagnostikasi bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatadi. Holt modelining MAE va RMSE bo‘yicha ustunligi hamda Ljung–Box testi natijasida qoldiqlarda sezilarli avtokorrelyatsiya aniqlanmaganligi ushbu modelni qisqa va o‘rta muddatli monitoring uchun maqbul vosita sifatida tavsiflash imkonini beradi. Bunda prognozning uzoq muddatga kengayishi bilan noaniqlikning ortishi natijalarni qat’iy maqsadli ko‘rsatkich sifatida emas, balki ehtimoliy rivojlanish trayektoriyasi sifatida talqin qilishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, farovonlik indeksining kutilayotgan o‘sishini hududiy rivojlanish dasturlarining natijadorligini baholash bilan bog‘lash mumkin. Xususan, prognoz ko‘rsatkichlarining belgilangan maqsadlardan chetlanishi aniqlanganda, bandlik, aholi daromadlari, ijtimoiy infratuzilma va boshqa tarkibiy yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘shimcha tahlil o‘tkazish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu tariqa kompozit indeks faqat yakuniy statistik ko‘rsatkich emas, balki hududiy boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi monitoring instrumenti sifatida shakllanadi.

Kelgusida tadqiqot metodologiyasini takomillashtirish uchun indeksning tarkibiy komponentlari bo‘yicha alohida vaqt qatorlarini shakllantirish, tashqi iqtisodiy va ijtimoiy omillarni ekzogen o‘zgaruvchilar sifatida kiritish hamda model natijalarini hududlararo taqqoslash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, Holt, ARIMA va boshqa modellar prognozlarini kombinatsiyalash orqali yakuniy prognoz aniqligini oshirish imkoniyatlarini tekshirish mumkin. Bunday yondashuv hududiy farovonlikning kelgusidagi dinamikasini yanada kompleks baholash va prognoz natijalarining amaliy ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4 apreldagi VMQ–154-son qarori. “2022–2026 yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

3. Holt C.C. (2004). Forecasting seasonals and trends by exponentially weighted moving averages. International Journal of Forecasting, 20(1), 5–10.

4. Gardner E.S., McKenzie E. (1985). Forecasting trends in time series. Management Science, 31(10), 1237–1246.

5. Box G.E.P., Jenkins G.M. (1976). Time Series Analysis: Forecasting and Control. San Francisco: Holden-Day.

6. Hyndman R.J., Athanasopoulos G. (2018). Forecasting: Principles and Practice, 2nd ed. Melbourne: OTexts.

7. Hyndman R.J., Koehler A.B. (2006). Another look at measures of forecast accuracy. International Journal of Forecasting, 22(4), 679–688.

8. Ljung G.M., Box G.E.P. (1978). On a measure of lack of fit in time series models. Biometrika, 65(2), 297–303.

9. Dickey D.A., Fuller W.A. (1979). Distribution of the estimators for autoregressive time series with a unit root. Journal of the American Statistical Association, 74(366), 427–431.

10. Scott S.L., Varian H.R. (2014). Predicting the present with Bayesian structural time series. International Journal of Mathematical Modelling and Numerical Optimisation, 5(1–2), 4–23.

11. Breiman L. (2001). Random Forests. Machine Learning, 45(1), 5–32.

12. Bates J.M., Granger C.W.J. (1969). The combination of forecasts. Operational Research Quarterly, 20(4), 451–468.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

KO‘P O’ZGARUVCHILI REGRESSIYA MODELI ASOSIDA IQTISODIY KO‘RSATGICHLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGINI EXCEL DASTURI YORDAMIDA TAHLIL QILISH

Maxmasaidova Muslima Ubaydulla qizi

magistrant
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
E-mail: maxmasaidova97m@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ko‘p o’zgaruvchili regressiya modeli yordamida iqtisodiy ko‘rsatgichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini EXCEL dasturi yordamida tahlil qilish bosqichlari yoritib berildi. Model parametrlarining ahamiyatliligi t-statistika, p-value va F-statistika yordamida baholanadi. Bu esa regressiya modelining iqtisodiy jarayonlarni tushuntirish va prognozlashdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy tahlilini tushunish va prognozlash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *EXCEL, ko‘p o’zgaruvchili regressiya modeli, determinatsiya koeffitsienti, korrelyatsiya koeffisenti, dispersiya tahlili, F-statistika, t-statistika, p-qiymat, statistik ahamiyatlilik, standart xatolik.*

АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ МНОГОФАКТОРНОЙ РЕГРЕССИОННОЙ МОДЕЛИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММЫ EXCEL

Махмасаидова Муслима Убайдулла кизи

магистрант
Национальный университет
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
E-mail: maxmasaidova97m@gmail.com

Аннотация. *В данной статье рассматриваются этапы анализа степени взаимосвязи между экономическими показателями с использованием многофакторной регрессионной модели в программе Excel. Статистическая значимость параметров модели оценивается с помощью t-статистики, p-значения и F-статистики. Это позволяет оценить эффективность регрессионной модели при объяснении экономических процессов и прогнозировании. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию экономического анализа и позволяют осуществлять прогнозирование экономических показателей.*

Ключевые слова: *Excel, многофакторная регрессионная модель, коэффициент детерминации, коэффициент корреляции, дисперсионный анализ, F-статистика, t-статистика, p-значение, статистическая значимость, стандартная ошибка.*

ANALYZING THE RELATIONSHIPS BETWEEN ECONOMIC INDICATORS USING A MULTIPLE REGRESSION MODEL IN MICROSOFT EXCEL

Maxmasaidova MuslimaUbaydulla kizi

Master’s Student
National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
E-mail: maxmasaidova97m@gmail.com

Abstract.*This article presents the stages of analyzing the relationships between economic indicators using a multiple regression model in Microsoft Excel. The statistical significance of the*

model parameters is assessed using the t-statistic, p-value, and F-statistic. These statistical measures help evaluate the effectiveness of the regression model in explaining economic processes and making forecasts. The findings contribute to a better understanding of economic analysis and support the forecasting of economic indicators.

Keywords: *Excel, multiple regression model, coefficient of determination, correlation coefficient, analysis of variance (ANOVA), F-statistic, t-statistic, p-value, statistical significance, standard error.*

Kirish

Hozirgi kunda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri va ularning natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sirini aniqlash zarurati statistik va ekonometrik usullardan foydalanishni talab etadi. Ayniqsa, bir nechta omillar ta’sirida shakllanadigan iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli muhim ilmiy vosita hisoblanadi.

Ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli iqtisodiy tahlilning asosiy metodlaridan biri bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilarning bitta bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Ushbu model yordamida iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasi, ularning yo‘nalishi va kuchi aniqlanadi. Natijada, iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq tushunish, ularni prognozlash va samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Bugungi kunda iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda turli dasturiy vositalardan foydalanilmoqda. Shulardan biri — Microsoft Excel dasturi bo‘lib, u o‘zining qulay interfeysi va keng funksional imkoniyatlari bilan statistik tahlillarni amalga oshirishda keng qo‘llaniladi. Excel dasturida mavjud bo‘lgan “Data Analysis” (Ma’lumotlarni tahlil qilish) paketi yordamida regressiya tahlili, korrelyatsiya, dispersiya tahlili va boshqa statistik hisob-kitoblarni tez va samarali bajarish mumkin. Bu esa ilmiy tadqiqotlar va amaliy hisob-kitoblarda vaqtni tejash va aniqlikni oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda, ayniqsa, yalpi ichki mahsulot (YaIM), xizmatlar sohasi hajmi va sanoat ishlab chiqarishi kabi ko‘rsatkichlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash esa iqtisodiy siyosatni shakllantirish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega [4].Mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ularni ilmiy asosda prognozlashga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli esa bu jarayonda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, amaliy dasturiy vositalar yordamida ushbu modelni qo‘llash natijalarning aniqligi va ishonchliligini oshiradi [2].

Tadqiqotning maqsadi — ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli asosida iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni Microsoft Excel dasturi yordamida tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modelining nazariy asoslarini o‘rganish, iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash usullarini tahlil qilish, Excel dasturida regressiya tahlilini amalga oshirish mexanizmini o‘rganish, real statistik ma’lumotlar asosida amaliy hisob-kitoblarni bajarish hamda olingan natijalar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot obyekti sifatida iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi tanlangan bo‘lsa, tadqiqot predmeti sifatida ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli yordamida ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash jarayoni qaraladi. Mazkur ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik Excel dasturi yordamida kompleks tarzda tahlil qilinadi hamda amaliy natijalarga asoslangan holda iqtisodiy xulosalar shakllantiriladi.

Bugungi kunda katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash tibbiyot, iqtisodiyot kabi ko‘plab sohalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ma’lumotlar asosida tahlil qilish va bashorat

qilish uchun statistik usullar qo‘llaniladi. Shunday usullardan biri ko‘p chiziqli regressiya (Multiple Linear Regression) bo‘lib, u bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilar asosida bitta bog‘liq o‘zgaruvchini bashorat qilish imkonini beradi [2; 8].

Adabiyotlar sharhi

Tadqiqotning nazariy qismida ko‘p chiziqli regressiya modeli bir nechta mustaqil (x_1, x_2, ... x_n) o'zgaruvchilarning bitta bog'liq (y) o'zgaruvchiga ta'sirini aniqlashda eng samarali statistik usul ekanligi ta’kidlanadi. Bu borada:

Habibullayev I. H. va Utanov B. o‘zlarining "Ekonometrika asoslari" o‘quv qo‘llanmasida iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda regressiya parametrlarini baholash metodologiyasini chuqur yoritganlar.[1]

Wooldridge, J.M. "Introductory Econometrics" asarida ko‘p o‘zgaruvchili modellarda multikollinearlik muammosini va uning model ishonchliligiga ta’sirini tahlil qilgan.[2]

Maqolada asosiy e’tibor iqtisodiy ko‘rsatkichlarni Excel dasturining "Анализ данных" (Analysis ToolPak) moduli orqali tahlil qilishga qaratilgan.

Winston, W.L. "Microsoft Excel Data Analysis and Business Modeling" kitobida Excel yordamida regressiya statistikasi (R-kvadrat, F-statistika, t-statistika) natijalarini talqin qilish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar bergan.[3]

Excelda model parametrlarining ahamiyatini p-value va t-statistika orqali baholash bosqichlarini aniq ko‘rsatib beradi.

Tadqiqotda O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida YAIM, xizmat ko‘rsatish va sanoat ishlab chiqarish hajmlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari (2015-2024 yillar) tadqiqotning empirik asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Gujarati, D.N. "Basic Econometrics" kitobida iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi vaqtli qatorlar tahlilida standart xatolik va dispersiya tahlilining ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan.[4]

Markaziy bankning yillik iqtisodiy sharhlari makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zgarishini tushunishda qo‘shimcha nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. [5]

Model sifatini baholash kriteriyalari modelning ishonchliligi determinatsiya koeffitsienti (R^2) va tuzatilgan R^2 orqali tekshiriladi.

Stock, J.H. va Watson, M.W. "Introduction to Econometrics" darsligida ko‘p o‘zgaruvchili modellarda o‘zgaruvchilar soni ortishi bilan R^2 ning sun’iy ravishda oshib ketishini oldini olish uchun "Adjusted R^2" (Tuzatilgan R^2) dan foydalanish muhimligini isbotlaganlar. Tadqiqotda ushbu ko‘rsatkich 0.9969 ga teng deb topilgan.[6]

Xulosa qilib aytganda, ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, regressiya modeli iqtisodiy jarayonlarni tushuntirish va prognozlashda nafaqat matematik aniqlikni, balki iqtisodiy nazariya va zamonaviy AT-vositalarining (Excel) integratsiyasini talab qiladi.

Tadqiqot metadologiyasi

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy ko’rsatgichlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni aniqlash va ularning yalpi ichki mahsulotga ta’sirini baholash maqsadida ekonometrik tahli usullaridan foydalaniladi.Tadqiqot metodologiyasi nazariy yondoshuvlar va emperik tahlil bosqichlarining uzviy uyg’unligi asoslanadi.Tadqiqotning asosiy usuli sifatida ko’p o’zgaruvchili chiziqli regressiya modeli tanlandi.Ushbu model yordamida bir nechta mustaqil o’zgaruvchilarning bitta bog’liq o’zgaruvchilarning bitta bog’liq o’zgaruvchilo’zgaruvchiga ta’siri kompleks tarzda baholandi.Modelning tanlashi uning iqtisodiy jarayonlarni izohlash va prognozlashdagi yuqori amaradorligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi. Birinchi bosqichda tadqiqot uchun zarur bo’lgan ststidtik ma’lumotlar shakillantirildi.Ma’lumotlar O’zbekiston Respublikasi bo’yicha 2015-2024 yillar oralig’ini qamrab olgan holda rasmiy ochiq manbalardan yig’ildi. Xususan yalpi ichkli mahsulot (YAIM), aholi jon boshiga to’g’ri keladigan xizmatlar hajmi hamda sanoat ishlab chiqarish ko’rsatgichlari tanlab olindi. Ushbu ko’rsatgichlar iqtisodiy o’sishning

asosiy determinantlari sifatida qaraladi.

Ikkinchi bosqichda dastlabki ma’lumotlar statistic jihatdan qayta ishlanib, ularning o’zaro bog’liqligi korrelyatsiya tahlili yordamida baholanadi. Bu bosqichda asosiy e’tibor mustaqil o’zgaruvchilar o’rtasidagi kuchli bog’liqlik, ya’ni multikolleniarlik mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashga qaratiladi. Korrelyatsiya koeffisientlari hisoblanib, ulalrning qiymatlari asosida modelga kiritiladigan o’zgaruvchilarning mosligi tekshiriladi.

Uchinchi bosqichda ko’p o’zgaruvchili regressiya modeli qurildi. Model quyidagi umumiy funksional ko’rinishda ifodalandi.

- bog’liq o’zgaruvchi (YAIM),
- mustaqil o’zgaruvchilar (xizmatlar va sanoat ko’rstgichlari),
- regressiya koeffitsientlari,
- tasodifiy xatolik hadi

Model parametrlarini baholashda eng kichik kvadratalar usulidan foydalanildi. Ushbu usul regressiya chizig’i bilan haqiqiy kuzatuvlar orasidagi kvadratlar xatolar yig’indisini minimallashtirishga asoslanadi.

To’rtinchi bosqichda modelning statistik ahamiyatliligi baholanadi. Bunda bir nechta mezonlardan foydalanaildi. Jumladan, determinatsiya koeffisienti (R^2) modelning tushuntirish darajasini aniqlash uchun hisoblandi. Shuningdek, tuzatilgan determinatsiya koeffitsienti modelga kiritilgan o’zgaruvchilar sonini hisobga olgan holda baholanadi. Modelning umumiy ahamiyatliligi Fisher mesoni (F-statistika) yordamida tekshirildi, alohida parametrlarning ahamiyatliligi esa Styudent mezoni (t-statistika) orqali aniqlashtirildi.

Beshinchi bosqichda modelning aniqlik darajasi va pragnozlash imkoniyati tahlil qilindi. Standart xatolik ko’rsatgichi yordamida model pragnozlarining o’rtacha og’ishi baholandi. Bundan tashqari dispersiya tahlili (ANOVA) asosida umumiy, tushuntirilgan va qoldiq dispersiyalar o’rganildi. Bu esa modelning qanchalik darajada ishonchli ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning amaliy qismida hisob kitoblar Microoft Excel dasturi yordamida amalga oshirildi. Excel dasturining “Ma’lumotlar tahlil qilish”(Data analysis) moduli regressiya tahlilini bajarish, korrelyatsiya matrisasini tuzish hamda statistic ko’rsatgichlarni aniqlashda asosiy vosita sifatida xizmat qildi.Ushbu dasturdaan foydalanish natijalarni visual va tushunarli shaklda olish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Ko'p o’zgaruvchili chiziqli regressiya — bu statistik usul bo'lib, u orqali bir nechta mustaqil (x) o'zgaruvchilarning bitta bog'liq (y) o'zgaruvchiga ta'siri aniglanadi. Ushbu model quyidagi umumiy tenglama orqali ifodalanadi;

$$y = B_0 + B_i x_1, + B.x_2 + ... + B_n x_n + E$$

Bu yerda y — bashorat qilinadigan bog’ liq o'zgaruvchi

$x_1, x_2 \ldots x_n$— mustaqil o'zgaruvchilar

B_1 va B_2- erkin had (intersept)

$B_1, B_2, \ldots B_n$- koeffitsientlar

E- xatolik (noise)

Regressiya tahlili — bu statistik tahlil usullaridan biri bo‘lib, u iqtisodiyot va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Ushbu metodning asosiy maqsadi — bir yoki bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilarning bir bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’sirini aniqlashdir. Mazkur maqolada regressiya tahlilining nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi, shuningdek, uning iqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognoz qilishdagi roli o‘rganiladi. Regressiya tahlili iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish va prognozlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, u yordamida turli iqtisodiy jarayonlarni chuqur o‘rganish mumkin.

y-Ma’lumotlarni stat.uz[67] saytidan ochiq ma’lumot bo’limidan milliy hisoblarga kirib yalpi hududiy mahsulot ichidagi aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (yillik) (birligi so’m) excel variant tanlanib 2015-2024 yillar orasidagi O’zbekiston uchun ma’lumotlari olindi.[7]

x_1-Ma’lumotlarni stat.uz saytidan ochiq ma’lumot bo’limidan xizmatlarga kirib xizmat ko’rsatish ichidan aholi jon boshiga to’g’ri keladigan bozor xizmatlar hajmi (yillik) (birligi so’m) excel variant tanlanib 2015-2024 yillar orasidagi O’zbekiston uchun ma’lumotlari olindi. x_2-Ma’lumotlarni stat.uz[68] saytidan ochiq ma’lumot bo’limidan sanoatga kirib sanoat ichidan aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish hajmi (yillik) (birligi so’m)[7]

Excel variant tanlanib 2015-2024 yillar orasidagi O’zbekiston uchun ma’lumotlari olindi. y-YAIM x_1-Aholi jon boshiga to’g’ri keladigan bozor xizmatlarini hajmi(yillik,hududlar kesimida) x_2-Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)[7]

Berilgan malumotlardan regressiya tenglamasini tuzishdan oldin o’zaro bir biri bilan multikollinearligini tekshirib olamiz. y(YAIM), x_1(xizmatlar) va x_2 (sanoat) lar orasidagi chiziqli bog’limi tekshirdik. Ushbu o’rinda takidlab o’tish joizki Excel programmasini to’g’ridan tog’ri ko’p o’zgaruvchili yoki oddiy regressiya tahlilini amalga oshirish uchun uni moslashtrib olish kerak.Excel dasturida quyidagilar bajarishni amalga oshirib olinadi. **Файл→ Параметры →Надстройки** Pastda: **Управление: Надстройки Excel → Перейти Пакет анализа** ni belgilash→**OK** tugmasi bosildi va **Excelda Данные → Анализ данных** ko’rindi o’ng tomonda ko’rinib turadi.



[2]

1-rasm Malumotlar tahlil.



2-rasm Анализ данных ochilgan oynasi.

A	B	C	D
yillar	y	x1	x2
2015	8004,9	2509	3118,3
2016	9112,5	3047,3	3512,6
2017	11411,8	5158,3	4594,7
2018	15014,4	6348,4	7141
2019	18465,6	8013	9604,9
2020	20596,9	8682,2	10771,8
2021	24664,7	11152,4	13061,9
2022	29226,7	14294,9	15520,2
2023	34653,2	18258	18098
2024	41306,7	22602	23679,4

3-rasm Excelda quyidagi qiymatlar kiritildi.

[67] (https://stat.uz/UZ/)

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Bu yerda biz 2015-2024 yillar orasidagi ma’lumotlardan foydalanib quyidagilarni Excel yordamida hisoblandi.



	A	B	C	D
1	yillar	y	x1	x2
2	2015	8004,9	2509	3118,3
3	2016	9112,5	3047,3	3512,6
4	2017	11411,8	5158,3	4594,7
5	2018	15014,4	6348,4	7141
6	2019	18465,6	8013	9604,9
7	2020	20596,9	8682,2	10771,8
8	2021	24664,7	11152,4	13061,9
9	2022	29226,7	14294,9	15520,2
10	2023	34653,2	18258	18098
11	2024	41306,7	22602	23679,4
12				

4-rasm Korrelyatsiya

Excelda y, x_1, x_2 ma’lumotlar quyidagi rasmdagi ko’rsatilgan.Exceldan **Даные** ga kiriladi va **Анализ данных** tanlanadi.



	A	B	C	D
1	yillar	y	x1	x2
2	2015	8004,9	2509	3118,3
3	2016	9112,5	3047,3	3512,6
4	2017	11411,8	5158,3	4594,7
5	2018	15014,4	6348,4	7141
6	2019	18465,6	8013	9604,9
7	2020	20596,9	8682,2	10771,8
8	2021	24664,7	11152,4	13061,9
9	2022	29226,7	14294,9	15520,2
10	2023	34653,2	18258	18098
11	2024	41306,7	22602	23679,4

5-rasm Multikollinearlikga tekshirish.

Bu yerda $B42:$D$11 belgilab olingan va y, x_1, x_2 orasida multikollinearlikga tekshirildi,. Quyidagi natija hosil bo’ldi.

	A	B	C	D
1		*y*	*x1*	*x2*
2	y	1		
3	x1	0,995304907	1	
4	x2	0,997935948	0,992057817	1

6-rasm Korrelyatsiya qiymati.

Demak bilan x_1 orasidagi bog’liqlik 0,9953(99%) ga teng ekan va y bilan x_2 orasidagi bog’liqlik 0,9979(99%) teng bo’ladi.

x_1 va x_2 orasidagi bog’liqlik esa 0,9920 (99%) teng ekan. Bu tahlil excelda natijasi chiqdi.

Chiziqli regressiya tenglamasini umumiy ko’rinishi :

$$y = a + b_1x_1 + b_2x_2$$

y-bog’liq o’zgaruvchi, x_1 va x_2 -mustaqil o’zgaruvchilar a-erkin had, b_1,b_2 -regressiya koeffitsientlari.Ko’p o’zgaruvchili regressiya modeli: y(YAIM)= a(boshlang’ich qiymat)+

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

b_1x_1(Xizmatlar)+ b_2x_2(Sanoat)



	A	B	C	D
1	yillar	y	x1	x2
2	2015	8004,9	2509	3118,3
3	2016	9112,5	3047,3	3512,6
4	2017	11411,8	5158,3	4594,7
5	2018	15014,4	6348,4	7141
6	2019	18465,6	8013	9604,9
7	2020	20596,9	8682,2	10771,8
8	2021	24664,7	11152,4	13061,9
9	2022	29226,7	14294,9	15520,2
10	2023	34653,2	18258	18098
11	2024	41306,7	22602	23679,4

7-rasm Regressiya tahlili.

Excelda y, x_1 va x_2 ma’lumotlar quyidagi rasmdagi ko’rsatilgan.Exceldan Даные ga kirladi va Анализ данных tanlanadi.



8-rasm Regressiya belgilash.

	A	B	C	D	E	F	G
1	ВЫВОД ИТОГОВ						
2							
3	*Регрессионная статистика*						
4	Множественный R	0,998823355					
5	R-квадрат	0,997648095					
6	Нормированный R	0,996976123					
7	Стандартная ошиб	614,4789372					
8	Наблюдения	10					
9							
10	Дисперсионный анализ						
11		*df*	*SS*	*MS*	*F*	*Значимость F*	
12	Регрессия	2	1121165522	560582761	1484,655653	6,30912E-10	
13	Остаток	7	2643090,55	377584,3643			
14	Итого	9	1123808612				
15							
16		*Коэффициенты*	*Стандартная ошибка*	*t-статистика*	*P-Значение*	*Нижние 95%*	*Верхние 95%*
17	Y-пересечение	3586,160764	408,6395392	8,775853584	5,02463E-05	2619,8818	4552,43972
18	x1	0,565418257	0,246210296	2,296485023	0,055276678	-0,01677658	1,14761309
19	x2	1,100035304	0,240721717	4,569738516	0,002574934	0,530818893	1,66925171
20							

9-rasm Regressiya qiymati.

Регрессионная статистика	
Множественный R	0,998823355
R-квадрат	0,997648095
Нормированный R	0,996976123
Стандартная ошиб	614,4789372
Наблюдения	10

10-rasm Regressiya statistikasi

Ko‘p o’zgaruvchili korrelyatsiya koeffitsienti (Множественный R)= 0.9988 [2, 6]

R— bu korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘lib, u regressiya modelidagi mustaqil va bog‘liq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlik darajasini o‘lchaydi.

R quyidagi formula bilan hisoblanadi:

Bu yerda:

$$R = \frac{\sum(x - \bar{x})(y - \bar{y})}{\sqrt{\sum(x - \bar{x})^2 \sum(y - \bar{y})^2}}$$

x— mustaqil o‘zgaruvchi qiymatlari

y— bog‘liq o‘zgaruvchi qiymatlari

x’ va y’ — mos ravishda x va y larning o‘rtacha qiymatlari

R = 0.9988 ga teng

R qiymati 0 va 1 oralig’ida Demak korrelyatsiya koeffitsienti 1ga juda yaqin bo’lganligi sababli juda kuchli bog’lanish bor ekan.

Determinatsiya koeffitsienti - regressiya modelida bog‘liq o‘zgaruvchining o‘zgarishining qanchalik qismi mustaqil o‘zgaruvchilar orqali tushuntirilishini o‘lchaydi. Determinatsiya koeffitsienti R^2 kabi belgilanadi [2, 4]

R^2-Determinatsiya koeffitsienti formulasi shu formulada hisoblandi va quyidagi natija olindi. R^2=0.9976 buning ma’nosi shundan iboratki 99,76% y ning o’zgaruvchanligi model tomonidan ifodalaniladi. (Model darajasi .99.76% → (y)YAIM ning deyarli hammasini x_1 (Xizmatlar) va x_2 (Sanoat) xarajatlarining o’zgarishi bilan tushuntirish mumkin .) Ya’ni model 0,24% boshqa omillar tasir qiladi.

$$R^2 = \frac{SSR}{SST}$$

R^2=0.9969

Tuzatilgan R^2 — bu R^2 (determinatsiya koeffitsienti) ning modeldagi mustaqil o‘zgaruvchilar sonini hisobga olgan holda tuzatilgan ko‘rinishidir. Oddiy R^2 ko‘rsatkichi modelga mustaqil o‘zgaruvchilar soni ortishi bilan, hatto yangi o‘zgaruvchi ahamiyatsiz bo‘lsa ham, kamaymaydi. Tuzatilgan R^2 esa modelga kiritilgan o‘zgaruvchilar sonini hisobga olib, modelning haqiqiy tushuntirish qobiliyatini baholash imkonini beradi [1].

Tuzatilgan determinatsiya koeffitsientining formulasi quyidagicha:

$$R^2 = 1 - \frac{(1 - R^2)(n - 1)}{n - k - 1}$$

- Bu yerda
- R^2_{tuz} — tuzatilgan determinatsiya koeffitsienti;
- R^2— oddiy determinatsiya koeffitsienti;
- n— kuzatuvlar soni;
- k — modeldagi mustaqil o‘zgaruvchilar soni.

$$R^2 = 1 - \frac{(1 - 0{,}9976^2)(10 - 1)}{(10 - 2 - 1)} \approx 0.9969$$

Tuzatilgan $R^2 \approx 0.9969$.

F – Fisher testi regressiya modelinining umumiy ahamiyatni tekshirish uchun ishlatriladi.

$$F = \frac{\frac{SSR}{k}}{\frac{SSE}{n-k-1}} = \frac{MSR}{MSE}$$

$$F = \frac{MSR}{MSE} = \frac{560582761}{377584,3643} = 1484,655653$$

$$df_1 = 2, df_2 = 7$$

F= (Model yordamida tushuntirilgan o‘zgarishlar) / (Model tushuntira olmagan o‘zgarishlar)

df (degrees of freedom) — erkinlik darajalari bo‘lib, statistik hisob-kitoblarda ma’lum cheklovlar hisobga olingan holda mustaqil ravishda o‘zgarishi mumkin bo‘lgan qiymatlar sonini bildiradi. Regressiya tahlilida erkinlik darajalari kuzatuvlar soni va modelda baholanadigan parametrlar soniga bog‘liq [4].

Total df = n – 1

Regression df = k

Residual df = n –(k + 1)

Regressiya=2 Guruhlar yoki mustaqil o’zgaruvchilar yordamida tushuntitilgan dispersiya k –harfi bilan belgilanadi.Qoldiq(xato)=7 Guruh ichidagi dispersiya quyidagi formula bilan hisonblanadi n-(k-1)

Jami=9 Umumiy dispersiya qiymati n-1 ifoda orqali hisoblandi.

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P	Q	R
	yillar	y	x1	x2	a	b1	b2	y^	y-y^	y'	y^-y'	(y^-y')^2	(y-y^)^2	(y-y')	(y-y')^2	R^2(DK)	F	Adj R^2
	2015	8004,9	2509	3118,3	3586,16	0,5654	1,1	8434,8786	-429,979	21245,74	-12810,9	164118169,8	184881,5965	-13240,8	175319843,9	0,997584	1484,558	0,9969
	2016	9112,5	3047,3	3512,6	3586,16	0,5654	1,1	9172,96342	-60,4634	21245,74	-12072,8	145751934,4	3655,825158	-12133,2	147215512,9			
	2017	11411,8	5158,3	4594,7	3586,16	0,5654	1,1	11556,83282	-145,033	21245,74	-9688,91	93874922,34	21034,51888	-9833,94	96706375,92			
	2018	15014,4	6348,4	7141	3586,16	0,5654	1,1	15030,64536	-16,2454	21245,74	-6215,09	38627401,38	263,9117215	-6231,34	38829598,2			
	2019	18465,6	8013	9604,9	3586,16	0,5654	1,1	18682,1002	-216,5	21245,74	-2563,64	6572249,024	46872,3366	-2780,14	7729178,42			
	2020	20596,9	8682,2	10771,8	3586,16	0,5654	1,1	20344,05588	252,8441	21245,74	-901,684	813034,2523	63930,14902	-648,84	420993,3456			
	2021	24664,7	11152,4	13061,9	3586,16	0,5654	1,1	24259,81696	404,883	21245,74	3014,077	9084659,921	163930,2761	3418,96	11689287,48			
	2022	29226,7	14294,9	15520,2	3586,16	0,5654	1,1	28740,71646	485,9835	21245,74	7494,976	56174672,14	236180,0012	7980,96	63695722,52			
	2023	34653,2	18258	18098	3586,16	0,5654	1,1	33817,0332	836,1668	21245,74	12571,29	158037412,7	699174,9174	13407,46	179759983,7			
	2024	41306,7	22602	23679,4	3586,16	0,5654	1,1	42412,6708	-1105,97	21245,74	21166,93	448038959,5	1223171,41	20060,96	402442116,1			
												SSR	SSE		SST			
												1121093415	2643094,943		1123808612			

12-rasm Quyidagi rasmda barcha hisob kitoblar hisoblandi

SSR (Sum of Squares for Regression) — regressiya kvadratlari yig‘indisi bo‘lib, bog‘liq o‘zgaruvchining o‘rtacha qiymatidan regressiya modeli orqali tushuntiriladigan chetlashishlar miqdorini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich modelning ma’lumotlardagi o‘zgarishlarni qay darajada tushuntirishini baholashda qo‘llaniladi [4].

SSR formulasi quyidagicha:

$$SSR = \sum_{i=1}^{n} (\hat{y}_i - \bar{y})^2$$

Bu yerda

SSR — regressiya kvadratlari yig‘indisi;

y'_i– i–chi kuzatuv uchun model tomonidan prognoz qilingan qiymat y'– barcha kuzatuvlarning o‘rtacha qiymati

n– kuzatuvlar soni

SSR= 112116552

SSE (Sum of Squares for Error/Residual) — xatolar kvadratlari yig‘indisi bo‘lib, kuzatilgan qiymatlar bilan regressiya modeli tomonidan bashorat qilingan qiymatlar o‘rtasidagi farqlar kvadratlari yig‘indisini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich model orqali tushuntirilmagan chetlashishlar miqdorini baholashda qo‘llaniladi [3].

SSE formulasi quyidagicha:

$$SSE = \sum_{i=1}^{n} (y_i - \hat{y}_i)^2$$

Bu yerda

y_i– i–chi kuzatuvning haqiqiy qiymati

y_i^– i–chi kuzatuv uchun model tomonidan prognoz qilingan qiymat

n – kuzatuvlar soni

SSE= 2643090,55

SSR+SSE=SSR

Umumiy kvadratlar yig‘indisi (SST — Total Sum of Squares) — bog‘liq o‘zgaruvchining kuzatilgan y_i qiymatlari ularning o‘rtacha qiymati $\bar{y}$ atrofida qanchalik tarqalganligini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichdir. U ma’lumotlardagi umumiy o‘zgaruvchanlikni baholashda qo‘llaniladi [4].

SST formulasi quyidagicha:

$$SST = \sum_{i=1}^{n} (y_i - \bar{y})^2$$

y_i -i-chi kuzatuv

y’-barcha kuzatuvlarning o’rtacha qiymati

n– kuzatuvlar soni

SST= 1123808612

		Коэффициенты	Стандартная ошибка	t-статистика	P-Значение	Нижние 95%	Верхние 95%
17	Y-пересечение	3586,160764	408,6395392	8,775853584	5,02463E-05	2619,8818	4552,439729
18	x1	0,565418257	0,246210296	2,296485023	0,055276678	-0,01677658	1,147613094
19	x2	1,100035304	0,240721717	4,569738516	0,002574934	0,530818893	1,669251714

12-rasm Chiziqli regressiya tenglamasi

$$y = 3586{,}16 + 0{,}5654 \cdot x_1 + 1{,}1000 \cdot x_2$$

y– bog‘liq o‘zgaruvchi (YAIM) , x_1,x_2– mustaqil o’zgaruvchilar

Agar x_1 va $x_2 = 0$ bo‘lsa, y ning boshlang‘ich qiymati.

3586.16-boshlang’ich daraja

b_1=0,5654 (x_1 koeffitsienti)

Agar b_1=0,5654 bo’lsa,u holda sanoat o’zgarmay qolganda xizmatlar-1 birlikka oshirsak → YAIM o‘rtacha hisobda 0.5654 ga oshadi .

b_2=1.100 (x_2 koeffitsienti)

Agar b_2=1.100 bo’lsa,u xizmatlar o’zgarmay qolganda sanoat-1 birlikka oshirsak → YAIM o‘rtacha hisobda 1.100ga oshadi .

x_1=0, x_2=0 bo’lsa u holda y=3586.16 shu qiymatga teng boladi bu esa boshlang’ich darajasi.

t- statistika formulasi

$$t = \frac{b_i}{SE(b_i)}$$

b_i- koeffitsient

SE(b_1)-standart xatolik

y-peresechenie

Koeffitsient=3586,16

t=8,77 p=0,0000502

Tahlil natijasi p<0,05 bu ahamiyatli demak, model boshlang’ich darajada mavjud

x_1=x_2=0 bo’lsa y=3586,16ga teng bo’ladi.

x_1 o’zgaruvchi koeffitsient=0,565

t=2,296 p=0,0553

Interval:(-0,016;1,147)

Sanoat o’zgarmay qolganda xizmatlar 1$ ga oshsa,YAIM hajmi 95% ishonchlilik bilan -0,01677658 $ dan 1,147613094 $ gacha YAIM oshar ekan.Tahlil natijasi p<0,05 ahmiyatsiz .Interval 0 ni o’z ichiga oladi . x_1 ning ta’siri ishonchli emas ba’zi hollarda.

x_2 o’zgaruvchi koeffitsient=1,100, t=4,57, p=0,00257, Interval:(0,53;1,67)

Xizmatlar o’zgarmay qolganda sanoatlar 1$ ga oshsa,YAIM hajmi 95% ishonchlilik bilan 0,53 $ dan 1,66 $ gacha YAIM oshar ekan Tahlil natijasi p<0,05 ahmiyatli.Interval 0 ni o’z ichiga olmaydi. Demak sanoat kuchli ta’sir qiladi xizmatlar 1 birlik oshsa y 1,1 ga oshadi. Haqiqiy qiymat shu oraliqda yotadi (95% ehtimol bilan) Agar intervalda 0 bo‘lsa → ishonchsiz

x_1 → 0 bor → ishonchliligi past

x_2→ 0 yo‘q → ishonchli

Xulosa

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston iqtisodiyotiga oid 2015–2024-yillar ma’lumotlari asosida yalpi ichki mahsulot, aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi hamda aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarishi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘p o‘zgaruvchili chiziqli regressiya modeli yordamida o‘rganildi. Tahlil Microsoft Excel dasturining Data Analysis vositasi orqali amalga oshirildi. Bu tajriba regressiya tahlilini bajarish uchun murakkab hisob-kitoblarni qo‘lda amalga oshirish shart emasligini, biroq natijalarni to‘g‘ri talqin qilish uchun statistik mezonlarni yaxshi tushunish zarurligini ko‘rsatdi.

Korrelyatsiya tahlili natijalarida YAIM bilan bozor xizmatlari hamda sanoat ishlab chiqarishi o‘rtasida juda kuchli ijobiy bog‘liqlik kuzatildi. Regressiya natijalarida ko‘p o‘zgaruvchili korrelyatsiya koeffitsienti 0,9988, determinatsiya koeffitsienti esa taxminan 0,9976 deb qayd etilgan. Bu tanlangan model kuzatuvlardagi YaIM o‘zgarishining katta qismini izohlashini anglatadi. Shu bilan birga, yuqori R^2 qiymatining o‘zi model barcha sharoitlarda ishonchli prognoz beradi degani emas; natijalarni iqtisodiy mazmun, ma’lumotlar sifati va boshqa statistik tekshiruvlar bilan birgalikda baholash lozim.

Baholangan regressiya tenglamasida xizmatlar ko‘rsatkichi koeffitsienti 0,5654, sanoat ishlab chiqarishi koeffitsienti esa 1,100 atrofida bo‘ldi. Boshqa omil o‘zgarmagan sharoitda bu koeffitsientlar tegishli mustaqil ko‘rsatkichning bir birlikka o‘zgarishi bilan YaIMning model bo‘yicha o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi. Biroq t-test natijalariga ko‘ra, sanoat ishlab chiqarishi koeffitsienti statistik jihatdan ahamiyatli (p = 0,00257), xizmatlar ko‘rsatkichi koeffitsienti esa 5 foizlik ahamiyatlilik darajasida yetarlicha dalil bilan tasdiqlanmagan (p = 0,0553). Shuning uchun xizmatlar ko‘rsatkichining ijobiy yo‘nalishdagi bahosini qat’iy xulosa sifatida emas, ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak.

Tahlilda xizmatlar va sanoat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsiya ham yuqori ekani aniqlandi (0,9920). Bu holat multikollinearlik ehtimolini ko‘rsatadi va regressiya koeffitsientlarining alohida ta’sirini ajratib baholashni qiyinlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqotda o‘n yillik kuzatuvlardan foydalanilgani sababli natijalarni kengroq davr va qo‘shimcha omillar bilan tekshirish maqsadga muvofiq. Keyingi tadqiqotlarda aholi soni, investitsiyalar, bandlik, inflyatsiya hamda boshqa muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisobga olish, model qoldiqlarini tekshirish va prognoz aniqligini alohida baholash tavsiya etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabatlarni miqdoriy baholashda foydali vosita ekanini ko‘rsatadi. Excel dasturi esa dastlabki ma’lumotlarni qayta ishlash, korrelyatsiya va regressiya tahlilini bajarish hamda natijalarni jadval ko‘rinishida olishni qulaylashtiradi. Olingan natijalardan iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va dastlabki prognozlar tayyorlashda foydalanish mumkin, ammo amaliy qarorlar qabul qilishdan oldin modelning statistik shartlari va natijalarining barqarorligi qo‘shimcha ravishda tekshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Rasmiy statistik

ma’lumotlar: milliy hisoblar, aholi jon boshiga YAIM, bozor xizmatlari va sanoat ishlab chiqarishi ko‘rsatkichlari (2015–2024).

2. Wooldridge, J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. 7th ed. Cengage Learning, 2020. — Regressiya modelidagi qoldiqlar va xatolar kvadratlari yig‘indisi (SSE) tushunchasi.

3. Winston, W. L. Microsoft Excel Data Analysis and Business Modeling. 5th ed. Microsoft Press, 2019.

4. Gujarati, D. N., Porter, D. C. Basic Econometrics. 5th ed. New York: McGraw-Hill/Irwin, 2009. — Determinatsiya koeffitsienti va uning tuzatilgan shakli bo‘yicha ekonometrik nazariy ma’lumotlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobotlar va iqtisodiy sharhlar.

6. Stock, J. H., Watson, M. W. Introduction to Econometrics. 4th ed. Pearson, 2019.

7. Habibullayev, I. H., Utanov, B. Ekonometrika asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018.

8. Montgomery, D. C., Peck, E. A., Vining, G. G. Introduction to Linear Regression Analysis. 6th ed. Wiley, 2021.

9. James, G., Witten, D., Hastie, T., Tibshirani, R. An Introduction to Statistical Learning: with Applications in R. 2nd ed. Springer, 2021. https://www.statlearning.com/

10. Microsoft Support. Load the Analysis ToolPak in Excel. https://support.microsoft.com/ (Excel dasturidagi Analysis ToolPak bo‘yicha rasmiy qo‘llanma;

Мақоланинг боши журналнинг 4-сонида эълон қилинган

ИЛМИЙ-ТЕХНОЛОГИК ВА ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИК ТИЗИМИДА ОЛИЙ МАЛАКАЛИ ИЛМИЙ ВА ИЛМИЙ-ПЕДАГОГ КАДРЛАР АТТЕСТАЦИЯСИ ХАВФСИЗЛИГИ (МЕТОДОЛОГИК, УСЛУБИЙ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ)

Юсупов А.Т.

иқтисодиёт фанлари доктори,
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
Тошкент Ахборот Технологиялари
Университети
профессори

Аннотация. *Мазкур мақолада илк бор илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик тизими доирасида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлигининг методологик-услубий ва амалий жиҳатлари кўриб чиқилган. Соҳага оид хавфсизлик индикаторлари, хавфсизлик кўрсаткичлари ва хавфсизлик чегараси, баҳолаш усуллари ҳамда аттестация тизимининг хавфсизлик мезонини белгилаш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *миллий хавфсизлик, илмий-технологик хавфсизлик, иқтисодий хавфсизлик, олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси, методологик ва услубий асослар, хавфсизлик индикаторлари, кўрсаткичлари ва чегараси.*

БЕЗОПАСНОСТЬ АТТЕСТАЦИИ НАУЧНЫХ И НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ВЫСШЕЙ КВАЛИФИКАЦИИ В СИСТЕМЕ НАУЧНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ (МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ, МЕТОДИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ)

Юсупов А.Т.

Доктор экономических наук (DSc),
профессор Ташкентского университета
информационных технологий имени
Мухаммада аль-Хорезми.

Аннотация. *В статье впервые рассматриваются методологические, методические и практические аспекты безопасности аттестации научных и научно-педагогических кадров высшей квалификации в системе научно-технологической и экономической безопасности. Предлагаются индикаторы и показатели безопасности, пороговые значения, методы оценки и критерии безопасности системы аттестации.*

Ключевые слова: *национальная безопасность, научно-технологическая безопасность, экономическая безопасность, аттестация научных и научно-педагогических кадров высшей квалификации, методологические основы, методические основы, индикаторы безопасности, показатели безопасности, пороговые значения безопасности.*

SECURITY OF ATTESTATION OF HIGHLY QUALIFIED RESEARCH AND ACADEMIC STAFF WITHIN THE SCIENTIFIC, TECHNOLOGICAL AND ECONOMIC SECURITY SYSTEM (METHODOLOGICAL, METHODICAL AND PRACTICAL ASPECTS)

Yusupov A. T.

Doctor of Economic Sciences (DSc),
Professor at Tashkent University of

Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.

Abstract. *The article examines, for the first time, the methodological, methodical and practical aspects of the security of attestation of highly qualified research and academic staff within the scientific, technological and economic security system. It proposes security indicators, measures and thresholds, assessment methods and criteria for the security of the attestation system.*

Key words: *national security, scientific and technological security, economic security, attestation of highly qualified research and academic staff, methodological foundations, methodical foundations, security indicators, security measures, security thresholds.*

Таҳлил ва натижалар (давоми)

Илмий-технологик хавфсизликнинг моҳияти юзасидан амалга оширилган тадқиқотларда ягона ёндашув мавжуд эмас. Таҳлилнинг кўрсатишича, аксарият тадқиқотлар “илмий салоҳият” ёки “технологик хавфсизлик” йўналишида, баъзиларида “илмий-техник ва технологик хавфсизлик” сифатида [1], айримларида “илмий-технологик хавфсизлик” йўналишига урғу бериб кўриб чиқилган. Баъзи тадқиқотларда таълим компоненти [2]га устувор даражада қаралган. Таъкидлаш кераки, “илмий-технологик хавфсизлик» - мамлакат суверенитети, миллий хавфсизлиги, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ривожланишини таъминлашга, миллий хавфсизликнинг таркибий қисмларига техносфера, ташқи ва ички таҳдидлар таъсирининг минималлаш-тирилган ёки компенсация қилинган ҳолатидир” [3] мазмунидаги таърифга устувор қаралмоқда. Ривожланишнинг ҳозирги ва истиқбол босқичларида илмий (илмий салоҳият) ва технологик хавфсизликларни автоном ҳолда кўриб чиқиш кутиладиган самарани бермайди. Масала комплекс ҳолда, яъни “илмий-технологик хавфсизлик”ни яхлит тизим сифатида кўриб чиқилиши зарур. “Иқтисодчиларнинг ҳисоб-китобларига кўра, бугунги кунда дунё миқёсида тўпланган жами бойликларнинг 16 фоизи ишлаб чиқариш воситалари, 20 фоизи табиий ресурслар ҳиссасига тўғри келса, нақ 64 фоизи, яъни учдан икки қисми бевосита инсоннинг ақли ва салоҳияти, билими ва тажрибаси маҳсулидир” [4]. Жаҳонда тобора кескинлашиб бораётган рақобат ва глобал ўзгаришлар шароитида илмий ва технологик ривожланиш, шунингдек замонавий ва истиқбол талаблари, таҳдидларни эътиборга олган ҳолда миллий хавфсизлик тизими таркибида иқтисодий ва илмий-технологик хавфсизлик-ларни “эгизак хавфсизлик” [5] доирасида кўриб чиқилиши умумсамарадорликка хизмат қилади. Биринчиси таклифни ишлаб чиқса, иккинчиси ишлаб чиқилган таклифни амалга оширишига кўра умумсамарани таъминлайди.

Илмий-технологик хавфсизлик масаласига оид тегишли ҳужжатлар ва муайян тадқиқотларда [6] уни баҳолаш тизимлари турли даражаларда кўриб чиқилган. Жаҳон иқтисодиётининг шиддатли ривожланиши ва кескин ўзгаришлар шароитида мамлакатлар суверенитетини таъминлашда технологик суверенитет ўта муҳим аҳамият касб этмоқда. Шунга кўра технологик революция жадал ривожланишига кўра АҚШ, Хитой Халқ Республикаси, Германия ва Япония каби мамлакатларда илмий-технологик сиёсат жадал амалга ошириб келинмоқда. Таъкидлаш керакки, миллий иқтисодиётларнинг технологик ривожланишга бўлган ёндашувига кўра дунё мамлакатлари орасидаги ривожланиш даражасидаги тафовутлар тобора ортиб боради. Шунга кўра илмий-технологик хавфсизлик даражасини ифодаловчи муҳим унсур бўлган **технологик** ривожланиш даражаси мавжуд ёндашувларга биноан бир томондан иқтисодиёт тармоқлари (ишлаб чиқариш)нинг замонавий ҳолати (истиқбол имконияти) қай даражада жаҳон тараққиёти тенденциясига монандлиги ва модернизациялаб бориш даражаси ҳамда монанд равишда мутахассислар таркибига эгалиги билан, иккинчи томондан эса миллий илмий салоҳият натижасидан ривожланишда қай даражада фойдаланиш имкониятлари билан тавсифланади.

“Илмий-технологик хавфсизлик” доирасида таълим ва илм-фан соҳаларининг муҳим таркибий қисми бўлган илмий салоҳият ҳамда илмий ва илмий-педагог кадрлар

аттестацияси хавфсизлиги (аттестация хавфсизлиги) юзасидан қуйидагиларни келтириш мумкин:

биринчидан, аттестация хавфсизлиги ҳолати аксарият унгача бўлган таълим ва илм-фан соҳаларида амалга оширилган комплекс ишлар натижалари асосида намоён бўлади (мазкур соҳаларнинг ривожланиш ҳолати; соҳаларни бошқариш даражаси; докторантурани ташкил қилиш самарадорлиги; илмий муҳитнинг соғломлиги; бошқалар);

иккинчидан, аттестация хавфсизлиги унгача амалга оширилган жараёнлар натижалари билан бирга аттестация жараёнида амалга оширилган экспертиза сифатига кўра умумлашган ҳолда юзага чиқади. Шу жиҳатдан аттестация хавфсизлиги масаласини авваламбор илмий салоҳият, илмий салоҳият натижаларидан қай даражада технологик ривожланишда фойдаланиш, давлат илмий грантига оид масалаларни кўриб чиқишни тақазо этади.

Илмий-технологик хавфсизлик даражасини ифодаловчи асосий унсурлардан бири бўлган **илмий салоҳият** *бир томондан* илмий фаолият қай даражада ташкил этилгани, *иккинчи* томондан эса ишлаб чиқариш, давлат ва жамият ривожи илмий натижаларга қай даражада таянганлиги билан хусусиятланади. “Ўз иқтисодиётини мавжуд табиий ресурсларни сарфлаш эвазига эмас, инновацион маҳсулотлар яратиш, ўзлаштириш ва илғор техно-логияларни ишлаб чиқаришга жорий қилиш орқали ривожлантириш тараққиётнинг асосий омилига айланмоқда” [7]. Шунга кўра илмий салоҳият таълим ва илм-фан соҳаларининг ривожланиши даражаси, илмий фаолиятни самарали ташкил қилиш, илмий инфратузилманинг рақобатбардошлиги, илмий салоҳиятни рўёбга чиқариш имконият, илмий натижаларни амалиётга жорий қилиш ва патентлаштириш-тижоратлаштириш даражаси ҳамда илмий даражали кадрларнинг сифат таркиби кабиларни қамраб олади.

Илмий салоҳият мазмун-моҳиятига нисбатан турли ёндашувлар мавжуд бўлиб, жумладан ресурсларнинг мавжудлигига кўра [8], масалани кенгроқ, жумладан институционал ва ташкилий-кадрлар жиҳатдан қамраб олиш [9], мотивация муҳити [10], илмий тизимнинг масалани ҳал этиш қобилияти ва илмий фаолиятни ташкил этиш даражасига кўра тавсифланади. Илмий салоҳиятга қатор тадқиқотларда ўзига хос ҳолда ёндашилган [11].

Миллий, иқтисодий ва илмий-технологик хавфсизликлар тизимида умумқабул қилинган ёндашувларга кўра илмий салоҳият асосан икки йўналишда – миқдор ва сифат мезонларига кўра баҳоланади. Шуни таъкидлаш керакки, кенг маънода илмий фаолият унинг қай даражада ташкил этилгани, жамият тараққиёти қай даражада ишлаб чиқилган илмий натижа (маҳсулот)ларга таянганлигига кўра методологик-услубий жиҳатдан илмий салоҳиятнинг таркиби қуйидагиларни қамраб олиши мақсадга мувофиқ: илмий фаолиятни самарали ташкил қилиш; илмий фаолиятга инфратузилма мувофиқлиги; патентлаштириш ва тижоратлаштириш даражаси; натижаларни амалиётга жорий қилиш даражаси; илмий даражали кадрларни тайёрлаш ҳолати; илмий даражали кадрлар аттестацияси ҳолати; илмий даражали кадрларнинг сифат таркиби.

Услубий жиҳатдан мазкур кўрсаткичлар миллий, фан тармоқлари (ихтисосликлар), минтақалар, тармоқлар, алоҳида субъект ва мақсадли параметрлар каби йўналишларда аниқланади. Илмий салоҳият (фаолият)нинг туб масалаларидан бири самарадорлик (натижадорлик) миқдорий ва сифат жиҳатдан баҳоланишига кўра инсон капиталини ривожлантириш, меҳнат, молия ва моддий ресурслар харажатлари муҳим аҳамият касб этади. Муайян тадқиқотларда фаолият натижаларини миқдорий баҳолашнинг аниқ схемалари мавжудлиги юзасидан таклифлар асосланган [12], баъзиларида натижаларни миқдорий баҳолаш мақсадга мувофиқ эмаслиги билдирилади [13]. Аксарият тадқиқотларда самарадорликни “илмий янгилик (кашфиёт, натижа)ни яратиш – трансформациялаш” жараёнига кўра миқдорий баҳолашнинг мақсадга мувофиқлигига устувор қаралмоқда. Бу борада илмий янгиликнинг тижорат салоҳияти масаласи кенг муҳокама қилинмоқда. Илмий салоҳиятни баҳолаш-да патент фаоллигига [14] алоҳида эътибор берилади.

Илмий салоҳият (фаолият) самарадорлигини миқдорий баҳолаш ёнда-шувининг устуворлиги бўйича, жумладан қуйидагиларни кўрсатиб ўтиш мумкин: а) замонавий шарт-шароитларга кўра олдиндан белгиланган параметрлар бўйича аниқ манзилли тадқиқотлар портфелини устувор шакллантириш заруратининг ортиб бориш тенденцияси мавжудлиги; б) сарфланадиган ресурслар самарадорлигига миқдор-сифат жиҳатдан ишончнинг аввалдан асосли бўлиши динамикаси (ушбу ёндашув фундаментал ёки венчур тадқиқотлар самарадорлигига ҳам ижобий таъсир кўрсатади).

Бунда илмий салоҳият (фаолият) самарадорлигини миқдорий баҳолаш ёндашувининг устуворлиги юзасидан “Кимёвий ва технологик жараёнларни моделлаштириш” ихтисослигини рўйхатга киритилишини кўрсатиб ўтиш мақсадга мувофиқ. Жаҳон илмий-технологик ривожланишининг замонавий ва истиқбол тенденциясида рақамли трансформация, сунъий интеллект ва моделлаштириш технологияларининг жадаллашуви, замонавий кимё сано-атини сифат жиҳатдан ривожлантириб бориши ҳамда фанлараро тадқиқотлар кўламини кенгайтириш, истиқболда амалга ошириладиган тадқиқотларни прогнозлашнинг илмий асосларини сезиларли даражада оширишда кимёвий ва технологик жараёнларни моделлаштириш энг замонавий йўналишлардан бири ҳисобланади. Шунга кўра профессорлар, кимё фанлари докторлари И.Асқаров ва М.Мўминжонов томонидан “Кимёвий ва технологик жараёнларни моделлаштириш” ихтисослигини рўйхатга киритиш бўйича таклиф асосланиб, ихтисослик паспорти лойиҳаси ишлаб чиқилган (III.2026). Ушбу таклифнинг эксперт кенгаши ва етакчи ОТМ, ИТМ томонидан ижобий баҳоланишига кўра мазкур ихтисослик кимё, техника ва фармацевтика фанлари бўйича рўйхат таркибида тасдиқланган. Мазкур ихтисослик юзаси-дан, жумладан қуйидагиларни таъкидлаш мумкин: *биринчидан,* кимёвий ва технологик жараёнларни моделлаштириш йўналишида жаҳонда фақат саноқли давлатлар, масалан АҚШ, Япония, Канада, Россия, Жанубий Корея давлатларида тадқиқотлар ташкил этилган. Ихтисосликнинг жорий қилиниши натижасида Ўзбекистонда ушбу йўналишда мақсадли тадқиқотларни ташкил этишнинг илмий-ҳуқуқий асоси яратиб берилди; *иккинчидан,* янги ихтисосликнинг ўзига хос хусусияти шундаки – аввал бажарилган тадқиқотларнинг қиёсий таҳлили ва кимёвий жараёнлардаги ўзгаришларнинг сабаб-оқибат муносабатининг асосланишига кўра истиқболда мақсадли йўна-лишлар ва манзилли мавзуларда илмий тадқиқотларни ташкил қилиш, қандай илмий-амалий натижалар олиниши мумкинлигига оид прогнозларнинг илмий асосланиш даражасини бир неча бор оширишга хизмат қилади.

Услубиётга кўра илмий-технологик мутаносиблик нуқтаи-назаридан илмий салоҳият натижаларидан қай даражада технологик ривожланишда фойдаланиш имкониятларини тавсифлашда тадқиқотларнинг иқтисодиёт тармоқлари (ишлаб чиқариш)ни истиқболли ривожлантириш мақсад ва вазифаларига мувофиқлигига кўра *тадқиқотнинг мувофиқлик даражасига* урғу бериш мақсадга мувофиқ. Ушбу даражани, жумладан қуйидагиларга кўра миқдорий баҳолаш мақсадга мувофиқ: тадқиқотни ташкил қилишда тармоқ (манфаатдор юридик шахс) иштироки даражаси; тадқиқотни молиялашти-ришда тармоқ (манфаатдор юридик шахс) иштироки даражаси; илм-фан ва ишлаб чиқариш интеграциясининг мувофиқлик даражаси (“а” ва “б” бандлари асосида); тадқиқот натижасини патентлаш даражаси; илмий натижани тижоратлаштириш даражаси.

Илмий салоҳият ва давлат грантлари механизмлари

Илмий салоҳият ва илмий-технологик хавфсизлик уйғунлигини таъминлашда илмий-ташкилий ва молиявий воситалигига кўра давлат буюртмаси сифатида *давлат илмий грантлари* (давлат грантлари) механизми муҳим аҳамият касб этади. Шунга кўра бир томондан давлат грантлари илмий салоҳиятни мустаҳкамлаш, иккинчи томондан илмий салоҳият ва илмий-технологик хавфсизлик уйғунлигини таъминловчи локомотив вазифасини ўташи шарт (*Маълумот учун:* афсуски айрим олимлар томонидан локомотивлик масаласида диссертацион тадқиқотларни давлат грантларидан юқори

қўймоқдалар. Диссертация ҳеч қачон давлат гранти асосида бажарилган тадқиқотдан юқори бўла олмайди. Зеро, диссертация муайян тадқиқот мавзуси асосида бир шахс томонидан илмий раҳбарининг маслаҳатлари асосида бажарилса, давлат гранти етук олимлар жамоаси томонидан давлат буюртмаси асосида бажарилади).

Давлат грантларининг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини оширишда, жумладан қуйидагиларга аҳамият каратиш зарур:

биринчидан, давлат грантларига сарфланадиган маблағлар ва тадқиқотлар самарадорлигини оширишда давлат грантлари маблағларини икки қисмга, яъни *фундаментал илмий тадқиқотлар* [15] ва *илмий амалий тадқиқотлар* [16]*-инновацион лойиҳалар* қисмларига ажратиб, давлат бюджетидан ажратиладиган маблағларни шунга мос равишда 20% ва 80% ҳажмида йўналтириш мақсадга мувофиқ;

иккинчидан, минтақавий муаммолар илмий ечимини таъминлашда минтақалардаги илмий салоҳиятдан оқилона фойдаланган ҳолда давлат грантлари маблағларига нисбатан минтақавий квоталарни белгилаш мақсадга мувофиқ (масалан, жами фундаментал илмий тадқиқотларга ажратиладиган маблағнинг 50 фоизи ва илмий амалий тадқиқотлар-инновацион лойиҳалар бўйича ажратиладиган маблағларнинг 60 фоизини минтақаларга ажра-тилиши). Ушбуда қуйидаги шартнинг бажарилиши мақсадга мувофиқ: давлат грантлари илмий натижаларини истеъмол қилувчи (буюртма берувчи) минтақавий ташкилотлар томонидан давлат грантлари маблағи ҳажмига нисбатан 30-50 фоиз даражасида қўшимча инвестиция киритиш;

учинчидан, докторантура самарадорлиги ва илмий тадқиқотлар сифатини ошириш, илмий-молиявий имкониятлардан оқилона фойдаланишда фан тармоқлари кесимида “Давлат грантлари, докторлик ва магистрлик диссертациялари мавзуларини мувофиқлаштирувчи республика кенгаш”ларини тузиш мақсадга мувофиқ. Шунга кўра докторантурага қабул квотасини илмий амалий тадқиқотлар-инновацион лойиҳалар йўналишидаги тад-қиқотлар бўйича - давлат органлари ва ижтимоий ташкилотлар буюртмалари ҳамда фундаментал илмий тадқиқотлар йўналишида жамоатчилик асосида фаолият олиб борадиган давлат грантлари, докторлик ва магистрлик диссертациялари мавзуларини республика мувофиқлаштирувчи кенгашлари тавсиясига кўра шакллантириш механизмини йўлга қўйиш мумкин;

тўртинчидан, давлат грантларини шакллантиришда фанлараро интеграция устуворлиги мақсадга мувофиқ бўлиб, илмий-ташкилий жиҳатдан давлат грантларининг амалга оширилишини тегишли равишда миллий илмий-тадқиқот кластерлари ва йўналишлараро илмий-тадқиқот кластерлари негизида ташкил қилиш синергетик самарадорликни кескин даражада оширишга хизмат қилади. Таъкидлаш керакки, барча давлат грантлари доирасида бажариладиган тадқиқотлар таркибига мавзуга мувофиқ бўлган барча докторлик ва магистрлик диссертацияларини киритиб, уларнинг бажарилиши ва натижаларининг амалиётга самарали жорий қилинишини ташкил қилиш мақсадга мувофиқ.

Илмий-технологик хавфсизликнинг таркибий қисми бўлган олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (аттестация хавфсизлиги) муаммолари бўйича тадқиқотлар жуда кам дара-жада амалга оширилган бўлиб, тегишли тадбирлар асосан амалий тартибда ташкил этилган. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг муҳим мезонларидан бири сифатида амал қилиб, аттестация хавфсизлигининг хусусиятига кўра, жумладан қуйидагиларни таъкидлаб ўтиш мақсадга мувофиқ:

биринчидан, аттестация хавфсизлиги ўсиб борувчи тартибда илмий-технологик хавфсизлик, иқтисодий хавфсизлик ва миллий хавфсизлик тизимида муҳим аҳамият касб этиб, умумхавфсизлик ва рақобатбардошликни таъминловчи муҳим воситалардан биридир. Зеро, аттестация хавфсизлиги ил-мий салоҳиятнинг сифат таркибига ва кадрлар тайёрлаш даржасига таъсир этиб, ўз навбатида улар кейинги йиллар давомидаги тадқиқотлар, кадрлар

тайёрлаш ва илмий даражали кадрлар таркиби сифатига сезиларли даражада таъсир кўрсатади;

иккинчидан, аттестация хавфсизлиги илмий муҳокамалар сифатига, ва охир-оқибатда соғлом илмий муҳит даражасига таъсир кўрсатади. Агарда хавфсизлик масаласига эътибор пасайтирилса, бу албатта соғлом илмий муҳитга салбий таъсир кўрсатиб, у ўз навбатида бошқа салбий иллат, хавф-хатар ва таҳдиднинг ортиб боришига олиб келади;

учинчидан, аттестация хавфсизлиги ўз навбатида таълим ва илм-фан соҳалари башқаруви сифати ва бошқарув қарори самарадорлигига тўғридан-тўғри таъсир этади.

Аттестация хавфсизлигини баҳолашнинг методологик асослари

Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси ва хавфсизлиги бўйича таҳлиллар ва тўп-ланган тажрибага кўра **олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги** - олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестациясига қадар таълим ва илм-фан соҳаларида ҳамда бевосита аттестация жараёнида юзага келаётган (келган) ёки салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган (салбий таъсир кўрсатаётган) таҳдид (хавф-хатар)лардан ҳимояланишдир.

Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлигини таъминлаш бўйича қуйидаги ҳолатларни алоҳида кўрсатиб ўтиш зарур:

биринчидан, аттестация хавфсизлиги тўғридан-тўғри аттестация жара-ёнига қадар, яъни (1) докторантура хавфсизлиги ва (2) ОТМ, ИТМ бирламчи экспертизаси хавфсизлигига боғлиқ. Амалиётнинг кўрсатишича муайян ҳолатларда докторантура ва ОТМ, ИТМ бирламчи экспертизаси хавфсизлиги жараёнида муаммо “яширинган” тавсифга эга бўлиб, унинг салбий оқибатлари муайян муддат (3-5 йил)дан кейин аттестация жараёнида намоён бўлади. Яъни муаммо аввал (докторантура ва ОТМ, ИТМ даражасида) пайдо бўлиб, юзага чиқмайди; ушбу муаммонинг оқибати аттестация ишларини илмий кенгашлар ва аттестация органида кўриб чиқиш жараёнида намоён бўлади;

иккинчидан, умумсамарадорликни таъминлаш мақсадида “докторантура хавфсизлиги - ОТМ, ИТМ бирламчи экспертизаси хавфсизлиги - аттестация хавфсизлиги” босқичларини яхлит тизим сифатида уйғун ҳолда кўриб чиқиш зарур.

Услубий жиҳатдан докторантура хавфсизлиги ҳамда ОТМ, ИТМ бирламчи экспертизаси хавфсизлиги бўйича қуйидагиларни билдириш мумкин.

Олий таълимдан кейинги таълим институтларида илмий даражали кадрлар тайёрлаш жараёни хавфсизлигини “Докторантура хавфсизлиги даражаси” индикаторлари асосида баҳолаш мақсадга мувофиқ бўлиб, шу йўналишда таклиф этилаётган 5 та хавфсизлик кўрсаткичи асосида миқдорий ва сифат жиҳатдан тавсифланади (диссертацияни субъектив омилга кўра тайёрламаслик; талабгорнинг илмий даража шахсига мувофиқлиги; талабгор фаолияти мониторингида коррупция ҳолатининг йўқлиги; талабгор фаолияти мониторингида субъектив омилнинг йўқлиги; талабгор фаолиятига якуний хулоса беришда субъектив омилнинг йўқлиги).

Талабгорларни ОТМ, ИТМда бирламчи экспертизадан ўтказиш жараёни хавфсизлигини “ОТМ, ИТМ бирламчи экспертизаси хавфсизлиги даражаси” индикаторларига кўра баҳолаш мақсадга мувофиқ бўлиб, таклиф этилаётган 4 та хавфсизлик кўрсаткичи асосида миқдорий ва сифат жиҳатдан тавсифланади (талабгорнинг илмий даража шахсига мувофиқлиги; диссертациянинг ОТМ, ИТМдаги муҳокамасида субъектив омилнинг йўқлиги; диссертациянинг ОТМ, ИТМдаги муҳокамасида коррупция ҳолатининг йўқлиги; ОТМ, ИТМда диссертацияни илмий кенгашга тавсия қилишда субъектив омилнинг йўқлиги).

Аттестация хавфсизлиги мезонлари ва кўрсаткичлари

Методологик ва услубий жиҳатдан олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлигини баҳолаш амалиёти умум, фан тармоқлари (ихтисосликлар), ОТМ/ИТМ, илмий кенгаш ва муайян белгилар кесимида амалга оширилиши мумкин. Бунда

аттестация хавфсизлиги [17] мезони, хавфсизлик индикаторлари, хавфсизлик кўрсаткичлари, таҳдид ва аттестация хавфсизлик чегаралари муҳим аҳамият касб этди. Услубиётга кўра олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги-нинг мезони, индикаторлари, кўрсаткичлари, таҳдидлар ва хавфсизлик чегаралари қуйидагича тавсифланади:

а) олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги мезони - олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси жараёнида юзага келаётган (келган) ёҳуд салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган (салбий таъсир кўрсатаётган) таҳдид (хавф-хатар)ларни энг кам даражага олиб келиш ёки тўлалигича бартараф этилиши (ҳолати)дир;

б) олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги индикатори - олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси жараёнида юзага келаётган (келган) ёҳуд салбий таъсир кўрса-тиши мумкин бўлган (салбий таъсир кўрсатаётган) таҳдид (хавф-хатар)лардан ҳимояланиш ҳолатини мақсадли миқдорий ўлчов (кўрсаткич)лар натижаларини умумлаштирма ҳолда сифат жиҳатдан баҳоланишидир. Аттестация хавфсизлиги индикаторлари сифатида қуйидагилар таклиф этилади: қонун устуворлигига риоя қилиш; субъектив омилларга барҳам бериш; рақамлаштириш имкониятидан тўлиқ фойдаланиш;

в) олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги кўрсаткичи - олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлигининг муайян ҳолатини миқдорий жиҳатдан баҳо-лашдир.

Тажрибага кўра, илмий кенгаш даражасида аттестация хавфсизлиги кўрсаткичлари сифатида, жумладан қуйидагилар таклиф этилади: “низомлар талабларига риоя қилиш”; “илмий семинардаги диссертация экспертизасида субъектив омилнинг йўқлиги”; “талабгорнинг илмий даража шахсига мувофиқлиги”; “илмий кенгашдаги аттестация жараёнида коррупция ҳолатининг йўқлиги”; “аттестация жараёнида ёлғончилик ҳолатининг йўқлиги”; “рақамлаштириш имкониятларидан мақсадли фойдаланиш»; “плагиат ҳолатининг мавжуд эмаслиги”. Таъкидлаш керакки, ёлғончилик ҳолати аттестация жараёнини соғлом ва самарали ташкил этишга таҳдид ҳисобланади. Шунга кўра аттестация жараёни иштирокчилари ва илмий кенгашлар раҳбарияти бундай ҳолатга алоҳида эътибор қаратишлари зарур;

Тажрибага кўра олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (якуний) натижалари аттестация органи даражасида амалга оширилади. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги кўрсаткичлари сифатида, жумладан қуйидагилар таклиф этилади:

низомлар талабларига риоя қилиш;
низом қоидалари ва замонавий талаб мувофиқлиги;
диссертация экспертизасида субъектив омилнинг йўқлиги;
диссертация экспертизасида коррупция ҳолатининг йўқлиги;
рақамлаштириш имкониятларидан мақсадли фойдаланиш;
плагиат ҳолатининг мавжуд эмаслиги.

Услубий жиҳатдан кўрсаткичлар бўйича ҳар бир талабгор (аттестация иши) даражасида чекланишлар аниқланган ҳолда, жами талабгорлар бўйича чекинишлар умум ҳолда миқдорий баҳоланиб, сифат жиҳатдан тав-сифланади. Таъкидлаш керакки, кўрсаткичларни баҳолаш ишлари илмий кенгашлар томонидан, юқори турувчи органда эса кўрсаткичлар қуйи хавфсизлик даражалари натижаларни эътиборга олган ҳолда жараён комплекс амалга оширилади. Хавфсизлик кўрсаткичлари услубий жиҳатдан:

“низомлар талабларига риоя қилиш” хавфсизлик кўрсаткичи аттестация жараёнининг барча босқичларида талабларнинг ягоналигини таъминлашда фундаментал аҳамият касб этиб, кутилаётган ижтимоий-иқтисодий самарага эришишга хизмат қилади. Бугунги кунда мамлакатимизда халқпарвар давлат пойдевори сифатида адолат ва қонун устуворлигига

алоҳида эътибор қартил-моқда. Аттестация жараёнининг барча босқичларида низомлар талабларига риоя қилинишини миқдорий жиҳатдан баҳолаш борасида таклиф этилаётган кўрсаткич муайян аҳамият касб этади. Масалан, аттестация талабларининг ягоналигини таъминлашда 2022-III.2026 йилларда илмий семинардан кейин тақдим этилган жами аттестация ишларининг 64% ёки 64782 таси (ўрта ҳисобда уч марта) экспертиза ва назорат-таҳлил натижаларига кўра илмий кенгашларга қайта ишлашга қайтарилган. Бунда муайян илмий кенгашлар томонидан низомнинг ишни ҳимояга қабул қилиш бўйича талаби тегишли равишда бажарилмаганини кўрсатади. Шунга кўра ҳар бир қайта ишлаш учун қайтарилган ва жами қайтарилган ишларнинг улуши баҳоланади. Низомлар бўйича белгиланган гуруҳлар натижаси умумлашган ҳолда баҳоланиб, кўрсаткич миқдорий жиҳатдан яхлитланади ва тегишли хулоса қабул қилинади;

“низом қоидалари ва замонавий талаб мувофиқлиги” хавфсизлик кўрсаткичи бугунги кунда долзарб бўлиб бораётган масала ҳисобланади. Зеро, тартиб-қоидаларнинг замонавий ва истиқбол ўзгаришларига нечоғлик мувофиқлиги жараён натижаларининг сифати ва самарадорлигига катта таъсир кўрсатади. “Дунё яралибдики, у доимий, узлуксиз ўзгаришда. Қадимги донишмандлар айтганидек, “абадий ҳаракат бу - абадий ўзгаришдир”. Яъни доимий ўзгаришлар – абадият қонуни. Ҳаётдаги ва инсонлар тафаккуридаги ўзгаришлар, уларнинг эзгу ниятлари ва орзу-умидлари – тараққиётнинг, янгиланиш ва модернизациялашувнинг ҳаракатлантирувчи кучи, зарурий шартидир. Бу борада машҳур инглиз сиёсатчиси ва давлат арбоби Уинстон Черчилл “Яхшилаш – ўзгаришни, мукаммал бўлиш - тез-тез ўзгаришни англатади”, деб таъкидлаган” [18]. Шунга кўра таклиф этилаётган хавфсизлик кўрсаткичи олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестациясининг норматив-ҳуқуқий базасини мамлакатимиз стратегик тараққиётги ва илғор хорижий тажрибага нақадар монандлигини миқдорий баҳолашнинг услубий асосларини такомиллаштиришга хизмат қилади;

“диссертация экспертизасида субъектив омилнинг йўқлиги” хавфсизлик кўрсаткичи аттестация ишларини кўриб чиқиш ва жараёнда аттестация талабларининг ягоналигини таъминлашга салбий таъсир кўрсатувчи ҳолатлар бўйича баҳоланади;

“диссертация экспертизасида коррупция ҳолатининг йўқлиги” хавфсизлик кўрсаткичи. “Коррупция инсонлар ҳуқуқларининг бузилишига, яшаш сифатининг ёмонлашувига, соф бозор мехнизмларининг бузилишига олиб келади, демократик тамойиллар ва ҳуқуқий тартиботни заифлаштиради, ... Бугунги кунда ушбу хавфли ҳодиса жаҳоннинг барча - катта ва кичик, бой ва камбағал давлатларини ташвишга солиб келаётган глобал муаммодир” [19]. Янги Ўзбекистонни барпо этиш жараёнида коррупция муаммосига алоҳида аҳамият қаратилиб, унга қарши курашишнинг самарали ҳуқуқий ва институционал асослари яратилди ва бу борада муайян натижаларга эришилди. Бугунги кундаги долзарб вазифаларимиздан бири сифатида мазкур ҳолатнинг олдини олиш юзасидан амалга оширилаётган тизимли чора-тадбирларни изчил давом эттириш ҳисобланади. Шунга кўра мазкур кўрсат-кич коррупция ҳолатини миқдорий баҳолаш имконини яратади;

“рақамлаштириш имкониятларидан мақсадли фойдаланиш” хавфсизлик кўрсаткичи, айниқса сунъий интеллект технологиялари жадал ривожланиши билан боғлиқ масала ҳисобланади;

“плагиат ҳолатининг мавжуд эмаслиги” хавфсизлик кўрсаткичини баҳолашда қуйидагини назарда тутиш мақсадга мувофиқ: матн бўйича плагиат ҳолатига рухсат берадиган миқдорий ўлчов бўлмаслиги керак. Диссертация матнининг оргиналлик даражаси, масалан 95 фоизни ташкил этади, демак бу яхши ҳолат мазмунида хулоса берилиши ноўриндир. Зеро, матнда ҳеч қандай кўчирмачилик бўлмаслиги, ҳар бир ўзга манбадан олинган материалга у ёки бу даражада ҳавола берилган бўлиши шарт.

г) олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлигига таҳдид - аттестация иши экспертизаси ёки аттестация тадбирларини ташкил қилишда у ёки бу шаклда мавжуд тартиб-қоидага риоя қилмаслик, тўсқинлик қилиш, манфаатга кўра иш

кўриш (шунга ҳаракат қилиш) ҳолатларини ифодалайди.

Миллий хавфсизлик, иқтисодий хавфсизлик ва бошқа йўналишлар бўйича хавфсизликка таҳдид масаласи юзасидан кенг қамровли тадқиқотлар амалга оширилган. Лекин олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси бўйича тадқиқотлар кўлами жуда кам бўлиб, юқорида таъкидланганидак асосий масалалар амалиёт даражасида ҳал этилган. Умуман барча йўналишлар (миллий, иқтисодий ва б.) юзасидан “таҳдид” борасида илмий-назарий ёндашувлар ўхшаш бўлиб, айрим ҳолларда муайян ноаниқликлар мавжуд. “Баъзи мутахассислар «хавф-хатар» ва «таҳдид» тушунчаларини айнан синоним сифатида қўлламоқда. Ваҳоланки, «хавф-хатар» аслида жамият ҳаёти, тараққиётига хос бўлган доимий омилдир. Тўғри, у ҳам жамиятга нисбатан таҳдидли ҳолат. Бироқ таҳдидли ҳолат бевосита таҳдид дегани эмас. Таҳдид эса ўз моҳиятига кўра, жамият томонидан мавжуд объектив хавф-хатарнинг чуқурлашиб ва мураккаблашиб борилишига йўл қўйиб берилиши, пайдо бўлаётган муаммолар жавобсиз, эътиборсиз қолдирилиши натижасидир” [20];

д) олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги чегараси - олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлигини таъминлашда муайян ҳолатларнинг муайян миқдорий даражаси белгиланган чегарадир. Ушбуда муайян ҳолатнинг чегарадан чиқиб кетмаслиги ёки чегаралар оралиғида бўлиши кўзда тутилади. Таклифга кўра хавфсизлик чегарасини қуйидаги 2 даражада, яъни оптимал даража («1») ва чекиниш даражаси («≤ 1») бўйича белгилаш мақсадга мувофиқ бўлиб, услубий жиҳатдан улар қуйидагича тавсифланади:

оптимал даража: «1» миқдорий даражасида. Ушбу чегаранинг «1» даражаси, *масалан* “диссертацияни субъектив омилга кўра тайёрламаслик” ёки “талабгорнинг илмий даража шахсига мувофиқлиги” хавфсизлик кўр-саткичлари доимий равишда «1» тенг бўлиши, яъни талабгор ўз диссертациясини ўзи тайёрлаган ва илмий даража шахсига қўйиладиган талабларга мувофиқ бўлишини англатади;

чекиниш даражаси: «≤ 1» миқдорий даражада белгиланиб, масалан “аттестация жараёнида ёлғончилик ҳолатининг йўқлиги” кўрсаткичи тавсия этилди.

Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги чегараси бўйича қуйидагилар таклиф қилинмоқда:

докторантура хавфсизлигини «1» даражада 5 та кўрсаткич бўйича баҳолаш (Диссертацияни субъектив омилга кўра тайёрламаслик; Талабгорнинг илмий даража шахсига мувофиқлиги; Талабгор фаолияти мониторингида коррупция ҳолатининг йўқлиги; Талабгор фаолияти мониторингида субъектив омилнинг йўқлиги; Талабгор фаолиятига якуний хулоса беришда субъектив омилнинг йўқлиги);

ОТМ, ИТМ бирламчи экспертизаси хавфсизлигини «1» даражада 4 та кўрсаткич бўйича баҳолаш (Талабгорнинг илмий даража шахсига мувофиқ-лиги; Диссертациянинг ОТМ, ИТМдаги муҳокамасида суъбектив омилнинг йўқлиги; Диссертацияни ОТМ, ИТМдаги муҳокамасида коррупция ҳола-тининг йўқлиги; ОТМ, ИТМ диссертацияни ИКга тавсия қилишда субъектив омилнинг йўқлиги);

илмий кенгаш бўйича аттестация хавфсизлигини «≤ 1» даражада 1 та кўрсаткич бўйича баҳолаш (Аттестация жараёнида ёлғончилик ҳолатининг йўқлиги) ҳамда «1» даражада 6 та кўрсаткич бўйича баҳолаш (Низомлар талабларига риоя қилиш; Илмий семинардаги диссертация экспертизасида субъектив омилнинг йўқлиги; Талабгорнинг илмий даража шахсига мувофиқлиги; ИКдаги аттестация жараёнида коррупция ҳолатининг йўқлиги; Рақамлаштириш имкониятларидан мақсадли фойдаланиш; Плагиат ҳолати-нинг мавжуд эмаслиги);

олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси (якуний) хавфсизлиги «≤ 1» даражада 1 та кўрсаткич бўйича баҳолаш (Низом қоидалари ва замонавий талаб мувофиқлиги) ҳамда «1» даражада 5 та кўрсаткич бўйича баҳолаш (Низомлар талабларига риоя қилиш; Диссертация экспертизасида субъектив омилнинг йўқлиги; Диссертация

экспертизасида коррупция ҳолатининг йўқлиги; Рақамлаштириш имкониятларидан мақсадли фойдала-ниш; Плагиат ҳолатининг мавжуд эмаслиги). Маълумот учун: ушбуда «≤ 1» хавфсизлик чегараси қуйидагига кўра асосланган: низомлар замонавий талабларга мувофиқ бўлиши керак. Лекин низомларга тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш муайян муддани талаб этади. Шунга кўра «≤ 1» хавфсизлик чегарасини тавсифлашда сифат жиҳатдан тегишли тушунтириш берилади;

е) олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги мезони – олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлигини таъминловчи жами умумталабларга эришилган-лик ҳолатини миқдор-сифат жиҳатдан интеграл ифодаланишидир. Мезон умумлаштирилган ҳолда макро, мезо, микро (*жумладан,* муайян ихтисослик), илмий кенгаш даражаларида баҳоланиши мумкин.

Хулоса ва таклифлар

Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги, айниқса уни илмий-технологик хавфсизлик тизими яхлитлигида кўриб чиқиш фаолият натижадаорлигини оширишга хизмат қилади.

Таҳлил шуни кўрсатадики, олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги илмий салоҳиятнинг миқдорий ўсиши билан чекланмайди. Илмий натижаларнинг амалиётга жорий қилиниши, патентлаштириш ва тижоратлаштириш даражаси, докторантурадаги илмий муҳит, бирламчи экспертиза ҳамда илмий кенгашлар фаолиятининг холислиги ушбу хавфсизликнинг сифат жиҳатларини белгилайди. Шу сабабли аттестация хавфсизлигини илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик билан уйғун тизимда баҳолаш мақсадга мувофиқ.

Тадқиқотда илгари сурилган ёндашув асосида докторантура хавфсизлигини бешта, олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари бирламчи экспертизаси хавфсизлигини тўртта, илмий кенгаш ҳамда якуний аттестация хавфсизлигини эса алоҳида кўрсаткичлар билан баҳолаш таклиф этилади. Бунда муаллиф томонидан белгиланган «1» ва «≤ 1» миқдорий чегараларини қўллашдан олдин уларнинг амалий ўлчов тартибини, маълумот манбаларини ва баҳолаш даврийлигини аниқ белгилаш зарур.

Давлат илмий грантлари, диссертация мавзулари ва ишлаб чиқариш эҳтиёжларини ўзаро мувофиқлаштириш, фанлараро илмий кластерларни ривожлантириш ҳамда илмий натижаларни амалиётга татбиқ этиш механизмларини кучайтириш тавсия этилади. Мақолада келтирилган давлат грантлари маблағларини 20 ва 80 фоиз нисбатда тақсимлаш ҳамда ҳудудий квоталарга оид таклифлар амалиётга жорий этилишидан олдин алоҳида иқтисодий-ҳуқуқий баҳолашдан ўтказилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Г.Ю.Гагарина, Л.С.Архипова. Экономическая безопасность регионов. ООО «Издательство КноРус». 2022, С-138.

2. А.С.Новиков. Научно-технологическая безопасность:предпосилки возникновения и экономическое содержание. Вестник Белорусского экономического университети. 2024. С – 5-12; С.Гулямов. Подготовка специалистов по кибербезопасности в условиях цифровой экономики: адаптивный и междисциплинарный подход» // Материалы VI международного научного форума. Москва: РЭУ им. Г.В.Плеханова. 129-с.

3. А.Е.Варшавский, Методические принципы оценивания научно-технологической безопасности России. Вестник Московского университета. Серия 25: Международные отношения и мировая политика. 2015. Т. 7. № 4. С. 73–100.

4. Ш.М.Мирзиёев. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Т.: Ўзбекистон. 2024. 67-б.

5. Таклифга кўра: «Эгизак хавфсизлик» бир-бири билан ўзаро боғлиқ ва бир бирини ўзаро шартлайдиган мустақил йўналишлар бўйича хавфсизлик масалаларини оптимал даражада ягона тизим сифатида кўриб чиқишдир.

6. Илмий фаолият ҳамда олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш ва уларни аттестациядан ўтказишга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар; А.И.Ладынин. Система индикаторов научно-технологической безопасности России. Мир экономики и управления. — 2022; Т. 22. — № 2. — С. 23-35.; А.Т.Юсупов. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар давлат аттестацияси. Т.:.Ўзбекистон. 2013. 647 б.; Г.В.Лепеш. Научно-техническая и технологическая безопасность Российской Федерации//ТТПС. 2019. № 2 (48). [Электронный ресурс]. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nauchno-tehnicheskaya-itehnologicheskaya-bezopasnost-rossiyskoy-federatsii

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг мамлакатимиз илмий жамоатчилиги вакиллари билан учрашувдаги “Илм-фан ютуқлари Ватанимиз равнақига хизмат қилсин” нутқи. 30.12.2016 й.

8. Научный потенциал: опыт и моделирование влияния на развитие региона. Под редакцией В.И.Аверченкова, В.М.Кожухара. Брянск, 2009

9. В.В.Чекмарев, А.Р.Наумов. Интеллектуальный потенциал университетов: опыт формирования. Кострама, 2006.

10. Г.М.Коджаспирова. Педгогический словарь. М.: Тюменская государственная академия мировой экономики, управления и права, 2003, 176 с. (Г.М.Коджаспирова, А.Ю.Коджаспиров).

11. Научно-технологическая политика: глобальные тренды и практикум. Высшая школа экономики. М. 2024. 149 с.; А.С.Кулагин, Л.П.Клеева. Оценка научно-технологического потенциала исследовательских организаций. Экономические науки. 2023. Т9. №2. 20-20 с.; А.В.Сычев. Научный потенциал негосудар-ственого вуза: содержание, факторы формирования, формы реализации. Интернет-журнал: Наукаведение. 2014. №4.; Научно-практический журнал: Глобальные научный потенциал. 2024. № 3 269-351 с. Инновацион ривожланиш агентлигининг таҳлилий матераллари (2017-2025 йй.)..

12. Научный потенциал – 2026. Сборник статей научно-практической международной конференции. МЦНП «Новая наука», 2026. 291 с. Ва бошқа адабиётлар.

13. Ф.А.Романюк, И.Я.Леонович, А.И. Лойко. Научный потенциал и проблемы его эффективного использования, Вестник Белоруского национального технического университета, 2006 №1, С-5-9.

14. А.В.Тодосийчук. Интеллектуальный потенциал общества, результативность науки и экономический рост. Инновация. №1. 2010. 15-21 с.

15. Фундаментал илмий тадқиқотлар – табиат, одам, жамият, сунъий равишда яратилган объектлар ривожланишининг асосий қонунлари тўғрисида янги билим олишга қаратилган назарий ва (ёки) экспериментал тадқиқотлар. Б.Бегалов ва бошқалар. ЎзР Давлат статистика қўмитаси. Статистика соҳасининг асосий тушунча ва атамалари. Тошкент. 2020. 95-б.

16. Илмий амалий тадқиқотлар – аниқ илмий мақсадларга эришиш учун фундаментал илмий тадқиқотлар натижаларини қўллашга қаратилган тадқиқотлар. Б.Бегалов ва бошқалар. ЎзР Давлат статистика қўмитаси. Статистика соҳасининг асосий тушунча ва атамалари. Тошкент. 2020. 95-б.

17. Мазкур тадқиқотда таклиф этилган миқдорий ўлчовларни амалиётда синовдан ўтказишнинг мақсадга мувофиқлиги кабилар юзасидан чекловларга кўра тадқиқот дориасини кенгайтириш учун, жумладан миқдорий ўлчовларни синовдан ўтказиш натижаларидан фойдаланиш ҳамда социалогик сўровнома усулларини қўллаш бщйича чора-тадбирларни ташкил қилиш мақсадга мувофиқ.

18. Ш.М.Мирзиёев. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Т.: Ўзбекистон. 2024. 34-б.

19. Т.Матибаев. Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. Фуқаролик жамияти: коррупция – ижтимоий хавф. Т.: Билим ва интеллектуал салоҳият нашриёти. 2019. 8-б.

20. Ш.Пахрутдинов. Барқарор тараққиёт ва раҳбар масъулияти. Тошкент – 2011. Академия нашриёти. 63-б.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ICHKI SEGMENTAR HISOBOTNING TARKIBI, KO‘RSATKICHLARI VA SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shirinov Uchqun Abduxalilovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
E-mail: u_shirinov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-2146-9484

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Ichki segmentar hisobotni shakllantirishda segment daromadlari, xarajatlari, aktivlari, majburiyatlari, moliyaviy natijalari, pul oqimlari, segmentlararo operatsiyalar hamda moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda aks ettirish zarurati asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar, segmentar hisob, ichki segmentar hisobot, operatsion segment, segment daromadi, segment xarajatlari, segment foydasi, segment aktivlari.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРУКТУРЫ, ПОКАЗАТЕЛЕЙ И ФОРМ ВНУТРЕННЕЙ СЕГМЕНТАРНОЙ ОТЧЕТНОСТИ

Ширинов Учкун Абдухалилович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент
Самаркандский институт экономики и сервиса
E-mail: u_shirinov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-2146-9484

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования структуры, показателей и форм внутренней сегментной отчетности в организациях, работающих в общественных интересах. Формирование внутренней сегментной отчетности основано на необходимости отражения доходов, расходов, активов, обязательств, финансовых результатов, денежных потоков, межсегментных операций, а также финансовых и нефинансовых показателей сегментов во взаимозависимой форме.*

Ключевые слова: *организации, работающие в общественных интересах, сегментный учет, внутренняя сегментная отчетность, операционный сегмент, доходы сегмента, расходы сегмента, прибыль сегмента, активы сегмента.*

IMPROVING THE STRUCTURE, INDICATORS, AND FORMS OF INTERNAL SEGMENT REPORTING

Shirinov Uchqun Abduxalilovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Associate Professor
Samarkand Institute of Economics and Service
E-mail: u_shirinov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-2146-9484

Abstract. *This article examines issues related to improving the composition, indicators, and formats of internal segment reporting in public-interest entities. It substantiates the necessity of*

presenting segment revenues, expenses, assets, liabilities, financial results, cash flows, inter-segment transactions, and both financial and non-financial indicators in an interconnected manner when preparing internal segment reports.

Keywords: *public-interest entities, segment accounting, internal segment reporting, operating segment, segment revenue, segment expenses, segment profit, segment assets.*

Kirish

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko‘p jihatdan alohida segmentlar faoliyati to‘g‘risidagi tezkor, ishonchli va tahliliy axborotlarning mavjudligiga bog‘liq. Tashkilotning umumiy moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari uning alohida faoliyat yo‘nalishlari, hududiy bo‘linmalari, mahsulot va xizmatlari bo‘yicha erishilgan natijalarni batafsil baholash imkonini bermaydi. Shu sababli ichki segmentar hisobotni tashkilot boshqaruv tizimining muhim axborot manbai sifatida shakllantirish zarur. Ichki segmentar hisobotda segmentlar kesimida daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar, moliyaviy natijalar, pul oqimlari, reja va haqiqiy ko‘rsatkichlar hamda ular o‘rtasidagi chetlanishlarni aks ettirish rahbariyatga har bir segmentning iqtisodiy samaradorligini alohida baholash imkonini beradi. Bunda ichki segmentar hisobotning tarkibi va ko‘rsatkichlarini tashkilotning tashkiliy tuzilmasi, faoliyat xususiyati, javobgarlik markazlari hamda boshqaruv ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirishda o‘zaro bog‘langan hisobot shakllari tizimini yaratish maqsadga muvofiq. Bunday tizimda segmentlar bo‘yicha sotish va xizmatlar, xarajatlar, aktiv va majburiyatlar, moliyaviy natijalar, budjet ijrosi, segmentlararo operatsiyalar hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari alohida shakllarda umumlashtirilishi lozim. Ayniqsa, ko‘rsatkichlarni “reja – haqiqat – chetlanish – bajarilish darajasi” tamoyili asosida shakllantirish, bevosita ko‘rsatkichlarni tegishli segmentga to‘g‘ridan-to‘g‘ri biriktirish, bilvosita xarajatlarni iqtisodiy asoslangan taqsimlash bazalari orqali taqsimlash hamda segmentlararo operatsiyalarni alohida identifikatsiya qilish ichki hisobotning tahliliy imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada ichki segmentar hisobot oddiy ma’lumotlarni umumlashtiruvchi shakldan segmentlar faoliyatini baholash, chetlanishlarning sabablarini aniqlash, javobgarlik markazlari faoliyatini nazorat qilish va istiqboldagi boshqaruv qarorlarini asoslashga xizmat qiluvchi yaxlit axborot-tahliliy tizimga aylantiriladi.

Adabiyotlar sharhi

Ichki segmentar hisobot tashkilotning alohida faoliyat yo‘nalishlari, mahsulotlari, xizmatlari, hududlari va javobgarlik markazlari bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni shakllantiruvchi boshqaruv hisobi vositasi hisoblanadi. **R.H. Garrison** segmentar hisobotni boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash nuqtayi nazaridan tadqiq qilib, segment natijalarini baholashda sotishdan tushum, o‘zgaruvchan xarajatlar, marjinal daromad, segmentga bevosita tegishli doimiy xarajatlar va segment natijasini alohida aks ettirish zarurligini asoslaydi [1]. Muallifning fikricha, umumiy doimiy xarajatlarni segmentlarga asossiz taqsimlash segment faoliyatining haqiqiy natijasini buzishi mumkin. Shu sababli segment natijasini aniqlashda aynan shu segment faoliyati tufayli yuzaga keladigan va unga bevosita bog‘lanadigan xarajatlarni hisobga olish muhimdir. Mazkur yondashuv ichki segmentar hisobot shakllarida daromad va xarajatlarni “bevosita tegishli” hamda “taqsimlanadigan” ko‘rsatkichlarga ajratish zarurligini asoslaydi.

E.W. Noreen ichki segmentar hisobotni markazlashmagan boshqaruv tizimi bilan bog‘lab, tashkilot faoliyatini alohida segmentlarga ajratish rahbariyatga har bir bo‘linmaning tashkilotning umumiy moliyaviy natijasiga qo‘shayotgan hissasini aniqlash imkonini berishini ta’kidlaydi [2]. Olim yondashuvida segment daromadi va xarajatlari alohida shakllantirilishi, segmentga bevosita tegishli xarajatlar umumiy xarajatlardan ajratilishi hamda segment marjasi uning uzoq muddatli rentabelligini baholashda qo‘llanilishi lozim. Bu esa ichki segmentar hisobotda faqat yakuniy

foyda ko‘rsatkichini emas, balki tushum, o‘zgaruvchan xarajat, marjinal daromad, bevosita doimiy xarajat va segment natijasini bosqichma-bosqich aks ettirish zarurligini ko‘rsatadi [2].

P.C. Brewer segmentlar faoliyatini baholashda moliyaviy natija bilan bir qatorda javobgarlik markazlarining xususiyatlarini hisobga olishga e’tibor qaratadi [3]. Xarajat, foyda va investitsiya markazlari rahbarlarining vakolatlari bir xil bo‘lmaganligi sababli ularning faoliyatini yagona ko‘rsatkichlar majmuasi asosida baholash maqsadga muvofiq emas. Xususan, investitsiya markazlari faoliyatini baholashda investitsiyalar rentabelligi va qoldiq daromad kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Bundan kelib chiqib, ichki segmentar hisobot shakllarini javobgarlik markazlari xususiyatlariga mos ravishda tabaqalashtirish zarur: xarajat markazida xarajatlar va ularning chetlanishi, foyda markazida daromad, xarajat va foyda, investitsiya markazida esa moliyaviy natija bilan birga foydalanilgan aktivlar samaradorligi aks ettirilishi lozim [3].

D. Tamulevičienė javobgarlik markazlari va ichki hisobot o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, tashkilotning boshqaruv tizimida axborotni umumiy korxona darajasida emas, balki alohida javobgarlik markazlari bo‘yicha jamlash va tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi [4]. Muallif javobgarlik markazlarini xarajat, daromad, foyda va investitsiya markazlariga ajratishni hamda ichki hisobot tizimini ushbu markazlarning vazifalari bilan bog‘lashni taklif qiladi. Uning metodikasida tashkiliy tuzilmani tahlil qilish, javobgarlik markazlarini belgilash, ular bo‘yicha ichki hisobotni tashkil etish va faoliyatni baholash tizimini yaratish o‘zaro bog‘liq bosqichlar sifatida qaraladi [4]. Mazkur fikr ichki segmentar hisobot shakllarini tashkilotning tashkiliy tuzilmasi va rahbarlarning mas’uliyat doirasi bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

L. Lindkvist ichki hisobotning mazmunini tashkilot ichidagi boshqaruv munosabatlari nuqtayi nazaridan o‘rganadi [5]. Uning tadqiqotida ichki hisob va hisobot faqat iqtisodiy hisob-kitoblar majmui sifatida emas, balki tashkilotning ierarxik boshqaruv tuzilmasida axborot almashinuvi va nazoratni ta’minlovchi vosita sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari ichki hisobot shakllarini murakkablashtirishning o‘zi boshqaruv samaradorligini kafolatlamasligini, aksincha, axborotning rahbariyat ehtiyojiga mosligi muhim ekanligini ko‘rsatadi [5]. Bu yondashuvdan kelib chiqib, ichki segmentar hisobotda ortiqcha ko‘rsatkichlarni ko‘paytirishdan ko‘ra, segment rahbarining vakolati va qaror qabul qilish ehtiyojiga bevosita xizmat qiladigan ko‘rsatkichlarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

C. Gross ichki boshqaruv hisobida shakllantiriladigan segment natijalari va tashqi moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabatni empirik tadqiq etgan [6]. Uning A. Wagenhofer va D. Windisch bilan olib borgan tadqiqoti korxonaning ichki boshqaruv hisobi tizimida qo‘llaniladigan segment foydasi ko‘rsatkichlari resurslarni taqsimlash va investitsiya qarorlarida muhim axborot vazifasini bajarishini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar segment natijalarining boshqaruv qarorlari uchun foydaliligi ichki hisob ko‘rsatkichlarining qanday shakllantirilishiga bog‘liqligini aniqlaganlar [6]. Shu jihatdan ichki segmentar hisobot ko‘rsatkichlari nafaqat nazorat, balki resurslarni segmentlar o‘rtasida oqilona taqsimlash uchun ham xizmat qilishi lozim.

K.H. Gee segment foydasi yoki zararini baholashda ichki boshqaruv tomonidan foydalaniladigan ko‘rsatkichlarning mazmuniga alohida e’tibor qaratadi [7]. Muallif Z. Wiebe bilan olib borgan tadqiqotida rahbariyatning resurslarni segmentlar o‘rtasida taqsimlashda foydalanadigan foyda yoki zarar ko‘rsatkichi tashqi foydalanuvchilar talqin qiladigan ko‘rsatkich bilan har doim ham bir xil iqtisodiy mazmunga ega bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Bu holat ichki segmentar hisobotda har bir ko‘rsatkichning hisoblash tartibi va tarkibini aniq belgilash zarurligini anglatadi [7]. Demak, ichki segmentar hisobotni takomillashtirishda faqat ko‘rsatkichlar ro‘yxatini kengaytirish emas, balki ularning mazmuni, hisoblash usuli va boshqaruv qarorlaridagi vazifasini aniq belgilash muhimdir.

S.M. Bragg segmentar hisobotda segmentga tegishli daromad va xarajatlarni to‘g‘ri shakllantirish, transfert baholari hamda umumiy xarajatlarni taqsimlash usullarining izchilligiga alohida e’tibor qaratadi [8]. Muallifning fikricha, segmentlar o‘rtasidagi operatsiyalarda foydalaniladigan transfert baholari ichki hisobotda qo‘llaniladigan baholash tamoyillariga mos

bo‘lishi, umumxo‘jalik xarajatlarini taqsimlash esa segment natijasini sun’iy ravishda o‘zgartirmasligi kerak. Shuningdek, segmentlar bo‘yicha shakllantirilgan ma’lumotlarni davriy ravishda ichki segment hisobotlari bilan taqqoslash zarurligi ko‘rsatiladi [8]. Ushbu yondashuv ichki segmentar hisobot shakllariga segmentlararo operatsiyalar, transfert baholari va taqsimlangan xarajatlar bo‘yicha alohida ustunlarni kiritish zarurligini asoslaydi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchi A.R. Shodiev baliqchilik klasterlarida boshqaruv hisobi va ichki nazorat tizimini o‘rganib, faoliyatni alohida operatsion segmentlar bo‘yicha aks ettiruvchi segmentar hisobot shaklini taklif etgan [9]. Muallif boshqaruv hisob siyosatini takomillashtirish, segmentlararo operatsiyalar uchun transfert baholaridan foydalanish hamda beshta operatsion segment bo‘yicha alohida hisobot shakllantirishni o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida ko‘radi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, segmentar hisobotning boshqaruv hisobi va ichki nazorat tizimi bilan integratsiyalashuvi tashkilot faoliyatining shaffofligi va nazorat qilinishini oshiradi [9]. Mazkur yondashuv O‘zbekiston amaliyotida ichki segmentar hisobot shakllarini tarmoq xususiyatidan kelib chiqib ishlab chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonlik olima Y.Y. Eshniyazova boshqaruv hisobotini segmentlar va javobgarlik markazlari kesimida takomillashtirish masalasini tadqiq qilib, ichki boshqaruv segmentatsiyasi bilan 8-son MHXS asosidagi operatsion segmentlar o‘rtasida axborot bog‘liqligini ta’minlash zarurligini asoslaydi [10]. Muallif mahsulot, xizmat va mijozlar bo‘yicha shakllantiriladigan ichki segmentlarni javobgarlik markazlari bilan bog‘lash hamda ichki va tashqi segmentar ko‘rsatkichlar o‘rtasida muvofiqlashtiruvchi mexanizm yaratishni taklif etadi. Bunday yondashuv ichki segmentar hisobot ko‘rsatkichlarini tashqi segmentar hisobot uchun boshlang‘ich axborot bazasiga aylantirish imkonini beradi [10]. Bu, o‘z navbatida, bir xil iqtisodiy hodisa bo‘yicha ichki va tashqi hisobotlarda turlicha axborot shakllanishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlilini umumlashtirish natijasida, mavjud tadqiqotlarda ichki segmentar hisobotning alohida elementlari - segment daromadi, xarajatlari, segment marjasi, javobgarlik markazlari, investitsiya samaradorligi, transfert baholari va segment foydasi yetarlicha yoritilganligi aniqlandi. Biroq jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda ichki segmentar hisobotning **tarkibi, ko‘rsatkichlari va o‘zaro bog‘langan shakllarini yagona tizim sifatida shakllantirish** masalasi to‘liq hal etilmagan. Shu sababli ichki segmentar hisobotni **“segment – javobgarlik markazi – reja – haqiqat – chetlanish – bajarilish darajasi – segment natijasi”** bog‘liqligida shakllantirish, bevosita va taqsimlanadigan xarajatlarni ajratish, segmentlararo operatsiyalarni alohida ko‘rsatish hamda moliyaviy va nomoliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini yagona hisobot tizimida umumlashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish masalalarini o‘rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Segmentlar va javobgarlik markazlari bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natijalar hamda reja va haqiqiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinib, ichki segmentar hisobot shakllarini takomillashtirish bo‘yicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Ichki segmentar hisobotning axborot imkoniyatlarini kengaytirish uchun uning tarkibiy qismlari va ko‘rsatkichlarini tashkilotning boshqaruv ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lash zarur. Bunda segment faoliyatini faqat daromad va xarajatlar asosida baholash yetarli bo‘lmay, uning aktivlari, majburiyatlari, moliyaviy natijalari, pul oqimlari, investitsiyalari, segmentlararo operatsiyalari, budjet ko‘rsatkichlari, rentabelligi, tavakkalchiliklari hamda moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlarini ham yagona axborot tizimida umumlashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, segmentlar faoliyatini reja va haqiqiy ko‘rsatkichlar asosida taqqoslash, chetlanishlarning sabablarini aniqlash hamda javobgarlik markazlari va segment rahbarlari faoliyatini baholash ichki segmentar hisobotning boshqaruvdagi ahamiyatini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot

doirasida ichki segmentar hisobotning tarkibiy qismlari, ular bo‘yicha shakllantirilishi zarur bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlar hamda mazkur axborotlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati tizimlashtirildi. Taklif etilayotgan tarkib segment faoliyatini “resurslar – daromadlar – xarajatlar – moliyaviy natija – samaradorlik – chetlanish – tavakkalchilik – boshqaruv qarori” ketma-ketligida kompleks baholashga asoslanadi. Quyidagi jadvalda ichki segmentar hisobot tarkibiga kiritilishi taklif etilayotgan asosiy axborot bloklari va ularning boshqaruvdagi vazifalari keltirilgan.

1-jadval.

Ichki segmentar hisobotning tarkibi va asosiy ko‘rsatkichlari[69]

№	Ichki segmentar hisobot tarkibiy qismi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Axborotning boshqaruvdagi ahamiyati
1	Segment to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar	Segment nomi, faoliyat turi, hududi, mahsulot yoki xizmat turi, mas’ul rahbar	Segmentning tashkiliy va iqtisodiy chegaralarini belgilaydi
2	Segment daromadlari	Tashqi mijozlardan daromadlar, segmentlararo daromadlar, boshqa operatsion daromadlar	Segmentning daromad yaratish salohiyatini baholash imkonini beradi
3	Segment xarajatlari	Bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar, taqsimlangan umumiy xarajatlar	Xarajatlarni nazorat qilish va ularni optimallashtirish imkonini beradi
4	Segment moliyaviy natijalari	Yalpi foyda, operatsion foyda, marjinal foyda, segment foydasi yoki zarari	Segment faoliyatining yakuniy iqtisodiy samaradorligini aniqlaydi
5	Segment aktivlari	Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, zaxiralar, debitorlik qarzlari va boshqa segment aktivlari	Segmentga biriktirilgan iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini baholaydi
6	Segment majburiyatlari	Kreditorlik qarzlari, hisoblangan majburiyatlar va segment faoliyatiga tegishli boshqa majburiyatlar	Segmentning moliyaviy majburiyatlari va moliyalashtirish yukini nazorat qiladi
7	Segmentlararo operatsiyalar	Segmentlararo sotish, xizmatlar, resurslar harakati, ichki hisob-kitoblar	Segmentlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilishga xizmat qiladi
8	Transfert narxlari	Ichki sotish narxi, bozor narxi, tannarxga asoslangan narx, kelishilgan narx	Segmentlar faoliyati natijalarini xolis baholash va ichki manfaatlar muvozanatini ta’minlaydi
9	Byudjet va haqiqiy ko‘rsatkichlar	Reja, byudjet, haqiqiy natija, mutlaq va nisbiy chetlanishlar	Rejalashtirilgan va erishilgan natijalarni taqqoslash imkonini beradi
10	Segment rentabelligi	Sotish rentabelligi, aktivlar rentabelligi, investitsiyalar rentabelligi, foyda marjasi	Segment samaradorligini boshqa segmentlar bilan qiyosiy baholashga xizmat qiladi
11	Investitsiyalar va kapital xarajatlar	Kapital qo‘yilmalar, yangi loyihalar, asosiy vositalarga investitsiyalar	Segment rivojlanishiga yo‘naltirilgan resurslarning samaradorligini baholaydi
12	Pul oqimlari	Operatsion tushumlar va to‘lovlar, investitsion pul oqimlari, sof pul oqimi	Segmentning pul mablag‘larini yaratish qobiliyatini aniqlaydi
13	Debitorlik va kreditorlik qarzlari	Qarzdorlik summasi, muddati, muddati o‘tgan qarzlar, aylanish koeffitsiyenti	Hisob-kitob intizomi va likvidlik holatini nazorat qilish imkonini beradi
14	Nomoliyaviy ko‘rsatkichlar	Mijozlar soni, xizmatlar hajmi, mehnat unumdorligi, sifat ko‘rsatkichlari, mijozlar qoniqishi	Moliyaviy natijalarga ta’sir qiluvchi operatsion omillarni aniqlaydi
15	Mas’uliyat markazlari faoliyati	Xarajat, daromad, foyda va investitsiya markazlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar	Rahbarlarning javobgarligi va boshqaruv samaradorligini baholaydi
16	Boshqaruv qarorlari uchun tavsiyalar	Muammo, uning sababi, kutilayotgan ta’siri va tavsiya etiladigan chora-tadbirlar	Segment faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha aniq boshqaruv qarorlarini shakllantiradi

Ichki segmentar hisobotning tarkibi korxona boshqaruv tizimida segmentlar faoliyatini kompleks baholash, nazorat qilish va strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborot

[69] Muallif ishlanmasi

elementlarining yagona tizimini shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, segmentlar kesimida faqat daromad va xarajatlarni aks ettirish boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli emas. Shu sababli zamonaviy boshqaruv hisobi konsepsiyasida segment aktivlari, majburiyatlari, transfert narxlari, investitsiyalar, pul oqimlari hamda moliyaviy bo‘lmagan samaradorlik ko‘rsatkichlarini ham ichki segmentar hisobot tarkibiga kiritish zarur hisoblanadi. Natijada har bir segment korxonaning mustaqil iqtisodiy javobgarlik markazi sifatida baholanadi.

2-jadval.

Sug‘urta tashkilotining Bosh byudjeti (biznes-rejasi) ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobot shakli[70]

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov	Reja yillik	Reja oylik	Haqiqatda yil boshidan	Haqiqatda shu oyda	Bajarilishi yil, %	Bajarilishi oy, %	Chetlanish yil	Chetlanish oy
I	**Sug‘urta faoliyati hajmi**									
1	Tuzilgan sug‘urta shartnomalari soni	dona	950 000	79 167	1 185 000	98 750	124,74	124,74	+235 000	+19 583
2	Sug‘urtalangan obyektlar soni	dona	1 150 000	95 833	1 420 000	118 333	123,48	123,48	+270 000	+22 500
Ikkinchi muammo byudjetlashtirishning formal xarakter kasb etishi bilan bog‘liq. Ayrim jamiyatlarda yillik byudjet tasdiqlangandan keyin asosiy nazorat hujjatiga aylanadi va tashqi sharoit keskin o‘zgarganida ham qayta ko‘rib chiqilmaydi. Natijada reja va fakt o‘rtasidagi farq tobora kengayadi. Kontrolling tizimi esa kelajakdagi holatni bashorat qilish o‘rniga o‘tgan davrdagi chetlanish sabablarini izohlash bilan cheklanadi.

Buning moliyaviy samaradorlikka ta’siri sezilarli. Sotuv hajmi kamaygan paytda xarajatlar reja bo‘yicha davom ettirilsa, operatsion marja pasayadi. Foiz stavkasi oshgan bo‘lsa-yu, moliyalashtirish rejasi o‘zgarmasa, qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari ortadi. Xomashyo narxi yoki valyuta kursi o‘zgarganda mahsulot tannarxi va narx siyosati qayta hisoblanmasa, rentabellik kamayadi.

Shu sababli yillik byudjetni rolling forecast bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq. Har chorak yoki oy yakunida keyingi 12 oy uchun yangilangan prognoz tuzilishi moliyaviy kontrollingni

tarixiy nazoratdan istiqbolga yo‘naltirilgan tizimga o‘tkazadi.

Uchinchi muammo — risk-menejment bilan moliyaviy kontrollingning yetarli integratsiyalashmaganligi. Aksiyadorlik jamiyatida risklar alohida bo‘lim tomonidan yuritilib, moliyaviy rejalar esa boshqa bo‘limda shakllantirilsa, risk registrida mavjud xavflar byudjet raqamlarida aks etmay qolishi mumkin.

Masalan, yirik eksportchi korxona valyuta riskini aniqlagan bo‘lishi mumkin. Ammo bu risk daromad prognozida turli kurs ssenariylari orqali hisobga olinmasa, nominal byudjet real moliyaviy xavfni yashiradi. Xuddi shuningdek, yirik xaridorning to‘lov qobiliyati yomonlashishi kredit riski sifatida qayd etilgan bo‘lsa-da, cash-flow prognozida to‘lov kechikishi aks ettirilmasa, likvidlik rejalari noto‘g‘ri bo‘ladi. Hiebl va Braumann hammualliflari ko‘rsatganidek, risk boshqaruvi boshqa nazorat mexanizmlari bilan uyg‘unlashgandagina qarorlar uchun to‘liq axborot yaratadi [2; 3].

To‘rtinchi muammo samaradorlikni baholashning tor moliyaviy indikatorlarga bog‘lanib qolishidir. Foyda, rentabellik yoki tushum muhim ko‘rsatkichlar, ammo ular ko‘pincha natijaning sababini emas, yakuniy oqibatini aks ettiradi.

Masalan, bugungi foyda yuqori bo‘lishi mumkin, ammo mijozlarni yo‘qotish darajasi oshayotgan bo‘lsa, kelgusi tushum xavf ostida qoladi. Uskunalarni profilaktik ta’mirlash xarajatlari kamaytirilsa, joriy davr foydasi yaxshilanadi, lekin kelajakda ishlab chiqarish to‘xtashi mumkin. Shuning uchun aksiyadorlik jamiyati uchun moliyaviy KPIlar mijozlar, ishlab chiqarish, investitsiyalar, xodimlar va risk indikatorlari bilan bog‘lanishi kerak.

Beshinchi muammo kontrolling tizimining boshqaruv qarorlaridan ajralib qolishi hisoblanadi. Kontroller rahbariyatga oy yakunidagi tayyor hisobotlarni yetkazib beruvchi mutaxassis sifatida ishlasa, uning investitsiya, kredit, dividend, narx va kapital tuzilmasiga oid strategik qarorlarga ta’siri kam bo‘ladi.

Aslida kontroller investitsiya loyihasi tasdiqlanishidan oldin NPV, IRR va payback ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda turli ssenariylardagi pul oqimi va riskni ham tahlil qilishi kerak. Yirik kredit jalb qilinayotganda qarz kapitalining umumiy qiymati, foizlarni qoplash imkoniyati, leverage va kovenantlar ta’sirini baholashi zarur. Dividend siyosatida esa aksiyadorlarga to‘lov bilan korxonaning investitsiya va likvidlik ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatishi kerak.

Oltinchi muammo raqamlashtirish darajasining yetarli emasligidir. Excel asosidagi qo‘lda tuziladigan ko‘p bosqichli hisobotlar inson xatosi, versiyalar aralashuvi va ma’lumotlarning kechikish xavfini oshiradi. Zhelev va Kostova raqamli vositalarning moliyaviy nazorat axborotini yig‘ish va tahlil qilishdagi rolini alohida qayd etadilar [5].

Aksiyadorlik jamiyatida ERP, g‘aznachilik, CRM va ishlab chiqarish tizimlari yagona ma’lumotlar bazasida bog‘langanida kontroller real vaqtga yaqin ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi. Dashboard orqali tushum, EBITDA, operatsion cash-flow, debitor qarzdorlik, zaxiralar, qarz yuki va investitsiya xarajatlari bir vaqtning o‘zida kuzatilishi mumkin.

Raqamlashtirish korporativ boshqaruv uchun ham muhim. Lou va hammualliflarning birja kompaniyalari bo‘yicha tadqiqoti raqamlashtirishning ichki axborot shaffofligini oshirib, real xo‘jalik operatsiyalari orqali foydani sun’iy boshqarish imkoniyatlarini cheklashi mumkinligini ko‘rsatgan [6]. Aksiyadorlik jamiyatida bu kichik aksiyadorlar, kuzatuv kengashi va auditorlarning axborot imkoniyatlarini yaxshilaydi.

Yettinchi muammo — moliyaviy kontrollingni faqat xarajatlarni kamaytirishga yo‘naltirish. Xarajatlarni nazorat qilish kontrollingning muhim vazifasi bo‘lsa-da, har qanday xarajatni qisqartirish moliyaviy samaradorlikni yaxshilamaydi. Ilmiy-tadqiqot, marketing, texnologiya, xodimlar malakasi yoki uskunalarni yangilash xarajatlarini haddan tashqari qisqartirish qisqa muddatda foydani oshirishi mumkin, lekin kompaniyaning kelajakdagi daromad salohiyatini pasaytiradi.

Aksiyadorlik jamiyatida ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun moliyaviy kontrollingni besh yo‘nalishda takomillashtirish maqsadga muvofiq. Birinchidan, yagona moliyaviy va operatsion ma’lumotlar arxitekturasini shakllantirish zarur. Ikkinchidan, yillik byudjet rolling

forecast va ssenariy tahlili bilan to‘ldirilishi kerak. Uchinchidan, risk indikatorlari moliyaviy rejalar va KPI tizimiga integratsiya qilinishi lozim. To‘rtinchidan, moliyaviy va nomoliyaviy KPIlardan iborat interaktiv dashboard shakllantirilishi kerak. Beshinchidan, kontrollerning maqomini oddiy hisobot tayyorlovchidan strategik biznes hamkor darajasiga olib chiqish talab etiladi.

Bunday tizimda kontrollerning vazifasi raqamlarni tasdiqlash emas, balki ular ortidagi iqtisodiy jarayonni tushuntirishdan iborat bo‘ladi. Masalan, foydaning 10 foiz oshgani o‘z-o‘zidan ijobiy xulosa uchun yetarli emas. Kontroller bu o‘sish sotuv hajmi, narx, mahsulot tarkibi, xarajat yoki bir martalik omil hisobiga yuz berganini ko‘rsatishi kerak. Shundagina rahbariyat sifatli qaror qabul qilishi mumkin.

Tadqiqot natijasida aniqlangan muammolar, ularning moliyaviy samaradorlikka ta’sir mexanizmi va takomillashtirish yo‘nalishlari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval.

Aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy kontrolling muammolarining moliyaviy samaradorlikka ta’sirini tizimlashtirish*

№	Moliyaviy kontrollingdagi muammo	Moliyaviy samaradorlikka ta’sir mexanizmi	Eng ko‘p ta’sirlanadigan ko‘rsatkichlar	Takomillashtirish yo‘nalishi
1	Moliyaviy axborotning tarqoqligi va kechikishi	Qarorlar eskirgan yoki o‘zaro moslashtirilmagan ma’lumotlar asosida qabul qilinadi	Operatsion cash-flow, debitor qarzdorlik, likvidlik, moliyalashtirish xarajatlari	ERP, CRM, g‘aznachilik va buxgalteriya ma’lumotlarini yagona axborot tizimiga integratsiya qilish
2	Byudjetlashtirishning formal va statik xarakteri	Reja tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashtirilmaydi, reja-fakt tafovuti ortadi	Operatsion marja, xarajatlar, foyda, rentabellik	Yillik byudjetni rolling forecast va ssenariy tahlili bilan to‘ldirish
3	Risk-menejment va kontrolling o‘rtasidagi uzilish	Risklar byudjet, cash-flow va investitsiya hisob-kitoblarida to‘liq aks etmaydi	Likvidlik, qarz yuki, foiz xarajatlari, pul oqimi	Risk registrini byudjet, KPI va moliyaviy prognozlar bilan integratsiya qilish
4	Samaradorlikni faqat moliyaviy KPIlar orqali baholash	Yakuniy natija kuzatiladi, lekin uni shakllantiruvchi operatsion sabablar kech aniqlanadi	ROA, ROE, EBITDA, tushum, kelajakdagi pul oqimi	Moliyaviy va nomoliyaviy KPIlarning balanslashtirilgan tizimini joriy etish
5	Kontrollerning strategik qarorlardan ajralib qolishi	Investitsiya, kredit, dividend va kapital tuzilmasiga oid qarorlarda moliyaviy tahlilning roli kamayadi	NPV, IRR, leverage, kapital qiymati, aksiyadorlar qiymati	Kontrollerni strategik biznes hamkor sifatida qaror qabul qilish jarayoniga kiritish
6	Raqamlashtirish darajasining pastligi	Qo‘lda ishlov berish xatolar, hisobot kechikishi va axborot nomuvofiqligini oshiradi	Hisobot tezkorligi, xarajatlar, cash-flow, boshqaruv qarorlarining sifati	BI-dashboard, avtomatlashtirilgan hisobot va real vaqt monitoringini rivojlantirish
7	Kontrollingni faqat xarajatlarni qisqartirishga yo‘naltirish	Strategik xarajatlarning qisqarishi qisqa muddatli foydani oshirib, kelajakdagi daromad salohiyatini pasaytirishi mumkin	Uzoq muddatli rentabellik, investitsiya qaytimi, kompaniya qiymati	Xarajatlarni ularning qiymat yaratish qobiliyati asosida baholash

**Manba: muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.*

Jadvaldan ko‘rinadiki, aniqlangan muammolarning moliyaviy natijaga ta’siri bir xil emas. Ularning ayrimlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul oqimi va rentabellikka ta’sir ko‘rsatsa, boshqalari boshqaruv qarorlarining sifati orqali bilvosita ta’sir qiladi. Masalan, axborotning kechikishi debitor qarzdorlikdagi muammoning o‘z vaqtida aniqlanmasligiga sabab bo‘lishi va natijada korxonaning qisqa muddatli qarz jalb qilish ehtiyojini oshirishi mumkin. Bu esa foiz xarajatlarining ko‘payishi orqali sof moliyaviy natijaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘tkazilgan tahlil

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muammolar alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Moliyaviy axborotning kechikib shakllanishi prognozlarning aniqligini pasaytiradi, prognozlarning sifatsizligi esa byudjet, pul oqimi va investitsion qarorlardagi xatolar ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, risk-menejmentning moliyaviy rejalashtirishdan ajralgan holda tashkil etilishi valyuta, kredit, foiz va likvidlik risklarining moliyaviy natijalarda yetarli darajada aks etmasligiga olib keladi.

Tahlil natijasida moliyaviy kontrolling muammolarining ta’sirini uch bosqichli zanjir sifatida izohlash mumkin:

kontrollingdagi kamchilik → boshqaruv axborotining sifati pasayishi → moliyaviy qarorning sifati yomonlashishi → moliyaviy samaradorlikning pasayishi.

Masalan, statik byudjetlashtirish tizimida xomashyo narxi, valyuta kursi yoki foiz stavkasidagi o‘zgarishlar o‘z vaqtida qayta hisoblanmasa, dastlab prognoz sifati yomonlashadi. Keyingi bosqichda xarajatlar va moliyalashtirish bo‘yicha qarorlar eski parametrlar asosida qabul qilinadi. Natijada operatsion marja, foyda va rentabellik rejalashtirilgan darajadan chetlashadi.

Risk-menejment bilan kontrolling o‘rtasidagi integratsiya darajasi ham alohida ahamiyatga ega. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, valyuta, kredit, foiz va likvidlik risklarini faqat risk registrida qayd etish yetarli emas. Ular moliyaviy prognozlarda, pul oqimi modelida va asosiy KPIlarda son jihatdan aks ettirilishi kerak. Masalan, eksport qiluvchi aksiyadorlik jamiyati uchun valyuta kursining bazaviy, optimistik va stress ssenariylari bo‘yicha tushum, EBITDA va cash-flow prognozlarini shakllantirish moliyaviy qarorlarning barqarorligini oshiradi. Maqolada risklarning moliyaviy rejalardan ajratilgan holda yuritilishi real moliyaviy xavfni yashirib qolishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Xulosa

Aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy kontrolling tizimining mavjudligi uning avtomatik ravishda samarali ishlashini anglatmaydi. Kontrollingning haqiqiy natijadorligi axborotlarning tezkorligi va ishonchliligi, rejalashtirishning moslashuvchanligi, risklarni hisobga olish darajasi, KPIlar sifati, raqamli texnologiyalardan foydalanish va kontrollerning boshqaruv jarayonidagi o‘rni bilan belgilanadi.

Tadqiqotlar boshqaruv nazorati tizimlarining tashkiliy barqarorlik va faoliyat samaradorligi bilan bog‘liqligini [1], risklarni kontrolling mexanizmlariga integratsiya qilish zarurligini [2; 3], riskka yo‘naltirilgan rejalashtirishning tashkiliy moslashuvchanlikdagi o‘rnini [4] hamda raqamli vositalarning nazorat axboroti sifati va tezkorligiga ta’sirini [5] ko‘rsatmoqda. Aksiyadorlik kompaniyalari bo‘yicha empirik natijalar esa raqamlashtirish ichki shaffoflikni oshirib, opportunistik moliyaviy xatti-harakatlar imkoniyatlarini kamaytirishi mumkinligini tasdiqlaydi [6].

Moliyaviy kontrollingdagi asosiy muammolar bartaraf etilmaganda ularning ta’siri bir-biri bilan bog‘lanib ketadi: noto‘g‘ri axborot sifatsiz prognozga, sifatsiz prognoz noto‘g‘ri investitsiya va moliyalashtirish qarorlariga, bunday qarorlar esa rentabellik va pul oqimlarining pasayishiga olib keladi. Natijada moliyaviy ko‘rsatkichlar yomonlashishi bilan bir qatorda aksiyadorlar qiymati ham kamayishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy kontrolling retrospektiv hisobot tizimidan uzluksiz rejalashtirish, prognozlash, risklarni baholash va strategik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash platformasiga aylanishi kerak. ERP va biznes-analitika tizimlarining integratsiyasi, real vaqtga yaqin dashboardlar, rolling forecast, stress-test, riskka yo‘naltirilgan KPI va pul oqimi monitoringining joriy etilishi ushbu o‘zgarishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Natijada moliyaviy kontrollingning bosh maqsadi chetlanishni aniqlashning o‘zi emas, uning sababini erta ko‘rsatish va kompaniya qiymatini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorini shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Ana shunday yondashuvdagina moliyaviy kontrolling aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy samaradorligi, barqarorligi va aksiyadorlar manfaatlarini

ta’minlashga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv mexanizmiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Phan T., Baird K., Bhuyan M., Tung A. The Associations Between Management Control Systems, Organisational Capabilities and Performance // Journal of Management Control. – 2023. – Vol. 34. – P. 435–462. DOI: 10.1007/s00187-024-00365-6.

1. Hiebl M.R.W. The Integration of Risk into Management Control Systems: Towards a Deeper Understanding Across Multiple Levels of Analysis // Journal of Management Control. – 2024. – Vol. 35. – P. 1–16. DOI: 10.1007/s00187-024-00373-6.
2. Braumann E.C., Hiebl M.R.W., Posch A. Enterprise Risk Management as Part of the Organizational Control Package: Review and Implications for Management Accounting Research // Journal of Management Accounting Research. – 2024. – Vol. 36, No. 2. – P. 7–29. DOI: 10.2308/JMAR-2021-071.
3. Eichholz J., Hoffmann N., Schwering A. The Role of Risk Management Orientation and the Planning Function of Budgeting in Enhancing Organizational Resilience and Its Effect on Competitive Advantages During Times of Crises // Journal of Management Control. – 2024. – Vol. 35. – P. 17–58. DOI: 10.1007/s00187-024-00371-8.
4. Zhelev Z., Kostova S. Investigating the Application of Digital Tools for Information Management in Financial Control: Evidence from Bulgaria // Journal of Risk and Financial Management. – 2024. – Vol. 17, No. 4. – Article 165. DOI: 10.3390/jrfm17040165.
5. Lou Z., Li M., Shan Y.G., Ye A. Does Corporate Digitalisation Moderate Real Earnings Management? // Accounting & Finance. – 2024. – Vol. 64, No. 4. – P. 4157–4196. DOI: 10.1111/acfi.13301.
6. Berbel-Vera J., Gonzalez-Sanchez M.B., Barrachina-Palanca M., Sánchez-García J. The Role of Management Control Systems for Digital Transformation Success // Review of Managerial Science. – 2026. – Vol. 20, No. 8. – P. 3031–3065. DOI: 10.1007/s11846-025-00961-3.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MILLIY IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Ollokulova Feruza Mansurovna

doktorant
Termiz davlat universiteti
E-mail: ollokulovaf@tersu.uz
ORCID: 0009-0001-4427-1879

Annotatsiya. *Maqolada milliy iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari, institutsional mexanizmi hamda investitsion faollikni oshirishdagi ustuvor yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Energetika, transport, kommunal xizmatlar va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarida xalqaro moliya institutlari mablag‘lari, xususiy investitsiyalar hamda davlat kafolatlarini uyg‘unlashtirishga asoslangan ko‘p manbali moliyalashtirish mexanizmining iqtisodiy-ijtimoiy afzalliklari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat-xususiy sheriklik, milliy iqtisodiyot transformatsiyasi, investitsion faollik, infratuzilmaviy loyihalar, raqamli boshqaruv, fiskal tavakkalchilik, tender mexanizmi, dasturiy yondashuv.*

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Оллокулова Феруза Мансуровна

докторант
Термезский государственный университет
E-mail: ollokulovaf@tersu.uz
ORCID: 0009-0001-4427-1879

Аннотация. *В статье исследованы теоретико-методологические основы, институциональные механизмы и приоритетные направления развития государственно-частного партнёрства в условиях трансформации национальной экономики и повышения инвестиционной активности. Раскрыты экономические и социальные преимущества механизма многоканального финансирования, основанного на сочетании средств международных финансовых институтов, частных инвестиций и государственных гарантий при реализации проектов в сферах энергетики, транспорта, коммунального хозяйства и социальной инфраструктуры.*

Ключевые слова: *государственно-частное партнёрство, трансформация национальной экономики, инвестиционная активность, инфраструктурные проекты, цифровое управление, фискальные риски, тендерный механизм, программный подход.*

PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP RELATIONS IN THE CONTEXT OF NATIONAL ECONOMIC TRANSFORMATION

Ollokulova Feruza Mansurovna

doctoral student
Termez State University
E-mail: ollokulovaf@tersu.uz
ORCID: 0009-0001-4427-1879

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations,*

institutional mechanisms, and priority directions for the development of public-private partnership relations in the context of national economic transformation and increasing investment activity. It highlights the economic and social advantages of a multi-source financing mechanism that integrates resources from international financial institutions, private investments, and government guarantees in the implementation of projects in the energy, transport, utilities, and social infrastructure sectors.

Keywords: *public-private partnership, national economic transformation, investment activity, infrastructure projects, digital governance, fiscal risks, tender mechanism, program-based approach.*

Kirish

Milliy iqtisodiyotni transformatsiyasi nafaqat mulkchilik munosabatlarini o‘zgartirish, balki investitsiya resurslarini taqsimlash, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, iqtisodiy risklarni boshqarish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirishni taqozo etadi. Bunday sharoitda DXSh davlatning strategik maqsadlari bilan xususiy sektorning moliyaviy, texnologik va boshqaruv imkoniyatlarini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi institutsional mexanizm sifatida alohida ahamiyatga deb o‘ylaymiz.

O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda energetika, transport, kommunal xizmatlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa ijtimoiy infratuzilma tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, xususiy investorlar uchun qulay institutsional sharoitlarni shakllantirish va davlat budjetiga tushadigan uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son qarori[1]da 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish, institutsional salohiyatni mustahkamlash va xususiy kapital ishtirokini kengaytirish bilan bog‘liq vazifalar belgilangan. Shuningdek, 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni[2] bilan tasdiqlangan davlat dasturida investitsion faollikni rag‘batlantirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va infratuzilmaviy loyihalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Biroq davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish jarayonida ayrim tizimli kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ham alohida qayd etish kerak. Xususan, investitsiya loyihalarini ustuvorlik darajasiga ko‘ra tanlash mezonlarining yetarlicha integratsiyalashmaganligi, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash zarurati, tender jarayonlarining samaradorligini oshirish, loyihalarni raqamli boshqarish va fiskal tavakkalchiliklarni baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etiladi. Albatta bu kabi mulohazalar, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini kompleks tadqiq etish, investitsiya loyihalarini shakllantirish, moliyalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda DXSh davlatning moliyaviy imkoniyatlarini xususiy sektorning investitsion salohiyati bilan uyg‘unlashtirish, infratuzilma xizmatlari sifatini oshirish va davlat xarajatlarining uzoq muddatli samaradorligini ta’minlash vositasi sifatida baholanadi.

J.Delmonning tadqiqotlarida infratuzilmaviy loyihalarning shartnomaviy asoslari, xususiy kapital ishtiroki va risklarni taqsimlash mexanizmiga alohida e’tibor qaratilgan [3]. Muallifning yondashuvida DXSh loyihalarining samaradorligi moliyalashtirish manbalarini shakllantirish bilan cheklanmasdan, balki davlat va xususiy sherik majburiyatlarini aniq belgilash, loyiha risklarini boshqarish hamda uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlarning barqarorligi bilan ham bog‘liq. Bizningcha, mazkur yondashuvni milliy iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish uchun DXSh loyihalarini tanlashda hududlarning infratuzilmaviy ehtiyojlari, investitsiya hajmi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini yagona baholash tizimiga birlashtirish maqsadga muvofiq.

S.Hakim va B.Meehan tomonidan avtomobil yo‘llari sohasida davlat-xususiy sheriklik samaradorligini baholash masalalari tadqiq etilgan [4]. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy yondashuvlar infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi majburiyatlar, xizmat ko‘rsatish natijalari hamda iqtisodiy samaradorlik mezonlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi. Bizningcha, transport va boshqa infratuzilmaviy tarmoqlarda DXSh loyihalarini amalga oshirishda budjet samaradorligi va investitsiya qaytimi ko‘rsatkichlarini kompleks qo‘llash orqali loyiha tanlash qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini oshirish mumkin.

Y.Zhang tomonidan yashil moliyalashtirish, yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik va texnologik innovatsiyalarning uglerod neytralligi hamda barqaror rivojlanishdagi o‘rni o‘rganilgan [5]. Ushbu tadqiqot yo‘nalishi DXSh mexanizmini ekologik barqarorlik va investitsion rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Bizningcha, O‘zbekiston sharoitida DXSh loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash bilan bir qatorda ularning ekologik va ijtimoiy samaradorligini ham hisobga olish, xususan, xalqaro baholash platformalaridan foydalanish orqali investitsiya portfelining barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqligini oshirish zarur. R.Roy tomonidan NASAning Space Shuttle dasturi misolida davlat va xususiy sektor hamkorligi doirasida bilimlar hamda texnologiyalarni rivojlantirishni boshqarish masalalari tadqiq qilingan [6]. Mazkur tadqiqot davlat va xususiy sektor hamkorligining an’anaviy infratuzilma bilan cheklanmasdan, innovatsion faoliyat, texnologik salohiyat va murakkab loyihalarni boshqarish jarayonlarida ham ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bizningcha, bunday yondashuvni milliy iqtisodiyotga moslashtirish DXSh loyihalarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, elektron axborot almashinuvi va integratsiyalashgan monitoring mexanizmini rivojlantirishni talab etadi.

Muallif davlat-xususiy sheriklikni davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli institutsional hamkorlik shakli sifatida baholab, uning asosiy afzalligi investitsion resurslarni safarbar etish, infratuzilmaviy loyihalarni samarali moliyalashtirish hamda risk va javobgarlikni tomonlar o‘rtasida oqilona taqsimlashdan iborat ekanligini asoslaydi. Muallifning ta’kidlashicha, DXShning muvaffaqiyati huquqiy-me’yoriy bazaning barqarorligi, mulkiy munosabatlarning aniqligi, shaffof shartnomaviy mexanizmlar va davlat tomonidan qulay institutsional muhit yaratilishiga bevosita bog‘liq [7]. Muallifning ta’kidlashicha, davlat va xususiy sektor manfaatlari muvozanatini ta’minlash, shaffof shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish hamda qulay huquqiy muhit yaratish xususiy investitsiyalarni jalb etish va infratuzilmaviy loyihalar samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biridir [8]. Mualliflarning ta’kidlashicha, DXShning muvaffaqiyati qonuniylik, samaradorlik, jamoat manfaatlari ustuvorligi, axborot shaffofligi va tomonlar javobgarligi tamoyillariga asoslanadi. Shuningdek, huquqiy, makroiqtisodiy, boshqaruv va kadrlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni muntazam takomillashtirish davlat-xususiy sheriklikni barqaror rivojlantirishning muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan [9].

Mualliflarning ta’kidlashicha, DXSh loyihalarining muvaffaqiyati shaffof tanlov mexanizmini joriy etish, risklarni davlat va xususiy sherik o‘rtasida oqilona taqsimlash, zamonaviy moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish hamda loyiha monitoringini takomillashtirishga bevosita bog‘liq. Shuningdek, huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish, investorlar uchun barqaror institutsional muhit yaratish va xalqaro tajribani milliy amaliyotga moslashtirish xususiy investitsiyalarni keng jalb etish hamda DXSh loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligi asoslangan [10]. Muallif davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan tarmoqlar faoliyatini ilg‘or xorijiy tajribalar misolida tahlil qilib, DXSh mexanizmining samaradorligi barqaror huquqiy muhit, risklarni oqilona taqsimlash, mustaqil monitoring tizimi hamda xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish darajasiga bevosita bog‘liqligini asoslaydi. Muallif Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Turkiya tajribalarini O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyoslab, institutsional islohotlarni rivojlantirish, monitoring mexanizmini takomillashtirish va investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish DXSh loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi [11].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili ko‘rsatishicha, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining samaradorligi investitsiya resurslarini samarali taqsimlash, institutsional barqarorlik va risklarni boshqarishga bog‘liqdir. Bizningcha, milliy iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida DXSh loyihalarini hududiy ehtiyojlar va iqtisodiy samaradorlik asosida tasniflash, ko‘p manbali moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirish, tender jarayonlari shaffofligini ta’minlash hamda raqamli boshqaruv tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, loyihalarning investitsiya qaytimi, budjet samaradorligi va fiskal tavakkalchiliklarini kompleks baholash hamda dasturiy yondashuv asosida institutsional muvofiqlashtirish xususiy kapital ishtirokini kengaytirish, infratuzilmaviy rivojlanishni jadallashtirish va investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

DXSh loyihalarining 2023-2025-yillardagi rivojlanish dinamikasi, investitsiya hajmi va tarmoqlar kesimidagi tarkibiy o‘zgarishlari statistik tahlil asosida baholandi. Davlat-xususiy sheriklikning institutsional rivojlanish omillarini aniqlashda PESTLE va SWOT tahlili, uzoq muddatli istiqbollarini baholashda ssenariy tahlili hamda Delphi ekspert baholash usullariga asoslangan yondashuvlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

2023-yil yakuniga ko‘ra, mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tamoyillari asosida jami 978 ta loyiha doirasida bitimlar imzolangan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga kelib ularning soni 1 134 tani hamda umumiy qiymati 365,1 trln so‘mni tashkil etgan. 2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra esa DXSh loyihalari soni 2 792 taga yetib, 2024-yilga nisbatan 2,46 barobarga oshgan. Jumladan, qiymati 1 mln AQSh dollarigacha bo‘lgan loyihalar soni 891 tadan 2 542 taga, qiymati 1 mln AQSh dollaridan ortiq loyihalar esa 243 tadan 250 taga yetgan. 2025-yil yakunida DXSh loyihalari portfelining umumiy qiymati 29,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan (1-rasm).

1-rasm.

O‘zbekistonda DXSh loyihalari soni dinamikasi 2023-2025 yy*



*https://www.imv.uz/newsletter/boshqalar - ma’lumotlari asosida tayyorlandi

DXSh loyihalarining tarmoqlar kesimidagi tahlili 2024-yilda umumiy qiymati 365,1 trln so‘m bo‘lgan loyiha portfelining 93,1 foizi energetika (339,8 trln so‘m), 4,6 foizi kommunal xizmatlar (16,9 trln so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelganini, qolgan tarmoqlarning har biri esa 1 foizdan kam ulushga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. 2025-yil yakunida ham energetika sohasi DXSh investitsiyalarini jalb etishning yetakchi yo‘nalishi bo‘lib qolgan. Xususan, energetika tarmog‘ida

61 ta loyihaning umumiy qiymati 26,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, jami DXSh portfeli qiymatining qariyb 91,4 foiziga teng bo‘lgan. Shu bilan birga, suv xo‘jaligi sohasidagi loyihalar soni 1 855 taga yetib, umumiy loyihalarning 66,4 foizini tashkil etgan (2-rasm).

2-rasm.

DXSh loyihalarining sohalar kesimidagi tahlili 2023-2025 yy.*



*https://www.imv.uz/newsletter/boshqalar - ma’lumotlari asosida tayyorlandi

Mazkur holat DXSh loyihalarini shakllantirishda ularning miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan cheklanmasdan, hududiy infratuzilmaviy ehtiyojlar, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy barqarorlik va investitsion natijadorlik mezonlarini kompleks baholash zaruratini yanada oshirmoqda.

Fikrimizcha, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishda investitsiya loyihalarini ustuvorlik darajasiga ko‘ra tanlash mexanizmini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Bunda investitsiya hajmi, hududlarning infratuzilmaviy ehtiyojlari, loyihalarning iqtisodiy samaradorligi hamda xususiy investorlarning moliyaviy imkoniyatlarini o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar sifatida baholash maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv asosida loyihalarni shakllantirishning dastlabki bosqichida hududiy infratuzilma taqchilligi va investitsiya ehtiyojlari aniqlanadi, keyingi bosqichda esa loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari hamda xususiy investorlarning kapital jalb qilish imkoniyatlari baholanadi. Natijada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, moliyaviy ta’minlanganligi hamda amalga oshirish imkoniyatlariga ko‘ra ustuvorlashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari takomillashtiriladi.

Shuningdek, DXSh loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va investitsion risklarni tomonlar o‘rtasida oqilona taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, energetika, transport, kommunal xizmatlar va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarida amalga oshiriladigan yirik loyihalarning kapital sig‘imi yuqori ekanligi ularni faqat davlat budjeti yoki alohida xususiy investor mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari, xususiy investitsiyalar va davlat kafolatlarini o‘zaro muvofiqlashtirishga asoslangan ko‘p manbali moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Mazkur mexanizm xalqaro moliya institutlarining uzoq muddatli kredit resurslari va texnik ko‘magidan foydalanish, xususiy kapital ishtirokini kengaytirish hamda davlatning kafolat va qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini aniq shartnomaviy majburiyatlar asosida qo‘llash imkonini beradi.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning navbatdagi ustuvor yo‘nalishi investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish va institutsional muvofiqlashtirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liqdir. DXSh loyihalarining tashabbus

bosqichidan tender jarayonlari, bitimlarni tuzish, moliyalashtirish, monitoring va yakuniy hisobotlarni shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona elektron platformada birlashtirish investitsion faoliyatning shaffofligi va boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bunda loyiha hujjatlarini elektron shaklda yuritish, DXSh loyihalarining yagona reyestrini shakllantirish, vazirlik va idoralarning axborot tizimlarini integratsiyalash hamda davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shartli majburiyatlarini elektron hisobga olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur raqamli boshqaruv mexanizmining joriy etilishi davlat organlari va xususiy investorlar o‘rtasida axborot almashinuvini tezlashtirish, ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish, loyihalar ijrosi ustidan doimiy monitoringni tashkil etish hamda investitsiya qarorlarini qabul qilishda axborotning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirishda, loyihalarning iqtisodiy va fiskal jihatdan kompleks baholash metodikasini takomillashtirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda xalqaro amaliyot tajribalarida keng foydalaniladigan Value for Money (VfM) ya’ni budjet samaradorligi, investitsiya qaytimi hamda fiskal tavakkalchilik ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur yondashuv DXSh asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining an’anaviy davlat moliyalashtirish mexanizmiga nisbatan iqtisodiy afzalliklarini aniqlash, davlat budjetining uzoq muddatli majburiyatlarini baholash va xususiy kapitalning kutilayotgan daromadliligini hisobga olish imkonini beradi. Shuningdek, qiymati 10 mln AQSh dollaridan yuqori bo‘lgan DXSh loyihalarini SOURCE xalqaro platformasi orqali baholash, ularning yashil komponentlari va Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) muvofiqligini aniqlash ekologik va ijtimoiy mezonlarni investitsiya qarorlariga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Natijada moliyaviy jihatdan barqaror, iqtisodiy samarali hamda ekologik va ijtimoiy talablarni hisobga oluvchi investitsiya loyihalari portfelini shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarning o‘zaro uzviyligini ta’minlashda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini uzoq muddatli dasturiy boshqaruv asosida amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Xususan, 2024–2030-yillarda DXSh loyihalarini dasturiy yondashuv asosida shakllantirish, salohiyatli investorlar bilan loyihalarning rentabellik darajasi, amalga oshirish muddatlari va moliyalashtirish mexanizmini oldindan muvofiqlashtirish investitsiya jarayonlarining izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlashda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalari markazi” loyiha ofisining muvofiqlashtiruvchi funksiyalarini rivojlantirish, investitsiya dasturlarining amalga oshirilishini monitoring qilish va loyihalarni tayyorlash jarayonlariga uslubiy ko‘maklashish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, DXSh loyihalarida mahalliy kontent ulushini oshirish, mahalliy korxonalarning ishtirokini rag‘batlantirish va loyihalarni milliy valyutada moliyalashtirish bo‘yicha institutsional salohiyatni rivojlantirish investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda valyuta tavakkalchiliklarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, amalga oshirilgan tadqiqotlar davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari o‘zaro mustaqil mexanizmlar emas, balki yagona investitsion-institutsional tizimning tarkibiy elementlari ekanligini ko‘rsatmoqda. Bunda loyihalarni kompleks mezonlar asosida ustuvorlashtirish investitsiya resurslarini samarali taqsimlashga, ko‘p manbali moliyalashtirish ularning moliyaviy ta’minotini mustahkamlashga, raqamli boshqaruv va raqobatbardosh tender mexanizmlari investitsiya jarayonlarining shaffofligini oshirishga, kompleks samaradorlik baholash investitsiya qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini kuchaytirishga, dasturiy-institutsional boshqaruv esa mazkur jarayonlarning uzoq muddatli muvofiqligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu yo‘nalishlarni o‘zaro integratsiyalash milliy iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik

munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning muhim ilmiy-uslubiy asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni.

3. Delmon J. Public Private Partnership Projects in Infrastructure: An Essential Guide. Updated Edition. Cambridge University Press, 2024.

4. Hakim S., Meehan B. Evaluation of public private partnerships in highways // Evaluation and Program Planning. Volume 107, 2024.

5. Zhang Y. Role of green finance, green bonds, public private partnership, and technology innovation in carbon neutrality and sustainable development // Heliyon. Volume 10, Issue 18, 2024.

6. Roy R. Governance of knowledge development in a public-private partnership: NASA’s efforts to design the Space Shuttle // Research Policy. Volume 54, Issue 2, 2025.

7. Варнавский В.Г. Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы теории и практики//Мировая экономика и международные отношения. - 2011. - № 9. - С. 41-50.

8. Ефимов В.С. Государственно-частное партнерство: проблемы во взаимоотношениях государства и бизнеса//Интернет-журнал «Науковедение». - 2015. - Т. 7. - № 5.

9. Афанасьева Н.В., Орлов П.Е. Государственно-частное партнерство в Российской Федератции на современном этапе: тенденции и проблемы развития // Экономика и управление. - 2023. - Т. 29. - № 11. - С. 1333-1348.

10. Tursunov I., Hamroyev G. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarning samaradorligini oshirish //Green economy and development. – 2025-Vol. 3. - No. 8.

11. Qodirov J.Sh. Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan tarmoqlar faoliyatida ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies). - 2025. - T. 13. - № 5. - B. 58-66.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

INVESTITSIYA LOYIHALARI QIYMATI VA MUDDATI MONITORINGINI O'ZLASHTIRILGAN QIYMAT USULI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Isamitdinova Ra'no Rahimjanovna
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
“Loyiha boshqaruvi” yo'nalishi magistranti
E-mail: r.isamitdinova@yandex.ru
ORCID: 0009-0002-0861-9812

Togayev Salim Sobirovich
“Bank hisobi va auditi” kafedrasi dotsenti, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: sts-bank@bk.ru
ORCID: 0000-0002-3170-9181

Annotatsiya. *Maqolada investitsiya loyihalari ijrosini monitoring qilishda an'anaviy “reja–fakt” byudjet nazoratining cheklovlari asoslanib, o'zlashtirilgan qiymatni boshqarish (earned value management, EVM) metodikasini buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan integratsiyalash yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Shartli 1 200,0 mln so'mlik axborot-raqamlashtirish loyihasi misolida 6-oy yakuniga ko'ra an'anaviy yondashuvdagi 30,0 mln so'mlik byudjet “tejami” haqidagi xulosa aslida 80,0 mln so'mlik byudjetdan ortiqcha sarf (CV = –80,0; CPI = 0,871) va 1,02 oylik muddat kechikishi (SPI = 0,831; SV(t) = –1,02 oy) ekanligi ko'rsatildi. Yakuniy qiymat prognozi (EAC) 1 280,0–1 532,1 mln so'm oralig'ida baholandi. Milliy amaliyotda EVM joriy etishdagi uchta to'siq aniqlanib, ish paketlari kesimida xarajatlarni kodlash, o'zlashtirilgan qiymatni o'lchashning diskret qoidalari va avans to'lovlarini hisobga olish tartibi bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *loyiha boshqaruvi, investitsiya loyihalari monitoringi, o'zlashtirilgan qiymat (EVM), byudjet nazorati, CPI va SPI indekslari, o'zlashtirilgan jadval (Earned Schedule), yakuniy qiymatni prognozlash.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОНИТОРИНГА СТОИМОСТИ И СРОКОВ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ НА ОСНОВЕ МЕТОДА ОСВОЕННОГО ОБЪЕМА (EVM)

Исамитдинова Рано Рахимжановна
магистрант направления
«Управление проектами» Высшей школы
бизнеса и предпринимательства
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
E-mail: r.isamitdinova@yandex.ru
ORCID: 0009-0002-0861-9812

Тогаев Салим Собирович
доцент кафедры
«Банковский учет и аудит»
Ташкентский государственный
экономический университет, PhD
E-mail: sts-bank@bk.ru
ORCID: 0000-0002-3170-9181

Аннотация. *В статье обоснованы ограничения традиционного бюджетного контроля «план–факт» при мониторинге инвестиционных проектов и предложены*

направления интеграции метода освоенного объема (earned value management, EVM) с данными бухгалтерского учета. На примере условного информационно-цифрового проекта стоимостью 1 200,0 млн сумов показано, что по итогам 6-го месяца вывод об «экономии» бюджета в 30,0 млн сумов при традиционном подходе в действительности означает перерасход 80,0 млн сумов (CV = –80,0; CPI = 0,871) и отставание от графика на 1,02 месяца (SPI = 0,831; SV(t) = –1,02 мес.). Прогноз стоимости по завершении (EAC) оценен в диапазоне 1 280,0–1 532,1 млн сумов. Выявлены три барьера внедрения EVM в национальной практике и разработаны предложения по кодированию затрат в разрезе пакетов работ, дискретным правилам измерения освоенного объема и учету авансовых платежей.

Ключевые слова: *управление проектами, мониторинг инвестиционных проектов, метод освоенного объема (EVM), контроль бюджета, индексы CPI и SPI, освоенный график (Earned Schedule), прогнозирование стоимости по завершении.*

IMPROVING COST AND SCHEDULE MONITORING OF INVESTMENT PROJECTS BASED ON THE EARNED VALUE MANAGEMENT (EVM) METHOD

Isamitdinova Ra'no Rahimjanovna
Master's student
Higher School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan
E-mail: r.isamitdinova@yandex.ru
ORCID: 0009-0002-0861-9812

Togayev Salim Sobirovich
Associate Professor
Department of Banking Accounting and Audit,PhD.
Tashkent State the University of Economics
E-mail: sts-bank@bk.ru
ORCID: 0000-0002-3170-9181

Abstract. *The article substantiates the limitations of traditional plan-versus-actual budget control in monitoring investment projects and proposes directions for integrating earned value management (EVM) with accounting data. Using a hypothetical digitalization project with a budget of UZS 1,200.0 million, the paper shows that a traditional conclusion of a UZS 30.0 million budget “saving” at month six actually corresponds to a UZS 80.0 million cost overrun (CV = –80.0; CPI = 0.871) and a 1.02-month schedule delay (SPI = 0.831; SV(t) = –1.02 months). The estimate at completion (EAC) ranges from UZS 1,280.0 million to UZS 1,532.1 million. Three barriers to EVM adoption in national practice are identified, and proposals are developed on cost coding by work package, discrete earned value measurement rules, and the treatment of advance payments.*

Keywords: *project management, investment project monitoring, earned value management (EVM), cost control, CPI and SPI, earned schedule, estimate at completion.*

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida resurslarning cheklanganligi hamda bozor konyunkturasining yuqori o'zgaruvchanligi investitsiya, infratuzilma va innovatsion loyihalarni boshqarish sifatiga yangicha talablarni qo'ymoqda. Xalqaro tahliliy hisobotlar, xususan, Project Management Institute (PMI) tomonidan e'lon qilinadigan “Pulse of the Profession” ma'lumotlariga ko'ra, loyihalarning sezilarli qismi dastlabki tasdiqlangan byudjet doirasidan chiqib ketadi yoki belgilangan muddatlarda yakunlanmaydi [12].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, sanoatni modernizatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma obyektlarini barpo etish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi [1] va investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik [2] doirasida investitsiya loyihalari ko'lamining kengayishi ularning ijrosini samarali monitoring qilish tizimiga bo'lgan talabni oshirmoqda. Biroq amaliyotda loyiha ijrosini baholashda hamon an'anaviy, ikki o'lchovli moliyaviy yondashuv — hisobot sanasiga rejalashtirilgan va amalda sarflangan mablag'larni o'zaro solishtirish — ustun turishi kuzatiladi.

Iqtisodiy va boshqaruv nuqtayi nazaridan bunday taqqoslash jiddiy metodologik kamchilikka ega: u sarflangan resurslar evaziga haqiqatda qancha ish hajmi (natija) yaratilganini inobatga olmaydi. Masalan, loyiha doirasida 6 oy ichida 500 mln so'm sarflash rejalashtirilgan bo'lib, amalda 450 mln so'm sarflansa, hisobotda 50 mln so'm “tejalgan”dek ko'rinadi. Ammo ushbu muddatda bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning atigi 60 foizi yakunlangan bo'lsa, loyiha aslida mablag'ni tejamagan, balki ham muddatdan orqada qolmoqda, ham bajarilgan ish birligiga nisbatan ortiqcha xarajatga yo'l qo'ymoqda. Loyiha ko'lami (Scope), muddati (Schedule) va qiymatini (Cost) yagona ko'rsatkichlar tizimida birlashtirish orqali bu paradoksni bartaraf etish imkonini beruvchi vosita — o'zlashtirilgan qiymatni boshqarish (earned value management, EVM) metodologiyasidir.

Mavjud tadqiqotlarda EVM ning umumiy metodologiyasi yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, uning ko'rsatkichlarini milliy buxgalteriya hisobi ma'lumotlari (haqiqiy xarajatlar, bajarilgan ishlar dalolatnomalari, avans to'lovlari) bilan bog'lash mexanizmi O'zbekiston amaliyoti uchun hali ishlab chiqilmagan. Aynan shu bo'shliq tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi

Loyiha qiymatini bajarilgan ish hajmi asosida nazorat qilish g'oyasi XX asr boshlarida sanoat muhandisligi asoschilari (F. Teylor, G. Gantt) tomonidan ishlab chiqarishda reja va haqiqiy mehnat unumdorligini solishtirish urinishlarida namoyon bo'lgan. Rasmiy boshqaruv konsepsiyasi sifatida EVM 1960-yillarda AQSH Mudofaa vazirligi tomonidan murakkab harbiy-texnik dasturlarda xarajatlarning keskin oshib ketishini jilovlash maqsadida PERT/COST tizimi, keyinchalik 1967-yilda C/SCSC (Cost/Schedule Control Systems Criteria) nomi bilan joriy etilgan [6, 24-b.]. 1990-yillar oxiriga kelib ushbu mezonlar xususiy korporativ sektorga ko'chirildi va ANSI/EIA-748 standarti sifatida tasdiqlandi [5].

EVM metodologiyasini zamonaviy korporativ loyiha boshqaruviga moslashtirishda Q. Fleming va J. Koppelmanning ilmiy ishlari fundamental ahamiyatga ega. Mualliflar EVM ni nafaqat murakkab mudofaa shartnomalari, balki tijorat, IT va qurilish loyihalari uchun ham “erta ogohlantirish tizimi” sifatida soddalashtirib qo'llash mumkinligini asoslab berganlar [6]. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, loyiha atigi 15–20 foizga bajarilgan bosqichdayoq shakllangan xarajatlar samaradorligi indeksi (CPI) loyiha yakuniga qadar odatda 10 foizdan ortiq o'zgarmaydi. EVM ni amaliyotda joriy etish masalalari G. Xamfris asarlarida batafsil yoritilgan [7]. G. Kerzner EVM tizimini loyiha hayotiy sikli davomida funksional bo'linmalar va yuqori rahbariyat o'rtasidagi axborot asimmetriyasini kamaytiruvchi vosita sifatida baholaydi [9]. F.T. Anbari esa EVM ko'rsatkichlarining grafik va matematik talqinini chuqurlashtirib, xatarlarni tasniflashda qiymat-muddat indeksidan (Critical Ratio) foydalanishni taklif etgan [4].

Xalqaro standartlashtirish nuqtayi nazaridan 2018-yilda qabul qilingan ISO 21508:2018 (“Earned value management in project and programme management”) standarti [8, 13], PMI ning “The Standard for Earned Value Management” (ANSI/PMI 19-006-2019) hujjati [11] hamda PMBOK® Guide ning navbatdagi nashrlari [10] EVM metodikasini global miqyosda unifikatsiya qildi. Mahalliy tadqiqotchilar, xususan, B. Sulliyevning asarlarida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash hamda korporativ boshqaruv mexanizmlari o'rganilgan bo'lsa-da [3], milliy korxonalarda buxgalteriya hisobi va smeta me'yorlarini EVM ko'rsatkichlari bilan bevosita

integratsiya qilish masalalari yetarlicha maxsus tadqiq etilmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, dekompozitsiya hamda deterministik ekstrapolyatsiya usullaridan foydalanildi. Metodologik baza sifatida ISO 21508:2018 [8], ANSI/PMI 19-006-2019 [11] va PMBOK® Guide [10] talablari olindi. Empirik qism shartli investitsiya-axborot loyihasi ma'lumotlari asosida bajarildi; hisob-kitoblar aniq (yaxlitlanmagan) indekslar bo'yicha amalga oshirilib, natijalar jadvallarda o'ndan bir va mingdan bir aniqlikda keltirildi.

EVM tizimini loyihada to'laqonli ishga tushirish uchun uchta tashkiliy-uslubiy shart bajarilishi zarur:

1) loyiha ishlarini iyerarxik dekompozitsiya qilish — Work Breakdown Structure (WBS): yakuniy mahsulot kichik, o'lchanadigan ish paketlariga (Work Packages) bo'linadi;

2) mas'uliyat va xarajatlarning kesishish nuqtalarida “nazorat hisoblari”ni (Control Accounts, CA) shakllantirish hamda har bir ish paketini aniq vaqt jadvaliga bog'lash;

3) samaradorlikni o'lchashning bazaviy rejasini — Performance Measurement Baseline (PMB) — tasdiqlash. PMB vaqt bo'yicha taqsimlangan va S-egri chiziq ko'rinishida ifodalanadigan integratsiyalashgan byudjet (boshqaruv zaxiralaridan tashqari) hisoblanadi.

1-jadval.

Earned value management (EVM) tizimining asosiy analitik va prognostik ko'rsatkichlari*[8, 10, 11]*

Ko'rsatkich nomi va xalqaro qisqartmasi	Hisoblash formulasi	Me'yoriy (kriterial) qiymati va iqtisodiy talqini
1. Diagnostik (og'ish va samaradorlik) ko'rsatkichlari		
Qiymat (xarajat) bo'yicha og'ish — Cost Variance (CV)	CV = EV – AC	CV > 0: byudjet mablag'lari tejalmoqda; CV = 0: xarajatlar rejaga mos; CV < 0: byudjetdan ortiqcha sarf.
Muddat (jadval) bo'yicha og'ish — Schedule Variance (SV)	SV = EV – PV	SV > 0: loyiha jadvaldan oldinda; SV = 0: loyiha jadval bo'yicha ketmoqda; SV < 0: loyiha jadvaldan orqada qolmoqda.
Qiymatni bajarish indeksi — Cost Performance Index (CPI)	CPI = EV / AC	CPI > 1,0: har bir sarflangan so'm 1 so'mdan ko'p natija bermoqda; CPI < 1,0: mablag'lar samarasiz sarflanmoqda.
Muddatni bajarish indeksi — Schedule Performance Index (SPI)	SPI = EV / PV	SPI > 1,0: ishlar rejadagidan tezroq bajarilmoqda; SPI < 1,0: rejadagi ish hajmining faqat bir qismi bajarilgan.
Qiymat-muddat integratsiyalashgan indeksi — Cost-Schedule Index (CSI)	CSI = CPI × SPI	CSI ≥ 0,9: loyiha holati barqaror; 0,8 ≤ CSI < 0,9: ehtiyotkorlik va tuzatish talab etiladi; CSI < 0,8: loyiha jiddiy xatar zonasida**.
2. Prognostik (yakuniy natijani bashoratlash) ko'rsatkichlari		
Loyihaning yakuniy kutilayotgan qiymati — Estimate at Completion (EAC): a) tipik bo'lmagan og'ishda; b) joriy CPI saqlanganda; c) CPI va SPI birgalikda ta'sir etganda.	a) EAC = AC + (BAC – EV) b) EAC = BAC / CPI c) EAC = AC + [(BAC – EV) / (CPI × SPI)]	Loyiha to'liq yakunlanganda jami qancha mablag' sarflanishini ko'rsatadi: a) avvalgi og'ishlar tasodifiy deb qaralganda; b) joriy xarajat tendensiyasi oxirigacha davom etganda; c) xarajat ham, muddat kechikishi ham bosim o'tkazganda.

Ko'rsatkich nomi va xalqaro qisqartmasi	Hisoblash formulasi	Me'yoriy (kriterial) qiymati va iqtisodiy talqini
Yakunlash uchun zarur qoldiq mablag' — Estimate to Complete (ETC)	ETC = EAC – AC yoki ETC = (BAC – EV) / CPI	Hisobot sanasidan boshlab loyihani oxirigacha yetkazish uchun yana qancha mablag' kerakligini ifodalaydi.
Yakuniy byudjet og'ishi — Variance at Completion (VAC)	VAC = BAC – EAC	VAC < 0: loyiha yakunida yuzaga keladigan umumiy moliyaviy taqchillik miqdorini bildiradi.
Yakunlash samaradorligi ko'rsatkichi — To-Complete Performance Index (TCPI)	TCPI (BAC) = (BAC – EV) / (BAC – AC) TCPI (EAC) = (BAC – EV) / (EAC – AC)	Qolgan ishlarni tasdiqlangan BAC yoki yangilangan EAC doirasida tugatish uchun qolgan mablag'ning har 1 so'miga qanchalik samarali ishlash zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar

EVM ning amaliy ahamiyati va diagnostik imkoniyatini ko'rsatish maqsadida korporativ sektorda amalga oshirilayotgan shartli investitsiya-axborot loyihasi — “O'quv va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli boshqarish korporativ axborot tizimini (ERP & Portal) joriy etish” loyihasi ko'rib chiqildi. Loyihaning tasdiqlangan byudjeti (BAC) 1 200,0 mln so'm, amalga oshirish muddati 12 oy. Loyiha WBS bo'yicha 6 ta yirik ish paketiga ajratilgan. Loyihaning 6-oyi yakunida (monitoring sanasi) loyiha ofisi (PMO) oraliq audit o'tkazdi. Har bir ish paketi bo'yicha byudjet, 6-oyga rejalashtirilgan va haqiqiy bajarilish foizi, buxgalteriya hisobi bo'yicha haqiqiy xarajat (AC) hamda ular asosida hisoblangan EVM ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Loyihaning 6-oy yakuni bo'yicha EVM monitoringi hisob-kitob jadvali (mln. so'mda)*

WBS kodi va ish paketi nomi	BAC	6-oyga reja (%)	6-oyda haqiqiy (%)	PV	EV	AC	CV (EV–AC)	SV (EV–PV)	CPI (EV/AC)	SPI (EV/PV)
1.0. Biznes-jarayonlar auditi va TZ ishlab chiqish	100,0	100%	100%	100,0	100,0	95,0	+5,0	0,0	1,053	1,000
2.0. Server va tarmoq infratuzilmasini xarid qilish	250,0	100%	100%	250,0	250,0	280,0	–30,0	0,0	0,893	1,000
3.0. Asosiy dasturiy yadroni (Backend) ishlab chiqish	350,0	60%	40%	210,0	140,0	175,0	–35,0	–70,0	0,800	0,667
4.0. Foydalanuvchi interfeysi va Face-ID integratsiyasi	200,0	45%	25%	90,0	50,0	70,0	–20,0	–40,0	0,714	0,556
5.0. Ma'lumotlar migratsiyasi va kiberxavfsizlik sinovi	180,0	0%	0%	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	—	—
6.0. Xodimlarni o'qitish va tizimni ishga tushirish	120,0	0%	0%	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	—	—
Jami loyiha bo'yicha	**1 200,0**	**54,2%**	**45,0%**	**650,0**	**540,0**	**620,0**	**–80,0**	**–110,0**	**0,871**	**0,831**

*Muallif islanmasi.

2-jadval natijalari an'anaviy byudjet nazorati bilan EVM o'rtasidagi tub farqni ko'rsatadi. An'anaviy buxgalteriya yondashuvida rahbariyatga quyidagicha hisobot taqdim etilar edi: “6-oyga

qadar reja bo'yicha 650,0 mln so'm sarflanishi ko'zda tutilgan (PV = 650,0), amalda esa 620,0 mln so'm sarflandi (AC = 620,0); demak, 30,0 mln so'm iqtisod qilindi”. Bunday xulosa qaror qabul qiluvchini chalg'itib, loyiha muvaffaqiyatli ketmoqda degan noto'g'ri xotirjamlikni keltirib chiqaradi. EVM tahlili esa vaziyatning xavotirli ekanini ko'rsatadi:

Birinchidan, 6 oy davomida 1 200,0 mln so'mlik loyihaning 54,2 foizi (PV = 650,0 mln so'm) bajarilishi lozim bo'lgani holda, amalda 45,0 foiz ish hajmi yakunlangan va uning o'zlashtirilgan qiymati EV = 540,0 mln so'mni tashkil etgan. Demak, loyiha jadvaldan SV = 540,0 – 650,0 = –110,0 mln so'mlik ish hajmiga orqada qolmoqda. Muddatni bajarish indeksi SPI = 540,0 / 650,0 = 0,831 bo'lib, jamoa rejalashtirilgan sur'atning atigi 83,1 foizini ta'minlagan. Asosiy sabab sifatida 3.0-paket (Backend, SPI = 0,667) va 4.0-paket (interfeys va Face-ID integratsiyasi, SPI = 0,556) bo'yicha yuzaga kelgan texnik kechikishlarni ko'rsatish mumkin.

Ikkinchidan, bajarilgan 540,0 mln so'mlik ish hajmi (EV) uchun amalda AC = 620,0 mln so'm sarflangan. Qiymat bo'yicha og'ish CV = 540,0 – 620,0 = –80,0 mln so'mni tashkil etadi: loyihada 30,0 mln so'm tejalish emas, aksincha, 80,0 mln so'mlik byudjetdan ortiqcha xarajat yuz bergan. Faqat 1.0-paketda 5,0 mln so'm iqtisod qilingan (CPI = 1,053); server uskunalarining valyuta kursi va logistika hisobiga qimmatlashuvi (2.0-paketda CV = –30,0 mln so'm) hamda dasturchilarning qo'shimcha ish soatlari uchun to'lovlar (3.0 va 4.0-paketlarda jami –55,0 mln so'm) umumiy samaradorlikni pasaytirgan.

Uchinchidan, loyihaning umumiy qiymatni bajarish indeksi CPI = 540,0 / 620,0 = 0,871. Bu loyihaga sarflanayotgan har 1 000 so'm evaziga 871 so'mlik real qiymat yaratilayotganini, har 1 000 so'mdan 129 so'mi samarasiz yo'qotilayotganini bildiradi. Integratsiyalashgan indeks CSI = CPI × SPI = 0,871 × 0,831 = 0,724 bo'lib, amaliyotda qo'llaniladigan empirik me'yorlarga ko'ra (CSI < 0,8) loyiha yuqori xatar zonasiga kirganini va tezkor boshqaruv aralashuvini (resurslarni qayta taqsimlash yoki ish rejasini qayta ko'rib chiqish) talab etishini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, U.Lipke taklif etgan “o'zlashtirilgan jadval” (ES) usulini [14] qo'llaymiz. PV 6 oy davomida tekis (chiziqli) taqsimlangan deb faraz qilinsa, o'rtacha oylik rejalashtirilgan o'zlashtirish sur'ati 650,0 / 6 = 108,33 mln so'm/oy bo'ladi va EV = 540,0 mln so'mlik hajm reja bo'yicha ES = 540,0 / 108,33 = 4,98-oyga to'g'ri keladi. Vaqt birligidagi muddat og'ishi SV(t) = ES – AT = 4,98 – 6,0 = –1,02 oy, vaqt bo'yicha bajarish indeksi SPI(t) = 4,98 / 6,0 = 0,831. Demak, loyiha kalendar jadvaldan taxminan 1 oy (31 kun) orqada qolmoqda.

Loyiha shu sur'atda davom etsa, u yakunda qancha mablag'ga tushadi, degan savolga EVM ning prognostik modellari yordamida uchta ssenariy bo'yicha javob topildi (3-jadval).

3-jadval.

Loyihaning yakuniy qiymatini (EAC) va qoldiq ehtiyojlarini prognozlash ssenariylari*

Prognozlash ssenariysi va sharti	EAC (mln so'm)	ETC (EAC–AC, mln so'm)	VAC (BAC–EAC, mln so'm)	TCPI	Boshqaruv xulosasi va realistiklik darajasi
1-ssenariy (optimistik / atipik og'ish): avvalgi og'ishlar bir martalik xarakterga ega, qolgan ishlar dastlabki smeta me'yorida (CPI = 1,0) bajariladi.	1 280,0	660,0	–80,0	TCPI (BAC) = 1,138	Past realistiklik. Loyihani dastlabki 1 200 mln so'm ichida tugatish uchun qolgan davrda samaradorlikni 0,871 dan 1,138 gacha (30,6% ga) oshirish talab etiladi, bu amalda deyarli imkonsiz.
2-ssenariy (realistik / tipik CPI): dastlabki 6 oyda shakllangan xarajatlar samaradorligi (CPI = 0,871) loyiha oxirigacha saqlanadi.	1 377,8	757,8	–177,8	TCPI (EAC) = 0,871	O'rta-yuqori realistiklik. Joriy mehnat unumdorligi saqlansa, loyiha byudjeti 177,8 mln so'mga (14,8% ga) oshib ketadi.

Prognozlash ssenariysi va sharti	EAC (mln so'm)	ETC (EAC–AC, mln so'm)	VAC (BAC–EAC, mln so'm)	TCPI	Boshqaruv xulosasi va realistiklik darajasi
3-ssenariy (pessimistik / kompleks CPI×SPI ta'siri): loyihani 12 oylik muddatda topshirish majburiyati tufayli jadvaldan kechikish (SPI = 0,831) qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi.	1 532,1	912,1	–332,1	TCPI (EAC) = 0,724	Yuqori xatar chegarasi. Muddatni quvib yetish uchun qo'shimcha mutaxassislar jalb etilsa, yakuniy qiymat 1 532,1 mln so'mga yetib, taqchillik 332,1 mln so'mni (27,7%) tashkil etadi.

*Muallif ishlanmasi.

TCPI (BAC) ko'rsatkichi (1 200,0 – 540,0) / (1 200,0 – 620,0) = 660,0 / 580,0 = 1,138 ni tashkil etadi. Amaliyotda keng qo'llaniladigan empirik qoidaga ko'ra, TCPI (BAC) joriy CPI dan 0,10 banddan ko'proq farq qilsa, loyihani dastlabki byudjet doirasida yakunlash realistik hisoblanmaydi. Bizning holatda farq 1,138 – 0,871 = 0,267 > 0,10, shu sababli byudjetni qayta ko'rib chiqish (re-baselining) yoki kamida 177,8–332,1 mln so'mlik boshqaruv zaxirasini (Management Reserve) jalb etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot davomida O'zbekiston korxonalari va davlat muassasalarida EVM ni joriy etishga to'sqinlik qiluvchi uchta tizimli muammo aniqlandi.

1. Buxgalteriya hisobi va loyiha boshqaruvi o'rtasidagi uzilish. Aksariyat korxonalarda xarajatlar hisobi (masalan, 1C dasturiy majmuasida) buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha [15] moddalar va bo'linmalar kesimida yuritiladi, biroq loyihaning WBS ish paketlari (Control Accounts) kesimida xarajatlarni kodlash (Cost Coding) yo'lga qo'yilmagan. Natijada muayyan ish paketi bo'yicha haqiqiy xarajatni (AC) ajratib olish katta mehnat talab qiladi.

2. Bajarilish foizini subyektiv baholash. EV bajarilgan ish foiziga bevosita bog'liq bo'lgani uchun ijrochilar hisobotlarni bo'rttirib ko'rsatish xatari yuqori (masalan, 50% bajarilgan ishni 85% deb ko'rsatish). Bu “90 foiz sindromi”ga — loyiha tez 90% ga yetib, qolgan 10% ustida uzoq vaqt to'xtab qolishiga — olib keladi.

3. Avans to'lovlarini AC va EV sifatida noto'g'ri talqin qilish. Amaliyotda pudratchiga o'tkazilgan 30–50 foizlik avans to'lovi ba'zan “o'zlashtirilgan mablag'” sifatida hisobotga kiritiladi. EVM qoidalariga ko'ra avans to'lovi ish bajarilmaguncha o'zlashtirilgan qiymat (EV) yaratmaydi va faqat bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida hisobga olinishi shart.

Xulosa

O’ tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy takliflar shakllantirildi.

1. EVM shunchaki moliyaviy hisobot shakli emas, balki loyiha ko'lami, muddati va byudjetini yagona koordinatalar tizimida bog'lovchi integratsiyalashgan risk-menejment vositasidir. An'anaviy “reja–fakt” taqqoslashidan farqli ravishda, EVM tizimi loyiha 15–20 foiz bajarilgan dastlabki bosqichlardayoq yashirin byudjet taqchilligi va muddat kechikishlarini aniqlash imkonini beradi.

2. Shartli 1 200,0 mln so'mlik loyiha misolida an'anaviy yondashuv 30,0 mln so'mlik tejamni ko'rsatgan bo'lsa, EVM 80,0 mln so'mlik ortiqcha sarf (CPI = 0,871), 1,02 oylik muddat kechikishi (SPI(t) = 0,831) va yakuniy qiymatning 1 377,8–1 532,1 mln so'mgacha oshishi xavfini (VAC = –177,8…–332,1) aniqladi.

3. EVM ni milliy amaliyotga joriy etishdagi asosiy to'siqlar xarajatlarni WBS kesimida kodlashning yo'qligi, bajarilish foizini subyektiv baholash va avans to'lovlarini noto'g'ri talqin qilishdan iborat.

4. Davlat investitsiya dasturlari, yirik infratuzilma va raqamlashtirish loyihalarini amalga oshiruvchi buyurtmachi tashkilotlar hamda loyiha ofislari (PMO) faoliyatiga ISO 21508:2018 standartini milliy standart (O'z DSt ISO 21508) sifatida uyg'unlashtirish va byudjeti bazaviy hisoblash miqdorining 100 ming baravaridan yuqori bo'lgan loyihalarda CPI va SPI indekslari bo'yicha choraklik monitoring yuritish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq.

5. EV ni hisoblashda subyektivlik va sun'iy qo'shib yozishlarning oldini olish uchun korxonalarning ichki loyiha nizomlarida diskret o'lchash qoidalarini belgilash: muddati 1 oygacha bo'lgan qisqa ish paketlari uchun “0/100” (ish topshirilmaguncha EV = 0%, qabul qilingach 100%) yoki “50/50” qoidasini; 2 oydan ortiq ish paketlari uchun “vaznli nazorat nuqtalari” (Weighted Milestones) usulini qo'llash.

6. Korporativ axborot tizimlarida (ERP / 1C) buxgalteriya hisobvaraqlari rejasini loyihaning WBS tuzilmasi bilan bog'lovchi yagona tahliliy kodlash (WBS Cost Account Coding) mexanizmini joriy etish hamda avans to'lovlarini AC va EV hisobidan ajratib, EV ga faqat bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida qo'shish tartibini o'rnatish.

7. Dasturiy ta'minot va IT-loyihalarida moslashuvchan AgileEVM (Story Point'lar asosida EV va Sprint Velocity asosida SPI ni hisoblash) gibrid modelidan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ-598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

3. Sulliyev B., Rahimov M. Investitsiya loyihalarini boshqarishda xalqaro standartlarni qo'llash istiqbollari // Biznes-Ekspert ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2024. – № 4. – B. 45–51.

4. Anbari F.T. Earned Value Project Management Method and Extensions // Project Management Journal. – 2003. – Vol. 34, No. 4. – Pp. 12–23.

5. ANSI/EIA-748. Earned Value Management Systems. – Arlington, VA: Electronic Industries Alliance / SAE International.

6. Fleming Q.W., Koppelman J.M. Earned Value Project Management. – 4th Edition. – Newtown Square, PA: Project Management Institute, 2016. – 242 p.

7. Humphreys G.C. Project Management Using Earned Value. – 4th Edition. – Orange, CA: Humphreys & Associates, 2018. – 610 p.

8. ISO 21508:2018. Earned value management in project and programme management. – Geneva: International Organization for Standardization, 2018. – 32 p.

9. Kerzner H. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. – 13th Edition. – Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2022. – 848 p.

10. Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide) – Eighth Edition. – Newtown Square, PA: PMI, 2025.

11. Project Management Institute. The Standard for Earned Value Management (ANSI/PMI 19-006-2019). – Newtown Square, PA: PMI Publications, 2019. – 169 p.

12. Project Management Institute. Pulse of the Profession tahliliy hisobotlari. – URL: https://www.pmi.org

13. ISO/TC 258 Project, programme and portfolio management. – URL: https://www.iso.org

14. Earned Schedule xalqaro ilmiy-metodik portali (W. Lipke metodologiyasi va kalkulyatorlari). – URL: https://www.earnedschedule.com

15. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

QURILISH KORXONALARINING INVESTITSION SALOHIYATINI KOMPLEKS BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Alijonov Jamshid Alijon o‘g‘li
Toshkent kimyo-texnologiya instituti (TKTI)
“Sanoat iqtisodiyoti” kafedrasi assistenti
ORCID: 0009-0009-4651-2064
E-mail: alijonovjamshid69@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini baholashning mavjud yondashuvlari tahlil qilingan va ularning cheklovlari aniqlangan. Mavjud usullar asosan moliyaviy ko‘rsatkichlarga tayanib, qurilish sohasining o‘ziga xos xususiyatlari (loyiha tsiklining uzoqligi, buyurtmalar portfeliga bog‘liqlik, davlat buyurtmalarining yuqori ulushi, texnika parkining muhimligi, mavsumiylik) yetarlicha hisobga olinmasligi asoslab berilgan. Muallif beshta blokdan iborat kompleks baholash metodologiyasini taklif etadi: moliyaviy barqarorlik, ishlab chiqarish-texnik salohiyat, kadrlar va tashkiliy salohiyat, bozor va buyurtmalar portfeli, innovatsion-raqamli salohiyat hamda loyiha samaradorligi. Blok vaznlarini aniqlashda ierarxiyalar tahlili usuli (AHP), ko‘rsatkichlarni normallashtirishda min–maks usuli va risk koeffitsientini hisobga olgan integral indeks qo‘llanilgan. Metodologiyaning ishlashi uch shartli korxona misolida namoyish etilgan. Tadqiqot natijalari qurilish korxonalari rahbariyati, investorlar, tijorat banklari va tegishli davlat organlari tomonidan investitsiya qarorlarini asoslashda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar. *Investitsion salohiyat, qurilish korxonalari, kompleks baholash, integral indeks, ierarxiyalar tahlili usuli (AHP), risk koeffitsienti, investitsion jozibadorlik, loyiha samaradorligi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ КОМПЛЕКСНОЙ ОЦЕНКИ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Алижонов Жамшид Алижон угли
Ташкентский химико-технологический институт (ТХТИ)
Ассистент кафедры «Экономика промышленности»
ORCID: 0009-0009-4651-2064
E-mail: alijonovjamshid69@gmail.com

Аннотация. *В статье проанализированы существующие подходы к оценке инвестиционного потенциала строительных предприятий и выявлены их ограничения. Предложена методика комплексной оценки, включающая пять блоков показателей (финансовая устойчивость, производственно-технический, кадровый и организационный потенциал, рыночная позиция и портфель заказов, инновационно-цифровой потенциал, эффективность проектов), веса блоков определяются методом анализа иерархий, а итоговый интегральный индекс корректируется на риск. Работоспособность методики показана на условном примере трёх предприятий.*

Ключевые слова. *инвестиционный потенциал, строительные предприятия, комплексная оценка, интегральный индекс, метод анализа иерархий, инвестиционная привлекательность.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF THE INVESTMENT POTENTIAL OF CONSTRUCTION ENTERPRISES

Alijonov Jamshid Alijon ugli
Tashkent Institute of Chemical Technology (TICT)
Assistant, Department of Industrial Economics

ORCID: 0009-0009-4651-2064
E-mail: alijonovjamshid69@gmail.com

Abstract. *The article examines existing approaches to assessing the investment potential of construction enterprises and identifies their limitations. A comprehensive assessment methodology is proposed, comprising five blocks of indicators: financial stability, production and technical capacity, human resources and organizational capability, market position and order backlog, innovation and digital capability, and project efficiency. Block weights are determined using the Analytic Hierarchy Process, and the integral index is adjusted for risk. The methodology is illustrated using a conditional example of three enterprises.*

Keywords: *investment potential, construction enterprises, comprehensive assessment, integral index, Analytic Hierarchy Process, investment attractiveness, project efficiency.*

Kirish.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qurilish sohasi iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biriga aylandi. Uy-joy, ijtimoiy infratuzilma, sanoat va transport obyektlarini barpo etish bo‘yicha yirik dasturlar amalga oshirilmoqda. «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Prezident farmoni (PF-60, 2022-yil 28-yanvar) hamda «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun (O‘RQ-598, 2019-yil 25-dekabr) investitsion muhitni yaxshilash, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va investitsiya jarayonlarining shaffofligini ta’minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilagan.

Bunday sharoitda qurilish korxonalari o‘z faoliyatini kengaytirish, texnika parkini yangilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun tashqi va ichki investitsiyalarga muhtoj. Ayni paytda investorlar, tijorat banklari va buyurtmachilar korxonaning investitsiya qabul qilish va ularni samarali o‘zlashtirish qobiliyatini, ya’ni investitsion salohiyatini ob’ektiv baholashga ehtiyoj sezadi.

Amaliyotda investitsion salohiyat ko‘pincha buxgalteriya hisobotiga asoslangan bir nechta moliyaviy koeffitsientlar yordamida baholanadi. Bu yondashuv qurilish sohasi uchun quyidagi sabablarga ko‘ra yetarli emas:

- daromad va xarajatlar loyiha tsikli bo‘yicha notekis taqsimlanadi, shu bois joriy moliyaviy ko‘rsatkichlar kelajak imkoniyatlarini to‘liq aks ettirmaydi;
- korxonaning raqobatbardoshligi texnika parki, malakali kadrlar va buyurtmalar portfeli kabi nomoliyaviy omillarga katta darajada bog‘liq;
- mavjud usullarda risklar odatda alohida hisobga olinmaydi.

Shunday qilib, qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini kompleks baholash maqsadida tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash, ierarxiyalar tahlili usuli, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni normallashtirish, integral baholash hamda monografik kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi

Investitsion salohiyat tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Bir guruh mualliflar uni korxonaning mavjud resurslari va ulardan investitsiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari yig‘indisi sifatida qaraydi. Boshqalari esa salohiyatni investitsiyalarni jalb qilish va samarali o‘zlashtirish qobiliyati bilan bog‘laydi. Bu tafovut baholash usullarida ham o‘z aksini topadi.

Investitsion loyihalar samaradorligini baholashning klassik asoslari Brealey, Myers va Allen, Damodaran hamda rus tilidagi adabiyotlarda Vilenskiy, Livshits va Smolyak, Kovalev asarlarida batafsil yoritilgan. Ushbu manbalarda diskontlangan pul oqimlari (NPV), ichki daromad

me’yori (IRR), investitsiyalarning qoplanish muddati va rentabellik indeksi (PI) kabi ko‘rsatkichlar loyiha darajasida asosiy mezon sifatida tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ular korxona darajasidagi kompleks salohiyatni emas, balki alohida loyihani baholashga mo‘ljallangan.

Korxonaning moliyaviy holatini baholashda Altman tomonidan taklif etilgan diskriminant model (Z-skor) keng qo‘llaniladi. Uning afzalligi — bankrotlik ehtimolini bir ko‘rsatkichda umumlashtirishidir. Biroq model dastlab ishlab chiqarish korxonalari ma’lumotlarida ishlab chiqilgan va qurilish sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini (keyingi davr xarajatlari, oldindan to‘lov avanslari, loyiha bo‘yicha daromadni tan olish) to‘liq aks ettirmaydi.

Nomoliyaviy omillarni hisobga olish uchun Kaplan va Norton ning muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi (Balanced Scorecard) g‘oyasidan foydalanish mumkin. Ushbu yondashuv moliyaviy, mijozlar, ichki jarayonlar hamda o‘qish va rivojlanish nuqtai nazarlarini birlashtiradi. Ko‘p mezonli qaror qabul qilish usullari orasida Saaty [9] ning ierarxiyalar tahlili usuli (AHP) hamda Hwang va Yoon [10] ning TOPSIS usuli keng tarqalgan. AHP ekspert fikrlarini matematik jihatdan izchil shaklda vaznlarga aylantirish imkonini beradi va mulohazalar izchilligini nazorat qilish vositasiga ega.

Adabiyotlar tahlili quyidagi xulosalarga asos bo‘ladi:

1. loyiha darajasidagi usullar korxona darajasidagi kompleks baholash uchun yetarli emas;
2. moliyaviy modellar qurilish sohasining sohaviy xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi;
3. nomoliyaviy omillarni hisobga oluvchi usullar mavjud bo‘lsa-da, ular qurilish korxonalariga moslashtirilgan yagona ko‘rsatkichlar tizimiga ega emas;
4. risk omili ko‘pincha baholashdan tashqarida qoladi.

Mazkur bo‘shliqlar taklif etilayotgan metodologiyaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tahlil va natijalar

Mavjud yondashuvlarning qiyosiy tahlili. Amaliyotda qo‘llanadigan yondashuvlarni shartli ravishda to‘rt guruhga bo‘lish mumkin. Ularning asosiy afzallik va kamchiliklari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Investitsion salohiyatni baholash yondashuvlarining qiyosiy tavsifi

Yondashuv	Asosiy mezonlar	Afzalligi	Qurilish sohasi uchun kamchiligi
Moliyaviy koeffitsientlar	Likvidlik, moliyaviy mustaqillik, rentabellik	Hisoblash oddiyligi, ma’lumotlar ochiqligi	Nomoliyaviy omillar va loyiha tsikli hisobga olinmaydi
Loyiha samaradorligi (NPV, IRR, PI)	Diskontlangan pul oqimlari	Pulning vaqt qiymati hisobga olinadi	Faqat alohida loyihaga tegishli, korxona salohiyatini ifodalamaydi
Diskriminant modellar (Altman)	Moliyaviy koeffitsientlar kombinatsiyasi	Bankrotlik ehtimolini baholaydi	Sohaviy xususiyatlarga moslashtirilmagan
Ekspert baholash	Sifat mezonlari	Nomoliyaviy omillarni qamrab oladi	Sub’ektivlik, takrorlanuvchanlik past

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir yondashuv salohiyatning faqat bir jihatini ochib beradi. Shu sababli ularni yagona tizimda uyg‘unlashtirish zarur.

Kompleks baholash metodologiyasining tuzilmasi. Taklif etilayotgan metodologiya to‘rt bosqichdan iborat:

- ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish;
- ko‘rsatkichlarni normallashtirish;

- vaznlarni aniqlash va blok bahosini hisoblash;
- risk bo‘yicha tuzatilgan integral indeksni hisoblash va korxonani tasniflash.

Indikatorlar oltita blokka guruhlangan (2-jadval).

2-jadval.

Qurilish korxonalari investitsion salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari tizimi*

Blok	Asosiy ko‘rsatkichlar	Vazn (w)
1. Moliyaviy barqarorlik	Joriy likvidlik koeffitsienti; moliyaviy mustaqillik koeffitsienti; aktivlar rentabelligi (ROA); Altman Z-skori	0,22
2. Ishlab chiqarish-texnik salohiyat	Asosiy vositalarning eskirish darajasi; qurilish texnikasi bilan ta’minlanganlik; ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi	0,20
3. Kadrlar va tashkiliy salohiyat	Oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar ulushi; bir xodimga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi; sifat menejmenti tizimlarining mavjudligi	0,12
4. Bozor va buyurtmalar portfeli	Buyurtmalar portfelining yillik hajmga nisbati; davlat va xususiy buyurtmalar tarkibi; bozor ulushi	0,16
5. Innovatsion-raqamli salohiyat	Axborot modellashtirish (BIM) texnologiyalaridan foydalanish; energiya tejamkor texnologiyalar ulushi; raqamli boshqaruv tizimlari	0,12
6. Loyiha samaradorligi	NPV; IRR; diskontlangan qoplanish muddati; rentabellik indeksi (PI)	0,18

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Blok vaznlari 5–7 nafar mutaxassis (qurilish korxonalari rahbarlari, bank kredit tahlilchilari, investitsiya loyihalari ekspertlari) fikri asosida AHP usuli bilan aniqlanadi. Ekspertlar bloklarni Saaty shkalasi (1–9) bo‘yicha juft-juft taqqoslaydi, hosil bo‘lgan matritsaning bosh xususiy vektori vaznlarni beradi. Mulohazalar izchilligi izchillik nisbati bilan tekshiriladi:

CR = CI / RI < 0,10, bunda CI = (λmax − n)/(n − 1) — izchillik indeksi, RI — tasodifiy indeks. Agar CR ≥ 0,10 bo‘lsa, ekspert baholari qayta ko‘rib chiqiladi. 2-jadvaldagi vaznlar metodologiyani namoyish etish uchun keltirilgan va aniq amaliy tadqiqotda ekspert so‘rovi natijalari bilan almashtirilishi kerak.

Hisoblash algoritmi

1-qadam. Normallashtirish. Turli o‘lchov birliklariga ega ko‘rsatkichlar [0; 1] oraliqqa keltiriladi. Ko‘rsatkich qanchalik katta bo‘lsa shunchalik yaxshi bo‘lsa (masalan, likvidlik):

$$x'_{ij} = (x_{ij} - xmin) / (xmax - xmin)$$

Ko‘rsatkich qanchalik kichik bo‘lsa shunchalik yaxshi bo‘lsa (masalan, asosiy vositalar eskirishi):

$$x'_{ij} = (xmax - x_{ij}) / (xmax - xmin)$$

Bunda xmin va xmax — tanlangan korxonalar guruhidagi yoki sohaviy me’yoriy qiymatlar.

2-qadam. Blok bahosi. Blok ichidagi ko‘rsatkichlar teng yoki ekspert vaznlari bilan jamlanadi:

$S_j = \Sigma\, v_k \cdot x'_k$, bunda $\Sigma\, v_k = 1$.

3-qadam. Bazaviy integral indeks:

$I_baza = \Sigma\, w_j \cdot S_j$, bunda $\Sigma\, w_j = 1$.

4-qadam. Riskni hisobga olish. Korxonaning umumiy risk darajasi R (0 dan 0,30 gacha) quyidagi omillar bo‘yicha baholanadi: buyurtmachilar to‘lov intizomi, qurilish materiallari narxi o‘zgarishi, valyuta kursi, subpudratchilarga bog‘liqlik, loyihalarni muddatida topshirmaslik

ehtimoli. Tuzatilgan indeks:

I_kompleks = I_baza · (1 − R)

Risk koeffitsientini alohida kiritish baholashning ishonchliligini oshiradi: bir xil bazaviy ko‘rsatkichga ega ikki korxona risk profili bo‘yicha farqlanadi.

5-qadam. Tasniflash. Natija 3-jadvalga muvofiq talqin etiladi.

3-jadval.

Investitsion salohiyat darajalari

I_kompleks	Daraja	Tavsiya
0,75 va undan yuqori	Yuqori	Yirik investitsiyalar uchun jozibador, kengayish strategiyasi qo‘llab-quvvatlanadi
0,55 – 0,74	O‘rta	Aniq yo‘nalishlar bo‘yicha investitsiya, kuchsiz bloklarni mustahkamlash
0,35 – 0,54	Past	Cheklangan investitsiya, restrukturizatsiya va risklarni kamaytirish dasturi
0,35 dan past	Kritik	Investitsiya qilish tavsiya etilmaydi, moliyaviy sog‘lomlashtirish zarur

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Metodologiyani shartli misolda sinash. Metodologiyaning ishlash mexanizmini ko‘rsatish uchun uchta shartli qurilish korxonasi (A, B, C) bo‘yicha hisob-kitob keltiriladi. Eslatma: quyidagi qiymatlar haqiqiy korxonalarga tegishli emas va faqat hisoblash tartibini namoyish etish uchun tuzilgan. Amaliy qo‘llashda blok baholari 1–2-qadamlarda real hisobot ma’lumotlari asosida olinadi.

4-jadval.

Shartli korxonalarning blok baholari va integral indeksi

Ko‘rsatkich	Vazn	A korxona	B korxona	C korxona
S_1 Moliyaviy barqarorlik	0,22	0,78	0,62	0,40
S_2 Ishlab chiqarish-texnik	0,20	0,70	0,55	0,35
S_3 Kadrlar va tashkiliy	0,12	0,65	0,70	0,45
S_4 Bozor va portfel	0,16	0,72	0,50	0,38
S_5 Innovatsion-raqamli	0,12	0,60	0,45	0,30
S_6 Loyiha samaradorligi	0,18	0,74	0,58	0,36
I_baza	1,00	**0,710**	**0,569**	**0,374**
Risk koeffitsienti R	—	0,10	0,15	0,25
I_kompleks	—	**0,639**	**0,484**	**0,280**
Daraja	—	O‘rta	Past	Kritik

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Masalan, A korxona uchun: Ibaza = 0,22·0,78 + 0,20·0,70 + 0,12·0,65 + 0,16·0,72 + 0,12·0,60 + 0,18·0,74 = 0,710; Ikompleks = 0,710·(1 − 0,10) = 0,639.

Misol natijalari quyidagi muhim jihatlarni ko‘rsatadi. A korxona bazaviy indeks bo‘yicha «yuqori» darajaga yaqin bo‘lsa-da, risk tuzatishidan keyin «o‘rta» darajada qoladi, ya’ni risklar investitsiya qaroriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. B korxona kadrlar blokida A dan yuqori natija ko‘rsatgan, biroq texnika va bozor bloklaridagi zaiflik umumiy bahoni pasaytirgan; bu holat investorga mablag‘ni aynan qaysi yo‘nalishga yo‘naltirish kerakligini ko‘rsatadi. C korxona uchun barcha bloklardagi past ko‘rsatkichlar moliyaviy sog‘lomlashtirishni investitsiyadan oldingi zaruriy bosqich sifatida belgilaydi.

Metodologiyaning afzalliklari va cheklovlari. Taklif etilayotgan metodologiyaning asosiy afzalliklari: (a) moliyaviy va nomoliyaviy omillarning birgalikda hisobga olinishi; (b) vaznlarning ekspert fikri asosida matematik izchil aniqlanishi; (c) risk omilining alohida kiritilishi; (d) natijaning blok bo‘yicha tahlil qilinishi va ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashga imkon berishi; (e) qurilish korxonalari uchun sohaviy ko‘rsatkichlarning moslashtirilishi.

Cheklovlar: ekspert baholarining sub’ektivlik elementi saqlanib qoladi (CR nazorati buni kamaytiradi); xmin va xmax chegaralarini aniqlash uchun sohaviy ma’lumotlar bazasi zarur; risk koeffitsientini baholash uchun alohida mezonlar shkalasi ishlab chiqilishi lozim. Keyingi tadqiqotlarda metodologiyani real korxonalar tanlanmasida sinash, vaznlarni statistik usullar bilan tekshirish va TOPSIS usuli natijalari bilan solishtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa.

Mavjud baholash usullari (moliyaviy koeffitsientlar, loyiha samaradorligi ko‘rsatkichlari, diskriminant modellar, ekspert baholash) qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini to‘liq ochib bermaydi, chunki ular salohiyatning faqat alohida jihatlarini qamrab oladi va sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini yetarlicha aks ettirmaydi.

Investitsion salohiyatni kompleks baholash uchun oltita blokdan iborat ko‘rsatkichlar tizimi taklif etildi: moliyaviy barqarorlik, ishlab chiqarish-texnik salohiyat, kadrlar va tashkiliy salohiyat, bozor va buyurtmalar portfeli, innovatsion-raqamli salohiyat hamda loyiha samaradorligi.

Blok vaznlarini AHP usuli bilan aniqlash va izchillik nisbatini (CR < 0,10) nazorat qilish orqali ekspert baholarining sub’ektivligi kamaytiriladi.

Integral indeksni risk koeffitsienti bo‘yicha tuzatish ($I_{kompleks} = I_{baza} \cdot (1 - R)$) investitsiya qarorlari ishonchliligini oshiradi va baholashga kelajakdagi noaniqlikni kiritadi.

Shartli misol metodologiyaning amaliy qo‘llanilish imkoniyatini ko‘rsatdi: u korxonalarni darajalar bo‘yicha tasniflash bilan birga, investitsiyani yo‘naltirish zarur bo‘lgan zaif bloklarni aniqlaydi.

Amaliy tavsiya: tijorat banklari, investitsiya fondlari va qurilish sohasini tartibga soluvchi organlar mazkur metodologiyani kreditlash, subpudratchilarni tanlash va investitsiya dasturlariga korxonalarni kiritishda foydalanishi mumkin. Keyingi bosqichda sohaviy me’yoriy chegaralar (xmin, xmax) bazasini shakllantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida». — Toshkent: lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-598-son Qonuni «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida». — Toshkent: lex.uz.

3. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. — New York: McGraw-Hill Education, 2020 (13th ed.).

4. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. — Hoboken: Wiley, 2012 (3rd ed.).

5. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: теория и практика. — М.: Дело, 2008.

6. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. — М.: Финансы и статистика, 2003.

7. Altman E.I. Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy // The Journal of Finance. — 1968. — Vol. 23, No. 4. — P. 589–609.

8. Kaplan R.S., Norton D.P. The balanced scorecard: measures that drive performance // Harvard Business Review. — 1992. — Vol. 70, No. 1. — P. 71–79.

9. Saaty T.L. The Analytic Hierarchy Process: Planning, Priority Setting, Resource Allocation. — New York: McGraw-Hill, 1980.

10. Hwang C.L., Yoon K. Multiple Attribute Decision Making: Methods and Applications. — Berlin: Springer-Verlag, 1981.

11. Методические рекомендации по оценке эффективности инвестиционных проектов (вторая редакция). — М.: Экономика, 2000.

O’ZBEKISTONDA INFLATSIYA DARAJASINING PASAYISH SABABLARI

Jafarova Marjona Jafarovna
iqtisodiyot fakulteti
3-kurs I-52/24-guruh talabasi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: jafarovamarjona2010@gmail.com
Xusanova Dilorom Shavkatovna
"Moliya" kafedrasi v.b prafessori
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: dilorom.xusanova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda 2016–2025-yillar davomida inflyatsiya darajasining dinamikasi, pasayish tendensiyalari va unga ta’sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Xususan, pul-kredit siyosatining qat’iylashtirilishi, Markaziy bankning inflyatsion targetlash rejimiga bosqichmabosqich o‘tishi, asosiy stavkaning optimallashtirilishi hamda pul massasi (M_2) o‘sish sur’atlarining nazorat qilinishi inflyatsiyani jilovlashda muhim rol o‘ynagani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, fiskal intizomning kuchaytirilishi, byudjet taqchilligini kamaytirish choralarining amalga oshirilishi va davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish inflyatsion bosimni pasaytirgan asosiy omillar sifatida tarkibiy tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Inflyatsiya, Markaziy bank, asosiy stavka, inflyatsion targetlash, makroiqtisodiy barqarorlik, fiskal intizom, pul massasi.*

ПРИЧИНЫ СНИЖЕНИЯ ИНФЛЯЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Жафарова Маржона Жафаровна
экономический факультет
студент 3 курса, группа И-52/24
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: jafarovamarjona2010@gmail.com
Хусанова Дилором Шавкатовна
и.о. профессор кафедры финансов
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: dilorom.xusanova@gmail.com

Аннотация. *В данной статье анализируются динамика уровня инфляции, тенденции её снижения и основные макроэкономические факторы, влияющие на неё в Узбекистане в период 2016–2025 годов. В частности, показано, что ужесточение денежно-кредитной политики, постепенный переход. Центрального банка к режиму инфляционного таргетирования, оптимизация основной ставки и контроль темпов роста денежной массы (M_2) сыграли важную роль в сдерживании инфляции. Также проводится структурный анализ таких факторов, как укрепление фискальной дисциплины, реализация мер по сокращению дефицита бюджета и повышение эффективности государственных расходов, которые послужили основными драйверами снижения инфляционного давления.*

Ключевые слова: *Инфляция, Центральный банк, основная ставка, инфляционное таргетирование, макроэкономическая стабильность, фискальная дисциплина, денежная масса.*

REASONS FOR THE DECLINE IN THE INFLATION RATE IN UZBEKISTAN

Jafarova Marjona Jafarovna
3rd-year student, group I-52/24

Faculty of Economics
Tashkent State University of Economics
E-mail: jafarovamarjona2010@gmail.com
Xusanova Dilorom Shavkatovna
Associate Professor, Department of Finance
Tashkent State University of Economics
E-mail: dilorom.xusanova@gmail.com

Abstract. *This article analyzes the dynamics of inflation rates, downward trends, and the main macroeconomic factors influencing them in Uzbekistan during the period of 2016–2025. Specifically, it highlights that the tightening of monetary policy, the Central Bank's gradual transition to an inflation-targeting regime, the optimization of the policy rate, and the control of money supply (M_2) growth rates played a crucial role in curbing inflation. Furthermore, a structural analysis is provided for factors such as strengthening fiscal discipline, implementing measures to reduce the budget deficit, and improving the efficiency of public expenditures, which acted as the primary drivers in mitigating inflationary pressures.*

Keywords: *Inflation, Central Bank, policy rate, inflation targeting, macroeconomic stability, fiscal discipline, money supply.*

Kirish

Zamonaviy makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda narxlar darajasining muvozanatda bo‘lishi iqtisodiy rivojlanishning eng fundamental poydevori hisoblanadi. Inflyatsiya pulning xarid qobiliyatini pasaytirishi, aholi real daromadlarini kemirishi va uzoq muddatli investitsion faollikni so‘ndirishi sababli uni doimiy ravishda past va barqaror darajada ushlab turish iqtisodiyot uchun ratsional zaruriyatdir. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda tarkibiy va institutsional islohotlar doirasida inflyatsiyani jilovlash davlatning strategik ustuvor vazifasiga aylandi. Ko‘rilgan kompleks monetar hamda fiskal choralar natijasida narxlar o‘sishi sur’atini ikki xonali raqamlardan sezilarli darajada pasaytirishga erishildi. Mamlakatimiz hozirgi bosqichda 5 foizlik strategik targetga bosqichma-bosqich erishishni ko‘zlayotgan bo‘lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda jahonning yetakchi rivojlangan davlatlari kabi inflyatsiyani 2 foizlik optimal koridorda ushlab turish kun tartibidagi muhim vazifa hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida 2 foizlik ko‘rsatkich iqtisodiyotni deflyatsiyadan asrovchi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi eng sog‘lom chegara bo‘lib, O‘zbekiston realligida bunga erishish iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish, ma’muriy narxlarni erkinlashtirish va mehnat unumdorligini oshirishni talab etadi.

Adabiyotlar sharhi

Makroiqtisodiyot fanining otasi Jon Meynard Keyns davlatning yalpi talabni tartibga solishi narxlarni barqarorlashtirishdagi asosiy qurol ekanligini isbotlagan bo‘lsa, monetarizm asoschisi Milton Fridmen inflyatsiyani har doim va hamma joyda sof monetar, ya’ni pul massasining me’yordan ko‘payishi natijasida yuzaga keladigan hodisa deb baholagan. Shvetsiyalik iqtisodchi Knut Viksell foiz stavkalari muvozanati nazariyasi bilan zamonaviy pul siyosatiga poydevor qo‘ygan, Nobel mukofoti laureati Ben Bernanke hamda taniqli iqtisodchi Lars Svensson esa inflyatsion targetlash (inflation targeting) rejimini narxlar barqarorligini ta’minlovchi eng mukammal amaliy model sifatida fanga kiritishgan. O‘zbekistonda iqtisodiyot nazariyasi maktabi namoyandalari akademik Sharif Shodmonov, professorlar Alisher Vahobov va Dilorom Tojiboyeva o‘zlarining fundamental ilmiy ishlarida yuqori inflyatsiya darajasi mamlakatda investitsiya ishtiyoqini so‘ndirishi, milliy jamg‘armalarni qadrsizlantirishi hamda umumiy makroiqtisodiy nomuvozanatlikni keltirib chiqarishini fundamental jihatdan asoslab berishgan.Bugungi kunda respublika iqtisodchilari va ekspertlari ichki bozordagi inflyatsiyaga faqat monetar omillar emas, balki taklif taqchilligi, energiya tariflarining erkinlashtirilishi va logistika xarajatlari kabi nomonetar omillar ham kuchli bosim o‘tkazayotganini aniq dalillar bilan

ko‘rsatishmoqda. Mazkur jarayonlarning qonuniy asosi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-sonli Farmoniga muvofiq, Markaziy bank 2020-yil 1-janvardan boshlab pul-kredit siyosatini rasman bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o‘tkazdi [lex.uz]. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev inflyatsiyani pasaytirishni shunchaki texnik ko‘rsatkich emas, balki aholining real xarid qobiliyatini va farovonligini ta’minlovchi eng asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omil deb belgilagan [president.uz]. Hozirgi bosqichda Prezident tomonidan ijro hokimiyati oldiga yillik inflyatsiya darajasini bosqichma-bosqich 7 foizgacha pasaytirish, kelgusi davrlarda esa uni yakuniy strategik maqsad — 5 foizlik barqaror ko‘rsatkich doirasida qat’iy ushlab turish vazifasi qo‘yilgan [president.uz]. Konseptual tahlillar shuni ko‘rsatadiki, belgilangan maqsadli targetlarga erishish uchun faqatgina monetar cheklovlar yetarli emas, balki hukumat darajasida ichki bozorda oziq-ovqat va iste’mol tovarlari taklifini keskin ko‘paytirish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda 2016–2025-yillar davomida inflyatsiya darajasining pasayish sabablarini ochib berish maqsadida miqdoriy va sifat tahlili usullari majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning empirik asosi sifatida Markaziy bank va Statistika agentligining rasmiy ochiq ma’lumotlari tanlab olinib, inflyatsiya dinamikasining o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash uchun statistik guruhlash hamda grafikli modellashtirish metodlari qo‘llanildi. Makroiqtisodiy omillarning narxlar barqarorligiga ta’sirini baholashda pul massasi (M_2), asosiy stavka o‘zgarishi va budjet taqchilligi ko‘rsatkichlari tarkibiy tahlil (structural analysis) hamda sabab-oqibat aloqadorligi metodlari yordamida o‘rganildi. Inflyatsiyani kelajakda 5 va 2 foizlik maqsadli ko‘rsatkichlar doirasida jilovlash strategiyasini ishlab chiqishda esa iqtisodiyotni dollarsizlashtirish, monopoliyaga barham berish va energetika tariflari islohotining ta’siri mantiqiy hamda qiyosiyfunksional tahlil yondashuvi asosida ilmiy umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Umumiy iqtisodiy tendensiyaga nazar tashlasak, ko‘rib chiqilayotgan davrning birinchi yarmida inflyatsiya ko‘rsatkichlari yuqori tebranuvchanlik namoyon etgan bo‘lsa, davr yakuniga kelib barqaror pasayish tendensiyasi kuzatilgan.

1-chizma.

O‘zbekistonda inflyatsiya tendensiyalari: so`nggi o‘n yillik tahlili[72]



**Muallif tomonidan tuzildi.*

[72] O’zbekiston Milliy statistika qo’mitasi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2016-yilda inflyatsiya darajasi 9,7%ni tashkil etgan. Biroq, keyingi 2017-yilda keskin sakrash qayd etilib, ko‘rsatkich o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga — 18,8%ga ko‘tarildi. Bu holat valyuta bozorining erkinlashtirilishi va so‘mning devalvatsiyasi fonida yuzaga kelgan import shoki bilan izohlanadi. Ushbu cho‘qqidan so‘ng, 2018 va 2019-yillarda narxlar o‘sishi sekinlashib, ko‘rsatkich mos ravishda 14% va 15% atrofida muvozanatlashdi.

Pasayish tendensiyasi keyingi yillarda ham davom etdi va inflyatsiya darajasi 2020-yilda 11,1%gacha, 2021-yilda esa bir xonali songa yaqinlashib, 10%gacha tushdi. Garchi 2022-yilda global logistik inqirozlar sababli ko‘rsatkich biroz ortga qaytib, 12,3%ga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, bu o‘sish uzoq davom etmadi. Markaziy bankning qat’iy pul-kredit siyosati natijasida inflyatsiya pasayishda davom etdi: 2023-yilda 8,8%, 2024-yilda 9,8% va nihoyat 2025-yil yakuniga kelib o‘zining eng minimal darajasi — 7,3%ni qayd etdi.

Markaziy bank belgilagan uzoq muddatli 5 foizlik targetga erishish choralari. Inflyatsiya darajasini hozirgi ko‘rsatkichlardan 5 foizgacha pasaytirish uchun, eng avvalo, soliq-budjet intizomini qat’iy kuchaytirish zarur. Davlat xarajatlarini samarali nazorat qilish va budjet defitsitini Yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik pul massasining asossiz ko‘payib ketishining oldini oladi. Shu bilan birga, davlat dasturlari doirasida bozorga katta miqdorda imtiyozli va arzon kreditlar chiqarish amaliyotini cheklash lozim, chunki bunday subsidiyalar milliy valyutaning qadrsizlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish energetika tariflari islohotini tizimli muvofiqlashtirish bilan bog‘liq. Elektr energiyasi va tabiiy gaz narxlarining bozor mexanizmlariga o‘tkazilishi ishlab chiqarish tannarxiga ma’lum ma’noda bosim o‘tkazadi. Ushbu bosimni yumshatish uchun tadbirkorlik subyektlariga energiya tejamkor texnologiyalarga o‘tishda ko‘maklashish va bu orqali mahsulot tannarxi oshishini kompensatsiya qilish kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, ichki bozorda monopoliyalarga barham berish va haqiqiy raqobat muhitini yaratish talab etiladi. Ayrim yirik subyektlarning narxlarni sun’iy ravishda belgilash imkoniyatlarini cheklash hamda bozorga yangi ishlab chiqaruvchilar va importyorlarning to‘siqlarsiz kirishini ta’minlash narxlarning tabiiy ravishda pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarining mavsumiy narx tebranishlarini kamaytirish uchun zamonaviy agrologistika infratuzilmasini kengaytirish, ya’ni muzlatkichli omborxonalar va saqlash komplekslari tarmog‘ini keskin ko‘paytirish shart.

Jahonning yetakchi rivojlangan davlatlari kabi inflyatsiyani barqaror 2 foiz atrofida saqlab turish iqtisodiyotni tubdan isloh qilishni ta’minlovchi uzoq muddatli strategiyani talab qiladi. Buning eng birinchi sharti iqtisodiyotni to‘liq dollarsizlashtirish hisoblanadi. Uy-joy, avtomobil va boshqa yirik oldi-sotdi shartnomalarini xorijiy valyutada hisoblash an’anasidan butunlay voz kechish kerak. Aholining jamg‘armalari milliy valyutada bo‘lishi va so‘mga bo‘lgan

ishonchning yuqori darajada shakllanishi Markaziy bank qarorlarining iqtisodiyotga ta’sir kuchini maksimal darajaga chiqaradi.

Keyingi muhim omil pul-kredit siyosatini yurituvchi organ — Markaziy bankning mutloq mustaqilligidir.

Markaziy bank har qanday siyosiy yoki hukumat tomonidan bo‘ladigan qisqa muddatli iqtisodiy o‘sish bosimlaridan xoli bo‘lishi va o‘z faoliyatini faqatgina narxlar barqarorligini ta’minlashga qaratishi lozim. Uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashda mehnat unumdorligini va ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalarni oshirish hal qiluvchi ro’l o‘ynaydi. Sanoatga zamonaviy avtomatlashtirilgan texnologiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini ko‘paytirish va uning tannarxini yildan-yilga arzonlashtirib borish inflyatsiyani eng minimal darajada saqlashga xizmat qiladi. Nihoyat, mamlakatda fond bozorini rivojlantirish zarur. Aholining bo‘sh pul mablag‘lari faqat ko‘chmas mulk yoki avtomobil sotib olishga emas, balki yirik kompaniyalarning aksiyalari va obligatsiyalariga investitsiya qilinishi orqali iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilishi lozim. Buning uchun:

- soliq-budjet intizomini qat’iy ta’minlash va davlat xarajatlarini cheklash;- bozorlarda

monopoliyalarni tugatib, sog‘lom raqobat muhitini to‘liq qaror toptirish;

-iqtisodiyotni to‘liq dollarsizlashtirish orqali milliy valyutaga bo‘lgan ishonchni mutahkamlash;

- ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni jalb etib, mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish talab etiladi.

Faqatgina mana shunday chuqur tarkibiy islohotlar va Markaziy bankning mutloq mustaqilligini ta’minlash orqali mamlakatda narxlar barqarorligiga va aholi real daromadlarining uzoq muddatli o‘sishiga erishish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, grafikda aks etgan 2016–2025-yillardagi inflyatsiya dinamikasi O‘zbekiston iqtisodiyotining tub burilishlar va o‘tish davrini boshdan kechirganidan dalolat beradi. 2017-yilda valyuta bozorining ochilishi va tarkibiy islohotlar sababli ko‘rsatkich o‘zining eng yuqori nuqtasiga 18,8% chiqqan bo‘lsada, keyingi yillarda Markaziy bank va hukumatning muvofiqlashtirilgan choralari natijasida narxlar o‘sishi tizimli ravishda jilovlandi va 2025-yilga kelib eng minimal darajaga 7,3% tushirildi.

Biroq, erishilgan bu ko‘rsatkich yakuniy maqsad emas. Inflyatsiyani uzoq muddatli 5 foizlik targetga tushirish va kelajakda rivojlangan davlatlar kabi 2 foiz atrofida barqaror ushlab turish uchun iqtisodiyotni shunchaki pul-kredit dastaklari bilan boshqarish yetarli emas. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, narxlarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash uchun, eng avvalo, davlat xarajatlarini cheklash va budjet taqchilligini Yalpi ichki mahsulotga (YID) nisbatan 3 foizdan oshirmaslik orqali qat’iy soliq-budjet intizomini saqlab qolish zarur. Shu bilan birga, ichki bozorlarda sun’iy narx shakllanishiga sabab bo‘layotgan monopoliyalarga butunlay barham berish, bozorga yangi ishlab chiqaruvchilar va importyorlarning to‘siqlarsiz kirishini ta’minlovchi sog‘lom raqobat muhitini to‘liq qaror toptirish lozim. Ayniqsa, energetika tariflari islohotining ishlab chiqarish tannarxiga salbiy ta’sirini yumshatish uchun sanoat korxonalarida energiya tejamkor yuqori texnologiyalarni joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Eng muhim tarkibiy islohotlardan biri — bu iqtisodiyotni to‘liq dollarsizlashtirish va fond bozorini rivojlantirish bo‘lib, aholining bo‘sh pul mablag‘larini real sektor aksiyalariga yo‘naltirish orqali milliy valyutaga — so‘mga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash talab etiladi. Faqatgina mana shunday chuqur tarkibiy o‘zgarishlar hamda pul-kredit siyosatini yurituvchi organning mutloq mustaqilligini ta’minlash orqali mamlakatda narxlar barqarorligiga, aholi real daromadlarining va makroiqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli kafolatiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son “Pul-kredit siyosatini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoni. – https://lex.uz/docs/4600292

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025–2026-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. Toshkent: Markaziy bank. – https://cbu.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). O‘zbekiston Respublikasida iste’mol sektoridagi inflyatsiya darajasi
(2016–2025-yillar statistik to‘plami). Toshkent: www.stat.uz

4. Xusanova, D. SH. (2023). Moliya va pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni. Toshkent: TDIU nashriyoti, 145–158-b.

5. Vahobov, A. V., Malikov, T. S. (2021). Moliya: Darslik. Toshkent: Noshir. – 480 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlar portali – https://cbu.uz/uz/statistics

TASODIFIY TEBRANISHLAR, XO‘JALIKLARARO GETEROGENLIK VA SAMARASIZLIKNI AJRATIB BAHOLOVCHI PANEL MODELLAR TIZIMI

Axmedova Mavluda Shavkatovna

ıqtisodiyot, moliya
va buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti
Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti
E-mail: axmedovamavluda25@gmail.com
ORCID:0009-0000-9582-4843

Annotatsiya. *Tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va texnik samarasizlikni alohida baholash imkonini beruvchi panel modellar tizimining nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini iqtisodiy-statistik baholashda tabiiy-iqlim sharoitlari, ishlab chiqarish resurslari, texnologik imkoniyatlar va boshqaruv xususiyatlari bilan bog‘liq farqlarni hisobga olish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotda stoxastik ishlab chiqarish chegarasi yondashuvi, vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi samarasizlik modellari hamda haqiqiy fiksirlangan va tasodifiy effektlar modellarining metodologik imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xo‘jaliklarga xos doimiy tarkibiy farqlarni tasodifiy xatoliklar va resurslardan samarasiz foydalanish natijasida yuzaga keladigan og‘ishlardan ajratish masalalari tahlil qilingan. Taklif etilayotgan metodologik yondashuv qishloq xo‘jaligi korxonalarining texnik samaradorligini yanada aniq baholash, ishlab chiqarish natijalariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda mavjud resurslardan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar. *Panel ma’lumotlar, stoxastik ishlab chiqarish chegarasi, tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik, texnik samarasizlik, texnik samaradorlik, fiksirlangan effektlar, tasodifiy effektlar, qishloq xo‘jaligi, ekonometrik modellashtirish.*

СИСТЕМА ПАНЕЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО ОЦЕНИВАНИЯ СЛУЧАЙНЫХ КОЛЕБАНИЙ, МЕЖХОЗЯЙСТВЕННОЙ НЕОДНОРОДНОСТИ И НЕЭФФЕКТИВНОСТИ

Ахмедова Мавлуда Шавкатовна

доцент кафедры
экономика, финансы и
бухгалтерский учет
институт технологий, управления
и коммуникации” Институт ТМС
E-mail: axmedovamavluda25@gmail.com
ORCID:0009-0000-9582-4843

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и методологические основы системы панельных моделей, позволяющей раздельно оценивать случайные колебания, межхозяйственную гетерогенность и техническую неэффективность. Обоснована необходимость учета различий в природно-климатических условиях, производственных ресурсах, технологических возможностях и особенностях управления при экономико-статистической оценке деятельности сельскохозяйственных предприятий. Рассмотрены методологические возможности стохастического подхода к оцениванию производственной границы, моделей с изменяющейся во времени неэффективностью, а также спецификаций с истинными фиксированными и истинными случайными эффектами. Особое внимание уделено разграничению устойчивых структурных различий между хозяйствами, случайных отклонений и потерь, обусловленных неэффективным использованием ресурсов. Предлагаемый*

методологический подход способствует повышению точности оценки технической эффективности сельскохозяйственных предприятий, выявлению факторов, влияющих на производственные результаты, и разработке научно обоснованных рекомендаций по совершенствованию использования имеющихся ресурсов.

Ключевые слова. *панельные данные, стохастическая производственная граница, случайные колебания, межхозяйственная гетерогенность, техническая неэффективность, техническая эффективность, фиксированные эффекты, случайные эффекты, сельское хозяйство, эконометрическое моделирование.*

A SYSTEM OF PANEL MODELS FOR THE SEPARATE ESTIMATION OF RANDOM FLUCTUATIONS, INTER-FIRM HETEROGENEITY, AND INEFFICIENCY

Akhmedova Mavluda Shavkatovna
Associate Professor, Department of
“Economics, Finance, and Accounting,”
“Institute of Technology, Management,
and Communication”TMC
E-mail: axmedovamavluda25@gmail.com
ORCID:0009-0000-9582-4843

Abstract. *The theoretical and methodological foundations of a panel model system designed to separately estimate random fluctuations, inter-farm heterogeneity, and technical inefficiency. It substantiates the importance of accounting for differences in natural and climatic conditions, production resources, technological capabilities, and management practices when evaluating the performance of agricultural enterprises. The study considers the methodological potential of the stochastic production frontier approach, time-varying inefficiency models, and true fixed-effects and true random-effects specifications. Particular attention is given to distinguishing persistent farm-specific structural characteristics from random disturbances and deviations associated with inefficient resource utilization. The proposed methodological approach can contribute to more accurate assessments of the technical efficiency of agricultural enterprises, the identification of factors affecting production outcomes, and the development of evidence-based recommendations for improving resource allocation and utilization.*

Keywords. *Panel data, stochastic production frontier, random fluctuations, inter-farm heterogeneity, technical inefficiency, technical efficiency, fixed effects, random effects, agriculture, econometric modeling.*

Kirish

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va xo‘jaliklar faoliyatining iqtisodiy natijalarini yaxshilash zamonaviy agrar iqtisodiyotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining o‘sishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi, iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining cheklanganligi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining o‘zgaruvchanligi qishloq xo‘jaligi korxonalarining samaradorligini aniq va ishonchli baholash zaruratini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda xo‘jaliklarning ishlab chiqarish natijalarini faqat mahsulot hajmi yoki sarflangan resurslar miqdori asosida baholash yetarli emas. Aksincha, ishlab chiqarish natijalariga ta’sir etuvchi tasodifiy omillarni, xo‘jaliklar o‘rtasidagi tabiiy va tarkibiy farqlarni hamda resurslardan foydalanishdagi samarasizlikni alohida tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklari faoliyati ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi. Jumladan, yerlarning unumdorligi, suv bilan ta’minlanganlik darajasi, iqlim sharoitlari, ishlab chiqarish texnologiyalari, mehnat resurslarining malakasi, kapital bilan ta’minlanganlik va boshqaruv sifati xo‘jaliklarning yakuniy natijalarida sezilarli tafovutlarni yuzaga keltiradi. Ushbu omillarning ayrimlari xo‘jaliklarning uzoq muddat davomida o‘zgarmaydigan xususiyatlarini aks

ettirsa, boshqalari vaqt davomida o‘zgarib turadi. Bundan tashqari, kutilmagan ob-havo hodisalari, zararkunandalar, kasalliklar va boshqa oldindan to‘liq bashorat qilib bo‘lmaydigan holatlar ham ishlab chiqarish natijalariga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli xo‘jaliklar faoliyatidagi barcha salbiy og‘ishlarni samarasizlik sifatida baholash metodologik jihatdan to‘g‘ri emas.Panel ma’lumotlarga asoslangan ekonometrik modellar, xususan, stoxastik ishlab chiqarish chegarasi modellari muhim o‘rin tutadi. Panel ma’lumotlar bir xo‘jalik bo‘yicha bir nechta vaqt davrlarida kuzatilgan ko‘rsatkichlarni birlashtirib, xo‘jaliklararo farqlarni hamda vaqt davomida yuz beradigan o‘zgarishlarni birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv ishlab chiqarish hajmi va resurslar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash bilan birga, kuzatilgan natijalarning ishlab chiqarish chegarasidan chetlanish sabablarini ham chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklarga xos kuzatilmaydigan geterogenlik va texnik samarasizlikni alohida komponentlar sifatida modellashtirish ishlab chiqarish samaradorligini xolis baholash uchun zarur shart hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini baholash, tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va texnik samarasizlikni o‘zaro farqlash masalalari ekonometrik tahlilning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalalar iqtisodiy samaradorlik nazariyasi, ishlab chiqarish funksiyalari, stoxastik ishlab chiqarish chegarasi modellari hamda panel ma’lumotlar asosida ekonometrik baholash usullari doirasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi ishlab chiqarish natijalariga ta’sir etuvchi tasodifiy omillarni korxonalarning doimiy tarkibiy xususiyatlari va boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq samarasizlikdan ajratish, shuningdek, samaradorlik darajasining vaqt davomida o‘zgarishini aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

Ishlab chiqarish samaradorligini nazariy va metodologik jihatdan o‘rganishda Farrell (1957) tomonidan taklif etilgan[1] yondashuv muhim ahamiyatga ega. Olim iqtisodiy samaradorlikni texnik va taqsimot samaradorligi kabi tarkibiy qismlarga ajratish orqali korxonalarning mavjud resurslardan foydalanish darajasini baholashga asos yaratgan. Mazkur yondashuv keyinchalik ishlab chiqarish chegaralarini aniqlash va xo‘jaliklarning samaradorligini miqdoriy baholash[9] usullarining rivojlanishiga turtki bergan. Aigner, Lovell va Schmidt (1977), shuningdek, Meeusen va van den Broeck (1977) tomonidan ishlab chiqilgan stoxastik ishlab chiqarish chegarasi modellari[8] esa ishlab chiqarish natijalaridagi tasodifiy o‘zgarishlar bilan texnik samarasizlikni alohida komponentlar orqali ifodalash imkonini yaratgan. Ushbu tadqiqotlar samaradorlikni baholashda tasodifiy shovqin va samarasizlikni bir-biridan farqlashga asoslangan zamonaviy ekonometrik yondashuvlarning shakllanishida fundamental nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan[10].

Keyingi tadqiqotlarda stoxastik ishlab chiqarish chegarasi modellarini panel ma’lumotlarga tatbiq etish, xo‘jaliklararo farqlarni hisobga olish va texnik samaradorlikning vaqt bo‘yicha dinamikasini aniqlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan[5]. Pitt va Lee (1981) rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarish korxonalarining samaradorligini panel ma’lumotlar asosida tahlil qilishga oid muhim tadqiqotlar olib borgan. Schmidt va Sickles (1984) esa ishlab chiqarish chegaralarini panel ma’lumotlar yordamida baholashning muqobil usullarini taklif etib[3], xo‘jaliklarga xos doimiy farqlarni hisobga olish imkoniyatlarini kengaytirgan[1]. Ushbu tadqiqotlar samaradorlikni baholashda vaqt qatori va ko‘ndalang kesim ma’lumotlarini birgalikda qo‘llashning afzalliklarini asoslab bergan[4]. Shu bilan birga, mazkur yondashuvlarda xo‘jalikka xos doimiy xususiyatlar bilan texnik samarasizlik o‘rtasidagi farqni aniqlash modelning tanlangan spetsifikatsiyasi va identifikatsiya shartlariga bog‘liq ekanligi namoyon bo‘ladi[2].

Tadqiqot metodologiyasi

Metodologik asosini qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyati samaradorligini baholashda tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va texnik samarasizlikni alohida komponentlar sifatida ajratishga imkon beruvchi stoxastik ishlab chiqarish chegarasi tahlili hamda panel

ekonometrik modellar tashkil etadi. Tadqiqotda tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, parametrlarni statistik baholash va muqobil model spetsifikatsiyalarini taqqoslash usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Ushbu metodologik yondashuv qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishlab chiqarish natijalariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, kuzatilmaydigan individual xususiyatlarni hisobga olish va texnik samaradorlik darajasini miqdoriy baholash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va samarasizlikni alohida baholovchi panel modellar tizimi qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyati va ishlab chiqarish unumdorligini baholashga qaratilgan ilg‘or ekonometrik yondashuv hisoblanadi. Mazkur yondashuv kuzatilayotgan natijalarning shakllanishiga ta’sir etuvchi turli omillarni bir-biridan ajratish imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligida xo‘jaliklar faoliyatining natijalari ob-havo sharoitlari, tuproq unumdorligi, sug‘orish imkoniyatlari, texnologik rivojlanish, mehnat resurslarining sifati, kapital qo‘yilmalar, boshqaruv usullari va ishlab chiqarish ko‘lamidagi farqlar kabi ko‘plab omillarga bog‘liq.

1-rasm.

Panel modellar asosida samaradorlikni baholash tizimi*



*Muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu omillar barcha xo‘jaliklarga bir xil darajada ta’sir ko‘rsatmaydi va ularning ta’siri iqtisodiy, ekologik hamda institutsional sharoitlarning o‘zgarishi natijasida vaqt davomida farqlanishi mumkin. Shu sababli an’anaviy statistik usullar yordamida xo‘jaliklar samaradorligini baholashda tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklar o‘rtasidagi tarkibiy farqlar va haqiqiy samarasizlik holatlari aniq ajratilmasa, noto‘g‘ri xulosalar kelib chiqishi mumkin.

Tasodifiy tebranishlar modelga kiritilgan tushuntiruvchi o‘zgaruvchilar orqali to‘liq izohlab bo‘lmaydigan, ishlab chiqarish natijalaridagi oldindan aniq bashorat qilish qiyin bo‘lgan o‘zgarishlarni ifodalaydi. Qishloq xo‘jaligida bunday tebranishlar kutilmagan yog‘ingarchilik, qurg‘oqchilik, zararkunandalar tarqalishi, o‘simlik kasalliklari, texnik vositalarning vaqtincha ishdan chiqishi, o‘lchash xatolari va boshqa tasodifiy hodisalar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Ushbu o‘zgarishlarni avtomatik ravishda boshqaruv sifati pastligi yoki resurslardan samarasiz foydalanish belgisi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Masalan, ikkita fermer xo‘jaligi yer, mehnat,

mineral o‘g‘itlar, texnika va sug‘orish suvidan bir xil miqdorda foydalanishi mumkin, biroq noqulay ob-havo sharoitlari tufayli ulardan biri kamroq hosil olishi ehtimoli mavjud. Agar bunday tafovutlar tegishli ravishda hisobga olinmasa, noqulay ob-havo ta’siriga uchragan xo‘jalik asossiz ravishda samarasiz deb baholanishi mumkin. Shu sababli puxta ishlab chiqilgan panel model ishlab chiqarishning nazariy yoki empirik bog‘liqligidan tasodifiy chetlanishlarni ifodalovchi xatolik komponentini o‘z ichiga oladi. Modelning spetsifikatsiyasiga qarab, ushbu komponent normal taqsimot yoki ma’lumotlar xususiyatlariga mos keladigan boshqa ehtimollik taqsimoti asosida modellashtirilishi mumkin.

Samarasizlik tasodifiy tebranishlar va tarkibiy geterogenlikdan mazmunan farq qiladi. U qishloq xo‘jaligi korxonasining mavjud resurslar va ishlab chiqarish texnologiyasi sharoitida erishish mumkin bo‘lgan maksimal ishlab chiqarish hajmidan past natijaga erishishi yoki muayyan ishlab chiqarish hajmini ta’minlash uchun zarur bo‘lganidan ortiq resurs sarflashi bilan tavsiflanadi. Texnik samarasizlik resurslarni noto‘g‘ri taqsimlash, eskirgan texnikalardan foydalanish, texnologik bilimlarning yetishmasligi, sug‘orishni samarasiz boshqarish, ishlab chiqarishni rejalashtirishdagi kamchiliklar, resurslarning maqbul nisbatini tanlamaslik yoki tashkiliy boshqaruvdagi muammolar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Tasodifiy tashqi ta’sirlardan farqli ravishda, samarasizlik ko‘pincha ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish usullaridagi tizimli kamchiliklarni ifodalaydi va tegishli boshqaruv choralari orqali kamaytirilishi mumkin.

2-rasm.

Samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni ajratish*



*Muallif tomonidan tuzilgan.

Uni aniqlash muhim ahamiyatga ega, chunki bu yer, mehnat, kapital, mineral o‘g‘itlar yoki suv sarfini majburiy ravishda oshirmasdan ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Stoxastik ishlab chiqarish chegarasi tahlili tasodifiy xatoliklarni texnik samarasizlikdan ajratish uchun mos metodologik yondashuv hisoblanadi. Ishlab chiqarish chegarasi modelida kuzatilgan mahsulot hajmi ishlab chiqarish resurslari funksiyasi, tasodifiy xatolik komponenti va

manfiy bo‘lmagan samarasizlik komponenti orqali ifodalanadi. Umumiy model quyidagicha yozilishi mumkin:

$$y_{it} = f(X_{it}, \beta) + \mu_i + v_{it} - u_{it}$$

bu yerda y_{it}- t-davrda i-xo‘jalik tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; XitXit - ishlab chiqarish resurslari vektori; $f(\cdot)$ - ishlab chiqarish chegarasi funksiyasi; β - baholanishi lozim bo‘lgan parametrlar vektori; v_{it} - tasodifiy tebranishlarni ifodalovchi xatolik komponenti; $u_{it} \geq 0$ esa texnik samarasizlikni ifodalaydi. Logarifmik shakldagi ushbu model ishlab chiqarish hajmi va resurslar musbat bo‘lgan hamda tanlangan ishlab chiqarish funksiyasi logarifmik o‘zgartirishga mos keladigan hollarda qo‘llaniladi. Tenglamada u_{it} oldidagi manfiy ishora samarasizlik kuzatilgan ishlab chiqarish hajmini ishlab chiqarish chegarasiga nisbatan kamaytirishini bildiradi.

Panel ma’lumotlardan foydalanish qo‘shimcha metodologik masalani, ya’ni samarasizlikning vaqt davomida o‘zgarishini hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayrim xo‘jaliklar boshqaruvdagi doimiy kamchiliklar tufayli ishlab chiqarish chegarasidan muntazam ravishda past natija ko‘rsatishi mumkin. Boshqa xo‘jaliklar esa zamonaviy texnikalarga investitsiya kiritish, takomillashtirilgan urug‘liklardan foydalanish, xodimlarni o‘qitish yoki sug‘orish tizimini yaxshilash natijasida o‘z samaradorligini oshirishi mumkin. Shu sababli vaqt davomida o‘zgarmaydigan samarasizlik bilan vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi samarasizlikni ajratish muhimdir. Vaqt davomida o‘zgarmaydigan samarasizlik modellarida xo‘jalikning samarasizlik darajasi kuzatuv davri davomida barqaror deb qaraladi. Vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi modellar esa samaradorlik darajasining davrlar kesimida o‘zgarishiga imkon beradi. Ikkinchi yondashuv qishloq xo‘jaligi uchun ayniqsa muhim, chunki texnologik innovatsiyalar, iqlim o‘zgaruvchanligi, bozor sharoitlari, agrar siyosat va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari xo‘jaliklar faoliyatiga vaqt davomida sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa

Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatining samaradorligini baholashda tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va texnik samarasizlikni bir-biridan ajratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarish natijalaridagi farqlar har doim ham resurslardan samarasiz foydalanish yoki boshqaruvdagi kamchiliklar bilan bog‘liq bo‘lmaydi.

Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan nazariy va metodologik yondashuvlar stoxastik ishlab chiqarish chegarasi tahlili qishloq xo‘jaligi korxonalarining texnik samaradorligini baholash uchun muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv kuzatilgan ishlab chiqarish hajmini ishlab chiqarish chegarasi, tasodifiy xatolik va texnik samarasizlik komponentlari orqali ifodalash imkonini beradi. Bunda tasodifiy tebranishlar ishlab chiqarish natijalariga ta’sir qiluvchi oldindan to‘liq bashorat qilib bo‘lmaydigan hodisalarni aks ettirsa, texnik samarasizlik mavjud resurslar va texnologiyalar sharoitida erishilishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish darajasiga nisbatan past natijani ifodalaydi. Mazkur komponentlarni farqlash xo‘jaliklar faoliyatiga xolis baho berish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash uchun zarur metodologik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schmidt, P., Sickles, R. C. Production Frontiers and Panel Data // Journal of Business & Economic Statistics.

2. Battese, G. E., Coelli, T. J. A Model for Technical Inefficiency Effects in a Stochastic Frontier Production Function for Panel Data // Empirical Economics. - 1995. - Vol. 20. - P. 325–332.

3. Greene, W. Reconsidering Heterogeneity in Panel Data Estimators of the Stochastic Frontier Model // Journal of Econometrics. - 2005. - Vol. 126, No. 2. - P. 269–303.

4. Coelli, T. J., Rao, D. S. P., O’Donnell, C. J., Battese, G. E. An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis. - 2nd ed. - New York: Springer, 2005.

5. Kumbhakar, S. C., Wang, H.-J., Horncastle, A. P. A Practitioner’s Guide to Stochastic Frontier Analysis Using Stata. - Cambridge: Cambridge University Press, 2015.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

6. Kumbhakar, S. C., Lovell, C. A. K. Stochastic Frontier Analysis. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
7. Greene, W. H. Econometric Analysis. - 7th ed. - Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2012.
8. Lovell, C. A. K. Production Frontiers and Productive Efficiency // The Measurement of Productive Efficiency: Techniques and Applications / Ed. by H. O.
9. Wang, H.-J., Schmidt, P. One-Step and Two-Step Estimation of the Effects of Exogenous Variables on Technical Efficiency Levels // Journal of Productivity Analysis. — 2002.
10. Kumbhakar, S. C. Efficiency Measurement: What Should We Do? // The Oxford Handbook of Productivity Analysis / Ed. by E. Grifell-Tatjé, C. A. K. Lovell, R. Sickles. - Oxford: Oxford University Press, 2018.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Baxromov Azizbek Alisher o‘g‘li
mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Andijon fakulteti
E-mail: aliwerovichazizbek@gmail.com
ORCID: 0000-0001-6297-0828

Annotatsiya. *Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari Andijon viloyati misolida yoritiladi. Tadqiqotning axborot-uslubiy asosini muallifning “To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari (Andijon viloyati misolida)” mavzusidagi PhD dissertatsiyasi avtoreferatida keltirilgan natijalar tashkil etadi. Korxona samaradorligini baholashda mahsulot diversifikatsiyasi, texnologik, ijtimoiy, innovatsion va marketing omillarini birlashtiruvchi ko‘p omilli indikatorlar yondashuvi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, to‘qimachilik sanoati, iqtisodiy samaradorlik, raqamli texnologiyalar, diversifikatsiya, innovatsiya, marketing, klister.*

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Бахромов Азизбек Алишер угли
старший преподаватель кафедры социальных, гуманитарных и точных наук
доктор философии по экономических наук (PhD)
Ташкентский государственный экономический университет, Андижанский факультет
E-mail: aliwerovichazizbek@gmail.com
ORCID: 0000-0001-6297-0828

Аннотация. *В статье рассматриваются направления повышения экономической эффективности предприятий текстильной промышленности в условиях цифровой экономики на примере Андижанской области. Информационно-методическую основу составляют результаты, изложенные в автореферате диссертации PhD «Пути повышения экономической эффективности предприятий текстильной промышленности (на примере Андижанской области)». Рассматривается многофакторный подход к оценке эффективности, объединяющий диверсификацию продукции, технологические, социальные, инновационные и маркетинговые факторы.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, текстильная промышленность, экономическая эффективность, цифровые технологии, диверсификация, инновации, маркетинг, кластер.*

MECHANISMS FOR ENHANCING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY

Bakhromov Azizbek Alisher ugli
Senior Lecturer, Department of Specialized, Socio-Humanitarian, and Exact Sciences,

Doctor of Philosophy (PhD) in Economics,
Tashkent State University of Economics, Andijan Faculty
E-mail: aliwerovichazizbek@gmail.com
ORCID: 0000-0001-6297-0828

Abstract. *The article examines ways to improve the economic efficiency of textile enterprises in the digital economy, using Andijan region as a case study. Its methodological and informational basis is the evidence presented in the author's PhD dissertation abstract, “Ways to Improve the Economic Efficiency of Textile Industry Enterprises (on the Example of Andijan Region).” A multi-factor approach combining product diversification, technological, social, innovation and marketing factors is discussed.*

Keywords: *digital economy, textile industry, economic efficiency, digital technologies, diversification, innovation, marketing, cluster.*

Kirish

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi tobora ko‘proq ishlab chiqarish resurslaridan qay darajada oqilona foydalanish, bozor talabini tezkor aniqlash va boshqaruv qarorlarini ishonchli ma’lumotlar asosida qabul qilishga bog‘liq bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish, xomashyo harakatini nazorat qilish, uskunalardan foydalanish darajasini baholash, buyurtmalarni rejalashtirish va sotuv kanallarini boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli raqamlashtirishni faqat axborot tizimlarini sotib olish bilan cheklamasdan, korxonaning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv tizimini o‘zgartiruvchi omil sifatida ko‘rish lozim.

To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston sanoatida ishlab chiqarish, bandlik va eksport salohiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim yo‘nalishlardan biridir. Tarmoqda xomashyoni qayta ishlashdan boshlab ip-kalava, mato, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni bozorga yetkazishgacha bo‘lgan bosqichlar o‘zaro bog‘langan. Zanjirning bir bosqichidagi uzilish yoki resurslardan samarasiz foydalanish butun korxona va klaster natijalariga ta’sir qiladi. Raqamli yechimlar ushbu jarayonlarni muvofiqlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini aniqroq rejalashtirish va xarajatlarni nazorat qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Andijon viloyati to‘qimachilik sanoati korxonalari misolida raqamli texnologiyalar, diversifikatsiya hamda texnologik, ijtimoiy, innovatsion va marketing omillarini uyg‘unlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini asoslash. Maqola muallifning avtoreferatida keltirilgan ma’lumot va xulosalarga tayangan holda tayyorlandi; avtoreferatda bo‘lmagan alohida statistik ko‘rsatkichlar fakt sifatida kiritilmadi.

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy samaradorlik nazariyasida resurs sarfi va olingan natija o‘rtasidagi nisbat markaziy o‘rin tutadi. Zamonaviy yondashuvlarda samaradorlikni faqat ishlab chiqarish hajmi yoki moliyaviy natija bilan cheklamasdan, texnologik yangilanish, xodimlar salohiyati, innovatsion faollik, mahsulot tarkibi va bozor bilan ishlash sifatini ham hisobga olish tavsiya etiladi. Muallif avtoreferatida keltirilgan xorijiy tadqiqotlarda korxonalar samaradorligi, yashil innovatsiyalar, Industry 4.0 texnologiyalarini integratsiyalash hamda kichik va o‘rta korxonalarda barqaror rivojlanish masalalariga e’tibor qaratilgan [1–4].

Chan, Ramly va Mustapha tadqiqotida iqtisodiy samaradorlik bilan boshqaruv institutlari o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilgan [1]. Shahin va hammualliflar yashil innovatsiyalarni joriy etishdagi to‘siqlar hamda ularni bartaraf etish strategiyalarini tahlil qilgan [2]. Patel va Vinodh Industry 4.0 hamda qo‘shimcha ishlab chiqarish texnologiyalarini integratsiyalash masalalarini ko‘rib chiqqan [3]. Nam va hammualliflarning ishida ishlab chiqarish sektoridagi kichik va o‘rta korxonalar barqarorligini baholash uchun ko‘p mezonli yondashuv qo‘llanilgan [4]. Ushbu tadqiqotlar raqamlashtirish samaradorligini texnologik yangilanishning o‘zi bilan emas, balki

boshqaruv va tashkiliy sharoitlar bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda sanoat korxonalarida xarajatlarni qisqartirish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va samaradorlikni oshirish mexanizmlariga e’tibor berilgan. Avtoreferatda Sh.B. Donayevning xarajatlarni qisqartirish, Sh.A. Sulaymanovaning to‘qimachilik sanoatida innovatsion texnologiyalar, A. Avazovning sanoat korxonalari samaradorligi mexanizmlariga oid ishlari qayd etiladi [5]. Shunga qaramay, hududiy darajada raqamli texnologiyalarni mahsulot diversifikatsiyasi, kadrlar, innovatsiya va marketing indikatorlari bilan yagona baholash tizimida birlashtirish masalasi amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, raqamli iqtisodiyot sharoitida samaradorlikni oshirish uchun alohida texnologik vositalarni joriy etishning o‘zi yetarli emas. Texnologik yangilanish ishlab chiqarish rejalashtirish, malakali kadrlar, innovatsion mahsulotlar, bozor monitoringi va sotuv kanallari bilan bog‘langandagina barqaror natija beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy va taqqoslama tahlil, statistik-iqtisodiy tahlil, omilli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy umumlashtirish hamda iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish tamoyillari tashkil etadi. Axborot bazasi sifatida muallif avtoreferatida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Andijon viloyati statistika boshqarmasi va “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi ma’lumotlariga asoslangan natijalar olindi.

Samaradorlikni kompleks baholashda avtoreferatda taklif etilgan ko‘p tarmoqli indikatorlar metodikasi asos qilib olindi. Unda mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash indeksi (DI), texnologik omillar indeksi (T), ijtimoiy omillar indeksi (Ij), innovatsion omillar indeksi (In) va marketing omillari indeksi (M) o‘zaro bog‘liq holda qaraladi. Umumiy iqtisodiy samaradorlik quyidagi funksional munosabat bilan ifodalanadi:

$$E = f(DI, T, Ij, In, M)$$

Bu yerda DI — mahsulot turlari bo‘yicha diversifikatsiya darajasi; T — texnologik omillar; Ij — ijtimoiy omillar; In — innovatsion omillar; M — marketing omillari. Avtoreferatda yakuniy samaradorlik modeli $E = \lambda_0 + \lambda_1 DI + \lambda_2 T + \lambda_3 Ij + \lambda_4 In + \lambda_5 M$ ko‘rinishida berilgan. λ koeffitsiyentlari har bir omilning samaradorlikka ta’sir kuchini ifodalaydi. Muayyan korxona bo‘yicha koeffitsiyentlarni hisoblash uchun alohida birlamchi ma’lumotlar talab etiladi; maqolada avtoreferatda berilgan metodik yondashuv izohlanadi.

Tahlil va natijalar

Andijon viloyatida to‘qimachilik korxonalari sonining o‘zgarishi va qiyosiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan to‘qimachilik sanoati korxonalari soni 2018-yildagi 1 343 tadan 2026-yilda 2 383 taga yetgan. Bu davrda ko‘rsatkich 77,4 foizga oshgan. Andijon viloyatida esa korxonalar soni 118 tadan 346 taga ko‘payib, 193,2 foizga o‘sgan. Viloyatning respublikadagi to‘qimachilik korxonalari sonidagi ulushi 2018-yildagi 8,8 foizdan 2026-yilda 14,5 foizgacha ko‘tarilgan (1-jadval).

1-jadval

Andijon viloyatida to‘qimachilik korxonalari sonining o‘zgarishi*

Ko‘rsatkich	2018-yil	2026-yil	O‘zgarish
O‘zbekiston bo‘yicha to‘qimachilik korxonalari	1 343	2 383	+77,4%
Andijon viloyatidagi to‘qimachilik korxonalari	118	346	+193,2%
Andijon viloyatining respublikadagi ulushi	8,8%	14,5%	+5,7 foiz punkt

*Manba: muallif avtoreferatidagi 2018–2026-yillar bo‘yicha qiyosiy jadval asosida tuzildi.

Mazkur o‘sish Andijon viloyatida to‘qimachilik faoliyati ko‘lamining kengayganini va hududning respublika tarmog‘idagi ulushi ortganini ko‘rsatadi. Biroq korxonalar sonining ko‘payishi o‘z-o‘zidan yuqori samaradorlikni anglatmaydi. Natijaga erishish uchun ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, xomashyo va energiya sarfi, mahsulot sifati, mehnat

unumdorligi, buyurtmalarni bajarish muddati hamda sotuv samaradorligini birgalikda boshqarish zarur. Shu nuqtada raqamli iqtisodiyot vositalari korxonalarning kundalik operatsiyalarini o‘lchash va muammoli bo‘g‘inlarni aniqlash uchun asos yaratadi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish, energiya hamda resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va eksportga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qayd etilgan. Shundan kelib chiqib, korxonada raqamlashtirish loyihasining natijasi faqat o‘rnatilgan dasturiy ta’minot yoki avtomatlashtirilgan uskunalar soni bilan emas, balki amaliy ko‘rsatkichlar — ishlab chiqarish sikli davomiyligi, brak darajasi, uskunalarning bekor turishi, bir birlik mahsulotga sarflangan energiya va buyurtmani o‘z vaqtida bajarish ulushi bilan baholanishi lozim.

Ko‘p omilli indikatorlar tizimining amaliy ahamiyati Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari uchun texnologik T≥0,36, ijtimoiy Ij≥0,59, innovatsion In≥0,63 va marketing M≥0,71 indekslari hamda umumiy iqtisodiy samaradorlik E≥0,63 darajasi ilmiy asoslangan ko‘rsatkichlar sifatida keltirilgan. Ushbu qiymatlar muallifning avtoreferatida berilgan tadqiqot natijalari bo‘lib, ularni boshqa hudud yoki korxonaga tekshiruvsiz universal me’yor sifatida ko‘chirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ularning amaliy qiymati korxonalarga samaradorlikni faqat moliyaviy yakunlar orqali emas, bir nechta omil bo‘yicha baholash zarurligini ko‘rsatishidadir.

Texnologik indeksni oshirish uchun asosiy vositalarni yangilash, avtomatlashtirish va energiya tejamkor yechimlarni qo‘llash muhim. Ijtimoiy indeks bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik, xavfsiz mehnat sharoitlari va xodimlarning yangi texnologiyalarga moslashuvchanligi e’tiborga olinadi. Innovatsion indeks yangi mahsulotlar yaratish, ilmiy-tadqiqot faoliyati va ishlab chiqarishdagi yangiliklarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq. Marketing indeksi esa talabni o‘rganish, brendga sarmoya kiritish va sotuv kanallarini kengaytirish qobiliyatini aks ettiradi.

Klasterli yondashuv korxonalar o‘rtasida xomashyo, qayta ishlash, tayyor mahsulot, logistika, infratuzilma va bozor resurslarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Avtoreferatda Xo‘jaobod, Asaka va Buloqboshi tumanlarida to‘qimachilik klasterlari faoliyatini konsentratsiyalash orqali ishlab chiqarish zanjirining uzluksizligini ta’minlash va ortiqcha xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari asoslangan. Shuningdek, uyushma tarkibidagi korxonalarda ayrim jarayonlar bo‘yicha ortiqcha xarajatlarni 20 foizgacha optimallashtirish natijasi keltirilgan.

Raqamli klaster modelida ishtirokchilar buyurtmalar, xomashyo qoldiqlari, ishlab chiqarish rejalari, yetkazib berish muddati va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashtirilgan ma’lumot almashishi mumkin. Bunda tijorat siri, ma’lumotlarga kirish huquqi va kiberxavfsizlik talablarini oldindan belgilash zarur. Umumiy raqamli platforma korxonalarning mustaqil tijorat qarorlarini almashtirmasligi, balki hamkorlik va zanjir uzluksizligini yaxshilashga xizmat qilishi kerak.

2030-yilgacha rivojlanish prognozlari va boshqaruv qarorlari Andijon viloyati to‘qimachilik sanoati korxonalarining mahsulot iste’moli va ishlab chiqarish dinamikasiga ta’sir qiluvchi omillar baholanib, 2030-yilgacha optimistik, pessimistik va mobilizatsion ssenariylar bo‘yicha prognoz parametrlarini ishlab chiqish qayd etilgan. Ssenariyli prognozlashning ahamiyati — noaniqlik sharoitida yagona qat’iy raqamga tayanib qolmasdan, turli bozor sharoitlariga mos qarorlar tayyorlash imkoniyatidadir.

Raqamli boshqaruv tizimida prognozlar muntazam yangilanib turishi lozim. Buyurtmalar portfeli, xomashyo narxi, energiya xarajatlari, eksport bozorlaridagi talab va valyuta omillari o‘zgarishi bilan ishlab chiqarish rejasi ham qayta ko‘rib chiqiladi. Optimistik ssenariy quvvatlardan to‘liqroq foydalanish va yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini; pessimistik ssenariy talab qisqarishi yoki xarajatlar oshishiga moslashishni; mobilizatsion ssenariy esa mavjud ichki resurslarni safarbar etish va operatsion intizomni kuchaytirishni ifodalashi mumkin. Bular ssenariylarning umumiy talqini bo‘lib, aniq miqdoriy prognozlar avtoreferatda keltirilgan hisob-kitoblarga muvofiq talqin qilinishi kerak.

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tadqiqot natijalari asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmini o‘zaro bog‘langan besh bosqichda tashkil etish taklif etiladi:

1. Diagnostika: ishlab chiqarish jarayonlari, xarajatlar tarkibi, uskunalarning bandligi, xodimlar salohiyati, mahsulot tarkibi va sotuv kanallari bo‘yicha boshlang‘ich ko‘rsatkichlarni aniqlash.

2. Ustuvorlashtirish: ko‘p omilli indikatorlar asosida eng katta cheklov mavjud bo‘lgan yo‘nalishni belgilash va raqamlashtirish loyihalarini kutilayotgan iqtisodiy samara bo‘yicha tartiblash.

Mazkur mexanizmda raqamlashtirish xarajatlari iqtisodiy natijalar bilan solishtirib borilishi zarur. Loyiha samaradorligini baholashda dasturiy ta’minot va uskunalar qiymati bilan bir qatorda integratsiya, texnik xizmat, kiberxavfsizlik, xodimlarni tayyorlash va jarayonlarni qayta tashkil etish xarajatlari ham hisobga olinadi. Natijalar esa ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlar, bekor turish, brak, ombor zaxiralari, buyurtmalarni bajarish muddati va sotuv hajmi kabi o‘lchanadigan mezonlar orqali kuzatiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, 2018–2026-yillarda Andijon viloyatida to‘qimachilik sanoati korxonalari soni 118 tadan 346 taga ko‘paygan, viloyatning respublikadagi ulushi esa 8,8 foizdan 14,5 foizgacha oshgan. Bu hududda tarmoq faoliyati ko‘lami kengayganini ko‘rsatadi, biroq samaradorlikni alohida ko‘rsatkichlar bilan muntazam baholash zarur.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish rejalashtirish, ombor va xomashyo nazorati, uskunalardan foydalanish, sifat nazorati va sotuv jarayonlarini o‘zaro bog‘lash orqali samaradorlikka xizmat qilishi mumkin.

Uchinchidan, mahsulot diversifikatsiyasi, texnologik yangilanish, xodimlar salohiyati, innovatsiya va marketingni birlashtiruvchi ko‘p omilli indikatorlar tizimi korxonaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Avtoreferatda berilgan $T \geq 0{,}36$, $Ij \geq 0{,}59$, $In \geq 0{,}63$, $M \geq 0{,}71$ va $E \geq 0{,}63$ qiymatlari muallif tadqiqotining natijalari sifatida ko‘rilishi, boshqa sharoitlarga qo‘llashdan oldin qayta tekshirilishi lozim.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligi texnologik yangilanishning o‘zi bilan emas, balki raqamli boshqaruv, mahsulot tarkibini oqilona shakllantirish, inson kapitali, innovatsion faollik va bozor strategiyasining o‘zaro uyg‘unligi orqali oshadi. Andijon viloyati tajribasi hududiy sanoat siyosatini ishlab chiqishda ko‘p omilli indikatorlar va klaster yondashuvini qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chan S.-G., Ramly Z., Mustapha M. Z. Value-added tax and economic efficiency: Role of country governance. Panoeconomicus. 2021. Vol. 68(3). P. 325–358. DOI: 10.2298/PAN180201020C.

2. Shahin V., Alimohammadlou M., Abbasi A. Identifying and prioritizing the barriers to green innovation in SMEs and the strategies to counteract the barriers: an interval-valued intuitionistic fuzzy approach. Technological Forecasting and Social Change. 2024. Vol. 204. Article 123408. DOI: 10.1016/j.techfore.2024.123408.

3. Patel D., Vinodh S. Analysis of technologies enabling additive manufacturing and Industry 4.0 integration for SMEs using MCDM tool. International Journal of Process Management and Benchmarking. 2024. Vol. 16. P. 281–295. DOI: 10.1504/IJPMB.2024.136482.

4. Nam H., Cho Y., Kim J., Joo Y., Nam H. An analytic hierarchy process for the sustainable development of small-and medium-sized enterprises in the manufacturing sector, South Korea. Environmental Development and Sustainability. 2024. DOI: 10.1007/s10668-024-05860-3.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

5. Baxromov A.A. To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari (Andijon viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon, 2026.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

РЫНОК РАССРОЧКИ (BNPL) И РОЗНИЧНОЕ КРЕДИТОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: РОСТ, СКРЫТАЯ СТОИМОСТЬ И РИСКИ ЗАКРЕДИТОВАННОСТИ



Гулямова Асия Нурутдиновна
старший преподаватель кафедры «Макроэкономическая политика и устойчивое развитие», Ташкентский филиал Российского экономического университета имени Г.В. Плеханова
E-mail: gulyamova.asiya@mail.ru

Аннотация. *В статье анализируется рост розничного кредитования и рынка рассрочки (BNPL) в Узбекистане в 2024–2026 гг. Рассчитана эффективная годовая стоимость рассрочки, показано её занижение номинальной наценкой, оценено влияние неучтённых обязательств на долговую нагрузку заёмщиков. Предложены меры по совершенствованию регулирования рынка рассрочки и защите потребителей.*

Ключевые слова: *рассрочка, BNPL, розничное кредитование, микрозаймы, долговая нагрузка, показатель долговой нагрузки, эффективная процентная ставка, проблемные кредиты, кредитное бюро, финансовые технологии, защита прав потребителей, Узбекистан.*

O‘ZBEKISTONDA MUDDATLI TO‘LOV (BNPL) BOZORI VA CHAKANA KREDITLASH: O‘SISH, YASHIRIN QIYMAT VA ORTIQCHA QARZDORLIK XAVFLARI

Gulyamova Asiya Nurutdinovna
«Makroiqtisodiy siyosat va barqaror rivojlanish» kafedrasi katta o‘qituvchisi, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali
E-mail: gulyamova.asiya@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada 2024–2026-yillarda O‘zbekistonda chakana kreditlash va muddatli to‘lov (BNPL) bozorining o‘sishi tahlil qilingan. Muddatli to‘lovning samarali yillik qiymati hamda kredit byurosida hisobga olinmagan majburiyatlarning qarz oluvchilar qarz yukiga ta’siri baholangan. Bozorni tartibga solish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *muddatli to‘lov, BNPL, chakana kreditlash, mikroqarzlar, qarz yuki, qarz yuki ko‘rsatkichi, samarali foiz stavkasi, muammoli kreditlar, kredit byurosi, moliyaviy texnologiyalar, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, O‘zbekiston.*

BUY NOW, PAY LATER (BNPL) MARKET AND RETAIL LENDING IN UZBEKISTAN: GROWTH, HIDDEN COST AND OVER-INDEBTEDNESS RISKS

Gulyamova Asiya Nurutdinovna
Senior Lecturer, Department of Macroeconomic Policy and Sustainable Development, Tashkent Branch of Plekhanov Russian University of Economics
E-mail: gulyamova.asiya@mail.ru

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Abstract. *The article analyses retail lending and the buy now, pay later (BNPL) market in Uzbekistan in 2024–2026. The effective annual cost of instalments and the impact of unreported obligations on borrowers’ debt burden are estimated. Measures to improve regulation and consumer protection are proposed.*

Keywords: *buy now pay later, BNPL, retail lending, microloans, debt burden, debt service-to-income ratio, effective interest rate, non-performing loans, credit bureau, financial technology, consumer protection, Uzbekistan.*

Введение

Розничное кредитование стало одним из самых быстрорастущих сегментов финансового рынка Узбекистана. По данным Центрального банка, задолженность населения перед банками за шесть лет выросла более чем в пять раз и превысила 231 трлн сумов [6]. На 1 июля 2026 г. она достигла 235,9 трлн сумов против 196,4 трлн сумов годом ранее, то есть увеличилась за год на 20,1 % [9]. Доля кредитов физическим лицам в совокупном кредитном портфеле банков выросла до 36,7 %.

Параллельно с банковским кредитованием сформировался рынок рассрочки, или «купи сейчас — плати потом» (Buy Now, Pay Later, BNPL). Покупатель получает товар сразу и оплачивает его равными долями, а продавец или финансовая компания включает стоимость отсрочки в цену. Рассрочка удобна и доступна, оформляется за несколько минут через мобильное приложение, но до недавнего времени находилась вне банковского надзора, а сведения о ней почти не попадали в кредитное бюро [5].

Проблема исследования заключается в том, что быстрый рост рассрочки создает две скрытые угрозы: потребители недооценивают реальную стоимость отсрочки, а кредиторы и регулятор — фактическую долговую нагрузку заемщиков. Указом Президента от 14 августа 2026 г. рынок рассрочки с 1 января 2027 г. становится регулируемым [6], поэтому оценка этих рисков особенно актуальна.

Цель статьи — оценить масштаб розничного кредитования и рынка рассрочки в Узбекистане, рассчитать эффективную стоимость рассрочки и определить, как неучтенные обязательства искажают показатель долговой нагрузки.

Обзор литературы

Теоретической основой исследования служат работы по информационной асимметрии на кредитном рынке и поведенческой экономике. Дж. Стиглиц и Э. Вайс показали, что из-за неполноты информации о заемщиках кредиторы не могут точно оценить риск и рынок кредита работает неэффективно [1]. Применительно к рассрочке эта проблема усиливается: если обязательства не отражаются в кредитной истории, каждый новый кредитор видит лишь часть долгов заемщика.

Д. Лэйбсон описал «гиперболическое дисконтирование» — склонность людей придавать чрезмерный вес немедленному потреблению и недооценивать будущие платежи [2]. Именно на этой особенности построена привлекательность рассрочки: товар можно получить сейчас, а платежи кажутся небольшими. Исследование Б. Гуттман-Кенни, К. Ферт и Дж. Гэзергуда на данных Великобритании показало, что значительная часть пользователей BNPL оплачивает рассрочку кредитной картой, то есть одно долговое обязательство финансируется другим [3]. Бюро финансовой защиты потребителей США (CFPB) в обзоре рынка BNPL выделило три группы рисков: недостаточное раскрытие информации, накопление долга по нескольким контрактам и недоступность данных о рассрочке для кредитных бюро [4].

В Узбекистане проблема долговой нагрузки активно обсуждается регулятором. Центральный банк установил для банковских кредитов и микрозаймов предельное значение показателя долговой нагрузки (ПДН) в 50 % среднемесячного дохода, ограничил максимальную переплату по микрозаймам 50 % в год и снизил предельную дневную ставку

с 0,3 до 0,25 % [7]. Однако научных работ, оценивающих стоимость рассрочки и ее влияние на долговую нагрузку на национальных данных, пока немного, что определяет новизну данного исследования.

Методология исследования

Исследование основано на данных Центрального банка Республики Узбекистан, опубликованных в 2025–2026 гг., и материалах о регулировании рынка рассрочки. Использованы методы структурного и сравнительного анализа, а также финансовой математики.

Эффективная стоимость рассрочки рассчитана как внутренняя норма доходности потока платежей. Если цена товара принята за 1, наценка за рассрочку равна m, а оплата производится n равными ежемесячными платежами, то месячная ставка r находится из уравнения:

$$1 = \Sigma\,[(1 + m) / n] / (1 + r)^k,\ \ k = 1, \ldots, n.$$

Номинальная годовая ставка равна 12r, эффективная годовая ставка — (1 + r)^12 − 1. Влияние неучтенных обязательств на долговую нагрузку оценено на условном примере заемщика, у которого банковские платежи соответствуют регулятивному лимиту, а платежи по рассрочке не отражены в кредитном бюро.

Анализ и результаты

Основные показатели розничного кредитования приведены в таблице 1.

Таблица 1.

Основные показатели розничного кредитования в Узбекистане

Показатель	Значение
Задолженность населения перед банками на 01.07.2025, трлн сумов	196,4
Задолженность населения перед банками на 01.07.2026, трлн сумов	235,9
Прирост за год, %	20,1
Доля кредитов населению в кредитном портфеле банков, %	36,7
Число заемщиков банков в 2024 г., млн чел.	4,7
Число заемщиков на 1000 жителей трудоспособного возраста	224
Средняя долговая нагрузка заемщиков в 2024 г., %	34
Доля заемщиков с ПДН выше 100 %, %	около 12
Проблемные кредиты (NPL) на 01.01.2026 / 01.07.2026, %	2,99 / 3,57

Источник: составлено автором по данным [8; 9; 10; 11]; прирост и доля рассчитаны автором.

Кредиты населению растут быстрее совокупного кредитного портфеля банков: за год к 1 июля 2026 г. — на 20,1 % против 11,8 % [9]. Еще быстрее увеличиваются проблемные кредиты: за первое полугодие 2026 г. портфель вырос на 6,4 %, а объем проблемных кредитов — на 27 %, с 18,1 до 22,9 трлн сумов [11]. Это означает, что качество кредитов ухудшается быстрее, чем растут объемы, и часть заемщиков уже испытывает трудности с обслуживанием долга. Структура кредитов населению показана нда рисунке 1.



Рисунок 1. Структура кредитов населению в Узбекистане на 1 мая 2026 г., трлн сумов (доля, %)

Источник: составлено автором по данным [10]; доли рассчитаны автором.

Хотя крупнейшей статьей остается ипотека (36,3 %), на микрозаймы и микрокредиты в совокупности приходится 40,9 % задолженности населения — 94,3 трлн сумов. Микрозаймы являются самым динамичным сегментом: в первом квартале 2025 г. их выдано на 18,7 трлн сумов, что в 2,29 раза больше, чем годом ранее, а доля микрофинансирования в выдачах физическим лицам достигла 69 % [7]. По данным регулятора, за 2024 г. число заемщиков по микрозаймам выросло на 37 % — до 2,3 млн человек [8].

Рынок рассрочки формально находится за пределами банковской статистики. На 1 января 2025 г. портфель обязательств по рассрочке составил 8,5 трлн сумов, причем 67 % его приходилось на торговые и иные компании, 26 % — на две микрофинансовые организации и лишь 7 % — на банки [5]. По расчету автора, это около 4,8 % задолженности населения перед банками на ту же дату, то есть сопоставимо с целым кредитным продуктом, сведения о котором почти не попадают в кредитное бюро. Ключевые показатели рынка и параметры нового регулирования сведены в таблице 2.

Таблица 2.

Рынок рассрочки в Узбекистане: показатели и регулирование

Показатель / параметр	**Значение**
Портфель рассрочки на 01.01.2025, трлн сумов	8,5
Доля небанковских компаний в портфеле, %	93
Число договоров рассрочки, заключенных в 2024 г., млн	1,9
Среднее число договоров на одного клиента	3
Клиенты, совершившие более 10 покупок в рассрочку, тыс. чел.	82
Рост доходов от услуг рассрочки за шесть лет, раз	25
Начало деятельности регулируемых операторов рассрочки	01.01.2027
Максимальный срок рассрочки, мес.	12
Предельная стоимость товара в рассрочку, БРВ	250
Предел штрафов и пеней, % годового платежа	50

Источник: составлено автором по данным [5; 6].

Наиболее важный для потребителя вопрос — реальная стоимость рассрочки. В публикациях о рынке приводится пример: смартфон в рассрочку на год обходится покупателю с переплатой около 40 % [6]. Номинально такая наценка выглядит как «40 % за год», однако покупатель начинает погашать долг уже в первый месяц, и средний размер долга за год примерно вдвое меньше цены товара. Расчет по приведенной выше формуле показывает, что наценке в 40 % при 12 ежемесячных платежах соответствует месячная ставка 5,6 %, номинальная годовая ставка 67,2 % и эффективная годовая ставка 92,3 % (рис. 2).



Рисунок 2. Наценка за рассрочку и соответствующие ей номинальная и эффективная годовые ставки при 12 ежемесячных платежах

Источник: расчет автора.

Даже умеренная наценка в 20 % соответствует эффективной ставке 41,3 % годовых, а наценка в 50 % — 121,8 %. Иными словами, указание в договоре только размера переплаты систематически занижает в восприятии покупателя стоимость отсрочки примерно в два раза. В сочетании с гиперболическим дисконтированием [2] это создает условия для чрезмерного использования рассрочки, что подтверждает и наличие 82 тыс. клиентов, оформивших более десяти договоров [5].

Второй риск связан с неполнотой информации о долгах. Банки и микрофинансовые организации проверяют ПДН заемщика по данным кредитного бюро, однако большинство обязательств по рассрочке в них не отражено [5]. Рассмотрим условный пример (табл. 3).

Таблица 3.

Влияние неучтенной рассрочки на долговую нагрузку (условный пример)

Показатель	**Видит кредитор**	**Фактически**
Среднемесячный доход, тыс. сумов	5 000	5 000
Платежи по банковским кредитам и микрозаймам, тыс. сумов	2 250	2 250
Платежи по трем договорам рассрочки (по 3 000 тыс. сумов с наценкой 40 % на 12 мес.), тыс. сумов	—	1 050
Итого платежи, тыс. сумов	2 250	3 300
Показатель долговой нагрузки, %	**45**	**66**

Источник: расчет автора; доход и параметры договоров приняты условно, среднее число договоров на клиента — по данным [5].

Заемщик формально соответствует лимиту ПДН в 50 % и может получить новый кредит, хотя его фактическая долговая нагрузка составляет 66 %. Всего три типичных договора рассрочки повышают ПДН на 21 п.п. Учитывая, что уже около 12 % заемщиков имеют ПДН выше 100 % [8], неучтенные обязательства могут быть одной из причин опережающего роста проблемных кредитов.

Новое регулирование отвечает на часть этих рисков: ограничивает срок рассрочки 12 месяцами, стоимость товара — 250 БРВ, штрафы — 50 % годового платежа, а также вводит реестр операторов при Центральном банке [6]. Вместе с тем, по оценкам экспертов, услуги рассрочки потенциально могут оказывать более тысячи организаций [6], поэтому эффективность регулирования будет зависеть от полноты передачи данных в кредитное бюро и прозрачности информации о стоимости.

Заключение

Проведенный анализ позволяет сделать следующие выводы. Во-первых, задолженность населения Узбекистана перед банками растет на 20 % в год и достигла 235,9 трлн сумов, при этом объем проблемных кредитов в первом полугодии 2026 г. увеличивался в четыре раза быстрее кредитного портфеля. Во-вторых, рынок рассрочки объемом 8,5 трлн сумов на 93 % находится вне банковского сектора и сопоставим примерно с 5 % банковских кредитов населению. В-третьих, наценка за рассрочку систематически занижает ее реальную стоимость: переплате в 40 % за год соответствует эффективная ставка 92,3 % годовых. В-четвертых, неучтенные платежи по рассрочке способны повысить фактическую долговую нагрузку заемщика на 20 п.п. и более.

На основе полученных результатов предлагается: обязать операторов рассрочки указывать в договоре и рекламе не только сумму переплаты, но и эффективную годовую ставку, рассчитанную по единой методике; обеспечить с 2027 г. обязательную передачу сведений обо всех договорах рассрочки в кредитное бюро и их учет при расчете ПДН; распространить лимит ПДН на крупные договоры рассрочки; развивать программы финансовой грамотности, объясняющие разницу между наценкой и процентной ставкой. Реализация этих мер позволит сохранить удобство рассрочки как финансовой технологии и одновременно снизить риски закредитованности населения.

Литература

1. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit rationing in markets with imperfect information // American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, № 3. – P. 393–410.

2. Laibson D. Golden eggs and hyperbolic discounting // Quarterly Journal of Economics. – 1997. – Vol. 112, № 2. – P. 443–477.

3. Guttman-Kenney B., Firth C., Gathergood J. Buy now, pay later (BNPL)… on your credit card // Journal of Behavioral and Experimental Finance. – 2023. – Vol. 37. – Art. 100788.

4. Consumer Financial Protection Bureau. Buy Now, Pay Later: Market trends and consumer impacts. – Washington, DC: CFPB, 2022. – 89 p.

5. Центробанк предложил ввести регулирование рынка рассрочки в Узбекистане — Ишметов // Spot.uz. – 2025. – 26 июня. – URL: https://www.spot.uz/ru/2025/06/26/cb-bnpl/ (дата обращения: 22.10.2026).

6. Рассрочка станет регулируемой с 2027 года. Что изменится для бизнеса и потребителей // Spot.uz. – 2026. – 27 августа. – URL: https://www.spot.uz/ru/2026/08/27/installment-plan/ (дата обращения: 22.10.2026).

7. Узбекистанцы в марте взяли микрозаймы на рекордные 7 трлн сумов — ЦБ // Spot.uz. – 2025. – 10 июля. – URL: https://www.spot.uz/ru/2025/07/10/microloans/ (дата обращения: 22.10.2026).

8. Уровень долговой нагрузки населения в Узбекистане достиг 34% // Kapital.uz. – 2025. – 5 июня. – URL: https://kapital.uz/uroven-dolgovoy-nagruzki/ (дата обращения: 22.10.2026).

9. Население Узбекистана всё сильнее погружается в долги перед банками // Upl.uz. – 2026. – 27 июля. – URL: https://upl.uz/economy/65198-news.html (дата обращения: 22.10.2026).

10. За год кредиты населения выросли почти на четверть до 230 трлн сумов // UzNews.uz. – 2026. – 12 июня. – URL: https://uznews.uz/ru/news/110435 (дата обращения: 22.10.2026).

11. Объем проблемных кредитов в банках приблизился к 23 триллионам сумов // UzA. – 2026. – 27 июля. – URL: https://uza.uz/ar/posts/obem-problemnyx-kreditov-v-bankax-priblizilsya-k-23-trillionam-sumov_887261 (дата обращения: 22.10.2026).

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

LOYIHA BOSHQARUVIDA RAHBARLIK USLUBLARINING JAMOA SAMARADORLIGI VA LOYIHA MUVAFFAQIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Adhamova Gulshoda Yaxyo qizi
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi “Loyiha boshqaruvi” yo'nalishi magistranti
E-mail: ganiyevagulshoda1@gmail.com.
ORCID: 0009-0004-3635-4334

Togayev Salim Sobirovich
bank hisobi va auditi kafedrasi dotsenti, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: sts-bank@bk.ru
ORCID: 0000-0002-3170-9181

Annotatsiya. *Maqolada loyiha boshqaruvida rahbarlik uslublarining jamoa samaradorligi va loyiha muvaffaqiyatiga ta'siri o'rganilgan, shuningdek transformatsion, tranzaksion va ishtirokchi rahbarlik yondashuvlarining jamoa motivatsiyasi, kommunikatsiyasi va hamkorligiga ta'siri nashr etilgan empirik tadqiqotlar va meta-tahlillar ma'lumotlari asosida ko'rib chiqilgan. Shu masalalar yuzasidan xulosa va takliflar shakllantirildi.*

Kalit so'zlar: *loyiha boshqaruvi, rahbarlik uslubi, jamoa samaradorligi, loyiha muvaffaqiyati, transformatsion rahbarlik, tranzaksion rahbarlik, kommunikatsiya, motivatsiya.*

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СТИЛЕЙ РУКОВОДСТВА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОМАНДЫ И УСПЕШНОСТЬ ПРОЕКТА В УПРАВЛЕНИИ ПРОЕКТАМИ

Адхамова Гулшода Яхё кизы
магистрант направления «Управление проектами» Высшей школы бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан
E-mail: ganiyevagulshoda1@gmail.com.
ORCID: 0009-0004-3635-4334

Тогаев Салим Собирович
PhD, доцент кафедры банковский учет и аудит Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: sts-bank@bk.ru
ORCID: 0000-0002-3170-9181

Аннотация. *В статье изучено влияние стилей руководства на эффективность команды и успешность проекта в управлении проектами, а также на основе данных опубликованных эмпирических исследований и мета-анализов рассмотрено влияние трансформационного, транзакционного и партисипативного руководства на мотивацию, коммуникацию и сотрудничество в команде. По этим вопросам сформулированы выводы и предложения.*

Ключевые слова: *управление проектами, стиль руководства, эффективность команды, успех проекта, трансформационное руководство, транзакционное руководство,*

коммуникация, мотивация.

ASSESSING THE INFLUENCE OF LEADERSHIP STYLES ON TEAM EFFECTIVENESS AND PROJECT SUCCESS IN PROJECT MANAGEMENT

Adhamova Gulshoda Yaxyo kizi
Master's student
Higher School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan
E-mail: ganiyevagulshoda1@gmail.com.
ORCID: 0009-0004-3635-4334

Togayev Salim Sobirovich
Associate Professor, PhD
Department of Banking Accounting and Audit
Tashkent State the University of Economics
E-mail: sts-bank@bk.ru
ORCID: 0000-0002-3170-9181

Abstract. *The article studies the influence of leadership styles on team effectiveness and project success in project management and, using data from published empirical studies and meta-analyses, considers the effect of transformational, transactional and participative leadership on team motivation, communication and collaboration. Conclusions and proposals on these issues have been formulated.*

Keywords: *project management, leadership style, team effectiveness, project success, transformational leadership, transactional leadership, communication, motivation.*

Kirish

Hozirgi sharoitda loyiha boshqaruvi tashkilotlarning strategik maqsadlariga erishishi, innovatsion yechimlarni joriy etishi va mavjud resurslardan samarali foydalanishida muhim o'rin egallaydi. Infratuzilma, axborot texnologiyalari, ta'lim, biznes va davlat xizmatlarini rivojlantirish bilan bog'liq tashabbuslar ko'pincha loyiha shaklida amalga oshiriladi. Bunday loyihalarning muvaffaqiyati belgilangan muddat, byudjet va sifat talablariga rioya qilish bilan birga, loyiha jamoasining faoliyati va rahbarlik sifatiga ham bog'liq [8, 10].

Loyiha jamoasi odatda turli bilim, tajriba va kasbiy vazifalarga ega mutaxassislarni birlashtiradi. Ularning faoliyatini umumiy maqsadga yo'naltirish, mas'uliyatni taqsimlash, kelishmovchiliklarni hal etish va o'zgarishlarga moslashish loyiha rahbarining muhim vazifalaridir. Shu sababli loyiha rahbarining faoliyati faqat rejalashtirish va nazorat bilan cheklanmaydi: u jamoani birlashtirishi, xodimlarni rag'batlantirishi, samarali kommunikatsiyani ta'minlashi va qaror qabul qilish jarayonini muvofiqlashtirishi kerak.

Adabiyotlar sharhi

Loyiha muvaffaqiyati omillari adabiyotida loyiha rahbari va uning rahbarlik uslubi uzoq vaqt kam tilga olingan; bu holat Turner va Myuller tomonidan PMI buyurtmasi bilan o'tkazilgan sharhda qayd etilgan [10]. Ahmed va hammualliflar loyiha rahbarining yetakchilik kompetensiyalarini nashr etilgan empirik tadqiqotlar asosida tizimli sharhlab, ularni yuqori, o'rta va past ustuvorlikdagi guruhlarga ajratgan [3]. Rehan va hammualliflar 2805 ta maqoladan 72 tasini tanlab, loyiha rahbarlarining xulq-atvor amaliyotlarini umumlashtirgan [9]. Transformatsion rahbarlik konsepsiyasi J. Berns asarlariga borib taqaladi [6] va B. Bass tomonidan rivojlantirilgan

[5]. Uning loyiha muvaffaqiyatiga ta'sirini Aga va hammualliflar jamoani shakllantirish vositachiligida o'rgangan [2], Abbas va Ali esa transformatsion va tranzaksion uslublar ta'sirini meta-tahlil usulida qiyoslagan [1]. Judge va Piccolo transformatsion, tranzaksion va erkin yetakchilikning nisbiy ahamiyatini 87 ta manba asosida baholagan [7], Altaher va hammualliflar esa bu uslublarning loyiha muvaffaqiyatiga ta'sirini jamoa hamkorligi vositachiligida tekshirgan [4].

Rahbarlikning barcha uslublari har qanday loyiha sharoitida bir xil natija berishini ta'kidlash mumkin emas. Innovatsion loyihalarda tashabbuskorlik va ijodkorlikni rag'batlantirish muhim bo'lsa, aniq standartlarga asoslangan loyihalarda vazifalar, muddatlar va nazorat mexanizmlarining ravshanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, rahbarlik uslubini loyiha sharoitiga mos tanlash nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Tahlil va natijalar

Rahbarlik — umumiy maqsadlarga erishish uchun insonlarning faoliyati va qarorlariga ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Loyiha boshqaruvida uning ahamiyati jamoaning vaqtinchalik tuzilishi, vazifalarning o'zaro bog'liqligi va resurslarning cheklanganligi bilan izohlanadi. Loyiha rahbaridan texnik bilimlar bilan bir qatorda muloqot o'rnatish, muammolarni hal qilish, nizolarni boshqarish, muzokara olib borish va jamoani rag'batlantirish ko'nikmalari ham talab etiladi [3, 10].

Rahbarlikni faqat lavozim yoki rasmiy vakolat bilan tenglashtirish to'g'ri emas. Rasmiy vakolat qaror qabul qilish imkonini bersa, yetakchilik jamoa a'zolarining ishonchi, hamkorligi va umumiy maqsadga intilishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois loyiha rahbari boshqaruv vazifalarini bajarish bilan birga jamoa bilan samarali munosabatlarni shakllantirishi lozim.

Transformatsion rahbarlik jamoa a'zolarini umumiy istiqbol va maqsad atrofida birlashtirish, ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlash va yangi g'oyalarni rag'batlantirishga asoslanadi [5, 6]. Bunday rahbar loyihaning maqsadi va kutilayotgan qiymatini tushuntiradi, jamoa a'zolarining rivojlanishiga e'tibor beradi hamda o'zgarishlarga ochiq munosabatni shakllantiradi. Ushbu yondashuv tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va o'zgarishlar sharoitida umumiy maqsadni saqlashga ko'maklashishi mumkin.

Rahbarlikdan loyiha muvaffaqiyatigacha bo'lgan konseptual bog'liqlik 1-rasmda, asosiy uslublarning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-rasm.

Rahbarlikdan loyiha muvaffaqiyatigacha bo'lgan konseptual model*



*Muallif ishlanmasi.

Natijalar uch xil ko'rsatkich bo'yicha jamlandi: ρ va Rc — meta-tahlilda hisoblangan, o'lchov xatosi uchun tuzatilgan o'rtacha korrelyatsiya koeffitsiyenti; β — tuzilmaviy modeldagi standartlashtirilgan yo'l koeffitsiyenti; t — koeffitsiyentning statistik ahamiyatlilik mezoni. Ma'lumotlarni qiyoslash uchun qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish va grafik talqin usullaridan foydalanildi.

1-jadval.

Rahbarlik uslublarining qiyosiy tahlili*

Rahbarlik uslubi	Asosiy e'tibor	Jamoaga ehtimoliy ta'siri	Cheklovi / xavfi
Transformatsion	Umumiy maqsad, ilhomlantirish, yangilik	Ichki motivatsiya, tashabbuskorlik va birdamlikni kuchaytirishi mumkin	Haddan tashqari ilhomga tayanish aniq nazorat va resurs rejasini soyada qoldirishi mumkin
Tranzaksion	Vazifalar, mezonlar, muddat va rag'bat	Mas'uliyat va kutilayotgan natijalarni aniqlashtiradi	O'ta qattiq nazorat moslashuvchanlik va ijodkorlikni cheklashi mumkin
Ishtirokchi	Maslahatlashuv va jamoa fikrini jalb qilish	Ishonch, axborot almashinuvi va qarorlarga daxldorlikni oshirishi mumkin	Qaror qabul qilish ko'proq vaqt talab qilishi mumkin

*Muallif ishlanmasi.

Tanlab olingan tadqiqotlar bo'yicha jamlangan miqdoriy ma'lumotlar 2-jadvalda, ularning grafik ifodasi 2-rasmda keltirilgan.

2-jadval.

Rahbarlik uslublari va loyiha natijalari bog'liqligi bo'yicha nashr etilgan ma'lumotlar*

Manba	Tadqiqot turi va ma'lumot hajmi	Asosiy miqdoriy natija
Judge va Piccolo (2004) [7]	Meta-tahlil: 87 manba, 626 korrelyatsiya	Transformatsion rahbarlik: ρ = 0,44; shartli rag'batlantirish: 0,39; erkin yetakchilik: –0,37; transformatsion va shartli rag'batlantirish o'rtasida 0,80, erkin yetakchilik bilan –0,65
Abbas va Ali (2023) [1]	Meta-tahlil: rahbarlik uslublari va loyiha muvaffaqiyati	Transformatsion rahbarlik: Rc = 0,41 ($p < 0,001$); tranzaksion: Rc = 0,29 ($p < 0,001$); loyiha hajmi va turi moderator
Altaher va boshq. (2024) [4]	So'rov: 202 respondent, 5 davlat; PLS-SEM	Transformatsion: β = 0,314 (t = 2,057); tranzaksion: β = 0,417 (t = 3,428); erkin yetakchilik jamoa hamkorligi bilan salbiy bog'liq; hamkorlik vositachi
Aga va boshq. (2016) [2]	So'rov: Efiopiyadagi NNT larning 200 nafar rivojlanish loyihalari rahbari	Transformatsion rahbarlikning loyiha muvaffaqiyatiga ta'sirida jamoani shakllantirish vositachi omil
Rehan va boshq. (2024) [9]	Tizimli sharh: 2805 ta maqoladan 72 tasi tanlangan	Rahbarlik xulq-atvor amaliyotlari tizimlashtirilgan

*Muallif ishlanmasi.

Judge va Piccolo [7] 87 ta manbadagi 626 ta korrelyatsiya asosida o'tkazgan meta-tahlilda transformatsion rahbarlikning turli samaradorlik mezonlari bilan umumiy bog'liqligi 0,44 ni, shartli rag'batlantirish (tranzaksion rahbarlikning tarkibiy qismi) uchun 0,39 ni, erkin yetakchilik uchun esa –0,37 ni tashkil etgan. Shu bilan birga transformatsion rahbarlik shartli rag'batlantirish bilan 0,80 darajada, erkin yetakchilik bilan –0,65 darajada bog'langan. Demak, samarali rahbarlikda transformatsion va tranzaksion elementlar bir-birini inkor etmaydi, balki ko'pincha birga namoyon bo'ladi, erkin yetakchilik esa salbiy natijalar bilan bog'liq.

Loyiha kontekstida Abbas va Ali [1] meta-tahlilida transformatsion rahbarlik bilan loyiha muvaffaqiyati o'rtasidagi bog'liqlik Rc = 0,41 ($p < 0,001$), tranzaksion rahbarlik uchun Rc = 0,29 ($p < 0,001$) bo'lgan; mualliflar loyiha hajmi va turi bu munosabatlarga ta'sir qilishini qayd etgan.

Binobarin, transformatsion rahbarlik loyiha muvaffaqiyati bilan kuchliroq bog'langan, biroq tranzaksion rahbarlikning ijobiy ta'siri ham statistik jihatdan ishonchli.

2-rasm.

Rahbarlik uslublarining natijalar bilan bog'liqlik ko'rsatkichlari*



**Mualliflar tomonidan tuzildi.*

Alohida tadqiqotlar natijalari kontekstga bog'liqlikni ko'rsatadi. Altaher va hammualliflar [4] Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Xitoy, Avstraliya va Birlashgan Arab Amirliklaridan 202 nafar respondent ma'lumotlarini PLS-SEM usulida tahlil qilib, transformatsion (β = 0,314; t = 2,057) va tranzaksion (β = 0,417; t = 3,428) rahbarlik loyiha muvaffaqiyati bilan ijobiy bog'liq ekanini, bu tanlanmada tranzaksion uslub koeffitsiyenti kattaroq ekanini va jamoa hamkorligi bu bog'liqlikda vositachi rol o'ynashini aniqlagan; erkin yetakchilik jamoa hamkorligi bilan salbiy bog'langan, ammo loyiha muvaffaqiyatini bevosita bashorat qilmagan. Aga va hammualliflar [2] Efiopiyadagi nodavlat notijorat tashkilotlarining 200 nafar rivojlanish loyihalari rahbari o'rtasidagi so'rov asosida transformatsion rahbarlikning loyiha muvaffaqiyatiga ta'sirida jamoani shakllantirish vositachi omil ekanini ko'rsatgan.

Tizimli sharhlar rahbarlikni kompetensiyalar va xulq-atvor amaliyotlari darajasida tahlil qiladi: Rehan va hammualliflar [9] 2805 ta maqoladan 72 tasini (2,6 foiz) puxta tahlil uchun tanlagan, Ahmed va hammualliflar [3] esa loyiha rahbarining yetakchilik kompetensiyalarini yuqori, o'rta va past ustuvorlikdagi guruhlarga ajratgan. Jamlangan ma'lumotlarga ko'ra transformatsion rahbarlikning koeffitsiyentlari 0,31–0,44, tranzaksion rahbarlikniki 0,29–0,42 oralig'ida bo'lgan (turli ko'rsatkichlar bo'lgani uchun bu solishtirish taxminiy), jamoa jarayonlari — jamoani shakllantirish va hamkorlik — esa rahbarlik ta'sirini loyiha natijalariga yetkazuvchi vositachi omillar sifatida namoyon bo'lgan [2, 4]. Loyiha muvaffaqiyatini faqat vaqt, xarajat va sifat bilan baholash yetarli bo'lmasligi, manfaatdor tomonlar qoniqishi va kutilgan qiymat ham hisobga olinishi lozimligi [8] jamlangan manbalarda umumiy yondashuv sifatida qayd etiladi.

Jamlangan ma'lumotlar loyiha boshqaruvida samarali rahbarlikni bitta universal uslub bilan izohlash qiyinligini ko'rsatadi. Ikkita meta-tahlilda transformatsion rahbarlik tranzaksion rahbarlikka nisbatan kuchliroq bog'langan (0,44 ga qarshi 0,39; 0,41 ga qarshi 0,29) [1, 7], biroq 202 respondentli tanlanmada tranzaksion uslubning yo'l koeffitsiyenti kattaroq (0,417 ga qarshi 0,314) [4]. Bu rahbarlik uslubining ta'siri loyiha turi, hajmi va tanlanma xususiyatlariga bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Transformatsion rahbarlik jamoani umumiy maqsad atrofida birlashtirish va tashabbuskorlikni rag'batlantirishga, tranzaksion rahbarlik vazifalar, muddatlar va natijalarni aniq belgilash orqali nazoratni kuchaytirishga, ishtirokchi rahbarlik esa jamoa a'zolarining bilim va tajribasidan foydalanishga xizmat qiladi.

Bu yondashuvlar bir-birini to'liq inkor etmaydi: transformatsion va shartli rag'batlantirish o'rtasidagi 0,80 darajadagi bog'liqlik [7] samarali rahbarlar ularning elementlarini birga qo'llashini ko'rsatadi. Loyiha rahbari vaziyatga qarab turli elementlarni uyg'unlashtirishi mumkin: loyiha boshlanishida maqsad va istiqbolni tushuntirish, rejalashtirish bosqichida vazifalar va mas'uliyatni

aniqlashtirish, muqobil yechimlarni tanlashda jamoa fikrini jalb etish maqsadga muvofiq. Rahbarlik ta'sirini jamoa jarayonlaridan ajratmasdan tahlil qilish zarurligi jamoani shakllantirish va hamkorlikning vositachi roli bilan asoslanadi [2, 4].

Rahbarlik samaradorligini baholashda loyiha kontekstiga e'tibor berish zarur. Yangi texnologiya ishlab chiqiladigan loyihada ijodkorlik va moslashuvchanlik muhim bo'lishi mumkin; xavfsizlik, me'yoriy talablar yoki qat'iy muddatlar ustuvor bo'lgan loyihalarda esa aniq vazifalar va nazorat mexanizmlari zarur. Demak, rahbarlik uslubini tanlashda jamoa tajribasi, vazifalarning murakkabligi, vaqt cheklovlari va tashqi omillar birgalikda hisobga olinishi lozim. Maqolaning ilmiy-amaliy hissasi rahbarlik uslublari, jamoa jarayonlari va loyiha natijalarini yagona konseptual doirada, nashr etilgan miqdoriy ma'lumotlar bilan birga umumlashtirish hamda rahbarlikni loyiha sharoitiga moslashtirish zaruratini asoslashdan iborat.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Rahbarlik uslubi loyiha jamoasi faoliyatini tashkil etish, motivatsiya, kommunikatsiya va hamkorlik bilan bog'liq muhim omillardan biri; loyiha rahbarining samaradorligi texnik boshqaruv ko'nikmalaridan tashqari jamoa bilan ishlash, nizolarni hal etish, maqsadlarni tushuntirish va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatiga ham bog'liq.

2. Nashr etilgan meta-tahlillarda transformatsion rahbarlik loyiha muvaffaqiyati bilan tranzaksion rahbarlikka nisbatan kuchliroq bog'langan (Rc = 0,41 va 0,29), biroq 202 respondentli tanlanmada tranzaksion uslubning yo'l koeffitsiyenti kattaroq bo'lgan (β = 0,417 va 0,314); shu sababli birorta uslubni universal deb hisoblab bo'lmaydi.

3. Erkin (nazoratsiz) yetakchilik salbiy natijalar bilan bog'liq (–0,37) va jamoa hamkorligini pasaytiradi; bunday uslubdan qochish lozim.

4. Transformatsion va tranzaksion elementlar o'zaro chambarchas bog'liq (0,80), shu bois loyiha rahbarlari bitta uslubga qat'iy bog'lanib qolmasdan, ularni loyiha turi, hajmi, jamoa tajribasi va vazifalar murakkabligiga qarab uyg'unlashtirishi kerak.

5. Loyiha boshida maqsad, natijalar va muvaffaqiyat mezonlarini aniq belgilash hamda har bir vazifa uchun mas'ul shaxs, muddat va kutilayotgan natijani aniqlash.

6. Uchrashuvlar, hisobotlar va o'zgarishlarni muhokama qilish tartibini kelishib olish, muhim qarorlarda tegishli mutaxassislar fikrini tinglash.

7. Rahbarlik ta'sirini jamoa jarayonlari orqali amalga oshirish uchun jamoani shakllantirish va hamkorlik tadbirlarini loyiha rejasiga kiritish.

8. Loyiha muvaffaqiyatini baholashda muddat, xarajat va sifat bilan birga jamoa samaradorligi, manfaatdor tomonlar qoniqishi va loyiha qiymatini ham hisobga olish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abbas M., Ali R. Transformational versus transactional leadership styles and project success: A meta-analytic review // European Management Journal. – 2023. – Vol. 41, No. 1. – Pp. 125–142. – DOI: 10.1016/j.emj.2021.10.011

2. Aga D.A., Noorderhaven N., Vallejo B. Transformational leadership and project success: The mediating role of team-building // International Journal of Project Management. – 2016. – Vol. 34, No. 5. – Pp. 806–818.

3. Ahmed R., Philbin S.P., Cheema F.E.A. Systematic literature review of project manager's leadership competencies // Engineering, Construction and Architectural Management. – 2021. – Vol. 28, No. 1. – Pp. 1–30. – DOI: 10.1108/ECAM-05-2019-0276

4. Altaher A.M., Al-Obaidly G.A., Al-badaineh G., Kashoob S.S.M., Hammouri Q., Khasawneh M.A.S. The impact of leadership styles on project success: The mediating role of team collaboration // Journal of Project Management. – 2024. – Vol. 9. – DOI: 10.5267/j.jpm.2024.7.001

5. Bass B.M. Leadership and Performance Beyond Expectations. – New York: Free Press,

1985.

6. Burns J.M. Leadership. – New York: Harper & Row, 1978.

7. Judge T.A., Piccolo R.F. Transformational and transactional leadership: A meta-analytic test of their relative validity // Journal of Applied Psychology. – 2004. – Vol. 89, No. 5. – Pp. 755–768. – DOI: 10.1037/0021-9010.89.5.755

8. Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide) and The Standard for Project Management. – 7th ed. – Newtown Square, PA: PMI, 2021.

9. Rehan A., Thorpe D., Heravi A. Project manager's leadership behavioural practices – A systematic literature review // Asia Pacific Management Review. – 2024. – Vol. 29, No. 2. – Pp. 165–178.

10. Turner J.R., Müller R. The project manager's leadership style as a success factor on projects: A literature review // Project Management Journal. – 2005. – Vol. 36, No. 2. – Pp. 49–61.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING AKTIV VA PASSIVLARINI MUDDATLAR BO‘YICHA MUVOFIQLASHTIRISH YO‘LLARI

Eshmurodov Sulton Suvonqulovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
mustaqil izlanuvchisi
eshmurodovsulton@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining aktiv va passivlarini muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirishning nazariy-metodologik asoslari va amaliy yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Mobil va onlayn xizmatlar, tezkor to‘lovlar hamda raqamli depozit va kreditlash banklar resurslarining xulq-atvoriy muddatini qisqartirib, depozitlarning foiz stavkasiga sezgirligini va ularning chiqib ketish («raqamli run») tezligini oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023–2025-yillardagi hisobotlari asosida kredit va depozitlar nisbati, LCR va NSFR koeffitsientlari, talab qilib olinguncha depozitlar ulushi hamda valyuta kesimidagi moliyalashtirish farqi tahlil qilingan, depozitlar chiqib ketishi ssenariylarida tizim likvidligining chidamliligi baholangan. Natijalar muddat nomuvofiqligining asosiy manbai uzoq muddatli kreditlar bilan barqaror moliyalashtirish o‘rtasidagi, ayniqsa xorijiy valyutadagi tarkibiy farq ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida xulq-atvoriy muddat modellari, real vaqtdagi likvidlik monitoringi, uzoq muddatli resurslarni jalb etish va valyuta pozitsiyasini muvofiqlashtirishni o‘z ichiga olgan ALM mexanizmi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *aktiv va passivlarni boshqarish (ALM), muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish, muddat nomuvofiqligi, likvidlik riski, raqamli transformatsiya, LCR, NSFR, xulq-atvoriy muddat, raqamli run, tijorat banklari.*

WAYS TO ALIGN THE MATURITIES OF COMMERCIAL BANKS’ ASSETS AND LIABILITIES UNDER DIGITAL TRANSFORMATION

Eshmurodov Sulton Suvonqulovich
Independent Researcher at
Kimyo International University in Tashkent
eshmurodovsulton@gmail.com

Abstract. *This study examines the theoretical, methodological and practical directions of matching the maturities of assets and liabilities of commercial banks under digital transformation. Mobile and online services, instant payments, and digital deposit and lending products shorten the behavioral maturity of bank funding and increase the interest-rate sensitivity of deposits and the speed of their outflows (“digital runs”). Using the Central Bank of Uzbekistan’s reports for 2023–2025, the paper analyzes the loan-to-deposit ratio, the liquidity coverage (LCR) and net stable funding (NSFR) ratios, the share of demand deposits, and the funding gap by currency, and assesses the resilience of system liquidity under deposit-outflow scenarios. The results show that the main source of maturity mismatch is the structural gap between long-term loans and stable funding, concentrated in foreign currency. The paper proposes an asset-liability management (ALM) mechanism that includes behavioral maturity models, real-time liquidity monitoring, extension of funding maturities, and alignment of currency positions.*

Key words: *asset-liability management (ALM), maturity matching, maturity mismatch, liquidity risk, digital transformation, LCR, NSFR, behavioral maturity, digital run, commercial banks.*

ПУТИ СОГЛАСОВАНИЯ СРОКОВ АКТИВОВ И ПАССИВОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Ешмуродов Султон Сувонкулович
Самостоятельный соискатель,
Международный
университет Кимё в Ташкенте
eshmurodovsulton@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуются теоретико-методологические основы и практические направления согласования активов и пассивов коммерческих банков по срокам в условиях цифровой трансформации. Мобильные и онлайн-сервисы, мгновенные платежи, цифровые депозитные и кредитные продукты сокращают поведенческий срок банковских ресурсов, повышают чувствительность депозитов к процентным ставкам и скорость их оттока (digital run). На основе отчётности Центрального банка Республики Узбекистан за 2023–2025 годы проанализированы соотношение кредитов и депозитов, коэффициенты LCR и NSFR, доля депозитов до востребования и разрыв в финансировании в разрезе валют, а также оценена устойчивость ликвидности системы в сценариях оттока депозитов. Показано, что основным источником несоответствия сроков является структурный разрыв между долгосрочными кредитами и стабильным финансированием, сосредоточенный преимущественно в иностранной валюте. Предложен механизм управления активами и пассивами (ALM), включающий модели поведенческих сроков, мониторинг ликвидности в реальном времени, удлинение сроков ресурсной базы и согласование валютных позиций.*

Ключевые слова: *управление активами и пассивами (ALM), согласование сроков, несоответствие сроков, риск ликвидности, цифровая трансформация, LCR, NSFR, поведенческий срок, цифровой отток вкладов (digital run), коммерческие банки.*

Kirish.

Tijorat banklarining asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri qisqa muddatli va talab qilib olinguncha depozitlar shaklida jalb etilgan resurslarni uzoq muddatli kredit va investitsiyalarga aylantirish, ya’ni muddatlar transformatsiyasini amalga oshirishdir. Mazkur funksiya bank vositachiligining iqtisodiy mohiyatini belgilaydi, biroq aynan aktiv va passivlar muddatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik (*maturity mismatch*) likvidlik riski, foiz stavkasi riski va valyuta riskining asosiy manbaiga aylanadi. Shu bois aktiv va passivlarni boshqarish (*Asset-Liability Management – ALM*) tizimi bank risk-menejmentining markaziy bo‘g‘ini sifatida e’tirof etiladi, uning samaradorligi esa nafaqat alohida bankning, balki butun moliya tizimining barqarorligini belgilaydi.

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya bank biznes-modelini tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbekistonda Prezidentning PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi hamda PF-5992-son Farmoni bilan qabul qilingan 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida masofaviy xizmat ko‘rsatish, onlayn hisobraqam va depozit ochish, masofaviy kreditlash keng joriy etildi. S. Begimqulova (2026) keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2020-yil iyun oyidagi 10,94 million nafardan 2025-yil boshiga kelib 52,92 million nafargacha, ya’ni 4,8 baravar oshdi. Bu jarayon mijozlarga depozit stavkalarini bir necha daqiqada solishtirish va mablag‘ni bir bankdan boshqasiga zudlik bilan o‘tkazish imkonini berib, depozit bozoridagi raqobatni kuchaytirdi; Markaziy bank ham raqamli banking rivoji depozit bozorida yuqori raqobat muhitini shakllantirayotganini qayd etgan.

Natijada passivlar tomonida «yadro» depozitlarning barqarorligi haqidagi an’anaviy tasavvurlar o‘zgarmoqda: shartnomaviy muddati uzoq depozit xulq-atvoriy jihatdan qisqa muddatli bo‘lib qolishi, talab qilib olinguncha depozit esa raqamli kanallar orqali avvalgidan tezroq chiqib ketishi mumkin. Aktivlar tomonida onlayn mikroqarz, bo‘lib to‘lash («nasiya») va iste’mol kreditlari ulushining oshishi portfel tarkibi va aylanuvchanligini o‘zgartirmoqda: 2025-yil oxirida aholiga berilgan kreditlar qoldig‘i 220,3 trln so‘mga yetib, ularning jami kreditlardagi

ulushi 33 foizdan 36 foizga ko‘tarildi. Shu bilan birga tizimda kreditlarning depozitlarga nisbati 145 foizni, kredit va depozitlar o‘rtasidagi farq esa 186,7 trln so‘mni tashkil etmoqda, ya’ni kreditlarning muhim qismi depozitlardan tashqari manbalar — qarz mablag‘lari va kapital hisobidan moliyalashtirilmoqda.

Xalqaro amaliyot ham masalaning dolzarbligini ko‘rsatmoqda: 2023-yilda AQShdagi bir qator banklar inqirozi foiz stavkalari oshishi natijasida aktivlar bozor qiymatining pasayishi sug‘urtalanmagan depozitchilarning ommaviy chiqib ketishi bilan birikkanda bank barqarorligi qanchalik tez yo‘qolishi mumkinligini namoyon etdi. O‘zbekistonda Markaziy bankning 2025–2028-yillarga mo‘ljallangan bank tartibga solish va nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»da likvidlik me’yorlariga rioya etilishi monitoringini 2026-yil 1-yanvardan boshlash, likvidlik stress-testini depozitchilar konsentratsiyasi tahlili bilan to‘ldirish hamda bank kitobidagi foiz riski bo‘yicha Bazel asosining 2-ustunini joriy etish ko‘zda tutilgan. Bu banklar oldiga ALM tizimini raqamli muhitga moslashtirish vazifasini qo‘ymoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining aktiv va passivlarini muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish yo‘llarini ilmiy asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish doirasida bank tizimidagi muddat nomuvofiqligining hozirgi darajasi va tarkibi baholanadi, raqamli kanallarning depozit va kredit portfellari muddatiga ta’siri tahlil qilinadi, «raqamli run» ssenariylarida tizim likvidligining chidamliligi hisoblanadi hamda ALM tizimini takomillashtirishga qaratilgan takliflar shakllantiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tijorat banklarida aktiv va passivlarni muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish bank likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Basel qo‘mitasi likvidlik riskini boshqarishda pul oqimlarini muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish va yetarli likvidlik zaxirasini shakllantirishni tavsiya etadi [1]. Basel III doirasida LCR ko‘rsatkichi qisqa muddatli likvidlikni, NSFR esa barqaror moliyalashtirishni ta’minlashga qaratilgan [2; 3]. Foiz stavkasi riskini boshqarishda aktiv va passivlarning qayta baholanish muddatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlangan [4]. Fintex texnologiyalarining rivojlanishi esa banklarda risklarni boshqarish va moliyaviy operatsiyalarni tashkil etish mexanizmlarini o‘zgartirmoqda [5].

O‘zbekiston banklarida raqamli xizmatlarning rivojlanishi bank operatsiyalarining tezkorligi va samaradorligini oshirmoqda [6]. Berger va Bouwman banklarning likvidlik yaratish faoliyatini bank vositachiligining muhim funksiyasi sifatida baholaydi [7]. Boot va hammualliflar fintex rivojlanishi banklarning an’anaviy biznes modellariga ta’sir ko‘rsatayotganini qayd etadi [8]. Brunnermeier va Pedersen bozor va moliyalashtirish likvidligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslaydi [9]. Choudhry aktiv va passivlarni boshqarishda ularning muddati, foiz stavkasi va pul oqimlarini kompleks hisobga olishni taklif etadi [10].

Diamond va Dybvig banklarning qisqa muddatli majburiyatlari va uzoq muddatli aktivlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik likvidlik riskini oshirishini ko‘rsatadi [11]. Diamond va Rajan bank likvidligi va moliyaviy zaiflik o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslaydi [12]. Drechsler, Savov va Schnabl depozitlar banklar uchun muhim moliyalashtirish manbai ekanligini ko‘rsatadi [13]. Euromoney ma’lumotlarida O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlari, xususan, TBC Uzbekistan faoliyatining rivojlanishi qayd etilgan [14]. Gatev va Strahan banklarning likvidlik riskini xedjirlash imkoniyatlarini tahlil qiladi [15]. Hanson va hammualliflar banklarning uzoq muddatli aktivlarga investitsiya qilish xususiyatlarini o‘rganadi [16].

Jiang va hammualliflar foiz stavkalarining o‘zgarishi hamda depozitlarning chiqib ketishi banklarning moliyaviy zaifligini kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi [17]. Kashyap, Rajan va Stein banklarning kreditlash va depozit jalb qilish orqali likvidlik yaratish mexanizmini asoslaydi [18]. Kodirov O‘zbekiston bank sektorida likvidlikni qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini takomillashtirish masalasini tadqiq etadi [19]. Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik hisobotlarida bank tizimining likvidligi va moliyaviy barqarorligi tahlil qilingan [20; 21]. 2025–

2028-yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasida bank nazorati va tartibga solish tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari belgilangan [22]. Markaziy bankning 2025-yilgi hisobotida bank tizimining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari yoritilgan [23; 24].

O‘zbekistonda bank tizimini isloh qilish strategiyasi banklarning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan [25]. «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi bank va moliya xizmatlarini raqamlashtirish uchun muhim institutsional asos yaratadi [26]. Thakor fintex texnologiyalarining bank faoliyati va moliyaviy vositachilikka ta’sirini o‘rgangan [27]. Uzum kompaniyasining fintech va elektron tijorat yo‘nalishidagi rivojlanishi raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayib borayotganini ko‘rsatadi [28]. Vives raqamli transformatsiya banklarning biznes modellari va raqobat muhitini o‘zgartirayotganini ta’kidlaydi [29]. Yangiboyev aktiv va passivlarni boshqarish orqali bank likvidligini ta’minlash mexanizmlarini tadqiq etadi [30]. Ziyodullayev esa tijorat banklari likvidligini boshqarishning amaliy asoslarini yoritadi [31].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini bank vositachiligi va likvidlik nazariyalari, Bazel qo‘mitasining likvidlik va foiz riskini boshqarish standartlari hamda ALM konsepsiyasi tashkil etadi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va dinamik tahlil, koeffitsientlar tahlili, ssenariyli tahlil hamda konseptual modellashtirish usullaridan kompleks foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023, 2024 va 2025-yillar uchun Moliyaviy barqarorlik to‘g‘risidagi hisobotlari, 2025-yilgi yillik hisoboti, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlar tashkil etdi.

Muddatlar bo‘yicha muvofiqlik darajasini baholash uchun tizim darajasidagi to‘rt guruh ko‘rsatkich qo‘llanildi. Birinchisi — moliyalashtirish tuzilmasi: kreditlarning depozitlarga nisbati (KDN = K/D), kredit-depozit farqi (K – D) va depozitlarning majburiyatlardagi ulushi. Ikkinchisi — muddat tuzilmasi: talab qilib olinguncha depozitlar ulushi hamda muddati bir yildan ortiq depozitlarning kreditlarni qoplash darajasi (MQD = D1/K). Uchinchisi — Bazel III ko‘rsatkichlari: LCR = HQLA/NCO (30 kunlik sof pul chiqimlari), NSFR = ASF/RSF (mavjud va talab etiladigan barqaror moliyalashtirish) hamda HQLA ning aktivlardagi ulushi. To‘rtinchisi — valyuta kesimidagi KDN va moliyalashtirish farqi.

Raqamli kanallar orqali depozitlar chiqib ketishining tezlashishi xavfini baholash maqsadida tizim darajasida ssenariyli tahlil o‘tkazildi. Unda HQLA hajmi jami aktivlarning 21 foizi (194,2 trln so‘m) deb qabul qilindi, 30 kunlik sof pul chiqimlari esa LCR ning 208 foizlik qiymatidan teskari hisoblanib, 93,4 trln so‘mni tashkil etdi. Aholi depozitlarining (169,1 trln so‘m) Bazel III parametrlaridan tashqari qo‘shimcha chiqib ketishi uchun LCR(s) = HQLA / (NCO + k·A) formulasi bo‘yicha qayta hisoblandi, bunda k — qo‘shimcha chiqib ketish ulushi, A — aholi depozitlari hajmi. Ssenariy parametrlari bashorat emas, balki tizimning chidamlilik chegarasini aniqlashga xizmat qiluvchi shartli qiymatlardir.

Tadqiqotning cheklovlari quyidagilardan iborat: tahlil jamlangan tizim ma’lumotlariga tayanadi va alohida banklar o‘rtasidagi tafovutlarni aks ettirmaydi; Markaziy bank hisobotlarida aktiv va passivlarning muddat oraliqlari bo‘yicha to‘liq taqsimoti e’lon qilinmaydi, shu sababli muddat nomuvofiqligi gap jadvali orqali emas, tarkibiy ko‘rsatkichlar yordamida baholandi; valyuta ulushlari hisobotlarda butun foizgacha yaxlitlangani uchun tegishli hisob-kitoblar taxminiy xarakterga ega. Hisoblangan ko‘rsatkichlar muallif tomonidan rasmiy ma’lumotlar asosida olingan va jadvallarda alohida qayd etilgan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston bank tizimida aktiv va passivlar tuzilmasi so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgardi. 2025-yil oxirida bank tizimi aktivlari 924,8 trln so‘mga yetib, yil davomida 20 foizga oshdi; kreditlar qoldig‘i 604,0 trln so‘mni (aholiga — 220,3 trln, yuridik shaxslarga — 383,7 trln so‘m), depozitlar esa 417,3 trln so‘mni tashkil etdi. Depozitlar yil davomida 35 foizga, kreditlar esa 13 foizga o‘sdi. Quyidagi jadvalda Markaziy bank hisobotlari asosida muddatlar bo‘yicha muvofiqlik

darajasini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasi umumlashtirilgan.

1-jadval.

Tijorat banklarining aktiv va passivlari muddatlar bo‘yicha muvofiqligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasi (yil oxiriga)

Ko‘rsatkichlar	2023	2024	2025	Tahliliy xulosa
Kreditlarning depozitlarga nisbati (%)	195	173	145	Kreditlarning depozitlardan tashqari manbalarga bog‘liqligi kamaymoqda
Kredit va depozitlar o‘rtasidagi farq (trln so‘m)	230	224	186,7	Qo‘shimcha moliyalashtirish ehtiyoji qisqarmoqda
Depozitlarning majburiyatlardagi ulushi (%)	44	47	53	Resurs bazasi depozitlar tomon siljimoqda
Talab qilib olinguncha depozitlar ulushi (%)	36	34	31	Depozitlarning shartnomaviy muddat tuzilmasi uzaymoqda
Likvidlikni qoplash koeffitsienti, LCR (%)	165	194	208	Qisqa muddatli likvidlik zaxirasi oshmoqda
Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti, NSFR (%)	112	115	120	Barqaror moliyalashtirish minimal talabdan yuqori
HQLA ning jami aktivlardagi ulushi (%)	14,9	17,3	21	Yuqori likvidli aktivlar ulushi o‘smoqda

Manba: Markaziy bankning Moliyaviy barqarorlik to‘g‘risidagi hisobotlari (2023, 2024, 2025) asosida muallif tomonidan tuzilgan; 2023-yil uchun kredit/depozit nisbati hisobotda keltirilgan yillik o‘zgarish asosida hisoblangan.

Birinchi jadval ma’lumotlari moliyalashtirish tuzilmasi yaxshilanayotganini ko‘rsatadi. 2023–2025-yillarda kreditlarning depozitlarga nisbati 195 foizdan 145 foizgacha, ya’ni 50 foiz bandga pasaydi, kredit va depozitlar o‘rtasidagi farq 230 trln so‘mdan 186,7 trln so‘mgacha qisqardi. Depozitlarning majburiyatlardagi ulushi 44 foizdan 53 foizgacha oshdi, talab qilib olinguncha depozitlar ulushi esa 36 foizdan 31 foizgacha kamaydi. Bazel III ko‘rsatkichlari ham yaxshilandi: LCR 165 foizdan 208 foizgacha, NSFR 112 foizdan 120 foizgacha oshdi, yuqori likvidli aktivlar ulushi 14,9 foizdan 21 foizgacha ko‘tarildi. Demak, tizim darajasida likvidlik me’yorlari 100 foizlik minimal talabdan sezilarli yuqori.

Biroq tarkibiy yaxshilanish muddat nomuvofiqligi muammosi hal bo‘lganini anglatmaydi. 2025-yil oxirida muddati bir yildan ortiq depozitlar 156,7 trln so‘mni (jami depozitlarning taxminan 38 foizini) tashkil etib, yil davomida 31 foizga oshdi. Ammo bu depozitlar kreditlar qoldig‘ining atigi 25,9 foizini qoplaydi (MQD = 156,7/604,0); 2024-yilda bu ko‘rsatkich hisob-kitoblarimizga ko‘ra 22,4 foiz edi. Boshqacha aytganda, har bir so‘m kreditga uzoq muddatli depozitlardan atigi 26 tiyin to‘g‘ri keladi, qolgan qismi qisqa muddatli depozitlar, qarz mablag‘lari va kapital hisobidan moliyalashtiriladi: 2025-yil oxirida moliyalashtirish manbalarining 45 foizi depozitlar, 27 foizi qarz mablag‘lari va 15 foizi o‘z kapitali hisobiga to‘g‘ri kelgan. Ziyodullayev kreditlarning o‘rtacha muddati 3–5 yil ekanini, Yangiboyev esa uzoq muddatli kreditlarning barqaror manbalar bilan qoplanishi 79,7 foiz ekanini qayd etgan; bu baholar turli metodik yondashuvlarda muddat nomuvofiqligi mavjudligini tasdiqlaydi.

Muddat nomuvofiqligining muhim ko‘rinishi valyuta kesimida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi jadvalda 2026-yil 1-yanvar holatiga kredit va depozitlarning milliy va xorijiy valyutalar bo‘yicha

tuzilmasi keltirilgan.

2-jadval.

Kredit va depozitlarning valyuta kesimidagi tuzilmasi va moliyalashtirish farqi (2026-yil 1-yanvar holatiga)

Ko‘rsatkichlar	Jami	Milliy valyuta	Xorijiy valyuta	Tahliliy xulosa
Kreditlar (trln so‘m)	604,0	368,4	235,6	Kreditlarning 39 foizi xorijiy valyutada
Depozitlar (trln so‘m)	417,3	329,7	87,6	Depozitlarning atigi 21 foizi xorijiy valyutada
Kreditlarning depozitlarga nisbati (%)	144,7	111,8	268,8	Nomuvofiqlik xorijiy valyutada chuqur
Kredit va depozitlar o‘rtasidagi farq (trln so‘m)	186,7	38,8	147,9	Farqning 79 foizi xorijiy valyutaga to‘g‘ri keladi

Manba: Markaziy bankning 2025-yil uchun Moliyaviy barqarorlik to‘g‘risidagi hisoboti asosida muallif hisob-kitoblari; valyuta ulushlari (39 va 21 foiz) butun foizgacha yaxlitlangani sababli ko‘rsatkichlar taxminiy.

Ikkinchi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, milliy valyutada kreditlarning depozitlarga nisbati 111,8 foizni tashkil etib, nisbatan muvozanatli, xorijiy valyutada esa 268,8 foizga yetadi. 186,7 trln so‘mlik farqning qariyb 79 foizi (147,9 trln so‘m) xorijiy valyutaga to‘g‘ri keladi, ya’ni xorijiy valyutadagi kreditlarning katta qismi ichki depozitlar emas, tashqi va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. Yangiboyev ham xorijiy valyutada kredit-depozit nisbatini 271,1 foiz, moliyalashtirish farqini 149,4 trln so‘m deb hisoblagan, bu bizning baholarimizga yaqin. Markaziy bankning ma’lumotiga ko‘ra, sof ochiq valyuta pozitsiyasi me’yoriy chegaradan past (kapitalning 2,7 foizi) bo‘lsa-da, xorijiy valyutadagi depozitlarning (AQSh dollarida hisoblaganda 21 foizga) o‘sishi likvidlik riskini oshiradi, chunki rezidentlar mablag‘larini xorijda investitsiya qilish imkoniga ega.

Raqamli transformatsiyaning bu tuzilmaga ta’sirida uchta jihat muhim. Birinchidan, raqamli to‘lov infratuzilmasi kengaydi: 2025-yilda mobil ilovalar orqali operatsiyalar hajmi 646 trln so‘mga yetib, 1,6 baravar oshdi, bank kartalari soni 68 millionga, elektron hamyonlar soni 25 millionga yetdi, kartalar bo‘yicha naqd pul yechish ko‘rsatkichi esa 21,8 foizdan 18,7 foizgacha pasaydi. Bu raqamli muhitda mablag‘lar bank tizimi ichida tezroq aylanishini bildiradi. Ikkinchidan, raqamli banklar depozit bozoridagi raqobatni kuchaytirmoqda: Uzum ekotizimi onlayn depozitlar ishga tushirilgach uch oy ichida 50 million dollardan ortiq mablag‘ jalb qilgan, TBC Uzbekistan ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilari soni 2025-yil oxirida 23 millionga, oylik faol foydalanuvchilar soni taxminan 6 millionga yetgan. Uchinchidan, 2023-yil oxirida xususiy banklarda depozitlarning majburiyatlardagi ulushi o‘rtacha 66 foizni (davlat banklarida 33 foizni) tashkil etgan; Uzum ekotizimidagi Kapitalbankda 2025-yil yakunlariga ko‘ra kreditlar 3,1 mlrd, depozitlar 3,7 mlrd dollarga teng bo‘lib (nisbat taxminan 84 foiz), tizim o‘rtachasidan ancha past. Demak, raqamli kanallar depozit bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda, biroq bu bazaning xulq-atvoriy barqarorligi alohida baholashni talab qiladi.

Aktivlar tomonida ham muddat tuzilmasi bir tekis emas. 2025-yilda pul bozorida REPO operatsiyalari deyarli ikki baravar oshib, aylanmaning 68 foizini tashkil etdi, Markaziy bankning kunlik o‘rtacha likvidlikni yutishi yanvardagi 16,2 trln so‘mdan dekabrdagi 39,3 trln so‘mgacha oshdi, overnayt depozit operatsiyalari esa pul bozori bitimlarining 86,8 foizini egalladi. Bu ortiqcha likvidlikning katta qismi o‘ta qisqa muddatli vositalarda joylashtirilayotganini ko‘rsatadi. Davlat obligatsiyalari hajmining banklar aktivlarida 81 foizga oshishi o‘rta muddatli likvid aktivlarga o‘tish boshlanganidan dalolat bersa-da, aktivlar tuzilmasi hamon bir tomonda 3–5 yillik kreditlar, ikkinchi tomonda bir kunlik joylashtirishlar bilan ifodalanadi.

Yuqoridagi omillarni tizimlashtirish maqsadida raqamli transformatsiya kanallarining aktiv va passivlar muddatiga ta’sirini hamda muvofiqlashtirish mexanizmini aks ettiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Quyidagi rasm raqamli omillardan muddat nomuvofiqligi xatarlariga va ALM tizimining boshqaruv choralariga o‘tuvchi mantiqiy zanjirni tasvirlaydi.



1-rasm. Raqamli transformatsiya sharoitida aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirishning konseptual modeli

Modelga ko‘ra, raqamli omillar ikki kanal orqali muddat tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatadi. Passivlar kanalida onlayn depozit va stavkalarni solishtirish xizmatlari depozitlarning foiz stavkasiga sezgirligini oshiradi, tezkor to‘lovlar esa chiqib ketish tezligini (*raqamli run*) kuchaytiradi; natijada xulq-atvoriy muddat shartnomaviy muddatdan qisqa bo‘lib qolishi mumkin. Aktivlar kanalida raqamli skoring va «nasiya» xizmatlari qisqa muddatli onlayn kreditlar ulushini oshirib, pul oqimlarining prognoz aniqligini yaxshilaydi, biroq uzoq muddatli kreditlar portfeli va uning valyuta tarkibi tarkibiy nomuvofiqlikning asosiy manbai bo‘lib qolaveradi. Ikki kanalning natijasi muddat gapi, likvidlik riski (LCR), barqaror moliyalash (NSFR) hamda foiz va valyuta riski ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Uni boshqarish uchun xulq-atvoriy muddat modellari, real vaqtdagi likvidlik monitoringi va stress-test, uzoq muddatli resurslarni jalb etish hamda valyuta va foiz pozitsiyasini muvofiqlashtirishni o‘z ichiga olgan ALM mexanizmi zarur.

3-jadval.

Aholi depozitlarining qo‘shimcha chiqib ketishi ssenariylarida tizim LCR ko‘rsatkichining taxminiy qiymatlari

Ssenariy	Qo‘shimcha chiqib ketish, aholi depozitlariga nisbatan (%)	Qo‘shimcha chiqib ketish hajmi (trln so‘m)	LCR (%)	Tahliliy xulosa
Bazaviy (2025-yil oxiri)	0	0,0	208	Me’yordan 2,1 baravar yuqori
1-ssenariy	10	16,9	176	Zaxira sezilarli saqlanadi
2-ssenariy	25	42,3	143	LCR taxminan uchdan biriga pasayadi
3-ssenariy	40	67,6	121	Zaxira minimal darajaga yaqinlashadi
4-ssenariy	50	84,6	109	Me’yordan ozgina yuqori

Manba: muallif hisob-kitoblari (HQLA — aktivlarning 21 foizi, ya’ni 194,2 trln so‘m; sof pul

chiqimlari — 93,4 trln so‘m; aholi depozitlari — 169,1 trln so‘m).

Raqamli kanallar orqali depozitlar chiqib ketish tezligi oshgan sharoitda tizim likvidligining chidamliligini baholash uchun ssenariyli tahlil o‘tkazildi. Uchinchi jadvalda aholi depozitlarining Bazel III parametrlaridan tashqari qo‘shimcha chiqib ketishi turli darajada bo‘lgan taqdirda tizim LCR ko‘rsatkichining taxminiy qiymatlari keltirilgan. Uchinchi jadval natijalariga ko‘ra, tizim darajasida likvidlik zaxirasi yetarli: LCR 100 foizlik minimal talabga tushishi uchun Bazel III parametrlaridan tashqari aholi depozitlarining taxminan 60 foizi (100,8 trln so‘m) 30 kun ichida chiqib ketishi lozim. Biroq bu xulosa jamlangan ko‘rsatkichga tayanadi va ikki jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. Birinchidan, tizimli muhim banklarda LCR 182 foizni tashkil etib, tizim o‘rtachasidan past; aholi depozitlari ulushi yuqori va HQLA kam banklar uchun kritik chegara ancha pastroq bo‘ladi. Ikkinchidan, raqamli muhitda chiqib ketish bir necha hafta emas, bir necha kun yoki soat ichida ro‘y berishi mumkin, shu sababli oylik LCR kun ichidagi likvidlik uzilishlarini ushlab qolmaydi. Demak, tizim darajasidagi yetarli likvidlik raqamli sharoitda alohida banklar ALM tizimining samaradorligini kafolatlamaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari muddatlarni muvofiqlashtirish uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga tayanishi kerakligini ko‘rsatadi. Birinchidan, passivlar tomonida depozitlarning xulq-atvoriy muddatini baholash va uzoq muddatli resurslar ulushini oshirish zarur, chunki shartnomaviy muddat endi barqarorlikning ishonchli o‘lchovi emas. Ikkinchidan, tarkibiy nomuvofiqlik asosan xorijiy valyutadagi va uzoq muddatli kreditlar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun aktivlarning muddati va valyutasini moliyalashtirish manbalariga moslashtirish lozim. Uchinchidan, ALM tizimining o‘zi raqamlashtirilishi, ya’ni real vaqtdagi ma’lumotlar, avtomatlashtirilgan LCR/NSFR monitoringi va kun ichidagi likvidlik nazorati joriy etilishi kerak.

Xulosa va takliflar

Tijorat banklarida aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirish bank vositachiligining asosiy shartlaridan bo‘lib, raqamli transformatsiya sharoitida uning mazmuni va vositalari o‘zgarmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli kanallar bank xizmatlari qamrovini kengaytirish bilan birga depozitlarning foiz stavkasiga sezgirligi va chiqib ketish tezligini oshiradi, shartnomaviy muddat esa xulq-atvoriy barqarorlikning ishonchli o‘lchovi bo‘lmay qoladi.

O‘zbekiston bank tizimida 2023–2025-yillarda moliyalashtirish tuzilmasi yaxshilandi: kreditlarning depozitlarga nisbati 195 foizdan 145 foizgacha pasaydi, depozitlarning majburiyatlardagi ulushi 44 foizdan 53 foizgacha oshdi, LCR 208 foizga, NSFR 120 foizga yetdi. Shu bilan birga muddati bir yildan ortiq depozitlar kreditlarning atigi 25,9 foizini qoplaydi, 186,7 trln so‘mlik kredit-depozit farqining qariyb 79 foizi xorijiy valyutaga to‘g‘ri keladi, ssenariyli tahlil esa tizim darajasidagi likvidlik zaxirasi yetarli bo‘lsa-da, alohida banklar va kun ichidagi likvidlik uchun qo‘shimcha nazorat zarurligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot xulosalari asosida tijorat banklarida aktiv va passivlarni muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor takliflar ilgari suriladi:

Avvalo, banklarda depozitlarning xulq-atvoriy muddat modellarini joriy etish zarur. Bunda talab qilib olinguncha va onlayn depozitlar mijoz segmenti, kanal turi va stavka sezgirligi bo‘yicha barqaror yadro va o‘zgaruvchan qismga ajratilib, yadro qismining o‘rtacha muddati tarixiy ma’lumotlar va ilovadagi mijoz xatti-harakatlari asosida baholanishi, modellar esa har chorakda qayta tekshirilishi lozim. Bu aktiv va passivlar muddatlarini shartnomaviy emas, haqiqiy xulq-atvorga muvofiq taqqoslash hamda bank kitobidagi foiz riski bo‘yicha Bazel talablarini joriy etishga tayyorlanish imkonini beradi.

Ikkinchidan, real vaqt rejimidagi likvidlik monitoringi va «raqamli run»ga qarshi erta ogohlantirish tizimini yaratish tavsiya etiladi. Bunda LCR va NSFR hisob-kitobini avtomatlashtirish, kun ichidagi likvidlik pozitsiyasini kuzatish, yirik depozitchilar konsentratsiyasi va ilovadagi g‘ayrioddiy operatsiyalar bo‘yicha signal ko‘rsatkichlarini belgilash, favqulodda moliyalashtirish rejalarini esa raqamli ssenariylar bilan yangilash kerak.

Uchinchidan, passivlar tuzilmasini uzaytirish uchun uzoq muddatli milliy valyutadagi

resurslar ulushini oshirish lozim. Buning uchun muddati bir yildan ortiq depozitlar bo‘yicha raqamli muddatli depozit sertifikatlari, maqsadli jamg‘arma mahsulotlari va muddat oshgani sari ortadigan progressiv stavkalar joriy etilishi, muddatidan oldin yechishda foiz yo‘qotish mexanizmi mustahkamlanishi, shuningdek ipoteka va iste’mol kreditlari portfelini sekyuritizatsiya qilish hamda uzoq muddatli obligatsiyalar chiqarish yo‘li bilan qo‘shimcha resurs jalb etilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, aktivlar tomonida kreditlarning muddati va valyutasini moliyalashtirish manbalariga moslashtirish kerak. Uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foiz stavkasini qayta ko‘rib chiqish imkonini beruvchi o‘zgaruvchan stavkali mahsulotlarni kengaytirish, kreditlarning depozitlarga nisbati bo‘yicha pog‘onali ichki limitlar (o‘rta muddatda 130 foizdan oshmaslik haqidagi Yangiboyev taklifini inobatga olgan holda) belgilash hamda xorijiy valyutadagi kreditlarni asosan valyuta tushumiga ega qarzdorlarga yo‘naltirish tamoyiliga o‘tish lozim.

Beshinchidan, ALM boshqaruvini institutsional jihatdan kuchaytirish zarur: aktiv-passivlar qo‘mitasi (ALCO) qarorlarini real vaqtdagi ma’lumotlar va risk-modellarga asoslash, fond transfert narxlash (FTP) tizimini joriy etib, uzoq muddatli va barqaror depozitlarni rag‘batlantiruvchi, qisqa muddatli va o‘zgaruvchan manbalarga likvidlik ustamasi qo‘shuvchi ichki narxlash mexanizmini yaratish, shuningdek raqamli kanallarning uzluksizligi va kiberxavfsizligini (banklarning 24 foizi kiberhujumlarni tizimli risklarning dastlabki beshtasiga kiritgan) ALM va favqulodda rejalarning ajralmas qismi deb hisoblash talab etiladi.

Oltinchidan, tartibga solish darajasida Markaziy bank likvidlik me’yorlarini raqamli depozitlarning xulq-atvoriy xususiyatlariga moslashtirgan holda sinovdan o‘tkazishi (jumladan, onlayn depozitlar uchun chiqib ketish koeffitsientlarini bank ma’lumotlari asosida tekshirishi), yirik depozitlar konsentratsiyasi kuzatuvini kuchaytirishi hamda uzoq muddatli milliy valyutadagi moliyalashtirish uchun ikkilamchi obligatsiya bozori, muddatli REPO va svop vositalarini rivojlantirishi maqsadga muvofiq. Bu banklarga ortiqcha likvidlikni faqat o‘ta qisqa muddatli vositalarda joylashtirish o‘rniga muddatlarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Basel Committee on Banking Supervision. (2008). Principles for sound liquidity risk management and supervision. Basel: Bank for International Settlements.
2. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The liquidity coverage ratio and liquidity risk monitoring tools. Basel: Bank for International Settlements.
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2014). Basel III: The net stable funding ratio. Basel: Bank for International Settlements.
4. Basel Committee on Banking Supervision. (2016). Interest rate risk in the banking book. Basel: Bank for International Settlements.
5. Basel Committee on Banking Supervision. (2018). Sound practices: Implications of fintech developments for banks and bank supervisors. Basel: Bank for International Settlements.
6. Begimqulova, S. N. (2026). O‘zbekistonda tijorat banklarida raqamli xizmatlarning joriy etilishi va rivojlanish tendensiyalari. Moliya va bank ishi jurnali, (3), 86–90.
7. Berger, A. N., & Bouwman, C. H. S. (2009). Bank liquidity creation. The Review of Financial Studies, 22(9), 3779–3837.
8. Boot, A., Hoffmann, P., Laeven, L., & Ratnovski, L. (2021). Fintech: What’s old, what’s new? Journal of Financial Stability, 53, 100836.
9. Brunnermeier, M. K., & Pedersen, L. H. (2009). Market liquidity and funding liquidity. The Review of Financial Studies, 22(6), 2201–2238.
10. Choudhry, M. (2007). Bank asset and liability management: Strategy, trading, analysis. Singapore: John Wiley & Sons (Asia).
11. Diamond, D. W., & Dybvig, P. H. (1983). Bank runs, deposit insurance, and liquidity. Journal of Political Economy, 91(3), 401–419.
12. Diamond, D. W., & Rajan, R. G. (2001). Liquidity risk, liquidity creation, and financial

fragility: A theory of banking. Journal of Political Economy, 109(2), 287–327.

13. Drechsler, I., Savov, A., & Schnabl, P. (2017). The deposits channel of monetary policy. The Quarterly Journal of Economics, 132(4), 1819–1876.

14. Euromoney. (2026, July 17). Central Asia’s best digital bank 2026: TBC Uzbekistan.

15. Gatev, E., & Strahan, P. E. (2006). Banks’ advantage in hedging liquidity risk: Theory and evidence from the commercial paper market. The Journal of Finance, 61(2), 867–892.

16. Hanson, S. G., Shleifer, A., Stein, J. C., & Vishny, R. W. (2015). Banks as patient fixed-income investors. Journal of Financial Economics, 117(3), 449–469.

17. Jiang, E. X., Matvos, G., Piskorski, T., & Seru, A. (2024). Monetary tightening and U.S. bank fragility in 2023: Mark-to-market losses and uninsured depositor runs? Journal of Financial Economics, 159, 103899.

18. Kashyap, A. K., Rajan, R., & Stein, J. C. (2002). Banks as liquidity providers: An explanation for the coexistence of lending and deposit-taking. The Journal of Finance, 57(1), 33–73.

19. Kodirov, A. B. (2025). Инструменты поддержки ликвидности: опыт и перспективы развития банковского сектора Узбекистана. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 5(7), 58–64.

20. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Financial Stability Report for 2023. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

21. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Financial Stability Report for 2024. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

22. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). 2025–2028-yillarda bank tartibga solish va nazorat tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan «Yo‘l xaritasi». Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

23. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Financial Stability Report for 2025. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

24. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Yillik hisobot 2025. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni «2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida».

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni «“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».

27. Thakor, A. V. (2020). Fintech and banking: What do we know? Journal of Financial Intermediation, 41, 100833.

28. Uzum. (2026). Uzum reports strong 2025 results as investments fuel sustained growth across fintech and e-commerce [Press release].

29. Vives, X. (2019). Digital disruption in banking. Annual Review of Financial Economics, 11, 243–272.

30. Yangiboyev, R. B. (2026). O‘zbekiston tijorat banklarida aktivlar va passivlarni boshqarish asosida likvidlilikni ta’minlashni takomillashtirish. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 6(7), 97–116.

31. Ziyodullayev, S. M. (2026). Tijorat banklari likvidligini boshqarishning amaliy asoslari. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 6(8), 27–32.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA SUKUK BOZORINI SHAKLLANISHIDA MALAYZIYA TAJRIBASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Alikulov Azamat Tuygunovich



Axborot texnologiyalari va menejment universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, DSc, dotsent
ORCID: 0000-0001-7717-3274
E-mail: azamat1441@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda sukuk bozorini shakllantirishning huquqiy va iqtisodiy jihatlari Malayziya tajribasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar, Malayziya Qimmatli qog‘ozlar komissiyasining hujjatlari hamda O‘zbekiston kapital bozoriga oid rasmiy materiallar o‘rganilgan. Taqqoslash va hujjatlar tahlili yordamida aktivlarni ajratish, shariat ekspertizasini tashkil etish, investorlar manfaatlarini himoya qilish va soliq neytralligini ta’minlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Tahlillar asosida mazkur yo‘nalishlarni bozor infratuzilmasi va chakana investorlar ishtiroki bilan bog‘laydigan milliy model taklif etilgan. Shuningdek, shartli hisoblar orqali aholi ishtirokining mablag‘ jalb qilish hajmiga va pul oqimlari pasayishining davriy to‘lovlarga ta’siri ko‘rsatilgan. Maqola yakunida pilot (dastlabki) emissiyalarni tashkil etish, kichik investorlar uchun qulay sharoit yaratish hamda yashil loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sukuk; kapital bozori; Malayziya tajribasi; aktivlarni ajratish; shariat boshqaruvi; soliq neytralligi; moliyaviy inklyuziya; yashil moliya.*

ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА СУКУК В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ НА ОСНОВЕ ОПЫТА МАЛАЙЗИИ

Аликулов Азамат Туйгунович

Университет информационных технологий и менеджмента
Заведующий кафедрой «Экономика», DSc, доцент
E-mail: azamat1441@mail.ru
ORCID: 0000-0001-7717-3274

Аннотация. *В данной статье анализируются правовые и экономические аспекты формирования рынка сукук в Узбекистане на основе опыта Малайзии. В исследовании изучены научная литература, документы Комиссии по ценным бумагам Малайзии и официальные материалы, касающиеся рынка капитала Узбекистана. Посредством сравнительного анализа и анализа документов рассмотрены вопросы обособления активов, организации шариатской экспертизы, защиты интересов инвесторов и обеспечения налоговой нейтральности. На основе результатов предложена национальная модель, связывающая данные механизмы с рыночной инфраструктурой и участием розничных инвесторов. Условные расчёты показывают влияние участия населения на объём привлечённых средств и снижения денежных потоков на периодические выплаты. В заключение разработаны практические рекомендации по организации пилотных выпусков, расширению доступа небольших инвесторов и финансированию зелёных проектов. Приведённые расчёты представляют сценарии, а не оценку фактического спроса.*

Ключевые слова: *сукук; рынок капитала; опыт Малайзии; обособление активов;*

шариатское управление; налоговая нейтральность; финансовая инклюзия; зелёные финансы.

DEVELOPING A SUKUK MARKET IN UZBEKISTAN: LEGAL AND ECONOMIC MECHANISMS DRAWING ON MALAYSIA’S EXPERIENCE

Alikulov Azamat Tuygunovich

University of Information Technologies and Management
Head of the Department of Economics, DSc, Associate Professor
E-mail: azamat1441@mail.ru
ORCID: 0000-0001-7717-3274

Abstract. *This article analyzes the legal and economic aspects of developing a sukuk market in Uzbekistan drawing on Malaysia’s experience. The study examines academic literature, documents issued by the Securities Commission Malaysia and official materials concerning Uzbekistan’s capital market. Comparative analysis and document analysis are used to consider asset segregation, Shariah review, investor protection and tax neutrality. The findings provide a basis for a national model linking these mechanisms with market infrastructure and retail investor participation. Illustrative calculations also demonstrate how participation affects the amount of funds raised and how declining cash flows affect periodic payments. The article concludes with practical recommendations for organizing pilot issuances, improving access for small investors and financing green projects. The calculations are hypothetical scenarios rather than estimates of observed demand.*

Keywords: *sukuk; capital market; Malaysian experience; asset segregation; Shariah governance; tax neutrality; financial inclusion; green finance.*

Kirish

O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish korxonalar uchun moliyalashtirish manbalarini ko‘paytirish va aholining bo‘sh pul mablag‘larini iqtisodiyotga jalb qilish bilan bog‘liq. Bu jarayonda investorlar tanlovini kengaytiradigan moliyaviy vositalarga ehtiyoj ortadi. Sukuk ana shunday vositalardan biri bo‘lib, shariat talablariga muvofiq investitsiya qilishni istagan fuqarolar hamda xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratishi mumkin.

Sukukning xususiyati shundaki, investorning huquqi tanlangan tuzilmaga qarab aktiv, undan foydalanish yoki investitsiya faoliyatidagi ulush bilan bog‘lanadi. Shuning uchun uni muomalaga chiqarishda daromad miqdori bilan bir qatorda mulkiy huquqlar, to‘lovlar manbai va tavakkalchiliklar ham aniq belgilanishi lozim. Aynan shu masalalar investorning bozorga ishonchini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi [1].

Mamlakatimizda sukukni joriy etish bo‘yicha tashkiliy va huquqiy tayyorgarlik olib borilmoqda. Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2026-yil 13-avgustdagi xabarida ushbu instrumentning chiqarilishi, muomalasi va so‘ndirilishini qamrab oladigan yaxlit mexanizm zarurligi ko‘rsatilgan [5]. Agentlikning 5-oktabrdagi ma’lumotiga ko‘ra, “Kapital bozori to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilinib, ikkinchi o‘qishga tayyorlanayotgan edi [4]. Bu holat sukuk bozorining huquqiy asoslarini ishlab chiqish masalasini yanada dolzarb qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Malayziya tajribasini o‘rganish asosida O‘zbekistonda sukuk bozorini shakllantirishga doir takliflar ishlab chiqishdan iborat. Bunda asosiy e’tibor hozirgi moliya bozorida qatnashmayotgan aholi jamg‘armalarini jalb qilish, investorlar manfaatlarini himoya qilish va emissiyaning iqtisodiy shartlarini aniqlashga qaratildi. Malayziya tajribasi ushbu vazifalarni alohida emas, o‘zaro bog‘liq holda hal etish jihatidan ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mohamed Khudari va Noriza Mohd Saad tadqiqotlarida 2000–2015-yillardagi sukuk emissiyalari taqqoslanib, Malayziyaning rivojlanayotgan bozorlar orasidagi o‘rni o‘rganilgan [3]. Ushbu tadqiqot sukukning davlat va korporativ moliyalashtirishdagi ahamiyatini yoritadi. Undagi tarixiy ko‘rsatkichlar esa muayyan davrga tegishli bo‘lib, bugungi bozor holatini bevosita ifodalamaydi.

Ziarmal Abdullah va Muchtim Humaidi ilmiy ishlarida Malayziya hamda BAA sukuk bozorlarining huquqiy va tartibga solish jihatlari tahlil qilingan. Mualliflar standartlashtirish, emissiya xarajatlari va defoltdan keyingi munosabatlarning investorlar uchun ahamiyatini ko‘rsatib bergan [1]. Bu xulosalar milliy bozorda investorning huquqlari oldindan belgilanishi zarurligini asoslaydi.

Olim Astanakulov va Muxabbatxon Berdaliyeva Malayziyada islom moliyasi banklar, takaful, kapital bozori va shariat boshqaruvi bilan birgalikda rivojlanganini yoritadi [2]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, sukuk emissiyasini tashkil etishda uni qo‘llab-quvvatlovchi institutlar va xizmatlarni ham rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz.

Malayziya Qimmatli qog‘ozlar komissiyasining 2026-yil 29-iyundagi yo‘riqnomasida shartnomalar mazmuni, axborotning ochiqligi, mas’uliyat va investorlar ishtirokiga alohida e’tibor qaratilgan [8]. O‘rganilgan adabiyotlar sukuk bozorining umumiy shartlarini ochib beradi. O‘zbekiston uchun esa ushbu shartlarni milliy huquqiy muhit, aholi talabi va bozorga kirish imkoniyatlari bilan bog‘laydigan amaliy mexanizm ishlab chiqish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot hujjatlar tahlili va taqqoslash usullari asosida tayyorlandi. Hujjatlar tahlili orqali sukuk bo‘yicha ilmiy maqolalar, Malayziya Qimmatli qog‘ozlar komissiyasining rasmiy materiallari, PF–254-son Farmon hamda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi xabarlari o‘rganildi. Tahlil uchun 10 ta manba tanlanib, ma’lumotlar 2026-yil 19-oktabr holatiga ko‘ra umumlashtirildi.

Taqqoslash usuli yordamida Malayziya tajribasidagi aktivlarni ajratish, shariat ekspertizasi, investorlar himoyasi va chakana ishtirok masalalari O‘zbekiston uchun taklif etilayotgan mexanizmlar bilan solishtirildi. Bunda xorijiy amaliyotni qo‘llash uchun zarur shartlar va milliy bozorda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ajratib ko‘rsatildi.

Shuningdek, hisoblash usuli yordamida investorlar ishtiroki va davriy to‘lovlarni qoplash bo‘yicha shartli ssenariylar tuzildi. Hisoblarda ishlatilgan qiymatlar amaliy kuzatuvdan olinmagan; ular bog‘lanishlarni tushuntirish uchun qabul qilingan farazlardir. Tadqiqotda aholi o‘rtasida so‘rov yoki real emissiyalar bo‘yicha ekonometrik tahlil o‘tkazilmadi. Shu sababli ssenariy natijalari talab prognozi sifatida talqin qilinmaydi.

Manbalarni o‘rganishda ulardagi ma’lumotlarning talqini ham tekshirildi. Xususan, [3] tadqiqotning III jadvalidagi Levene testi natijasi bilan matndagi izoh o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud. Shu bois ushbu ishning statistik xulosalari qo‘shimcha tekshiruvsiz qabul qilinmadi. Ushbu yondashuv hujjatlashtirilgan dalillarni muallif takliflari va shartli hisoblar bilan aralashtirmaslikka xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

O‘rganilgan manbalar asosida sukuk bozorini shakllantirishga ta’sir etuvchi bir necha yo‘nalishlarni ajratdik. Ular aktivlarning huquqiy maqomi, shariat nazorati, investorlar himoyasi, soliq shartlari va bozor infratuzilmasi bilan bog‘liq. Ushbu yo‘nalishlarning birortasi yetarlicha ishlab chiqilmasa, emissiyaning qolgan bosqichlarida ham qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin.

Malayziya tajribasida bank sohasi va kapital bozori bo‘yicha shariat boshqaruvini farqlash muhimdir. Kapital bozori masalalari bo‘yicha SC huzuridagi Shariah Advisory Council 1996-yil 16-mayda tashkil etilgan [9]. Demak, O‘zbekiston uchun ham ekspertiza organining vakolati, xulosalarining qo‘llanish doirasi va javobgarligini aniq belgilash zarur. 1-jadvalda ushbu tajribadan kelib chiqadigan asosiy takliflar keltirilgan.

1-jadval.

Malayziya tajribasi asosida O‘zbekiston sukuk bozori uchun taklif etilayotgan mexanizmlar*

Yo‘nalish	Taklif etilayotgan mexanizm	Amaliy vazifasi
Aktivlarni ajratish	SPV va aktivga bo‘lgan huquqni alohida hisobga olish	Investor talabining huquqiy asosini aniqlash
Shariat ekspertizasi	Dastlabki xulosa va davriy tekshiruv	Muvofiqlikni emissiya davomida kuzatish
Investorlar himoyasi	Mustaqil vakil va defolt tartibini belgilash	Jamoaviy manfaatlarni himoya qilish
Soliq neytralligi	Teng bitimlarning jami soliq yukini taqqoslash	Qo‘shimcha soliq to‘siqlarini aniqlash
Bozor infratuzilmasi	Depozitar hisob, hisob-kitob va savdo axboroti	Huquqlar va to‘lovlarni kuzatish
Chakana ishtirok	Kichik lot, sodda axborot va onlayn ro’yxatdan o’tish	Aholining bozorga kirishini yengillashtirish

**Manba: [1], [2], [8] va [10] asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan takliflar.*

Jadvaldagi mexanizmlar investor ishonchini bir necha jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Aktivga bo‘lgan huquqning aniqligi investor nimaga egalik qilayotganini tushuntiradi. Shariat ekspertizasi mahsulotning tegishli talablarga muvofiqligini baholaydi. Mustaqil vakil esa investorlarning umumiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur vazifalar amaldagi qonunchilik va emissiya shartnomalari bilan ta’minlanishi lozim.

Aktivlarni ajratish va investorlar manfaatlarini himoya qilish uchun Sukukni tashkil etishda maxsus maqsadli kompaniya — SPV (Special Purpose Vehicle) — tuzish mumkin. Biroq kompaniyani ro‘yxatdan o‘tkazishning o‘zi aktivlarni originatorning bankrotligidan himoya qilmaydi. Aktivning o‘tkazilishi, uning alohida hisobga olinishi va nizoli holatda investorning talabi qanday bajarilishi shartnomada ko‘rsatilishi kerak.

Bu masalaning amaliy ahamiyati shundaki, ayrim tuzilmalarda investorning talabi asosan originatorning to‘lov qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqa tuzilmalarda esa aktivlar haqiqatan ajratiladi va investorning ularga nisbatan huquqi alohida ta’minlanadi. Mazkur farq axborot hujjatlarida ochiq bayon qilinishi lozim. Investor aktiv mavjudligini uning asosiy mablag‘i har qanday sharoitda qaytarilishi bilan tenglashtirmasligi kerak [1].

Fikrimizcha, dastlabki pilot uchun mavjud va daromad oqimi kuzatiladigan aktivga asoslangan ijara sukukini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda ijara haqining manbai, mulkdorlik xarajatlari, aktivning yaroqsiz bo‘lib qolishi va muddat oxiridagi hisob-kitob tartibi oldindan belgilanadi. Davlat aktividan foydalanilsa, uni o‘tkazish vakolati hamda qonuniy cheklovlar alohida huquqiy ekspertizadan o‘tkazilishi zarur.

Investorlar vakilining vazifasi ham aniq bo‘lishi kerak. U to‘lovlar bajarilishini kuzatish, emitentdan ma’lumot olish va zarur holatda investorlar nomidan talab qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Shartnomaviy defolt, to‘lovga qobiliyatsizlik va shariatga nomuvofiqlik turli holatlar bo‘lgani sababli har biri uchun tegishli choralar belgilanadi.

Shariat ekspertizasi va soliq shartlarini takomillashtirish uchun shariat ekspertizasini faqat emissiyadan oldingi xulosa bilan cheklash yetarli bo‘lmaydi. Mablag‘lardan foydalanish, shartnomalar ijrosi va aktivlar tarkibidagi o‘zgarishlar emissiya davomida ham kuzatib borilishi kerak. Maslahatchini tanlash, uning xizmat haqi va manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish tartibi baholashga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

QQK (Securities Commission Malaysia)ning 2026-yilgi yo‘riqnomasida ham shaffoflik, hisobdorlik va mas’uliyatga e’tibor qaratilgan. Hujjatning 1.11–1.12-bandlarida ushbu yo‘riqnoma tegishli qonunlar bilan birga qo‘llanishi va unga moslashish barcha regulyator talablariga

avtomatik muvofiqlikni anglatmasligi ko‘rsatilgan [8]. Milliy modelda ham shariat ekspertizasi huquqiy nazorat va moliyaviy tahlil bilan birgalikda olib borilishi lozim.

Soliq masalasida iqtisodiy jihatdan teng moliyalashtirish shakllari o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish zarur. Aktivning SPVga o‘tkazilishi va qaytarilishi, daromadning tan olinishi hamda ro‘yxatga olish yig‘imlari emissiya xarajatiga ta’sir qilishi mumkin. Qo‘shimcha yuk aniqlansa, uni bartaraf etuvchi maqsadli norma ishlab chiqish taklif etiladi. Bu taklif sukukni barcha soliqlardan ozod qilishni anglatmaydi; maqsad iqtisodiy jihatdan teng bitimlarga teng sharoit yaratishdir.

Mazkur yo‘nalish kapital bozoriga yangi vositalarni kiritish siyosati bilan ham bog‘liq. PF–254-son Farmon investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishning umumiy yo‘nalishini belgilaydi [6]. Sukuk uchun esa aktivlar, soliqlar va investor talablari bo‘yicha maxsus qoidalar o‘zaro muvofiqlashtirilishi kerak. Ushbu tadqiqot amaldagi soliqlarning takroran undirilishini modda darajasida tasdiqlamaydi; taklif etilgan yechim tranzaksiya bo‘yicha huquqiy va soliq tahlilidan so‘ng aniqlashtiriladi.

Malayziyada chakana obligatsiyalar va sukuk doirasi aholining birja hamda tayinlangan banklar orqali bevosita investitsiya qilishini nazarda tutadi [10]. Mazkur tajriba O‘zbekiston uchun kichik investorlarning kirish shartlarini soddalashtirish jihatidan ahamiyatlidir. Kichik lot, qulay obuna va sodda axborot hujjati mahsulotdan foydalanishni yengillashtirishi mumkin.

Shu bilan birga, aholining qiziqishi bilan amaliy investitsiya o‘rtasida farq mavjud. Fuqaro sukuk haqida ma’lumot olishi yoki unga qiziqish bildirishi mumkin, ammo bu hali mablag‘ kiritilganini anglatmaydi. Shu sababli dastlab talabni so‘rov orqali o‘rganish, keyin esa pilot obuna (sukukni dastlab cheklangan miqyosda joylashtirishda investorlarning uni sotib olish uchun ariza berishi va mablag‘ kiritishi)da to‘langan mablag‘lar va investorlar tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Yangi investorlar soni bilan iqtisodiyotga kirgan yangi jamg‘armani ham ajratish lozim. Masalan, birinchi marta sukuk sotib olgan shaxs mablag‘ni mavjud bank omonatidan olishi mumkin. Shuning uchun pilot natijalarida investorlar sonidan tashqari mablag‘larning manbai ham o‘rganiladi. Bu yondashuv sukukning moliyaviy inklyuziya va resurslar jalb qilishdagi natijasini aniqroq baholashga yordam beradi.

Pul oqimlari va yashil loyihalarni moliyalashtirishda investor uchun daromad to‘lovining manbai tushunarli bo‘lishi kerak. Davriy to‘lovlarni baholashda K qoplash koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Unda CF — operatsion xarajatlar va soliqlardan keyin to‘lovga yo‘naltiriladigan yillik pul oqimi, D — shu davrdagi rejalashtirilgan daromad to‘lovi:

$$K = \frac{CF}{D} \quad (2)$$

Shartli misolda CF = 18 mlrd so‘m, D = 12 mlrd so‘m bo‘lsa, koeffitsiyent 1,50 ni tashkil etadi. Pul oqimi 20 foizga kamaysa, D o‘zgarmagan holda koeffitsiyent 1,20 ga tushadi. Pasayish 35 foizga yetsa, u 0,975 bo‘lib, davriy to‘lov uchun 0,3 mlrd so‘m yetishmaydi. Demak, emissiya shartlari pul oqimlari yomonlashadigan holatni ham hisobga olishi lozim. Bu hisob asosiy summani qaytarishni qamrab olmaydi, so‘ndirish manbai alohida baholanadi.

Sukukning yana bir yo‘nalishi yashil loyihalarni moliyalashtirish bilan bog‘liq. Malayziyada 2014-yilda joriy etilgan SRI (Sustainable and Responsible Investment) sukuk doirasi mablag‘lardan foydalanish, loyihalarni tanlash, mustaqil baholash va hisobot talablarini qamrab oladi [7]. O‘zbekistonda ham ekologik natijasi o‘lchanadigan loyihalar uchun ushbu yondashuvni qo‘llash imkoniyatini o‘rganish mumkin.

Yashil sukukda mablag‘lar alohida hisobda kuzatilishi va loyiha natijalari oldindan belgilangan ko‘rsatkichlar orqali baholanishi lozim. Masalan, toza elektr energiyasi ishlab chiqarish, suvni tejash yoki hisoblangan emissiya qisqarishi shunday ko‘rsatkich bo‘lishi mumkin.

Hisoblash usuli va taqqoslash bazasi ochiq beriladi. Shariatga muvofiqlik bilan ekologik natija turli baholash yo‘nalishlari bo‘lgani uchun har biri bo‘yicha alohida xulosa talab etiladi.

Muhokama

Yuqoridagi tahlillar sukuk bozorini rivojlantirishda huquqiy va iqtisodiy masalalarni birgalikda hal etish zarurligini ko‘rsatadi. Aktiv huquqlari aniq bo‘lmasa, investorning manfaatini himoya qilish qiyinlashadi. Emissiya xarajatlari yuqori bo‘lsa, instrument korxona uchun jozibador bo‘lmasligi mumkin. Ikkilamchi savdo cheklansa, investorning mablag‘ini muddatidan oldin qaytarib olish imkoniyati kamayadi. 3-jadvalda shunday muammolar va ularga mos yechimlar umumlashtirilgan.

2-jadval.

Sukuk bozorini shakllantirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularning yechimlari*

Muammo	Kutiladigan oqibat	Yechim yo‘llari
Huquqlarning noaniqligi	Undiruv va aktivga egalik yuzasidan nizo	Huquqiy xulosa va aniq shartnomalar
Emissiya xarajatlari	Kichik chiqarilishlarning qimmatlashishi	Standart hujjatlar va takroriy dastur
Savdoning cheklanishi	Investorning muddatidan oldin chiqishi qiyinlashishi	Kotirovkalar va savdo shartlarini oshkor qilish
Axborot yetishmasligi	Riskni noto‘g‘ri baholash	Sodda axborot varag‘i va tushuntirish ishlari
Yashil da’voning tekshirilmasligi	Loyiha natijalariga ishonch pasayishi	Maqsadli hisob va mustaqil baholash

**Manba: o‘rganilgan adabiyotlar va taklif etilayotgan milliy model asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Huquqiy noaniqlikni kamaytirish uchun aktivlar va investor talablari bo‘yicha mustaqil xulosa tayyorlanishi muhimdir. Bu ish emissiyadan oldin bajarilsa, keyinchalik yuzaga keladigan nizolarning ayrimlarini oldini olish mumkin. Bunda boshqa mamlakatda qo‘llanilgan shartnomani to‘liq ko‘chirish o‘rniga uning milliy huquqqa muvofiqligi tekshirilishi maqsadga muvofiq.

Xarajatlarni kamaytirishda standart hujjatlar va takroriy emissiya dasturlari foydali bo‘lishi mumkin. Biroq kichik hajmdagi sukuk uchun SPV, baholash, maslahat va audit xarajatlari alohida hisoblanishi lozim. Shundan keyingina sukukni boshqa moliyalashtirish shakli bilan taqqoslash mumkin. Instrumentning diniy yoki ijtimoiy jozibasi iqtisodiy samaradorlik tahlilini almashtirmaydi.

Likvidlik masalasida esa listing bilan real savdo imkoniyatini farqlash kerak. Investor kotirovkalar, oldi-sotdi narxlari farqi va chiqish xarajati haqida ma’lumot olishi lozim. Market-meyker jalb etilsa, uning majburiyati va tegishli operatsiyalarning shariatga muvofiqligi ham baholanadi. Ayrim qarz talablariga asoslangan tuzilmalarda savdo cheklovlari bo‘lishi mumkinligi sababli barcha sukuk uchun bir xil tartibni belgilash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Milliy bozor uchun bu takliflarni avval cheklangan pilotda sinash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Chunki Malayziya bozorining rivojlangan infratuzilmasi O‘zbekistonda ham bir xil natija olinishini kafolatlamaydi. Tadqiqotda aholi talabi o‘lchanmagani va barcha tegishli huquqiy normalar bo‘yicha to‘liq ekspertiza bajarilmagani modelni baholash chegarasini belgilaydi. Keyingi bosqichda xulosalarni real emissiya hamda investorlar so‘rovi bilan tekshirish lozim.

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda sukuk bozorini shakllantirish kapital bozoridagi tanlovni kengaytirish va uzoq muddatli mablag‘larni jalb qilishning qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Malayziya tajribasini o‘rganish bu jarayon aktivlarning huquqiy maqomi, shariat boshqaruvi, investorlar himoyasi va bozor infratuzilmasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tadqiqot asosida ushbu

yo‘nalishlarni chakana ishtirok va soliq neytralligi bilan birlashtiruvchi model taklif etildi.

Birinchidan, aktiv yoki undan foydalanish huquqining ajratilishi, SPVning maqomi, investorlar vakilining vakolati va defolt tartibi o‘zaro muvofiqlashtirilishi zarur. Bunda investor talabi kimga va qaysi aktiv yoki majburiyatga nisbatan qo‘yilishi aniq ko‘rsatilishi kerak.

Ikkinchidan, shariat ekspertizasini emissiyadan oldingi baholash va keyingi davriy nazorat asosida tashkil etish lozim. Soliq shartlari esa iqtisodiy jihatdan teng moliyalashtirish shakllarining jami yukini taqqoslash orqali ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, dastlabki pilotni mavjud daromad keltiruvchi aktiv asosida tashkil etish, aholi uchun kichik lotlar va tushunarli axborot hujjatlarini joriy qilish taklif etiladi. Natijalarni baholashda investorlar soni, mablag‘larning manbai, emissiya xarajatlari, to‘lov intizomi va ikkilamchi savdo sharoitlari hisobga olinishi kerak.

To‘rtinchidan, yashil sukuk emissiyalarida mablag‘larning maqsadli ishlatilishi va ekologik natijalar mustaqil baholanishi lozim. Ushbu vazifalar izchil amalga oshirilsa, sukuk yangi investorlar qatlamini shakllantirish va loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Uning amaliy samarasi esa pilot natijalari va keyingi tadqiqotlar asosida aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullah, Z., & Humaidi, M. (2025). Advancing sukuk markets: Legal frameworks, regulatory developments, and default challenges in Malaysia and the United Arab Emirates. Etihad: Journal of Islamic Banking and Finance, 5(1), 45–57. https://doi.org/10.21154/etihad.v5i1.10913

2. Astanakulov, O. T., & Berdaliyeva, M. Z. (2026). Malayziyada islom moliyasi ekotizimi evolyutsiyasi. Nashrlar, 5(3), 416–420. https://doi.org/10.60078/2026-vol5-iss3-pp416-420

3. Khudari, M., & Saad, N. M. (2019). Sukuk issuance in the emerging markets—A relative evaluation. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 3571–3574. https://doi.org/10.35940/ijeat.A2689.109119

4. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. (2026a, 5-oktabr). “Kapital bozori to‘g‘risida”gi Qonun loyihasiga bag‘ishlangan xalqaro davra suhbati. https://napp.uz/oz/news/kapital-bozori-to-g-risida-gi-qonun-loyihasiga-bag-ishlangan-xalqaro-davra-suhbati

5. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. (2026b, 13-avgust). O‘zbekistonda sukuk qimmatli qog‘ozlarini joriy etish istiqbollari muhokama qilindi. https://napp.uz/oz/news/o-zbekistonda-sukuk-qimmatli-qog-ozlarini-joriy-etish-istiqbollari-muhokama-qilindi

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, 18-dekabr). Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PF–254-son Farmon). LexUZ. https://lex.uz/docs/-7932083

7. Securities Commission Malaysia. (2014, August 28). SC introduces sustainable and responsible investment sukuk framework. https://www.sc.com.my/resources/media/media-release/sc-introduces-sustainable-and-responsible-investment-sukuk-framework

8. Securities Commission Malaysia. (2026a, June 29). Guidance note on sukuk: An alignment with Maqasid Al-Shariah Guidance Islamic Capital Market Malaysia (SC-GN/1-2026). https://www.sc.com.my/api/documentms/download.ashx?id=0a9d628e-c2c8-45d2-adac-424b5b517346

9. Securities Commission Malaysia. (2026b, July 1). SC announces new Shariah Advisory Council. https://www.sc.com.my/resources/media/media-release/sc-announces-new-shariah-advisory-council

10. Securities Commission Malaysia. (n.d.). Retail bonds and sukuk market in Malaysia. Retrieved October 19, 2026, from https://www.sc.com.my/investor-empowerment/useful-links/retail-bonds-and-sukuk-market-in-malaysia

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

HARBIY XIZMATCHILARNI MODDIY RAG‘BATLANTIRISHNING XIZMAT SAMARADORLIGI VA KADRLAR BARQARORLIGIGA TA’SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH



Madaminov G‘ayrat Madiyarovich
O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi moddiy ta’minot sikli boshlig‘i dotsent, podpolkovnik
E-mail: gayratmadaminov300@gmail.com
ORCID: 0009-0008-5391-4259

Annotatsiya. *Maqolada harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishning xizmat samaradorligi va kadrlar barqarorligiga ta’sirini baholash metodikasi taklif etiladi. Panel regressiya, logistik model va “farqlarning farqi” yondashuvi asoslanadi. Ko‘rsatkichlar tizimi, identifikatsiya shartlari va budjet samaradorligini hisoblash tartibi yoritiladi. Shartli misol usulni namoyish qiladi, haqiqiy empirik natijani emas.*

Kalit so‘zlar: *moddiy rag‘batlantirish, harbiy xizmatchilar, xizmat samaradorligi, kadrlar barqarorligi, ekonometrik baholash, panel ma’lumotlar, logistik regressiya, farqlarning farqi, pul ta’minoti, maqsadli mukofot, budjet samaradorligi, kadrlar siyosati.*

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАТЕРИАЛЬНОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ СЛУЖЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТЬ КАДРОВ

Мадаминов Гайрат Мадиярович
университет военной безопасности и обороны Республики Узбекистан начальник цикла материального обеспечения Высшей школы подготовки сержантов, доцент, подполковник.
E-mail: gayratmadaminov300@gmail.com
ORCID: 0009-0008-5391-4259

Аннотация. *В статье предложена методика оценки влияния материального стимулирования военнослужащих на результативность службы и сохранение кадров. Обосновано применение панельной регрессии, логистической модели и метода разностей разностей. Рассмотрены показатели, допущения идентификации и оценка бюджетной эффективности. Числовые примеры являются условными и не представляют результатов фактического исследования.*

Ключевые слова: *материальное стимулирование, военнослужащие, эффективность службы, сохранение кадров, эконометрическая оценка, панельные данные, логистическая регрессия, разность разностей, денежное довольствие, целевые премии, бюджетная эффективность, кадровая политика.*

ECONOMETRIC ASSESSMENT OF THE IMPACT OF MATERIAL INCENTIVES FOR MILITARY PERSONNEL ON SERVICE PERFORMANCE AND PERSONNEL RETENTION

Madaminov Gayrat Madiyarovich
University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan

Head of the Logistics
Training Department at the Higher
School of Sergeant Training
Associate Professor, Lieutenant Colonel.
E-mail: gayratmadaminov300@gmail.com
ORCID: 0009-0008-5391-4259

Abstract. *The article proposes a framework for assessing how financial incentives affect military service performance and personnel retention. It integrates panel regression, logistic models, and difference-in-differences estimation. Key indicators, identification assumptions, and budget efficiency measures are examined. Numerical examples are hypothetical, not actual empirical findings.*

Keywords: *financial incentives, military personnel, service performance, personnel retention, econometric evaluation, panel data, logistic regression, difference-in-differences, military pay, targeted bonuses, fiscal efficiency, personnel policy.*

Kirish

Harbiy tashkilotning barqaror faoliyati kadrlar salohiyati, xizmat intizomi va resurslardan oqilona foydalanishga bog‘liq. Moddiy rag‘batlantirish ushbu omillarga ta’sir qiluvchi iqtisodiy vosita bo‘lsa-da, to‘lovlarni oshirish o‘z-o‘zidan xizmat samaradorligi yoki kadrlar barqarorligini ta’minlamaydi. Muhimi — rag‘bat turi, uni oluvchi guruh va natija o‘rtasidagi munosabatni aniqlash. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi PQ–4447-son qarori bilan tasdiqlangan nizom harbiy xizmat va kontrakt munosabatlarining huquqiy asoslarini belgilaydi [1]. Tadqiqot maqsadi — moddiy to‘lovlarning xizmat natijasi hamda kontraktni uzaytirish ehtimoli bilan bog‘liqligini baholash, sababiy ta’sirni ajratish usulini asoslash.

Pul ta’minoti harbiy xizmatchi uchun joriy daromad va xizmatni davom ettirishdan kutiladigan manfaatdir. Biroq yuqori to‘lov va yuqori xizmat bahosining birga kuzatilishi sababiy ta’sirni isbotlamaydi: ularga malaka, staj, xizmat sharoiti va boshqaruv sifati ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois korrelyatsiyani islohotning sof samarasidan farqlash zarur.

Tadqiqot vazifalari: to‘lov tarkibini ajratish; xizmat samaradorligi indikatorini shakllantirish; kadrlarning xizmatda qolish qaroriga ta’sir etuvchi omillarni nazorat qilish; rag‘bat dasturining qo‘shimcha natijasi va budjet xarajatini taqqoslash. Ilmiy hissa — mazkur ikki natijani yagona panel axborot bazasida baholash algoritmini taklif etish.

Adabiyotlar sharhi

G. Baker natija mezonlari tashkilot maqsadlarini to‘liq aks ettirmasa, mukofotlash tizimi nomaqbul harakatlarni ham rag‘batlantirishi mumkinligini asoslagan [2]. Demak, harbiy xizmat samaradorligini bir emas, o‘zaro to‘ldiruvchi ob’ektiv mezonlar bilan o‘lchash zarur.

C. Brown kasbiy mahorati yuqori xizmatchilarning shartnomani uzaytirishga moyilligi kuchliroq ekanini ko‘rsatgan [3]. B. Gray va J. Grefer harbiy shifokorlarning xizmatda qolish qarori harbiy va fuqarolik sektorlaridagi daromad farqiga, ayniqsa xizmatning muayyan bosqichlarida, sezgirligini aniqlagan [4].

J. Smith va J. West pensiya shartlari xizmatni davom ettirishga ta’sirini tabiiy eksperimentda o‘rgangan [5]. M. Borgschulte va P. Martorell fuqarolik mehnat bozoridagi ishsizlik xavfining ta’sirini baholagan [6]. K. Greenberg va hammualliflar qayta kontrakt tuzishni bonus va xavf omillari bilan bog‘lagan [7]. Bu omillar modelda nazorat o‘zgaruvchilari bo‘lishi lozim.

B. Asch harbiy kompensatsiya tizimida resurs samaradorligi va kadrlar siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlikni umumlashtirgan [8]. Mazkur tadqiqotda ushbu nazariy yondashuvlar xizmat natijasi va kadrlar barqarorligini birgalikda baholashga tatbiq etiladi.

G. Imbens va J. Wooldridge kuzatuv ma’lumotlarida sababiy xulosa chiqarish uchun tanlash mexanizmi va muqobil natijani hisobga olish zarurligini ko‘rsatgan [10]. B. Callaway va P. Sant’Anna rag‘bat dasturi guruhlarga turli davrda joriy etilganda ko‘p davrli «farqlarning farqi»

(DiD) usulining afzalligini asoslagan [11].

Adabiyotlardan kelib chiqadiki, to‘lovning miqdori bilan birga uning adolatliligi, oldindan ma’lumligi va natijaga bog‘liqligi muhim; xizmatda qolish esa staj, muqobil ish haqi, pensiya istiqboli va xizmat xavfiga ham bog‘liq. Shuning uchun o‘rtacha ta’sir bilan cheklanmasdan, guruhlar bo‘yicha farqlar ham baholanadi.

